



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TALIM VAZIRLIGI



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

FILOLOGIYA MASALALARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA



yosh tilshunos va
adabiyotshunoslarning respublika

1

ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

25-26 NOYABR 2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

*“Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy
ruhi va o‘zligining, mudaniy-ma‘rifiy olami,
milliy g‘oyasining asosi hisoblanadi”*
(I. Karimov)

“FILOLOGIYA MASALALARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA”

**YOSH TILSHUNOS VA ADABIYOTSHUNOSLARNING RESPUBLIKA
I ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI**

TOSHKENT-2016



Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan tashkil etilgan **"FILOLOGIYA MASALALARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA"** mavzusidagi yosh tilshunos va adabiyotshunoslarning respublika 1-ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To'plam materiallaridan filolog mutaxassislar, til va adabiyot o'qituvchilari, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, soha bilan qiziqqan barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldir)

TAHRIR HAY'ATI:

- Sh. Sirojiddinov - f.f.d., professor, ToshDO'TAU rektori
N. Mahmudov - f.f.d., professor, ToshDO'TAU ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (mas'ul muharrir)
B. Mengliyev - f.f.d., professor
I. Azimov - f.f.d.
Sh. Usmonova - f.f.d.
Z. Xolmonova - f.f.d., professor
U. Jo'raqulov - f.f.n.

TAQRIZCHILAR:

- D. Lutfullayeva - f.f.d., professor
M. Hakimova - f.f.n.

TASHKILY QO'MITA A'ZOLARI:

- N. Alimova - ToshDO'TAU Ilmiy bo'lim boshlig'i
B. Mirzayeva - Ilmiy bo'lim muhandisi
R. Norqulov - "Kamolot" YIH ToshDO'TAU BT yetakchisi
M. Do'stmurodov - Respublika "Yosh filologlar jamiyati" MK raisi

To'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2016-yil 27-oktabrdagi 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

YOSH FILOLOG OLIMLAR AVLADI SHAKLLANTIRILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi tarixiy Farmoni ona tilimizning xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari, o‘zbek tili va adabiyotining rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarni tadqiq etishga keng imkoniyatlar yaratdi.

Universitet zimmasiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri – filolog olimlarning zamonaviy fikrlovchi, sohaning xalqaro miqyosdagi rivojlanish yo‘nalishlari va tendensiyalaridan yaxshi xabardor, bir necha xorij tillarini puxta egallagan yangi avlodini tarbiyalashdir. Bu esa o‘z-o‘zidan, iqtidorli talabalarni izlab topish, ularni rag‘batlantirish, keng ilm maydoniga tushish uchun yetarlicha sharoitlar yaratish va bu yo‘lda rahnamolik qilishni talab qiladi.

E‘tiboringizga taqdim etilayotgan ushbu anjuman materiallari Prezidentimizning vasiyatiga aylangan iqtidorli olimlarning yangi avlodini yetishtirish zarurati haqidagi universitet zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosi yo‘lidagi yana bir qutlug‘ qadamdir.

Quvonarlisi shundaki, ilmiy anjumanning ishtirokchilari, asosan, respublika oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan 1-2-bosqich talabalaridir. Konferensiyaga 140 dan ziyod maqolalar taqdim qilingan bo‘lib, ular o‘zbek, rus va ingliz tillarida yozilgan.

Biz anjuman an‘anaviy bo‘lib qolishi va mamlakatimizning barcha oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lg‘usi filolog olimlarga ilm olamiga kirish uchun o‘ziga xos bosqich vazifasini o‘tashiga ishonchimiz komil.

O‘ylaymizki, fanimizning ertangi egalari bo‘lgan yosh olimlarimiz kelajakda ulkan tadqiqotlar yaratib, tilimiz va adabiyotimizning dunyo miqyosida nufuzi oshishiga hissa qo‘shadilar. Biz bu yo‘lda ularga shijoat, kuch-g‘ayrat tilaymiz.

**Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor**



TILSHUNOSLIK MASALALARI

ЎЗБЕК БОЛАЛАР НУТҚИДА ЛИНГВИСТИК ПРЕСУППОЗИЦИЯНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

М. Курбанова, ф.ф.н., доцент (ТошДУТАУ)

Нутқ бирликларининг лингвопрагматик талқинида пресуппозицион ёндашув муҳим ўрин тутди. Пресуппозиция муаммосини гап семантикасининг тадқиқи билан боғлиқ ҳолда юзага келган дейиш мумкин. Гапда яширин ифодаланган ахборот кўринишларини аниқлаш жараёнида пресуппозиция ҳодисасига дуч келинди ва бу муаммо дастлаб семантик-синтактик аспектда амалга оширилган ишларда илмий-назарий жиҳатдан тавсифланди.

Лингвистик пресуппозиция манбаларда *пресуппозиция* [1, 85], *презумпция* [2], *тағбилим* [3, 30-34] каби терминлар билан номланди. Мазкур лингвистик ҳодисага “ҳукмнинг табиий асоси” [4, 40-46], “сўзловчиларнинг умумий билиш фонди, уларнинг олдиндан келишуви” [1, 85], тарзидаги тавсифлар берилди.

Ўзбек тилшунослигида XX асрнинг 80-йилларига келиб лингвистик пресуппозицияни ўрганишга эътибор қаратилди [5, 28-31; 6, 42-45]. Ўтган асрнинг 90-йилларидан бошлаб бу муаммони ўрганишга қаратилган махсус тадқиқот ишлари юзага келди [7, 23; 8, 27]. Бироқ бу соҳада ўз ечимини топмаган муаммолар ҳам йўқ эмас.

Пресуппозиция ҳодисасининг моҳияти унга ишора қилувчи тил бирлигининг хусусияти билан боғлиқ. Хусусан, тилдаги лексик бирликлар лексик пресуппозицияни ҳосил қилади. Ўзбек тилидаги юкламалар пресуппозициясини монографик аспектда тадқиқ этган У.Раҳимов лингвистик пресуппозицияга ишора қилувчи бирликларни лексик, морфологик ҳамда синтактик воситаларга ажратади. У пресуппозицияга ишора қилувчи лексик воситаларга омоним, синоним, антоним сўзларни, морфологик бирликларгасўз туркумлари категорияларини, кўмакчи ва юкламаларни, синтактик воситаларга сўроқ гаплар, ўхшатишли қурилмалар ва сўз тартибини киритади [7, 9].

Назаримизда, мазкур таснифда ўзбек тилидаги пресуппозицияга ишора қилувчи барча тил бирликлари қамраб олинмаган. Масалан, айрим

лексик бирликлар луғавий маъноси асосида пресуппозицияга ишора қилса, баъзи лексик бирликлар иккиламчи вазифада қўлланиши натижасида пресуппозиция сигналига айланади. Шунингдек, айрим боғловчилар, ундов, тақлид ва модал сўзларда ҳам пресуппозицияга ишора қилиш хусусияти кузатилади.

Лингвистик пресуппозиция тил эгаларининг ёш хусусияти билан боғланганда ўзига хос томонларини намоён этади. Болалар нутқида пресуппозицияга ишора қилувчи турли-туман бирликлар қўлланади. Ўзбек болаларга хос пресуппозиция сигналларини қуйидаги турларга ажратган ҳолда ўрганиш мумкин:

1. Пресуппозицияга ишора қилувчи лексик бирликлар.
2. Пресуппозицияга ишора қилувчи морфологик бирликлар.
3. Пресуппозицияга ишора қилувчи синтактик бирликлар.

Болалар нутқида пресуппозициянинг ифодаланишида луғавий маъноси ҳамда иккиламчи вазифаси асосида муайян хатти-ҳаракатнинг юз беришига туртки бўлган ташқи омилларга ишора қилувчи лексемалар алоҳида ўрин тутади. Бундай лексик бирликлар пресуппозицияси доимо сабаб муносабатини акс эттиради. Масалан, – *Кўзларинг юмилиб кетяпти...* (Х.Тўхтабоев. “Сариқ девни миниб”) жумласида қўлланган *юмилиб кетяпти* лексемаси ҳаракат маъносини ифодалаш билан бирга, гапдан тушириб қолдирилган *уйқудан* лексемаси семантикасини юзага чиқаришни ҳам ўз зиммасига олади. Бунинг натижасида айни лексик бирлик орқали кўзнинг юмилиб кетишига туртки берган воқеликни акс эттирувчи *Ухлагинг кетяпти* пресуппозициясига йўл очилади.

Болалар ва катталар нутқида пресуппозицияга ишора қилувчи морфологик бирликларга қўшимча вазифа юклатилиши даражаси фарқланади. Жумладан, болалар нутқида белги ифодаланишига кўра умумий парадигмага бирлашувчи сифат, равиш, сифатдош туркумидаги морфологик бирликлардан нисбатан кенг фойдаланади. Бу морфологик бирликлар пресуппозиция сигнали вазифасида қўлланганда гапда акс этган пропозицияга зид характердаги пресуппозицияни ҳосил қилади. Масалан, *Йигидан кўзлари қизарган*. (Х.Тўхтабоев. “Сариқ девни миниб”).

Ушбу гапда қўлланган *қизарган* сифатдошининг *йигидан* лексемаси билан муносабати асосида кўзнинг қизаришига сабаб бўлган воқеликка ишора қилинади. Шу сабабли айни гапдан *У кўп йиғлаган* пресуппозицияси англашилади. Бундай вазиятда морфологик бирликнинг нафақат семантик табиати, балки унинг синтактик қурилмадаги бошқа бирликлар билан муносабати ҳам муҳим ўрин тутади.

Болалар нутқида “Нни қаранг” моделидаги феъл предикати кўчма маънода қўлланувчи синтактик қурилмалар орқали ҳам пресуппозициянинг ифодаланиши кузатилади. Бундай синтактик қурилмалар орқали болалар катталарни бирон-бир кимса, хусусан, тенгдошлари томонидан амалга оширилган ҳатти-ҳаракатдан хабардор қилиш мақсадини кўзлайдилар. “Нни қаранг” моделидаги синтактик қурилмалар болаларнинг айна шу мақсадини намойиш этувчи турли пресуппозицияларга ишора қилади. Масалан:

– *Ака, Зулайҳони қаранг, қизил тошларимни олиб қўйди!* (Х. Тўхтабоев. “Беш болали йигитча”).

Ушбу матнда қўлланган *Зулайҳони қаранг* синтактик қурилмаси *Зулайҳога танбех бериш, Зулайҳони уришиб қўйиш, қизил тошларимни берсин* тарзидаги пресуппозицияларга ишора қилади. Болаларнинг ўзигагина хос бўлган бундай синтактик қурилмалар матн пресуппозициясини ҳосил қилишда кенг қўлланади.

Албатта, “Нни қаранг” моделидаги синтактик қурилма орқали ифодаланган пресуппозициянинг юзага чиқишида боланинг норозилигига сабаб бўлган воқеликни акс эттирган контекст (матн)га зарурат туғилади. Бундай контекстсиз матнда пресуппозиция юзага чиқа олмайди.

Хуллас, ўзбек болалар нутқида хос лингвистик пресуппозиция тил тизимининг лексик ва грамматик сатҳида яққол намоён бўлади. Болалар ва катталар нутқи лингвистик пресуппозиция ифодачиларига қўшимча вазифа юклатилиши даражасига кўра ўзаро фарқланади. Бу борадаги ўзига хосликларни монографик аспектда тадқиқ этиш ўзбек онтолингвистикаси ва прагмалингвистикасининг долзарб вазифаларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Арутюнова Н.Д. Понятие пресуппозиции в лингвистике // Известие АН СССР. Серия лит. и яз. 1973. Т.32. Вып. – №1.
2. Падучева Е.В. О понятие презумпции в лингвистической семантике. lexicograph.ruslang.ru/TextPdf/presumption-77.pdf
3. Ҳақимов М. Тағмаёно ва тағбилим хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – № 1.
4. Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, - 1986. - №6.
5. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, - 1986. - №6.
6. Раҳимов У.Э. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Самарқанд, 1994.

7. Бурханов З.Б. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси (пресуппозицион аспект): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Тошкент, 2008.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси / Э.Бегматов ва бошқалар. - Тошкент: ЎзМЭ, 2008. 5 жилд. / III-Қ.

9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси / Э.Бегматов ва бошқалар. - Тошкент: ЎзМЭ, 2008. 1 жилд. / А-Д.

ПАРРАНДА “ЛМГ”И АСОСИДА ЯРАТИЛГАН ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИНИНГ СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Б. Жўраева, доцент (БухДУ)

А. Аминова, талаба (БухДУ)

Қуш умуртрқалиларнинг танаси пар ва патлар билан қопланган учишга лаёқатланган бир синфи, парранда¹ бўлиб, ўзбек халқ мақолларида “парранда” ЛМГининг кўчма маънолари қуйидаги йўллар билан ҳосил қилинган²:

1. Ташқи кўринишига кўра: *Товуқ танасига қараб яйрайди, оёзига қараб йиғлайди.*

2. Товушига кўра: *Турнадан қоровул қўйсанг, бошингдан қийқирув кетмас.*

3. Емишига кўра: *Подшонг қарга бўлса, емишинг гўнг бўлар.*

4. Ҳаёт кечириш тарзига кўра: *Хуроз тонгда чақирар.*

Ўзбек халқ мақолларида «парранда» ЛМГининг икки жиҳати: ижобий ва салбий характер-хусусиятни ифодалашни кўзга ташланади.

«Парранда» ЛМГи ижобий характер-хусусиятни белгилловчи омил сифатида мақолларда қуйидаги семаларни намоён қилади:

“*Ориятлилик*” семаси: **Бургут** чивин тутмас.

“*Орзу-ҳавас*” семаси: Қаноти синиқ **мусича** ҳам баланд уя орзусида.

“*Қадрлаш*” семаси: Гул қадрини **булбул** билар.

“*Ҳамжиҳатлик*” семаси: Тўзиган ғозни тўпланган **қарга** олар. Икки туйғунёприлса – ғознинг шўри.

“*Сабр-тоқат*” семаси: **Қуш** қўнмасдан учолмас.

“*Меҳрибонлик*” семаси: **Қуш** нима топса, боласининг оғзига тиқар.

“*Алоқадорлик*” семаси: **Қуш** уясида кўрганини қилади. **Қуш** тилини қуш билар.

¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 2-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981, 628-бет.

²Таснифда Ҳ.Саидованиннг “Жонивор номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланиши” рисоласидан фойдаланилди.

«Парранда» ЛМГи салбий характер-хусусиятни белгиловчи омил сифатида мақолларда қуйидаги семаларни намойи қилади:

“Адоиниш” семаси: Киши янглишиб қўлга тушар, **Қуш** янглишиб тўрга.

“Эринчоқлик” семаси: Қўлга ўрганган қуш қирда адашар.

“Шошқалоқлик” семаси: Шошган ўрдак ҳам боши билан шўнғийди, **Ҳам думи билан.**

“Бетга чопарлик”, “ҳурматсизлик” семаси: Ит кутурса эгасини қопар, **Чумчук** кутурса бургутга чопар.

“Сергаплик” семаси: Қора **товуқ** қақиллайди, Оқ **товуқ** шақиллайди.

“Омадсизлик” семаси: **Жўжанинг** иқболи бўлса, **Товуқнинг** эмчаги бўлар эди.

Ўрдак билан топишган **хўрознинг** катагини сув босар.

“Мақтанчоқлик семаси: Эшак мақтаниб тулпор бўлмас, **Қарга** мақтаниб шунқор бўлмас. Ғозга эргашаман деб **Ўрдакнинг** чоти айрилибди.

“Имконсизлик” семаси: **Товуқнинг** учгани томгача.

“Ҳаромлик” семаси: Подшонг **қарга** бўлса, еганинг гўнг бўлар.

“Ноуддабуролик” семаси: **Қарганинг** хунари бўлса, тезак емасди.

“Очқўзлик” семаси: **Қуш** ҳам ўз нафсидан илинар. **Ғознинг** ўзи чўлда, **Кўзи** – кўлда.

“Бетоқатлик” семаси: **Бедананинг** ини йўқ, **Қайга** борса “битбилдиқ”.

“Жирканиш” семаси: **Қаргани** боққан билан қуш бўлмас.

“Ҳурматсизлик” семаси: **Гўнғарга** бўлиб минг йил яшагандан, **Шер** бўлиб бир йил яшаган афзал.

“Узоқни кўра олмаслик” семаси: Кўр **товуққа** ҳар нарса дон кўринар.

“Қадрламаслик” семаси: Зимистон кўрмаган **булбул**, Гулистон қадрини билмас. Кўлда юрган **қўнғир ғоз**, Чўл қадрини на билсин. Чўлда юрган тувалок, Кўл қадрини на билсин.

“Ноаҳиллик” семаси: Тўзиган **ғозни** тўпланган қарга олар.

“Манфаатдорлик” семаси: **Қуш** донга йиғилар, **Чивин**– ширага. **Қуш** тузоққа дон учун келар. Арпа қаерда пишса, **чумчук** – ўша ерда. **Оч товуқ** оморга югурар.

“Беписандлик” семаси: Уста овчи **чумчукқа** ўқ отмас.

Хулоса сифатида шунни айтиш мумкинки, ўзбек халқ мақолларида “парранда” ЛМГи кўпроқ инсонларнинг салбий характер-хусусиятини ифодалашга ихтисослашган.

ЭПИТЕТ НАСРИЙ НУТҚНИНГ МУҲИМ ТАСВИРИЙ ВОСИТАСИ

Б. Умурқулов, доцент (ТерДУ)

А. Ҳамидов, ўқитувчи (ТерДУ)

Маълумки, насрий матнларда қўлланиладиган сўзлар у ёки бу даражада тасвирийликни вужудга келтиради. Чунки сўз матнда ўзига хос маънони ифодалайди, нарса, воқеа-ҳодисанинг тасвирини яратади.

Бундан ташқари тилда тасвирийликни вужудга келтирувчи махсус воситалар ҳам бўлиб, улар фикрни образли ифодалаш асосида бадий таъсирчанликни кучайтиради. Шундай воситалардан бири сифатлашдир.

Сифатлаш – предмет ёки ҳодисанинг ўзига хос хусусиятларини образли ифодаловчи, шунингдек, кўпроқ бадий нутқда қўлланилиб, эстетик вазифа бажарувчи сўздир³.

Сифатлашдан нутқнинг барча турларида фойдаланилса-да, асосан бадий нутққа хослиги билан характерланади. Бу восита орқали предмет, нарса-ҳодисанинг бирор хусусияти, белги сифатида алоҳида тарифланади. Сифатлашлар моҳиятан аниқловчига яқин бўлиб, аниқловчилардан эмоционал таъсирчанлиги, бадий нутққа хослиги предмет белгисини образли ифодалаш жиҳатидан фарқланади.

М.Мукаррамов сифатлаш ва аниқловчиларнинг маъно ва грамматик жиҳатдан фарқланувчи бешта хусусиятни ажратиб кўрсатган ⁴. А.Т.Рубайло сифатлаш тропнинг метафора ва метонимияга яқин бўлган гури эканини таъкидлаб, уни бадий аниқловчи деб атайди⁵.

Р.Қўнгуоров сифатлашнинг доимий аниқловчилардан фарқли равишда экспрессивлиги кўчма маънода ишлатилиши каби хусусиятларини мавжудлигини таъкидлаб уни поэтик аниқловчи деб атайди⁶.

Дарҳақиқат сифатлашлар, образлилик даражасининг кучлилиги, эмоционал-экспрессивлиги ва ниҳоят бадий нутққа хослиги жиҳатидан аниқловчилардан кескин фарқ қилади.

Бадий сифатлашлар кўпинча индивидуал қўлланишга хос бўлиб ифодадаги фавқулоддалик эмоционал-таъсирчанликни кучайишига имкон яратади.

Мақоладан кўзда тутилган мақсад ўзбек насрий нутқида рангни ифодалашда қўлланиладиган предмет белгисини билдирувчи сўзларнинг сифатловчи вазифасида келишини таҳлил қилишдир.

³Кожина М.Н. стилистика русскога язык.-Москва: 1977.с.97.

⁴ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўқшатиш. Тошкент: 1976. с. 15-16.

⁵ Рубайло А. Т.Художественные средства языка.-Москва:1961.-с.46.

⁶Қўнгуоров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: 1977. –с 67

Ўзбек насрий матнларида сифатлашнинг бадий-китобий сўзлар асосида вужудга келган кўринишлари маъно хусусиятлари билан ажралиб туради.

Умуман насрий матнларда сифатлашларнинг белги-хусусиятни билдирган сўзлар (латиф куй, пайваса кош, сарин шабада, майин шабада, нозик бўйин), ҳолатни билдирган сўзлар (мутҳиш тун, сузук кўз, ҳиссиз назар, қизарган юз), маза-таъм билдирган сўзлар (ширин орзу, ширин хаёл), шакл-кўринишни билдирган сўзлар (ширмой юз, қуралай кўз, қирра бурун), ҳажм-ўлчов билдирган сўзлар (кенг пешона, оғир турмуш, узун хаёл) шунингдек ранг билдирувчи сўзлар асосида вужудга келган кўринишлари кўп учрайди.

Ранг билдирувчи сифатлашларнинг муҳим хусусиятларидан бири маъно жиҳатидан рангни билдирмайдиган сўзлар ёрдамида ҳосил бўлишидир.

Рангни ифодалашда сифатловчи вазифасида келиши жиҳатидан предметни билдирувчи олтин, мармар, кумуш сўзлари актив қўлланилиши билан ажралиб туради. Насрий матнларда сариқ рангни ифодалашда олтин (олтин куз, олтин нур), оқ рангни ифодалашда кумуш, мармар (кумуш киш, кумуш қор, мармар булут, мармар бўшлиқ) каби сўзларнинг сифатловчи вазифасида келганини қўллаб учратиш мумкин. Шунингдек, тарихий мавзудаги асарларда бу сўзлар асл маъносида ҳам сифатловчи бўлиб келган ва олтиндан, кумушдан, мармардан ишланган буюм маъносини англаган ва бу сифатлашлар рангни эмас, кўринишни ифодалаган. Масалан: Салоҳдор атрофи арча билан ўралган, ўртасига кўмиш фаввора ўрнатилган, сарҳовзнинг ёнидан ўтиб, баланд пештоқли қошонага яқинлашди (О.Ёқубов. “Улуғбек хазинаси”)

Насрий матнларда кўк, яшил, қизил каби ранг билдирувчи сўзлар сифатловчи вазифасида қўлланилиши табиий.

Шунингдек, кўк ва яшил рангни ифодалашда бадий-китобий *мовий, феруза, зангори* сўзларининг сифатловчи вазифасида қўлланилишини қўллаб кузатиш мумкин. Масалан: Тиниқ феруза осмонда икки марта арғимчоқ солиб турна ўтди. Бу зангори бўшлиқлар унга аллақандай эртақлар сўйлагандек. (С.Аҳмад. “Уфқ”). Кўк рангни ифодалашда ҳаво ранг сўз бирикмасининг ҳам сифатловчи вазифасида ишлатилгани учрайди. Масалан: У ҳаво ранг чиний кабутарни қўлига олиб, ёғоч зина билан кабутархонанинг томига чиқди. (П. Қодиров. “Бобур”).

Матнларда қизил рангни ифодалашда алвон, бахмал каби предмет билдирувчи сўзларнинг ҳам сифатловчи вазифасида қўлланилгани учрайди.

Сифатлашнинг бу турида сифатланмишнинг ранг белгиси предметнинг ранг белгисига қиёслантириш асосида маъно ифодаланади. Сифатлашнинг рангни қиёслаш орқали ҳосил бўлган турлари таъсирчанлик ва оброзлилик даражасининг кучлилиги билан ажралиб туради. Зотан, сифатлашнинг бу турида сифатлаш ва ўхшатиш воситалари мавжуд бўлади. Масалан: Унинг сўзларига гўё ёш боланинг сўзларига кулаётгандай лоларанг лабларни ҳимариб бир қулиб қўя қоларди (О. Ёқубов. “Оққушлар, оппоқ қушлар”)

Бу матн ўхшатишлар асосида шаклланган. Аммо матндаги диққатни жалб этувчи тасвирлардан бири лоларанг лаблар сифатлашидир. Бу сифатлаш орқали аввало қизил ранг ифодаланган. “Қизиллик” тушунчасининг дола, гул каби предметлик билдирувчи сўзларга ранг сўзини қўшиш орқали сифатлаш ҳосил қилиниши ўзбек насрий нутқи учун анъанавийдир. Шу сўзларга бадий нутққа хос сўз ясовчи гун қўшимчасини қўшиш орқали лолагун (лоларанг), гулгун (гул рангли) сўзларини сифатловчи вазифасида қўллаш натижасида ҳам “қизиллик” тушунчаси ифодаланган. Масалан: Кундузги ёруғлик қаршисида кўзга зўрға ташланаётган шам ёғдуси ён-веридаги гулгун нақилларга тушиб, элас-элас жилваланади. (П.Қодиров. “Бобур”)

Насрий матнларда предметнинг ажратиб кўрсатиладиган белгиси сифатида рангни ифодалашда предмет билдирувчи сўзларга ранг сўзининг қўшилиши асосида сифатлашларнинг вужудга келиши актив ва барча ҳолларда ўхшатишли сифатлаш ҳосил бўлган. Чунончи ранг сўзи осмон, қирмиз, ҳаво, олтин, кумуш, тилла сўзларига қўшилган ҳолда кўк, қизил, сарик, оқ ранглари ифодалаган. Масалан: Қирмизранг ўрикзорлар орасида нафис тиллараң бедазорлар хануз кўм-кўк чинорлар, кумушранг япроқлари ҳали тўкилиб битмаган оқ тераклар кўзга ташланар. (О.Ёқубов. “Оққушлар, оппоқ қушлар”)

Ушбу гапда келтирилган уч сифатлашда уч хил ранг қирмизранг ўрикзорлар (қизил), тиллараң бедазорла(сарик), кумушранг япроқлари (оқ) белги сифатида ажратиб кўрсатилган, ҳар уч ҳолатда ҳам белги ўхшатиш натижасида ҳосил бўлган.

Матнларда рангни ифодалашда қўлланиладиган предмет билдирувчи сўзларнинг сифатловчи вазифасида келишини таҳлил қилиш қуйидаги хулосаларга олиб келади.

1. Ўзбек насрий матнларида сифатлаш вазифасида қўлланилиб ранг билдирувчи аслида предметлик маъносига эга бўлган сўзлар асосида вужудга келган сифатлашлар ўхшатишли сифатлаш кўринишига эга.

2. Ўхшатиш-сифатлаш кўринишидаги сифатлашларда предмет белгиси ажратиб кўрсатилади ва бошқа шундай белгига қиёсланган.

3. Ўхшатишли сифатлашларнинг қўлланилиши кўпгина ҳолларда ижодкорнинг нарсга, ҳодисага муносабати билан боғлиқ, чунки сифатлаш вазифасидаги сўзнинг кўпгина ҳолларда муносабатни билдиргани кузатилади.

Адабиётлар:

1. Кожина М.Н. Стилистика русскога язык.-Москва: 1977.с.97.
2. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Тошкент: 1976. с. 15-16.
3. Рубайло А.Т.Художественныесредства языка.-Москва:1961.-с.46.
4. Қўнғиров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: 1977. –с 67

ЎЗБЕК ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИ ТИЛИДАГИ АРАБИЙ ЛЕКСИКАНИНГ МАВЗУИЙ ТАСНИФИ

Б. Жўраева, доцент (БухДУ)

А. Аминова, талаба (БухДУ)

Маълумки, Ўрта Осиёда араблар ҳукмронлиги даврида ўзбек-араб тиллари алоқаси юзага келди. Бу даврда араб тили давлатвадин тили, фан ва расмий ёзишмалар тили сифатида кенг тарқалди. Ўзбек тили бу даврда, бир томондан, бошқинчиларнинг оғзаки сўзлашув тили билан, иккинчи томондан, араб ёзма адабий тили билан тўқнашди. Араб тили маҳаллий аҳолига давлат ва фан тили, айниқса, дин тили сифатида мажбуран ўқитилди ва сингдирилди. Натижада маҳаллий аҳоли вакиллари ўз она тилиси билан бир қаторда араб тилида ҳам ёза ва гапира оладиган бўлди.

Араблар Ўрта Осиёга кириб келганидан кейин бу ердаги маҳаллий туркий, руш, хоразмий, суғд каби ёзувларни сиқиб чиқарди, уларнинг ўрнига араб ёзувини истеъмолга киритди. Бу эса араб тили ва ёзувининг таъсир доирасини янада кенгайтди. Араб тили туркий ва эроний тилларга катта таъсир кўрсатди. Маданий савияси жиҳатидан араблардан анча юқори бўлган ўзбек ва тожик халқининг ўша даврдаги авлоди ўз адабиёти ва маданиятини араб тилида яратишга мажбур бўлди.

Алишер Навоий «Муҳокамат-ул луғатайн» асарида араб тилининг хусусиятларини қуйидагича таърифлайди: “Барчасидин араб тили фосоҳат ойини била мумтоз ва балоғат тазыйини била мўъжиза тироздурким, ҳеч такаллум аҳлининг мунда даъвоси йўқдур... (барчасидан

араб тили нафислик билан ажралган ва бадиийлик безаги билан муъжиза кўрсатувчандирки, бунда ҳеч бир тил аҳллариининг даъвоси йўқ)⁷.

Ўзбек тилига араб тилидан сўз олиш, асосан, VII-IX асрларда кучийди. Кейинги даврларда ўзбек тилига янги сўзлар сезиларли даражада қабул қилинмади, ўзбек тилига кирган арабча элементлардан бир қисмининг эскириши ва ўзбек тилидан чиқиш жараёни юз берди. Алишер Навоий асарлари тилида ишлатилган кўпгина арабча сўз ва сўз шакллари XIX аср ўзбек тилида, шунингдек, ҳозирги ўзбек адабий тилида учрамайди. Араб тилининг ўзидан бевосита сўз олиш XI асрдаёқ деярли тўхтаган эди. Аммо турли даврларда арабча ёзма манбаларда, шунингдек, эски ўзбек тили ёзма ёдгорликларида сақланган арабча сўз гуруҳлари у ёки бу даврларда фаоллашиб турди.

Ўзбек халқ мақоллари тилининг луғат таркибига араб тилидан кириб ўзлашган сўзлар катта миқдорни ташкил этади. Уларни қуйидаги мавзуй гуруҳлар бўйича таснифлаш мумкин:

1. Илм-маърифат, маданият, таълим-тарбия билан боғлиқ номлар: илм, қалам, китоб, фан, таълим, мактаб, дарс, тарбия, таҳсил муаллим, маърифат ва бошқалар:

Бир синалган тажриба

Етти китобдан афзал.

Қалам кучи фармон билан,

Қилич кучи дармон билан.

Мактаб-кема, илм – денгиз.

2. Диний-афсонавий тушунча ва тасаввурлар номи: шайтон, малак, руҳ, жаннат, фаришта, фарз, жин, қиёмат, ҳур, жаҳаннам, ажина, фол, иймон, мўмин, ҳаром, ибодат, куфр, ислом ва бошқалар:

Шариатда шарм йўқ,

Одамда тиним йўқ.

Шошган ишга шайтон қўшилар.

Фолга ишонма, фолсиз ҳам қолма.

Қиёмат куни қўшнидан.

Гумон иймондан жудо қилар.

3. Жой-макон ва замон тушунчаларини англатувчи номлар: давр, дунё, тарих, аср, вақт, манзил, ариқ, маҳалла, маскан, олам, ватан, саҳар, само (осмон, фалак), фасл, қалъа, табиат, саҳро, арз (ер, замин), мағриб, машрик, мамлакат, масжид, мадраса, субҳ (тонг пайти), даҳр (олам; дунё), наҳор (кундуз), уммон (денгиз, баҳр) ва бошқалар:

⁷А.Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. –Тошкент, 1967. 106-бет.

Ватани борнинг бахти бор,

Меҳнати борнинг - тахти.

Олим айтгани –оламайтгани,

Подшо айтгани-юрт айтгани.

Мамлакатнинг таянчи дин эмасдир, адолат.

Вақтинг кетди - бахтинг кетди.

4. Ой номлари: ҳамал (қўзи), савр (ҳўкиз, сигир), жавзо (эгизак), саратон (қисқичбақа), асад (арслон), сунбула (буғдой бошоғи), мезон (тарози), акраб (чаён) қавс (ёй), хут (катта балиқ) ва бошқалар:

Савр деган сонли қиш,

Мен жавзонгдан қўрқаман.

Саратонда сув қўй,

Асаддатеك қўй.

Ҳамал кирди - экинларга амал кирди.

Асад - ҳосилингни ясат.

5. Оним (антропоним, топоним)лар: Абдулҳаким, Ғарб, Шарқ, Яман, Шом (жой номи), Лукмон, Эҳром, Мажнун, Ширин, Хизр ва бошқалар:

Абдулҳаким овга чикди,

Орқасидан ғовға чикди.

Қизил кўрса, **Хизр** йўлдан чиқар.

Лайлини кўриш учун

Мажнуннинг кўзи керак.

Насиб этса келар **Шому Ироқдин**,

Насиб йитса кетар қошу қобокдин.

6. Хусусиятга белги ифодалайдиган сўзлар:

а) ижобий хусусият англатувчи сўзлар: азиз, мағрур, қиммат, сахий, азамат, муқаддас, ҳалол, олий, машхур, одил ва бошқалар:

Сахий топса, бўлиб ер,

Бахил топса босиб ер.

Хон одил бўлмаса, хонумонидан айрилар,

Бой ҳалол бўлмаса, бор молидан айрилар.

б) салбий хусусият англатувчи сўзлар: золим, қаллоб, ҳаром, аҳмоқ, ваҳший, ёввойи, ғофил, махлуқ, мунофиқ, маккор, жосус, маддох, каззоб (ёлгончи) ва бошқалар:

Бир сўзнинг юзи ёриқ,

Мунофиқнинг юзи чорик.

Бахилнинг боғи кўкармас,

Кўкарса ҳам мева бермас.

Мол ҳаромга чиқмоқчи бўлса, эгаси сабаб.

Аҳмоқда ақл бўлмас,

Ақлли бахил бўлмас.

в) муайян ҳолат хусусиятини англатувчи сўзлар: мискин, хазин, мағрур, етим, фақир, асир, муҳтож, рақиб, хаста, мажруҳ, зайф ва бошқалар:

Амирнинг ошидан, **фақирнинг** мушти яхши.

Асир бўлишдан ўлим яхши.

Етим, етим демангиз, Етим ҳаққин емангиз.

7. Мавхум тушунча ифодаловчи сўзлар: хаёл, ҳаёт, қадр, ҳақ (чин, рост), бало, фикр, нур (зиё), алам, зулм, жаҳл, умр, ғам, роҳат, жафо, шифқат, сабр, хизмат, лаззат, матонат, қасам, манфаат, муҳаббат, ҳасрат, хито, ҳақиқат, қалб, қувват, вафо, ишк, меҳнат, фаҳм, одоб, мақсад, толе, аҳсон, инсоф, кайф-сафо ва бошқалар:

Бир нафаслик **муҳаббат**,

Бошга келтирар **офат**.

Сабр қилсанг ғўрадан ҳолва битар.

Сабрсизлар ўз оёғидан йитар.

Меҳнат қилмай роҳат топмас,

Уруғ сепмай экин ўрмас.

8. Мансаб, касб-хунар, унвон ва машғуллик тушунчаларини англатувчи сўзлар: қози, султон, жаллод, сўфи, мулла, ҳоким, даллол, ҳаким, табиб, касб, имом, котиб, ҳожи, ходим, раис, нажжор (дурадгор), олим, косиб, вазир, амир, қассоб, фоҳиша, шайх (сўфилар бошлиғи; эшон), зоҳид (дунёвий ишлардан юз қайтариб, тоат-ибодат билан машғул бўлган шайх), арбоб (амалдорлар), қаландар (дарвеш), муфти, жаллоб (туёқди мол олиб сотувчи) ва бошқалар:

Авом **табиб** – офати жон.

Имом оч қолса, бозор кезар,

Сўфи оч қолса - мозор.

Хотин – эрнинг **вазир**.

Жаллоб - турган-битгани қаллоб.

Мулланинг айтганини қил,

Қилганини қилма.

9. Қуш парранда ва ҳайвон номлари билан алоқадор сўзлар: булбул, ҳайвон, маймун, кумри (каптарлар туркумига мансуб қуш), мол (йирик шохли уй ҳайвонлари), товус, ақраб (чаён), сава ва бошқалар:

Сава иши сайрамоқ.

Ҳўкиз иши хирмон янчмоқ,
Мўминнинг чирмандаси ёрилса,
Гардиши маймунга ўйинчоқ бўлар.
Гулсиз булбул - унсиз булбул.

10. Инсон-шахс тушунчаси билан алоқадор сўзлар: инсон, халқ, оила, жамият, иттифоқ, одам, авлод, қавм, халойиқ, завжа (хотин), қабила, никоҳ ва бошқалар:

Халқ пуфласа, бўрон бўлур,
Уни ким тинчита олур.
Инсоншухрати – бойлик,
Соғлиқ - улуг бойлик.
Одамнинг юзига боқма, сўзига боқ.

11. Инсон томонидан яратилганнарса ва ҳодисалар номи: соат, шам, бино, атир, шакар, ойна, қафас, сандиқ, кулф, иморатва бошқалар:

Сандиғи тўла сепи бўлгунча,
Юрак тўла эпи бўлсин.
Башаранг қийшиқ бўлса, ойнадан ўпкаланма.
Атир сувин сепган билан,
Саримсоқ хушбўй ҳид бермас.

12. Кийим-кечак ва унга алоқадор номлар: либос, атлас, мато, жубба (шайхлар киядиган тўн), мандал (рўмол), лас (юзи силлиқ газлама) ва бошқалар:

Атлас ямоғи атласга муносиб,
Шол ямоғи - шолга.
Ласниқўйиб атлас дема,
Атласни лас сақлар.

13. Қимматбаҳо тошлар ва улар билан боғлиқ тушунчалар номи: дур, ёкут, садаф, сикка (тамға урилган қумуш ёки олтин танга) ва бошқалар:

Ҳар садафдан дур бўлмас,
Ҳар кампирдан қиз бўлмас.
Миннатли сиккадан беминнат чақа яхши.

14. Ўсимлик, дарахт ва улар билан алоқадор тушунчалар номи: сумбул (бир турли хушбўй қора рангли ўсимлик), сумбула (бошок), райҳон, шажар (дарахт), хурмо ва бошқалар:

Бахилнинг ерида сумбул кўкармас.
Сумбул тақимда,
Йигит кўзи унда.

Сумбула туғса, сув совир,

Тарози туғса, тонг совир.

15. Ўлим билан боғлиқ тушунчалар номи: ажал, жаноза, лаҳат, қабр, қизо, тобут ва бошқалар:

Мушукнинг ажали келса арслон билан ўйнашар.

Қалин бергандан кейин ўлик куёв ҳам тобутда ётмас.

Қазоси етса, қози ўлар.

16. Микдор ўлчов бирликлари номи: таноб (0,25 гектарга тенг ер мийдони), қадам (70-80 см га тенг узунлик ўлчови), мисқол (4,8 граммга тенг оғирлик ўлчов бирлиги) ва бошқалар:

Дард ботмонлаб келса ҳам, мисқоллаб чиқар.

Ўзбек халқ мақоллари тилида булардан ташқари авом (оддий саводсиз кишилар), аъмол (амаллар, ишлар), каср (зарар, зиён), мағфират (кечириш, ырлақаш, гуноҳидан ўтиш), мужоҳид (дин учун курашувчи), луоб (тупурик, сулак) каби турли соҳаларга оид арабий луғавий бирликлар ҳам қўлланган. Умуман олганда мақоллар тилида фан, маданият, таълим-тарбия ш дин тушунчаларини ифодаловчи арабча луғавий бирликлар нисбатан кўпчиликни ташкил этади.

НАВОИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ҚЎЛЛАНГАН НАБОТТОТ ВА ҲАЙВОНОТ НОМЛАРИ


Н. Умарова, доцент (ФарДУ)

Наботот сўзининг асоси *набот* асли араб тилидан ўзбек тилига билвосита ўтиб ўзлашган. *Набот* – ‘гиёҳ’, ‘ўт-ўсимлик’ маъносини биллатади. Араб тилида бу асосдан ясалган сўзлар *ўсмоқ*, *ўсиш*, *пишиб* *типилмоқ* каби маъноларни билдиради⁸. “Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати”да 300 дан ортиқ ўсимлик номлари мавжуд бўлиб, улар мевали ва мевасиз дарахтлар ҳамда уларнинг мевалари, гуллар, сабзавотлар, майса-ўтлар ва уларга алоқадор бўлган сўзларни ўз ичига олади.

“Кўҳна сўзлар тарихи”⁹ китобида Алишер Навоий асарларида қўлланган ўсимлик номлари генеологик жиҳатдан қуйидагича белгиланган: умумтуркий ва ўзбекча сўзлар - 34 та, арабча сўзлар - 53 та, форс-тожикча сўзлар - 204 та. Бундан ташқари, тилшунос арабча-форсча ва форсча-туркийча аралаш таркибли 14 та сўз мавжудлигини қайд қилади. Ўсимликлар оламига мансуб жами 305 та сўздан (фоиз ҳисобида)

⁸ Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи.-Т., 1991. 63-б.

⁹Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи.-Т., 1991



умумтуркий ва ўзбекча сўзлар-11,1 %, арабча сўзлар - 14,4 %, форс-тожикча сўзлар 66,9 % ва аралаш таркибли сўзлар - 4,6 %ни ташкил этади.

Ҳайвонот истилоҳи остида қуруқликда яшовчи, қанотли, судралиб юрувчи, сувда яшовчи жонзотлар тушунилади. Бу атама тор маънода айнан сут эмизувчилар оиласини кенг маънода эса наботот оламига зидланувчи барча ҳайвонот дунёсини ифодалайди. Зооним бирликлар атоқли от сифатида ономастиканинг, турдош от сифатида эса семасиологиянинг ўрганиш объектидир. Ҳайвонот лексемасига қараганда зооним атамасининг маъно мундарижаси кенгроқ¹⁰.

Ўзбек тилининг тарихий даврларида 337 та зоосўзлар қўлланган бўлиб, бу номлар Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғатида муайян тасниф кўринишида қайд этилган¹¹. Улардан 76 таси чорва моллари номлари, 71 таси эса чорва, чорвачиликка доир сўзлар, 94 та қуш номлари, 9та судралиб юрувчи ҳайвонлар номлари, 48 та ёввойи ва ваҳший ҳайвонлар номлари, 41 та майда ҳайвон ва жониворлар номлари, 6та сув ҳайвонлари номлари, 12 та афсонавий ҳайвонлар номлари. Тилшунос олимларимиз ҳайвонот дунёсига мансуб сўзларни *чорва моллари номлари, ваҳший ҳайвонлар номлари, судралиб юрувчи ҳайвонлар номлари, қушлар номлари* каби турларга бўлади¹².

Алишер Навоий “Муҳокаматул-луғатайн” асарида форсий ва туркий тилларнинг луғавий имкониятларини қиёслар экан, форс-тожик тилида мавжуд сув қушларининг барчаси “мурғоби” номи билан аталишини, ўзбек тилида уларнинг номи 70 га яқинлигини қайд этган, уларнинг номларидан бир неча мисоллар қайд этган эди.

Алишер Навоийнинг “Ҳазойин ул-маоний” девони таркибида қўлланган ҳайвонот, қуш ва ҳашаротлар номларидан 18 та лексеманинг қўлланиш часотасини аниқлашга муваффақ бўлдик. Буни жадвал орқали шундай ифодалаш мумкин.\

№	Лексемалар	Лексемаларининг девонларда қўлланиш частотаси				
		ҒСда	НШда	БВда	ФКда	Жами
		Қушлар номи				
1	<i>Қуш</i>	75	70	74	100	309
	<i>Булбул</i>	108	71	62	61	304

¹⁰Юлдашева Д. Ўзбек болалари фольклори тилида зоонимлар: НДА, 2007.7-б.

¹¹Бафосв Б. Ўша маъба. 91-б.

¹²Бафосв Б. Ўша маъба. 91-б.

2	<i>Анкабут</i>	5	2	1	2	10
3	<i>Тоғус</i>	7	2	2	4	15
4	<i>Ҷуз</i>	9	6	7	12	34
5	<i>Кабутар</i>	5	6	10	5	26
Афсонавий қушлар номи						
6	<i>Анқо</i>	5	3	1	2	10
Ҳашаротлар номи						
7	<i>Қўналак</i>	2	1	2	1	6
8	<i>Парвона</i>	32	23	25	37	127
9	<i>Паншиа</i>	8	3	0	2	13
Судралиб юрувчилар						
10	<i>Йилон</i>	12	6	2	4	24
Сувда сузувчилар						
11	<i>Балиғ</i>	5	6	0	2	13
Хонаки ҳайвонлар номи						
12	<i>Эшак</i>	3	2	2	0	7
Ёввойи ҳайвонлар номи						
13	<i>Кийик</i>	11	2	4	4	21
14	<i>Пил</i>	5	3	4	1	13
15	<i>Тулку</i>	1	2	1	1	5
16	<i>Арслон</i>	0	1	0	0	1
17	<i>Оҳу</i>	2	1	0	1	4

Кузатишлардан маълум бўлдики, наботот номлари орасида гул сўзи газалларда фаол лексик бирлик сифатида алоҳида ўрин тутади. Гул дарахт ёки гиёҳларнинг маълум қисми маъносида, яна маълум тур ўсимликлар номи (бунда қисм воситасида бутун аталади) маъносида келади. Газалларда қўлланган ҳайвонот номларидан 17 та лексеманинг қўлланиш частотаси аниқланди. Бу лексемалар орасида *қуш* лексемасининг етакчи эканлигини жадалда қиёсланувчи birlikлар частотасидан кўришимиз мумкин.

ЁШЛАРНИНГ ТИЛДАН ФЙДАЛАНИШ ОДОБИ ТУҒРИСИДА

Ф. Ибрагимова, ф.ф.н. (ЖДПИ)

О. Умарова, талаба (ЖДПИ)

Маълумки, биз ўзбекларда одоб-ахлоқ, тарбия ҳар доим онлада ҳам, жамиятда ҳам энг эътиборли, таъбир жоиз бўлса энг муҳим масала ҳисобланади. Буюк тарбияшунос бобомиз Юсуф Хос Ҳожиб “Одобнинг боши тилдир” дейдилар. Демокчимизки, айтмоқчи бўлган фикрини

Ўзгаларга ўз она тилида равон, тушунарли тарзда, гўзал ифодалар билан етказиб бериш ҳам тарбияланганликнинг бир кўриниши ҳисобланар экан. Фарзандларимизга, ўқувчиларимизга, талабаларимизга одобнинг боши бўлмиш тил тарбиясини, тил маданиятини ўргатишга биз ота-оналар, тарбиячи-устозлар масъулият билан ёндашяпмизми? Айни пайтда, ўзлимизга хос миллий тарбияни бераётганимизда она тилимизга ҳурмат тушунчасини шакллантириш ва ривожлантириш учун ҳар биримиз жон куйдирмоғимиз зарур. Сабаби тилшунос олим Н.Маҳмудов таъкидлаганидек, “Миллий руҳни шакллантирадиган, мунтазам мустаҳкамлайдиган, унинг мунтазам авайлаб-асралишига имкон берадиган энг одил омил она тилидир. Тил халқ, миллат руҳининг бетакрор ва ҳеч бир замон хира тортмас кўзгусидир. Ҳар бир тилда шу тил эгаси бўлган миллатнинг сажъияси, руҳияти акс этади”¹³. Модомики шундай экан, тилга жўн, оддий алоқа воситаси сифатида қарашимиз ноўриндир. Юртимизга, халқимиз орасига кириб келган ҳар бир янгилик, албатта, биз учун, фарзандларимиз учун хайрли бўлмоғи керак. Янгиликлардан юртимиз ривож, халқимиз ободончилиги, фарзандларимизнинг билимли, одобли бўлиши учун фойдаланмоғимиз лозим. Ҳозирги ахборот коммуникациялари ривожланган бир пайтда юртдошларимизнинг ҳам ҳар хил соҳадаги фаолиятларини интернет тармоғисиз, унинг ёрдамисиз тасаввур этишимиз мушкул. Интернет тизими орқали бугун дунё ва юртимизда бўлаётган воқеа-ҳодисалар ҳақида тез ва батафсил хабарлар оламиз. Узоқдаги яқинларимиз билан боғланиб, уларнинг ҳолларидан хабардор бўламиз. Янгиликларни инсонлар фақат яхшилик учун, тараққиёт учун фойдаланишса яхши, лекин баъзан бунинг акси ҳам учраб туради. Бугун интернет ўргамчак тўридек бутун дуёни қамраб олганлиги ҳеч кимга сир эмас. Интернетнинг ёшларбоп тармоқларидан бири ҳисобланадиган “одноклассники”, яъни “синфдошлар”га жуда кўпчилик ёшларимиз қизиқишади, нафақат қизиқишади, балки бу сайт уларнинг ҳаётига ҳам айланиб бўлган десак, ҳеч муболаға эмас. Бугун мазкур сайтнинг ёшлар тарбиясига ижобий томонларидан кўра салбий томонлари кўпроқдир. Ахир сайтда беҳаё сўзлар, беҳаё суратлар, беҳаё рекламалар жуда кўплаб топилди. Унда “сузаётган” ёшларимизнинг кўпчилиги ўз она тилидаги сўзларнинг ўрнига баъзан русча, баъзан инглизча сўзларни ишлатишини кўриб ҳайрон қоласиз. Ахир ҳамма халқнинг сўзларини аралаштириб ишлатиш бу маданиятлик эмас ўта маданиятсизликнинг белгиси

¹³Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиги. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт манба уйи. 2012 й. 11-бет.

ҳисобланади. Тармоқдаги мулоқотчиларнинг ўзларига ном танлашларида ҳам тилга эътиборсизлик, сўзга лоқайдликнинг гувоҳи бўласиз. Масалан, “ни” кўп учрайдиганлари: олигарх сўзини-“алигарх”, “красивий парин”, “одий боламан”, “куртой”, “Moderchik”, “Shejooot” бу рўйхатни кўплаб динлом эттириш мумкин. Бу номларни кўриб ҳайрон қоласиз, ўзбекча сўзларни хато ёзишдан, русча ёхуд бошқа тилга хос сўзларни ўзларига исм сифатида танлашдан мақсад нима. Қани бу ёшларимизда ўз она тилига қурмиг. Буюк бобокалонимиз, туркий тилнинг софлигию, бойлиги учун қуринган, унинг гўзаллигини бутун дунёга кўз-кўз қилишдан чарчамаган Алишер Навоий ҳазратлари айтадиларки, “Инсонни сўз айлади жудо қийиндин, Билки гувҳари шарифроқ йўқ андин”. Демак, инсонликнинг муҳим белгиларидан бири сўз ҳисобланади. Ёшларимизнинг она тилига юқоридаги муносабатини она тилининг мавқеини камситиш, шу асосда миллий ўзликнинг оёғига болта уриш деб баҳолаш мумкин. Шундай экан, биз ота-оналар, тарбиячилар қаёққа қараяпмиз? Уйимизда фарзандимиз сонглаб интернет титиб ўтирсаю, бир марта келиб уни текширмасак. Миктабда ёки коллежда ўқувчиларимиз телефон ишлатиб юрсаю, устоз сифатида “телефонингда нималар бор?” дея олмасак. Улар билан яқиндан суҳбат курмасак.

Бизни яна бир нарса ҳайратга солади. “Одноклассники” тармоғида ёсини ҳақида шеърлар руқни мавжуд. Агар қизиқиб бу шеърларни (агар шеър деб аташ мумкин бўлса) ўқиб кўрсангиз, улардан на қофия, на бирор тая топа олмайсиз. Энг ғариб, энг довдир, алмойи-жалмойи сўзларни тизиб олиб “севги ҳақида шеър” деб тармоққа киритиб қўйишган. Фикримизнинг динли сифатида ана шундай минглаб “шеърлар”дан бирини келтирамиз,

“Юрагимни тубига кириб келдинг

Хаёлим олиб азобларга солдинг..!

Ўзингни гўё бирдона билдинг

Кет дединг кетаман

Қайтмиман..?”

Сўз, айниқса, бадий сўз инсонда эстетик завқ уйғотиши лозим. Биз мумтоз шоирларимиз, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Нодирабегим, Увайсий, Чўлпон, Ҳамид Олимжон, Зулфия, Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Муҳаммад Юсуф ва бошқаларнинг шеърларини ўқиб завқ олганмиз, ўзбеклигимиздан ғурурланганмиз. Ўзбекона сўзнинг соҳирлигининг гувоҳи бўлганмиз. Шоирларимиз битган шеърлар қайси мавзуда бўлишидан қатъий назар биз адабиётдан одоб ўрганганмиз. “Одноклассники”даги ёшларимизнинг “ижодлари”ни, ўзларини

тутишларини, бир-бирлари билан ёзишмаларини кўриб, наҳотки маънавияти қашшоқ, миллий кадриятларга ўта нописанд фарзандларимиз кўпайиб кетган бўлса деб ўйга толаemiz.

Ҳозирги ўзбек тилининг, тилшунослигининг жонкуярларидан профессор Н.Маҳмудов шундай таъкидлайди: “Тил миллатнинг тамалини тайин этадиган, илигини соғлом сақлайдиган, асрлардан асрларга тўзғитмай олиб ўтадиган бетакрор қудратдир”¹⁴.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, тилимизнинг софлиги, унинг равонлиги, тўғрилигини, унинг гавҳарга қиёсланувчи обрў-эътиборини сақлашга ёшларимизда тилга ҳурмат ҳиссининг, тил маданиятининг шаклланишида бугун ҳар биримиз масъулмиз. Ана шу масъулият ҳисси бугун оила ва билим масканларининг бир ёқадан бош чиқариб ҳаракат қилишларини талаб этади.

АБСТРАКТ СЎЗЛАРДА НОЛИСОНИЙ ВОҚЕЛИКНИНГ АКС ЭТИШИ

М. Ҳақимова, ф.ф.н. (ТошДУТАУ)

Одам ва олам муносабатининг энг асосий элементларидан бири тилдир. Тил ўзида барча олам турларини аслига мос равишда инъикос эттиришга ҳаракат қилар экан, унда нафақат моддий характердаги, балки моддий оламга хос бўлмаган, руҳий (идеал) олам унсурлари ҳам акс этади. Моддий олам элементлари ва атрибутларининг тилда акс этиши тилшуносликда жиддий ўрганилган масалалардандир. Моддий характерга эга бўлмаган воқеликни тилда, жумладан, лексик сатҳда акс этишини ўрганиш тилшунослик учун долзарб вазифалардан биридир.

Номоддий характердаги тушунчаларни номловчи абстракт номлар тадқиқида инъикоснинг қуйидаги аспектларига: маъно замиридаги тушунчанинг воқеликда асосга эга, эга эмаслиги, номланаётган мавжудликнинг онтологик хусусияти; тушунчанинг тури ва тил эгаларининг таъсири (антропоцентриқ омил) кабиларга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Абстракт номларнинг объектив воқелик билан боғланиш масаласи мунозарали масалалардан биридир. Қуйида биз абстракт сўзларнинг воқелик билан муносабати хусусидаги бир қатор саволларни ойдинлаштиришга ҳаракат қилиб кўрамиз: Абстракт номлар нимани

¹⁴ Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла саядиғи. Тошкент: Ф.И.Улом номидаги нашриёт манба уйи. 2012 й. 21-бет.

атайди? Абстракт номлар воқелиқ билан боғлана оладими? Абстракт сўзлар номлаётган «наrsa» мавжудми?

Абстракт сўзлар нимани номлайди? Абстрактлик/конкретлик дикотомиясидан келиб чиқиб, абстракт сўзларнинг таҳлилида конкрет сўзларнинг моҳияти ҳам назарда тутилади. Конкрет сўзлар моддий воқелиқдаги наrsa ва ҳодисаларни номлайди. Абстракт сўзлар моддий воқелиқда мавжуд бўлган муайян бир наrsa, ҳодисанинг маълум бир белги, ҳусусият, муносабатини ташувчисидан фикран алоҳида предмет сифатида номлайди. Маълумки, абстракт сўзлар номлаётган моҳият объектив оламда алоҳидликлар тарзида мавжуд эмас. Улар объектив мавжуд предмет ва ҳодисаларнинг фақат тафаккурдагина алоҳида ажратилган муайян белгиси ва муносабатини номлайди. Тафаккурда ҳосил қилинган моҳиятлар эса номоддий характерда бўлиб, улар шаклсиз, ва сезги органларимизга таъсирсиз бўлиб, ақлан англонади, қалбан ҳис қилинади. Халқаро илмий атомиянослиқда бу олам идеал олам деб номланса, халқимизнинг юксак философияй, илмий меросига мурожаат қиладиган бўлсак, бу олам руҳият, маънавият номлари билан аталган.

Абстракт сўзлар номлаётган «наrsa» реал мавжудми? Бу саволга жавоб бериш учун реаллик ва мавжудлик ҳақидаги билимларга тўхталиб ўтиш лозим. Биз ва биздан ташқаридаги жамики оламлар ҳаммаси борлиқдир. Мавжудлик – борлиқнинг ҳозирги пайтда намоён бўлиб турган кўми ҳисобланиб, унинг инсон онгига таъсир қиладиган, яъни биз била олдиндан қисми реалликдир. Мавжудлик моддий ва идеал характерда бўлиди. Моддий мавжудлик моддий воқелиқ, объектив воқелиқ, объектив реаллик каби терминлар билан ҳам номланиб, сезги аъзоларимизга таъсир қилиди ва ҳиссий билиш орқали идрок қилинади. Тафаккур, онг, ғоялар, фикрлар, туйғулар, хаёллар ҳам моддий олам элементлари каби мавжуд. Фақат улар идеал характерда бўлиб, муайян шаклга, моддийликка эга эмас. Идеал мавжудлик фақат ақлий билиш орқалигина англонади. Онг структурасида яшовчи идеал олам мифологик характерда эмас, у бор ва мавжуд. Унинг мавжудлиги инсон билан, инсон онги ва уни реаллаштирувчи тили билан шартлангандир. Абстракт номлар замиридаги моҳият инсондан, унинг онгидан ҳамда тилидан ташқарида мавжуд эмас. Ҳоро, инсон тафаккурининг имкониятлари асосида моддий олам атрибутларининг объектдан ажратиб алоҳидалаш мумкин бўлди ва унинг натижаси тилда абстракт номлар мисолида намоён бўлди. Худди шу ҳолат учун ҳам абстракт номларни артефактлар деб ҳам атайдилар.

ШАРҚДА БАЛОҒАТ ИЛМИ ВА НОТИҚЛИК САНЪАТИ ХУСУСИЯТЛАРИ

И. Абдуллаева, ўқитувчи (ТошДўТАУ)

البلاغة – Балоғат илми Европа халқларида маълум бўлган риторика илмига яқиндир (риторика – красноречие – гапни ўз ўрнида чиройли қилиб ишлатиш). Аммо араблардаги балоғат илмининг риторикадан фарқли жиҳатлари ҳам бор. Хусусан, у тилшунослик ва адабиётшуносликка баробар оид бўлган стилистика (ифода услуби)ни ҳам ўз ичига олади. Рус тилшуноси академик Виноградовнинг таъбири билан айтганда, “стилистика бу - тил билимларининг чўққисидир”.

Балоғат илми дастлаб **البدیع** - ал-бадиъ номи билан аталган. Кейинчалик бадиъ илмига **علم المعانی** – маънолар илми, **علم البيان** – баён илми қўшилиб, балоғат илмини ҳосил қилган. Абдуллоҳ ибн Муътазз ўзининг “**كتاب البدیع**” номли асарида бадиий тасвир воситаларидан 19 тасини баён қилиб, Қуръони карим, ҳадислар ва ўша замон шеъриятидан мисоллар келтириб тушунтиради.

Бадیع сўзи асли “янги яратилган” деган маънони билдиради. Шунга кўра, бу атама дастлаб бадиий тасвир воситаси деган маънони эмас, балки, янги, илгари учрамаган ўхшатиш, истиора ва шу кабиларни билдирар эди. Аста-секин “бадиъ” сўзининг маъноси ўзгариб, умуман чиройли, образли гап, ибора ва асарларга нисбатан ишлатила бошлади.

Абдуллоҳ ибн Муътазздан кейинги адиблар бу илми кенгайтириб бордилар. Масалан, Қудаман ибн Жаъфар, Абу Ҳилол ал-Аскарӣй, Рашидуддин ал-Қираванӣй, Абдул Қодир ал-Журжонӣй ва бошқалар. XIII асрга келиб васф этилган бадиий тасвир воситаларининг сони 142-148 тага етди.

Араб тилшунослиги тарихидан маълумки, араблар ўз тилларининг грамматикасини тадқиқ қилишни бошлаганларида аввал синтаксис (**علم النحو**), кейин морфология (**علم الصرف**) вужудга келган. Сўнгра **علم البلاغة** – стилистиканинг асослари яратилган. Аммо ўша даврда мазкур фан бўйича алоҳида китоб мавжуд бўлмади, фақатгина ушбу илмга оид алоҳида саволларга жавоб тариқасида ёзилган кичик ҳажмдаги рисоаларгина мавжуд эди. Кейинчалик стилистика фани ривожлана боргани сари алоҳида асар ёзиш эҳтиёжи тугилган. Балоғат илмига оид биринчи китобни ёзган олим Абу Убайда (ваф. 825й.) бўлади. Унинг “**مجاز القرآن**” номли асари Қуръондаги мажозга бағишланган. Кейинги асрларда балоғат илми ривожланиб бориб, у ҳақида ёзилган асарлар ҳам кўпайиб борган.

Танқидланганидек, балоғат илми риторикага яқин туради. Риторика сўзи юнонча “rhetorike” сўзидан келиб чиққан бўлиб, “нотиклик санъати” маъносини англатади. Аммо тарихда бу атама ҳеч қачон бир маъноли танқид билан ажралиб турмаган.

Миср ва Оссурияда нотиклик санъатини қадрлашган бўлсада, сўзшомликнинг ватани Юнонистон ҳисобланади. Чунки, аввал ҳеч қерда нотик санъати бу даражада ижтимоий ҳаёт билан боғлиқ бўлмаган.

Риторикани “нотиклик тажрибасининг тизимлантирилиши” (Цицерон), “иккинчи сўзлаш ва ишонтириш қобилияти ҳақидаги фан” (Квинтилиан), “ишонтириш фани ва санъати” (Арасту) деб ҳисоблашган. Арасту шундай дейди: “Риторикани мазкур предметга нисбатан ишонтиришнинг турли услубларини топиш қобилияти сифатида тавсифлаймиз”. Бошқа томондан ҳудуди шу риторика асарида Арасту риторикани “диалектикага мувофиқ санъат”, деб номлайди.

Арабларда риторика санъатига яқинроқ турувчи “балоғат” сўзининг дунёвий маъноси “етуклик” бўлиб, маънони тўғри ва фасоҳатли ибора билан очиқ-ойдин етказиб беришдир. Бунда танланган иборанинг айтилаётган ўрнига ва мурожаат қилинаётган шахсга нисбатан мос ва ўйгун бўлиши билан бир қаторда кишига таъсир қиладиган, ўзига мафтун қилидиган каломлар мажмуасидан иборат бўлган жумлалар кетма-кетлиги бўлиши лозим. Балоғат, аввало, соф фикрий истеъдодга, гўзалликка таянадиган санъатлардан биридир.

Балоғатда тинглаш ва сўзлаш, рассомликда эса шакл ва ранглارни кўришни ҳисобга олмаганда нотик билан рассом ўртасида фарқ йўқдек гўё. Рассом бир суратни чизиб, унга мос ранглارни танлаш, сўнг топган рангларини кўзни қувонтирадиган, кишига таъсир қиладиган қилиш гинини чекса, нотик бирор маъруза, мақола тузишда аввал унинг қисмлари туғрисида ўйлайди, сўнг осонроқ тушунилувчи сўз ва мавзуга боғлиқ услуб излайди. Кейин эса унинг гўзаллигини, кишиларга бўладиган таъсирини кучайтиришни ўйлайди. Демак, балоғат унсурлари – сўз, сўнг сўзларни ва услубларни танлашни жойига, мавзусига, тингловчиларнинг ҳолига, хоҳишига қараб амалга оширишдир.

Гоҳида бир сўз бир ўринда чиройли бўлса, бошқа бир ўринда қўлланганда ундай бўлмаслиги мумкин. Гоҳида гапнинг ўзида шундай бир гўзаллик, мафтункорлик бўлади, лекин шунга қарамасдан ўз ўрнида қўлланмаганлиги сабабли балоғат чегарасидан чиқиши ва қўзланган маънодан ўзга бир маънони ифодалаш мумкин. Бу эса тушунмовчилик ва танқидга олиб келиши мумкин.

Луғатда «балоғат» сўзи «етиш, охирига етиш» маъноларини англатади. Тишуносликда эса нутқдан кўзланган етук даражадаги маънони тўғри фасоҳат билан етказишга айтилади. Унда ҳар бир гап муносиб ўринда келади ва эшитганларнинг кўнгли ундан баҳра олади. Балоғат нутқ ва нотикда бўлади.

1.Нутқ балоғати.

Нутқ фасоҳатли бўлиши билан бир вақтда, ҳолат тақозосига ҳам мос келиши лозим. Балоғатли калом мазмунан аниқ, ибораси фасиҳ бўлган, айтилаётган ўрнига ва тингловчиларга муносиб бўлган каломдир.

Балоғатнинг икки чегараси бор:

1) Энг юқори даражаси. Бу – сўз билан ожиз қолдириш даражаси.

2) Энг пастки даражаси. Балоғатли олимлар наздида бу ҳайвонлар товушидан бир поғона юқори, яъни ҳайвонлар овозига яқин даражадир.

Ушбу икки чегара ўртасида кўпгина даражалар бўлиб, улар сўзга ҳусн бағишлайдиган жиҳатларнинг кўлами ва сифатига боғлиқ ва шу орқали фарқланади.

Нутқдаги балоғат фасоҳат шартларига риоя қилиши билан бир вақтда қуйидаги жиҳатларга ҳам эътибор қаратади:

1) Ҳол. У «мақом» ҳам дейилиб, гапирувчига ўз иборасини муайян бир суратда баён қилишга ундайдиган омил.

2) Вазият тақозоси, ҳолни эътиборга олиш. Уни «ҳолга яраша эътибор» ҳам дейилади. У нутқ баён қилинадиган махсус сурат деганидир. Мисол сифатида айтсак, мадҳ ошириб гапиришга чорлайдиган ҳол. Ёки эшитувчининг заковатини олайлик. Бу қисқа суратда баён қилишга чорловчи ҳол. Мадҳ ва заковатнинг ҳар иккиси ҳам ҳолдир. Ошириб ва ёки қисқа қилиб гапириш – вазият тақозосидир. Гапни узун ёки қисқа сўзлаш вазиятга мувофиқ келиш дейилади.

2.Нотик балоғати.

Қандай мақсадни ифодалаш бўлмасин, ўз фикрини балоғатли нутқ билан баён этиш қобилияти.

Нутқдаги номутаносиблик уни талаффуз қилиш, сарф (морфология)га қиёслаш билан, синтактик жиҳатдан нуқсонли ёки лафзий чигал бўлиши наҳв (синтаксис) билан, сўзнинг «бегоналиги» (нотаниш эканлиги) араб тилидан яхши хабардор бўлиш, такрорлаш орқали, маъновий чигаллик эса, баён қилиш орқали маълум бўлади.

Илмий истилоҳда “балоғат” икки нарсада ишлатилади:

1. Грамматик жиҳатдан мукамал гапни ўз ўрнида ва тегишли ҳолатда қўллаш.

2. Сўзловчининг юқоридаги талабларга жавоб берувчи гапларни сўзлий олиш маҳорати.

Фисоҳатли сўзлай олишга 6 йўл орқали эришилади:

1. Ташлаффузга қийин ҳарфларнинг сўз таркибида ёнма-ён қилишнингга эътибор бериш.

2. Сўзларнинг қоидага ҳилофлиги сарф орқали, яъни қолипга солиш орқали тўғирланади.

3. Наҳв ёрдамида гапларнинг қоида зидлигининг олди олинади.

4. Сўзларнинг ғариблиги (бегоналиги) кўп мутулаа қилиш орқали пўқотилади.

5. Илму-л баён жумлаларнинг маъно жиҳатдан мукаммал бўлишини ўрганиди.

6. Вазият тақозоси илму-л маъоний ёрдамида ўрганилади.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, балоғат илми нотикдан шифқат мустаҳкам билим ва маҳоратни, балки фаросат ва нозик дидни ҳам талаб этувчи илмдир. Бу илм жуда кенг қамровли бўлиб, замонавий этика, истотика, грамматика, сўзлар этимологияси, мантиқ, адабиётшунослик каби фанларни ўзида мужассамлаштирган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Аристотель. Риторика. Античные риторика/под ред. Тахо-Годи. - М. Наука, 1978. - С.67.
2. مصطفي امين و علي جارم. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. البدع. القاهرة: دار المعارف، 1999. - ص 8.
3. حفني باصف. قواعد اللغة العربية "البلاغة". - مصر: مكتبة الايمان - المنصورة، 2009. - ص 21.
4. 1983. الكتب، دار بيروت. - العلوم مفتاح. السكاكي محمد بكر ابي بن يوسف يعقوب ابو. - ص 193.
5. حفني باصف. قواعد اللغة العربية "البلاغة". - مصر: مكتبة الايمان - المنصورة، 2009. - ص 22.

АРАБ ТИЛШУНОСЛИГИДА АТАМАШУНОСЛИК

С. Абдунабиев, ўқитувчи (ТошДўТАУ)

Ҳозирги замонда барча араб давлатларини ва Фаластин автономиясини бирлаштирган араб адабий тилининг ривожланиш босқичлари бир хил ва бир меъёра бўлмаган. Араб тилшунослигида араб

адабий тилининг луғавий таркиби шаклланиш ва тараққиёт даврини асосан уч босқичга бўлиш қабул қилинган¹⁵.

Биринчи босқич VIII асрдан то XII асргача Арабистон ярим оролида ислом динининг шаклланиши ва кейинчалик арабийзабон ислом цивилизациясининг равнақ топиши билан боғлиқ. Ушбу даврда араб адабий тили мусулмон илм-фани тилига айланди ва ўша даврда худудда кенг тарқалган оромий, юнон ва лотин тилларининг ўрнини эгаллади. Айни шу даврдан бошлаб, анъанавий мусулмон илмлари (фикҳ, тарих ва тилшунослик)да махсус номициялар пайдо бўлди ва уларнинг асосини араб тилига хос атамалар ташкил қилди. Бу йўналишга мутаносиб тарзда табиий ва аниқ илмлар (кимё, математика, геометрия, астрономия)да эса атамалар асосан юнон ва лотин тилларидан таржима қилиш орқали ўзлаштирилди. Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, X асрга келиб айнан юқорида тилга олинган чет тилларидан ўзлаштирилган қатлам асосида “махсус лексика ва атамашуносликнинг тармоғи” шаклланди¹⁶.

Араб атамашунослигининг иккинчи босқич (XIII – XVIII асрлар) дастлабки мусулмон давлатлари ва халифаликларнинг бутунлай парчаланиб кетиши ва чет эл мустамлакачилиги даврига тўғри келди. Мазкур даврда араб адабий тилининг ривожланишида маълум даражада пасайиш юзага келиб, адабий тилга шевалар лексикасининг айрим қатлами кириб келди. Бироқ, шу даврда айнан араб тилидан жаҳоннинг бошқа маданият ва тилларига кўпгина илмий атамалар ва маданий қадриятлар олиб кирилди.

Араб атамашунослигининг учинчи босқичи XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошига тўғри келди. Бу даврда бутун Шарқ мамлакатлари бўйлаб кенг тарқалган ислохотчилик ва янгича маърифатпарварлик араб адабий тили ва хусусан, атамашунослик ривожини бутунлай янги босқичга олиб чиқди. Бу давр бевосита турли янги жанрларда намоён бўлган янги араб адабиётининг шаклланиши, миллий ўзликни англашнинг ўсиши, араб олимларининг замонавий маданият, илм-фан, техника ва оммавий ахборотни тарқатиш воситаси бўлмиш араб тилининг имкониятларидан тўлиқ фойдаланишга интилиши билан боғлиқ бўлди. Замонавий араб тилининг ҳар томонлама тараққий топишига араб давлатларининг сиёсий мустақилликка эришиши, минтақада чуқур сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ислохотларнинг амалга оширилиши сабаб бўлди. Ҳозирга келиб, узоқ тарихий йўлни босиб ўтган араб адабий тили маданият, сиёсат, мафкура,

¹⁵Белкин В.М. Арабская лексикология. – М., 1975. –С. 17.

¹⁶Юқоридаги асар, –С. 19.

китобид на бошқа соҳаларда замонавий араб жамиятининг асл эҳтиёжларига хизмат қила бошлади.

Ҳозирги замон араб адабий тилининг пойдевори сифатида нафақат замонавий, балки кўп асрлик адабий тажрибада мужассамланган мумтоз ва мумтоз диврдан кейинги лексика хизмат қилди. Ф.М.Березиннинг фикрига кўра, араб тилининг “العين كتاب” (“Айн китоби”) деб номланмиш изоҳли луғати ва унинг муаллифи, араб тилшунослигининг асосчиларидан бири Хасан ибн Аҳмад араб тили илмий лексикографиясига асос бўлган¹⁷. Араб тилшунослигига оид энг машҳур асарлар X асрнинг охири – XI асрнинг бошида яратилган. Жумладан, Ибн Жиннийнинг “الخصائص” (“Хусусиятлар”) асари араб тилшунослигига оид энг мукамал асар, деб эътироф этилган. Унда муаллиф сўз ясашиш таркибининг муаммоларини, таркибиклик, сўзларнинг маънолари, уларнинг қўлланилиши ва бошқа масалаларни батафсил кўриб чиққан. Саъолибийнинг “العربية انصار و اللغة فقه” (“Тилшунослик ва араб тилининг ансорлари /тарафдорлари/”) асари чет тилларидан, асосан форс тилидан ўзлаштирилган сўзларни ўз ичига олган маънос луғат сифатида хизмат қилган. Ибн Фариснинг кўпроқ “الصاحبي” (“Саҳобаш /саҳоба/”) номи билан машҳур асари асл ва ўзлаштирилган лексик қағламнинг таснифи, омонимия, синонимия, моносемия, полисемия, шунингдек, феълий ва исмий сўз ясашиш масалаларига бағишланган. Ал-Жамаликийнинг “الأعجمي الكلام من العرب” (“Ажамий /хорижий/ тилдан арабчига ўзлашган сўзлар”) ва ал-Хафажийнинг “كلام في ورد فيما الخليل شفاء” (“Араблар нутқида ўзлаштирмаларнинг ишлатилишига бўлган ташналикни босиш шифоси”) асарлари араб тилига ўзлашган сўзларнинг ўзлаштирилиш сабаблари ва шароитларини ўрганиш учун асос манбафини ўтайди. Ўрта асрлар умумий араб тилшунослигининг муаммоларига бағишланган асарлар қаторида Жалолиддин ас-Суютийнинг “أنواعها و اللغة علوم في المظهر” (“Тил илмларидаги ҳодисалар ва уларнинг турлари”) асарини келтириш мумкин¹⁸. Янги давр араб адабий тилининг ривожланишига ва асл лексикани тартибга солишга Аҳмад Фарис аш-Шидйақ, Рифаъ ат-Тахтавий, Иброҳим ал-Йазижий, Бутрус ал-Бустаний, Салид аш-Шартуний, Адиб Исҳақ каби таниқли араб арбоблари ўзининг кўпмоқдли ҳиссасини қўшдилар.

Араб атамашунослигининг шаклланиши ва ривожланишига бағишланган замонавий асарлар қаторида Мустафо аш-Шиҳабийнинг “الحديث و القديم في العربية اللغة في العلمية المصطلحات” (“Араб тили илмий

¹⁷ Березин Ф.М. История лингвистических учений. – М., 1984. –С. 16.

¹⁸ Болкин В.М. Арабская лексикология. – М., 1975. –С. 9.

атамашунослиги ўтмишда ва ҳозирги кунда”), Камал Юсуф ал-Хажанинг “اللغة فلسفة” (“Тил фалсафаси”), Хусайн Муҳаммад ал-Хидранинг “في دراسة” (“Араб тили тадқиқоти ва унинг тарихи”), Журжи Зейданнинг “تاريخها و اللغة” (“Араб тили тадқиқоти ва унинг тарихи”), Мажид ал-Машатнинг “المقارنة الدراسة” (“Араб тилини ўрганишда қиёсий тадқиқотларнинг роди ҳақида”) ҳамда Муҳаммад Абдул Ҳамид Саъад ва Иброҳим Бухайрининг “اللغوية الدراسات” (“Лингвистик тадқиқотлар”) ишлари алоҳида ўрин тутди. Атамашуносликнинг айрим масалаларини Сати ал-Хусарий “في أحاديث و آراء” (“Тил ва адабиёт ҳақида фикрлар ва суҳбатлар”) ва Маҳмуд Таймур “العامة الألفاظ في الكبير تيمور معجم” (“Таймурнинг луғати. Шева ибораларидаги муҳими”) каби ўзларининг тадқиқотларида атрофлича ўрганганлар.

Умумий қилиб айтганда, араб давлатларининг ўз истиқлолига эришиши билан илмий атамашуносликнинг янада тараққий топишида араб тилшуносларининг хизматлари юқоридир.

Бугунги кунга келиб, араб тилшунослигининг нафақат атамашуносликка оид бўлган масалаларини тадқиқ этиш, балки ушбу тилнинг морфология, синтаксис ва фонетикага оид масалаларини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қодиров Т.Ш., Алиев Д.И. Араб тили лексикологияси. – Т., 2010.
 2. Белкин В.М. Арабская лексикология. – М., 1975.
- Березин Ф.М. История лингвистических учений. 2-е изд. – М., 1984.

ЎЗБЕКЧА МАТНЛАРНИ МОРФОЛОГИК ТАҲЛИЛ ҚИЛУВЧИ АВТОМАТИК АНАЛИЗАТОРНИ ЯРАТИШ МАСАЛАЛАРИ

Н. Абдурахмонова, ўқитувчи (ТошДУТАУ)

Инсон учун сўзларнинг морфологик шаклланиши, яъни уларнинг нутқда воқеаланиши табиий ҳодиса бўлиб, уларни сўз асоси ва қўшимчаларга ажратиш муаммо эмасдек туюлади. Бироқ бу жараён сўзларнинг автоматик таҳлилида процедура сифатида қаралади (бу тушунча машина таржимасида пайдо бўлган[1]).

Тил синтетик типларининг автоматик морфологик таҳлили бирор тилнинг бой морфологияси ва турли шакллари, қолаверса, сўзшаклларини идентификациялаш ҳамда имкониятга қараб қандайдир синфларга ажратишдир [2]. Компьютер лингвистикасида олиб борилаётган ишларда автоматик таҳлил қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

• фразиларни лексик қайта ишлаш;

• қўшимчаларни идентификациялаш.

Атъянвий тилшуносликда морфологик анализга “нима тасвирлашди?”, деган савол қўйилса, компьютер лингвистикасида эса антидаги сўзшаклларнинг “қандай?” ажратилиши муҳим саналади. Айрим мавзиларда кўрсатилишича, морфологик таҳлилнинг бир қанча нуқталари мавжуд. Морфологик таҳлилга кўра, сўз асоси ва қўшимчаларни текшириш ва сўзшаклларнинг тахминий асос ва қўшимчаларни ажратиш йўли билан анализнинг классик схемасини янгилаштириш бўлса, яна бирида сўнги ҳарфий бирикмаларни ўз ичига олган муайян маълумотлардан фойдаланилади. Бу маълумот луғатни тахминий статистик қайта ишлашни ўз ичига олади [3].

Флексив тилларда морфологик таҳлил қилиш бироз қулайликларга эга. Ушбу сўзларнинг тартиби гап бўлақларини аниқлаш орқали компонентларнинг синтактик вазифаси белгиланса, ўзбек тилида қўшимчалар айрим ҳоллардагина синтактик ҳолатни кўрсатиб туради. Хусусан, қаратқич келишиги қўшимчаси ҳамيشа қаратқич аниқловчининг грамматик воситасидир, деган қонидани келтириш мумкин: *китобнинг муқофаси*; бу ўринда, бошқа келишик ва қўшимчалар ҳол ва тулдирувчининг қўшимчалари бўлиб келади: *мендан сўзламоқ(тулдирувчи) – тонгдан(ҳол) йўлга чиқмоқ ва ҳ.к.*

Морфологик анализда фақат у ёки бу категорияларни таҳлил қилиш билан чекланмаслик керак, назаримизда. Айниқса, машина таржимасида грамматик категорияларнинг берилиши ўзи кифоя эмас. Юқорида тилга олинган баъзи муаммоли ҳолатлар учун Родолфе Делмонте лексикон учун қўлидаги лингвистик категорияларни кўрсатиб ўтади [4]:

- Грамматик категориялар
- Семантик категориялар
- Дискурс даражасидаги категориялар
- Синтактик категориялар
- Кўринишли (aspectual) категориялар
- Семантик концептуал категориялар
- Чегараланган лексик бирликлар
- Грамматик чекловлар

Бундай таснифлаш италян тили учун хос бўлиб, унинг лингвистик томонлари ҳисобга олинган.

Матнларни таҳлил қилувчи автоматик анализаторни яратишда дастлабки босқич сифатида ўзбек тилининг электрон морфологик луғатини

яратиш масаласи қўйилади. Унга кўра, ҳар бир сўзнинг қайси сўз туркумига оидлиги аниқ статистикаси кўрсатилади. Ҳар бир лексеманинг муайян морфологик хусусиятлари жадвалларда акс эттирилади. Ундан кейин ҳар бир лексема сўз туркумлари бўйича тўпламларга таснифланади. Тўпламларга ажратишда ана шу лексемаларнинг умумий семантик, қолаверса формал жиҳатлари инобатга олинади. Тўпламларга ажратилган ҳар бир сўзга қўшилиши мумкин бўлган қўшимчалар комбинацияси аниқланади. Ундан олдин барча қўшимчалар функционал белгиларига кўра гуруҳларга ажратилиб, уларнинг ўзбек тилидаги барча бўлиши мумкин бўлган мантикий базаси шакллантирилади.

Морфологик таҳлил қилувчи автоматик анализаторнинг амалий аҳмияти:

1) автоматик таҳрирда ҳар бир сўзнинг имловий хатосини текшириш ва сўзлардан фойдаланиш;

2) ўзбек тилини ўқитишда ўрта ва олий таълим бўғинларида электрон доска ва слайдлардан фойдаланган ҳолда таълим тизимини янада оптиммалаштириш;

3) автоматик таржимада у ёки бу тилдаги матнни ўзбек тилига таржима қилишда гап структураларини синтактик бўлақларга ажратишда ҳар бир компонентнинг қиймати берилган базада ўз ифодасини топади, бу эса таржима жараёнини енгиллаштиради;

4) чет эллик талабалар учун автоматик ўқитиш тизимини ярагишда муҳимлиги билан ажралиб туради.

Амалга оширилган ишларнинг тахминий натижаси “Б” ҳарфи мисолида кўрсатиш мумкин:

Сўз туркуми	Лексема (намуна)	Статистикаси
От	бадантарбия	1460
Фсъл	бастала	279
Сифат	баадаб	750
Равиш	баайни	200
Сон	беш	22
Олмош	бари	26
Боғловчи	балки	10
Юклама	биргина	4
Кўмакчи	бадалида	27
тақлид сўз	бидир-бидир	20
ундов сўз	боракалло	15
модал сўз	билишимча	4

Сўзларнинг автоматик морфологик таҳлилида биз куйидаги усулдан фойдаланамиз. Ҳар бир лексема муайян жадвалда акс этади. Унда сўзларнинг асоси ва унга кўшимча жадваллар киритилган бўлади, бу кўшимча жадвалларда сўзшаклларнинг истисноли ҳолатлари акс этади (ЭҚ-этилик кўшимчаси, КҚ-келишк кўшимчаси):

Кўшимчалар қўшилганда фонетик ҳодисалар содир бўлувчи барча сўзларнинг рўйхати: шаҳар+ЭҚ=>шаҳрим, мен+КҚ=>мени (товуш сўшуши); сўроқ+ ЭҚ=>сўроғи (товуш алмашиниши); у+ КҚ=>унга товуш ортиқрилиши;

- омоним сўзлар рўйхати;
- тургун бирикмалар ва иборалар рўйхати;
- несосий кўшимчалар ва уларнинг бўлиши мумкин бўлган барча комбинациялари рўйхати;
- сўз бирикмасига омонимлик ҳосил қилувчи қўшма сўзлар ва иборалар рўйхати: бошига кўтармоқ (ўз маъносидан), 1) шовқин солмоқ; 2) кўрмни қилмоқ ва ҳ.к.

Хулоса ўрнида шуни айтиш ўринлики, тилнинг коммуникатив ақлияти бугунги глобаллашув жараёнида тобора ортиб бормоқда. Мил.шумотларни тезкорлик билан қайта ишлашда компьютер технологияларининг ўрни беқиёс бўлиб, бу жиҳатдан Компьютер лингвистикаси олдида жиддий вазифаларни белгилаб беради.

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетида “Компьютер лингвистикаси” тўғараги тузилган бўлиб, унда талабалар илмий лойиҳалар устида иш олиб бормоқдалар. Умид қилишимизки, морфологик анализаторни шакллантириш компьютер лингвистикасидаги айрим муаммоларни ечишга ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Василевский А.Л. Марчук Ю.Н. Вычислительная лингвистика (учебное пособие) М., МПТИИЯим. М.Тореза 1970, 265 С.
2. Марчук Ю.Н. Компьютерная лингвистика (учеб.пособ.) М., Восток Запад, 2007, 61 С.
3. Ўша асар, 62-23 С.
4. R.Delmonte. Computational Linguistic Text Processing: Lexicon, grammar, Parsing and Anaphora Resolution, Nova Science Publishers, Inc. New York, 2008, 4-5 Ps

O‘ZBEK TILINI O‘RGATISH DASTURINI YARATISHGA DOIR AYRIM MASALALAR XUSUSIDA

N. Abduraxmonova, o‘qituvchi (ToshDO‘TAU)

Z. Xoliqova, talaba (ToshDO‘TAU)

Kompyuter lingvistikasining muhim amaliy sohasi tilni kompyuter yordamida o‘qitishdir (Computer Assisted Language Learning-CALL). Bugungi kunda multimediyali dasturlar, virtual o‘qitish vositalari didaktik maqsadlarda faol qo‘llanilib, kompyuterlardan quyidagi holatda til o‘rgatishda foydalanib kelinmoqda [1,138-139].

1) O‘qituvchiga kompyuter-yordamchi (an’anaviy mashg‘ulotda alohida bosqichda o‘qituvchining kompyuterdan foydalanishi)

2) Kompyuter-o‘qituvchi (berilgan ssenariy bo‘yicha butun kursni yakka tarzda o‘rganish)

3) Kompyuter-bilimlar “baholovchisi” hamda manbasi (egallangan bilimni “baholovchisi” hamda kerakli ma’lumotlarni beruvchi sifatida kompyuterga o‘zi murojaat etuvchi kishi tilni masofaviy ta’lim asosida guruh yoki individual o‘rganishi)

Bugungi kunga kelib, turli elektron o‘qitish vositalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- Elektron darsliklar
- Test oluvchi dasturlar
- Shug‘ullantirishga mo‘ljallangan dasturlar
- Har xil darajadagi o‘yinli darslar
- Elektron lug‘atlar

Shuningdek, til o‘rgatishda taqdimot texnologiyasi, elektron multimedia darsligi, elektron ensiklopediya, o‘rgatuvchi audio dasturlar, universal test dasturi, elektron virtual kutubxona, masofaviy ta’lim dasturlardan ham foydalaniladi.

O‘zbek tili davlat tili bo‘lganligi sababli barcha tashkilot hujjatlari o‘zbek tilida yuritiladi. Shu bois O‘zbekiston fuqorolarining har biri o‘zbek tilini mukammal darajada bilishi talab etiladi. Bugungi globalashuv jarayonida kishilar uchun har jihatdan qulay bo‘lgan vositalar til o‘rganishda ahamiyatlidir. Ular hayotimizningajralmas qismiga aylanib borayotganligi sir emas. Endilikda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

1. O‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarining elektron hamda multimediali variantlarini tayyorlash;
2. Til o‘qitish jarayonini avtomatlashtirish.

Mn'lumki, ingliz tili bo'yicha yetarli dasturiy ishlanmalar yaratilgan bo'lib, ular hozir har bir til o'rganish istagida bo'lgan o'quvchida mavjud, desak yangilishmagan bo'lamiz.

O'zbek tilini o'qitishda til o'rgatuvchi dasturning lingvistik masalalarini hal etish bo'yicha muayyan darajada tasniflash kerak bo'ladi:



I O'zbek tili 1-til sifatida o'rganuvchilar uchun darajaviy ta'lim bosqichlari uchun dasturlar yaratish:

- 1) oddiy daraja (maktab);
- 2) o'rta daraja (kollej, litsey);
- 3) yuqori (oliy ta'lim)

II. O'zbek tili chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun darajaviyelektron o'quv qo'llanmalar, dasturlar va o'zini nazorat etuvchi dasturlar yaratish;

III o'zbek tili 2-til sifatida - o'zbek tili ikkinchi chet tili sifatida o'rganishga mo'ljallangan dasturlar.

O'zbek tilini o'rgatish bo'yicha qo'llanmalar tuzishda, asosan, boshqa til imkoniyatlarini hisobga olish o'rinli. Biroq tuzilgan dastur u yoki bu xorijiy tilga tegishli bo'lmay universal holda bo'lish zarur. Shuni ham aytib o'tish kerakki, u yoki bu qoidalar yoki grammatik tushunchalarni izohlashda rus tili yoki ingliz tilidan foydalanish o'rinli bo'ladi.

Fonetik safda o'zbek tilida mavjud ayrim tovushlar boshqa millat vakillari uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Masalan, *q*, *g'* undoshlari yoki *i* undoshining *ilm* <=> *bilim*, *u* tovushini *burun* <=> *kumush* so'zlarida yumshoq yoki qattiq talaffuz etilishiga alohida e'tibor qaratish maqsadida ovozi dasturni loyihalashtirish kerak bo'ladi. Shuningdek, *x* va *h* harflari farqlashda paronim so'zlar yordamida tushuntirish amaliy ahamiyatga egadir. Masalan, *shox* (*branch*)- *shoh* (*king*), *xol* (*birthmark*)- *hol* (*situation*), *xil* (*kind*)-*hil*-*hil* (*well open*) kabi.

O'zbek tilidagi ayrim so'zlar aynan u yoki bu tilga tarjima qilinmaydigan holatlar rang bilan bog'liq tushunchalarda kuzatish mumkin:

ko'k cho'y-zelënyчай => yashil

qora non-brown bread => jigarrang

qora ko'z-dark eyes => qora

ko'zi ko'kargan => black eyes

Demak, tillar o'rtasida ranglar bilan bog'liq va tilning o'z xususiyatlari bilan bo'lgan ba'zi nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun bunday so'zlar va birikmalar lug'atini tuzish ehtiyoji mavjudligini ko'rsatadi. Bu holatni o'zbek tilidagi maqollar va iboralarda lingvokulturologik xususiyatlari mavjud birikmalarda kuzatamiz: *Toqqa chiqmasang do'lona qayda, jon kuydirmasang jonona qayda* maqolida sof o'zbek tilining milliy xususiyatlari sezilib turadi. Ingliz tilida esa buni *No pain, no gain* tarzida izohlash mumkin. Biroq bu juda soddagina sharhdek tuyuladi. Shuning uchun har bir leksemaga alohida madaniy hodisalarning ta'sirini ko'rsatib o'tish lozim bo'ladi.

Til o'qitishni avtomatlashtirish dasturini yaratishda o'zbek tili grammatikasini modellashtirib chiqishimiz kerak. Biroq tilning iqtisodiy tejamkorligi nuqtai nazaridan so'zlashuv uslubining ham dasturiy tomoni yaratilishi zarur. Buning uchun alohida so'zlik yaratilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda o'qitishning kompyuterlashtirish nazariyasini ishlab chiqish o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradigan, o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni shakllantiradigan ta'limiy- elektron ishlanmalarni yaratishning umumiy va xususiy mezonlarini belgilash zaruriyati o'ta muhimdir. Mutaxassislar fikricha, ta'limiy- elektron ishlanmalar asosan texnik, pedagogik, metodik talablarga javob berishi zarur. Ular shunday talablarga mos kelsagina, ta'lim jarayonida qo'llash mumkin. Bu tizimni yanada rivojlantirish, kompyuter lingvodidaktikasini yangi dasturiy ta'minotlar va pedagogik texnologiya, bilimlar diagnostikasi bilan boyitish kompyuter lingvistikasi fanining dolzarb vazifalaridan sanaladi [2, 68].

Til o'rgatishni tashkillashtirish uchun loyihalarni moliyalashtirish, tarjimonlar va lingvistlar faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зубов А.В., Зубова И.И. Информационные технологии в лингвистике: учеб. пособие. М.: Академия, 2004.
2. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. - Toshkent, 2007.

THE IMPLEMENTING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNIQUES IN EDUCATION PROCESS

Kh. Akhmadalieva, teacher (UzSWLU)

Nowadays it is obvious that innovative pedagogical techniques provide learners an opportunity to improve not only their language learning skills, but also academic, social and generic skills. High quality learning is based on CALL (Computer-Assisted Language Learning). Teachers who put computer technology to use in the service of good pedagogy will undoubtedly find ways to enrich their educational program and the learning opportunities of their learners.

It is lucid that importance of information technology in educational sector is well known. Information technology helps the learners, as well as, the teachers in studying the course material easily because of fast access. Studying the subjects with the help of online libraries and dictionaries has made grasping and increasing the knowledge easy for the learners.

Advancements in information and communication technology have not only benefited education, but also continue to shape the way the field itself develops. With more powerful software and applications, along with mobile devices such as tablet computers, personal digital assistants (PDAs) and laptops becoming more prevalent in the classroom, information technology offers many benefits to all aspects of education. Therefore, English teachers have the opportunity to engage more learners and lead a more involved, energetic class.

The principal aim of innovative pedagogical techniques is to develop students language skills, communicative skill as well as critical thinking based on learner-centered approach so teachers should make attempt to conduct lessons with innovative pedagogical techniques. Here some techniques are given:

Digital ink is a major advance in information technology making it easier for faculty and learners to complete tasks. Teachers can enter grades and assignment updates online, rather than in a paper grade-book. Libraries with a digital database in place of a traditional card catalog make their resources available for learners to search anywhere with an Internet connection. Staff members can find and send transcript information and other records quickly by accessing a digital filing system, saving time and paper.

Adobe Flash offer educators to design audio-visual narrative themes involving the student's actual participation (learning video games). It is considered advanced pedagogical technologies software and can assist developers in creating such applications.

Voice over Internet Protocol enables a person's voice to be transmitted through an Internet connection. Interactive audio and video allow real time communication using phones and computer at the English lessons. Voice and pedagogical technologies presentations can also be delivered to a dispersed class with questions and answers taking place in real time. By the assisting of interactive software, teachers can increase literacy and understanding in any subject. Lessons with audio and video components that directly engage learners reach more types of learners in comparison with traditional lecture methods of teaching, encouraging more learners to participate in class and raising their level of understanding.

WebQuest is an inquiry-oriented activity in which most or all of the information used by learners is drawn from the Web. WebQuests are designed to use learners' time well; to focus on using information rather than looking for it. In it, all topics are given in the table and the teacher inquires students to prepare for one topic and gives the address. Students search and find out the given topic. First of all, students are aware of the new topic and a variety of exercises are offered to firm the topic and descriptions of what the learner should have done at the end of the exercise are provided. The instructor can also use this place to provide learning advice and interpersonal process advice, such as how to conduct a brainstorming session. The Process description should be relatively short and clear. For example, Week 1 of Cheryl Rondstvedt's "Ocean Pollution/Solution" unit involves learners doing a lot of activities, but the steps are clearly specified. Note that in this case, the resources needed are embedded within the steps rather than separately listed.¹⁹ This model encourages teachers to create new activities and adapt already successful ones to take advantage of the power of the Web for their learners. Because the model does not specify length of lesson, these lessons can be a short WebQuest (one to three days) or a long WebQuest (one week to one month).

Teachers should use modern pedagogical techniques in order to make their learners use the language, and, hence, communicate effectively and efficiently. The application of pedagogical techniques to the field of language learning is essential to enrich learners knowledge. Furthermore, each of it is distinctive because it insists on positive interdependence, team formation, accountability, structure, structuring learning and developing social skills. Finally, a well-structured framework of pedagogical techniques enable learners to learn language functions more effectively than the traditional language learning methods do.

¹⁹ <http://edweb.sdsu.edu/triton/PollSol/Week1.html>

To sum up, success of the learning/teaching process largely depends on a set of factors such as learners' motivation, appropriate selection of the teaching approaches, methods, tasks and materials that are mostly determined by learners' psychological characteristics such as learning style and type of intelligence. Each of the techniques can be successfully adopted in the English language classroom either in combination or separately.

Reference:

1. Bentley E. M., & Freudenstein, R. (Eds.). CALL for the Nineties: Computer Technology in Language Learning. Marburg, Germany: IFLV/IIUROCENRES. 1991. – 156 p.
2. Eastment D. Quality Sites on the World Wide Web. Where are the Good Web Pages? *Modern English Teaching*, 2. 1998. – Pp.68-78.
3. Benz, P. (2001). *Webquests, a Constructivist Approach*. <http://www.ardocol.ac-grenoble.fr/english/tice/enwebquests.htm>

ИРҚ БИТИГИДАГИ ОТ ТИМСОЛИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Ҳ. Алламбергенов, ўқитувчи (НукусДПИ)

Биз ибтидоий тафаккурнинг маҳсули сифатида юзага келган мифологик образларнинг тасвирий санъатда, қадимги ёзма ёдгорликларда ва фольклорда уйғунлиги ҳақида олдин сўз юритганмиз. Шу тимсоллардан бири отдир.

От тимсоли туркий халқлардагина эмас, балки дунёдаги кўплаб халқлари оғзаки ижоди ва қадимги тасвирий санъатида бор. Қолаверса, от тимсолининг ёзма ёдгорликлардаги талқини эпос ва эртақлардагидан маълум даражада фарқ қилади. Бу фарқ, асосан, ёзма ёдгорликларда том маънода мифологик мазмунини сақлаб қолганлиги билан аҳамиятлидир.

От тимсолининг қанотли ёки олд оёқлари инсон қўллар сингари тасвирларидаги мифологик мазмун моҳиятига кўра, туркий халқлар фольклоридаги анъанавий тасаввурлар – от қахрамоннинг йўлдоши экани ҳақидаги тушунчалардан тамомила фарқ қилади. От қахрамоннинг доимий қимроҳи сифатида тасвирланган ўзбек халқ достонлари ва эртақларидаги сюжетларда қахрамон билан от доим баравар ҳаракат қилади. Уларнинг фиолияти асло бир-биридан ажралмаган. Қолаверса, биз бу ҳақда тўхталмаймиз, чунки ўзбек халқ оғзаки ижодидаги от образи ҳақида тўққикотлар яратилган.

Бизни қизиқтирган масала бошқа ёқда – от тимсоли билан боғлиқ мифологик сюжетларнинг удумлар ва урф-одатлар билан боғлиқлигидир. Ўтган асрнинг 50-йилларигача *культ мифлари* деб аталадиган миф турида “миф + удум” алоқалари мавжудлиги етакчилик қилган эди, яъни ҳар қандай удум мифнинг инсценировкасидан иборат, миф эса юз берган удумни изоҳлайди ёки асослайди²⁰ деган назария устун бўлиб келди. XIX асрнинг 80-йилларида эса миф устидан удумнинг устунлиги ҳақидаги қарашлар устивор бўлди. Хусусан, бу қарашларни динлар тарихи бўйича йирик мутахассис У Робертсон-Смит, англиялик этнограф А. Маретт ва бошқа бир қатор олимлар илгари сурдилар. Аммо XX асрнинг 50-йилларига келганда, француз олими К. Леви Стросс миф ва удум муносабатлари ҳақидаги мавжуд қарашларга нисбатан мифнинг структуралистик назариясини илгари сургач, миф удумдан тамомила мустақилдир, миф том маънода ўз қонуниятларига итоат этадиган мантиқий тузилишга эга, деган назария ҳукмрон бўлиб қолди. Лекин шу билан бир қаторда, мифга удумлар нуқтаи назаридан баҳо бериш ва тадқиқ этиш ҳозиргача устивор бўлиб қолмоқда. Зотан, мазкур қарашларни маъқуллаган америкалик этнограф Р. Лоуннинг таъкидлашича, “ибтидоий мифларда маросим, удум сингари, қадимиятни йириклаштириб кўрсатади; маросим ғайритабиий мавжудотлар орқали берилади...”²¹. Р. Лоуннинг мазкур қараши бирмунча асосли деб қараймиз, чунки қадимги туркий мифология удумлардан ажралмаганлиги ва унда барча тимсоллар албатта ғайритабиий тимсоллар сифатида талқин этилиши бунинг бир далилидир.

Исталган мифологик образ ғайритабиийлик касб эта олмайди, балки одатдан ташқари, инсон тасаввурига сиғдира олмайдиган образлар орқали юзага келган лавҳалар ғайритабиийлик касб этади, деб қараш мумкин. Жумладан, қадимги туркий қабилаларда от билан боғлиқ удумларда шуни кўрамыз.

Қадимги туркий қабилаларда бир қатор маросимлар от билан боғлиқ эди. Жумладан, бирон амалдор вафот этганда, у билан бирга отининг бирга дафн қилиниши бунинг бир мисолидир. Ёки халқлар ўртасида урушнинг олдини олиш, бир-бирларига уруш қилмаслик ҳақида отнинг қонини майга аралаштириб ичиб қасамёд қилишлари ҳам ана шундай маросимларнинг бир кўринишидир²². Отга ва унинг тасвирларига эътиқод ниҳоятда кучли бўлганини ва маросимларда кенг истифода этилганини қадимги Хитой

²⁰Обряды и мифы. – «Мифы народов мира». Второе издание. М.: Советская Энциклопедия, 1992, том 2, С.235.

²¹Юқоридаги мақола. 236-бет.

²²Қаранг: Раҳмон Н. Турк хоқонлиги. – Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти. 1993, 119-б.

Вилоятларида, жумладан, Тан йилномларида Ғарбий турк хоқонлиги ҳақида келтирилган маълумотлар ҳам тасдиқлайди. Келиб чиқиши Қан (Самарқанд) давлати беклари уруғидан бўлган ҳукмдор Шунданинг бош кийин олтин ҳўкиз калласи шаклида, бу ҳукмдорнинг тахти олтиндан ясалган бўлиб, от шаклида эди²³. Отнинг турли буюмлардаги тасвири, шўҳрати, маросимлар ва удумларнинг маҳсулидир. Албатта юқоридаги софи одатлари ёки уруш қилмаслик ҳақидаги шартномалар Хитой йилномларида ёзиб қолдирилганини ҳисобга олмаганда, ҳар қандай давр остидаги удумлар ва маросимларни ҳар доим ҳам тиклаш қийин.

Ирқ битигидаги отга оид парчалар ёки ҳикоячаларда турли мифологик вазминни кўриш мумкин. Куйидаги ҳикоячага эътибор берайлик:

Ола отли тақдир тангрисиман, эртаю кеч юрарман. Ўртада икки ойлик отиман боласи тўқнашган. Одам кўрққан, (Тангри) кўрқма деган, бахт бергайман, деган. Шундай билинлар: яхшидир бу (2)

Ирқ битигининг бошланишида баён қилинган мазкур ҳикоячада асосий ургу Тангрига қаратилган. Тангри – қадимги туркийларда Олий худо бўлиб, юқори оламда жойлашган. Аммо мазкур парчадаги “тақдир тангриси” – Олий худо (тангри) билан бир эмас, балки Олий тангрининг битта вазифасини бажаради – инсониятнинг тақдирида ўзгартиришлар қилади. Тақдир тангриси заминда фаолият кўрсатади, у Олий тангрининг эдилар. Тақдир тангриси –персонификациялашган образ, инсонларнинг тақдирини ўзгартира олиш қудратига эга. Худди Олий тангрига сажда қилганини сингари, қадимги туркийлар инсоният тақдирида ўзгартишлар қила оладиган тақдир тангрисида ҳам топинганлар. Одамларнинг тақдир тангрисини “кашф” қилганлари ва унга ўзларининг ҳаётини боғлаганлари бу тўмсолнинг ғайритабиийлигини пайдо қилади.

Дирвоқе, нега тақдир тангриси *ола от*да? Муҳими ҳам шу – тақдир тангрисининг оти. Ола от, яъни оқ-қора рангли от Олд ва Ўрта Осиё адабиётида вақтнинг рамзидир; айни пайтда оқ ва қора рангли ола от кундуз ва туннинг алмашинувига ишорадир²⁴. Шамаанлар зоти тоза рўқларга илтижо қилганларида, *ола* эпитетини ишлатадилар.

Шу ўринда бир мулоҳазани айтиб ўтишни истар эдик. “Олтун ёруғ” асарини ҳозирги ўзбек тилига табил қилган Н. Раҳмонов “Авесто” билан “Олтун ёруғ” ўртасидаги образлар умумийлигига, “Ригведа” ва “Авесто”нинг мифологик қахрамонлари бирлигига таянган ҳолда,

²³Мияликш А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии. – Новосибирск: Наука СО, 1989, 103-б.

²⁴Қиринг: Стеблева И.В. Жизнь и литература доисламских тюрков. – М.: Восточная литература, 2007, 12-б.

“Авесто”нинг илк шаклланиш даврини милoddан олдинги II минг йиллик бошларидир деган фикрни илгари сурган эди²⁵. Шу нуқтаи назардан “Ригведа” билан қадимги туркий ёдгорликлардаги, хусусан, Ирқ битигидаги от тимсоли солиштирилганда, Н. Раҳмоновнинг юқоридаги фикри яна бир марта ўз тасдигини топади. Зотан, “Ригведа”даги ола от тимсоли ва Ирқ битигида отнинг юқорида биз келтирган тасвири ўртасида уйғунликлар борлиги кўзга ташланади. Иккита мисол келтирамиз:

О Индра, ола отлар эгаси!

Шошил, ибодат қилгани!

Жангу жадалларда ғанимлар

Ола отларни ушлаб қола олмаслар.

Индрага ҳамду сано айтинг бунинг учун!

Мандала 1, 5мисра.

Мана шу икки мисолдан маълум бўладики, қадимги туркий ёдгорликлардаги от, хусусан, ола от тимсолини, шунингдек, бошқа кўплаб (масалан, ер, осмон, хўкиз) тимсолларни қадимги ҳинд ведалари билан генетик ва функционал жиҳатдан қиёсий ўрганиш мақсадга мувофиқдир. Маданий, тарихий, фалсафий тафаккурнинг илдизлари ана шундай қиёсий ўрганишда очилади.

ИЗ ИСТОРИИ МУЖСКИХ И ЖЕНСКИХ АНГЛИЙСКИХ ЛИЧНЫХ ИМЕН

С. Зупарова, преподаватель (УзГУМЯ)

Номенклатура современных английских личных имен представляется своеобразной, весьма причудливой мозаикой, составленной из именованных древних и новых, исконно английских и заимствованных, традиционных и придуманных, отличающихся друг от друга по структурным и семантическим признакам. Мужскому имени **АВРАНАМ**, например, около 4000 лет [1], и оно употребляется в странах английского языка в течение нескольких веков.

Английские мужские и женские личные имена, (...) прошли долгий путь исторического развития, путь, неразрывно связанный с историей английского народа и английского языка.

По структурным и семантическим признакам древнеанглийские женские имена ничем не отличались от имен мужских. Показателем рода

²⁵Олтун ёруғ. 1-китоб. – Т.: Фан. Суз боши, изоҳлар ва қадимги туркийдан ўзбекчага таъдил муаллифи Насимхон Раҳмон. 2009. 7-8-б.

имени выступил второй компонент. У мужских имен он был представлен основными существительными мужского рода: *gar*– поэт. копье; *hafoc*– щит; *helm*– защита, покрытие; шлем; поэт. защитник, покровитель; *man(n)* – человек; муж; герой; *raed*– совет; решение; ум, мудрость; *sigeweard*– советник, дельца; *sunu*– сын; потомок; *weard*– страж; хранитель; защита; опекунство; стража; поэт. владетель, лорд;; спор, *wig*– борьба, война; *wine*– поэт. друг; защитник и др. Вторым компонентом женских имен были, соответственно, имена существительные женского рода *burg, burn*–крепость, замок; обнесенный стенами город; *frithu*– мир; безопасность; убежище; приют; *giftu, gyfu*– дар, подарок; благоволение, милость; *guth*– поэт. бой, битва; война; *henn*– курица; *run*– тайна, секрет, (тайный) совет; руна и др.

В качестве вторых компонентов использовались также имена прилагательные. У мужских имен это, как правило, имена прилагательные, указывающие на общественное положение и черты характера носителя имени: *beald*– смелый, стойкий, отважный; *beorht*– яркий, блестящий, смелый; *heah*– высокий; возвышенный; величественный, важный; горделивый, надменный; *heard*– твердый; тяжелый, трудный; сильный; смелый; отважный; стойкий; *maere*– известный, славный, великодушный; *rice*– могущественный; высокого звания; богатый; власть и др.

Многие женские имена в качестве второго компонента имеют имя прилагательное *leof*– дорогой, любимый; приятный.

В XIV-XVI вв. в Англии редко встречались носители двух личных имен, например, *JOHNWILLIAMWhytting*, *JOHNPHILIPCapel*, *THOMASMARIAWingfield*[2] и др. В XVII-XVIII вв. именование двумя и более личными именами, в особенности девочек, было довольно распространенным явлением. Однако двойные имена *MARYANNE*, *MARYJANE*, *SARAHJANE* и др. и в то время рассматривались как одно имя [2].

Современные женские имена, образованные путем объединения частей двух имен, например, *ANELLA* (<*ANN(E)* + *ELLA*), *MARIANNE* (<*MARY* + *ANNE*), *SARALINDA* (<*SARA(H)* + *LINDA*) и др. вошли в обиход несколько позже. Весьма возможно, что создание имен путем контаминации – явление, продуктивное и в наше время, – было вызвано стремлением иметь звучное, более короткое и цельнооформленное имя. Постепенно контаминированные имена вытеснили моду давать девочкам двойные имена типа *MARYANNE*, *MARYJANE* и др., и в настоящее время

наличие двух личных имен у англичан и американцев явление довольно редкое (ср. современные немецкие женские имена (*Doppelnamen*): *Annegret (Anna + Margaret)*, *Annelotte (Anna + Charlotte)*, *Annetrude (Anna + Gertrude)*, *Ingemarie (Ingeburg + Maria)*, *Lisanne (Elisabeth + Anna)*, *Manelore (Maria + Eleonore)*) и др. Ср. Атакже современные немецкие мужские имена: *Hansgeorg (Johannes + Georg)*, *Hanskarl (Johannes + Karl)*, *Willibernd (Wilhelm + Bernhard)* [3].

Таким образом, мужские и женские имена английского языка в плане содержания отличаются друг от друга.

Литература

1. Косидовский Зенон. Библейские сказания. - М., 1987
2. Withycombe E.G. The Oxford Dictionary of English Christian Names. 2nd edition. - Oxford, 1959
3. Karl Paul. Das Kleine Vornamenbuch. Leipzig, 1967

ОБ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ АНГЛИЙСКИХ ИМЕН

С. Зупарова, преподаватель (УзГУМЯ)

После норманнского завоевания древне английские имена, употреблявшиеся на протяжении столетий. Почти полностью исчезают. Влияние норманнского завоевания на антропонимию проявилось также в ускорении тенденций перехода прозвищ и фамилий.

Широкое распространение в начале в среди аристократии, а затем и в более обширных крестьянских массах приобрели такие принесенные норманнами имена, как *William, Richard, Robert, Hugh, Ralph* и др. одновременно с норманнским завоеванием укреплялась власть церкви, которая к середине XV в. была настолько сильна. Что смогла потребовать от верующих наречение именами только канонизированных святых. Становится распространенными библейские имена *John, Peter, James, Michael, Philip, Simon, Luke, Mark* - для мальчиков и *Mary, Joan, Agnes, Catherine, Margaret, Ann(e)* - для девочек. Женский именник в XXI в. был очень разнообразен; кроме библейских личных имен и имен святых в нем использовались и экзотические, непривычные древним англичанам имена: *Hodierna, Italia, Melodia, Antigone, Cassandra, Norma, Splendor* и др. приведем еще несколько примеров популярных в этот период имен: *David, Thomas, Nicholas, Gilbert, Martin, Maurice, Adam, Stephen, Eleanor, Isabel, Matilda, Margaret*. После XIII в., с усилением влияния церкви, резко уменьшается количество имен, возрастает их частотность, идет

«концентрация имен». С наступлением развитого феодализма в Англии, с усилением роли церкви юридически законным становится только то личное имя, которое давалось при крещении. Изменение имен разрешалось только при принятии духовного сана или при пострижении в монахи.

После установления английской церкви (XVI в.) по закону разрешилось нарекать ребенка любым именем по выбору крестных родителей. В средние века в документах необходимо было точно писать имена, данное при крещении, так как прозвищ и фамилия можно было иметь несколько. Только к 1730 г. окончательно официальной становится фамилия, наследуемая по отцу.

Распространенности библейских имен способствовали мистерии, разыгрываемые в различные праздники. Созданные на сюжеты Библии и Евангелия, мистерии устраивались обычно городскими властями, кружками союзами и цехами ремесленников на Рождество, Пасху и другие церковные праздники на ярмарках и городских площадях. Так, в английский именник пришли из мистерий такие имена, как *Adam, Eva, Noah, Sarah, Joseph, Daniel, Sampson, David, Susanna, Judith, Anna* (из Ветхого Завета), *Baptist, John, James, Peter, Simon, Matthew, Thomas* (из Нового Завета).

После Реформации (XVI в.) личные имена небиблейских святых на некоторое время выходят из употребления (*Austin, Basil, Bennet, Christopher, Dennis, Martin, Fabian, Hilary, Quentin, Valentine* и др.). Получают распространение древнееврейские имена из Ветхого Завета: *Abigail* «отец возрадовался», *Abraham* «отец многих», *Adam* «красный», *Naahsheba* «обольстительная», *Benjamin* «сын моей печали», *Daniel* «бог рассудил», *David* «друг» и др.

Отделившиеся в XVI в. от англиканской церкви пуритане, чтобы отличить своих детей от массы безбожников и «необращенных», определили свои специфические принципы их наречения. Известно, что пуритан отличал религиозный фанатизм, убежденность в своей «избранности», «непогрешимости». В результате гонений многие из них были вынуждены бежать из Англии на континент, часть — в Северную Америку, где пуританские личные имена были особенно распространены на северо-востоке нынешних США.

Часто они давали своим детям латинские имена собственного сочинения: *Beata* «счастливая», *Desiderius* и *Desideratus* «желанный», *Deodatus* «данный богом», *Renovata* «обновленная». Средину и более поздних имен, созданных пуританами (особенно в начале XVII в.),

встречаем: *Free-Gift, Reformation, Earth, Dust, Ashes, Delivery, More-Fruit, Tribulation, Discipline, JoyAgain, FromAbove, Thankful, Praise-God, LiveWell*. Часто пуританев падали в крайность, образуя имена типа *No-Merit, Sorry-for-Sin, Much-Mercey, Sin-Deny, Fear-Not*, либо используя особоредкие, трудно выговариваемые библейские имена (*Bezaleel, Habakkuk*). Иногда использовались библейские имена с отрицательной коннотацией (*Cain, Dinah, Tamar*). Многие из необычных имен, созданных пуританами, выпали из употребления к XIX в. (типа *Lament, Helpless, Obedience* или *Zelophehad*), оставив заметный след в Америке. Тем не менее, вклад пуритан в современный английский именник нельзя полностью игнорировать. От них остались ассимилировавшиеся библейские личные имена *Samuel, Benjamin, Joseph, Jacob, Daniel, Sarah, Susan, Sharon, Hannah*, а также имена от апеллятивов: *Faith, Hope, Charity, Prudence*.

Со временем английские дети стали получать при рождении два имени (*first + middlenames*): личное и среднее. Обычай давать ребенку среднее имя восходит к традиции присваивать новорожденному несколько личных имен. В современном английском именнике случаи присвоения двух или трех средних имен встречается чаще, чем полное отсутствие среднего имени.

Хотя и нет закона, ограничивающего количество средних имен, больше четырех дополнительных средних имен обычно не присваивается: *CharlesPhilipArthurGeorge, AndrewAlbertChristianEdward, EdwardAntonyRichardLouis, AnneElisabethAliceLouise*. Роль среднего имени в настоящее время – служит дополнительным индивидуализирующим знаком, особенно для лиц кто носит широко распространенные имена и фамилии.

Литература:

1. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.: Просвещение, 1983. 223 с.
2. Никонов В.А. Русские // Системы личных имен у народов мира. – М.: Наука, 1989. – С. 262-269.
3. Бондалетов В.Г. Динамика личных имен в XX в. // Личные имена в прошлом, настоящем и будущем. – М.: Наука, 1970. – С. 91-105.
4. Зайцева К.Б. Англичане // Системы личных имен у народов мира. – М.: Наука, 1989. – С. 37-42.
5. Леонович О.А. В мире английских имен. – М.: Астрель, 2002. – 160.

ЧЕТ ТИЛИНИ ҲҚИТИШДА ҲЗАРО ТАҲРИР ҚИЛИШ УСУЛИ

Р. Ибрагимова, Ҳқитувчи, (ТошКТИ)

Чет тилида ёзишни Ҳқитишдан қўзланган пировард мақсад – муайян мақсадга қаратилган аудитория учун сифатли ахборот маҳсулотини муваффақиятли равишда яратиш маҳоратини шакллантиришдан иборат. Шу туфайли таҳрир қилиш малакаси ёзма нутқни Ҳзлаштиришнинг муҳим жиҳатига айланмоқда. Чет тилида матн тузиш кенг доирадаги вазифалар жамлангани – мос сўз бойлигини ва грамматик тузилишларни танлаш, чет тилида қабул қилинган меъёрлар, коммуникатив вазифалар ва мақсадга қаратилган аудитория ҳисобга олинган ҳолда услубга риоя қилиш, матн тузилишларини тилда шаклланган талабларга мувофиқ яратиш билан боғлиқ. Бунда шунини эътиборга олиш керакки, ҳатто она тилидаги матнни таҳрир қилишда ҳам муаллиф Ҳз ноаниқликлари ва хатоларини қўриш учун Ҳз ишига ташқаридан назар солиши керак. Бу чет тилидаги матнларни таҳрир қилиш учун янада қўпроқ даражада хосдир. Айнан шу боис педагогнинг талабалар иншоларини тузатиш ва таҳрир қилиш бўйича иши ҳар доим ҳам етарли даражада ва ягона самарали бўлмайди. Ҳзаро таҳрир қилиш усулидан Ҳқитишнинг қўшимча воситаси сифатида фойдаланиш мумкин.

Ҳзаро тузатиш ва таҳрир қилиш усули Ҳқитувчи томонидан бошқиланган баҳолаш мезонлари асосида хатоларни тузатиш учун Ҳқувчилар Ҳртасида ёзма ишлар алмашинувини назарда тутати. Чет тилини Ҳргатувчиларнинг хатолари кўп жиҳатдан бир хил бўлганлиги туфайли синфдошларнинг ишларини таҳрир қилиш Ҳз иншолари билан бошқитиришга ёрдам беради, демакки, Ҳқитишни оптималлаштиришга Ҳқумлакшади.

Ҳзаро таҳрир қилиш турлари

Оғзаки нутқни, тинглаш ва мутолаа қилишни Ҳқитишдан фарқли равишда, ёзишни Ҳқитиш анъанавий тарзда коммуникатив услуб қонунларидан фойдаланилмасдан амалга ошириб келинган. Бироқ ёзиш Ҳз мақсадига қўра – муаллифнинг фикр ва ҳиссиётларини Ҳқувчига етказиш учун хизмат қиладиган хат – Ҳзаро фикр алмашинув маҳоратидан иборат. Ушбу маҳоратнинг шаклланиши суҳбат ва баҳс-мунозара каби усуллардан фойдаланилганда самаралироқ юз беради. Ҳзаро таҳрир қилиш усули Ҳқитишни Ҳргатишда бундай усуллардан фойдаланиш имконини беради. Бунда Ҳқитувчи чет тилини Ҳзлаштириш даражасига ва машғулот мақсадларига жавоб берадиган қўйидаги таҳрир қилиш турини белгилайди:

1. а) Жуфтликларда ўзаро таҳрир қилиш. Бу ҳолатда талабалар муайян мавзуда ва аниқ белгиланган вақт оралиғида алоҳида яхлит матн ёки битта матн хатбоши тузадилар (масалан, эссега кириш). Сўнгра ўзаро тузатиш ва таҳрир қилиш, баҳолаш ва баҳс-мунозара қилиш учун ўз ишларини алмашинадилар.

б) Гуруҳларда ўзаро таҳрир қилиш. Талабалар кичик гуруҳларда матнлар тузадилар. Сўнгра уларнинг кучли ва бўш томонларини муҳокама қилиш, хатоларни тузатиш, баҳолаш ва ўзаро баҳс-мунозара қилиш учун ўз ишларини алмашинадилар.

Чет тилида ёзиш – нафақат тилнинг турли хусусиятлари (грамматика, лексика, стилистика)ни билиш, мантиқий боғланиш воситаларини ўзлаштириш, балки мақсадга қаратилган аудиториясининг ўзига хос жиҳатларини тушунишни ҳам талаб қилувчи мажмуи маҳорат ҳисобланади. Айнан шу туфайли таҳрир қилиш ишларини энг камида икки даражада – матн мазмуни ва матннинг тил тузилиши нуқтаи назаридан олиб бориш мақсадга мувофиқ.

2. а) Мазмун билан боғлиқ хатоларни аниқлаш учун ўзаро таҳрир қилиш. Ўзаро фикр алмашинув (коммуникатив) вазифасини бажариш – чет тилидаги ёзма ишларни баҳолашда энг муҳим мезон ҳисобланади. Бунда эндигина киришган муаллифлар учун ҳатто она тилидаги ўз ишларини таҳрир қилишда ҳам маъно ва мазмун бўйича хатоларни аниқлаш айниқса қийин бўлади. Шунга карамай, бундай турдаги хатоликлар кўпинча бир хил бўлади (асосий мавзудан четга чиқиш (эътиборсиз қолдириш), асосий мавзуга тегишли бўлмаган тафсилотлардан фойдаланиш, асосий фикрни тасдиқловчи (яққол намоён қилувчи) изоҳлар ва мисоллар мавжуд эмаслиги).

б) Тил хатоларини аниқлаш учун ўзаро таҳрир қилиш. Машгулот (дарс) мақсадига қараб, ўқувчилардан фақат грамматик ёки фақат лексик хатолар аниқланишини сўраш мумкин. Турли хил хатолар ва ноаниқликлар сони кўплиги – чет тилидаги ёзма ишлар учун фавқулудда ҳодиса бўлмаганлиги туфайли, бир тоифадаги хатоларга диққатни жамлаш талабалар учун тузатиш жараёнини жиддий равишда енгиллаштиради. Айни вақтда вазифани шундай тарзда чегаралаш орқали хатоларнинг янада сифатли таҳлилига эришиш ва келгусида уларни бартараф этиш вазифасини янада самарали ҳал қилиш имконияти мавжуд бўлади.

Ўзаро таҳрир қилиш усули мунтазам аудитория ишида ҳам, интернет-платформалардан фойдаланиш орқали аудиториядан ташқарида ҳам қўлланилиши мумкин.

1 а) Аудитория ишида ўзаро таҳрир қилиш. Таҳрир қилиш шифонида амалга оширилади. Ўзаро фикр алмашинув ва ишлар муҳофизати бевосита машғулотда “юзма-юз” амалга оширилади.

б) Он-лайн усулида ўзаро таҳрир қилиш. Талабалар ўз матнларини он-лайнга жойлаштирадилар. Уларнинг синфдошлари матнлар билан танишиб шикоятлар ва таҳрир қилиш бўйича ўз таклифларини ёзма шаклда берадилар. Ўзаро таҳрир қилишнинг ушбу тури аудитория вақтини ташкил имконини беради.

Ўзаро таҳрир қилишнинг қўлланилиши баҳс-мунозара пайдо бўлишига олиб келади, шу тарзда, ўқитиш жараёнини жонлантиради, уни янада янги ва самарали қилади. Бунда ўқитувчи анъанавий равишда сўзлаш бўлиб қолади, талабалар ишлари мониторингини олиб боради ва таҳрирнинг ишини йўналтиради. Ушбу усулнинг асосий функциялари таҳрирнинг қуйидагиларни киритиш мумкин:

- Ўқитишнинг ўзаро фикр алмашинув (коммуникатив) даражасини оширишга ёрдам беради. Анъанавий ёзиш – ўқув фаолиятининг “якка” тури. Ўзаро таҳрир қилишнинг қўлланилиши машғулотларда фаолият турларини ўзгартиришга кўмаклашади (ёзиш, ўқиш, муҳокама қилиш), бу эва ўқувчилар диққат-эътибори жамланиши яхшиланишига ва умуман машғулот самарадорлиги оширилишига олиб келади;

вақтлар ўтди. Таржима назарияси фан сифатида оёққа турди, ривожланди ва ўз устувор йўналишларини аниқлаб олди. Бу борада Федоров А.В., Комиссаров В.Н., Бархударов Л.С., Швейцер А. Д., Рецкер Я.И., Марчу Ю. Н., Ғ. Саломов, каби етакчи таржимашунос ва тилшунос олимларнинг хизматлари салмоқли бўлди. Бунга олиб келган асосий омиллар таржимонлик фаолиятининг илмий жиҳатдан асосий берилишини талаб қилганижтимоий онг шакллари, тилшунослик коммуникация назарияси ва бошқа билим соҳаларининг ривожланиши бўлдики, улар таржиманинг туб моҳиятини ўрганишга назарий асос яратдилар. Бу эса таржимага оид жиддий тадқиқотларнинг пайдо бўлишига олиб келди. Бу нарса таржиманинг тиллараро ва маданиятлараро коммуникацияда таржиманинг вазифаси, мавқеи, имкониятлари моҳиятини очиб беришга йўналтирилган илмий йўналишнинг пайдо бўлишига олиб келди. Республикамизда таржимашуносликнинг кен ривожланишида таниқли олим, профессор Ғайбулла Саломовнинг хизматлари жуда катта аҳамият касб этади. У кишининг меҳнатлар туфайли мамлакатимизда таржима назарияси ва амалиёти бўйича кўплаб назарий ва амалиёчи кадрлар тайёрланди, Хорижда chop этилган асарларни аввалгидек рус тили орқали эмас, балки хорижий тиллардан тўғридан-тўғри ўзбек тилига ўгириш ишлари йўлга қўйилди.

Мустақиллик шарофати билан хорижий мамлакатларга уюштирилган илмий-амалий сафарлар давомида бизнинг миллий кадриятларимизни ўрганиш ва тарғиб қилишга мўлжалланган кўплаб адабиётлар юртимизга олиб келиниб она тилимиз – ўзбек тилига ўгирилди, мамлакатимизда ана шу йўналишда яратилган илмий оммавий асарлар хорижий тилларга, жумладан инглиз, немис ва рус тилларига таржима қилинди ва бу жараён ҳануз давом этмоқда.

Буюк бобокалонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг мумтоз асари “Бобурнома”нинг турли даврларда жаҳоннинг ўттиздан ортин тилларга, шу жумладан, инглиз тилига уч таржимон томонидан уч даврда таржима қилиниши бу асарга қизиқиш сўнмаслигини кўрсатади ва бу ҳол қиёсий таржимашуносликнинг ривожланишига асос бўлиб хизмат қилди. Бу асар XIX асрнинг ўрталарида инглиз шарқшунослари У. Эрскин ва Ж. Лейден томонидан, XX асрнинг 20-йилларида инглиз тадқиқотчиси А.Бейвериж хоним томонидан ва ўтган асрнинг 90-йилларида америкалик шарқшунос У. Тэкстон томонидан инглиз тилига уч хил вариантда таржима қилиниши

тарғида соҳасидаги кўпгина илмий қарашларнинг яратилишига туртки бўлди.

Техириддин Муҳаммад Бобурнинг тарихий-илмий меросини ўрганишда хорижда яратилган илмий ва илмий-оммабоп асарларнинг ўзбек тилига ўгириб, халқимиз, айниқса, ёшлар орасида тарғиб этилишини маънавий кадриятларимизни ўрганиш ва ўсиб келаётган авлодга уларни эъзолашга даъват қилиш борасида қилинган хайрли ишлардан бўлди, десак, муболаға бўлмайди. Бу борада инглиз тили тилларини ва амалиёти бўйича етакчи мутахассис ва таниқли таржимон Ғофуржон Сатимов томонидан амалга оширилган таржималар диққатга сазовордир. У инглиз шарқшуноси Уильям Ҳенрининг “Бобур Ҳиндистонда”, ҳинд тарихчиси Л.П. Шарманинг “Бобурийлар салтанати”, АҚШлик шарқшунос проф. С.М.Берк қаламига эга бўлган “Акбар – Бобурийларнинг энг буюғи”, инглиз шарқшуноси Уитсон Ринибрукнинг “XVI аср бунёдкори”, голландиялик шарқшунос Рунер Годеннинг “Гулбадан”, АҚШлик тарихнавис Ҳарольд Лэмбнинг “Бобур – йўлбарс” каби асарларни инглиз тилидан ўзбек тилига, Имом Бобурий номидаги илмий марказ олимлари томонидан ўттиз олти нафар буюк алломаларимиз, азиз-авлиёлар ҳаёти ва фаолиятига бағишлаб тайёрланган “Ўзбекистон буюк алломалар юрти” деб номланган илмий маънавий тўпламини ўзбек тилидан инглиз тилига “Uzbekistan: A Land of multifarious genuesis” сарлавҳаси остида таржима қилди. Бу таржималарни аслият билан таққослаб, шунингдек, “Бобурнома”нинг турли таржимонлар томонидан амалга оширилган таржима вариантларини таққослаб ўрганиш таржима амалиёти дарсларининг самарали услубини ташминлайди, деган умиддамиз.

Лекин бу билан таржимашунослик олдида турган вазифалар ҳал этилиши деган хулосага келмаслик керак. Бугунги давр талаби шуки, ўқув методини танломлаган ҳар бир ёш мутахассис ўзи танлаган соҳаси бўйича тарғибий хидмасблари билан ихтисослиги бўйича бемалол фикр алмашиш ва шу соҳа бўйича хорижда яратилган илмий ва ўқув адабиётларини тарғибийликсиз таҳлил қила олиш қобилиятига эга бўлмоғи лозим.

Шунинг навбатда нафақат хорижий тилларда яратилган дарсликлар, ўқув кўрсаткичлари, илмий-техникавий, сиёсий ва бадиий адабиётларни ўзбек тилига ўгириш, балки ўзбек тилида яратилган бадиий, илмий ва тарғибий адабиётларни, айниқса буюк аждодларимиз яратган мумтоз асарларни ҳам хорижий тилларга ўгириб, мамлакатимизда олиб

борилаётган ижобий ислохотлардан жаҳон оммасини хабардор қилиш энг долзарб масалалардан бўлиб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Захириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”, Т., 2002 й.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. М., 1975.
3. Левицкая Т.Р., Фитерман А.М. Проблемы перевода. М., 1976.
4. Мусаев Қ.М. Таржима назарияси асослари. Т., 2009
5. Саломов Ғ. Тил ва таржима., Т., 1966.
6. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. М., 1974.
7. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. М., 1983.

ОСНОВНЫЕ ПЕРЕВОДЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ

**Ж. Абдуганиева, старший научный
сотрудник-соискатель (УзГУМН)**

Перевод – это один из видов передачи информации, и это означает, что переводчику следует передавать полученную информацию настолько точно, насколько это возможно. Этого возможно добиться только посредством внесения структурных и семантических изменений. Такие изменения, обусловленные лексическими и грамматическими различиями между языками (а если говорить в целом, различиями между соответствующими культурами), и называются переводческими трансформациями. В теории перевода существует несколько классификаций этого явления. В данном тезисе мы проанализируем классификацию В. Комиссарова, в которой различаются лексические, грамматические и комплексные (или лексико-грамматические) трансформации. [1]

I. Лексические трансформации охватывают семантические связи. В эту группу входят транслитерация, транскрибирование, калькирование и такие лексико-семантические трансформации, как конкретизация, генерализация и модуляция.

Транслитерация – это написание иностранного слова графемами языка перевода. Например, know-how – ноу-хау, the Capitol – Капитолий, Downingstr. – Даунинг стрит и т.д.

Транскрибирование – это репрезентация произношения иностранного слова с помощью графем языка перевода. Например, screenshot – скриншот, look – лук, device – девайс.

Калькирование – это образование нового слова или словосочетания на основе структуры языка оригинала. При этом типе трансформаций существует возможность произвести транскрибирование или перевод только одного слова, а также изменение порядка компонентов словоупотребления.

Например, *petrodollar – нефтьдоллар*

Группа лексико-семантических трансформаций включает в себя преобразования, заключающиеся в определенном изменении семантики. В результате, значение слова или словосочетания на языке оригинала (ЯО) могут быть более конкретными, общепринятыми и в какой-то степени намеренными с целью найти подходящий эквивалент в языке перевода (ЯП).

Конкретизация заключается в подборе при переводе конкретного слова, которое предоставляло бы более детальную информацию о смысле этого слова, нежели это есть в ЯО. [3]

Генерализация – это использование эквивалента с более обобщенным значением. Например: стул, кровать, шкаф – мебель.

Генерализацией называется замена единицы ИЯ, имеющей более узкое значение, единицей ПЯ с более широким значением, т.е. преобразование, обратное конкретизации. Создаваемое соответствие выражает родовое понятие, включающее исходное видовое:

He visits me practically every week-end. Он ездит ко мне почти каждую субботу.

Использование слова с более общим значением избавляет переводчика от необходимости уточнять, субботу или воскресенье имеет в виду автор, говоря о «уик-энде». [2]

Модуляция (логическое развитие) – это трансформация, при которой происходит замена слова или словосочетания ЯО единицей ЯП, значение которой логически выводится из значения исходной единицы и которая является другим способом передачи информации об одном и том же объекте или аспекте одной и той же ситуации. В таких случаях замена часто имеет причинно-следственную связь с оригиналом.

II Другая группа переводческих приемов охватывает трансформации, являющиеся единиц грамматики ЯП. Дословный перевод (синтаксическое преобразование), членение, объединение предложений и грамматическая замена представляют собой так называемые грамматические замены.

При дословном переводе (или нулевой трансформаций) сохраняется синтаксическая структура единицы ЯО с использованием аналогичных

грамматических форм в ЯП. Членение – это грамматическая трансформация, при которой предложение на ЯО при переводе разбивается на два или более; также происходит преобразование простого предложения ЯО в сложное предложение ЯП, в состав которого входят одна или несколько придаточных структур.

При объединении два или более предложений ЯО сливаются в одно предложение ЯП; или же сложное предложение сжимается для получения простого. Грамматическая замена выражается в нежелании переводчика использовать аналогичные грамматические единицы в ЯП. То есть, переводчик старается передать значение единицы ЯО посредством замены грамматической формы слова – части речи или вида предложения.

III. Наконец, существует группа трансформаций, которые позволяют сохранить необходимую эквивалентность посредством изменения как лексической, так и грамматической структуры. Они являют собой иное расположение мыслей, другую точку зрения и другие семантические модификации в том случае, если прямой перевод ЯО невозможен. Основные лексико-грамматические трансформации – это антонимический перевод, экспликация и компенсация. [9]

Антонимический перевод – это описание ситуации с другой точки зрения или же передача утвердительной единицы в ЯО при помощи отрицательной в ЯП или наоборот.

Экспликация (или описательный перевод) – это комплексное изменение, в котором единица ЯП заменяется словосочетанием в ЯП, которое описывает или объясняет её значение.

Компенсация – это намеренное введение дополнительных элементов в перевод с целью компенсировать утраченные элементы смысла, причем либо непосредственно при единице или в какой-либо другой части текста.

Список литературы:

1. Комиссаров В.Н. Слово о переводе – М.: Международные отношения – 1973 – 215с.
2. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода – М.: Международные отношения – 1980 – 167с.
3. Крушельницкая К.Г., Попов М.Н. Советы переводчику. М.: Астрель – АСТ, 2004.
4. Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода – М.: Московский лицей, 1996. – 208с.

5. Миньяр-Белоручев Р.К. Как стать переводчиком? /Ответственный редактор М.Я.Блох.-М.: "Готика", 1999. – 176с.
6. Мир перевода, или Вечный поиск взаимопонимания /А.Чужакин, П.Пашажченко. – М.: Р.Валент, 1999.-192с.
7. Рецкер Я.И. Следует ли передавать аллитерацию в публицистическом переводе? "Тетради переводчика" №3, М., 1966, с.73.
8. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, - 1974. – 216с.
9. Рецкер Я.И. Что же такое лексические трансформации? "Тетради переводчика" №17, М.: Международные отношения, 1980, с.72-84
- 10.Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): Для ин-тов и фак. иностр. яз. Учебное пособие – М.: Высшая школа, 1983. – 303с.
- 11.Черняховская Л.А. Членение и объединение предложений при переводе с целью сохранения компонентов смысловой структуры // Иностранные языки в школе. – 1971 - №4 – с.21-30.
- 12.Швейцер А.Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты – М.: Наука 1988. – 215с.

БОЛА ИФОДАЛАРИНИНГ ГРАММАТИК ТУЗИЛИШИ ХУСУСИДА

**Г. Искандарова, катта илмий ходим-изланувчи
(ТошДЎТАУ)**

Болалар нутқининг антропоцентрик хусусиятларини ўзбек ва хитой ифодалари нутқи мисолида тадқиқ қилиш таълим-тарбия жараёни билан боғлиқ бўлиб, истиқлол йилларида мамлакатимизнинг биринчи Президенти И. А. Каримовнинг ташаббуслари билан мазкур масалага катта эътибор қаратилган. Хусусан, она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида ҳар бир фуқаронинг ўз олдига қўйиши керак бўлган вазифалар билан боғлиқ масалалар таҳлилига бағишланган асарларида ушбу масалага алоҳида урғу берилган: “ёш авлод – бизнинг келажагимиз, уларга ҳар томонлама пухта таълим-тарбия берсак, Ватанимизнинг келажagini, унинг келгуси тараққиёти ва равнақини таъминлаган бўламыз. Болаларимиз биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлса, бизнинг бошқа армонимиз қолмайди⁴².

Боланинг таълим-тарбияси ва когнитив тараққиёти билан боғлиқ хусусиятлар, энг аввало, унинг нутқий хулқида ўз ифодасини топади.

⁴² Баримон И. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий вазифа. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 86.

Нутқий фаолиятни ўрганишга қаратилган тадқиқотлар ичида энг бой маъно шубҳасиз, болалар нутқи билан боғлиқ. Онтогенез, яъни индивидуал нутқнинг пайдо бўлиши, шаклланиши ва лисоний қобилиятни кўникмасининг ривожланиши масаласи бугунги ўзбек тилшунослигида олдидаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Буюк немис олими Вилгельм фон Гумбольдт “бола томонидаги тилнинг ўзлаштирилиши сўзларга мослашиш, уларни хотирга жойлаштириш ва нутқ орқали жонлантириш эмас, балки лисоний қобилиятни машқ қилдириш орқали эгаллашдир” дейди¹. Дарҳақиқат, бола бола ижтимоий ҳаётга қадам қўяр экан, албатта, у бу жараёнга нутқий мулоқот орқали эришади. Бола қисқа вақт ичида ўз она тили грамматикасини тўлиқ эгаллайди. Лекин бунга қадар у мураккаб тил тизимининг турли қонуниятларини ўз “ўлчови” билан ўлчаб, бизга бой материал беради.

Кичик ёшли болаларнинг илк сўзлари кўп ҳолларда сўз-гап шаклида эга бўлиб, бола биргина сўз орқали тугал мазмунли гапни ифодалашни ҳаракат қилади. Тил тизимида бундай гаплар атов гап сифатида қабул қилинади. Боланинг сўз-гаплари ишора, оҳанг ва новербал воситалар ёрдамида турли мазмунни ифодалашга хизмат қилади. Олимлар боланинг бир сўздан иборат гапларини “телеграф усулидаги” гап сифатида қабул қилишса,² Н. Сайидираҳимованинг номзодлик ишида бу ҳодисани “телеграмма типидаги” гаплар, дея изоҳланади³. Бизнингча, ҳар иккаси атамада ҳам сўз орқали қисқа ва тугал мазмунли матн ҳосил қилишнинг эътибор қаратилган бўлиб, ҳар икки атаманинг айни бир маънони қўлланиши мақсадга мувофиқ.

Бола тил белгиларини ўзлаштирар экан, у, аввало предмет, яъни нарсани ёки ҳодисани кўради, унинг атамасини эса предмет моҳиятини англагандан сўнг қабул қилади. Бунгача ўзи ўйлаб топган атама билан луғат бойлигини ошириб боради. Бола ижтимоийлашиш жараёнида катталар нутқига хос кўп жиҳатларни ўрганиб, ўзига хос тарзда ўзлаштиради. Кузатувлар натижасидан маълум бўлдики, кичик ёшли бола вақтни ифодаловчи “кечи”, “бугун” ва “эртага” сўзларининг маъносини тўлиқ англамайди ва нутқида “кеча” ёки “бугун” сўзлари қўлланиладиган ўринларда “эртага”

¹ Детская речь: проблемы и наблюдения. - Л., 1989. - С. 158.

² Қаранг: Гвоздев А. Н. Вопросы изучения детской речи. - СПб: Детство-Пресс, 2007.; Леонтьев А. А. Слово в речевой деятельности. - М., 1965.; Выготский Л. С. Экспериментальное исследование формирования понятий// Избранные психологические исследования. - М., 1956.; Рыбников И. А. Относительно особенностей формирования групп предметов в детском возрасте. - М., 1983; Stern W. Psychology of early childhood up to the sixth year of age. - N.Y., 1930.

³ Сайидираҳимова Н. Мактабгача ёндаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Номинатив дисс. - Тошкент, 2004. - Б. 87.

сўздан фойдаланади. Масалан, 3 ёшу 6 ойлик Темурбек “Мен кеча боғчага бордим” гапининг ўрнига “*Мен эртага боғчага бордим*” дейди. “Кеча” ва “эртага” сўзлари ўртасидаги фарқни тушунмаган ҳолда нутқда қўллайди. Чунки “Эртага” эртага бўлади, сен боғчага кеча боргансан, бугун шанба-ку”, дейилса ҳам, у қайсарлик билан “*йўқ, эртага борганман ку!*” дейишдан чарчамайди.

Бола ифодаларининг грамматик тузилишини текшириш ҳам бизга аниқроқ хулосаларни беради. Маълумки, тилда сўроқ ёки инкор каби воситаларни ифодаловчи қатор усуллар мавжуд. Оҳангни кўтариш ёки уни ўнгатириш орқали дарак гапни сўроқ мазмунли гапга айлантириш мумкин. Инкор гапни ифодалаш учун биз турли ифода воситаларидан фойдаланамиз. Лекин бола бундай гапларни ҳосил қилишда ўзига хос усулни қўллайди. Қизиғи шундаки, ҳар иккала тил ташувчилари грамматик жиҳатдан турли тузилишдаги тилларни ўзлаштиришларига қарамай, айнан сўроқ ва инкор шакллари ҳосил қилишда муштарак қонуниятдан фойдаланидилар. Ўзбек тили вакилларида инкор маъноли модал сўз – “мас” инкорни ифодаловчи барча воситалар ўрнида (“эмас” тўлиқсиз бўлган ва “-ма” бўлишсизлик аффикси) бу турдаги гапларини ифодалашда кўпроқ кўнг қўлланади. Масалан: *кўча йўқ* – уй, *ака йўқ* – бу бола менинг келин эмас, *уха йўқ* – мен ухламаяпман / мен уйғондим, *хам-хам йўқ* – овқат эътайман, *гўл-гўл йўқ* – копток ёрилди маъносида. Хитой тилида инкор маъно 不 (йўқ) ва “mei you” (мавжуд эмас) шакллари орқали ифодаланади.

不可以 – йўқ, бу эмас маъносида, *不可以* – мумкин эмас, *不大* – катта эмас, *不在* – иттиб эмас; *没有人* – одам йўқ ёки ҳеч ким йўқ маъносида, *没有钱* – пул йўқ ва ҳ.к. Илк даврда хитойлик гўдаклар ҳар иккала инкор шаклини ҳам бирдек аралаш қўллайди: *不我* (мен эмас), *我没有* (мен йўқман), *不爸* (отам эмас), *没有吃* (овқат йўқ), *没令* (совуқ йўқ), *妈妈不来* (онам келмади)

Бола қисқа ва оддий ифодалар яратади. Бироқ аста-секин грамматик жиҳатдан боланинг фикр-ўйлари ҳам мураккаблашиб, ажратилишиб боради. Табиийки, у бу фикрларини реаллаштиришда, бошдан баён этишда ва сўз танлашда қийналади. Шунинг учун унинг ифодаларида грамматик қоидалар ўзига хос қурилишга эга. Бола бир ёшга келишда унинг сўз захираси бир неча сўзни ташкил этса, қисқа вақт ичида бу захирани жадаллик билан ўсади. Икки сўзни қўшиш орқали ўзига хос сўз бирлими ёки гап ҳосил қила бошлаган бола нутқда бундай

ифодаларнинг грамматик шакллари намоён бўла боради. Боланин ифодалари қисқа жумлалардан бора-бора тўлиқ гапларгача кенгайди.

Бола, ўзбек миллатига мансубми ёки хитойликми, бундан қатъи назир ўсиб-улғаяётган ижтимоий муҳит ҳамда ўзининг ички эҳтиёжлари билан боғлиқ ҳолда нутқий фаолиятини кенгайтириб боради ҳамда шу жамиятдаги анъанавий қадриятларни ҳамда миллий ўзига хосликни нутқида акс эттира боради. Болаларнинг илк коммуникатив қобилиятини умумий лингвистик қонуниятлар асосида ривожланишини кўплаб мисоллар орқали кузатилди. Болалар мулоқот орқали ўз эҳтиёжларини баён қиладилар ва шу билан бирга бошқа болалар билан фикр алмашишлари, ижтимоий, этнопсихологик, миллий қадриятлар, умумбашарий мезонлар ҳақида тасаввурларини кенгайтириб борадилар.

ФАТИКА – ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА ЎЗ ТАҚИҚИНИ КУТАЁТГАН МУҲИМ МАСАЛА

Г. Тоирова, катта илмий ходим-изланувчи
(ТошДЎТАУ)

Фатика, *фатик мулоқот* (phatic communion) атамаси илк бор тилшуносликка польшалик инглиз олими, этнографияда функционал антропология йўналишининг асосчиси Бронислав Малиновский (1884-1942) томонидан 1928 йилда киритилган[5]. Фатика лотинча *fatuus* – “бемаъни, мақсадсиз” сўздан олинган [1]. Тилнинг *фатик вазифаси* / **фатик функцияси** атамаси эса Роман Якобсоннинг лингвопэтика билан алоқадор ишлари билан боғлиқ. Фатикани ажратиш учун бош асос коммуникантлар орасидаги мулоқот-суҳбатнинг улар учун аҳамияти, фаолияти учун маълум бир зарур ахборотни ифодалаш ва таъсири – уларни маълум турдаги фаолиятга / фаолиятни тўхтатишга ундаш / ундамаслигидир. Бронислав Малиновский **фатика** ва *фатик функция* атамалари билан коммуникантлар орасида мақсадсиз, маълум бир аҳамиятга эга бўлмаган, зарур бир ахборот / маълумот беришга на ўтказишга уларга ҳеч қандай масъулият юкламайдиган суҳбатга хизмат қиладиган сўзлашув жараёнини номлайди. Бундай қисм, одатан, коммуникантлар орасида мулоқотни сақлаб қолиш (русча общение ради общения) учун зарурдир. Б.Малиновский бундай қисмни *mgsmall talk*[5] ибораси билан шарҳлайди. Бу жиҳатдан **фатика** мазмун-моҳияти билан ўзбекча *гурунг, хангома* сўзлари билан ифодаланадиган қиймат – аҳамиятга тенг.

Роман Якобсон Бронислав Малиновскийнинг тилшунослик учун ёзилган бу тушунчасига – тилдан қатъий бир мақсадсиз, нутқ шароити ва коммуникантларнинг фаолиятлари билан деярли алоқадор бўлмаган, уларга бирор бир масъулият юкламайдиган, вақтни ўтказиш, суҳбатдошлар орасида вербал алоқани фақат сақлаб қолиш учунгина қилинган суҳбат учун фойдаланишга – алоҳида эътибор беради. Унинг доирасини анча кенгайтириб, унга робитасозлик вазифасидаги муносабатни ўрнативчи функция – алоқа-муносабатни ўрнатиш) вазифасини нисбат беради ва шу асосда тилнинг фатик функциясини алоҳида ажратади.

XX асрнинг 50-йилларидан кейин фатика тадқиқи уч даврга ажратиб ўрнинида:

1) Б.Милиновский[5] томонидан *ingsmall talk* сифатида мулоқотнинг мақсадсиз (вақт ўтказиш, жим турмаслик учун) суҳбатнинг алоҳида ажратилиши ва унинг *фатика* теримини билан аталишидан бошлаб (1928), Р.Якобсон томонидан тилнинг 6 та вазифаси сирасида фатик функцияни ажратиш – фатик мулоқот вазифаси сифатида – ажратилишигача (1970) бўлган давр (бу даврда фатикага деярли эътибор қаратилган эмас);

2) Р.Якобсон[3] томонидан фатикани тилнинг алоҳида – фатик мулоқот вазифасининг воқеланиш кўринишларидан бири сифатида ажратилишидан (1970) Т.Винокур[2] ишларида ҳар иккала қарашнинг бирлаштирилишигача (1990) бўлган давр;

3) фатика ва унинг моҳияти, нутқ жараёнидаги аҳамияти; фатик нутқий функция ва уларнинг қўлланилиши Т.Винокурдан кейинги давр (1990 дан ҳозиргача).

Рус тилшунослигида Б.Малиновский ва Р.Якобсон талқинларини Т.Винокур бирлаштириб: «Айтиш мумкинки, айтиш мана шу фатик нутқ сўзловчининг лисоний шахс, тил соҳиби сифатида ўзлигини расмий айтиш эмас, ижод майдонида намоён этади», – деб ёзади[2]. Ўзбек адабиёти ва одатларида ҳам зиёли суҳбатдошларнинг мушоиралари, ҳар бир кинсахонликларнинг ўнлаб турлари: баҳру байт, навоийхонлик, машрабхонлик, хиромийхонлик, маснавийхонлик кабилар ўзбеккона мулоқотда сўзловчи ўз фикрини бир шаклда баён қилиб, сўнгра уни бошқа шаклда – тингловчига тушунарлироқ тарзда қайта баён қилиш кенг тарқалган. Ўзбек мумтоз адабиётида муаллиф ўз фикрини бир шаклда баён қилиб, ўз фикрига тамсил/ҳикоят/ривоят келтириб, уни ҳаётий воқеалар билан шарҳлаб ойдинлаштиради. Жумладан, А.Навоийнинг «Ҳайратул аборар», «Лисон ут тайр»; Машрабнинг «Мабдаи нур», «Кимиёи саодат»;

Пошшоҳўжанинг «Гулзор» асарлари шу усулда яратилган. Ушбу асарларнинг маълум қисмида фатикани кўриш мумкин. Жумладан, мулоқотнинг саломлашиш, сўрашиш, хайрлашиш каби қисмлари фатик моҳиятга эга. Табиийки, фатик мулоқотда одатий лисоний бирликлар қатор нолисоний (экстралингвистик) ва культурологик омиллар таъсири остида ўзига хос қиймат - вазифа ва маъно кашф этади. Ўзбек нутқий мулоқотида фатик (зарур ахборотсиз) ва информатив (зарур ахборот берадиган) қисмларнинг ўзаро алоқалари фанимизнинг “теша тегмаган” соҳаларидир ва ўз тадқиқотчиларни кутмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Англо-русский словарь. Составитель проф. В.К. Мюллер. 14-ое изд. – М СЭ, 1960. – С. 711.
2. Винокур Т.Г. Информативная и фатическая речь как обнаружение разных коммуникативных намерений говорящего и слушающего // Русский язык в его функционировании. Коммуникативно-прагматический аспект. – М.: Наука, 1993. – С.5–29.
3. Иванов В. Лингвистический путь Романа Якобсона // Якобсон И. Избранные работы. – М.: Прогресс, 1985. – С.24.
4. Интернетдан олинган манбалар: library.krasu.ru/ft/ft_articles/01_classes.ru/grammar/146.Lyons/so/(мурожаат этилган сана: 25.06.2012).
5. Malinowski B. Phatic communion // Kommunikation in face to - face interaction/ Harmondsworth, 1972.-p. 6-28.

ЗООНИМ КОМПОНЕНТЛИ МАҚОЛЛАРДА “ЁШ” КОНЦЕПТИ

Д. Тошева, катта илмий ходим-изланувчи
(ТошДУТАУ)

Ўзбек тилида ёш концептини ифодалаш мақсадида турли ҳайвон номларидан кенг фойдаланилади. Халқ оғзаки ижоди намуналарида ёш бола *бузоқ*, *қўзичоқ*, *буталоқ* каби зоонимлар мисолида ифодаланса, кекса авлод вакиллари *ит*, *от*, *туя* каби ҳайвон номлари остида яширинган образлар орқали таърифланади. Аксарият матнларда она фарзандини суйиш, эркаланиш мақсадида “*буталогим*”, “*тойчоғим*”, “*бузоқчам*”, дея ўз жигарбандига мурожаат қилиб, меҳр-муҳаббатини билдиради.

Зооним компонентли мақолларда *ёшлик* ва *кексалик* даврлари оппозицияси тасвирланиб, *навқиронлик* ва *етуклик* тасвири оралиқ ҳодиса сифатида эътироф этилади. Хусусан, *қари ит кўп йўл билар* мақоли таърифланаётган шахснинг узоқ ҳаётий тажрибага эгаллигини кўрсатади.

Унинг амаллари ва бажарган ишлари замирида қандайдир ҳикмат эътирофига ишора қилади. Аммо *тухумдан чиққан жўжа*, *қузи енглимаган мушукча* дея таъкидланган шахс гўр, содда, ёш ва тажрибасизлиги билан характерланади. Бундай инсон ҳали кўп нарсани ўқиб-ўрганиши, тажриба орттириши, ёши улуглар насиҳатига амал қилиши эҳтимлиги таъкидланади.

Ўзбек халқ мақолларининг аксариятида фарзандни тўғри тарбиялаш эҳтимлиги, боланинг келажакда қандай инсон бўлиб етишиши унинг ёшликда олган тарбиясига боғлиқ эканлиги эътироф этилади. *Бузоқни бўш қўйсанг, хурмачани ағдаради*; *Бузоқ кўп эмса бўқади*, *бўш қўйсанг тўқади*; *Ўшшоқи қўзичоқ ойна синдирар* каби мақолларда болага вақтида тўғри тарбия бериш керак, деган фикр илгари сурилган. Тарбия жараёнининг натижаси даражасида олиб борилиши зарурлиги *бузоқ кўп эмса бўқади*, *бўш қўйсанг тўқади* мақоли мазмунидан аёнлашган.

Қари от кўп йўл билар; *Қари товук қарчигайдан қўрқмас* каби мақолларда *қари от*, *қари товук* бирикмалари орқали узоқ ҳаётий тажрибага эга бўлган, тадбиркор ва мулоҳазали кекса авлод вакиллари олдирда тугилади. Уларнинг ҳаёт синовларига бардош бера олишига, авлоддан чиқадиغان тўсиқни енгишига ишора қилинади.

Инглиз халқ мақолларида ҳам ёш концепти зоонимлар мисолида ифодланади. *A new net won't catch an old bird* – *янги тузоқ қўйган билан қари қўшни овлаб бўлмас* мақоли юқорида келтирилган ўзбек мақоллари билан мазмуний интеграцияни ҳосил қилади. Ушбу халқ оғзаки ижоди намунаси мисолида замона зайли туфайли яратилаётган ҳар қандай жиҳозлар ҳам ёшлик йиғилган тажрибага тенг кела олмаслиги таъкидланади.

Old birds are not to be caught with chaff – *кекса қўшни сомон нарчаси билан тутиб бўлмайди* мақоли ҳам худди шундай семик тараққиётга эга. *Қари билганини нари билмас* мақоли ушбу мақолнинг ўзбек тилидаги муқобил варианты бўлиб, ҳар иккала вариантда ҳам узоқ ҳаётий тажрибага эга бўлган кекса авлод вакиллари билан донолиги, топқирлиги ва ҳар қандай вазиятга назиятдан чиқиб кета олиш қобилияти тасвирланади. Шунингдек, *An old dog barks not in vain* – *қари ит бекорга ҳурмайди* мақоли ҳам авлодлар айтидиган ҳар бир сўз, гап ёки фикр замирида олам-олам маъно барлигини ишора қилади. Унда тажрибали ота-боболар ўғитига амал қилган киши кам бўлмаслиги таъкидланади.

Жамиятдаги ижтимоий-сиёсий вазиятнинг тубдан ўзгариши ўсиб бораётган ёш авлод томонидан осонлик билан қабул қилинса-да, кекса авлод вакиллари бундай ўзгаришларга салбий нуқтаи-назардан ёндашади.

Вужудга келган янги шароитга кўникишлари оғир кечади. Ҳатто, вақти келиб, бир уйдан бошқасига кўчиб ўтиш ҳам уларга малол келади. Шу маънода, *an old cat will not learn how to dance* – қари мушук рақсчи тушишини ўргана олмайди мақоли қўлланилади. Инсон ўзи кўниккан шароитдан бошқасига осонликча ўргана олмаслиги, айрим хатти-ҳаракатлар инсон табиатига ўрнашиб қолиш даражасида сингиб кетини мумкинлиги мазкур мақол мисолида таъкидланади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, бир неча минг йиллар давомида ўзбек ва инглиз тилларидаги мақолларда ёш концептини ифодаланиш мақсадида турли жониворлар образидан фойдаланилган. Ёшлик ва тажрибасизлик семалари устун бўлган зоонимлар сифатида инглиз тилида қуйидаги ҳайвон номлари эътироф этилади: *chicken, lamb, goose, kitten, duck, mouse, pig*. Ўзбек тилида мазкур мазмуний майдон доирасида бирлашадиган зоонимлар сифатида *тойчоқ, бўталоқ, қўзичоқ, жўжа, бузоқ, мушук, полапон* кабиларни мисол қилиш мумкин.

Ёшлик ва тажрибасизлик семалари устун бўлган зоонимлар			
Ўзбек тилидаги мақолларда		Инглиз тилидаги мақолларда	
1	Бузоқ	1	Chicken (жўжа)
2	Бўталоқ	2	Duckling (ўрдакболаси)
3	Жўжа	3	Goose (ғоз)
4	Қўзичоқ	4	Kitten (мушук боласи)
5	Мушук	5	Lamb (қўзичоқ)
6	Полапон	6	Little mouse, mouse (сичқон)
7	Тойчоқ	7	Pig (чўчка)

Узоқ ҳаётлий тажрибага эгалик, мулоҳазакорлик ва қарилик семалари инглиз тилида *bird, duck, ox, cat, mouse, fox* каби зоонимлар мисолида ёритилса, ўзбек тилида *тулки, товуқ, ит, от, қарға, қўзғун* сингари зоонимлар олдидан муайян аниқловчиларни келтириш орқали амалии оширилади.

Узоқ ҳаётлий тажрибага эгалик, мулоҳазакорлик ва қарилик семалари устун бўлган зоонимлар			
Ўзбек тилидаги мақолларда		Инглиз тилидаги мақолларда	
1	Ит	1	Bird (қуш)
2	Қарға	2	Cat (мушук)

1	Кузгун	3	Duck (ўрдак)
4	От	4	Fox (тулки)
5	Товуқ	5	Mouse (сичқон)
6	Тулки	6	Ox (буқа)

Ўзбек ва инглиз тилларида инсонга ёш жиҳатдан баҳо беришда қўлланилган зоонимларни икки гуруҳга ажратиш мумкин. Биринчи гуруҳга ҳар қандай шароитда, матн таркибида ёки яққа ҳолда, киши ёштини белгилашда қўлланиладиган зоонимлар киритилса (*chicken, kitten, мойчоқ, ёшшоқ, қўзичоқ...*), иккинчи гуруҳга муайян нутқий шароитдагина бундай ҳолатга эга бўлган, матндан ташқари ҳолатда ёш концептини белгилаш учун хизмат қилмайдиган зоонимлар (*goose, duck, mouse, мушук, тулки, товуқ...*) киради.

Муайян матн таркибида ҳам, ундан ажратилган ҳолда ҳам ёш концепти ифодаси учун хизмат қилувчи зоонимлар		Фақат муайян матн таркибида ёш концепти ифодаси учун хизмат қилувчи зоонимлар	
Ўзбек тилида	Инглиз тилида	Ўзбек тилида	Инглиз тилида
1	Бузоқ	1	Ит
2	Cat (мушук)	2	Bird (қуш)
3	Chicken (жўжа)	3	Мушук
4	Duckling (ўрдак боласи)	4	Duck (ўрдак)
5	Карга	5	От
6	Kitten (мушук боласи)	6	Fox (тулки)
7	Кузгун	7	Товуқ
8	Lamb (қўзичоқ)	8	Goose (ғоз)
			Mouse (сичқон)
			Ox (буқа)

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ўзбек ва инглиз тилларидаги зооним компонентли мақоллар ёш концептини ифодалашда муҳим аҳамият касб этади. Инсоннинг амалий фаолияти, яхши-ёмон жиҳатлари, хислат ва ҳолатлари ҳам мақолда келтирилган зооним ифодасидан англашилади. Зоонимлар матнга қўшимча маъно юклаш учун хизмат қилади. Сўзловчи зоонимнинг қисқа, лўнда ва тушунарли бўлишида муҳим аҳамият касб этади. Мақол яратилган давр дунёқараши ва кундалик ҳаётини ёритиб, турли касб янгиликлари фаолияти билан таништиради. Шундай экан, зооним компонентли мақолларда акс этган ёш концептини тадқиқ этиш

тилшунослик ва маданиятшунослик фанлари билан бир қаторда этнография, психология, социология каби соҳалар учун ҳам аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. –174 б.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – С.5.
3. www.harvard.edu
4. www.univ.kiev.ua
5. www.ziyo.uz

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA QO‘LLANGAN O‘ZLASHMA SO‘ZLAR

M. Xolmuradova, katta ilmiy xodim-izlanuvchi
(ToshDO‘TAU)

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy tilda bitilgan ilk badiiy doston hisoblanadi. “Qutadg‘u bilig” turkiy tilning mavqeini yuqori darajaga ko‘targan. Arab va fors-tojik tillari davlat tili sifatida faoliyat olib borgan bu davrda adibning turkiy tilga murojaat qilgani tahsinga loyiq. Asarda turkiy tildan tashqari arab, fors-tojik, sog‘dcha va sanskrit tillaridan o‘zlashgan leksemalar qo‘llangan.

“Qutadg‘u bilig” asari bo‘yicha tadqiqot olib borgan Q.Karimov asarda “... arab va forscha tillardan qabul qilingan so‘zlar to‘qsondan oshmaydi”, hatto aniq fanlar (astronomiya, matematika va b.)ga oid terminlar ham “faqat va faqat turkiy so‘zlar asosida yozilgani, boshqa tillardan so‘zlar deyarli iste‘mol qilinmaganini ta’kidlab o‘tadi.¹ Shunday bo‘lsada “Qutadg‘u bilig” asarida arab va fors-tojik tillaridan o‘zlashgan so‘zlar faol qo‘llangan.

Asarda arab tilidan o‘zlashgan so‘zlardan, asosan, kishi xususiyatlarini ifodalashda foydalanilgan. Bundan tashqari islom dini bilan bog‘liq leksemalar albatta, arab tilida berilgan.

Kishidagi salbiy xususiyatlarni berishda *ācız* sifati qo‘llangan. *Ācız* so‘ziga -liq mavhum ot yasovchi qo‘shimcha qo‘shilib *ācızliq* leksemasi yasalgan. *Ācız* so‘zi arabcha bo‘lib “iqtidorsiz, zaif, qudratsiz”, *ācızliq* esa “quvvatsizlik, ojizlik” ma’nolarini bildiradi.

¹ Karimov Q. Ilk badiiy doston. -T., 1976. 143-bet.

Nelik boldi aciz özuy ay Elig, Qamuğ edgü qilgü kuchuy bur elig “Nega (sudi) o‘zing ojiz bo‘libsan, ey elig, Hamma ezgu (liklar)ni qilishga kuching (va) [qo‘ling ya‘ni erking] bor” (5362/807)²

“Qutadg‘u bilig” asarida fors-tojikcha o‘zlashmalar ham asar badiiyligini ta‘minlashda faol qo‘llangan. *Adima* fors-tojikcha so‘zdan olingan bo‘lib “juma kuni” ma‘nosini anglatadi. O‘zbek xalqida juma kuni tug‘ilgan qizlarga *Odina* deb ham qo‘yiladi. “Qutadg‘u bilig” asarida bu so‘z *adima namaz* (juma namozi) shaklida kelgan.

Adima‘at bilä qil fariza namaz

Çiqaylar hacı qil adima namaz “Jamoat birla fariza namozini qil, kimbog‘allar haji (hisoblangan) juma namozini qil” (3200/507)

Haytdan anglashiladiki, *fariza namozi* jamoat bilab birga ado etilsa, *juma namozi* kambag‘allarning haj ziyoratiga qiyos qilinadi.

Afsunçi forscha so‘z bo‘lib “sehrgar” ma‘nosini anglatadi. Afsun otiga –çi shaxs oti yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi orqali “afsun, sehr-jodu bilan shug‘ullanuvchi shaxs” ma‘nosidagi yasama so‘z hosil bo‘lgan.

Bularda basa keldi afsunçilar

bu yel yeklig igga bu ol emçilär “Bulardan so‘ng afsunchilar [ya‘ni asar muallimlari] keladi, Yeldan, jindan bo‘ladigan kasalliklarga bular emchidirlar” (4257/653)

Ajarda tabiblarga nisbatan *emçi* termini qo‘llangan. Ular barcha kasallik va rui og‘riqlariga davo bo‘ladigan shaxslar sifatida e‘tirof etilgan. *Emchi* so‘zining ikki xil ma‘nosi qayd etilgan:

1. Emlovchi tabib, vrach, hamshira.

2. *Emi-dimi*, duo, qo‘qiq-suquqlar bilan davolovchi tabib.³ *Emchi* bugungi kunda, asosan, shevalarda izohli lug‘atda qayd etilgan ikkinchi ma‘nosida qo‘llanadi. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida muazzim (afsunçi)lar bilan *otaçi* (*emçi*)larning bir-biri bilan kelisha olmasligini ta‘kidlab o‘tadi.

“Qutadg‘u bilig” asarida sog‘dcha o‘zlashmalar ham salmoqli o‘rin tutadi. Ajarda qo‘llangan *ajun* so‘zi sog‘dcha bo‘lib, “dunyo, olam” ma‘nolarini anglatadi.

Öziñkä muyan ol mana edgü at

Ikigü ajun birlä erklig bayat “O‘zingga manfaat ol, menga ezgu ot (ol) Qodir Xudo ikkala dunyoni ato qiladi” (3223/511)

² Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиғ (Қаюм Каримов тадбири асосида).-Т., 1972. Дастлабки гаҳанлар байт таъбири, кейингиси саҳифани bildiradi.

³ Ушбуқ тилининг изоҳди луғати.-Т., 2007. 38-бет.

Keyinchalik ajun so‘ziga -çı shaxs oti yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi orqali “ajunçı jahongir, hukmdor” ma’nolaridagi yasama so‘z hosil qilingan.

Ajunçıqa erdäm keräk ming tümän

Bu erdäm bilä yer ajunçı cāhan “Jahongirga ming tuman san’at-hunar kerak, Bu san’at-hunarlar bilan jahondor jahonga ega bo‘ladi” (2970/475)

Çurni sanskrit tilidan olingan bo‘lib, “surgi dori” ma’nosini bildiradi. *Churni*-surgi dori, turklar tomonidan qo‘llaniladi⁴

Keräk qat şalışa keräk taryaq et

Keräk mitridus qat ya çurni ögüt “Ista shaliso ishlat, ista taryoq iste’mol qil ista Mitridus ishlat yoki churni, o‘git iste’mol qil” (1050/211)

Çerig sanskrit tilidan olingan. Lashkar, askar, qo‘shin ma’nolarini bildiradi. “Qutadg‘u bilig” asarida bu so‘z faol qo‘llangan bo‘lib, xarbiy termin sifatida o‘rganiladi.

Yemä bu çerig sü erat ma qamuğ

Negü teg berilğu toluğ yoluğ (38/57) “Shuningdek, lashkar, qo‘shin, bahodur askarlar barchasi, Qanday yig‘ilishi, yo‘l yurishi” (38/55)

Xulosa qilib aytganda, “Qutadg‘u bilig”dagi o‘zlashmalar asarning badiiyligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Древнетюркский словарь. Л., 1969. С. 373
2. Karimov Q. Ilk badiiy doston. - T., 1976.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - T., 2007.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (I tom) - T., 2010. 39-bet.
5. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. (Қаюм Каримов тадбили асосида) - T., 1972.

КОГНИТИВ ТИЛШУНОСЛИҚДА КОНЦЕПТ ВА ТУШУНЧА МУНОСАБАТИ

А. Юлдашев, кагга илмий ходим-изланувчи
(ЎЗДЖТУ)

XXI асрга келиб, *антропоцентрик парадигма* тилни куруқ структурни сифатида эмас, балки жонли мулоқот ва коммуникацияга асосланган очик система сифатида ўрганувчи, бошқа тизимлар – жамият, инсон, маданият руҳият кабилар билан узвий алоқадорликда таҳлил этувчи, инсонни тил ичида ёки тилни инсон ичида таҳлил қилишга йўналтирилган қарашлар. Ҳошлар ва маълумотлар мажмуи сифатида майдонга чиқди.

⁴ Древнетюркский словарь. Л., 1969. С. 373

Асосий эътиборини тил фалсафасини ўрганишга қаратган В.фон Гумбольдт инсоннинг оламни идрок этишида тил ва тафаккур муносабати, тилнинг тафаккурга таъсири ҳақидаги қарашларни илгари сурган, бошқичадек, фанга “Халқ тили – халқ руҳидир” деган серкирра тушунчани олиб кирган эди. Мазкур фалсафий қараш негизда ХХ асрнинг сўнгги чорагига келиб, тилшунослик фанида когнитив ёндашув назариясига асос солинди.

Когнитив тилшуносликнинг расмий пайдо бўлишини 1989 йилнинг баъорида Рен Дирвен томонидан ташкил қилинган Дуйсбургда бўлиб ўтган симпозиум билан боғлаш мумкин. Ушбу симпозиумнинг асосий мақсади “Халқро когнитив тилшунослик ассоциацияси”ни ҳамда “Когнитив тилшунослик” (Cognitive Linguistics) ва “Когнитив тилшунослик тадқиқи” (Cognitive Linguistic Research) илмий журналларини ташкил қилишдан иборат эди. Ҳозирги кунда юқорида номи қайд этилган ташкилот ва илмий журналлар фаолият кўрсатиб келмоқда.

В.И.Заботкина когнитив тилшуносликда тил бирликларининг маъноси турли концептлар семантик репрезентацияси сифатида қаралишини таъкидлайди [4; 15].

Ж.Р.Тайлор билим инсоннинг нутқий ва интеллектуал фаолиятида ўзаро боғлиқ жараёнларни инобатга олишини ҳамда улар вербал ва невербал ёки лингвистик (лисоний, тил ҳақидаги билим) ва энциклопедик билим, баҳоловчи билим (фон билим, олам ҳақидаги билим) [10; 65] га бўлишини таъкидлайди.

Инсон борлиқдаги нарса ва ҳодисаларни асосан тил орқали идрок этиш, хотирасида сақлайди ва уни концептуал тизимига жойлайди. И.И.Болдырев таъкидлаганидек, ҳар бир инсон ўз концептуал тизимига эга бўлади.

Оламни билиш жараёнида, яъни уни концептуаллаштириш ва категориялаштиришда баҳо муносабати муҳим ўрин тутди. И.И.Болдыревнинг таъбири билан айтганда, бу жараёнда эгалланган билимлар интерпретацияси, иккиламчи концептуаллаштириш ҳамда муносабат, баҳо ифодалаш, қадриятлар, стереотиплар каби бошқа тизимлар ширисидagi иккиламчи категориялаштириш муҳим аҳамиятга эга [2; 103]. Ашқроқ айтадиган бўлсак, инсон оламни идрок этар экан, албатта, бу жараёнда эгалланаётган билимни унганча бўлган билимлар билан ўзаро боғлайди. Қиёс асосида онгда янги концепт шаклланади.

Когнитив тилшуносликда концептнинг ўрни алоҳида эканлиги оламлар томонидан кўп бор таъкидланган. Жумладан, Е.С.Кубрякова

концептнинг онгимиз ва руҳий имкониятларимиз ҳамда инсон билими тажрибасини акс эттирувчи тафаккур бирлиги эканлиги ҳақида фикр юритади. Унинг фикрича, концептуал тизим фикр юритиш ҳамда инсон психикасида воқелик қиёфасини акс эттирувчи тузилмадир, хотира ментал лексиконнинг фаол мазмун бирлиги, миянинг концептуал тизими, бутун олам манзараси инсон руҳида акс этади [5; 90].

Биз К.С.Кубрякова (1997) Т.Клауснер, У.Крофт(1999), Н.Н.Болдырев (2014) томонидан концептга берилган “концепт – бу инсон тафаккурининг тез ҳаракатчан (оператив) бирлиги ёки тизимли билим кванти” таърифига таянамиз. Негаки концепт инсоннинг ташқи оламини идрок этишида фаол ҳаракатланиб, унинг онгида ментал равишда намоён бўладиган бирликдир. Бу жиҳатдан, тил бирликларнинг когнитив-семантик таҳлил қилиниши ҳам жиҳатдан лозим ва мақсадга мувофиқ. Шу ўринда А.Абдуазизовнинг “...сўзларни турли гуруҳларга ажратиб, маъноларини “семантик майдон”ларда таҳлил қилиш ва ўз навбатида уларни алоҳида концептлар сифатида қараш лозим” [1; 25] деган фикри ўринлидир. Ҳозирда сўз ясалишига когнитив ёндашув масаласига бағишланган илмий тадқиқот ишлари оз. Бу муаммонинг тўлақонли тадқиқ этилиши тил ҳодисалари ортида яширинган когнитив механизмлар моҳиятини чуқурроқ очиб беришга яқиндан ёрдам беради.

Ў.Қ.Юсупов концепт тўғрисида қуйидагиларни баён қилади “Концепт – бу ташқи ёки ички дунёдаги бирор нарса ёки ҳодиса ҳақидаги онгимиздаги билимлар мажмуаси, у ҳақидаги образлар ва унга бўлган ижобий, салбий ёки нейтрал баҳолашлардир (муносабатлардир). [8; 10] Олим тушунча – концепт муносабати тўғрисида сўз юритиб, концепт ни тушунчани айсбергга ўхшатади: “Агар концепт айсберг бўлса, унинг сувдан чиқиб турган қисми тушунчадир” [8; 12].

Фикримизча, тушунча тил бирлигининг мазмун-моҳиятини белгилайди. Масалан: ўзбек тилидаги *бешик* (“чақалоқни белаб ва тебратиб ухлатиш учун тол ёки ёғочдан ясалган йўрга оёқли махсус мослама; тебратма беланчак”) [ЎТИЛ I, 2006: 245] лексемаси орқали инсон тафаккурида *ухлаш учун махсус мослама* яъни, *бешик* ҳақида умумий тушунча пайдо бўлади. Агар биз *бешик*ни концепт сифатида қарасак, унинг ассоциатив маънолари инobatга олинади. Масалан: *бешиктуш, бешиксўноқ, бешиксоз, бешикчи, бешикқуда, бешикка солар, ақиқи, маросим, сарпо, наҳорга ош, рақс, базм каби.*

Мазкур ассоциатив маънолар *бешик* лексемасининг луғавий маъносига ўз аксини топмаган. Демак, тушунча асосий маънони англатади, шунинг ассоциатив маънога эга бўлиши билан фарқланади.

Концепт мундарижасида тил эгасининг дунёқараши ва бошқа турли аспектларнинг белгиларнинг акс топиши муқаррар. Миллийлик ва маданийликнинг кучи шундаки, ҳатто умуминсоний аҳамиятга эга бўлган аспектларнинг мундарижаси ҳам турли қўшимча, коннотатив маъно бўлавларига эга бўлиши мумкин [7; 279].

Концепт қотиб қолган ментал бирлик эмас, Инсон концептни тафаккурда мужассам бўлган билимлари билан қиёслаб боради ва уларни категорияларга бирлаштиради. Оламни категориялаштириш орқали инсон лексик категорияларни яратади. Бу унинг шахсий концептуал билимининг ёйилиши билан баҳоланади. Шундай экан, концепт доимо ривожланишда бўлади.

Концепт борлиқнинг турли аспектларни ўзида акс эттириш нақадимиятига эга бўлган онгли психик структура бўлиб, алоҳида тўлиқ мазмун касб этувчи ва бошқа кичик бўлақларга бўлинмайдиган, яъни ички аспектнинг элементар томонини ифодаловчи тафаккур бирлиги ҳамда инсоннинг борлиқдаги объектлар тўғрисидаги билган, ўйлаган, тасаввур қилинган маълумотлар йиғиндисидир. Концептнинг шаклланиши йилларга тил билан боғлиқ эмас, у қисман образлар, рамзлар, схемаларни ифодалаб, ақлий репрезентацияда ўз аксини топади. Ментал лексикон грамматик категорияларда ҳам намоён бўлиши мумкин. Агар тушунча объектнинг маълум мавжуд белгилари йиғиндиси бўлса, мазмун планига кўра объект тўғрисидаги билимлар йиғиндисини ифодаловчи, ифода томонига кўра (лексик, фразеологик, паремиологик ва б.лар) тил воқеаларининг йиғиндисидан ташкил топган ментал миллий ўзига хослик эҳсосидадир.

Концепт ва тушунча терминлари тўғрисида сўз борар экан, Ш Сафировнинг билдирган фикрлари ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Унинг фикрича: “Сўзсиз бу икки ҳодиса ҳам тафаккур бирлиги алоҳида намоён бўлади. Иккисининг ҳам бошланғич нуқтаси воқеликдаги предмет-ҳодисанинг ҳис қилиниши ва образли тасаввур қилиниши билан боғлиқ. Пайдо бўлган хиссий образ дастлаб ҳар бир шахсда индивидуал шаклида бўлади [6; 15-16].

Юқорида қайд этилганлар асосида шуни хулоса қилиш мумкинки, концепт тил эгаларининг олам ҳақидаги билимлари, тажрибасини акс эттирувчи тафаккур бирлигидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуазизов А. Тилшунослигимиз истиқболлари // Филология масалалари. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 22-25.
2. Болдырев Н.Н. Категориальная система языка / Категоризация мира в языке / Когнитивные исследования языка X – Москва-Тамбов, 2012. 17-101 с.
3. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику. – Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государственный университет имени Г.Р.Державина, 2014. – 236 с.
4. Заботкина В.И. Проблемы концептуальной интеграции // Композиционная семантика: Материалы Третьей Международной конференции семинара по когнитивной лингвистике. – Часть 1 – Тамбов: Изд-во ПТУ им. Державина, 2002. С. 15 – 16.
5. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З. Панкрац Ю.Г. Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – Москва: Филологический ф-т МГУ им. М.В.Ломоносова, 1997. – 245 с.
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.
7. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 344 б.
8. Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим ислохотлар // Филология масалалари. – Тошкент, 2011. – №2. – Б. 9-15.
9. Clausner T.C., Croft W. Domains and image schemas // Cognitive Linguistics – Berlin/New York, 1999. – vol. 10, N 1. – pp. 2-31.
10. Taylor J.R. Linguistic Categorization: Prototypes in Linguistic Theory. – Oxford: Oxford University Press, 1995. – 312 p.

“СОҲИБҚИРОН” ДРАМАСИДА ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Д. Андаиёзова, кичик илмий ходим-изланувчи
(ЎТАИТИ)

Абдулла Ориповнинг “Соҳибқирон” драмаси мустақилликнинг илк йилларида ёзилган кенг қамровли асарлардан ҳисобланади. Асар номидан ҳам маълум бўлганидек, драма буюк саркарда, Соҳибқирон Амир Темури ҳаётининг сўнгги йиллари ҳақида. Драмада Соҳибқироннинг бутун ҳаёти барча икки-чикирларигача қаламга олинган эмас. Асар Амир Темурнинг феъл-атворини кўрсатувчи характеристик воқеалар ва ривоятлар заминига

Муаллиф тарихий воқеаларни, қаҳрамонларнинг ички дунёсини батафсил тасвирлаш усулини қўлламайди. Зеро жанр буни қўтармайди ҳам. Лекин кичик бир сўз, кичик бир воқеани тилга олиш орқали китобхон учун ҳар бир бўлган, уни тўлиқ қаноатлантирадиган маълумотларни бера олган. Айниқса, асардаги баъзи бир **исм, лақаб ёки жой номлари** билан боғлиқ мотивлар китобхон ёдидан чиқмайдиган тарзда ифодаланган. Драма ономастик кўлами жиҳатидан ўзига хос шакллантирилган асар саналлади. Асар мавзу нуқтаи назаридан тарихий воқеликка бағишланган. Шунга мувофиқ асар қаҳрамонларининг аксари тарихда яшаб ўтган шахслардан иборат ва исмлари ҳам тарихий ҳақиқатга мос. Бироқ бадиий асар тўқима образларсиз тарихий воқеаларнинг қуруқ баёнига айланиб қолади. Тарихий воқеликни бадиий асардан ўрганиш ёки тарихни бадиий асар орқали ўргатиш деган тенденция мақбул бир ёндашув эмас. Тарих фанининг ўтмиш воқелигини ёритишда қўллайдиган, замонлар охиридан ўтган ўзининг ўлмас ўлчовлари ва тайин тамойиллари мавжуд. Бадиий асарда эса ижодкор тарихий воқеаларни баён қилишдан ўрни ўша воқеаларни янгидан жонлантиради. Тарих қайдларига тушмаган ҳолатларни ёзувчи тахайюли, тасавури ва аналитик тафаккури ёрдамида тасвирлади. Уста ижодкорлар тарихий мавзунини қаламга олганда ҳақиқат ва тўқма воқеалар уйғунлигига жиддий эътибор берадилар. Табиийки, бадиий ҳақида гап кетганда, асарнинг ифода воситалари ва бадиий меъёри ҳам муҳим саналади. Айниқса, тарихий мавзудаги асарнинг тили воқеалар бўлиб ўтаётган давр тилига мувофиқ шакллантириладими ёки замонавий адабий тил қонуниятлари асосидами? Бадиий меъёр шу жиҳатдан муҳим. Адабиётимизда мавзу тарихий бўлишига қарамай тили замонавий меъёрларга асослаб ёзилган асарлар ҳам топилган. Ва бу ҳолга адабиётшунос ва тилшунослар жиддий эътироз билдиришмаган. Яъни мақбул ҳолат сифатида баҳоланган. “Соҳибқирон” асарини ана шундай адабий тажрибага асосан ёзилган асарлардан биридир.

Асарнинг ономастик кўлами йирик эпик асарлардагидек ниҳоятда кенгайдир. Унда *Амир Темури*, *Бибихоним*, *Мир Саид Барака*, *Амир Ҳусайн*, *Абдул Яссавий*, *Улжой Туркон*, *Мирзо Улуғбек*, *Шохруҳ Мирзо*, *Мироншоҳ*, *Мирзо Пирмуҳаммад*, *Ибн Арабшоҳ*, *Яссавий*, *Боязид*, *Чингиз*, *Маҳмуд Гўзалвий*, *Клавихо* каби кўплаб тарихий шахслар қаторида *Буқаламун*, *Тархон она*, *Борчиқ*, *Шариф*, *Аловиддин*, *Қосимбек*, *Барнос баҳодир* каби ўқима образлар; *Хизр*, *Расули Акрам* каби пайғамбарлар, *Искандар*, *Гамбрис* каби афсонавий шахслар; *Фирдавсий*, *Ҳофиз Шерозий* каби шоирлар тилга олинган.

Бу ўринда бир масалага жиддий эътибор бериш керак. Асар воқеаларида бевосита иштирок этадиган фаол қаҳрамонлар бор. Уларнинг исми табиий равишда асар антропонимиконидан жой олади. Шу билан бирга у ёки бу қаҳрамоннинг нутқида тилга олинган нофаол киши исмлари (тарихий ёки тўқима бўлишидан қатъи назар) ҳам асар антропонимиконидан жой олишга ҳақли. Масалан, *Яссавий*, *Ҳофиз Шерозий* асар қаҳрамони эмас, бироқ уларнинг исми Амир Темур нутқида келиб асарнинг ономастик қўламини кенгайтирмоқда:

Шоир аҳли куйласа бас икки жиҳатни:

Яссавийдек ҳикматларин ёзсинлар ёки

Ёр жамолин васф этсинлар Сиздек – Ҳофиздек...

Худди шунингдек, асар воқеалари бўлиб ўтаётган жой номлари қатори маълум бир сабаб билан тилга олинган жой номлари ҳам асар топонимиконини ташкил этади. Асарда *Турон*, *Туркистон*, *Эронзамин*, *Самарқанд*, *Бухоро*, *Хоразм*, *Хўжанд*, *Румо* каби кўплаб жой номлари билан бир қаторда *Ҳиндистон*, *Оврупо*, *Осиё*, *Москов*, *Елчи*, *Болқон* каби топонимлар ҳам қўлланади. Асарда *Кўхи Қоф* мифотопоними бадийий ниятни ёритиш мақсадида тилга олинади:

Мунтазирмиз амрингизга, о, Соҳибқирон,

Сиз амр этинг – келмиргаймиз Кўхи Қофни ҳам.

Сиз амр этинг – симиргаймиз баҳру уммонни.

Бунда *КўхиҚоф* мифотопоними жангчилар матонатинивауларнинг Соҳибқиронга садоқатини таъсирчанифодалашу чунқўлланилган. Яъни “Соҳибқирон амр этса, аскарлар бажаролмайдиган ишнинг ўзи йўқ”, деган муболагали фикр мазкур мифотопоним воситасида гоёат янги ифодаланган.

Қуйидаги парчада топоним Темурнинг сўзга усталигини ифодалашу ҳамда қофияни юзага келтиришга хизмат қилган:

Ўрусия элчиси:

Бизни озод этдингиз Сиз Олтин Ўрдадан.

Темур:

Тўғрирози, Ўрдани мен олдим ўртадан.

Мазкур сўз ўйини *Ўрда* топоними асосида шаклланган.

Асарда антропонимларнинг алоҳида бадийят билан қўлланилган ўринлари жуда кўп. Хусусан, бу *Темур* ва *Йилдирим* поэтонимларининг апеллятив асосига ишора қилинган ўринда яққол сезилган. Бу тасвир қуйидаги парчада Темурнинг нуктадонлиги антропонимга асосланган ифода билан кўрсатиб берилган:

Босқинд:

*Асир бўлиб турсам ҳамки қошингда, Темуր
Бор эмасман илтифотинг, таассуфингга.*

Темури:

*Оддийгина бир воқеа юз берди, ахир,
Сен йилдириш лақабли бир қудратли чақмоқ
Чунг темирга урилдингу чилпарчин бўлдинг.*

Босқинд:

*Сен устимдан кулмоқдасан, масхара қилма!
Ботирларнинг иши эмас ётганни топташ.*

Темури:

*Топтамасман ва инчунун, кулмасман асло,
Бироқ тақдир деб аталмиш буюк ҳукмдор
Кулган экан иккимизнинг устимиздан ҳам...*

Нарчадин англашилганидек, мазкур суҳбат мағлуб ҳукмдор Йилдириш Босқинд ва музаффар ҳукмдор Амир Темури орасида бўлиб ўтмоқда. *Йилдириш* сўзининг маъносига ишора қилиш орқали жиддий сўзбериш хосил қилинган. Бу сўз ЎТИЛ да эскирган сўз сифатида қолган бўлиб, унинг *чақмоқ*, *яшин* маъноларни англатиши айтилади⁵. Шунда ҳам, яъни Бухоро вилоятининг Олот, Қоракўл туманларида *чақмоқ*, *момақалдиқ* сўзи ўрнида *йилдириш* сўзи ишлатилади. Бу ўринда Амир Темурининг номига ҳам ишора қилинган ва *чақмоқ* (*йилдириш*)нинг *темир*га таъсир *ўтказолмаслиги* каби фалсафий фикр номлар орқали қилинган.

Шоир Амир Темури характерини очиқда (*Йилдириш* ва *Темури*) сўзберишлари орқали хосил қилинган сўз ўйинидан ҳам кўринганидек) унинг исмларга эътибор бериши усулидан кенг фойдаланган. Қуйида қилинган нарчадаги воқеа Амир Темури қабулхонасида бўлиб ўтмоқда. Турли элчи ва чопарларни қабул қилиш маросими бўлиб ўтмоқда. Темури сирой арбобларидан Муҳаммад Қовчиннинг бефаросатларча айтган сўзидан асабийлашган. Худди шу пайт сарандиблик (испаниялик) шоир Борчиқ кириб келади. Темури унинг исмини сўрайди. Чопарнинг *Борчиқ* эканлигини айтади:

Темури:

Борчиқ?

Борчинчи чопар:

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, Тошкент, 2006. 1-жилд, 392-бет.

Ҳа, Борчиқ!

Темур:

Биринчи бор эшитишим бундай исми.

Маъноси не?

Биринчи чопар:

Мен билмайман, уйлаб кўрмабман.

Темур:

Ўз исмининг маъносини билмаган сендек

Элчи билан гаплашмайман.

кутиб тур, бор чиқ!

Бирон юртга чопарини юбормоқ бўлса

Авал уни танлашни ҳам билсин подшоҳлар.

Мисолдан кўриниб турганидек, чет эллик шахс исми ва унга ҳамоҳдани ўзбекча гапнинг алоқалантирилиши орқали омонимлик юзага келган шунингдек, комик эффект ҳам ҳосил қилинган. Бу ўринда яна муҳим жиҳат шуки, инсон ўз исмининг маъносини билиши унинг зийнати эканлиги, Амир Темур эса шу нарсага ҳам эътиборли бўлганлиги А.Орипов томонидан жуда оҳорли ифодаланган. Асарнинг кейинги ўринларида Темур Борчиқни ранжитганини эслайди ва уни қабул қилишга чақиради кўнглини олишга ҳаракат қилади.

Борчиқ:

Исми Борчиқ.

Темур:

(Қаҳқаҳа уради):

Ўша Борчиқми?

Қабулимдан сени бир вақт ҳайдаган эдим,

Маъзур тутгин, хаёлимни банд этганди жанг,

Энди сенга хуш келибсан, марҳабо дейман.

“Соҳибқирон” драмаси ономастик кўламининг марказида турган яна бир ном – Амир Темур хуфясининг лақаби бўлган *Буқаламун* поэтонимидир. Бу лақаб унга Темур томонидан берилган бўлиб, шу сўзнинг маъноси орқали унинг хатти-ҳаракатига ишора бор. Бугунги кунда тилимизда мазкур сўзнинг “Ўзгарувчан, турланувчан, ишониб бўлмайдиган” каби кўчма маънолари фаоллашган. Шу сабаб ушбу қаҳрамон лақаби бошда салбий маъно касб этгандек бўлади. Бироқ асар давомида қаҳрамоннинг юклатилган вазифани адо этиш учун қиёфа ўзгартириш маҳоратига нисбатан қўлланилганлиги сезилади. Буқаламун нафақат қиёфа ўзгартиради, балки лақабини ҳам ўзгартиб боради (олдин

Итолмас бўлганлиги ҳақидаги маълумот қуйидаги парчада келтирилган).
Буқаламун сўзи лугатда шу тарзда изоҳланган: “*Товланувчан, товланон, сфт. кўчма. Ўзгарувчан, бирдек турмайдиган; ранг-баранг*”⁶.
Қуйидаги парчадан *Буқаламун* деб лақаб қўйилишининг сабаби изоҳланган:

Буқаламун:

Оламнаноҳ, ҳозир бўлдим, не буюргайсиз?

Темур:

Йни юмуш топираман сенга ишониб,

Зеро, ҳар не мушкулни ҳам эглаб келгансан.

Хуфяларим орасида эпчили ўзинг,

Хоҳласанг гар ўзгаради буткул қиёфанг.

Ўзгаради ва ҳаттоки кўзингнинг ранги,

Сен билмаган тил ҳам йўқдир етти иқлимда.

Буқаламун:

Оламнаноҳ, шу сабабли лақабимни ҳам

Жуда топиб қўйгандингиз, Буқаламун деб,

Асл исми бир замонлар Итолмас бўлган. Маълумки, *Итолмас* исми ўзбек халқи урф-одатларига кўра қўйиладиган исмлардан бўлиб, ушбу маънода унинг “ён кучлар таъсир қилмайдиган” маъноси ифодаланган.

Асарда Соҳибқироннинг оти *Кунўғлон* ҳам тилга олинади:

Мен – Темурман! Орият ҳам бор-ку дунёда.

Итар энди! Кунўғлонга эгар ургайман,

Рум тарафга юзланади тулпорим жадал.

Амир Темур ҳақидаги бадий асарларда Соҳибқирон отининг лақабига алоҳида урғу берилади. Абдулла Ориповнинг мазкур драмасида отнинг лақаби *Кунўғлон* сифатида келтирилган бўлса, Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” асарида ва Жуманазар Бекназарнинг “Қашқа йўрға” кинесисада *Хонўғлон*, Нурали Қобулнинг “Султоннинг сўнгги куни ёхуд Соҳибқирон Амир Темур ва Тўхтамишхон” номли романида *Ханг Ўғлок* тарзида зикр қилинган.

Ҳерман Вамбери “Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи” асарида Соҳибқироннинг бу сеvimли тулпори ҳақида шундай маълумот беради: “Амир Темурга Ҳирот ҳоконидан келган табрик ва қимматбаҳо ҳадялар ичида “Кўкўғлон” лақабли бир жанг оти ҳам бор эдики, шарқ тарихчилари ушунга мадҳ этиб тугата олмайдилар”. Кўриняптики, тарихий маълумотда

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент, 2006. 1-жилд, 392-бет.

Соҳибқироннинг сеvimли оти лақаби “Кўкўғлон” бўлган ҳолда, у бадий асарда турли талқинларда *Кунўғлон*, *Хонўғлон*, *Ханг Ўғлоқ* тарзида қўлланган. Бу ҳолат юқорида таъкидлаганимиздек, бадий матн талабидан келиб чиққан бўлиши мумкин. Шу жиҳатдан қаралганда, А.Ориповнинг от лақабини *Кунўғлон* деб номлаши бадий тафаккур ҳосиласи сифатида қаралади.

Асар қатламидаги ономастик бирликларга диққатимизни қаратиб эканмиз, бу ўринда яна драманинг номланишига ҳам эътибор қилиш керак. Маълумки, баъзан парафразалар муайян ономастик бирликларга ишора қилиб келган бўлади. Масалан, кўпинча шеърий матнларда ономастик бирлик тилга олинмайди-да, унга ишора қилувчи парафраза келтирилади. Мисол: *Соҳибқирон* – Амир Темур, *Қиёт фарзанди* – Беруний, *Иккинчи муаллим* – Форобий каби.

Соҳибқирон сўзи антропоним даражасига кўтарилгани ҳамди бевосита Амир Темурга ишора сифатида қўлланилгани барчага маълум. Бадий матнда муайян шахс номи ўрнида перифраза қўлланилганда таъсирчанлик юқори бўлади. Тилшуносликда бу ҳодиса **ономастик перифраза** дейилади⁷. Ономастик перифразада машҳур шахслар номи персонажнинг контекстдаги иккинчи номи сифатида қўлланади. Ономастик перифраза шахснинг муайян тавсифий белгиларига ишора қилади. Замонавий ўзбек адабиётида буюк жаҳонгир номи кўпинча ономастик перифраза вазифасида келади. Қуйидаги мисолда бунни кўриш мумкин:

С о ҳ и б қ и р о н ётар устоз пойида,

Жомийни тир тутган Навоий ҳазрат,

Устоз буюк деган буюк қоида

Бу қайтар дунёда азалий ҳикмат (Э.Воҳидов. Устоз)

Умуман олганда, бадий матнда қўлланган ономастик бирликнинг моҳияти асарнинг бадий қатлами билан уйғунлик ҳосил қилиши, унинг ажралмас унсурига айланишида кўринади. Абдулла Ориповнинг “Соҳибқирон” шеърий драмаси ономастик бирликларнинг поэтик имкониятлари жиҳатидан бақувват асардир. Асарда ономастик бирликлар матннинг структурал-семантик яхлитлигига хизмат қилиш баробарида унинг ички динамикаси ва оҳанг бутунлигини ҳам таъминлаган.

“Соҳибқирон” драмасининг ономастик кўламини бир қанча тарихий номлар, тўқима номлар ташкил этганини, уларнинг турли ғоявий-бадий

⁷Бу ҳақда қarang: Калинин В.М. Ономастическая перифраза как проблема поэтики собственных имен (на материале творчества А.С. Пушкина) // Восточноукраинский лингвистический сборник: Выпуск четвертый. Сборник научных трудов. – Донецк: Донецчина, 1998. – С.107-129.

вақтинчаликда келиб, ономастик бирликларнинг ўзига хос “панорамаси”ни ташкил қилганини кўрдик. Бу эса ушбу асарнинг тил хусусиятлари тадқиқида ономастик бирликларнинг ҳам алоҳида ўрни борлигидан аниқроқ беради. Бадий матида ономастик бирликларнинг қўлланилиш хусусиятларини ўрганиш мазкур тил воситаларининг кенг ифода имкониятларини аниқлашга хизмат қилади.

“MAN”-“АДАМ” КОНЦЕПТОСФЕРАСИНИ ЛИНГВОКОГНИТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎРГАНИШ

**Г. Қдырбаева, мустақил изланувчи
(НукусДШИ)**

Когнитив тилшунослик негизда ривожланган лингвомаданиятшунослик тил ва маданиятнинг мураккаб ва кўп аспектли ўзаро муносибатларини тадқиқ қилади. У маданият ва тилнинг ўзаро боғлиқлигида ва ўзаро бир-бирига таъсири жараёнида фаоллашадиган имкониятларини, бу жараёнда қўлланилган лисоний ва нолисоний (грамматик) бирликлар мазмунини яхлит структуралар сифатида системага қўшилган методлар орқали ва маданий қонун-қоидаларга таянган ҳолда ўрганиши.

Инсон образи ҳар қандай фанда ўзига хос йўналишда ўрганилади ва ушбу ёндашувлар асосида тадқиқ қилинади. Концептосфераларнинг таълими улар марказидан жой олган маданий қадриятларни ўрганиш ва аниқлашда ёрдам беради. Бинобарин, «man», «адам», «mother», «ана», «father», «ата», «adult», «ғарр», «child», «бала», «person», «шахс», «human», «инсан», «еркек», «man», «ҳаял», «woman» концептлари мажмуа ўрнинида «man-адам» концептосферасини ҳосил қилади.

«Man/адам» концептосфераси билиш бирлиги сифатида барча тиллар ва маданиятлар соҳиблари учун универсал ҳодисадир, айти пайтда унинг идрок этилиш, ўзига хос хусусиятларининг лисоний воқеланиши ва бирлигини категориялашдаги аҳамияти ҳар бир миллий тилда ўзига хослиги билиш ажралиб туради. Шу нуқтаи назардан, тадқиқотимизда инглиз ва қорикалпоқ халқларига хос оламни идрок қилишдаги идиоэтник хусусиятлар «man/адам» концептосфераси мисолида аниқланди.

Ушбу тадқиқотимизда одам образи замонавий ёндашувлар асосида тадқиқ қилинди ҳамда «man/адам» концептосферасининг лингвомаданиятшунослик нуқтаи назаридан ёритилиб, майдон ва фрейм-сент моделлари асосида ажратилган гуруҳларга мансуб лексик бирликларнинг концептуал таҳлили бажарилди. Концептосферани

лингвокогнитив ёндашув асосида ўрганиш натижасида унинг майдон тузилиши модели шакллантирилди, бу майдон ядро ва сарҳадлардан иборат бўлди.

Тадқиқот натижаларига кўра, концептнинг миллий ўзига хослиги қуйидаги шартлар орқали белгиланади, деган хулосага келиш мумкин:

1) концепт структурасида тилнинг миллий ўзига хос лингвомаданий бирликларининг мавжудлиги;

2) ментал муҳит этноснинг лисоний онгида тақсимланишининг ўзига хослиги;

3) тилнинг структурал ўзига хослиги.

«Ман/адам» концептининг олам лисоний манзарасидаги ўрнига доир ҳодисалар таҳлили қуйидаги хулосаларга олиб келди:

1) Замонавий тилшуносликнинг когнитив тадқиқотларида концепт ва концептосфералар маданиятшунослик, лингвомаданиятшунослик, мантикий, семантик-когнитив, фалсафий-семантик ва гендер ёндашуви йўналишларда ўрганилмоқда. Бундай тадқиқотлар асосида концепт, концептосфера ва мавзуга оид бошқа тушунчаларга турли таснифлар берилган.

2) Концептуал, лисоний ва миллий олам манзарасини тадқиқ қилиш прагматик ҳолатлар билан ёритилди ва бу асосан инсоннинг меҳнат фаолияти, анъанавий турмуш тарзи эҳтиёжларини қондириш асосида вужудга келадиган ҳолатларни ўз ичига олган, ва албатта улар миллий маданий қадриятларнинг шаклланишига муайян даражада таъсир қилиш тадқиқотлар асосида ўз тасдиғини топди.

3) Концептуал таҳлилнинг замонавий усуллари «ман/адам» концептосферасига кирувчи тушунчалар вербализаторларини аниқлаб берди, бир-бирига яқин маъноли тематик лисоний воқелантирувчилар танланди ва яқин сарҳаддаги семантик кўрсаткичлар аниқланди ва бу, ўз навбатида, уларнинг структурасини моделлаштириш имкониятини берди. Дунёвий (умумий) атамаларнинг мавҳумлашиш даражасига нисбатан «ман/адам» концептосферасининг сатҳларига кирувчи миллий концептларни эмоционал, мавҳумлашган, ҳодисавий ва топонимик кутбларга тақсимлашга ҳаракат қилдик.

4) Оламнинг лисоний тасвирини ўрганиш жараёнида «олам манзараси»нинг луғат birlikлари орқали ва бошқа воситалар ёрдамида ифодаланиши тадқиқ қилинди. Лексикографик манбалар асосида бундай оламнинг илмий манзарасида универсал ҳисобланмиш ва одамни бошқариш

мавжудолардан фарқланувчи онгли тирик мавжудот сифатида талқин қилинган «man/адам» концептосферасининг ядросини аниқладик.

5) Инглиз ва қорақалпоқ тилларидаги «man»-«адам» концептосферасининг структурасини ифодаловчи луғавий дефиницияларнинг компонент таҳлили улар ўртасидаги ўхшашлик ва семантик структураларидаги фарқларни аниқлашга ёрдам берди. Шунингдек, дискурсда «адам» концептосферасининг фикрлаш, нутқ, оғроқ қилиш, ишлаб чиқариш, қуруллар яшаш, ўз ҳиссиётларини бошқариш, қариндошлик алоқаларини ифодалаш, расм чизишга доир қўшимча вербализаторларини аниқлашга муяссар бўлди.

6) Қорақалпоқ тилининг изоҳли луғатларининг “адам”, “ата”, “ана”, “апа”, “апа” маркерлари дефиницион, контекстуал ва этимологик таҳлил методлари асосида ўрганиб чиқилди ва уларнинг луғатлардаги маркерларига ўзгартириш киритиш учун қўшимча изоҳлар таклиф этилди.

7) «Адам» концептосфераси матнда отлар (адамата, адамгершилиқ, адамзат, адамша, адамшылық), сифатлар (адамата, адамгершилиқ, адамзат, адамши, адамшылық), феъллар (адамсын, адамсынг, адамсынаў) орқали воқеалантирилган бўлса, «man» концептосфераси отлар (manlessness, manless), сифатлар (manless), равишлар (manlessly) ва феъллар (to man) варақин воқеаланиши аниқланди.

8) Инглиз ва қорақалпоқ тилларида сўз ясовчи дериватлар «Ушбу»ни ташкил қилмайди. Аммо инглиз тилида «man» лисоний бирлиги сўз яшашда қатор ўзига хос элементларга эгаллиги билан характерланади, яъни у сўз ясовчи асос сифатида отлар, сифатлар ва равишларни яшати аниқланди. Ушбу концептосферасининг асосий идентификатори man лексик бирлиги инглиз тилида мустақил морфема бўлиб, феъл сўз туркумин яшаш жараёнида инфлекцион морфемалар билан бирикади (Pr.T. man/mans; P.T. manned; Pr.Part. manning; P.Part. manned). У мустақил морфема бўлиб, шаклини ўзгартирмасдан от сўз туркуминдан феъл сўз тукумига ўтади, ва янги тушунчалар ҳосил қилади. Шунинг билан таржима луғатларида «to man» феъл формаси мавжуд, аммо у таржима луғатларида батафсил изоҳланган. Шунинг билан бирга, *manhole* (Om+Om=Om), *manhandle* (Om+Феъл=Феъл), *manhour* (Om+Om=Om), *manhunt* (Om+Om=Om) лексик бирликлари икки ҳил сўз туркумига кирувчи мустақил морфемалардан ташкил топган қўшма сўзлар аниқланган ва улар деривацион база маъносида бошқа янги тушунчаларни ҳосил қилади.

9) Инглиз тилидаги диминутив вербализаторларнинг морфологик структурасидан фарқли ўлароқ, қорақалпоқ тилидаги вербализаторлар *-ыл*, *-им* сингари бир неча аффикслар орқали ҳосил қилади. Инглиз тили диминутив лексикасида зоономик компонентлар қорақалпоқ тилидагилар (*боталагым, козым, кушигим, шожем*) нисбатан камроқ учрайди. Қорақалпоқ тилидан фарқли ўлароқ, инглиз тилидаги диминутив воситалар бошқа тиллардан ўзлаштирилганлиги билан характерланади.

10) «Man/адам» концептосферасига хос фразеологизмлар маъносини ассоциатив ва семантик аспектда таҳлил қилинди. Инглиз ва қорақалпоқ тиллари фразеологик луғатларидан ёппасига танлаш асосида ажратиб олинган фразеологизмларни одамнинг ташқи қиёфаси, инсон характери ва интеллектуал қобилияти сифатларини ифодаловчи тематик гуруҳлар аниқланди. Тадқиқотимиз натижаларига кўра, қиёсланаётган тилларнинг фразеологизмлар сатҳида изоморф ҳолатлар, алломорф ҳолатларни нисбатан кўпчиликни ташкил қилиши аниқланди.

11) Таҳлил қилинган «man/адам» лексик-фразеологик майдониди ҳам айрим миллий ўзига хос хусусиятлар аниқланди. Бу ҳолат, айниқса, иккинчи бир тилда мавжуд бўлмаган миллий фразеологик реалаялардан кўпроқ учрайди. Масалан: «ақ жаға, ақ жаўлық, атаҶа раҳмет, аўзыҶа май». Бундай фразеологик бирликлар қорақалпоқ миллий лисоний онгида «оқ кўл» (белоручка), тўй расм-русми (свадебный обряд), шукроналик (благодарение) каби тушунчаларни вербаллаштиради. Инглиз тилида бундай фразеологик бирликларнинг лисоний вариантлари бўлса ҳам, улар инглизлар миллий лисоний онгида юқоридагидек маъноларни англатмайди.

12) Ҷар иккала тилдаги фразеологизмлар семантик майдони «одам характери», «одамнинг ташқи қиёфаси», «одамнинг интеллектуал қобилияти» каби семаларни ўз ичига қамраб олди ва бу фразеологизмларнинг тизимли характерда эканлигидан далолат берди. Сигнификатив-денотатив маъноларни ҳисобга олган ҳолда фразеологизмларнинг тўлиқ, қисман ва муқобил эквивалентлари аниқланди, уларнинг субъектив баҳо оттенкасини, функционал-стилистик, эмоционал-экспрессив функцияларини, структур-грамматик ва компонент таҳлили амалга оширилди инглиз ва қорақалпоқ тиллари фразеологизмлари орқали ифодаланадиган лисоний олам тасаввури қандай даражада эканлигини аниқланди.

13) Одам концептосферасини тавсифловчи паремиялар Ҷар икки маданиятда ҳам инсоннинг паремиологик қиёфасини ҳосил қилади ва шунга доир паремиялар Ҷар иккала тилда ҳам ниҳоятда кўп. Тўпланган

лисоний материаллар уларни қуйидаги тематик гуруҳларга бўлиб тасниф қилишга имкон яратди: ахлоқий-маънавий сифатлар; ижтимоий мавқе; меҳнат фаолияти; жисмоний характеристика; ақл ва интеллект; ташқи кўриниш; қардошлик алоқалар; оилавий муносабатларни ифодаловчи ширинликлардир. Ҳар бир гуруҳда кўпчиликни ташкил қилувчи ширинликларда, миллий менталитетни ифода этувчи репрезентатив лисоний ширинликлар аниқланди. Паремнологик бирликларнинг лингвомаданият-шунослик нуқтаи назаридан тадқиқ қилиниши уларни маъданиятга хос белгиларига асосланиб, уларнинг ҳар бир этномаданиятга ва лингвомаданиятга хос хусусиятларини, шунингдек, тиллараро ўлчовларини, дифференциаллашган белгиларини комплекс аниқлашда ёрдам берди.

14) Қорақалпоқ дostonларида «адам» концептосфераси ИНСАН, КИСИ, ЖУРТ, ЖАН лисоний бирликлари орқали воқеланади ва бу ширинликлар ўзларининг функционал-мазмуний белгилари билан ҳозирги ширинликлар қарама-қарши тили адабий услубида ва нутқида қарийб тўлиқ ширинликлар аниқланди. «Адам» концептосферасининг номинатив майдонида доир бўлган хусусиятлар қорақалпоқ эпик матнларига ҳам хосдир. Номинатив майдон ўз ичига лексик-семантик гуруҳларни, лексик-фразеологик майдонни, синонимик қаторларни, ассоциатив майдонни қамраб олганлиги билан у мажмуа характерга эга ва тил тизимида алоҳида гуруҳларни ташкил қилмай, тадқиқотчи томонидан аниқланган, тартибга солинган номинатив гуруҳлар мажмуини ташкил қилади. «Адам» концептосфераси номинатив майдонининг ядроси, яқин ва узоқ сарҳадларини ташкил қилувчи лексик ширинликлар аниқланди.

15) Қорақалпоқ дostonлари матнлари ва инглиз адабиётидаги «Beowulf» қаҳрамонлик эпосининг таҳлили концептосфера қуйидаги ширинликлар моделларида фаоллашувини кўрсатади: хулқ ва ахлоқ, ижтимоий мавқе, ақл ва интеллект, вақтинчалик ҳолат ва ўрин, жисмоний белгилар, ташқи кўриниш, эмоция ва руҳият, меҳнат фаолияти ва иш ҳаракат тарзи, қардошлик алоқалар ва оилавий муносабатларни ифодаловчи лисоний ширинликларда. Тадқиқ қилинган кўрсаткичларнинг семантик ўзига хослиги инглиз халқининг анъаналарида, тарихи ва маданиятида шаклланган ширинликларни янада тўлдириш учун хизмат қилади.

16) «Man» концептосферасининг номинатив майдонидаги ядро ширинликлар қаторига *atheling, bairn, carle, wielder, younker* ва б.ни, сарҳадига *Henchman, Clansman, Kinsman, Manfully, Man-at-arms, Earlman, Goeman, Liegeman, Gleeman, Nobleman, Manly, Spokesman, Craftman*

лисоний бирликларини киритиш мумкин. «Man» концептосферасининг қаҳрамонлик эпосидаги номинатив майдонни таҳлили натижасида, бу концептосферанинг инглизлар лисоний онгида вербаллаштирувчи «GLORY OF KINGS» ва «WIELDER» сингари лисоний бирликлари ҳам аниқланди.

17) Инглиз маданияти қаҳрамонлик достонидан танлаб олинган бундай идентификаторлар замонавий инглиз ихсоҳли луғатларда ўз маркерларига эга эмас, аммо улар эпосда конкрет семаларни ифодалайди. Лекин луғатларда берилган BAIRN, HENCHMAN, YOUNKIN идентификаторлари маъно жиҳатдан айрим фарқларга эга экалигини таъкидлаш лозим. Масалан: BAIRN шотланд тилига мансуб сўз ва инглиз маданиятида қарийб қўлланилмайди; HENCHMAN от сўз туркумига мансуб бўлиб, қуйидаги маъноларига эга: 1) тарафдор, мухлис; 2) бировнинг кўмагида мартабага эришган одам; дум, хушомадгўй; югурдик; 3) hist. қуролбардор; паж. HENCHMAN сўзининг ўзагига келадигани бўлсак, HENCH сифат сўз тўркимига кириб катта, кўчли маъноларини беради ва замонавий оғизаки нутқда 2000 йиллардан буён “muscular, well-built” маъналарида ишлатилади.

18) «Man»-«адам» концептосфераси диний олам тасавурида шаклланган, тадқиқотчилар диний лексика деб юритадиган сўзларнинг лисоний корпусида воқеланиш ҳолатларини кўриб чиқдик. Диний лексиканинг лингвомаданиятшунослик, социолингвистик, лексикографик аспектда ўрганилиши кўплаб тадқиқотларда ўз аксини топган. Аммо бу диний лексика корпусига мансуб сўзлар вербализациясининг семантик ўзига хослигини ўргандик. Шунингдек, «man/адам» концептосферасининг таркиби аниқланди ва сакрал матнлар лексикасининг мавзули гуруҳларга ажратилди. Таҳлил натижасида концептосферанинг энг муҳим концептуал сатҳлари аниқланди.

19) Тадқиқ қилинаётган концептосферанинг семантик майдонни тавсифланиши билан бир қаторда, унинг ҳар хил синтактик тузулмаларни майдонлар сифатида таарифланади, ва бу семантик майдон таҳлили парадигматик ва синтактик майдонлар билан биргаликда олиб борилади. Инглиз ва қорақалпоқ тилидаги «одам» семантик майдонни комплекс майдонга мансуб, чунки унинг таркибига синтактик маънолари билан бириктирилган ҳар хил сўз туркумига, синфларга кирувчи сўзлар, маъноси жиҳатдан бир-бирига ўхшаш сўзлар киради.

20) «Адам» концептосфераси диний олам тасавурини шакллантирувчи диний вербализаторларининг семантик ўзига хослигини

ўрганилди. Тўпланган мисол таҳлили “адам” концептосфераси вербализаторларида синтагматик муносабат ҳам ўз аксини топган, чунки тилнинг сўзлар “диний”, “тақўа”, “гуналы” ва ҳлар сифати ва от билан ўзаро боғлиқ.

11) Ҳар иккала тилда ҳам одамнинг олам ҳақидаги диний тасаввурларини, бирликдаги ҳаётини акс эттирувчи «man/адам» концептосферасининг ассоциатив майдонини ифодалайдиган мақол ва маталлар кўплаб кўзга ташланади. Келтирилган мисолларни таҳлил қилиш натижасида, белгилаётган тилларнинг семантик ва синтактик майдонларида ўхшашликлар аниқланди, лекин парадигматик майдонда лакуналарни мавжуд. Масалан, инглиз паремиологиясида мавжуд бўлган «man» концептосферасининг куйидаги белгилари қорақалпоқ маданияти учун лакуналар ҳосил қилади: 1) **Better the devil you know than the devil you don't**; 2) **Better to reign in hell, than serve in heaven**; 3) **Death pays all debts**. Инглиз тилида эса қорақалпоқ тилидаги куйидаги тушунчалар лакуналар ҳосил қилади: 1) «тақдир» (*Таўеллеге турмаган, Таўеллеге зар болар*); 3) «ўлганнинг жонисиз» (*Ийесиз ауырыў, Эрўақсыз порқанды бағады*).

12) «Man/адам» концептосферасининг қорақалпоқ ва инглиз миллий олам тасаввурининг эпик, паремиологик ва сакрал матнлардаги номинатив майдонини аниқлаш натижасида одам концептосферасини вербализиштирувчи лексик birlikлар асли эндемик birlikлар эканлиги ва улар фақат муайян лингвомаданиятнинг концептуал майдонида воқелишиши мумкинлиги аниқланди.

Юқорида келтирилган «man/адам» концептосферасининг турли сатҳларига кирувчи концептларнинг мавзули гуруҳлари ажратилди. Бу концептларнинг аскарят қисми қиёсий метод асосида лингвомаданиятшунослик ва когнитив тилшунослик нуқтаи назаридан таҳлил қилинди, лекин уларни кейинчалик психологик, фалсафий ва она тили таъсири ва чет тили таъсири (First Language Acquisition and Foreign Language Acquisition) нуқтаи назардан тадқиқ қилиш мумкинлигини таъкидлаймиз.

Шундай қилиб, “man”-“адам” концептосфераларнинг универсаллиги қандайдиги фараз тасдиқланди, улар лисоний ва концептуал олам концептуаларида ўхшаш компонент ва маъноларга эга, лекин таъкидлаганимиздек, миллий олам манзарасининг фарқли жаҳатлари бор.

Тадиққотимизда таҳлил учун лингвокогнитив ва лингвомаданий ўхшашувни қўллашимиз ҳар иккала маданиятни ва тилни чуқур ўрганишга ва тадиққот мақсад ва вазифаларини тўла бажаришга ёрдам берди.

THE IMPORTANCE OF LANGUAGE AWARENESS ACTIVITIES

G. Kdirbaeva, independent researcher (NukusSP1)

P. Bakhieva (NukusSP1)

The idea of awareness was introduced in the late 1950s by the linguists and researchers Hawkins and Halliday who gave the idea that the aim of language teaching is not only to help students learn the target language but also help them deal with language issues in general. Language awareness has become an effective method. Many linguists and researchers have defined the meaning of language awareness and stated the role and relevance of LA (Language awareness) to the language teaching, language learning and language use. According to Carter LA is defined as “development in learners of an enhanced consciousness and sensitivity to the forms and functions of language” (2003, 64). Yiakoumetti recognizes LA as part of language education and explains that “Language awareness is an approach to teaching the mother tongue, second or foreign languages and dialects as part of a comprehensive language education.” (2006, p 299).

Language awareness is aimed to raise learners’ awareness of important linguistic features and help students construct their own grammar using personal exploration. As LA is essential in teaching, learning and using the language, there will be a need for increasing students’ language awareness. In this case language awareness activities help to raise their own language awareness. Schmidt has explained the importance of language awareness as following: “Students have to explore structured input and develop an awareness of certain linguistic features by performing some activities” (1995). Awareness raising activities help students to involve actively in the teaching process and it consists of **analysis** and **practice** activities.

Analysis activity includes consciousness raising activities where students analyze texts, transcripts aiming to see the specific language points. Example of analysis activity: Identify categories of meanings and use of -ing words in the text.

Jack is an intelligent and optimistic student.

He often visits *fascinating* exhibitions. *Swimming* is his favorite sport. He enjoys *playing* the piano.

Analysis:

The -ing words have three categories of meanings in the text. They are nominal, verbal and adjectival. In the second sentence the word “*fascinating*” is adjectival category as it describes what kind of exhibition it is. In the third

sentence “*swimming*” is nominal category because it is used as the subject of the sentence. In the fourth sentence “*playing*” is a verbal category, it is used as gerund and describes an action.

Practice activities can be carried out by looking up a point of grammar in a reference grammar and reporting back. Example of practice activity: In this activity students find modal verbs and explain their use and meaning in the sentences.

There is no way you *could* read when you were two! You *have to* be a good communicator to be a press spokesperson. You *should* try to get that poem published.

- “The weather *should* be good tomorrow, shouldn’t it?”

- “Actually the forecast said it *may* well rain.”

Explanation:

The modal verb *could* is a modal verb which determines the past ability. *Have to* is used to identify current or general obligation. “*Have to*” means others decide what to do. *Should* is used to give advice for somebody to do something. *Should* and *may* are used to express degrees of certainty. Both of them identify probability about now, the future or generally. The objective of above mentioned activities is that students construct their own grammar from their own language experience and restructure their inter-language. Through analysis activities learners become more aware of the language use and by practice activities they increase awareness and review their knowledge.

LA activities consists of elements which demonstrate how they bring about the process of raising awareness about the language. The basic elements are **data, task, process, mode**.

Data is a basic source of activities which provides main information of the activity. It includes dictionaries, reference grammar, authentic texts, textbook extracts. Task is an objective of the activity which identifies how the activities is done. Most commonly used tasks are identifying, guessing, analyzing, comparing, answering questions and explaining.

Process is performing tasks on the data and it includes cognitive, affective and social. Mode is a type of doing an activity and involves individual, pair work, group work and whole class work.

References

1. Carter, R (2003). Language awareness. *ELT Journal*, 51(1) 64-65.
2. Hawkins, E.W. (1999). Foreign language study and language awareness. *Language Awareness*. 8(3&4), 124-142.

3. Schmidt, R. (1993). Awareness and second language acquisition. Annual review of Applied Linguistics, 13,206-226
4. Wright,T.& Bolitho, R. (1993). Language awareness: a missing link in language teacher education? ELT Journal, 47(4), 292-304.

VALUATION OF THE ASPECT OF SEMANTICS

G. Kdirbaeva, independent researcher (NukusSPI)

D. Utepova (NukusSPI)

From long decades semantics is considered as a radical root in linguistics science. Therefore, linguists did researches inevitably basing on any study dependent on its meaning semantics. That is the case even so far semantics plays a key role in any fields ranging from science to individuals' way of life.

Obviously, this world is rich in an extensive diversity of colours that gives the meaning to the life itself so as to make it look colourful that makes it not straightforward to describe all of them with their meaning coming with different words. In this work we are going to see colours" in semantics at the expense of contrastive approach.

As semantics is the study of meaning in language; people, who use, speak any language or listen to others' speech, pay most of their attention to the meaning, more precisely, to what about the speaker is talking – words coming out from the stream full of warmth (welfare) or evil; rather than, in few cases, - not to how well the structure of grammar in speaker's speech is organized. This is the case, why individuals' attitude towards something or somebody changes easily, in most cases because of bad or good utterances one has heard. As a well-known Karakalpak poet I. Yusupov wrote:

Serde, ha'y insan balasi',

Jamandur kewil alasi'.

Adam adamin' quyashi',

Kewil kewilden suw isher.

[I. Yusupov, 2014:44]

In this poem, it is said that wherever a human exists, as human beings are always alive only with human beings, a human's soul can get its content only from the other human's soul, because soul is the only creation which is the most susceptible worth in them as the poet pointed out. So that everyone in the world, it does not matter what kind of place that person occupies in society, is considered to be always thirsty for warm words that can undoubtedly become the alleviation of all the wounds in heart. Admittedly, the person who is saying warm words seems to be the most gorgeous one in the world to that one whose

heart is getting to beat faster because of the content coming from that person's heart as well.

Turning to almost similar aspects of in what other ways the searchers express the content which heart gets with different words but almost with the same meaning of words. W. Somerset Maugham as a searcher of beauty, paid more attention to the meaning of words over structure in his work Theatre: Julia's heart was beating *nineteen to the dozen* – Сердце Джулии и колотилось так, как будто готово было вы прыгнуть из груди." Seemingly, from the other side it is the proof of how meaning affects word associations in language. From the point of etymology the one type of set phrases is idioms.

In idioms it is possible to define the meaning of each word pattern, nevertheless not when all the words are all in combination within phrase. Taking as an example the idiom *to be in the pink*" by trying to understand what it means exactly, then it is just challenging to catch the meaning or simply to understand. More specifically, what happens if to cross out the definite article *the*" or conversely, if to change the word *pink*" into red, which is a bit closer type of colour to pink?..

Articles are a hotly debated part of a grammar. As E.A. Dolgina points out, article is of detached word class, which possesses substantive significance, thereby that is able to give relevant meanings depending on the speaker [T.A. Bushuy, 2008:90]. So in the sentence "*He went to the door, called 'Elizabeth', as he used to when he wanted more coffee on a Friday night.*" (Он подошел к двери позвал Елиза-а-бетъ, как он обычно делал когда хотел кофе в пятницу вечером.) we can see interrelationship of semantics of the indefinite article in the noun "*night*", and interrelationship of recurrence of the action in the verb "*used to*" [T.G. Bushuy, 2011:199].

Aforementioned paradigms can be the explanation of why the definite article "*the*" in the phrase idiom *in the pink*" cannot be omitted. As well as that, turning to the debate abovementioned why the word pink" has a special meaning that prevents to change or omit can be explained with the followings: Every language has a set of basic colour terms. But these colour terms do not divide the colour spectrum in the same place. In other words, the extra linguistic concept colour" is reflected in each language idiosyncratically. Berlin and Kay (1969) in Basic Color Systems, noted that the number of basic colour terms may differ across languages. A basic colour term is defined as one which cannot be said to be a part of the meaning of another basic term. However, apart from other languages, in English we can see the importance of colours in idioms the meaning of which cannot be discussed by breaking it down into smaller

semantic components such as called componential analysis. For example, let us investigate the usage of the colours *white* and *red* in English language with *aq* and *qizil* in Karakalpak language:

White:

1. If you tell *a white lie*, you tell someone something that is not true in order to avoid hurting their feelings.
2. *A white elephant* is something that costs a lot of money and is not very useful.
3. *A white-collar workers* work in offices rather than doing physical work.

[Rawdon Wyatt, 2005:11:12]

Aq:

1. Appaq, gu'rishtey, jaqsi', taza.
2. Daq, si'rbin', kir.
3. Ag'arg'an as qati'q.

[Explanatory dictionary of Karakalpak language, 1982:56]

Red:

1. *Red tape* refers to documents, rules or processes that cause delay.
2. *A red letter* day is a very happy or exciting day.
3. If you roll *out the red carpet* for somebody, you give them special treatment because they are important.

[Rawdon Wyatt, 2005:11:12]

Qizil:

1. Awi's. Go'sh jemtik.
2. Awi's. Da'n, awqat.
3. *Qizil iyek* – tisi birotala tu'sken awi'z, tissiz awi'z.

[Explanatory dictionary of Karakalpak language, 1988:205:206]

The main result of the given work is how significant the role of semantics is in our day to day life in our speech. Also from the grammatical point of view, in what kind of word combinations the role of semantics is felt broadly. Especially, as we have investigated throughout two nations; basic colour terms are part and parcel of semantics that in our investigation most of them easily lose its significance in the words coming with turning to the field of semantics on the basis of componential analysis, like blue''(ko'k) is not considered as the concept blue (ko'k) then. We do contemplate the meaning of any word is the main aim of how to relate to nature, nurture and, mostly, to soul.

References:

1. Skrebtsova T.G. Cognitive Linguistics, 2011, 3p.
2. Bushuy T.A. Language in the history of developing human's cognition, 2011. 199p.
3. Paul Kockelman Language, culture and mind, 2010. 72p.
4. Mougham W.S. Theatre, 1979. 184p.
5. Yusupov I. Pazi'ylet, 2014. 44p.
6. Pandora.cii.www.edu
7. Explanatory dictionary of Karakalpak language, 1988. 205, 6. 1982-56p.
8. Rowdon Wyatt "Check your English vocabulary for phrasal verbs and idioms, 2005, 11, 12p.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯНИНГ ТАЯНЧ ТУШУНЧАЛАРИ

Н. Тўхтаходжаева, мустақил изланувчи
(ЎзДЖТУ)

Маълумки, тил доимий ҳаракат воситаси бўлиб, у муайян тил оиласининг тарихи ва маданиятининг ажралмас бўлагидир. Ҳар бир янги ашод тилга ўзининг янги ифода шакли ва жозибасини олиб киради. Натijaда тил бойиши билан бирга такрорланмас колорит ҳам ҳосил бўлади.

Зеро, тил фақатгина мулоқот воситасигина бўлиб қолмай, миллат, милқ маданиятининг кўзгуси сифатида унинг асосий қисмини ҳам ташкил этиди. Бу ўринда В.А.Маслова қуйидаги фикрни билдиради: Тил – маданиятнинг барқарорлигидаги махсус йўл ҳамда маданий кодларнинг шаклланишида асосий омил [Маслова, 2001:27]. Шунингдек, В.Н.Телия тил ва маданият муносабатларининг ўзаро ўхшаш, умумийлик томонларини қуйидагиларда кўради:

○ маданият, худди тил каби инсон дунёқарашини акс эттирувчи онг шаклидир;

○ тил ва маданият ўзаро муносабатда, мулоқотда бўлади;

○ тил ва маданиятнинг субъекти доимо –индивид ёки ижтимоий гуруҳ жамoa, шахс ёки жамият;

○ тарихийлик – тил ва маданиятнинг муҳим хусусиятидир [Телия, 1996:225].

Дарҳақиқат, тил ва маданиятни яқинлаштирувчи умумий хусусиятлар талайгина ва кўпчилик олимлар тилни миллий маданиятнинг ажралмас қисми, бир бўлаги сифатида талқин қиладилар.

Турли миллатлар маданияти бир-биридан дастлаб, воқеликни моддий ва маънавий жиҳатидан қандай ўзлаштириши билан фарқ қилади [Сафаров, 2006:63]. Маданият – тилда ифодаланган дунё тасвирининг бир қисмидир. Шундай экан, ҳозирги замон тилшунослигида тил ва маданият уйғунлигидан ташкил топган Лингвокультурология соҳаси юзага келди.

Замонавий тилшуносликда кенг қўлланиб келаётган *концепт лингвокультурема, логоэпистема* каби терминларнинг бари онг бирлиги ҳамда тил бирлиги ҳисобланади. Зеро, концепт когнитив тилшуносликнинг лингвокультурема ва логоэпистемалар эса лингвомаданиятшуносликнинг асосий тушунчаларини ташкил этади. Бу тушунчалар ўзида маданиятнинг бир бўлагини акс эттириши туфайли айрим ҳолатларда тилшуносликда синоним тушунчалар сифатида қаралади. Уларнинг ўзаро фарқли жиҳатларини Ў.Қ.Юсупов қуйидагича изоҳлайди: “Лингвокультурема – ўз семантикасида (маъносида) маданиятнинг бирор бўлагини акс эттирувчи сўзлар, фразеологик бириклар, сўз бирикмалар, гаплар, паремиялар, нутқ клишелари, мураккаб синтактик бутунликлар, матнлар ва ҳоказолар кирди. Лингвокультурема мазмун ва ифода планига эга, ифода плани юқорида кўрсатилган бириклар, мазмун планини эса ўша бирикларнинг семантикаси ташкил қилади. Демак, лингвокультурема концептдан ўзининг мазмун ва ифода планига эга бўлиши билан фарқ қилади.” [Юсупов, 2011:15]. Бинобарин, концептлар тилда лингвокультурема кўринишида намоён бўлиб, муайян халқ маданиятининг бир қисмини акс эттириб келади. “Лингвокультурема” термин сифатида В.В.Воробьев томонидан илк бор илмий муомалага олиб кирилди: “Лингвокультурема как комплексная межуревневая единица представляет собой диалектическое единство лингвистического и экстралингвистического (понятийного или предметного) содержания” [Воробьев, 2008:45]. Яъни, лингвокультурема бу лингвистик ва экстралингвистик тушунчаларни ўзида мужассамлаштирувчи сатҳлараро бирикдир. Агар сўз қатлами тил билан чегараланса, лингвокультурема қатлами предметлик ва воқеликнинг маданият билан узвий боғлиқлигида намоён бўлади. Шунингдек, лингвокультурема тил белгиларининг шакл мужмуи бўлиб, унинг мазмун-моҳияти ва маданий маъносини мазкур белги акс эттиради. У сўзга нисбатан анча чуқур маъно касб этади ва асл тил бирикларига нисбатан мураккаб структурага эга. Лингвокультурема ўзида тил тасаввурлари (маъно шакли) билан бир қаторда, доимий ҳаракатдаги экстралингвистик ҳолатларни, маданий кўринишлар (реалиялар, лакуналар)ни мужассамлаштиради.

Лингвокультура тилда ифодаланишига кўра турли хил турларга бўлиниди. У биргина сўздан ташкил топган бўлиши мумкин (*тўй, ош*), сўз бирликларида (*ўзбекча рақс, меҳмондўстлик, чойхона* в.х.к.), бутун бир тилда ёки матндан ҳам иборат бўлиши мумкин. В.В. Воробьев бундай лингвокультуремалар турларини ҳар хил маданият майдонларида ўринида: *рус пули, ўлчов бирликлари, руслар оихонаси, руслар ошласи* ва б. Лингвокультура сўз ва лексик-семантик доирадан фарқли равишда ўзида маънавий тил сегментларини балки маданият сегментларини ҳам ўз ичига олади [Воробьев, 1997].

Шунингдек, лингвокультурологиянинг таянч тушунчаларидан яна бири логосистемадир. Мазкур термин тилшуносликка В.Г.Костомаров ва Н.Д.Бурвикова томонидан олиб кирилган бўлиб, уларнинг логосистемага таърифлари қуйидагича: логосистема – миллий онг таркибидан ўрин олган, замирида миллий менталитет ва у билан боғлиқ бўлган миллий маданиятни ифода этувчи ғоялар ётади. Сиртдан қараганда у бир белги сифатида, икки хил қатламда ўрганишни тақозо этади – тил ва маданият миқёсида “англатадиган” ва маданият қатлами даражасида “англинадиган” белги [Костомаров, Бурвикова, 1997:2002]. Хусусан, миллий ҳаётимиз асосида вужудга келган мақол, матал, фразеологик бирлик, афоризм ва миф кабилар шаклида намоён бўлувчи логосистема билим, фикр, ғоя, урф-одат, этнос тасаввурларини акс эттириб, уларнинг ўрнига хос миллий-маданий жиҳатларини намоён этади. У оддий тил бирликларида нисбатан анча бой ва чуқур мазмунга эга бўлиб, оғзаки шаклда ёки бирор фольклор матнда маънони қисқа, лўнда, образли ва ёрқин шаклда, муайян халққа хос маданий билимга асосланган ҳолда ифодалади. Ёро, миф, эртак, ривоятларда мужассамлашган барча образли тафаккур ассоциациясига эга концептлар – логосистемани ташкил этади ва фольклор дунё тасвирида асос бирликлардан бири саналади.

Демак, юқорида таърифи келтирилган лингвокультурологик тушунчаларнинг бари муайян халқнинг миллий-маданий кўринишини ифода этувчи лисоний маданий бирликлар ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во РУДН, 1997. – 275с.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология: монография — М.: РУДН. –2008. – 116с.

3. Костомаров В.Г., Бурвикова Н.Д. Современное состояние русского языка и проблемы обучения ему иностранцев // Русский язык как государственный. Материалы международной конференции. (Челябинск, 5-6 июня 1997г.). М.: 1997.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208с.
5. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92б.
6. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты [Текст] / В.Н. Телия. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
7. Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилоҳлар // Филология масалалари. – Т.: 2011. – №2. – Б.9-15.

СОДДАЛАШИШГА УЧРАГАН СЎЗЛАР

М. Усмонова, мустақил изланувчи (ҚарДУ)

Ҳозирги ўзбек тилида *x* ундоши билан бошланган ўз қатлам сўзлар миқдори йўқ ҳисобда. Айрим берилган сўзлар жиддий этимологик таҳлилдан ўтказилса, улар бошидаги *x* ундоши аслида бошқа товуш бўлиб чиқади, масалан, *қ* ундоши бўлиши мумкин: *хачир* (қатир), *хивич* (қивич), *хитча* (қипча), *хотин* (қатин), *хоқон* (қаан) каби. “Ўзбек тилининг этимологик луғати”да берилган *хачир*, *хивич*, *хитча*, *хирildoқ*, *хон*, *хотин*, *хоқон*, *хуррак*, *хўтик* сўзлари ҳозирги кунда туб сўз сифатида қаралади.

Жумладан, *хачир* сўзи аслида *қат+ир* тузилишига эга бўлса-да ҳозир, товуш ўзгаришларидан сўнг туб сўз сифатида қаралади. *Хивич* сўзи *қиб+ич* тузилишига эга бўлганлиги кўрсатилган. Ўзбек тилида қўлланувчи хусусий, *худбин*, *хўранда*, *хўраймоқ*, *хўрак*, *хўрда* каби сўзлар туб сўзлар сифатида тан олинади. Албатта, бу сўзлар бошқа, улар оид бўлган тилда ясама сўзлар сифатида баҳоланиши мумкин. Ҳозирги ўзбек тилида *x* ундоши билан бошланган умумий сўзлар миқдори 700 атрофида бўлса-да, уларнинг деярли ҳаммаси ўзлашган қатламга оиддир. Шунинг учун бу бирликлар ўзбек тили нуқтаи назаридан туб сўзлар деб қаралаверади.

Ушбу ўринда шуни айтиб ўтиш керакки, ҳозирги ўзбек тилидаги сўзлар қаторида аслида *ф* ундоши билан ҳам, *x* ундоши билан ҳам бошланган сўзлар йўқ (умуман сўзларнинг таркибида бу ундошлар қатнашган бўлса ҳам, улар ўзлашган қатламга оид бўлади). Шунинг учун ҳам, *ф* ундоши билан бошланган сўзларга тўхталиб ўтирмадик, *x* ундоши билан бошланувчи айрим сўзлар изоҳ талаб бўлгани туфайли уларнинг ўзига қисқача тўхталиш билан чекландик.

Ф ва х ундошлари билан бошланувчи сўзлар доирасида ўзбек тили таркибида давомида соддалашишга учраган сўзлар кузатилмайди. Худди шу каби ҳозирги ўзбек тилида ц ундоши билан бошланувчи 70 тага яқин сўз мавжуд бўлса-да, уларнинг ҳаммаси бошқа тиллардан (асосан европа тилларидан) ўзлашган ва барчаси ўзбек тили нуқтаи назаридан туб сўзлар сифатида қаралади: *циркуляр, цензор, центнер, циклон, циферблат, цистерна* каби.

Шулар қаторида қўлланувчи *централизм, центрист, центризм, центровка, центрифуга, ценкограф* каби сўзлар таркибан қисмлардан ташкил топганлиги сезилиб туришига қарамай, бизнинг тилимизда улар морфемаларга ажратилмаслиги керак. Ўзлари оид бўлган тилда эса улар морфемаларга ажратилади, соддалашмаган сўзлар сифатида боқоланаверади. Демак, соддалашиш жараёнини баҳолашда сўзнинг қайси тилига оидлиги муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирги ўзбек адабий тилида ч ундоши билан бошланувчи сўзларнинг умумий миқдори 900 та атрофида бўлиб, улардан 200 га яқинида соддалашиш ҳодисаси юз берган, яъни шу сўзларда ўзак морфеманинг шохда уқилмай қолиши, истеъмолдан чиқиши натижасида улар туб сўзларга айланиб қолган: *чайир, чайқов, чакак, чакана, чалкаш, чандиқ, чинамоқ, чақир, чучук, чўлоқ, чувак, чўлик, чўққи, чўқмор, чуқур, чуррак, човғун, чулга, чапати, чағир, чатоқ, чиноқ, чилпилоқ, чегирмоқ, чарогон* кабилар. “Ўзбек тилининг этимологик лугати”да ана шундай туб сўзга айлланиб қолган, соддалашишга учраган сўзлардан 150 таси қайд этилади ва уларнинг аслида, икки ёки уч морфемалардан иборат бўлганлиги исослаб берилади. Жумладан, *чавоқла*- сўзи изоҳидан маълум бўладикки, ҳақиқатан ҳам, унинг таркибида феъл ясовчи *-ла* аффикси мавжуд ҳамда шунинг ўзиёқ бу сўзнинг тарихан ясамалигини кўрсатади. Сўзнинг *чавақ* қисми эса ҳозирги кунда уқилмайдиган қолга келиб қолган, истеъмолдан чиққан. У аслида *ичак-чавақ* жуфт сўзи таркибида қатнашиб ⁸ [1.184] “қорин” – “қориндаги аъзолар” маъносини билдиради.⁹[2.405] Демак, бу сўз ясама ҳисобланади. Худди шу каби *чайнамоқ* феъли ҳам аслида *чай* феълининг “ўзлик”ни ифодаловчи *-ин* қўшимчасини олган шаклига *-а* аффиксини қўшишдан ҳосил қилинган *чай+ин+а>чайна* каби. *Чакич, чакка I, чакка II* сўзларига эътибор берсак, сўнги сўз *чак-чак* тақлидий сўзидан ясалган, биринчи *чакка* сўзи эса чек-чегара маъносини билдирган сўздан *-а* қўшимчаси қўшилиши орқали ясалган ва битта к ундоши

⁸Ўзбекча-русча лугат. Т., 1988. – Б.184.

⁹Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. – Т.: Университет, 2000. – Б. 405.

орттирилган. *Чекич* сўзи “уриб тешикчалар ҳосил қил” маъносидаги *чек* ўзагига *-ич* кўшимчасини қўшиш билан ҳосил қилинган. Ўзбек тилидаги *чала, чалкаш, чалма, чалтак, чалчиқ, чалқанча, чалги* каби ҳозирги туб сўзларнинг аслида қадимги туркий тилдаги *чал* феълининг турли хил маъноларидан ясалганлиги қайд этиладики, булар ҳам соддалашишга учраган.

Ўзбек тилидаги туб сўз ҳолига келиб қолган *чумич, чўқмор, чўмиш* сўзлари *чўм+ул* таркибига эга бўлса (*чўм-ўзак, феъл, -ул* аффикс), *чўмич* (*чўм-феъл+ич-кўшимча*) сўзи *чўм+ич; чўқмор* сўзи эса (*чўм+-ма+-р*) уч морфемадан иборат бўлган. Ана шу сўзлар каби *чувалчанг, чумоли, чувринди, чурвақа, чумчук, чучук, чуқула, чучмал, чуқур, чузурчук, чўкка, чўкич, чўлоқ, чўлтоқ, чигирик, чинқир, чирмовиқ, чиниқ, чимилдиқ, чимчи (чимчила), чимдим* каби бошқа сўзлар ҳам аслида ясама сўзлар бўлиб, ҳозирги кунда ўзак морфема истемолдан чиқиб, ўз моҳиятини йўқотганлиги сабабли, уларда соддалашиш юз берган ва энди туб сўзлар сифатида қаралади. Жумладан, ўзбек тилидаги *чўзгила* сўзида ҳам соддалашиш ҳодисаси юз берган. Яъни бу сўзнинг асл морфологик таркиби *чўз+иқ+-и+-ла* кўринишда бўлиб, кейинчалик кейинги учта аффикс ўзаро бир-бирига сингишиб кетиб (бу товуш тушиши билан боғлиқ *-иқ* аффикси таркибидаги и тушиб қолган), *-гила* кўшма аффикси юзаги келган. Натижада сўз *чўз+гила* шаклини олган: тўрт морфемали сўз икки морфемали сўзга айланган. Бундай ҳолат *эзгила, босинқира, тортқила, туртқила, тепкила, титкила* каби яна кўпгина сўзларда ҳам кузатилади: *теп+кила* каби. (булар алоҳида тадқиқ қилинади).

Ҳозирги ўзбек тилида *ш* ундоши билан бошланувчи 800 дан ортиқ сўз мавжуд бўлиб, улардан 400 тадан ортиқроғи ўзлашган сўзлардир. Қайд этилган сўзлар ичида ўзбек тили нуктаи назаридан содда сўз (туб сўз) сифатида баҳоланадиганлари тахминан 50 та атрофидадир. “Ўзбек тилининг этимологик луғати”да ана шу сўзлардан 28 таси таҳлил қилиниб, уларнинг аслида ясама сўз бўлганлиги, кейинчалик ўзак морфема истемолдан чиқиши натижасида, уқилмай қолиб ўша сўзлар таркибида соддалашиш юз берганлиги қайд этилади: *шалайим, шалвай, шалвира* сўзлари *шал+ай+им* кўринишида (*шал*-“бўшашган” маъносини билдирган қадимги сўз); *шал+ба+й* кўринишида; *шал+бы-ра* кўринишида таркибий қисмлардан иборатдир. *Шалтай-шалоқ, шалтанг, шалтоқ* сўзларининг таркибида ҳам ўша *шал* ўзаги қатнашган. Тилимиздаги *шаррос, шаршара, шарқира*- сўзлари эса тақлидни билдирувчи *шар* сўзидан ясалган.

Ўзбек тилидаги *шилвира*, *шиллик*, *шилмишиқ*, *шилтиқ*, *шилта*, *шилқим* сўзларининг ҳаммасида аслида *шил* ўзак морфемаси мавжуд бўлган. Бу сўзларнинг ясалиши учун ана шу қисм асос вазифасини бажарган. Бироқ бу сўз ҳозирги кунда умуман лексик моҳиятини йўқотган, истъмолдан чиққан, унинг қайси сўз туркумига оидлиги ҳам қатъий маълум эмас. Бизнингча, бу сўз аслида иш ҳолатида феъл бўлиб, ундан -л воситасида ясалган сифатдир.

Ҳозирги ўзбек тилида э унлиси билан бошланувчи 700 га яқин сўз мавжуд бўлиб, улардан 250 тадан ортиқроғи европа тилларидан ўзинишгандир. Бу сўзлардан кўпчилиги ўзбек тилида туб сўз сифатида баҳоланаверади. Бироқ ўзлари оид бўлган тилларда улар морфемаларга ажратилади ва ясама сўз сифатида баҳоланади: *эгоизм*, *эгоист*, *экспедиция*, *электизм*, *электик*, *экспансив* кабилар.

Yevropa tilshunosligida va turkologiyada harakat fe’llari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, barcha harakatlarni anglatuvchi fe’llarni bitta tadqiqot doirasida tekshirish mumkin emas. Chunki ma’lumki, fe’llar bosh ma’nosiga ko‘ra avvalo harakat, so‘ngra holatni bildiradi [5, 5].

Fe’llar harakatni atab kelishiga ko‘ra harakat va holat fe’llariga bo‘linadi. Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe’llar harakat fe’li hisoblanadi [2, 31]. Masalan, *yugurdi, chopdi, yozdi*.

¹⁷ A. Rahimov Kompyuter lingvistikasi asoslari. Toshkent „Akademnashr“. 2011

Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar holat fe'llari deyiladi [2,31].
Masalan, *kuldi, qizardi, uxladi*.

Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun yaratilgan darsligida fe'llar qanday harakat va holatni ifodalashiga ko'ra: nutqiy faoliyat fe'llari, aqliy faoliyat fe'llari, jismoniy faoliyat fe'llari, holat fe'llari kabi ma'no guruhlarga ajratilgan.

1. Itsey darsligida fe'l qanday harakat-holatni ifodalashiga ko'ra esa quyidagi ma'no turlarga bo'linadi: 1. Yumush fe'llari: *ishladi, mehnat qildi, ter to'kdi*; 2. Tafakkur fe'llari: *o'yladi, kashf qildi, fikrladi*; 3. Sezgi fe'llari: *sedi, his qildi*; 4. Ruhiiy holat fe'llari: *kuldi, xursand bo'ldi, qayg'urdi*; 5. Nutq fe'llari: *gapirdi, so'zladi, ifoda qildi, ming'irladi*; 6. Ishora fe'llari: *imo qildi, labini burdi, ko'zini qisdi*; 7. Jismoniy holat fe'llari: *og'ridi, isitma qildi, xastalandi*; 8. Tabiiy holat fe'llari: *eridi, muzladi, uxladi*; 9. Ko'rish fe'llari: *qaradi, ko'rdi, boqdi, termuldi*;

Qalandar Sapayev tasnifiga ko'ra: 1. Yumush fe'llari: *ishladi, mehnat qildi, ter to'kdi*; 2. Tafakkur fe'llari: *o'yladi, kashf qildi, fikrladi*; 3. Sezgi fe'llari: *sedi, his qildi*; 4. Ruhiiy holat fe'llari: *kuldi, xursand bo'ldi, qayg'urdi*; 5. Nutq fe'llari: *gapirdi, so'zladi, ifoda qildi, ming'irladi*; 6. Ishora fe'llari: *imo qildi, labini burdi, ko'zini qisdi*; 7. Jismoniy holat fe'llari: *og'ridi, isitma qildi, xastalandi*; 8. Tabiiy holat fe'llari: *eridi, muzladi, uxladi*; 9. Ko'rish fe'llari: *qaradi, ko'rdi, boqdi, termuldi*; 10. Tabiat hodisalarini ifodalovchi fe'llar: *qovjiramoq, yashnamoq, o'smoq, gullamoq*;

R. Sayfullayeva tasnifi yuqoridagilardan birmuncha farq qiladi: Harakat fe'li jonli va jonsiz predmetga xos harakatni ifodalaydi. Ular yurish, ta'sir etish, zarb berishli kabi ko'rinishdabo'lishi mumkin. Qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq harakatda harakatlanuvchi obyekt yaqqol ko'rinib turadi. Oyoq bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: *yurmoq, kezmoq, yo'rg'alamoq, pildiramoq, lapanglamoq*; qo'l bilan bog'liq harakatni ifodalovchife'l: *urmoq, ushlamoq, silamoq, tirnamoq*. Yuz, gavda, og'iz, lab, quloq, burun va h. bilan bog'liq harakat ham mavjud. Nutq fe'llari insonning gapirish faoliyati bilan bog'liq harakatlarni ifodalaydi: *gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq*. Holat fe'llari inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holat turlixususiyatga ega. Holatni to'rtga bolish mumkin: a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog'liq): *eslash, unutish, yodlash, tubanlashmoq*; b) tashqi holat (ichki holatning namoyon bolishi bilan bog'liq, *xafa bo'lmoq, shodlanmoq, esankiramoq*; d) jismoniy holat (inson tamsi bilan bog'liq): *holsizlanmoq, kuymoq*; e) ijtimoiy holat (jamiyat bilan bog'liq): *boyimoq, kambag'allashmoq*.

Natijali faoliyat fe'llari tizimi: *yasamoq, qurmoq, bunyodetmoq, hosil bo'lmoq, chizmoq* kabi birliklarni o'z ichiga oladi. Tafakkur fe'llari sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq: *o'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq* kabilar kiradi.

Munosabat fe'llari qatori: *erkalamoq, suymoq, yaxshiko'rmoq, parvona bo'lmoq* kabi ijobiy xarakterdagi munosabat fe'llari *qorasio'chsin, baloga giriftor bo'lsin, juvonmarg bo'lgur* kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe'llaridan tashkil topadi [3, 185-188-189]. Fe'l mavzusiga bag'ishlangan asar va grammatikalarni (grammatik nazariyalarni) tahlil natijalaridan ko'rinadiki, ingliz grammatistlari o'z asarlarida uchtdan qirq beshtagacha fe'l turlarini keltirgan bo'lsalar, o'zbek tilshunoslari uchtdan yigirmatagacha fe'l turlarini begilaydilar. Yuqorida keltirilgan tasniflar bir-birini to'ldiradi, bir-biriga o'xshash keltirilgan tasniflar fe'l so'z turkumini mukammal tahlil natijasida yuzaga kelgan tasniflardir.

Maktab darsligida berilgan tasnif esa bir muncha sodda o'quvchining yosh salohiyatiga moslashtirilgan holda turlarga ajratilgan. Ammo maktab darsligidagi tasnifga tabiat hodisalarini ifodalaydigan fe'llarni ham kiritish o'rinli bo'lar edi. R. Sayfullayevaning tasnifida 6 ta tur beriladi. Bu tasnifda natijali faoliyat, munosabat fe'llari kiritilgan. Albatta bu o'rinli, tilimizda shu guruhga mansub fe'llar ham mavjud.

Bugungi kunda biz pedagoglardan nazariy bilimlarni puxta egallash bilan birgalikda ularni amaliyotga samarali tatbiq etish ham talab qilinmoqda. O'quvchilarga fe'l so'z turkumi va uning ma'no turlarini tushuntirishda turli metodlardan, topshiriqlardan, jadvallardan, klasterlardan, texnika-texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "Zinama-zina", "Ortiqchasini toping", "Ikki tomonlama kundalik" kabi o'yin usulidagi metodlardan yoki "BBB" jadvalidan foydalanish mumkin. Maktab o'quvchilariga mos ko'rgazmali qurollardan foydalanish ham o'quvchilarning esda saqlab qolishiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. – T.: 2009
2. Mahmudov N. va bosh. Ona tili umumta'lim maktablari 6-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2013
3. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: 2009
4. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – T.: Universitet, 2006
5. Muhamedova. S O'zbek tilidagi harakat fe'llarining semantikasi va valentligi – T.: 2005
6. Rasulov R. O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi. – T.: 2003

BORIS TIZIMI BO'YICHA MATN ATHLILI

N. Ashurova, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Boris tizimi darak gaplarni tahrir qilish tizimi yoxud sistemasi. Ingliz tilshunosligida kashf qilingan. Bunda matn abzaslarga ajratilib, savol-javob tizimi asosida tahlil qilinadi.

Sovg'a

Katta yo'l bo'ylab Burhon aka ketib borardi. Yo'l ustidagi yangi imoratlarni ko'rib ko'zlarida hayrat, lablarida tabassum qalqidi.

Savol: Burhon aka yo'lda nimadan xursand bo'ldi?

Javob: Yo'l ustidagi yangi imoratlarni ko'rib, bolalik chog'larini eslaydi. Ularning qishlog'i pastakkina daryo bo'yida joylashgan bo'lib, imoratlar tugul baland uylardan ham darak yo'q edi. Imoratlarni ko'rishni bir vaqtlar orzu qilardi. Hozir ko'ngli ko'tarilib, bo'yi bir qadar o'sgandek bo'ldi.

U ketib borar ekan, yana o'ylay boshladi. Bugun xotining tug'ilgan kuni, nimadir sovg'a olish kerak!? Lekin nima? Do'konlar oldidan ketib borar ekan, oynadan sekin mo'raladi. Atrofga bir-bir qarab, yuxshilab ko'zdan kechirdi. Asta cho'ntagidan pulini chiqazib, chamalab ko'rdi.

Savol: Burhon aka yo'lda nimani o'yladi?

Javob: U Poyabzal korxonasida hisobchi bo'lib ishlashiga quramasdan, o'ning oxirigicha maoshini ro'zg'orga zo'rg'a yetkazardi. Shunga qaramay, bugun Anoraning tug'ulgan kuni, ko'nglini ko'tarib sovg'a olish kerak. U yonma-yon joylashgan ko'plab do'konlarni ko'zdan kechirar ekan, gul do'koni yonida to'xtadi. Gullar judayam chiroyli, ularning turfa xilligi odamning ko'zini quvnatadi. Gul ifori esa ko'ngilni yuyratadi. U gullar orasidan oq atirgulga nazar tashladi. Ha, bu o'sha, Anoraning eng sevimli guli edi.

Savol: Burhon aka Anoraga qaysi gulni sovg'a qilishga qaror qildi?

Javob: Burhon aka gullar orasidan oq atirgulga qaradi. Avvallari har yili u qizil atirgul sovg'a qilardi. O'g'li kasallikka chalilib, bevaqt vafot etganidan keyin Anoraga qizil rangli gullar yoqmay qoldi. Ikkita bir-biridan shirin qizchalari bo'lsa-da u ko'proq o'g'lini qumsardi. Mana uch yildirki, u qizil atirgullar o'rmiga oq atirgullar sovg'a qiladi. Qolgan puliga esa qishloqqa qaytayotib yo'l ustidagi choyxonaga kirib ichardi. Uning o'limiga qo'li kaltaligini sabab qilardi. Uyiga yaqinlashayotganda o'tgan

hafta onasi operatsiyadan yaxshi chiqmay, to'shakka yotib qolgan Nodirjonni ko'rdi. U yig'lab betoqatlanib kelar edi. Yosh bo'lishiga qaramay onasi endi tuzalib ketmasligini sezgandek yurgandi.

Savol: Burhon aka uyiga yaqinlashgach kimni uchratdi?

Javob: Qo'shnisi Nodirjonning yig'lab kelayotganini ko'rdi.

Nodirjonni yupatmoqchi bo'lib to'xtatdi. Nodirjon bugun onasiningahvoli yomonligini, shifokorlar tez-tez kelib, ukol qilib ketishganini aytdi va qo'lini ochib, eskiroq 500 so'm pulni ko'rsatdi. Ayting, bu pulga yaxshiroq sovg'a beradimi? Haligacha onamga biron narsa sovg'a qilmaganman. Katta bo'lib, pulim bo'lguncha onam kutib turmaydimi, – deb qo'rqayapman. Buso'zni Nodirjonjondan eshitib, Burhon aka sal hayratlandi va nimtabassumlik bilan uni bag'riga bosib yupatdi. „Xavotir olma, hammasi yaxshi bo'ladi“, – dedi.

Savol: Burhon aka Nodirjondan qanday yangilik eshitdi va qanday qarorga keldi?

Javob: Burhon aka Nodirjondan onasining ahvoli yaxshi emasligini eshitdi. Nodirjon unga sovg'a bermoqchiligini, sovg'a berishga ulgurmasligi va, hatto, onasiga sovg'a olish ko'nglida bir umr armon bo'lib qolishi mumkinligini xayolidan o'tkazdi va qo'lidagi gullarni unga berishga qaror qildi. „Ma, Nodirjon, bu gullarni ol va onangga sovg'a qil, ilohim, onang tuzalib ketsin“ – dedi. Nodirjon quvonchdan ko'zlari chaqnadi-yu „Men buni olamayman“, – dedi. Burhon aka qo'yarda qo'ymay qo'lga gulni tutqazdi. Nodirjon minnardorchilik bildirib qo'lidagi pulni uzatdi. Burhon aka: „Olib qo'y pulni, hali senga kerak bo'ladi“, – deb qo'lga pulni qaytardi. Nodirjon rahmat aytib, xursand bo'lib, uyiga kirib ketdi.

Savol: Burhon aka Nodirjonni qanday xursand qildi?

Javob: U xotiniga atab olgan gullarni Nodirjonga berdi. Go'yo. Nodirjonning birinchi va oxirgi marta sovg'a berayotganini dilidan o'tkazdi. Burhon aka Anorani tug'ilgan kuni bilan tabrikladi va bo'lib o'tgan voqeani bayon qilib, kechirim so'radi. Xotini erining ishidan mamnun bo'ldi. Tug'ilgan kunni o'tkazib, oila ahli dam olgani uyquga ketishdi. Ertalab azonda Nodirjonlarning uyidagi yig'i-sig'i, baqir-chaqiriqlardan Burhon aka ham Anora ham, uyg'onib ketishdi. Nahotki.. Nodirjonning oyisi vafot etgan bo'lsa?!

Ha, rostdan ham bu oq atir gullar Nodirjonning onasiga qilgan birinchi va oxirgi sovg'asi edi. Ular Nodirjonga rahmi kelib achinishdi. Anora Nodirjonning onasi Saidani o'ylab, ko'ngli bo'shab ketdi va Xudodan uning joyi jannatda bo'lishini so'radi. Burhon aka ham, Anora

ham ko'nglidan bir xil narsani o'tkazishdi: „Dunyoda yana bir ona-bola bir- biridan judo bo'lishdi.“ Metako'p (sabab zanjiri) — sovg'a Atrans (ma'lum bir shaxsning sovg'aga ega bo'lishi) — Nodirjonning sovg'aga ega bo'lishi Ptrans (ma'lum bir obyektning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi) — Nodirjonning onasi kasalxonadan chiqishi Atb (insonning psixologik holatlari) — xayolga tolish, xursandchilik hissi, rahmdillik hissi, yig'lash, nybdorlik hissi va boshqalar.

Xulosa: Dunyoda Ona mehridan qadrliroq ne'mat yo'q! Dunyoda kelib ilk bor eshitadigan navomiz ham Onajonlarimiz allasidir. Bu navoni jahondagi hech bir navo bilan solishtirib bo'lmaydi. Biz uchun qadrlı insonlarni vaqtida qadrlaylik.

QADIMGI MANBALARLARDA “TOMON” TUSHUNCHASI VA UNI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

M. Dustmurodov, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Muayyan manbalarning guvohlik berishicha ko'kturklarning tasavvur-qarashidagi “tomon” tushunchasi ikki xil – tik (vertikal) va yuza (gorizontal) yo'nalishlarida amal qilgan. Ularning tasavvurida “tomon” olti yoqdan iborat bo'lgan. “Olti tomon” qadimgi turkiy tilda “altı yaraşur” deyilgan. Buning asl ma'nosi “olti muvozanat” dir. *Tik yo'nalish* qarama-qarshi ikki tomon va ular omlig'ini tashkil etadi. Bular *üzä* (yuqori, ya'ni osmon), *asra* yoki *alt* (past, ya'ni yer yuzi) hamda ularning orasi(ara)dan iborat bo'lgan. Qadimgi turklarning olam, yorug' dunyo, kishilik tirikligi to'g'risidagi o'y-qarashlari ham ayni chiziqda turadi. Ana shu uch qatli olam tushunchasi eski bitig'larda, san'at va arxitektura yodgorliklarida o'z izini qoldirgan. Muhimi, yozma yodgorliklarda “tomon” tushunchasi bilan bog'liq butun bir leksik birliklar tizimi mavjud. [1, b 229-230]

Ushbu fikrlarning amaliy tomoni bir qancha qadimgi yodgorliklarda o'z ifodasini topgan. Bunga yaqqol bir misolni Ikkinchi ko'k turk xoqonlig'i zamonidan qolgan Kultigin va Bilga xoqon bitig'larida kuzatish mumkin. Bitig'larda turklar kechmishi asosidagi voqeliklar xoqon tilidan hikoya qilinadi. Uning hikoyasi quyidagi jumlar bilan boshlangan: “*Üzä kök täjri, asra yağiz yer qiltınuqda ikin ara kisi oğlı qilinmiş. Kisi oğlınta üzä yeçüm-apam Bumin qağan, İstâmi qağan olurmış*” ya'ni “*Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaruiganda, ikkisining orasida inson bolasi yaralgan. Kishi o'g'illari uza ota-hohom Bumin va Istami xoqon bo'lib (taxtda) o'tirganlar*”. Ushbu jumladagi (uzä kök täjri, asra yağiz yer) mazmun jihatdan o'zaro qarama-qarshi tomon tushunchalarini ifodalamoqda. Zid ma'nolar *üzä* (“yuqorida”) va *asra* (“pastda”)

ravishlari yordamida yuzaga chiqqan. Bu yerda turklarning dunyonini vertikal jihatdan anglashdagi nazariy qarashlari aks etgan. *Tāyri* – qadimgi turkiy tilda ikki ma’nodan qo’llanilgan: birinchisi – “ko’k, osmon”; ikkinchisi – “xudo, tangri”. Keyingisi “osmon” ma’nosidan o’sib chiqqanligi ma’lum va bu yerda birinchi ma’nosida qo’llanmoqda. Bu ta’birda qadimgi turklarning muayyan uchi qatli olam to’g’risidagi tasavvuri o’z ifodasini topgan: yuqorida – osmon, pastda – yer, ikkisining o’rtasida inson va uning hayoti.

Gorizontal jihatdan ya’ni *yo’nalishi* bo’yicha “tomon” tushunchasi “qutb”ni anglatadi. Bu Yer yuzining to’rt tarafi bilan bog’liq. Eski turklar “to’rt qutb”ni *tört buluq* yoki *tört sari* deb ataganlar. *Tört buluq*, *tört sari* tushunchalari “kenglik, zamin bepoyonligi”ni ham bildirgan. [1, b 232] Jumladan, badiiy adabiyotda el qahramonlarining cheksiz yerlarga hukmronlik qilganligi, ularning kuch-qudrati ayni tushunchalar bilan ta’rif etilgan.

Masalan, Kultigin bitigida Bumin va Istami xoqonning el erki yo’lidagi kurashlari shunday ta’riflanadi: “*Tört buluq qop yağı ermis, sü süläpän tört buluqdağı bodumuğ qop almıs, qop bazqılmıs*”, ya’ni “*To’rt taraf butunlay dushman ekan. Qo’shin tortib, to’rt yoqdagi xalqni butunlay olganlar, butunlay tobe qilganlar*”. Yoki Bilga xoqon bitigida xoqon o’z qahramonliklarini shunday yodga oladi: *Tāyri yarliqaduq üçün özüm olurtuqumatört buluqdağı bodumuğ etdim* ya’ni “*Tangri yorliqagani uchun o’zim (xoqon bo’lib) turganimda to’rt tarafdagi xalqni tartibga soldim*”.

Ayrim tadqiqotlarga ko’ra qadimgi turklar tasavvurida tevarak-atrof, olam qutblari tushunchasi kishining kunchiqarga qarab turgan holati bilan bog’liq yuzaga kelgan. Qadimgi turklar ko’ktangriga – kunchiqarga yuz tutgan holatda ibodat qilganlar. Ayni holatda tevarak, qarama-qarshi tomonlarni anglatuvchi to’rt jihat yuzaga kelgan: “old” – “orqa”, “o’ng” – “so’l”. Qadimgi turkiy tilda “old” tushunchasi – *il* yoki *ön*, “orqa” – *quri*, “o’ng” – *bir* yoki *oñ*, “so’l” esa *ylr* yoki *çon* deyilgan. Yer yuzining to’rt qutbi (*tört buluq*) ham shu so’zlarga jo’nalish kelishigi qo’shimchasini qo’shish bilan atalgan. Bu so’z qutbning o’sha tomoniga bo’lgan yo’nalishni anglatadi: *İlgärü* – oldinga (Sharqqa), *Birgärü* – O’ngga (Janubga), *Quriğaru* yoki *Kirü* – orqaga (G’arbga), *Yirğaru* – so’lga (Shimolga). Masalan, Kultigin yodgorligida qutb nomlari bilan bog’liq quyidagicha nomlar tilga olinadi: “*İlgärü Şantung yazıqa tegi sülädim, taluyqa kiçigtegmädim. Birgärü Toquz ärsänkä tegi sülädim, Tüpütkä kiçigtegmädim. Quriğaru Yinçü ögüz keçä Temir qapiğqa tegisülädim. Yirğaru Yer Bayırqu yeringä tegi sülädim*” ya’ni “Sharqqa – Shantung dashtiga qadar qo’shin tortdim, dengizga bir oz yetmadim. Janubga – To’qiz arsanga qadar qo’shin tortdim, Tuputga bir oz yetmadim. G’arbga – Yinçu o’guz (Sirdaryo) ni kechib,

Temir qopiqqa (darvozaga) qadar qo'shin tortdim. Shimolga – Yer Bayirqu yonigacha qo'shin tortdim". [2, b 23] Janub *oň jaňaq (oň yaq)* ya'ni, o'ng tomon, shimol *čoň jaňaq (čoň jaq)* ya'ni, so'l tomon deb ham yuritilgan.

Shuningdek, bitigda tomonlar etnik nomlar orqali ham anglashiladi. Jumladan, "*Xalqni tarbiyat qilayin deb, shimolga O'g'uz xalqi tomonga, sharqqa Qitaniy, Tatabi xalqi tomonga, janubga Tabg'ach tomonga katta lashkar bilan o'n ikki marta urush qildim*". Ushbu satrdagi Tabg'ach xalqi nyanan xitoyliklar (janub), Tatabi va Qitaniylar (sharqiy xalqlar) esa tarixiy mog'ul va manjur etnoslari o'rtasidagi xalq bo'lib, ular Shimoliy-sharqiy Xitoy va Lyadun yarim orolidagi elatlardir. Manbadagi Qitaniy atamasi ayni damdagi tarixiy tadqiqotlarda ham "xitan", yoki "kidan" nomlari bilan yuritiladi. Muhim tomoni, bu xalqlar yaqin o'tmishgacha tarixiy ko'k turk davlati joylashgan hududga nisbatan sharqiy hududda yashab kelganlar (etnik qoldiqlar ayni damda ham shu hududdadir).

Qadimgi turklar qutbni Quyoshning ko'rinuvi (chiqishi va botishi, kechakunduz almashinuvi) bilan ham bog'liq holda tasavvur etganlar. Jumladan, quyoshning chiqishi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan *Küntoğsıq* (Kunchiqar) tushunchasi – sharqni, Quyoshning botish yeri bilan aloqador *Künbatsıq* (Kunbotar) esa g'arbni bildirgan. *Kün ortusi* – tub ma'nosida "choshgoh, tush, peshin"ni, qutbga nisbatan janubni, *Tün ortusi* – tub ma'nosida "qoq tun, yarim tun"ni, qutbga nisbatan shimolni bildiradi. Shuningdek, "janub"ni *Kündünki* ham deyilgan: *Kündünki buluň* – janub tomon. Kul tigin bitigida shunday satrlar bor: "*Oldinga – kunchiqarga, o'ngga – kun yurishga, orqaga – kunbotarga, chapga – tun o'rtasigacha yerlardagi xalqlar hammasi menga qaraydi*". Bu yerda tomonlar Quyosh (yorug'lik) ning harakatiga muvofiq belgilangan. Eletmish Bilga xoqon yodnomasida tomonlarni belgilash Oyg'a nisbatan ham olinganligini guvohi bo'lishimiz mumkin: "*Sharqda – kunchiqardagi xalq, g'arbda – oybotardagi xalq, to'rt tarafdagi xalq menga kuch berar*".

"O'g'uzxoqon" dostonida qarama-qarshi qutblarnianglatuvchi *Kün toğusi* va *Kün batuši* atamaları qo'llangan. Ushbu atamalardagi *toğusi* va *batuši* Quyoshning sharqdanchiqishi va g'arbga botish holatini ifoda etmoqda. Shunga ko'ra, *Kün toğusi* – "sharq", *Kün batuši* – "g'arb"ni bildiradi. Bu ikki atama qarama-qarshi ikki qutbni bildiruvchi *Küntoğsıq* va *Künbatsıq* qa tengdir. "Qutadg'u bilig"da kunning chiqishi bilan bog'liq holda sharqni *Tuğar*, g'arbni esa kun botishi bilan bog'liq ravishda *Batar* deyilgan. Manbalarda vaqtni bildiruvchi *tarj*, *tün* so'zlari ham qutblarni ifoda etgan: *Tarj sari* – sharqqa, *Tün jaňaq* – shimoltomon, *Tün sari* – shimolga. [1, b 233-234]

Tadqiqotlarga ko'ra qadimgi turklarda ranglar ham tomonni ifodalashga xizmat qilgan. Masalan, oq rang – g'arbni, ko'k rang – sharqni, qora rang – shimolni, qizil rang – janubni bildirgan. Ungin bitigida keltirilgan "*Alloma otaginam, janozang, oq-qizil yirtishingga erishdim*" jumlasida ham qahramon oq va qizil ranglari orqali mamlakat sarhadlarini nazarda tutmoqda. "Oq xunlar" deganda g'arbiy o'lkalardagi *qanqa* va *kushonlar* nazarda tutiladi. "Ko'k turklar" deyilganda sharqiy turklar tushunilishi ham, ehtimol, shundandir. Oltin O'rdada davlati ikkiga bo'lingan edi: Oq o'rdada – g'arbiy o'lkalar, Ko'k o'rdada – sharqiy davlat, uni Abulxayrxon qurgan. Amir Temurning Shahrisabzda qurdirgan qarorgohi Oqsaroy, Samarqanddagi qarorgohi esa Ko'ksaroy deb atalgan edi. Ularning birinchisi g'arbda, ikkinchisi esa sharqda joylashgani uchun shunday atalgan.[1, b 235]

Demak, manbalarda qo'llangan "tomon" tushunchasi bilan bog'liq leksik birliklar tizimi qadimgi turklarning olam va uning tuzilishi to'g'risidagi qarashlari, ularning borliqqa munosabatini, falsafiy qarashlarini o'rganishda eng ishonchli va kerakli manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q. Sodiqov. Turkiy til tarixi. - T.: TDSHI, 2009
2. N. Rahmonov. Qadimgi hikmatlar. - T.: G.G', 1987
3. M. Qoshg'ariy. Devoni lug'otit turk. - T.: Fan, 1967
4. N. Rahmonov. Q. Sodiqov, O'zbek tili tarixi. - T.: O'FMJN, 2009
5. A. Asqarov. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. - T.: O'zbekiston, 2015.
6. Радлов В. В. Ярлыки Темура Кутлуга и Тохтамыш, ЗВО РАО, т. III, вып. 2, 1888.

RAVISH YASALISHIDA MUVOZANAT VA MUNOSABAT

Q. Mamiraliyev, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Ravish hamisha tilshunoslikning bosh muammosi bo'lib kelgan. Uni atroflicha o'rgangan olim V.V. Vinogradov "mustaqil so'zning hech bir guruhga sig'may qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan" deb haqqoniy baho bergan. Ravish mustaqil ma'noli o'zgarmas so'z. U belgi, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nosini ifodalaydi va bu jihatdan, ot, sifat, songa yaqin turadi. Undan farqli jihati shundaki, so'z o'zgartiruvchi (sintaktik shakl yasovchi), shakl yasovchi qo'shimcha bilan birika olmaydi.

Ravishlar affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Shuningdek, asos qismni juftlash, takror qo'llash yo'li bilan ham ravish yasaladi. Bunda

yasashga asos qism ot, sifat, olmosh, sifatdosh, ba'zan ravish bo'lishi mumkin.

Ravish yasash asoslari quyidagicha:

Ot: yaxshilikcha, o'zbekcha, do'stona;

Sifat: tiriklay, eskicha, mardlarcha;

Olmosh: butunlay, o'zicha;

Modal: keragicha, boricha;

Sifatdosh: istagancha, shoshganча;

Son: bittalab.

Quyidagi qo'shimchalar orqali ravish yasaladi:

-lab. Bu affiks ot, sifat, ravish turkumlaridan ravish yasaydi. Harakatning bajarilish holatini, paytini, miqdorini bildiradi. Masalan: *yil+lab*, *hafta+lab*, *yaxshi+lab*, *bop+lab*, *kecha+lab*, *oy+lab*, *sahar+lab*, *ko'p+lab*, *ktlo+lab*, *tonna+lab*, *yanbosh+lab*.

-lay (layin). Bu affiks ish-harakatning belgisini va holatini bildiradi. Unumsiz qo'shimcha. Masalan: *butunlay*, *tiriklayin*, *shundayin*.

-ligicha. Bu affiks -lay (layin) qo'shimchalari bilan sinonim munosabatda bo'la oladi. Masalan: *tirikligicha*, *xomligicha*, *yangiligicha*, *butumligicha*.

-in. Bu affiks ot, sifat, ravish so'z turkumlaridan ravish yasaydi. Masalan: *qishin-yozin*, *oldin*, *ostin-ustun*, *birin-ketin*, *yashirin*, *ochin-to'qin*, *ertan-kechin*, *yupin*.

-namo. Bu affiks ot, sifat va sifatdoshdan ravish yasaydi. Masalan: *hazilnamo*, *olifitanamo*, *uyalgannamo*, *parishonnamo*.

-siz. Bu affiks bilan yasalgan so'z yasama sifat bo'lib, keyin ravishga ko'chgan. Ot va otdosh (harakat nomi. Sh. Rahmatullayev qo'llagan.) dan ravish yasaydi. Masalan: *dom-daraksiz*, *nom-nishonsiz*, *navbatsiz*, *to'xtovsiz*.

-chang. Bu unumsiz ravish yasovchi affiks bo'lib, ot so'z turkumidan ravish yasaydi. Masalan: *mahsichang*, *ko'ylakchang*.

-cha. Bu affiks ot, sifat, olmosh, ravishga qo'shilib, ish-harakatning quy tarzda bajarilishini, yasash asosida ifodalagan narsa, belgi, holat va xususiyatga o'xshatilganlikni qiyoslovchi ravishlar yasaydi. Masalan: *yangicha*, *eskicha*, *hozircha*, *shuncha*, *o'zbekcha*, *atroflicha*, *qisqacha*, *yashirincha*.

Bu affiks egalik va kelishik qo'shimchalaridan keyin ham qo'shilib keladi. Masalan: *sizningcha*, *o'zimcha*, *uningcha*, *seningcha*.

Bu affiks otlardagi kichraytirish-erkalash qo'shimchasi bo'lgan **-cha** affiksi bilan omonimlik munosabatida bo'ladi. Masalan: *navqiron yigitcha - yigitcha harakat qildi*.

"Bu o'rinda **-cha** qo'shimchasi omonimligi asosida leksema omonimligi vujudga kelgan: yigitcha. 1. Kichkina yigit. 2. Yigit kabi.

-cha affiksining bu ikki vazifasi urg'u bilan farqlanadi. Kichraytirish-erkalash ma'nosini bildiruvchi **-cha** affiksi urg'u oladi: *yigitcha, qizcha, kuchukcha*. Ravish yasovchi **-cha** esa urg'u olmaydi. Urg'u so'zning qo'shimchadan oldingi bo'g'iniga tushadi. Masalan: *yigitcha, xotincha, erkakcha, harbiycha*.

-cha o'miga *kabi, singari* ko'makchilarini qo'yish mumkin bo'lsa, u ravish yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan: *harbiycha - harbiy kabi*.¹⁸ "... ravish yasovchilar deb qaralayotgan faktlarning tahlilidan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida ravish yasash uchun xizmat qiluvchi bironta ham morfema (affiks yoki yordamchi so'z) yo'q. O'zbek tilida ravish yasovchi faol qo'shimchalar deb baholanuvchi **-cha, -larcha, -lab** kabilarni ravish yasovchi (umuman,so'z yasovchi) hisoblash mumkin emas. Mas. **-cha** affiksi tarkibida bo'lgan so'zlar u qadar ko'p emas. Qolaversa, birinchidan, ularning ayrimlari so'z yasaliş asosi va so'z yasovchidan iborat tarkibga ega emas: *vaqtincha, ko'pincha* kabi. O'z-o'zidan, bularning o'zbek tili so'z yasaliş tizimiga oid s'z yasaliş tiplarining birortasiga kiritish mumkin emas. Ikkinchidan, **-cha** affiksli so'zlarning ayrimlarida undan oldin egalik qo'shimchasi keladi, ya'ni **-cha** so'zning shunday shakliga qo'shiladi: *keragicha, butunicha, aksincha, xomligicha* kabi. So'z yasovchi qo'shimcha so'z shaklidan so'z yasamaydi. Uchinchidan, **-cha** bo'lgan va yasama so'zday ko'ringan ko'pgina so'zlarning ma'nosi bir tipda emas, ya'ni ular so'z yasalişining biron-bir tipini hosil qilmaydi: *atroflicha, boshqacha, zarracha, hozircha* kabilar. To'rtinchidan, ko'pgina so'zlar tarkibida **-cha** qo'shimchasi shakl yasovchi yoki ko'makchi so'zga xos ma'noga ega bo'ladi: *xomligicha - xom hoida, yashirincha - yashirin holda(tarzda), do'stcha - do'st kabi*. Ana shu aytilganlarning o'ziyoq **-cha** affiksining ravish yasovchi emas, umuman, so'z yasovchi emasligini ko'rsatadi."¹⁹

Demak, **-cha** affiksini yasovchi affiks deb atash biroz munozaraliroq. Bu borada tilshunos Azim Hojiyevning fikrlari ancha o'rinni. Ayniqsa, -

¹⁸A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili II kitob. - T.: Ilm ziyo. 2013. 383-384-b.

¹⁹A.Hojiyev. O'zbek tili so'z yasaliş tizimi. - T.: O'qituvchi. 2007. 58-59-b

cha qo‘shimchasi ko‘makchilar bilan almasha olsa, u holda bu affiks ravish yasamaydi.

-chasiga. Bu affiks harakatning bajarilish usuli va qiyos qilinganlik ma‘nolarini ifodalaydi. Masalan: *qishloqchasiga, qahramonchasiga, askarchasiga.*

Bu affiks aslida **-cha** yasovchi qo‘shimchasi, egalik affiksi va jo‘nalish kelishigining qo‘shilib ketishidan hosil bo‘lgan. Bunda egalik va kelishik affikslari shakl yasovchilik xususiyatini yo‘qotadi. **-chasiga** affiksini farqlash lozim. Masalan:

Erkakcha (harakat qilmoq) +*siga*;

Yigitcha(o‘ynadi) +*siga*;

Harbiycha (kuyladi) + *siga*;

Ochiqcha (gapirdi) + *siga*;

Chalqancha (tashladi) +*siga*.

Bu so‘zlarda yasovchi vosita **-siga** affiksi, *erkakcha, yigitcha, harbiycha, ochiqcha, chalqancha* so‘zlari esa yasovchi asos bo‘lib kelgan.

Qahramon+*chasiga*;

Askar +*chasiga*;

Front + *chasiga*;

Bu so‘zlarda esa endi **-chasiga** affiksi qo‘llangan. Chunki *qahramoncha, askarcha, frontcha* so‘zlari ma‘lum ma‘no anglatmaydi. *Erkakcha, yigitcha, harbiycha, chalqancha* kabi so‘zlar esa lug‘aviy ma‘no anglata oladi.

-iga (siga). Bu affiks yordamida yasalgan ravishlar ish-harakatning bajarilishini biror jarayon, holatga o‘xshatish bilan birga, uning qay tarzda bajarilishini ifodalaydi. Masalan: *ko‘ndalang+iga, baravar+iga, yoppa+siga, birdan+iga, harbiycha+ siga, sidirg‘a+siga.*

-ona. Bu affiks turli so‘zlarga qo‘shilib, ish-harakatning belgisini yasash asosidan anglashilgan narsa, voqea-hodisaga taqqoslash, o‘xshatish ma‘nolarini bildiradi. Masalan: *mardona, qahramonona, kamtarona, shoirona,, xolisona,, mug‘ombirona, oqilona, do‘stona, itoatkorona.* Bu affiks odatda boshqa tildan (arab va tojik) o‘zlashgan so‘zlarda qo‘lanadi.

-an. Bu qo‘shimcha ish-harakatning belgi va holatini ifodalovchi so‘zlar yasaydi. Lekin bu affiks arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tarkibida keladi va shu so‘zlar tarkibida ajratiladi. Masalan: *ruhan, majburan, qat‘iyan, vijdonan, tasodifan, asosan, taxminan.* “ -an, -ona affikslari ham o‘zbek tilining so‘z yasovchilari emas. O‘zbek tilida tarkibida -an bo‘lgan (taxminan, majburan kabi) so‘zlar 50 ga yaqin, -ona bo‘lgan so‘zlar 80 ta

atrofida. Lekin ularning hammasi tayyor holda arab(taxminan) va fors-tojik(do'stona) tillaridan o'zlashgan so'zlardir. Binobarin, ularni o'zbek tiliga xos yasama so'zlar(yasama ravishlar) hisoblash mumkin emas.”²⁰ Ko'rinadiki, o'zbek tilida ravish yasalishi hodisasi borligini tasdiqlovchi faktlar kam.

-larcha. Bu affiks ot, sifat kabi so'zlardan ravish yasaydi. O'xshatish ma'nosini bildiradi. Masalan: *yigitlarcha, polvonlarcha, o'rtloqlarcha, otalarcha, kattalarcha, do'stlarcha, bolalarcha.* -larcha affiksdagi -cha qo'shimchasi qismi *singari, kabi* ko'makchilari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ular ko'pincha almashtirib qo'llanadi. Masalan: *mardlarcha -mardlar kabi, do'stlarcha - do'stlar kabi.*

Aslida -larcha murakkab affiks emas. U ravish yasamaydi. Ko'plik qo'shimchasini olgan otlarga -cha affiksi qo'shilgan. Chunki -cha qo'shimchasisiz qism ma'no anglata oladi. Masalan: *mardlar +cha, bolalar+ cha, do'stlar+ cha, yovuzlar+ cha.* Ravish yasalmagan deyishimizga sabab -cha affiksi kabi, singari ko'makchilari bilan almashib qo'llana oladi. Bunda -cha affiksi -dek(-day) affiksi bilan ham ma'nodosh bo'lib, otlardagi o'xshatish belgisini hosil qiladi. Masalan:

Yovvyilar+cha (day);

Otalar + cha (dek);

Qadrdonlar +cha (dek, singari);

O'rtloqlar +cha (dek);

Kattalar +cha (day).

-larcha affiksi bilan ravish yasalishi ancha munozarali ekanligi ko'rinib turibdi.

-dek (day). Bu affiks orqali yasalgan ravishlar harakat va holatning yasash asosidan ifodalagan narsa yoki belgi xususiyat bilan o'xshashligini, qiyoslashni bildiradi. Masalan: *tog'dek, otdek, lochinday, qadimgiday, ilgarigiday, avvalgidek, bugungiday, gulday, yashinday, o'qdek.*“-dek(day) affiksi ko'p ilmiy ishlarda sifat va ravish yasovchilar qatoriga kiritiladi. Lekin, u so'z yasovchi affiks emas. -dek affiksining *kabi, singari* ko'makchisiga sinonimligi ham uning so'z yasovchi emasligini ko'rsatadi: *qushdek -qush kabi, Sanjardek - Sanjar singari, dengizdek - dengiz kabi.* -dek affiksi asosan otlarga, bundan tashqari olmosh, sifat va fe'ning sifat-dosh, harakat nomi va -moqchi affiksli shakllarga ham qo'shiladi. Bu hodisa ham uning so'z yasovchi emasligini ko'rsatadi. Masalan: *tog'dek, mendek, durustdek, bilmagandek, bilmoqchidek.* O'xshatish shaklini yasovchi

²⁰A.Hojiyev. O'zbek tili so'z yasalish tizimi. – T.: O'qituvchi. 2007. 58-59-b

-dek (day) affiksi soʻzga har qanday shakl yasovchilardan soʻng qoʻshiladi. Buhodisa ham uning soʻz yasovchi emasligini koʻrsatadi. Masalan: *qoʻshnilardek, qoʻshnilarimdek, qoʻshnilarimnikidek, qoʻshnilarimnikidagidek.*²¹-dek (day), -cha, -larcha, -chasiga, -ona, -an kabi qoʻshimchalar ravish yasallishida muhobasali holatni yuzaga keltiradi. "Tilshunosligimizda ravish turkumining yasallish sistemasiga ega emasligi -an, -ona qoʻshimchalarining arab va tojikcha soʻzlar tarkibida uchrashi. -larcha, chasiga, -lab qoʻshimchalarining grammatik maʼno ifodalshi bilan va -iga(-siga), -chasiga qoʻshimchali soʻzlarning sanoqli ekanligi bilan izohlanadi."²²

Bundan tashqari ravishlar asos qismni takrorlash, juftlash va ikki asosni birlashtirish yoʻli bilan yasalladi. Soʻzlarni takrorlash orqali ravish yasalladi: *ayhyon-ayhyon, asta-asta, gul-gul, qop-qop, juda-juda, tez-tez, es-es, koʻp-koʻp, uzundan uzoq, oʻqtin-oʻqtin.* Soʻzlarni juftlash orqali ravish yasalladi: *asta-sekin, eson-omon, nari-beri, erta-indin, kecha-kunduz, azza-bazza, onda-sonda, oʻlda-joʻlda, sal-pal, chala -chulpa, emin-erkin.* Har belgilash olmoshi oʻrin va payt maʼnosini bildiruvchi soʻzlarning birlashtirishidan ravish hosil boʻladi: *har vaqt, har zamon, har lahza, har mahal, har tomonda, har yoqda, har safar, har qancha, har onda.* Ammo *har kim, har nima, har bir, har qaysi, har qachon, har yerda* soʻzlari qoʻshma olmosh yasalladi.

Bir, hamma, qay, alla, hech soʻzlari bilan ham ravishlar yasalladi: *bir vaqt, bir zum, bir yoʻla, hamma zamon, hamma joy, qay vaqt, qay payt, qay mahal, allamahall, allanechuk, hech vaqt, hech mahalda, hech zamonda.*

Koʻrsatish olmoshi bilan kelgan yer, yoq, ora, oʻrta, kun, zamon, kabi soʻzlar yasama ravish deb qaralladi. Masalan: *u yerda, bu yerga, shu yerdan, oʻsha yoqdan, bu orada, shu oʻrtada, oʻsha zamon, shu asnoda.* Lekin Azim Hojiyev bu fikrga qarshi chiqadi va ularni qoʻshma ravish emas, soʻz birlashtirish deb ataydi.

Koʻrinib turibdiki, ravish yasallishi boʻyicha fikrlar xilma-xil. Tilshunosligimizda ravish yasallishi haligacha munozaralarga sabab boʻlmoqda. Chunki ravishning asosiy qismi – asli boshqa turkumga mansub, soddalashgan, yaxlitlashgan leksema. Shu boisdan aksariyat tilshunoslar ravish yasallishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum soʻzning ravishga oʻtishi) mavjudligini tan olishdi.

²¹Q.Sapayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: 2009.64-65-114-b.

2.R.Saytullayeva, B.Mengliyeva, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya. 254-257-b.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Sapayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: 2009.64-65-114-b.
2. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Ona tili 6-sinf. –T.: Tasvir. 2013. 170-173-b.
3. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili II kitob. – T.: Ilm zayo. 2013. 383-384-b.
4. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. I jild. – T.: Mumtoz so'z. 2008.
5. A.Hojiyev. O'zbek tili so'z yasash tizimi. – T.: O'qituvchi. 2007. 58-59-b.
6. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya. 254-257-b.
7. B. Mengliyev, O'. Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. –T.: Akademnashr. 2012. 212-214-b.

AVTOMATIK TARJIMA: YUTUQ VA CHEKLANGAN TOMONLARI

O. Nurullayeva, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Bugungi jadal rivojlanayotgan globallashuv davrida tarjimaning, tarjimashunoslikning o'rni beqiyos. Tarjima madaniyatlararo aloqada muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'ziga xos "ma'naviy ayirboshlash"²³ sanaladi. Bu jarayon xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ularning iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir. Shuningdek, tarjima tufayli tillarning rivojlanish sur'ati jadallashadi, lug'at boyligi oshadi va takomillashadi.

Kitobxonlar tarjima orqali jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar, estetik tuyg'ulari oshadi, didlari o'sadi. Xalqlar o'rtasida tafakkur almashinuvi jarayoni charxlanadi, yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi.

Manashunday muhim jarayonning optimallasuvi uchun sohaga amaliy tilshunoslikning yangi sohasi bo'lgan kompyuter lingvistikasining tatbiq etilishi ko'zlangan maqsadga yetkazishni osonlashtiradi. Ma'lumki, bu fan lingvistika va kompyuter texnologiyasining integratsiyasidan vujudga kelgan bo'lib, uning asosiy vazifasi til bilan bog'liq jarayonlar ishini tezlashtirishdir. Qizig'i, bu fanning rivojlanishida tayanch nuqta bo'lgan izlanishlar mashina tarjimasiga oid tadqiqotlar sanaladi.

Bugungi kunda tarjima qilinishi kerak bo'lgan adabiyotlar bisyor. Ularning barchasini tarjima qilishda ancha vaqt yutqazilishi mumkin. Avtomatik tarjima orqali bunday natijaga tezroq erishish mumkin. 1954-yilda AQShdagi

²³G'aybullas-Salom. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2003, 2-bet.

Jorjtaun universitetida dunyoda birinchi marta avtomatik tarjima tajribadan o'tkazildi. Bu tajribaning bazasi algoritmlardan iborat bo'lib, 50000 ta so'zni rus tilidan ingliz tiliga tarjima qildi.²⁴ Shundan keyin bu sohaga oid tadqiqotlar rivojlanib ketdi. Hozirda eng yirik bo'lmish AQShda yaratilgan DIANA tarjima loyihasi jahon tillariga asoslanib, hajmi 10 mln so'zni tashkil etadi. Yirik tarjima sistemalari bo'lgan YEUROTRA, SOKRAT, PROMT kabilar ham ayni sohada qilingan sermahsul tadqiqot namunalaridir. Mashina yordamida tarjimani amalga oshirishning ba'zi kamchiliklari mavjud. Ular quyidagilar:

- Tarjima jarayonida so'zlar grammatik jihatdan asliyat matniga mos kelmasligi mumkin. Bu so'zma-so'z tarjima qilishning natijasidir;

- Mashina tarjimasida nutq uslublari hisobga olinmaydi. Shu sababdan unda stilistik kamchiliklar ko'p;

- Avtomatik tarjimada ma'lum tildagi turg'un birikmalar: frazeologizmlar, idiomalar, parafrazalar; omonimlar; sinonimlar; troplar hisobga olinmaydi.

Kompyuterda insondagi kabi fikrlash qobiliyati bo'lmagani sababli u avtomatik tarjimada tarjimon ko'magiga tayanadi. Shu sababdan 1966-yilda AQShda bo'lgan konferensiyada avtomatik tarjima bo'yicha "Language and Mashines: Computers in Translation and Linguistics" deb nomlangan salbiy ma'nodagi ma'ruza qilindi va yuqori darajada sifatli avtomatik tarjimani ta'minlovchi universal tizim yaratish natijasizligi va imkonsizligi ta'kidlandi. Shundan keyin jahon miqyosida avtomatik tarjimaga oid tadqiqotlarni moliyalashtirish keskin kamayib ketdi. Ular faqatgina Yaponiyada davlat tomonidan moliyalashtirildi.²⁵

Ilm-fanda doim bir narsani hisobga olish kerakki, dastlab amalga oshishi murakkab bo'lgan barcha ixtirolar, kashfiyotlar yaratib bo'lingandan so'ng o'z yo'liga tushib olgan va sekin-asta rivojlangan. Kompyuter orqali bo'ladigan tarjima ham shunday. Dastlab u faqat so'z tarjimasida qo'llangan bo'lsa, keyinroq undan matnlarni bir tildan ikkinchi tilga o'g'irishda foydalanishga o'tildi. Matn tarjimasi ham o'ziga xos rivojlanish tadrijiga ega. Avtomatik tarjima ilk bor rasmiy uslubda yozilgan matnlarni o'girdi, chunki rasmiy matnlar badiiy bo'yoqdorlik, uslubiy jimjima va ma'no ko'chishlaridan xoli bo'ladi. Xususan, L.L. Nelyubin va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan so'zma-so'z tarjima qilishning ilmiy strategiyasi (rasmiy-idoraviy uslub asosida) o'sha davr jahon injener lingvistikasi talablari va ilg'or tajribasiga monand bo'lgan edi.²⁶ Bugungi kunda avtomatik tarjima bir necha jahon va Yevropa tillarida ko'proq ilmiy asarlar uchun qo'llanmoqda. O'zbekistonda ham rus-o'zbek hamda o'zbek-rus tillari uchun mashina tarjimasi sinab ko'rilmogda. Albatta, u jiddiy kamchiliklardan xoli emas. Tarjimaning to'laroq va mukammalroq bo'lishi uchun juda ko'p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rus olimi

²⁴ Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2011, 73-bet.

²⁵ Po'latov A. Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2011, 49-bet.

²⁶ Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2011, 59-bet.

Y.I.Shemakin o'z kitoblarida avtomatik tarjimaning ikki xil model va prodsedurasi: "matn-matn" va "matn-mazmun-matn"ni taklif etadi. Uning ikkinchi modeli kompyuterda sun'iy intellekt bo'lishini taqozo etadi. Sun'iy intellekt insondagi intellekt tushunchasining aynan imitatsiyasi emas, balki inson intellekt faoliyatining ko'plab qirralarini o'z ichiga olgan modellashirilgan tizimlar texnologiyasi demakdir.²⁷

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, imkoniyatlarimiz samaradorligini oshiruvchi, uni optimallashtiruvchi har qanday vositadan unumli foydalanmog'imiz kerak. Bugun tilimiz va madaniyatimizni dunyoga tarannum etish uchun, jahonning ilg'or tajribasini o'zlashtirish uchun tarjima bizga nihoyatda zarur. Bunga kompyuter texnologiyasining joriy etilishi esa ishimizni tezlashtiradi va taraqqiyot uchun xizmat qiladi.

MORFEM TAHLILDA TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIK (Soddalanish hodisasi)

A. Turdialiyev, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Tilimiz turli davrlarda turlicha holatda turlicha o'zgarishlarda rivojlanib keldi. Bu davrlarda tilimizda qariyb yangilanishlar bo'ldi. XX asr boshlaridan tilimiz alohida fan sifatida o'rganila boshlandi. Ona tilimizning har bir bo'limlari ustida turli tadqiqatlar boshlandi, olimlar tomonidan o'rganildi. Ayrim bo'limlarimiz esa tahlil talab masalarga talayligicha qoldi. O'zbek tilining morfemika va so'z yasalishi bo'limi ana shunday bo'limlardan biridir. Morfem tahlilda tarixiylik va zamonaviylik masalasini aniq chegaralay bilish kerak. Bu mavzu bo'limning muhim masalalaridandir.

Bu yo'nalish, umuman, morfemika va so'z yasalishi bo'yicha tadqiqotchilardan professor A. Hojiyev, A. G'ulomov, A. N. Tixonov, R. Qo'ng'urov va boshqa bir qancha olimlar izlanishlar olib borishgan²⁸.

So'zning morfem tarkibi lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida o'zgarib turadigan hodisadir. Vaqt o'tishi bilan u turli xil o'zgarishlarga uchrashi mumkin, ikki morfemadan tashkil topgan so'z endi bir morfema sifatida qaralishi, ya'ni o'zak va affiks o'rtasida chegara yo'qolib, yangi bir o'zak hosil bo'lishi mumkin. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi *dumala*, *dang'illama*, *yalang'och*, *kiprik*, *sayla* kabi so'zlar tarixan morfemalarga ajralgan: *dumala*-qadimgi turkiy tildagi "buk", "engashtir" ma'nosini anglatgan "dom" fe'lining "dum" shaklidan "o'zlik" ma'nosini ifodalovchi *-a(l)* qo'shimchasi va "takror" ma'nosini ifodalovchi *-a* qo'shimchasi qo'shib hosil qilingan va davriy vaj bilan *a* unlisi *o* unlisiga almashgan: (*dum+al=dumal*)+*a*>*dumala*. Shuningdek,

²⁷Po'latov A. Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2011.

²⁸A. Hojiyev. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari.-T.: Fan, 2010; A. G'ulomov, A. N. Tixonov, R. Qo'ng'urov. O'zbek tilining morfem lug'ati.-T.: O'qituvchi, 1977

dang'illama-ushbu sifat "dang'ir" tovushga taqlid so'zidan *-la* qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga *-ma* qo'shimchasini qo'shib yasalgan; *l* tovushining ta'sirida uning oldidagi *r* undoshi *l* undoshiga almashgan: (*dang'ir+la=dang'irla*)+*ma*=*dang'irlama*>*dang'illama*.²⁹

Yuqoridagi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida morfemalarga ajratilmaydi, bir o'zak sifatida qaraladi. Asos va asos, asos va affiksial morfemaning vaqt o'tishi bilan bir ma'noli qism-tub so'zga aylanishi, ya'ni qismlarga ajraladigan so'zlarning davrlar o'tishi bilan qismlarga ajralmaydigan so'zlarga aylanishi **soddalanish** deyiladi. Uning quyidagi turlarini farqlash lozimdir.

1) asos va so'z yasovchi soddalanishga uchraydi: *sovchi* (qadimgi turkiy tilda ham hozirgi ma'nosini anglatgan ushbu so'z "xabar", "nutq" ma'nosini anglatgan "sav" otidan *-chi* qo'shimchasi bilan yasalgan, *a* unlisi *o* unlisiga almashgan: *sav+chi=savchi*>*sovchi*);

2) asos va shakl yasovchi soddalanishga uchraydi: *jingalak* (qadimgi turkiy tildagi "burma" ma'nosidagi "chim" otidan *-ga* qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga *-l* qo'shimchasini qo'shib yasalgan va unga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi *-(a)k* qo'shimchasi qo'shilgan; keyinchalik *ch* undoshi *j* undoshiga, *m* undoshi *n* undoshiga almashgan: ((*chim+ga=chimga*)+*l*=*chimgal*)+*ak*=*chimgalak*>*jingalak*);

3) asos va asos soddalanishga uchraydi: *odamovi* (bu so'z o'zbek tilida arabcha "odam" so'ziga "ovi" so'zini birlashtirib tuzilgan; "ovi" so'zi asli qadimgi turkiy "tinchi" ma'nosini anglatuvchi ab-fe'lining av-shaklidan *-i* qo'shimchasi bilan yasalgan sifat bo'lib, "o'z tinchini ko'zlab odamlarga aralashmay yashaydigan" ma'nosini anglatadi), *sovqotmoq*, *shovvot*, *Shobboz*.

Bir o'zakdan yasalgan so'zlar o'rtasidagi aloqaning yo'qolishiga va ularning bo'linmaydigan so'zlarga aylanishiga, asosan, shu so'zlarning fonetik qayta qurilishi, o'zgarishi ham sabab bo'ladi.

O'zbek tili tarixida quyidagi so'zlarda soddalanish hodisasi yuz bergan:

a) otlarda: *tarmoq* ("tar"-*ajrat*), "bo'lak-bo'lak qil" ma'nosidagi so'zning takror ma'nosini anglatuvchi *-g'a* qo'shimchasini olgan shaklidan *-q* (qo'shimchasi bilan yasalgan);

b) sifatlarda: *sovuq* ("harorati pasay" ma'nosidagi "sog'i" fe'lidan *-q* qo'shimchasi bilan yasalgan: *sog'iq* va *g'* undoshi *v* ga, *i* unlisi *u* ga almashgan);

c) fe'llarda: *o'tqazmoq* (ekmoq) ("o'tir" fe'lga daraja shaklini hosil qiluvchi *-g'iz* qo'shimchasi qo'shib yasalgan);

²⁹A. G'ulomov, A. N. Tixonov, R. Qo'ng'urov. O'zbek tilining morfem lug'ati.-T.: O'qituvchi, 1977, bet-9

d) ravishlarda: *birga* (asli *bir-ik-a*) (“bir” soʻzidan *-ik* qoʻshimchasi bilan birik yasalib, unga ravishdosh koʻrsatkichi *-a* qoʻshilib, “*birika*” boʻlgan va *i* unlisi tushirilib, *k* jaranglashgan).³⁰

Soddalanish natijasida bir xil oʻzakli soʻzlar qarindoshlikdan chiqib, yangi-oʻzga oʻzaklar sifatida boshqa yasama soʻzlarga asos boʻlishi mumkin. Masalan, qachonlardir *qishloq* va *qishki* soʻzlari oʻzakdosh soʻzlar hisoblangan. Hozir oʻzbek adabiy tili boʻyicha esa ular oʻzakdosh soʻzlar hisoblanmaydi. Chunki, bunga hozirgi *qishloq* soʻzi bilan qadimgi *qishloq* soʻzi anglatgan maʼnolar oʻrtasida farqli jihat kattaginadir. Qadimda maʼlum bir mavsumiy makon qishloq deyilgan boʻlsa, hozirgi qishloq anglatgan maʼno butunlay boshqachadir.

Morfemalarga boʻlinadigan soʻzlarning bu jihatdan boʻlinmaydigan shakl olishi turli xil sabablar natijasida boʻladi. Bunga yasashga asos boʻlgan soʻzning xalq isteʼmolidan chiqib qolishi bir sabablardan boʻladi. Shuningdek, tilni xalqning ijtimoiy-tarixiy hayoti, davriy silsilasidan ayro holda oʻrganib boʻlmaydi. Mana shu soddalanish hodisasi ham ana shunday nolisoniy omillar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Debochadagi fikrning uzviy davomi sifatida xulosa oʻrinda shuni qayd etish joizki, tilimizning mana shunday tahlil talab masalalarini keng tadqiq qilish oʻzbek tilshunosligi rivojini yanada yuqori pogʻonaga koʻtarishi bilan birga tilimizning jamiyat, madaniyat, milliy mentalitet va ruhiyat bilan uzviyligini koʻrsatishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Hojiyev. Oʻzbek tili morfologiyasi, morfemikasi va soʻz yasashining nazariy masalalari.-T.: Fan, 2010
2. A. Gʻulomov, A. N. Tixonov, R. Qoʻngʻurov. Oʻzbek tilining morfem lugʻati.-T.: Oʻqituvchi, 1977, bet-9
3. A. Gʻulomov, A. N. Tixonov, R. Qoʻngʻurov. Yuqoridagi kitob (oʻsha bet)

MATN IDROKI VA TALQINI YUZASIDAN MULOHAZALAR

Sh. Xudoynazarova, III bosqich talabasi (ToshDOʻTAU)

Maʼlumki, kishilar orasida bir soʻzni turli xil tushunish, talqin qilish holatlari uchrab turadi. Bu, albatta, har bir xalqning oʻziga xos boʻlgan dunyoqarashi, milliy mentalitetiva yashash sharoitidan kelib chiqadi. Maʼlum bir millat vakillariga xos boʻlgan umumiy fikrlash tarzi, yoki

³⁰A. Gʻulomov, A. N. Tixonov, R. Qoʻngʻurov. Oʻzbek tilining morfem lugʻati.-T.: Oʻqituvchi, 1977, bet-9

ularning dunyoqarashidagi farqli jihatlarni quyidagi matn misolida ko'rib olinishi va tahlilga tortishadi.

Bir o'rmonda bolta paydo bo'lib daraxtlarni kesa boshlabdi. O'rmon ahli unga chora topolmay donishmand Eman huzuriga boribdilar.

–Bolta deganlarning nimadan ishlangan? – deb so'rabdi Eman voqeadan ogoh bo'lgach.

–Bolta deganimiz temirdan ishlangan, – deb javob qilishibdi.

–Dastasi-chi, dastasi ham temirmi? – deb so'rabdi Eman.

–Yo'q, dastasi temir emas, yog'ochdan.

–Eh, attang, dastasi o'zimizdan ekan, endi boltani to'xtatishning hech qanday iloji yo'q, – degan ekan donishmand Eman.

Ushbu matn uchun talabalar tomonidan yozilgan tahlillar.

Daminova Nazokat:

Bu matn mutolaasidan shuni xulosa qilish mumkinki, undagi g'oya majoziy ma'no kasb etgan, o'z ichiga hayotiy hodisani qamrab olgan. Afsuski, hayotda shunday voqealar uchrab turadi. Xalqimizda "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga" yoki "O'zingniki o'zagingni kesadi", kabi ibratli naqlar mavjud. Achinarli holat shunda ko'rinadiki, insonlar orasida xuddi shunaqa – boltadek insonlar uchraydi. Bu toifa kishilari xudbin, ayyor, insonlar ishonchini qozonib, ularning zaif tomonlarini bilib olgach o'zlariga qarshi qurol sifatida qo'llaydigan insonlardir.

Ibragimov Jo'rabek:

Matnni o'qib, afsus bilan aytish mumkinki, boltaning ishi kesish bo'lgandan keyin chopadi-da! Ehtimol, inson boltani boshqarmaganda chopmasligi ham mumkin edi. Darvoqe, Eman donishmandga kelsak, uning savoli qiziq bo'ldi, boltaning dastasi temirdan ham bo'lishi mumkin-ku. Bu matn, albatta majoziy ma'no kasb etadi. Darhaqiqat, "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga".

O'rozov Jumanazar:

Bu matn majoziy usulda yozilgan bo'lib, tashqi dushmandan qo'rqma, o'z ichingdagi dushmandan qo'rq degan ma'no kelib chiqadi. Darvoqe, shu o'rinda, muhtaram Prezidentimizning beparvo, loqayd insonlardan qo'rq, chunki ular sabab katta ko'ngilsizliklar kelib chiqadi, degan gaplarini keltirish o'rinlidir. Haqiqatan, hozirgi kundagi har xil diniy ekstremistik guruhlarning domiga tushib qolayotgan yoshlarning deyarli hammasi beparvo, loqayd hamda bekorchi yoshlardir.

Arslonova Charos:

Yuqorida keltirilgan matnda inson hayotidagi voqea-hodisalar majoziy ma'no kasb etgan holda o'simliklarga ko'chirilgan. Matndan chiqariladigan xulosa shuki, o'z ichingdagi, o'zingdan chiqqan ichki dushman har qanday tashqi dushmandan xavflidir. Ichki dushman sening og'riqli, zaif tomonlaringni bilib senga qarshi qo'llasa, yuz chandon harakat qilmagin, unga bas kelolmaysan. U shu qurol orqali seni parcha-parcha qilishi mumkin. Zero, "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga".

Xudaynazarova Shoira:

Hayotimizda shunday insonlar borki, ular sizga yetti yot begona bo'lsa-da, eng yaqin insoningizday bo'lib qoladi. Afsuski, eng yaqin do'stlaringiz bo'la turib sizni chohga itarishadi, ba'zida. Zotan, inson bolasi borki, o'z nafsi yo'lida hech narsadan qaytmaydi. Bu yo'lda ular o'zining ota-onasini, yor-u do'stlarini ham unutib qo'yadi, ba'zida. "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga" deganlari shudir, ehtimol.

Mustanova Feruza:

Afsuski, "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga" deb xalqimiz bekorga aytishmagan. Darhaqiqat, dushman ichimizdan chiqsa, qanchalar ayanchli. Muhtaram yurtboshimiz ham dushman ichimizdan chiqmasa, O'zbekistonning tinchligiga o'zim kafilman, deb aytgan edilar. Xalq birlashsa, ahl bo'lsa, bu yurtga hech kim daxl qilolmaydi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, talabalar majoziy yo'sinda yozilgan bu matnni to'g'ri talqin qilishga harakat qilgan va bevosita hayotga bog'lab tushuntirib berganlar. Matnda deyarli bir xil xalq maqollaridan foydalanish, shu millat vakillariga xos bo'lgan umumiy fikrlash tarzini, milliy mentalitetni ko'rsatib beruvchi vositadir. Matndagi asosiy ma'nodan dushman o'z ichimizdan chiqsa yomon, degan xulosa kelib chiqadi.

Ammo bu matnni tanqidiy tahlil qilish holatlarini ham ko'rib o'tishimiz mumkin. Xususan, ikkinchi talaba bu matnni o'z ma'nosida tahlil qilgan va asosli ravishda tanqid ham qilgan. Ya'ni hamma narsa o'z vazifasini bajarishi kerak. Bu tabiat qonuni, boltaning vazifasi kesish bo'lgandan keyin chopadi-da, degan xulosani beradi. Bundan ko'rinadiki, talaba hayotga real qaraydi va voqea-hodisalarni to'g'rilikcha qabul qiladi.

Bu talabada bir voqea-hodisani ikkinchi bir voqeaga o'xshatish, qiyoslash hollari kam uchraydi.

Xususan, birinchi talaba bu matndagi ma'noni ochib berishda usonga xos bo'lgan salbiy sifatlarni, ya'ni xudbin, ayyor, buqalamun kabi illatlarni misol qilib keltirish orqali yoritib bergan. Bu qaysidir ma'noda talaba hayotda shunday holga tushgan insonlarni ko'p ko'rganligini, guvohi bo'lganligini bilishimiz mumkin. Inson hayotda nimaga ko'p duch kelsa, masalaning shu tomonini ko'proq yoritishga harakat qiladi.

Uchinchi talaba esa bunday holatlarning yuz berishiga asosiy sabab beparvolik va loqaydlik deb hisoblaydi va hozirgi davrda bo'layotgan terrorism, diniy ekstremizm kabi salbiy holatlarning yuz berishiga aynan e'tiborsizlik sabab deb o'ylaydi. Yoshlarimizning o'z vaqtlarini mazmunli va samarali o'tkazish tarafdori. Bu talabaning dunyoqarashi ancha keng bo'lib, hayotdagi arzimagan narsalar ham katta fojialarga sabab bo'lishi mumkin, degan xulosani beradi.

To'rtinchi talabamiz esa insonning zaif tomonlarini, o'g'riqli nuqtalarini bilib olish orqali uni yengish mumkin, shuning uchun siringni boy bermaslikka harakat qil, degan fikr tarafdori. Bunday insonlar ham hayotda ko'p narsani ko'rgan, katta hayotiy tajribaga ega ekanligini, yoki shu holatga tushganligini bilish mumkin. Kimningdir sirini bilishni eng katta yutuq deb baholaydi va uni yengish qiyinligini ham eslatib o'tadi.

Beshinchi talabamiz esa bu voqeani ko'proq inson nafi bilan bog'laydi va bu vaqtda odamlar o'z insoniy qiyofasini yo'qotib, yaqinlariga rahm-shafqat qilmasliklarini alohida ta'kidlaydi. Bu talabada ham boshqalar kabi hayotiy hodisalarga urg'u berish kuchli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Oltinchi talabamiz esa bu matn orqali el-u yurtni birdamlikka, tinch-totuv yashashga va insonlarni vatanparvarlikka chaqirgan. Dushman ichimizdan chiqqani qanchalik ayanchli ekaniga alohida urg'u bergan.

Ko'rib turganimizdek, har bir talabada o'xshash umumiy fikrlar mavjud. Matni yoritishda har xil hayotiy hodisalarga muroaat qilganini ko'ramiz. Bu esa har bir inson boshqa bir olam ekanligini va hayotida qaysi bir voqea-hodisaga ko'p duch kelsa, shuni yoritishini birinchi o'ringa qo'yishini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganova D. Matnning pretsedent shakli // O'zbek tili va adabiyoti. – T, 2016. №3. B. 31-35.

2. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... dis – Toshkent:
3. Xudoyberganova D. O‘zbek tilida matnning antropotsentrik tadqiqi. Filol. fan. d-ri ... dis. – Toshkent: O‘zR FA TAI, 2015. -109 b.
4. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... dis – Toshkent: O‘zR FA TAI, 2004. -283 b.

O‘ZBEK TILIDA RAVISH YASALISHI HAQIDA

M. Elboboyeva, III bosqich talabasi (ToshDO‘TAU)

Tilning lug‘at tarkibi doimo o‘zgarishda, rivojlanishdadir. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida paydo bo‘lgan yangi-yangi tushunchalarni nomlash ehtiyoji tufayli tilimizda yangidan yangi so‘zlar paydo bo‘lmoqda. Leksikadagi taraqqiyotning eng asosiy yo‘llari boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish va so‘z yasashdir. So‘z o‘zlashtirish deganda, bir tildan ikkinchi bir tilga bevosita so‘z olish tushuniladi. So‘z yasalishi esa qanday usul, qanday vosita bilan bo‘lmasin, yangi leksik ma’noli so‘z hosil qilishdir. So‘z yasalishi hodisasi mustaqil so‘z turkumlariga xos xususiyat hisoblanadi. So‘z yasash turli xil usullarda amalga oshiriladi. Bulardan eng mahsuldorlari kompozitsiya va affiksatsiya usullari hisoblanadi. Ayniqsa, affiksatsiya usuli bilan ko‘p so‘z turkumlari yasaladi. So‘z yasovchi affikslar mustaqil so‘z turkumlarida ko‘pchilikni tashkil qiladi. Affiksatsiya usuli orqali so‘z yasash ot, sifat, fe‘l va ravish turkumlari uchun xarakterlidir. Shu so‘z turkumlari orasidan ravish yasalishi masalasiga biroz e‘tibor qaratmoqchimiz.

Tilshunoslikka oid ko‘plab kitoblarda ravish turkumining yasalishiga oid ko‘plab ma‘lumotlar bor. Xususan, Tilshunos T.Asadov “So‘z turkumlari tizimida ravish” deb nomlangan avtoreferatida ravish yasalishi masalasiga oid bir qancha fikrlarni keltiradi. Ravish yasashning invariant umumiy qolipi sifatida [nominativ birlik+yasovchi vosita=mustaqil ma’noli o‘zgarmas so‘z, ya’ni ravish] hamda uning variantlari sifatida [shaxs oti] miqdor bildiruvchi so‘z +[-larcha]=miqdor/holat ma’noli ravish], [miqdor/hajm-o‘lchov bildiruvchi ot+ [-lab]=daraja-miqdor ravishi], [shaxs oti/joy nomi +[-chasiga]=holat ravishi] va h.k larni ko‘rsatib o‘tadi. Bularning hosilasi sifatida kunlab, oylab, tonnalab; dehqonchasiga, erkakchasiga, toshkentchasiga kabilarni keltiradi(1). Tilshunos R.Sayfullayevada bu haqida quyidagi fikrlarni ko‘rishimiz mumkin “Tilshunoslar ravish turkumi yasaliş sistemasiga ega emasligini [-an,[-ona] qo‘shimchasining arabcha va tojikcha so‘z tarkibida uchrashini [-larcha], [-chasiga], [-lab] kabilarning grammatik ma‘no ifodalashi bilan va [-iga/-siga], [-chasiga] kabi so‘zning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydilar”(2).

Tilshunos olim Sh.Rahmatullayev esa ushbu fikrlarni davom ettirgan holda quyidagilarni keltiradilar. “Adabiyotlarda ravish yasovchi affiks yo‘qligi ta’kidlanadi. Haqiqatda, faqat *butunlay(in)*, *tiriklay(in)* ravish leksemalari tarkibidagi *-lay(in)* affiksini sifat leksemadan ravish leksema yasovchi affiks deyish mumkin. O‘zbek tiliga tojik tilidan o‘zlashgan *birodarona*, *do’stona*, *kamtarona* kabi leksemalar, *ojizona*, *oqilona*, *xolisona* kabi arabcha leksemalardan yasalishlar tarkibidagi *-ona* qismi asli leksema yasovchi bo‘lib, faqat o‘zlashgan leksemalar tarkibida qatnashadi, shunga ko‘ra bunday qismni o‘zbek tili nuqtayi nazaridan leksema yasovchi affiks deb ajratish to‘g‘ri bo‘lmaydi”.(3)

Shu fikrlarni davom ettirgan holda tilshunos olim A.Hojiyev ravish turkumi so‘z yasalish tizimiga ega emasligini ta’kidlaydilar.(4) O‘zbek tiliga oid ilmiy adabiyotlarda, darslik va qo‘llanmalarda “ravish turkumi”o‘ziga xos morfologik kategoriyalarga ega emasligi,lekin o‘ziga xos so‘z yasalishiga egaligi bilan alohida so‘z turkumi hisoblanishi tan olinadi.

So‘z yasalishi hodisasi va yasama so‘zning bor-yo‘qligini belgilashda quyidagi eng asosiy belgilarni hisobga olib ish tutish talab etiladi. 1) yasama so‘zning ikki qismdan – so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchidan tashkil topishi (terim-terim); 2) so‘z yasalish asosining tayyor birlikdan (lug‘aviy birlik – leksemadan) bo‘lishi (ishchan (ish-chan); 3) so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchining ma’nosi bilan izohlash mumkin bo‘ladi: tasdiqlamoq-tasdiq qilmoq). Ana shu belgilar asosida ravish yasovchi mahsuldor affikslar deb qaralayotgan *-cha*, *-larcha*, *-chasiga*, *-ona*, *-an* kabi affikslar va tarkibida shulardan biri bo‘lgan so‘zlar tahliliga e’tibor qilsak. Masalan, *-cha* affiksi qatnashgan so‘zlar u qadar ko‘p emas.

Qolaversa, birinchidan, ularning ayrimlari so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchidan iborat tarkibga ega emas: vaqtincha, ko‘pincha kabi. O‘z-o‘zidan bularning o‘zbek tili so‘z yasalish tizimiga oid so‘z yasalish tiplarining birortasiga kiritish mumkin emas. Ikkinchidan, *-cha* affiksli so‘zlarning ayrimlarida undan oldin egalik qo‘shimchasi keladi, ya’ni *-cha* so‘zning shunday shakliga qo‘shiladi: keragicha, butunicha, aksincha, xomligicha kabi. So‘z yasovchi qo‘shimcha so‘z shaklidan so‘z yasamaydi. Shuning o‘ziyoq keltirilgan so‘zlardagi *-cha* so‘z yasovchi emasligini, so‘zlarning o‘zi esa yasama so‘z emasligini ko‘rsatadi.Uchinchidan, tarkibida *-cha* bo‘lgan va yasama so‘zday ko‘ringan ko‘pgina so‘zlarning ma’nosi bir tipda emas, ya’ni ular so‘z yasalishining biron-bir tipini hosil qilmaydi: atroflicha, boshqacha, zarracha, hozircha kabilar. Shunday ekan, bularni so‘z yasalish tizimiga oid yasama so‘zlar, ular tarkibidagi *-cha* affiksini so‘z yasovchi (ravish yasovchi

)deb bo'lmaydi. To'rtinchidan, ko'pgina so'zlar tarkibidagi -cha qo'shimchani shakl (forma) yasovchi qo'shimcha yoki ko'makchi so'zga xos ma'noga ega bo'ladi: xomligicha-xom holda, yashirincha-yashirin holda (tarzda) do'stchadost kabi va b.(4)

Ana shu aytilganlarning o'ziyoq, -cha qo'shimchasining ravishi yasovchigina emas, umuman, so'z yasovchi emasligini ko'rsatadi. Ravish yasovchi deb qaralayotgan -larcha, -lab, -chasiga kabi qo'shimchalar ham so'z yasovchiga xos xususiyatlarga tarkibida ulardan biri bo'lgan so'zlar esa yasama so'zga xos belgilarga ega emas. Ravish yasovchi bo'la olmasligiga dalil sifatida -cha qo'shimchasi uchun keltirilgan dalillarni -larcha, -chasiga qo'shimchalariga nisbatan ham aytish mumkin.

Haqiqatan ham ushbu affikslar ravish yasashga xizmat qilmaydi. Chunki ularning ko'pini ko'makchi bilan almashtirish mumkin. Bizga ma'lumki, ko'makchilar so'zga yangi leksik ma'no bermaydi. Shunday ekan, ko'makchi bilan almashtirilgan qo'shimcha ham so'zga yangi bir leksik ma'no bermaydi: *U xonaga mardlaricha kirib keldi. U xonaga mardlar kabi kirib keldi.*

Ravish yasovchilar qatorida adabiyotlarda qayd etilayotgan -ona asli forstojik tiliga, -an esa arab tiliga xosdir. -an affiksli so'zlarning barchasi "-an" qismi bilan arab tilidan o'zlashgan so'zlardir. Ularning ayrimlari o'zbek tili nuqtayi nazaridan ma'noli qismlarga (so'z yasash asosi va so'z yasovchi affiksga) ajralmaydi: aynan, voqean, rasman, umuman, shaxsan, qisman va b. Demak, bularning o'zbek tili yasama so'zlari emasligiga shubha yo'q.(4)

Shuningdek o'zbek tilining izohli lug'atiga e'tibor beradigan bo'lsak, tarkiban, taxminan, taqriban, lutfan, javoban, tarixan kabi tarkibida -an affiksi bo'lgan so'zlarning asli arabcha ekanligining guvohi bo'lamiz. Bundan ayon bo'ladiki, bu so'zlar o'zbek tiliga tayyor holda kirib kelgan. Bu so'zlar o'zbek tilida yasalgan emas. Balki arab tilidan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Bunday o'zlashma so'zlarning ayrimlarida "-an" ham ma'noli qismdek tuyuladi. Masalan, javoban so'zi "javob tarzida" degan ma'noga ega. Shunga ko'm "tarzida" degan ma'no -an ga oiddek, javoban so'zi esa javob-an tarkibiga egadek tuyuladi.

Lekin o'zbek tilida "-an" so'z yasovchi affikslarga xos muqim ma'noga ega emas. Shuning uchun ham tarkibida -an bo'lgan so'zlarda so'z yasovchi morfemalarga xos muqim bir ma'no ifodalanmaydi, balki ma'lum omillar bilan turlicha ma'nolar ifodalanishi mumkin. Tabiatan-tabiatiga ko'ra, takroran -takror holda, mohiyatan- mohiyati jihatidan kabi.

Ayyorona, ahmoqona, odilona, do'stona, kamtarona, fidokorona, sharqona, tomonona kabi so'zlarning hammasi tojik tilidan shu holida o'zlashgan. Binobarin ulur o'zbek tilida yasalgan so'z emas.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ham anglashiladiki, o'zbek tilida ravish yuzulishi haqidagi fikrlar ancha munozarali.

Adabiyotlar:

1. Asadov T. So'z turkumlari tizimida ravish. Avtoreferat. – Toshkent, 2009.
2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
4. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.

SIFAT DARAJALARI TARAQQIYOTI

Z. O'rinova, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Tilshunoslikda mustaqil so'zlarni turkumga ajratish tamoyillaridaularning leksik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, predmetning belgisini bildiruvchi mustaqil so'zlar sifat deyiladi. Sifatlariga xos muhim xususiyatlardan biri esa uning daraja kategoriyasiga ega ekanligidir.

Predmet belgisining yuqori yoki pastligini, ortiq yoki kamligini bildiruvchi sifat shakllari sifat darajalaridir. Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida namoyon bo'ladi³¹. O'zbek tilshunosligi tarixida sifat darajalari ko'plab tilshunos olimlarimiz tomonidan o'rganilgan. Zero, G. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, A.Rafiyev, D. Shodmonqulova, A. Aliyev, K. Nazarov, M.Asqarova, M. Mirtojdiyev, Q.Sapayev, R. Sayfullayeva va ularning izdoshlari tomonidan alohida, o'ziga xos tadqiq etilgan. Natijada, hozirgi o'zbek adabiy tilida sifat darajalari haqida ikki xil qarash yuzaga keldi. Birinchisi: sifat darajalarini to'rt guruhga: 1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja; 4) ozaytirma daraja³² tarzida tasniflashsa, ikkinchi qarashga ko'ra sifat darajalarini uch guruhga: 1) oddiy daraja; 2) orttirma daraja; 3)ozaytirma daraja³³ shaklida tasniflashadi. Bu qarashlar tilimizda noaniqlikni vujudga keltirdi. Bu esa o'zbek tili grammatikasini o'rganayotgan har bir o'quvchi yoki abuturiyentga birmuncha qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda.

Tilimiz tarixiga nazar soladigan bo'lsak ham, sifat darajalari va ularning turlari haqida aniq to'xtam yo'qligini guvohi bo'lamiz. Masalan, eski o'zbek

³¹Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R, Boqiyeva G. H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma.-Toshkent, 2006-yil

³²N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D.Nabiyeva "Ona tili" (6-sinf uchun darslik) T.:2013 139-bet

³³A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova " Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Akademik litseyning III bosqich talabalari uchun darslik) T.:2011-yil

tilida sifatlarning oddiy, qiyosiy, orttirma darajalari mavjud bo'lib, ulardan qiyosiy va orttirma darajalarini ifodalovchi maxsus formalar mavjud bo'lgan¹Ikki predmetdagi bir xil belgining o'zaro qiyoslanmagan shakli **oddiy daraja** deyiladi. Masalan, *qizil, katta, sovuq, qizg'in, issiq* kabi. Predmetdagi ma'lum bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan ortiq yoki kamligini ko'rsatuvchi daraja **qiyosiy daraja** deyiladi. Masalan: Bizning uyimiz sizning uyingizdan kattaroq. Uning bo'yi mening bo'yimdan uzunroq kabi. Predmetdagi belgining boshqa predmetdagi shunday belgidan miqdor jihatdan ancha ko'p ekanligini ko'rsatuvchi daraja **orttirma darajalardir**. Masalan: Yozuvchining eng yaxshi asarlari ko'rgazmaga qo'yiladi.² kabi ta'riflar hozirgacha kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu bilan bir qatorda, daraja shakllarini hosil qilishda ham ma'lum usullardan foydalanilishi haqida ham so'z yuritiladi. Ya'ni: qiyosiy darajada: Qiyoslanuvchi va qiyoslanmishni orasidagi belgi qiyosi uch xil usul bilan amalga oshadi: morfologik, sintaktik va morfologik-sintaktik.

1. Morfologik usul. Bu usulda sifatlarga *-roq/-raq* affiksi qo'shiladi. Masalan: Emgakta tetikraq (Haydar 139-bet); Kimki ulug'raq, ulki kichikraq (Alisher Navoiy 95-bet)

2. Sintaktik usul. Bu usul sifatda ifodalangan belgining chiqish kelishigi formasida kelishi orqali amalga oshadi. Masalan: Jahangir Mirzadin kichik, Shahruh Mirzadin ulug' edi, (BN 8)

3. Morfologik-sintaktik usul. Bu usul qiyoslanuvchining *-raq/-roq* qiyoslanmishning esa chiqish kelishigi affiksi formasida amalga oshadi. Ba'zan qiyosni kuchaytirish, beldi ortiq-kamligining aniq darajasini ifodalash uchun bir, dag'I, bir nima, ancha, ko'p, ham kabi so'zlar ham ishlatiladi. Masalan: tevalaridan semizraq biri (Xaydar, 127-b). Kavsar suyidin aqraq (Furqat, 213-b)³ kabi.

Bu davr tilshunosligida orttirma darajani hosil qilishda quyidagicha yondashishadi: orttirma daraja sifat oldida *esru, ko'p, eng, yaman, yaxshi, artuq, behad, g'ayat, mahkam* kabi so'zlarning kelishi orqali ifodalanadi. Masalan: Bag'ayat shum giyahidur (Amiriy, 334-b). *Esru qara va aq* (Munisi, 336a)⁴Bu fikrlar yaqin kunlarga amal qilib kelmoqda edi, ammo ko'rishimiz ko'rishimiz mumkinki, bu turdagi fikrlar bizga sifat darajalarini to'liq yoritib

¹G' Abdurahmonov, Sh. Shukurov "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" T.: O'qituvchi-1973-yil, 74-bet

²X. Abdurahmonov, A. Rafiyev, D. Shodmonqulova "O'zbek tilining amaliy grammatikasi" T.: O'qituvchi" 1992-yil 140-bet

³A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti "XV-XIX asrlar o'zbek tili morfologiyasi" T.: "Fan"-1990-yil 86-bet

⁴A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti "XV-XIX asrlar o'zbek tili morfologiyasi" T.: "Fan"-1990-yil 86-bet

bera olmagan. Chunki, -roq qo'shimchasini so'zga yuklayotgan semasida fuqatgina qiyoslash mazmuni bo'lmay, balki belgining me'yordan kamligini ifodalash semasini ham nutqimizda faol qo'llaymiz. Masalan, Meni paxtasi quliroq joyga qo'y, ishim unsin yana hamkasblar oldida qizarmay... (Oybek) ya'ni qalinroq so'zida qalin emas qalunga yaqin, hali qalin emas mazmunini tushunamiz. Shuningdek, tilimizda -ish, -(i)mtir, -(i)mtil kabi qo'shimchalar borki, ular ham belgining me'yordan kamligini ifodalashga xizmat qiladi. Buni hisobga olgan holatda, M.Mirtojiev o'zlarining "Hozirgi o'zbek tili" darsliklarida sifat darajalarini tasniflashda o'ziga xos yondashdilar: Sifat turkumida faqat daraja kategoriyasi mavjud. Sifatlar shu daraja kategoriyasiga ko'ra ikki darajaga: ozaytirma va kuchaytirma daraja¹bo'ladilar. Shu bilan birga, ozaytirma darajani hosil qilishda -ish; -imtir (-mtir); -gina (-qina); -roq qo'shimchalarida foydalanilishini izohlaydilar. Masalan:ko'kish, oqimtir, ko'pgina, quruqqina, kattaroq va boshqalar. Ammo, bu tasnifda tilimizdagi faol oddiy darajaga to'xtalib o'tilmagan. Demakki, bu fikrga ham to'liq qo'shila olmaymiz. Shuningdek, yana bir guruh tilshunos olimlarimizda o'zgacha fikr borligini ko'rishimiz mumkin. Ularning fikricha, sifatdagi qiyoslash uchun qo'llanuvchi asosiy morfologik vosita bo'lgan -roq o'zi qo'shilgan leksema, sharoit, matn kabilar xususiyatlaridan kelib chiqib muayyan darajaga ishora qiladi, biroq uning asosiy lisoniy vazifasi qiyoslash ifodalashdir.² Shuning uchun ham, ushbu kitobda sifatning daraja kategoriyasini o'zgacha atama "Qiyoslash kategoriyasi" deya talqin etilgan.

Yuqoridagi fikrlarning har birida asos bor, albatta. Ushbu nazariyalardan kelib chiqib sifat darajalarini tasniflashda Nurmonov A. va boshqalarning fikri asosliroq nazarimda. Ular sifat darajalarini 3 ga bo'ladilar. 1)Oddiy daraja 2) orttirma daraja 3) ozaytirma daraja. Chunki tilimizda ozaytirma darajani hosil qiluvchi maxsus Grammatik shakllar mavjud bo'lib, ular -ish, -(i)mtir, -(i)mtil lardir. Shuningdek, yuqorida qiyosiy darajaning Grammatik shakli sifatida qaralgan -roq affiksi ham belgining kamligi ma'nosini bildirib keladi. Masalan, qizil gul- qizilroq gul, shirin meva-shirinroq meva kabilarda belgining asliga nisbatan kamligini ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham, Nurmonov A. -roq affiksini ozaytirma daraja hosil qiluvchi qo'shimchalar sirasiga kiritganlar. Ma'lumki, -roq affiksi shu bilan bir qatorda ba'zida, belgini qiyoslab, ba'zida esa belgining ortiqligini ifodalab kelishi mumkin. Masalan, Birinchi kitob, ikkinchisiga nisbatan **kattaroq**.Ushbu gapda ikki kitobni hajmini

¹M.Mirtojiev "Hozirgi o'zbek tili" T.: "O'qituvchi" 1992-yil 116-bet

²A.Numonov, SH. Shahobiddinova, SH. Iskandarova, D.Nabiyeva "O'zbek tilining nazariy grammatikasi". Toshkent-2001-yil, 152-bet

qiyoslash bilan bir qatorda, ikkinchi kitob birinchisiga qaraganda hajmi kattaligini ifodalayapti va belgini orttirib ko'rsatmoqda.

Demakki, o'zbek tilshunosligimizda sifatni darajalarga ajaratish ekanmiz, Nurmonov A. ning fikrlari nisbatan mukammalroqligini ko'rishimiz mumkin, ammo ular –roq affiksining boshqa uslubiy ma'nolari (qiyoslash, orttirish) ni nazardan chetga qoldirganlar. Bizningcha, xuddi otlarga xos ko'plikni ifodalovchi –lar affiksining uslubiy ma'nolari bo'lgani kabi, ozaytirma darajasi hosil qiluvchi –roq affiksida ham uslubiy ma'no borligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim!

“THE CLASSIFICATION OF THE SENTENCES AND THEIR TRANSLATION WAYS” TYPES OF SENTENCES ACCORDING TO THEIR STRUCTURE

M. Juraev, student of 2nd course (UzSWLU)

In studying the sentence, we are faced with a number of problems belonging to the science of language as a whole rather than to English philology. Among these are: definition of a sentence, classification of sentences, parts of a sentence, and many other problems of a similar character.

We cannot here go full length into all these problems. For example, we cannot take up the problem of defining a sentence, and discuss the various definitions that have been put forward at different times by different scholars. We will content ourselves with stating the main requirement for a definition of a sentence, and of other fundamental notions.

Any definition of a sentence must include several basic items:

- (1) it must state the relation of the sentence, a unit of language, to thought;
- (2) it must take into account the specific structure of the language in question;
- (3) it must leave room for as many possible varieties of sentence as can be reasonably expected to occur in the given language.

The problem of classification of sentences is a highly complicated one, and we will first consider the question of the principle of classification, and of the notions on which it can be based. There are two principles of classification:

- 1) according to the type of communication:
 - a) declarative
 - b) interrogative
 - c) imperative
- 2) according to the structure:
 - a) simple

b) composite

The relations between the two classifications should now be considered. It is plain that a simple sentence can be either declarative, or interrogative, or imperative. If both (or all) clauses making up a composite sentence are declarative, the composite sentence as a whole is of course declarative too. And so it is bound to be in every case when both (or all) clauses making a composite sentence belong to the same type of communication.

Before we proceed with our study of sentence structure we shall consider the relation between the two notions of sentence and clause. Among different types of sentences treated in a syntactic investigation, it is naturally, the simple sentence comes first. We study such categories as parts of the sentence, main and secondary; homogeneous members, word order, etc. We illustrate such notions as declarative, interrogative, imperative and exclamatory sentences, as two- member and one- member sentences, and so forth. As long as we limit ourselves to the study of simple sentences, the notion of "clause" need not occur at all.

When, however, we come to composite sentences (the sentences consisting of two or more clauses), we have to deal with the notions of main clauses, head clause, and subordinate clause. Everything we said about the simple sentence will also hold good for clauses: a clause also has its parts (main and secondary), it can also be a two- member or a one-member clause, a main clause at least must also be declarative, interrogative, imperative or exclamatory, etc. We will consider these questions in due course.

So then we will take it for granted that whatever is said about a simple sentence will also apply to an independent clause within a composite sentence. For instance, whatever we say about word order in a simple sentence will also apply to word order in an independent clause within a composite sentence, etc.

It has been usual for some time now to classify sentences into two-member and one-member sentences.

This distinction is based on a difference in the so- called main parts of a sentence. We shall therefore have to consider the two problems, that of two-member and one-member sentences and that of main parts of the sentence, simultaneously.

One- member sentences should be kept apart from two- member sentences with either the subject or the predicate omitted, i.e. from elliptical sentences. There are many difficulties in this field. As we have done more than once, we will carefully distinguish what has been proved and what remains a matter of opinion, depending to a great extent on the subjective views or inclinations of

one scholar or another matters belonging to this latter category are numerous enough in the sphere of sentence study.

Transition from simple to composite sentences.

Though the notions of simple sentence and composite sentence seem to be well defined and distinctly opposed to each other, this does not mean that there are no transitional elements between them. As in so many other cases, in the sphere of sentence types we find a considerable number of phenomena which though not exactly transgressing the limits of the simple sentence, do not quite fit into it, and show some peculiarities which justify our treating them as transitional between the simple and the composite sentence.

Of these, we will consider the following syntactical phenomena:

(1) sentences with homogeneous parts (sometimes also termed "contracted sentences"), (2) sentences with a dependent appendix, and (3) sentences with secondary predication. Different as they are in many respects, these phenomena are alike in that they gradually get out of the limits of the simple sentence and approach the composite sentence (some of them the compound, others the complex sentence).

At the beginning we commented briefly on the problem of classifying composite sentences. We will adopt as a first principle of classification the way in which the parts of a composite sentence (its clauses) are joined together. This may be achieved either by mean of special words designed for this function, or without the help of such words. In the first case, the method of joining the clauses is syndetic, and the composite sentence itself may be called syndetic. In the second case the method of joining the clauses is a syndetic, and so is the composite sentence itself.

Syndetic composite sentences

We should distinguish between two variants of syndetic joining of sentences, the difference depending on the character and syntactic function of the word used to join them.

It is to syndetic composite sentences that the usual classification into compound and complex sentences should be applied in the first place.

We start, then, from a distinction of compound sentences and complex sentences. The basic differences between the two types would appear to be clear enough: in compound sentences, the clauses of which they consist have as if were equal rights, that is, none of them is below the other in rank, they are co-ordinated.

In complex sentences, on the other hand, the clauses are not on an equal footing. In the simplest case, that of a complex sentence consisting of two

clauses only, one of these is the main clause and the other a subordinate clause that is it stands beneath the main clause in rank. So far the classification of syndetic composite sentences looks simple enough. But as we come to the problem of the external signs showing whether a clause is co-coordinated with another or subordinated to it, we often run into difficulties. Either we shall have to answer the question in an arbitrary way, relying, that is, on signs that are not binding and may be denied, or else we shall have to establish a third, or intermediate, group, which cannot be termed either clear co-ordination or clear subordination, but is something between the two, or something indefinite from this point of view.

The used literature:

1. Blokh M.Y. Theoretical Grammar of the English Language. Moscow, 1983.
2. Ilyish B.A. The Structure of Modern English, Moscow-Leningrad, 1974.

MORFEMA VA UNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

N. Nasrullayev, II bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Morfemika – so'zning eng kichik ma'noli qismlari haqidagi ta'limotdir. Shu kichik ma'noli qismlar tilshunoslikda morfemalar deb ataladi. Masalan, bilimdonlarimiz so'zi *bil*, *-im*, *-don*, *-lar*, *-imiz* kabi qismlardan tashkil topgan. Bu kichik ma'noli qismlarimizni yana bo'ladigan bo'lsak, ularning ma'nosi yo'qoladi. Demak, morfema bu – so'zning eng kichik ma'noli qismi. Morfema haqidagi qarashlarni o'zbek tilshunosligida ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Birinchi guruh qarashlarda morfema faqatgina qo'shimcha deb qaraladi. Bu o'rinda Sh.Rahmatullayev: "Morfema til qurilishining leksemadan keyingi asosiy birligi bo'lib, leksemadan farqli holda grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi (yunoncha "morphē" - shakl)". Leksema ham, morfema ham til birligi (lisoniy birlik) sifatida qismga teng. Leksema so'z turkumi nuqtayi nazaridan tavsif olganidan keyingina butun holatiga o'tadi va nutqqa chiqadi. Morfema ham odatda o'zi mansub turkum leksemasiga qo'shilgan holda nutqqa chiqadi. Leksema - yetakchi birlik, morfema qo'shiladigan birlik, morfema – leksemaga qo'shiladigan birlik. Shu xususiyatini nazarda tutib morfema qo'shimcha deb nomlanadi.

Leksema bilan morfema o'rtasida juz'iy o'xshashlik mavjud: har ikkisinde ifoda jihati bo'lib fonema xizmat qiladi, har ikkisi lisoniy birlik sifatida qismga teng. Morfemani yagona til birligi deb, leksemani morfemaning bir turi deb talqin etish noto'g'ri. Agar shunday noto'g'ri fikrga qo'shilsak, til qurilishining lug'at bosqichi o'z mustaqil lug'at birligiga ega emas, degan fikrga tarafdor bo'lamiz. Bunday fikr til qurilishining bosqichlarini tizim sifatida o'rganishga

zid. Leksema – til qurilishining lug‘at bosqichiga mansub birlik, morfema – til qurilishining morfemalar bosqichiga mansub birlik; leksema - leksik birlik, morfema – grammatik birlik. Morfema – grammatik ma’no ifodalashga xizmat qiladigan eng kichik segment til birligi.[1, 114]

Morfemani “so‘zning eng kichik ma’noli qismi” deb nutqdan kelib chiqib ta’riflashdan ko‘ra “tilning eng kichik ma’noli birligi” deb ta’riflash to‘g‘riroq; lekin “eng kichik ma’noli birlik” deb leksik birlikni ham qamrab olish noto‘g‘ri. Morfemaning asosiy belgisi – grammatik ma’no ifodalovchi birlik ekanini ta’rifga kiritishi lozim. Shunda “lug‘aviy morfema”, “o‘zak morfema” tushunchalari va terminlaridan voz kechiladi, bular o‘rniga leksema terminining o‘zi ishlatiladi. Ayni vaqtda “qo‘shimcha (umumlashma, affiks, grammatik) morfema tarzidagi izohlardan faqat “grammatik izohning o‘zi yetarli bo‘ladi. Morfemani “affiks” deb izohlash – to‘liq morfemaning boshqa turlarini qamrab olmaydi. Morfemaga (“qo‘shimcha morfemaga”) “umumlashma” izohning keltirilishi ham noo‘rin: Bu belgi barcha til birliklariga xos. Xullas, morfemani til qurilishining grammatik ma’no ifodalaydigan eng kichik segment birligi deb ta’riflash yetarli. [2, 115]

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” qo‘llanmasida morfemika haqida shunday ta’rif beriladi: “Morfemika so‘zning nomustaqil tarkibiy qismi haqidagi ta’limot. Ma’lumki, o‘zbek tilida, flektiv tillardagidan farqli o‘laroq, o‘zak mustaqil ma’no anglatish xususiyatiga ega. So‘zning o‘zakdan boshqa qismlari esa undan ayricha qo‘llanmaydi va ma’no anglatmaydi. Shuning uchun ular morfema deyiladi. Masalan, *paxtakorlarga* so‘zi *paxta, -kor, -lar, -ga* qismlardan iborat. Ajratilgan har bir tarkibiy qism bu so‘z doirasida o‘ziga xos elementar va semantik mavqega ega. *Paxta* va *-kor, -lar, -ga* qismlari o‘zaro semantik va qo‘llanish xususiyati jihatidan farqlanadi. *Paxta* birligi mustaqil lug‘aviy ma’noga egaligi va bu ma’noni qolgan qismlarsiz ham anglata olish xususiyati bilan boshqa tarkibiy qismlaridan ajralib turadi. Shuning uchun u leksema deyiladi. Boshqa qismlar esa ajralgan holda mavhum bo‘lishi, leksemasiz mustaqil ma’no anglata olmasligi bilan xarakterlanadi. Leksema shakllanuvchanlik, morfema shakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqil tabiati va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni morfema deb atashga olib kelgan. Morfemaning nutqiy ko‘rinishi qo‘shimcha deyiladi, kabi tariflarni ko‘rishimiz mumkin. [3, 192-193]

2. Ikkinchi qarash tarafdorlari fikricha, morfema bu – so‘zning eng kichik ma’noli qismi, bunga ham leksik morfema, ham affiks (qo‘shimcha) morfema ham kiradi (Q.Sapayev, A.Hojiyev). Xususan, Q. Sapayev “Morfema so‘zning

eng kichik ma'noli qismidir, deb ta'kidlaydi. Morfema so'z tuzilishida zarur bo'lgan eng kichik ma'noli qism sifatida yasama so'zlarning ham, so'z shakllarining ham tarkibiga kiradi va shu shakllarda ajratiladi. Boshqacha aytganda, morfema affikslari bo'lgan so'zlardagina ajratiladi. Masalan, *gulzor*, *paytakor*, *terimchilik*, *o'qiganman* kabilar morfemalarga ajratiladi, ammo *uy*, *kitob*, *olma*, *oq*, *ko'm-ko'k* kabi so'zlar morfemalarga ajratilmadi. Ular yaxlit so'zlardir.

Morfema eng kichik ma'noli qism sifatida shu tilda (o'zbek tilida) so'zlovchilarning xotirasida saqlanadi. Bu esa so'zlarni ma'nosi anglashilib turadigan qismlarga ajratish va, aksincha, xotirada mavjud bo'lgan morfemalar asosida yangi so'z yasash yoki so'zlarni turli grammatik shakllarga ko'ra o'zgartirish imkoniyatini beradi. Morfema biror so'z doirasiga kirmay turib, leksik yoki grammatik qiymatga ega bo'lmaydi. Masalan, *-chi* morfemasi garchi o'zbek tilida shaxs oti yasovchi element sifatida xotirada saqlansa-da, ammo bunda aniq biron shaxs oti nazarda tutilmaydi. Shuningdek, *-ni* affiksi tushum ma'nosidagi til elementi sifatida xotirada saqlansa ham, u aniq so'zning tushum kelishigi ma'nosini bildirmaydi. Hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan so'zlarning morfologik tuzilishi tahlil qilinar ekan, unda ajratiladigan har bir morfema hozirgi paytda anglanishi, ya'ni ma'nosi tushunarli bo'lishi shart. Shuning uchun hozirgi o'zbek tilidagi morfemalarni so'zning hozirgi davrida tushunarli bo'lgan, xotirada til elementi sifatida saqlanadigan eng kichik ma'noli qismlari deb ta'riflash mumkin. Masalan, *talaba-lar-ning*, *san'at-kor-lar-imiz-ning*, *tin-ch-lik-parvar-lik*, *mustaqil-lik-ni* kabilar. Shunday qilib, morfema so'zning hozirgi paytda yangidan ma'noli qismlarga bo'linmaydigan har bir o'zagi, har bir qo'shimchasi. [4, 6, 7, 8]

Bundan tashqari, A.Hojjiyev ham morfemaga shunday ta'rif beradi: "Morfema-tilning ma'noli, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi. Asosiy xususiyatiga ko'ra, morfemalar ikki turga bo'linadi: 1) leksik morfema; 2) affiksial morfema. Masalan, *ishchi* so'zida ikkita morfema bor: *ish* va *-chi*. *Ish*- leksik morfema, *-chi*- affiksial morfema". [5, 65] Yana bir o'zbek tilshunos olimi Y.Tojiyev o'zining "O'zbek tili morfemikasi" kitobida "morfema til ifoda sistemasida tovushdan keyingi turadigan semantik-morfologik birlik bo'lib, so'zning eng kichik ma'noli qismidir, deb tavsiflaydi. Morfema tushunchasi hamma vaqt tilning bir semantik-morfologik birligini uning ikkinchi bir semantik-morfologik birligi bilan nisbatlanganda mavjud bo'ladi. Masalan, *kitobxon* so'zi ikki ma'noli qismdan iborat bo'lib, ular *kitob* va *-xon* qismlaridir. Uning birinchi qismi alohida olinganda, so'zdir. Biroq bu so'zga *-xon* qo'shimchasi qo'shilar va undan yangi so'z hosil qilinar ekan

(*kitobxon*), birinchi qismi ikkinchi qismiga nisbatan alohida emas, soʻzning qismi deb baholanadi. Shunga koʻra *-xon* elementi ham soʻzning qismi sifatida olinadi va u oldingi qismga nisbatan baholanadi, biri ikkinchisiga nisbatan alohida-alohida morfema hisoblanadi: oʻzak morfema; ergash (affiks) morfema. Morfemikaga ana shu nuqtayi nazardan yondashiladigan boʻlsa, u morfemalar (soʻzning maʼnoli qismlari) haqidagi taʼlimotdir” kabi fikrlarni ilgari suradi.[5, 6]

Yuqoridagi qarashlardan biz koʻproq ikkinchisiga qoʻshilamiz. Chunki morfema eng kichik maʼnoli birlik sifatida ham oʻzak, ham qoʻshimcha shaklida boʻlishi mumkin. Chunki soʻzning lugʻaviy maʼno anglatuvchi qismi ham, grammatik maʼno anglatuvchi qismi ham ishtirok etib, uning bir qismi sifatida qatnashishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. - T.: Universitet, 2006.
2. Rahmatullayev. Sh. Koʻrsatilgan asar.
3. Sayfullayeva. R. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.- T., 2010.
4. Sapayev. Q. Hozirgi oʻzbek tili.-T. 2009.
5. Hojiyev. A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. - T.: OʻzME, 2002.
6. Tojiyev Y. Oʻzbek tili morfemikasi. - T., 1992.

“MUHOKAMAT UL-LUGʻATAYN” ASARIDA MUALLIFNING SOʻZ QOʻLLASH MAHORATI

S. Qoʻldasheva, II bosqich talabasi (ToshDOʻTAU)

Eski oʻzbek (adabiy) tilining rivojlanishi, taraqqiyotini Alisher Navoiyning ijodisiz tasavvur etish qiyin. Negaki, Navoiy turkiy tilning imkoniyatlari-yu, uning fors tili va boshqa tillardan qolishmaydigan darajada goʻzalligini oʻzining beqiyos gʻazaliyoti hamda olib borgan tadqiqotlari orqali isbotlab bera olgan. Bu oʻrinda uning “Muhokamat ul- lugʻatayn” asari alohida oʻrin tutadi.

Ushbu asar oʻsha davrda anʼanaga aylangan uslubda – Ollohga hamd bilan boshlangan. Allohning buyukligi, insonga yaratgan imtiyozlari uchun hamd-u sanolar aytilgan, xususan, bu qismda keltirilgan ruboiylarda ham Olloh-buyuk Maʼbud dunyoni yaratar ekan, eng oliy yaratilmish sifatida aynan insonni tanlaganligi, uni nutq bilan ziynatlaganligi, mahram, doʻst boʻla oladigan insonni yaratish maqsad boʻlganligi va bu maqsadning amalga oshirilganligi aytib oʻtiladi:

Yaʼniki, chu olamni yaratti Maʼbud,

*Olam eliga qudrat ila berdi vujud,
Inson edi maqsudki, bo'ldi mavjud,
Insondin ham habibi erdi maqsud.¹*

Shuningdek, Olloh insonning loyini “qirq tongda pishitib qo‘ygan”ligi, unga nutq berganligi va nutq tufayli jamiki maxluqotlardan ustun bo‘lganligi haqida aytilib, shukrona keltiriladi.

So‘z xususida, uning qudrati, so‘zlovchining sharifligi haqida gapirar ekan, Navoiy ajoyib tashbehlardan foydalanadi. Ya‘ni shoirning fikricha, so‘z – dengizdagi bir durdir va so‘zlovchi (notiq) ana shu dengizdan dur teruvchi g‘avvos! Dengizdan terib olingan gavhar-durning qiymati uning qimmatbaholigi, yaltiroqligi bilan belgilanadi. Ko‘ngil daryosidan terilgan so‘z ham so‘zlash sharafiga muyassar bo‘lgan kishining vositasida oroyishga kiradi hamda olam ichra yoyilib shuhrat topadi. Navoiy shu o‘rinda durning qiymatiga juda yuqori baho beradi. Ya‘nikim, gavhar qiymatining martabasi ancha yuqori, hatto bir diramdan yuz tuman²gacha ham bo‘ladi. Ushbu fikr yuzasidan asarda keltirib o‘tilgan qit‘ada aytilishicha, hatto shohlar ham dur-gavharlarning mamlakat xazinasi foydasiga xizmat qilishi xususida bot-bot uqtirar ekanlar. Ammo Navoiy bu borada biroz shoshmaslikni maslahat beradi, ya‘ni so‘z durining dengiz gavharidan ustunligi cheksiz va martabasi ulug‘dir. Shu o‘rinda u isbot uchun aynan so‘zning sharifligini o‘layotgan tanga jon baxshida etishi va aynan so‘zning kasofatini tirik jonni hayotdan mahrum qila olishi bilan bog‘liq holda talqin qiladi.

Diqqatga sazovor joyi shundaki, Navoiy ushbu asarida ayrim ma‘lumotlarni chiroyli dalillashda (ba‘zi mulohazalarni to‘ldirish; she‘riy janrga misol tariqasida; ko‘pgina turkcha so‘zlarning nazmda qo‘llanish holatlari; asarning so‘ngida vaqt va sana bilan bog‘liq ma‘lumot va hokazo) ruboiy, tuyuq, qit‘a janrlari, shuningdek, o‘z g‘azallaridagi bir nechta matla‘lardan foydalanadi.

Asarda Navoiy qalamiga mansub jami oltita ruboiy qo‘llangan bo‘lib, ularning barchasi taronai ruboiylardir. Ma‘lumki, ruboiyning bu turida she‘rdagi to‘rttala qator ham o‘zaro qofiyadosh so‘zlardan (a-a-a-a) tuziladi. Demak, Navoiyning badiiy mahorati shunda ham ko‘rinadiki, u o‘z fikrlarini dalillashda soddada uslubdan emas, balki shoirdan muayyan qiyinchilikni talab qiladigan yo‘ldan borishga harakat qilgan.

Asarda keltirilgan ikkita qit‘a ham badiiy jihatdan yetuk bo‘lib, ijtimoiy hayot masalasi aks etgan falsaviy mazmuni o‘zida aks ettiradi. Navoiy ularda so‘zning buyukligi haqida fikrlarini bayon etadi.

¹ Navoiy Алишер. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 20 жиддлик. – Тошкент: Фан, 2000. Т. 16.– Б.7.

² Diram–kumush tanga(pul birligi). Tuman – o‘n ming soni teng keluvchi o‘lchov so‘z.

Navoiy soʻzning bayoni xususida yozishni boshlar ekan, shu oʻrinda nasrda qoʻfiya qoʻllash sanʼati (saʼj)dan mohirlik bilan foydalanadi (Turkiy adabiyotda ilk saʼj naʼmunasi Nosiruddin Rabgʻuziyning "Qisasi Rabgʻuziy" asarida uchraydi):

"Emdi kelduq soʻz baynigʻa va kalomdostonigʻa: muncha mutanavviʻ shahru guro, jibolu sahro va beshau darvo xalqikim, bitildi va tanavvuʻyu tagʻayurini sharhetildi, majmuida maʼni adosida alfoz tilga kelurva ul alfozdin maʼni fahmboʻlur".

Soʻzdan maʼno va mazmun til vositasida yuzaga kelishini aytib oʻtar ekan, Navoiy, avvalo, arab tiliga toʻxtalishni maʼqul koʻradi. Yaʼni bu tilning buyuk va moʻtabarligiga shubha yoʻq, soʻz ahlining ham bu borada eʼtirozi yoʻq, chunki qudratli Allohning soʻzlari hisoblanmish Qurʼoni Karim-u paygʻambarimizning saodatli hadislarini aynan shu til tufayli mavjuddir.

Bu tildan soʻng Navoiy yana uchta til xususida yozadi. Ular turkiy, forsiy (sort) va hindiy tillari boʻlib, buyuk mutafakkir bu tillarning kelib chiqish, tarqalish tarixini Nuh paygʻambarning uchta oʻgʻli – Yosaf, Som va Hom bilan bogʻlaydi. Yaʼni Navoiyning aytishicha, Nuh paygʻambar oʻgʻli Yosafni turkcha bituvchi Xitoy mulkiga, Somni forsiyzabon Eron va Turonga, Homni Hindistonga yuborgan va uch paygʻambarzodaning avlodlari oʻsha mamlakarlarga yoyilib, tarqalishgan.

Aytishlariga qaraganda, Homoʻzotasialayhissalomga beodoblik qilganligi uchun qargʻish olgan va shuning uchun uning tili oʻzida shikastlik namoyon qilib ravonlik va yetuklik jihatidan xoli qolgan edi. Shu sababli ham,- deydi Navoiy, u va uning avlodi yashayotgan hind viloyati va aholisining ranglari ham maktab bolasining mashq daftaridek qop-qora, bu ham yetmagandek, biror jumla yozmoqchi boʻlsalar, qogʻoz yuzini ham oʻz yuzlaridek qora qilar edilar va tillari ham biror soʻzni bexato talaffuz qilmas edi. Agar biror narsa yozsalar ham uni oʻzlaridan oʻzga birov fahmlamasdi.

Shu tariqa arab tili va hind tili biri oʻzining nihoyatda sharafli va ulugʻ til ekanligidan va ikkinchisi oʻjizligi va past martabasi jihatidan taʼriflanadilar.

Turk va sort (fors) tillari xususida yozar ekan, Navoiy turklarni sortlardan koʻra tez-fahmroq, tushunchasi yuqoriroq, yaratilish jihatidan soʻroq va tozarroq deb taʼriflaydi. Sortlarning esa turklarga qaraganda ilmda va fikrlashda goʻzal, nozik nuqtalarga intiluvchan, kamolotda ham yetukroq boʻlib yetishganligini taʼkidlaydi. Ammo shunga qaramasdan, turklarning soʻz tuzishda va oʻz soʻzlarida belgilar ishlatishda sortlardan ancha ustun turishlarini tan olmay iloj yoʻq, deydi Navoiy. Turk xalqining yumshoq koʻngilligiga bu ikki xalqning yigiti va qarisi, katta-kichigi orasida gap-soʻz mos kelishi, xalqi orasida

amallashish ko'p uchrab turishini dalil sifatida keltiradi. Forslar orasida qobilyatli, ilimli, zehnlil insonlar ko'p bo'lishi asnosida turklarda to'ng va sodda dilliliklilar sortlardan ko'ra ko'proqdir.

Shuningdek, turklarning kattasidan tortib kichigigacha, xizmatkoridan podshosigacha barchasi fors tilidan bahramandlar, o'z ahvollari, tirikchiliklari xususida gapira olishadi, turk shoirlari forsiyda rang-barang she'rlar, hikoyalar yaratadiladilar, deydi Navoiy. Ammo forslarning hech biri- quyi tabaqalisi ham, yuqori martabasili ham, bilimdon-u savodsizi ham turk tilida erkin so'zlay olmaydilar, so'zlaganlarning esatalaffuzi ularni fosh qilib qo'yadi.

Navoiy turk tilining boy, go'zal til ekanligi aytib, isbot uchun yuzta fe'lni keltirib o'tadi. Bunday muqobilini topib bo'lmaydigan fe'llar turli maqsadlarda ishlatilishini, ulardan birortasi ham fors tilidan o'tmaganligini aytib, bularning sanini yana bir necha yuztaga yetkazish mumkin, deb ta'kidlaydi.

Shu o'rinda shoir bir qancha sof turkey tildagi fe'llar ishtirok etgan o'z g'ayzallaridan eng go'zal matla'larni keltirib o'tadi. Masalan, **bo'xsamoq, qipqormoq, ingramoq, yig'lamoq, siqtamoq, bezanmoq**vahokazo. Masalan;

Ul oyki, kula-kula qirog'latti meni,

Yig'latti meni demayki, siqtatti meni. (ruju' san'atidan foydalanilgan);

Yoki,

Erur bas chu husnu malohat sanga,

Yasanmoq, bezanmoq ne hojat sanga?

(Yasanib, bezanishingga ne hojat, senga shu o'zingning husn-u malohating ham yetadi-ku?!) Forsigo'y shoirlarning esa bunday mazmundor so'zlardan bebahra ekanliklari aytiladi.

Alisher Navoiy shu zaylda solishtirishda davom etar ekan, turk tilidagi mansab, hunar nomlariga qo'shiluvchi qo'shimchalar forsiy tilda yo'qligini, shuning uchun ham forslar mansab, hunar nomlarini turkcha aytishlarini ham yozadi:

"Yana bir adolari borki, ba'zi alfozning so'nggida "ch", "i"ki "chi"lafzidur orttirurlar, yo mansabning, yo hunarning, yo peshaning izhori uchun forsiyda yo'qtur, balki alar ham turkcha ayturlar" deya "ko'rchi", "suvchi", "xazinachi", "shukurchi", "yurtchi", "yo'rg'achi", "xalvochi", "kiyikchi" kabi bir qancha mansab va hunar nomlarini keltirib o'tadi.

Navoiyning aytishiga qaraganda, o'xshatish-qiyoslash ma'nosini beruvchi qo'shimcha ham (**borg'udek, kulgudek, bo'lgudek**), hozirgi o'zbek tilida payt ravishdoshini ifodalovchi qo'shimcha (**borg'och, aytgach, sotqoch**)va hatto orttirma darajadagi takroriy sifatlarga asos bo'luvchi so'zlarning hosil qilinishi ham (**qip-qizil, sap-sarig', yum-yumaloq**) fors tilida yo'q.

Navoiy turk tilining imkoniyatlarini ko'rsatib berish asnosida fors tiliga ham hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo'ladi. Bu tilda ijod etgan eng mashhur shoirlarning nomlarini o'zgacha hurmat bilan sanab o'tadi va ularning mahoratlariga qoyil qolajagini aytadi. Bular qatorida qasidanavislardan Anvari, Xoqoniy, Salmon Sovajiy, Kamol Ismoil, Zahir Foryobiy, masnaviydan Abdulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, buyuk g'azalnavislardan Shayx Muslihiddin Sa'diy va Xoja Hofiz Sheroziy (Navoiy bu shoirni asrning yagonasi deb atagan³) larni sanab o'tadi hamda ularni o'ziga ustoz deb bilishini ta'kidlaydi.

Ko'rinadiki, Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari o'sha davrda ham, hozirgi kunda ham shoirning ijodiy faoliyati hamda so'z qo'llash bilan bog'liq salohiyati haqida, turkiy tilning beqiyos imkoniyatlari-yu, fors va turk tilida ijod qilgan ko'plab shoirlarning ijodiy biografiyasi haqida ma'lumot beruvchi qomusiy manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий Алишер. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 2000. Т. 16.
2. Навоий Алишер. Муҳокамат ул-луғатайн. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.10.
3. Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тузувчи Б.Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1993.
4. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожидинов. – Т.: Sharq, 2016.
5. Санақулов У. Алишер Навоийнинг "Муҳокамат ул-луғатайн" асарининг тили. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1971.
6. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври).– Тошкент: Тамаддун, 2016.

"X" VA "H" FONEMALARIGA DIFFIRENSIAL YONDASHUV

D. Toshpo'latova, II bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Mustaqilligimiz sharofati bilan barcha jabhalarda bo'lganidek, tilshunosligimizda ham katta ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Hukumatimiz tomonidan lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek yozuviga o'tish to'g'risida qaror qabul qilinganligi shular jumlasidandir. Har bir ijobiy ishning boshlanishi, albatta, silliq kechmaydi. Xususan, bugungi kunda lotin yozuvining o'ziga xos

³Qa'ang: Навоий Алишер. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 2000. Т. 16.– Б.35.

hususiyatlarini ilmiy xulosalarga asoslangan holda yoritib beradigan risolalar, nafsuski, kamchilikni tashkil etadi. Savodxonlik-kishilik ma'naviyatining belgisi. Imloviy bexato yoza bilish ham ana shu maqsadning ifodasi. Tom ma'nodagi savodxonligimizga zid nuqsonlardan biri "x" bilan "h"ni farqlay bilmalik, chulkash qo'llashdir. Xuddi shu maqsad yo'lida qilinayotgan savodxonlik borasidagi ushbu masalalar ko'pchilikka birdek zarur ekanligini aytmasa ham bo'ladi. Hozirda ko'plab joylarda, hatto ommaviy axborot vositalarida ham "h" va "x" harflarini o'rnini almashtirib yozish hollari uchrab turibdi. Bu hol ushbu ikki harfni to'g'ri ishlatishni biladigan odamning g'ashiga tegishi tabiiy hol. Masalan: "har kim" so'zidagi "h" harfi o'rniga "x" yozilsa, "xar" so'zi fors tilidan kirgan "eshak" ma'nosini anglatadi. Yoki behol (holsiz) so'zidagi "h" harfi o'rniga "x" yozilsa, "bexol" ya'ni xolsiz ("xol" – inson tanasidagi qora dog') degan ma'noni anglatadi. Har bir madaniyatli, ma'lumotli mutaxassis-xodim davlat tilida to'g'ri va xatosiz, ta'sirchan va ma'noli barchaga manzur uslubda yoza bilishi lozim. Buning uchun esa o'zbek tili qonun-qoidalari hamda talaffuz me'yorlarini yetarli darajada bilishi, ularga o'zining og'zaki va yozma nutqida amal qilishi shart.

Ona tilimiz boy va go'zal. Uni sevib o'rganish, kundalik muomalada unumli foydalanish bizdan katta mas'uliyat talab qiladi. Tilimizdagi "h" va "x" harflari qo'llaniladigan so'zlarni ishlatishda biroz qiyinchilik tug'diryotganligi sababli professor filologlar, tilshunos olimlar yumshoq "h" va qattiq "x" fonemalarini birlashtirib bitta fonema ko'rinishiga keltirish yuzasidan dolzarb masalalarni ko'rib chiqqani hammamizga ma'lum. Bundan tashqari bu muammo abituriyentlarimiz orasida katta qiyinchilik tug'diryotgani barchamizga sir emas. Mazkur mavzuni yoritib berishdan oldin bu ikki fonemaning etimologiyasi bilan tanishib chiqsak.

Qattiq "x" fonemasi – chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz shovqinli undosh. Bu fonema so'z boshida (xalq, xabar) o'rtasida (maxsus, maxfiy) va oxirida (do'zax, mix, tarix) kela oladi. Qadimgi turkiy tilda "x" undoshi bo'lmagan. U eski turkiy til davrida paydo bo'lgan: xan (xon) xayu (qaysi) yaxsoq (oqsoq). Yana bir ma'lumotni aytib o'tish kerakki, ko'k turk xatida "x" harfi yo'q. Bu harf o'rnida <q> arab yozuvli matnlarida <x> ga o'zgaradi: xatun, xaqan, xan. Biroq bu hodisani tamoman tovush o'zgarishiga qo'ymaslik kerak. Sababi "Qutadg'u bilig" asarining tilida qadimgi <q> li variant ustivor. Masalan: qali (agar), qaliq (osmon), yaqsi (yaxshi). Bu so'zlardagi <q> tovushi <x> ga o'zgaragan xali, xaliq, yaxshi.⁴ Til strukturasiidagi o'zgarishlar ta'sirida bir fonemaning ikki fonemaga bo'linishi divergensiya holati hisoblanadi. Masalan:

⁴Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'atit turk". I tom. 67-bet.

eski turkiy tildagi chuqur til orqa “x” undoshi qadimgi turkiy tildagi “q” “g” undoshlarining fonetik oʻzgarishga uchrashi orqali paydo boʻlgan u turkiy tili uchun yangi tovushdir: q > x (burqan > burxan,⁵ qagʻan > xaqan) gʻ > x (oʻgʻsha > oʻxsha, sigʻda > sɔxta). Bunday x dastlab “q” va “g” undoshlarining variantlari (ottenkalari) sifatida yuzaga kelgan. Keyinchalik esa “q – x” “g – x” zidlanishlari shakllanib “x” undoshi ham mustaqil fonema darajasiga koʻtarilgan. Hozirgi oʻzbek tilida qor va xor, taqir va taxir, gʻor va xor, goʻr va xoʻr kabi kvaziomonimlarning borligi shundan guvohlik beradi⁶. Boshqa til tovushlari muayyan til, masalan, oʻzbek tili tarkibida oppozitsiya hosil qilishi uchun u shu til tizimidagi kvaziomonimlar tarkibida qoʻllanadigan darajaga koʻtarilgan boʻlishi shart. Bunday holatni x – h oppozitsiyasi misolida koʻrishimiz mumkin. Oʻzbek tilida xol va hol, shox va shoh kabi minimal juftliklarning (kvaziomonimlarning) mavjudligi arab tilidan oʻzlashgan “h” undoshini oʻzbek tilidagi x – h oppozitsiyasi vakili deb qarashga asos boʻladi. Demak, qattiq “x” undoshi, asosan, sof turkiy soʻzlarda uchraydi.

Boʻgʻiz undoshi, yaʼni yumshoq “h” fonemasi – sirgʻaluvchi, jarangsiz, shovqinli tovush. S. Otamirzayeva va M. Yusupova undoshlarning tasnifi boʻyicha fikrlarida shunday bir maʼlumotni aytib oʻtishadi: “h” undoshi jaranglilik va jarangsizlikka koʻra ham, turkiy boʻlmagani uchun, alohida xususiyatga ega. Uning jarangsizlar safida turishi shartlidir. Bu fonema soʻz boshida (ham, hozir), oʻrtasida (qahramon, mahsulot) va oxirida (shoh, guruh) kela oladi. “h”ning qattiq “x” fonemasidan farqli jihati shuki, asosan, u arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi. Fitrat oʻzbek adabiy tilida 23 ta fonema mavjudligini koʻrsatadi va x, h, f – fonemalari asl turkcha soʻzlarda kam uchragani uchun ham ular asl turkcha emasligini taʼkidlaydi. Bizning tilimizda nima koʻp oʻzlashma soʻzlar koʻp. Buning sababi shuki, tarixga nazar tashlasak, arablar bosqini forslar taʼsiri, moʻgʻullar, Chor Rossiyasi bosqini davrining ilmfan madaniyatimizga taʼsiri ancha katta boʻlgan. Hech bir xalq yoʻqki, uning etnogenezida har xil irqqa mansub millat va elat aralashmagan boʻlsa. Aynan bu hodisa har xil millat va elatlarning assilyatsiya natijasida tilimizga, madaniyatimizga turli xil oʻzgarishlarni olib kirdi. Somoniylar hukmronligida (IX – X asrlar) arab tili oʻmiga “forsiyi dari” yoki forsiy til, yaʼni dariy deb atalgan mahalliy til, adabiy til sifatida keng yoyilgan. “Forsiyi dari” tiliga Xurosonda yashovchi tojiklarning soʻzlashuv tili asos boʻlgan. Bu davrda fors tilining nufuzi oshdi. Natijada forsiy adabiy til arab tilini sheʼriyatdan tamoman siqib chiqardi va rasmiy davlat tili darajasiga koʻtarildi. Bularning taʼsirida diniy

⁵Qoʻzqoboy Mahmudov “Oʻzbek tilining tarixiy fonetikasi” 2006-59b

⁶Qoʻzqoboy Mahmudov “Oʻzbek tilining tarixiy fonetikasi” 2006 – 73 – bet – 76b.

adabiyotlarigina arab tilida yozilgan bo'lsa, dunyoviy adabiyot namunalari fors tilida yaratildi va u mahalliy turkiy tillarga, ayniqsa, o'zbek tiliga kuchli ta'sir o'tkazdi. Har ikki tilning o'zaro hamkorlik qilishi o'zbek-tojik bilingvizmi hodisasini vujudga keltirgan muhim omillardan biridir. Hozirgi o'zbek tili leksikasida anchagina miqdorda forscha-tojikcha so'zlar bo'lib, o'zbek tili leksikasida turkiy so'zlardan keyin miqdor jihatdan ikkinchi o'rinda turadi. Mahmud Qoshg'ariyning devonida o'zlashma so'zlar haqida ikki xil qarash bo'lgan:

– Turmush tarziga kirgan asbob-anjomlar nomlari bilan kirgan so'zlar. Turli xil Xitoy, hind kiyimlari nomlari ovqat nomlari, dori-darmonlar nomlarini u zarur va foydali deb bildi. (Bu so'zlarni o'z asarida) va mukammal izohlab berdi.

– Tilda bo'lgan so'zlar o'rnida boshqa so'z qo'llash. Buni u zararli deb hisobladi. Masalan: ko'zaj va qumg'on so'zlari bo'lgan holda, o'g'uzlarning forscha oftoba so'zini qo'llashlari kabi hollarni u qattiq qoralaydi. Demak, tilimizda o'zlashma so'zlar bor ekan, biz uni sof turkiy so'zlardan ajrata bilishimiz zarur.

Qadimgi tilimizda “ak” so'zi va qo'shimchasi bo'lgan bu so'z “kichkina” ma'nosini bildirgan. Masalan: ichak, ipak, yurak bilak. Mahmud Qoshg'ariy o'zining devonida shunday yozadi: “Turkiy tillar so'zlaridagi tovushlarda torlik, kenglik, qattqlik, yumshoqlik ikki undoshning qator kelish holatlari bor dedi”⁷

Rus tili fonetikasida ham bo'g'iz undoshi bo'lmish yumshoq “h” yo'q. Bu tildan o'zlashgan so'zlar tarkibida faqat chuqur til orqa qattiq “x” mavjud. Biz hech qachon u so'zlarni yumshoq “h” da yozolmaymiz. Masalan: xarakter, ximiya, xlor, xokkey xirurgiya.

Mahmud Qoshg'ariy fonetika sohasida ham qimmatli fikrlar yuritadi. U turkiy fonemalar bilan arab yozuvidagi grafemalar o'rtasida katta nomutanosiblik mavjudligi, shuning uchun bu yozuv turkiy til fonetik (fonologik) tizimini to'g'ri ifodalay olmasligini ko'rsatib beradi. Xususan, arab yozuvida shunday harflar borki, bu harflar faqat arab tiliga xos bo'lgan fonemalarni ifodalaydi. Masalan, bu haqida shunday yozadi: “Itboq harflari shuningdek, bo'g'iz tovushlari ham turkiy tillarda yo'qdir”.⁸ Lekin turkiy tillarda shunday fonemalar borki, bular arab yozuvida maxsus harf bilan ifodalanmaydi. Mahmud Qoshg'ariy ularning miqdori yettita ekanligini ta'kidlaydi. Yozuvda ana shu kamchilik mavjud. Harflarga nuqtalar qo'yish orqali to'ldirishiga harakat qiladi. Turkiy tildagi so'zlarni ifodalash uchun o'n

⁷Mahmud Qoshg'ariy “Devoni lug'atit turk” I tom. 10-bet.

⁸Mahmud Qoshg'ariy “Devoni lug'atit turk” I tom.

sakkizta harf kamlik qiladi. Holbuki, tildagi tovushlar o'n sakkizta emas ko'pdir. Bulardan tashqari tilda bo'lgan tovushlarni berish uchun yana 7ta harf kerak, deydi. Lekin u harflar yo'q. U 7ta tovushni mavjud harflar ustiga maxsus belgilar qo'yib yozadi.

Qadimgi Hindiston tariximizda tilshunoslik fanining beshigi sifatida tan olinadi. Ular fonetika sohasida yunon, arablardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farqlagan va fonema haqida muayyan tushunchalari bo'lgan. Zero, Mahmud Koshg'ariy ham o'zining "Devoni lug'atit turk" asarida yumshoq "h" bo'g'iz tovushini hindlardan kirib kelgan deb aytadi.⁹

Yumshoq "h" va qattiq "x" tovushlarining dialektal xususiyatlari: Yumshoq "h" o'zlashma so'zlarda ko'p qo'llanilib uni tilimizga mos ravishda talaffuz qilish holatlari uchrab turadi. Bu holatni ko'proq qarluq, o'g'uz lahjalarida kuzatishimiz mumkin. "h" ning "y"ga o'tish holatlari uchraydi: Rahim > Rayim, shohista > shoyista (h < y). Yumshoq "h" ning bu xususiyati ba'zan uning so'z tarkibidan tushib qolishiga ham olib keladi: shahar > sha:ar, Solih > Soli, Tohir > Toir kabi fonetik jarayonlarda ham "h" ning yuqoridagi xususiyatlari berilgan.

Eski turkiy til davridan boshlab arab fors tillaridan o'zlashgan so'zlarda f, h harflari ham qo'llanila boshlagan. Mahmud Koshg'ariy so'z boshida unlidan oldin "h" tovushi orttirib so'zlash xo'tanlilar va kanjaklarga xos edi, deb o'zini ham shu qabila vakillaridan biri ekanligiga ishora qilib ketadi. Ular anani hana, atani hata deganlar.¹⁰ Bu hodisa hozirgi o'zbek tilida ham uchraydi. Ingichka talaffuzli so'zlarda [h] yo'g'on talaffuz qilinuvchi so'zlarda [x] tovushi orttiriladi: bu harf qadimgi turkiy tilda paydo bo'lgan bo'lib, *awič* – hozirgi o'zbek tilida *xawuč*, *öküz* – hozirgi o'zbek tilida *höküz*. Qattiq "x", asosan qipchoq shevalarida ko'p uchraydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, biz bu mavzu bo'yicha yumshoq "h" va qattiq "x" fonemalariga xos tafovutlar, ularning etimologik va dialektal xususiyatlarigacha ko'rib chiqdik. Ko'rinib turibdiki, bu ikki fonema nima uchun o'quvchida chalkash qo'llashni keltirib chiqarar ekan.

Xulosa qilib aytganda qattiq "x" so'z o'rtasida va oxirida ba'zan qattiq tovushiga moyilroq aytilsa ham, asliga muvofiq yoziladi Masalan: taxir-taqir, mix-miq kabi. O'zbek tilida, asosan, e unlisidan boshqa unli bilan yonma-yon kelganda yoziladi va ularning qattiqroq talaffuz qilinishiga sababchi bo'ladi. Qarang: xalq, xabar, to'xta xush. Yumshoq "h" harfi ifodalagan tovush x tovushiga nisbatan yumshoqroq, nafisroq talaffuz qilinadi va quyidagi so'zlar kabi yoziladi: himoya, Shohista, ohang. Asosan, e, o unli laridan keyin kelganda

⁹Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'atit turk" I tom.

¹⁰Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'atit turk" I tom. 68-bet.

yoziyadi. Jonli nutqda h tovushi ba'zan o'zidan keyingi undosh kabi aytiladi yoki butunlay talaffuz etilmaydi: mahkam-makkam, mahsi-massi. Qattiq "x" va yumshoq "h" fonemalarni noo'rin qo'llash o'z o'rnida nafaqat so'zning shakli, balki mazmuniga ham salbiy ta'sir etibgina qolmay, paronimlar bilan bog'liq muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bu ikki fonemani birlashtirib, bitta fonema ko'rinishga keltirish ham, tilimizda ko'p nuqsonlarni keltirishi ajab emasligi yuqorida keltirilgan dalil va ma'lumotlar asosida tasdiqlashimiz mumkin. Buning natijasida o'zimizning sof turkiy so'zlarni ajratolmay, o'zligimizni anglolmay qolishimiz tabiiy hol.

Bizning birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning o'zlikni anglash tarixin bilishdan boshlanadi, degan so'zlari bejiz aytilmagan. Biz xalqni madaniyati, unanaviyati orqali bilamiz. Darhaqiqat, tariximiz qanday bo'lsa, unishundayligicha kelajak avlodga berishimiz shart va zarur. Tarixan taraqqiy etgan bu ikki fonema etnogenezi jihatdan dastlab ikki xil yo'l bilan paydo bo'lgan. Bir o'zlashma ikkinchisi sof turkiy ekanligini bilamiz. Demak, bu ikki fonemani qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish lozim. Tilimizdagi "h" va "x" harflari qo'llanadigan so'zlarni ishlatish biroz qiyinchilik tug'dirar ekan, ana shu bo'shliqni to'ldirish, tilimiz sofligiga erishish niyatida e'tiboringizga shunday mavzularni yoritib berishni zarur deb bildik.

Tilshunoslik tarixi bir ummonki, undan imkoniyatga, talab va maqsadga ko'ra xabardor bo'lish, foydalanish va izlanishda ushbu ummonga asoslanish har birimiz uchun sharafdir. Chunki tilshunoslik fanining kelajagi aslida tilshunoslik tarixining tuganmas xazinasidir. Ayni tarixni mukammal bilmasdan turib, fikr yuritish maqsadga muvofiq emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Nurmonov, O'zbek tilshunosligi tarixi.-T.: O'zbekiston, 2012,
2. N. Rahmonov, Q. Sodiqov, O'zbek tili tarixi.-T. 2009
3. R. Rasulov, Umumiy tilshunoslik.-T.: Fan va texnologiya, 2007
4. H. Jamolxonov, O'zbek tilining nazariy fonetikasi.-T.: Fan, 2009
5. M. Qoshg'ariy, Devoni lug'atit turk.-T. 1968 – I tom
6. I. Yo'ldoshev, S. Muhammedova, Tilshunoslik asoslari.-T. 2013
7. T. Arslonov, Yumshoq "h" mi? qattiq "x"mi?-.T.: Yangi asr avlodi, 2013

YOZUV VA MADANIYAT

M. Abdullayeva, I bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

«Madaniyat inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi umumiy qurilmalar va asarlar majmuyidir. Antropologiyada madaniyat atamasi

ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga san'at, fan va ma'naviy tizimlarni oladi». ¹¹Haqiqatan ham madaniyat tushunchasi bevosita insonning faoliyati bilan bog'liq. Biroq u juda keng qamrovli. Shu sababdan ham uni bir qolipga solish yoki madaniyat atamasi mana shunday izohlanadi, deb aytish mumkin emas. Shuning uchun ham madaniyatli insonga ham to'liq sifat bera olmaymiz. Madaniyat tushunchasini ulkan daryoga qiyoslamog'imiz mumkin. Ayta olamizki, bu ulkan daryo bugungi kunda mavjlanib oqmoqda. Zero, «O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Ham shaklan, ham mazmunan madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. «Davlat ili to'g'risida»gi qonun (1989-yil 21-oktabr), «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997-yil 29-avgust)ning qabul qilinishi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi (1997-yil), O'zbekiston davlat konservatoriyasi (2002-yil), O'zbek milliy akademik drama teatri (2002-yil) estrada musiqasini rivojlantirish to'grisidagi va boshqa bir qator farmon va qarorlarning qabul qilinishi, bir qancha mutafakkir va allomlarimizning muqaddas nomlari tiklanib, yubileylari xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgani davlatimiz tomonidan madaniyatimizni rivojlantirishga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir». ¹² Shu o'rinda to'liqlanib oqayotgan mana shu daryo – madaniyat bir qancha irmoqlar iborat ekanligi haqida ham unutmashlik lozim. Mana shunday irmoqlardan biri yozma madaniyat deb hisoblayman. Inson faoliyatida yozuv madaniyatining shakllanishi ham muhim, albatta.

Barchamizga ma'lumki, XXI asr texnika asri. Bugungi kunda axborotli shiddatli tezlik bilan harakat qilmoqda. Axborotlar ummonida suzib borayotgan insonlar ularni qabul qilishi uchun vaqt kamlik qilayotganday tuyulaveradi. Axborot tashuvchi vositalarning qiymati ham zamon talabi bilan kundan kunga ortib bormoqda. Vatanimiz, millatimiz, tilimiz tarixi haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar haqida bizlarga, albattaki, yozuvlar hikoya qiladi. Demak, yozuv ham axborot tashuvchi vositalar qatoridan joy egallaydi. «... Yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsa-da, mazkur ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida unga qaraganda juda ko'p afzalliklarga ega. Xususan, tilning eng muhim, asosiy vazifasi kommunikatsiya – kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Ammo kishilar o'rtasidagi bevosita – «yuzma-yuz» aloqaginn

¹¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.

¹² O'zbekiston Milli ensiklopediyasi, 2002.

og'zaki til vositasida ta'minlanishi mumkin, lekin bu aloqa bivosita bo'lsa-chi? Demak, tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas». ¹³ Darhaqiqat, yozuv bizlarga tariximizni va shu bilan birga o'zligimizni anglash tomon yo'l bosayotganimizda yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilgan. Madaniy boyliklar qanchalar ko'pligini ham aynan u orqali bilib olganmiz. Bugungi kunda mustaqil diyorimizning barkamol yoshlari uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Do'stlarimiz orasida uch, to'rt, hattoki beshta chet tilini biladiganlari ko'plab topiladi. Lekin, ular ham ma'lum bir tilni o'rganar ekan, bu yo'ldagi birinchi qadamni aynan shu tilning yozuvini o'rganishdan boshlaganlar.

Mulohaza qilib ko'raylik, chet tilini shu tilning yozuvi bilan tanishmasdan turib ham o'rganish mumkinmi?

Albatta, yo'q. Chunki, har bir tilning asosi uning yozuvida jam bo'ladi. Shu sababdan ham yurtimiz mustaqillikka erishgach, Respublikamizning birinchi Prezidenti rahnamoligida bu masalaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi yangi imlo qoidalarining yaratilishi uchun tayanch bo'lib xizmat qildi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi ham tilimiz tarixidagi ulkan voqea bo'ldi. «Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi». ¹⁴ Millatimizning o'tmishini o'zida jo aylagan O'rxun-Enasoy, Avesto, so'g'd, xorazm, uyg'ur yozuvlari xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanib ulgurdi. Ular bizlarning qadimiy urf-odatlarimiz, madaniyatimiz va san'atimizga aloqador voqealar haqida hikoya qiladi. Zotan, «...tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba-bilimlari saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi ham bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari kabi qimmatli axborotlarning barcha-burchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib boradi». * Demak, yozuv bugungi kunimizni yaratishimizda poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Xo'sh, bizlarning bugungi kunda o'zligimizni, madaniy meroslarimizni tanitgan omil – yozuvga munosabatimiz qanday?

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mustaqilligimiz sharofati bilan jamiyatimizda yozuvning tutgan o'rini mustahkamlash va unga nisbatan hurmat hissini shakllantirish masalalariga katta e'tibor berildi. Ammo, hali ham yozuv bilan bog'liq muammolar uchrab turibdi. Shu o'rinda, hozirgi kunda yoshlarimizning asosiy bivosita aloqa vosita hisoblangan – smslar haqida alohida to'xtalmoq lozim. Barchamizga ma'lumki, lotin yozuviga asoslangan

¹³ Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. Iqtisod-moliya, 2007.

¹⁴ Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Ilm-ziyo, 2011.

yangi o'zbek alifbosi 29 ta harfdan iborat. Mana shu harflar orasida «sh», «ch», «ng» kabi harf birikmalarimiz ham bor, albatta. Bundan tashqari, «o'» va «g'» harflari ham mavjud. Lekin, ko'pchilik yoshlar aynan mana shu harflardan yozuvda foydalanayotganlarida «ch» harfini ba'zan «4» soni bilan yoki «c» belgisi bilan ifodalayotganligi sir emas. Yana shunday holatni sh harf birikmasining «w» tarzida yozayotganlarida yoki «o'» harfini «6» soni bilan ifodalayotganlarida ham ko'rishimiz mumkin. To'g'ri, bu narsa juda kichik va arziyas muammodek ko'rinishi mumkin. Lekin, shu o'rinda Hazrat Navoiyning «Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur» deb aytgan buyuk hikmatlarini ham unutmaslik kerak. Balki, harf birikmalarini qisqartirish yordamida bizlar vaqtimizni tejashimiz mumkindir. Biroq, nimaning evaziga? Bizlarga o'tmishimizni, o'zligimizni tanitgan – yozuvga nisbatan qalbimizdagi hurmat hissining yo'qolishi evaziga emasmikan?! SMSlar tarkibida talaffuz qilayotgan tovushlarning aynan o'sha holati yozilishi ham kuzatilib turadi. Masalan, «O'ziz qalesiz» yoki «Wamba kuni vahtiz bormi» kabi. Tinish belgilaridan deyarli umuman foydalanilmaydi. Ayrim SMSlarda «a. a.» kabi qisqartmaga ko'zim tushadi. Avval, SMSlarning boshida uchraydigan bu belgining qanday ma'no anglatishiga tushunmaganman. Keyin bilishimcha, bu «assalomu alaykum» so'zi ekan. Xalqimizda shunday naql bor: «Salom – odobning boshi». Salom salomatlik ramzi. Salom berish ham har bir millatning o'ziga xosligini bildiruvchi belgilardandir. Bu so'zning talaffuzimizda «somaleykum», «salomaleykum» tarzida qo'llanilishi anchadan buyon kuzatilayotgani qanchalar achinarli bo'lsa, yozma nutqda uning butunlay qisqarib, «a. a» holiga kelib qolganligi ham shunchalar achinarlidir.

Taassufki, hozirgi kunda bu holatlar har birimizning ongimizga singib ketganki, hatto bu so'zlarning xato yozilganligi, ayrim qisqartmalar millatimizning an'analarni o'zida aks ettirgani va ularni yozuvda qisqartirishlarsiz, xatoliklarsiz yozish kerakligiga hech birimiz to'xtalgimiz kelmaydi. Ongimizga singib borayotgan bu noxush vaziyatlar qalbimizga muhrlanmay turib ularning oldini olmoq kerak. Asrlar davomida ona xalqimiz biz yozayotgan harflardan, biz so'zlashayotgan tildan foydalanishni orzu qilib yashagan. Yana yo'l-yo'lakay maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining nomlari xato yozilganligini yoki ayrim internet tarmoqlaridagi nomlarning yozilishidagi xatolarni uchratib ko'nglimiz biroz xijil tortadi. Ayniqsa, «G'» «O'» kabi harflarning yozilishida maxsus belgilarning tushib qolishi juda ko'p uchraydi: «Zarqogon», «Oltin olka», «Qaldirgoch» va h.k. Internet sahifalarining nomlarida ham aynan shu holatni ko'rish mumkin. Imloviy xatoliklar bilan yozilayotgan maishiy xizmat ko'rsatish joylarining aksariyat

qismi «h» va «x» harflarining imlosida kuzatilmoqda: «Muxabbat bog‘i», «Hush kelibsiz», «Xayvonot bog‘i» kabi.

«Dunyoning yetti mo‘jizasi bor deyishadi. Ammo dunyoda rasmiy e’tirof etilgan yana bir mo‘jiza bor. Bu – kitob». ¹⁵ Darhaqiqat, kitob insonni turbiyalovchi, uni madaniyat sari yetaklovchi katta kuchdir. Bugungi kunda tez-tez uchrab turgan yozma nutq bilan bog‘liq muammolarning sababi ham badiiy kitoblar mutoalasining kamayib ketayotganligida deb o‘ylayman. Yurtimizda yozma savodxonlikni shakllantirish uchun kerakli chora-tadbirlar tashkil qilinmoqda. Birinchi Prezidentimizning Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish tog‘risidagi farmoniga ko‘ra barpo etilgan universitetning qabul sinovlariga insho yozish shartining ham kiritilganligi so‘zning isboti sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Demakki, bugun yozma savodxonlik hamda yozma madaniyatni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor bilan qaralmoqda. Har birimiz yozuvimizga hurmat bilan qarashimiz kerak. Zero, «Boy va ulkan o‘tmish madaniyatimiz, tariximiz haqidagi bugungi tasavvurlarimizning mavjudligi, tirikligi faqat yozuv tufaylidir». ¹⁶

TARJIMADA TAFAKKUR

X. Akromova, I bosqich talabasi (ToshDO‘TAU)

Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida, shu xalq asarlarining jahon adabiyoti durdonalari qatoridan joy olishida tarjimachilikning o‘rni beqiyosdir, zero tarjima ham adabiyot, ijod bilan bir qatorda turadigan, o‘z navbatida, ulardan-da murakkabroq bir jarayondir. “Shaxsiy ijod fikr izlash bilan paydo bo‘lsa, tarjima asarlari mos so‘zlar izlash bilan vujudga keladi, chunki tarjima qilinadigan asarda tayyor g‘oya, tayyor fikr, tayyor konsepsiya mavjud.

Tarjimon unga shakl va chiroyli ifodalangan, mantiqan teran so‘z topishi kerak. Shunday ekan, tarjimonlik qilishga bel bog‘lagan har bir ijodkor so‘z boyligi va so‘z san‘atini mukammal egallagan, yuksak didli, zukko, shaxs bo‘lishi lozim”. Tarjima insoniyat taraqqiyotida, uning madaniy hayotida juda katta va muhim o‘rin egallaydi. Aynan tarjima bir mamlakat yoki qit‘a odamlarini boshqa bir mamlakat yoki qit‘a odamlarining hayoti, turmush tarzi, madaniyati, urf-odati, tarixi, adabiyoti bilan tanishtiradi.

Bevosita tarjima tarixiga nazar tashlasak, uning adabiyot tarixi bilan tengdoshligini ko‘ramiz. Tarjima tarixi badiiy adabiyot tarixi singari o‘rganilib kelinmoqda. Tarjima tarixini jamiyat tarixi, madaniyat bilan chambarchas

¹⁵ Shodmon Otobek. Adabiyot qismatidir. «Sharq» nashriyot-matbaa, 2014.

¹⁶ Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. Iqtisod-moliya, 2007.

bog'lab o'rganish ham davr talabi bo'lib kelmoqda. Qadimgi rim yozuvchisi Sitseron ham tarjimaning jamiyat uchun muhim ekanligini ta'kidlab shunday deydi: "Har qanday muammo mavjud bo'lsa, bo'lsinki, tarjima jamiyat uchun bebaho boylikdir". Adabiyot va san'at qanday tahsinlarga sazovor bo'lsa, tarjima ham xuddi shunday e'zozlarga loyiqdir. Tarjima inson ma'naviy faoliyati sifatida qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi. G'arbda "Biblya" ning grek tilidagi tarjimasi, Sharqda "Avesto"ning pahlaviy tilidagi tarjimasi, Beruniyning "Osor-ul boqiya" kabi asari, ko'hna Eroniy yozuvlar tarjimashunoslik fanining naqadar chuqur ildiz otganligini ko'rsatadi.

Olis o'tmishdan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda tarjima jarayoni o'z davrining yetuk tarjimonlari tomonidan sayqallanib kelindi. "Xalqaro Tarjimonlar Federatsiyasi" sobiq prezidenti Pyer Fransua Kaye "XX asr-tarjima asri", degan edi. Bu asrda ko'p e'tibor tarjimaga qaratildi. XX asr oxirlariga kelib ingliz olimlari A. Daf, A. Malley, P. Nyumark, Naydo va boshqalar tarjima tarixini o'rganishar ekan, albatta, o'tmishga nazar solmasdan o'ta olmadilar. Ulardan P. Nyumark "Approaches to Translation" kitobida tarjima tarixi haqida yozarkan, o'tmish tarjimashunosligi o'z ta'sirini hozirgi davr tarjimashunosligiga o'tkazganligini ta'kidlaydi.

"Tarjimaning dunyoga kelishi haqida taxminan miloddan avvalgi 3000-yilda, ya'ni misr qadimgi qirolligi davrida ilk Ktarakt, Elefantin makonida topilgan ikki tilda bitilgan bitiklar dalolat beradi", deb yozadi Nyumark. Darhaqiqat, bu davrga kelib tarjima jarayoni fan darajasigacha ko'tarildi. Xorijlik tarjimashunos Y. Etkind o'tgan asrning 60-yillarida o'zining barcha tadqiqotlarida tarjimaga ham san'at, ham ilm deb qaragan. Jumladan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi A. Azizov o'zining "Tarjimashunoslik istiqbollari" asarida shunday yozadi: "Tarjimashunoslik murakkab fan sifatida qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslikni qamrab oladi... Binobarin, tarjimashunoslikka juda keng qamrovli, o'z nazariya va metodlariga ega bo'lgan fan sifatida qarash zarur...".

Tarjimaning asosiy xususiyati uningboshqa til vositalari bilan qayta yaratilishidan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir. Badiiy tarjima jarayoniga to'xtaladigan bo'lsak, tarjimaning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, uning o'z xususiyatlari mavjud. Badiiy asarda obraz, tasvir va hikoyat qilinayotgan voqeaning ta'sirchanligi muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, badiiy adabiyotlarni tarjima qilish jarayonida asarning leksik-grammatik jihatlari alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun asiyat tildagi so'zning kontekst ichidagi sifati, eskirganligi, yangilik, majoziylik, hurmatlash, e'zozlash, piching, haqorat va hokazo ma'nolarini bilish kerak, so'ngra tarjima tildan o'shu

so'zga muvofiq keladiganini topa olish kerak. XIV asr tarjima namoyondasi Juan Luiz Vayvz tarjima prinsipi va metodlari haqida gapirar ekan, jumladan shunday deydi: "Agarki ma'no bir tildan ikkinchi tilga o'tarkan, u haqiqiydir. Agarki ma'no yo'qolsa, u bir parcha qog'oz bo'lagidan boshqa hech narsa emas. Agarki tarjimon Demosfen yoki Sitseronning nutqlari, Gomer yoki Vergiliy she'rlarini boshqa tilga tarjima qilar ekan, avvalambor, matnga, uning mazmuniga e'tibor bersin. Shundagina u tillar o'rtasidagi farqni ko'ra oladi, aksincha bo'lsa, o'zga til nutqi stilistikasini berish nariyoqda tursin, oddiy jummalarni berishi mushkul bo'lib qoladi".

Tarjima jarayonida leksik vositalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan grammatik vositalardan o'gira bilish ham tarjimondan zargarona mahoratni talab etadi. Tillararo noo'xshash bo'lgan grammatik kategoriyalar qator muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Ular jumlasiga fe'l zamonlarining shakllari, otlarning turlanishi, gap ko'rinishi, otlarning ko'plik yasalish usullari va hokazolarni kiritish mumkin. Bir-birlariga yaqin tillardan o'zaro tarjima qilinganda, muammolar nisbatan kamroq bo'lsa, turli til tizimiga mansub tillarda esa, qator muammolarning tug'ilishi tabiiy. Bunday muammolarni bartaraf etish esa, tarjimondan har ikki tilning lisoniy qonuniyatlari, leksik-grammatik vositalarini puxta bilishni talab etadi.

Aksariyat hollarda, tarjima qilinayotgan asar muallifining uslubi e'tiborga olinmaydi, zero uslub yozuvchi ijodining uning asarlarida takrorlanib turadigan asosiy, tipik, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari majmuasidir. Xulosa qilib aytganda, uslub hayotni obrazli o'zlashtirishni ifodalash, kitobxonlarni qiziqtirish vositasidir. Tarjima qilish uchun so'zlarning asosiy lug'aviy mazmuni-yu, tilning grammatik qoidalarini bilish kifoya emas. Buning uchun tilni his qilish kerak. Har bir leksik vositaning stilistik, ya'ni uslubiy vazifasini bilish kerak.

Tarjima tarixi, tarjima nazariyasi va tarjima tanqidchiligi Respublikamizda necha yillardan beri taraqqiy etib kelmoqda. Bularning ichidan tarjima tarixi borasida ko'plab kitoblar, monografiyalar yozilib kelindi. O'zbekistonda tarjima tarixini yoritishda M. Rasuliy, G'. Salomov, N. Komilov, J. Sharipov va boshqalarning o'rni salmoqlikdir. Chet el adabiyoti namoyondalarining asarlarini tarjima qilish juda yaxshi takomillashib bormoqda. Bu sohada "Jahon adabiyoti" jurnalining a'zolari samarali ishlarni amalga oshirishmoqda. Erkin Vohidov tarjima qilgan Gyotening "Faust" asari, Abdulla Oripov tarjima qilgan Dantening "Ilohiy komediya" asari, Rauf Parfi tarjima qilgan Nozim Hikmatning "Inson manzaralari" epopeyasining birinchi kitobi, shuningdek, Firdavsiyning "Shohnoma"si, Bayronning "Don Juan" kabi asarlarining tarjimalari madaniy hayotimiz quvonchiga quvonch qo'shdi. O'zbek

adabiyotida sahna asarlarining tarjima qilinishi jadid adabiyoti namoyondalari davrida vujudga keldi. O'zbek ziyolilari ichida teatr asarlarini birinchi bor tarjima qilib, sahnalashtirgan inson bu Abdulla Avloniydir. Abdulla Avloniy asl nusxaning mazmuni, badiiy nafosatini, chiroyli obrazlarni to'g'ri talqin qilib, ehtiros bilan tarjima qildi. She'r, poema, romanlari bilan xalqimizning mehr-muhabbatini qozongan, mashhur, ajoyib adib, zabardast shoir Oybek poema yoki she'riy romanni tarjima qilgan shoir-tarjimondir. Adibning tarjima sohasida erishgan eng yuksak cho'qqisi A. S. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romanining tarjimasi bo'lib, u bir necha marta qayta nashr qilindi. Yurtimizda bunday mohir tarjimonlardan juda ko'pini misol qilib keltirish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan shuni bilish mumkinki, tarjimachilik murakkab fan sifatida tarjimondan katta mas'uliyat, og'ir mehnat va yuqori darajali bilimga ega bo'lishni talab etadi. Italyan xalqida shunday gap bor: "Traduttore-traditore", ya'ni tarjimon-xoin. Har qanday tarjimon o'ziga yuklatilgan asarni maromiga yetkazib, asliyatdagidek ta'sirli qilib tarjima qila olmasa, unga nisbatan shunday jumalarning qo'llanilishi tabiiy. Agar kitobxon asliyat tildagi asarni o'qib qay ahvolga tushgan bo'lsa, yuragida qanday kechinmalar o'tgan bo'lsa, tarjima tilda ham bu asarni o'qib shu ahvolga tushsa, bu tarjimonning yutug'idir.

"Mumtoz asar har qanday boshqa tilda ham mumtozlik salohiyatini saqlashi, mumtozlik salohiyatidan hech narsani boy bermasligi, yo'qotmasligi shart. Buning uchun zargar diqqati, zargar mehnati, zargar nigohi, zargar talabchanligi lozim. E'tiborlisi, injiq zargar o'zi yaratgan buyumga qayta-qayta sayqal berishdan hech qachon erinmaydi. Adib tarjimon ham shunday. Tarjimonning sayqali-tahrirda, qayta-qayta tahrirda".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T., 1978
2. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М., Высшаяшкола, 1968
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод. Москва, 1975
4. Salomov G. Til va tarjima. T., 1966,
5. Jumaniyozov O. O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari. T., "Fan", 1987

BADIIY TARJIMA JARAYONI VA TARJIMASHUNOS

J. Bo'riboev, I bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Tarjimashunoslik masalalari shu kungacha qator tilshunos va tarjimashunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Tarjima tarixi va nazariyasi masalalari bilan shug'ullangan olimlar orasida A.V. Fyodorov, L.S. Barxudorov, Bona Baker, o'zbek olimlaridan G'. Salomov, J. Sharipov, O. Sharafiddinov, N.

Komilov, I. G'ofurov, Sh. Sirojiddinov, G. Odilova kabi olimlarning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir. Bundan tashqari qator tilshunos va tarjimonlarning ilmiy ish va maqolalari borki, bu ishlarda tarjimaning eng muhim masalalaridan bo'lgan mohir tarjimonlik va tarjima jarayoni masalalari ko'tarilgan.

Tarjima - lisoniy badiiy-estetik hodisa, tarjimon esa ijodkordir. Qanday asar tarjima qilinmasin, shubhasiz u o'sha xalq adabiyoti, ma'naviy boyligi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Kitobxonlar uchun ham ulkan sovg'a bo'lishi mumkin.

Tarjima turli tilshunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. "Bir tilda yozilgan kitobni ikkinchi tilga o'girish" - deb javob beradi bir kishi. Boshqasi esa bu ta'rifga e'tiroz bildiradi: - Tarjima qilinayotgan narsa kitob emas, og'zaki nutq yoki kinofilm bo'lsachi? [4,66] Xullas, bahs shu tarzda davom etadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, tarjimani har kim ham o'zgacha tushunadi.

Tarjima xususida yuqoridagi mulohazalarni bildirgan olimlarning fikrlarida jon bor. Gap shundaki, ularning har biri tarjimani bir tomondan ta'riflab, bu haqidagi umumiy tushunchani to'ldiradi. Bundan tashqari bahsda qatnashayotganlarning dalillarida tarjima ko'p sohali, sertarmoq, murakkab jarayon ekanligi ma'lum bo'ladi. Tarjimaning asosiy xususiyati uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratilishidan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir.

Tarjima nazariyasi fani bugungi kunda ko'pgina davlatlarda asosiy fan sifatida o'rganilmoqda. Tarjima nazaryasining markazida til va lingvistik aspektlar bo'lib, til va jamiyatning uzviy takomillashuvi natijasida tarjimonlik sohasi tildagi sotsiolingvistik jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu fan bir necha asrlar davomida xalqlarning madaniy-ma'rifiy almashinuvi hamda siyosiy-iqtisodiy sohalar va elchilik munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu soha tarjimondan ushbu jarayonga quyidagi tamoyillarni talab etadi:

- Bosh g'oya. Avvalombor, tarjimon biron-bir asarni o'z ona tiliga tarjima qilgan ekan, uning mazmunini izchil o'rganmog'i lozim. Tarjima jarayonida asarning kitobxonga yetkazmoqchi bo'lgan g'oyasi, ta'limiy ahamiyati to'latilganligicha tahlil etilishi va saqlanilishi eng zarur talablardandir. Asar g'oyasining yaxshi tushunilmasligi tarjimonga muvaffaqiyatsizlik keltirishi mumkin. Shuning uchun tarjimon asarni yaxshilab o'rganishi va chuqur tahlil o'tirmog'i lozim.

- Asar muallifining xarakteristikasi. Muallifning ijodiy tavsifi va repertuari, shuningdek, muallif tili, millati va madaniyati tarjimon uchun sinchiklab o'rganilishi kerak bo'lgan asosiy jihatlardandir. Deyarli barcha yozuvchilarning

asarlari tarixi, yaratilishi ularning hayotiga bog'liq bo'lib, boshdan kechirgan yoki qayerdandir eshitgan bo'lishi ko'proq ehtimoldadir. Agarda, yozuvchining hayoti, kasbi, ijtimoiy faoliyati bilan tanishilsa, uning asarini asliyat holicha tarjima qilish muvaffaqiyati yanada oshadi. Ya'ni, asliyat matnidagi aniqlik va badiiy bo'yoqdorlikni saqlash bevosita yozuvchi xarakteri bilan chambarchas bog'liqdir. Muallifning ijodiy ishlari bilan tanishib chiqish ham tarjimonga yengillik yaratadi. Bu bilan muallifning uslubi, dunyoqarashi, mahorati o'rganiladi.

- Asar voqealari davri. Asarda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning, obrazlarning yashash davri, zamon, uning qaysi asr yoki yilga tegishli ekanligi va o'sha davrni, tarixni o'rganish, tahlil qilish ham muhim vazifadir. Agarda asliyat matnidagi voqealar izchilligi o'tgan asrda bo'lsa, tarjimon mohirlik bilan aynan o'sha asr ko'rinishini, muhitini yoritib bera olishi va tabiiylikni saqlay olishi kerak. Muhim tarixiy sanalar, hodisalar, shaxslar, ijtimoiy qatlam holati, hayoti va atamalarini puxta o'rganib chiqish ham tarjimani yuqori darajada amalga oshirishga yordam beradi.

- Obrazlar. Asar qahramonlari, ularning kasbi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi va alohida belgilarini o'rganish obrazlarning ichki dunyosini asliyat matnidagidek ochib berishning yagona yo'lidir. Kitobxon tarjima matnini o'qiganda qahramonni his qilsa, ko'z oldida gavdalantirsa yoki voqealar ichida yursa, tarjimaning va tarjimonning mavqeyi yuqori darajada ekanligi namoyon bo'ladi.

- Mamlakat madaniyati. Asliyat tili, millatning urf-odati, an'analari, kelib chiqishi, udumlari bilan yaqindan tanishish asarni boshqa xalqlarga oson tushunarli tarzda tarjima qilishga yordam beradi. Har bir millatga tegishli bo'lgan so'z birikmalari, xalqiy ko'nikmalar, tushunchalar va rasm-rusumlari tarjima jarayonida qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun, tarjimon bu jabhalar bilan yaqindan tanish bo'lishi o'z ishini yengillashtiradi. Yozuvchi madaniyati bilan yaqin xabardor bo'lish va ularni to'g'ri tarjima qila olish tarjimondan katta mas'uliyat talab etadi.

- Milliy ehtiyotkorlik. Tarjima qilishda muayyan millatga tegishli bo'lgan asrab-avaylanilishi yoki ehtiyotkorona yondashuv talab etuvchi iboralar yoki milliy qadriyatlar tarjimondan hushyorlikni talab etadi. Masalan, o'zbek millatida kattalarni hurmat qilish, to'g'riso'zlik, mehmondo'stlik, ibo-hayo kabi tushunchalar. Millat qadriyatlari, tushunchalari boshqa millat qadriyatlarining muqobil ko'rinishiga tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarjima jarayonida har bir millatning madaniy belgilari o'z holicha, noto'g'ri talqin etilmasdan saqlanilishi lozim.

- Muqobili yo'q so'zlar. Ikkinchi tilda tarjimasi yo'q bo'lgan, faqatgina o'sha millatgagina tegishli bo'lgan so'zlarni tarjima qilishda ularning ta'rifini ikkinchi tilda keltirish samarali usuldir. Masalan: "Sandal atrofida" – "around sandal". "Sandal" – *special fire in a home by people to warm themselves*. Bunday realiyalarni izoh usulida tarjima qilish ayni muvofiq yo'ldir.

- Emotsional ta'sirchanlik. Asar qahramonlarining hissiy holatlari saqlanishi va asarning emotsional birliklari o'z holicha aks ettirilishi kerak. Mobodo, usliyatdagi emotsionallik tarjimada salgina bo'lsada kamaysa, bu asarning ta'sirchanligini buzadi.

Tarjima jarayoni tarjimondan quyidagi xususiyatlar va xislatlarni talab qiladi: 1) dastavval, u o'z ona tilini mukammal tarzda va boshqa tillarni puxta bilishi; 2) o'z kasbini sevishi; 3) geografiyani bilishi; 4) badiiy ijod bilan shug'ullanishi; 5) keng fikrli bo'lishi; 6) yozma va og'zaki nutqi rivojlangan bo'lishi; 7) o'z ustida ishlashi; 8) yaratuvchan va zamon bilan hamnafas bo'lishi; 9) mashhur asar namunalarni o'qigan bo'lishi kerak.

Badiiy asarlar tarjimasi muhimligini ta'kidlagan holda quvonch bilan ayta olamizki, mustaqillik yillarida tarjimashunoslik ishlarida yuksalishlar, ilgariylashlar bo'ldi. Chet el adabiyotlariga qiziqish nihoyatda o'sdi. Qator asarlarning badiiy tarjimalari kitobxonlar qo'liga yetkazildi. O'zbek adabiyoti jahon adabiyotining olamshumul asarlariga ega bo'ldi. Mustaqillik yillari esa bu boradagi yutuqlar yanada ko'paydi.

Tarjima, xalqalar do'stligi, qardoshlik va baynalmilal manfaatlarga xizmat qiluvchi muhim vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'. Salomov. "Tarjima nazariyasiga kirish." T., 1978
2. Фёдоров А.В. "Основы общей теории перевода." М., Высшая школа, 1968
3. Бархударов Л.С. "Языки перевода." Москва, 1975
4. G'. Salomov. "Til va tarjima." T., 1966,
5. O. Jumaniyozov. "O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari." T., "Fan", 1987

ТИЛ ВА ЖАМИЯТ

З. Нуъмонова, I босқич талабаси (ТошДУТАУ)

Тил ва жамият тушунчалари маъно англатиш нуқтаи назаридан фарқли маъноларни англатса-да, бир-бири билан узвий боғлангандир. Тилсиз жамият, жамиятсиз эса тилнинг бўлиши ва ривожланиши мумкин эмас. Тилнинг пайдо бўлиши ҳам айнан жамият билан боғлиқдир.

Инсоният пайдо бўлар экан, энди табиатни, борлиқни, ҳаётни англаш зарурати туғилди. Бунинг учун эса одамзод биринчи галда нарсаларга ном қўйиши, бир-бири билан мулоқот қилиши керак эди. Бунинг учун тил энг яхши восита бўлиб хизмат қилди, яъни тил айна жамиятда пайдо бўлди ва бугун ҳам шу жамият билан бирга яшаб келмоқда. Тил ва жамият бир-бири билан узвий боғлиқ бўлгани учун ҳам жамиятдаги ҳар қандай ўзгариш биринчи навбатда, албатта, тилда акс этади.

Тил ва жамият ўртасидаги муносабатларни, тилнинг фалсафа, ижтимоий психология, этнография билан боғлиқ жиҳатларни ўрганувчи соҳа социолингвистика (ижтимоий тилшунослик) деб юритилади.

Тил, энг аввало, инсон ва унинг тафаккури шаклланишидаги зарурий шартлардан биридир. Аниқ нутқнинг пайдо бўлиши инсоннинг билиш, идрок қилиш жараёнларини ўзгартириб юборди. Тил туфайли инсон тафаккури бойиди, моддий дунёдаги нарса ва предметларни онг орқали идрок қилиш, улар устидан мулоҳаза юритиш, уларга оид фикрларини сўз билан ифодалаш имконига эга бўлди. Эътибор билан қарасак, ёш бола дастлаб товушлар чиқаради. Бироқ сўзларни айтишни билмайди. Аста-секин бир бўғинли, икки бўғинли сўзларни айтишни ўргана бошлайди. Қизиқарлиси шундаки, у юра бошлагандан сўнг сўз бойлиги анча кўпайиб кетади. Бунга сабаб эса бола аввал қизиққан узоқдаги нарсаларини ўзи бориб ушлаб кўрмаган, яқиндаги нарсалар билангина чегараланиб қолган. Ўзи юра олгач, унга қизиқ туюлган нарсаларни бориб қўли билан ушлаб, уни тезроқ ёдида сақлаб қолган. Айнан ушбу ҳолат тил тафаккурнинг амалий ифодаси эканлигини исботлайди. Қачонки тафаккур ривожланса, тил ҳам ривожланади, тил ривожланса, жамият ривожланади.

Бугунги кунда “ҳарам”, “қози”, “нукта”, “муҳтасиб” сўзларини замонавий адабиётларимизда учратишимиз қанчалик эриш туюлса, Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Огаҳий асарларида “компьютер”, “технология”, “телефон”, “спорт”, “бизнес” каби сўзларни учратмаслигимиз ҳам табиий ҳолдир. Демак, бугунги кунда жамиятимизнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида содир бўлаётган ўзгаришлар тилимизда табиий равишда акс этишини юқоридаги мисол ҳам яққол исботлаб турибди.

Афсуски, бугунги кунда жамиятимизда тилмизга безътиборлик билан қараётган, тилимизнинг гўзаллиги ва ўзига хос жозибасини яхши англаб етолмаётган инсонлар ҳам учраб турибди. Бундай кишилар шундай гўзал ва жозибали тилимиз туриб, айрим сўзларни кераксиз, ноўрин чет эл сўзларидан фойдаланишмоқда. Бунинг сабаби уларнинг саёз фикрлашлари,

қисқа ўйлашларидир. Бундай инсонлар кераксиз чет эл сўзларидан фойдаланишларига сабаб, асосан, қуйидагилардир:

Биринчиси – улар “маданиятлидирлар”, иккинчиси – бу “мода”, учинчиси – онгсиз равишда. Улар бугунги кунда ишлатадиган “мода”даги сўзларга мисол қилиб “зато”, “конечно”, “правильно”, “но проблем”, “вообще”, “карооче”, “проста”, “мисс”, “love”, “ок” каби сўзларни лйгишимиз мумкин.

Инсонлардаги ушбу камчиликлар нафақат оғзаки нутқ жараёнида, балки турли хилдаги маиший хизмат кўрсатиш жойларига қўйилган номларда ҳам учратишимиз мумкин. Масалан, маиийш хизмат кўрсатиш жойларининг қуйидаги номларини кўриб чиқамиз.

№	Маиший хизмат кўрсатиш жойларига қўйилган ўзбекча номлар	Маиший хизмат кўрсатиш жойларига қўйилган русча номлар	Маиший хизмат кўрсатиш жойларига қўйилган инглиз ва бошқа тилдаги номлар
1	“Беш панжа”	“Знайка”	“Makro”
2	“Бухоро”	“Радуга”	“Fruits”
3	“Афросиёб”	“Чемоданы”	“Next”
4	“Сугдиёна”	“Золушка”	“Gipermarket”
5	“Самарқанд таомлари”	“Камила”	“Redtag”
6	“Марғиёна”	“Светлана”	“Sunday”
7	“Зиё”	“Минутка”	“National food”
8	“Тараққиёт”	“Солнышка”	“Sweet”
9	“Садо”	“Карамел”	“Chicken food”
10	“Само”	“Корзинка”	“Intellectual”
11	“Илм”	“Красавица”	“Osiyo grand”
12	“Нур шифо”	“Трикотаж”	“Lucky star”
13	“Шифо”	“Золотой”	“English life”
14	“Маърифат”	“Маленкая”	“Golden”
15	“Ором шифо”	“Быстро”	“Tasty food”

Ушбу рўйхатни яна анча давом эттиришимиз мумкин. Яна рус тилидаги сўзларни лотин ҳарфлари билан, имловий хатолар билан ёзилгани-чи. Ачинарлиси эса, ушбу номлар орасида ўзбек тилидагиларини топшиш анча қийин иш бўлиб қолди. Чунки ўнтадан биттасида ўзбек

тилидаги ном бўлиши мумкин. Тўғри, бугун биз ривожланиш асрида яшаймиз, бизда аниқ муқобили бўлмаган компьютер, интернет, телефон, аэропорт сингари сўзларни ҳам қабул қилмоқдамиз, бироқ юқориди келтирилган сўзларнинг барчасининг муқобили бор-ку. Нега энди би ўзимизнинг она тилимизда чиройли ва бетакрор муқобили бўла туриб бошқа тиллардаги сўзлардан фойдаланишимиз керак?

Энди эса қуйида ушбу рўйхатда келтирилган бошқа тиллардаги сўзларнинг ўзбек тилидаги муқобилларини қидириб кўрамиз.

Знайка – билимдон, зукко, радуга – камалак, чемадоны – чамадонлар, минутка – дақиқа, солныйшка – қуёшим, офтобим, корзинка – сават, красавица – гўзал, мафтункор, зебо, хушрўй, золотой – олтин, тилла, маленькая – жажжи, митти, кичкина, быстро – тез, дарҳол, тезда, масго – катта, fruits – мевалар, next – кейинги, gipermarket – катта дўкон, redtag – қизил ёрлик, Sunday – якшанба, national foods – миллий таомлар, sweet – ширин, тотли, мазали, chicken food – жўжали таом, intellectual – заковатли, зукко, Osiyo grand – ҳашаматли, Lucy star – омадли юлдуз, English life – инглизча ҳаёт, golden – олтин, тилла, tasty food – ширин таом ва ҳоказо каби сўзлар.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, ушбу бошқа тилдаги сўзларнинг нафақат биттадан, балки бир нечталаб ўзбек тилидаги муқобиллари мавжуд.

Бугунги кунда ушбу муаммога жамиятда яшаётган ҳеч бир одам безътибор бўлмаслиги, ҳамиша масъулият билан қараши лозим. Лозим бўлса, бундай хатоликка йўл қўяётган шахсларга нисбатан жазолар ҳам қўллаш лозим.

Кези келганда шуни айтиш керакки, тилимизнинг нақадар бой, жозибали ва бетакрор эканлигини сўз мулкининг султони, буюк мутафаккир бобомиз Алишер Навоий ўзининг “Муҳокамат ул-луғатайн” асарида туркий тилни форс тилига қиёслаган ҳолда унинг нақадар бетакрор ва бой имкониятларга эга эканлиги, бошқа тиллардан сира қолишмаслигини далиллар билан исботлаб берган. Алишер Навоий ушбу асарида, ҳаттоки, баъзи сўзларнинг таржимасини форс тилида ҳам топиб бўлмаслиги, туркий тилда сўзларнинг синонимларга бой эканлигини таъкидлаган ва мисоллар билан асослаган.

Тил билан жамият доимо бир-бирини тақозо қилар экан, улар ўртасидаги ҳар қандай муносабатга аҳамият билан қарашга, уларни бузмасликка шу жамиятда яшаётган ҳар бир инсон масъулиятлидир.

Юқоридагилардан хулоса қилиш мумкинки, тил билан жамиятнинг ўзиний боғлиқлиги исбот талаб этилмайдиган ҳодисадир. Тил билан жамиятнинг ўзаро алоқаси уларнинг ҳар иккиси бир вақтда юзага келганлигини, жамиятнинг жамият бўлишида тилнинг асосий вазифани бажарувчи энг муҳим омиллардан бири эканлигини, шунга кўра, тилсиз кишилик жамиятининг мутлақо бўлиши мумкин эмаслигини асослайди.

Фойдаланилаган адабиётлар:

1. ЙўлдошевИ., Шарипова Ў. Тилшунослик асослар. Т.: Иқтисод-молия 2007.
2. Холмонова З. Тилшуносликка кириш. Т.: Тошкент 2007.

INGLIZ TILINING DUNYODA TUTGAN O'RNI VA BOSHQA TILLAR BILAN TA'SIR JIHATI

Z. Saidnasimova, I bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Bugungi kun, ya'ni taraqqiyot va rivojlanish davrida inkor etib bo'lmaydiki, ko'pgina mamlakatlarda odamlar bir-biri bilan ingliz tilida muloqot qiladilar va fikr almashadilar. Xalqaro munosabatlar, savdo aloqalari, siyosat, ilmiy ishlar haqidagi ma'lumotlar ingliz tilida olib boriladi. Izlanishlarga ko'ra, dunyoda ingliz tili hukmronligi tobora kuchayib bormoqda.

F. de Sossyurning fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiati jihatidan til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko'ra sof belgi-ishoralar tizimidir. Til – ijtimoiy hodisa. Til butun jamiyat tarixi jarayonidagi tadrijiy davrlarning mahsuli sifatida umuminsoniy manfaatga xizmat qiladi.

Til taraqqiyotida qo'shni xalqlar o'rtasidagi turli munosabatlar, savdo-sotiq va madaniy aloqalar, urushlar o'z ta'sirini qoldiradi. Bunday hodisalar ba'zi tillarda ko'proq, ba'zilarida esa kamroq aks etadi. Masalan, hozirgi zamon ingliz tili lug'at boyligining faqat 30 foizi german ildizlariga oid, qolganlari fransuz, dat, lotin, yunon, kelt va sharq tillaridan kirgan so'zlardir. Tillarning bunday munosabatlarini tillar hamkorligi deyiladi. Tillar hamkorligida tillarning chatishuviga odatda katta ahamiyat beriladi. Ba'zi olimlarning fikricha, har qanday hamkorlik ham tillar chatishuviga kiravermaydi. Masalan, bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashtirilishi tillar chatishuviga kirmaydi, chunki o'zlashtirilgan so'zlar tilning grammatik qurilishiga o'z ta'sirini o'tkazmaydi: arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan so'zlar bunga yaxshi misol bo'la oladi. Bizga ma'lumki, har bir davrda umumiy til, ya'ni barcha tillar ustidan o'z hukmronligini o'rnatgan xalqaro til mavjud bo'lgan. O'rta asrlarda Sharqda

bunday til vazifasini arab tili, Yevropada esa lotin tili bajargan. Davlat ishlari, ilm-fan, savdo aloqalari ham shu tillarda yuritilgan. Ta'lim sohasida Sharqda arab tili va yozuvi hukmron bo'lib, O'rta Osiyo olimlari ham, boshqa Sharq mamlakatlarining olimlari kabi o'z asarlarini arab tilida yaratganlar. O'sha davming yirik olimlaridan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar o'zlarining asarlarini arab tilida yozganlar. Bularning hammasi arab tilidagi ba'zi so'z va iboralarning o'zbek tilida o'zlashib qolishiga sabab bo'ldi. Lotin tili ham Yevropada shunday vazifani bajargan.

Hozirgi kunda esa bunday vazifani ingliz tili bajarmoqda hamda boshqa tillarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xalqaro munosabatlarni olib borishda, savdo aloqalarini rivojlantirishda, ilmiy, siyosiy xabarlamani yetkazishda ingliz tili hukmronlik qilib kelmoqda. Shu yillarda dunyo bo'ylab 380 million odamning o'z ona tili sifatida, 250 million odamning esa ikkinchi til sifatida foydalanishi aniqlandi. Umumiy xulosalarga qaraganda, hozirgi kunda dunyo bo'ylab ingliz tilini o'rganuvchilar 1-1,5milliardni tashkil qiladi. 2050-yilgacha dunyoning yarim aholisi ingliz tilida mukammal darajada foydalanishi kutilmoqda.

Tilshunoslar odamlar gaplashayotganda ingliz tilidan qay darajada foydalanishiga qarab 3 toifaga turkumlab chiqishdi. Birinchi toifa odamlari ingliz tilidan o'z ona tili sifatida foydalanadi. Asosan shu tilda muloqot qiladi. Bu toifadagi odamlar asosan AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Islandiya va Janubiy Afrikada yashaydi. Ikkinchi toifa odamlar ingliz tilidan ikkinchi til sifatida foydalanadi. Bu toifaga kiruvchi odamlar odatda Britaniya mustamlakalarida, hududlarida, Hindiston, Nikaragua, Singapur, Filippin va Gonkong hududida yashaydi. Uchinchi toifa odamlar ingliz tilidan xorijiy til sifatida foydalanadi. Odatda ular Buyuk Britaniyaga yaqinligi va aloqasi bo'lmagan hududlarda istiqomat qiladi. [3, 42]

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyo bo'ylab hozirgi kunda 60 ta mamlakatda ingliz tili davlat tili sifatida qabul qilingan. 85 foiz xalqaro tashkilotlarda ingliz tili umumiy til sifatida ishlatiladi, dunyodagi xatlarning 75 foizi ingliz tilida yoziladi va bosma nashrlarning 80 foizi ingliz tilida nashr qilinadi. Ingliz tilining xalqaro aloqalarda hukmronligi ayniqsa ilm-fan sohasidagi izlanishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi jahon urushidan keyin ingliz tili o'miga nemis tili asosiy til sifatida qo'llanilgan. Lekin ikkinchi jahon urushidan keyin (Sovuq urush davridan so'ng) ingliz tilining hukmronligi tiklandi. Professor Y. Garfild tomonidan olib borilgan izlanishlarga ko'ra, 1997-yildan chiqqan ilmiy ma'ruzalarning ming nusxadan ortiqrog'i, ya'ni 925,000 nusxaning 95 foizi ingliz tilida yozilgan. Ingliz tili bugungi kunda shu darajada

tarqiqiyot qildiki, hatto ba'zi mamlakatlarda davlat tili darajasiga chiqdi. [3, 98] Misol uchun, Arab davlatlaridan Qatarda ingliz tili davlat tili deb e'lon qilingan. Afrika va Osiyo qit'asidagi davlatlarda ham garchi inglizlar yashamasa ham ingliz tilida so'zlashuvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ingliz tilining boshqa tillarga ta'siriga oid faktlarni ko'rib chiqsak. Rus tilini oladigan bo'lsak, ingliz tilidagi so'zlarni hayotning turli sohalarida: siyosat, biznes, savdo-sotiq, iqtisod yo'nalishlarida uchratish mumkin. Misol uchun, *вотировать* — to vote, *лоббировать* — to lobby, *дефолт* — default, *рецессия* — recession, *дилер* — dealer, *секьюрити* — security. Keyingi yillarda ukrain tiliga ham ingliz tilidan ko'plab chet so'zlar kirib keldi. Bundan tashvishga tushgan odamlar inglizcha so'zlarning ekvivalentini o'ylab topishdi. Masalan: *briefing* — зустріч, *dividend* — прибуток, *know-how* — знаю як.

XX asr o'rtalari sotsiologlar tomonidan "erimoq" davri bo'lib kirdi. Sububi, bu davrda chetdan kirib kelgan ko'pchilik so'zlar ukrain tiliga singishib ketti. Masalan *детектив*: *автостоп* — autostop, *бестселер* — bestseller, *вестерн* — western, *дизайн* — dizayn, *концерн* — konsern, *интервью* — intervyu, *стресс* — stress, *таймаут* — time out va boshqalar. Ba'zi turk tilshunos olimlari o'z ona tillari haqida qayg'urmoqdalar va o'z millatini ona tilini himoya qilishga chaqirmoqda. Ular aniq va tabiiy fanlar, texnikaga oid so'zlarni kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik, shu so'zga mos turkcha variantini o'ylab topishga undashmoqda. Oxirgi so'rovnomalarga ko'ra, Anqaradagi faqat 5 foiz magazin turkcha nomlanadi. Qolgan qismi ingliz tilida. Hindlarda ham shu muammo kuzatiladi. Hindistonda yashovchi aholining ko'pchiligi ingliz tilida gaplashadi. Hindistonda 55 ga yaqin davlat tili mavjud. Shularning qatorida ingliz tili ham davlat tili deb e'lon qilingan. Bu jarayonga qarshi hindlar ingliz tili hukmronligini cheklashga harakat qilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir millat bu jarayonni har xil qabul qiladi. Ruslar inglizcha so'zlarni kirib kelishiga qarshilik bildirmayapti. Ukrainlar ham ingliz tili ta'siriga deyarli e'tibor bermadi. Lekin turklar bu jarayonga mutlaqo qarshi. Ular o'z ona tillarini saqlab qolishga harakat qilishmoqda.

Ingliz tili bizning mamlakatda ham rivojlanib bormoqda. Bu, ayniqsa, oxirgi 10 yil ichida ko'zga tashlanadi. 2012-yilda chet tillari haqida maxsus qaror qabul qilinishi ham fikrimizning dalilidir. Ingliz tilida televidenie, radioeshittirishlar, kundalik gazetalar chop etilmoqda. Ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan maktab, akademik-litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda. Hattoki, bog'cha yoshidagi bolalar ham ingliz tili bilan tanishtirilmoqda. O'quvchilar ingliz tilida fikr almashib, o'z fikrini bemalol bayon qilishi bunday samarali metodning to'g'ri tanlanganligidan

dalolatdir. O'zbek tilida ham ingliz tilidan kirgan so'zlarni uchratish mumkin. Masalan: kompyuter, offis, litsenziya, marketing, menejment, investitsiya, kredit, assotsiatsiya. XXI asr yangi texnologiyalar asri. Yangidan-yangi texnik ixtirolar dunyo bo'ylab yaratilmoqda. Tabiiyki, bu ixtirolar o'zi bilan birgalikda o'sha mamlakatga yangi so'z kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu jumladan, O'zbekistonga ham. Bu jarayon esa yoshlarni ingliz tilini chuqurroq o'rganishga, zamon bilan hamnafas yashashga undamoqda.

Har bir davrda odamlar bir-birini tushunishi uchun umumiy til mavjud bo'lgan. Hozirgi kunda bu vazifani ingliz tili bajarmoqda. Har bir sohada yangi inglizcha so'zlar kirib kelmoqda. Ba'zilar bu holni zamon talabi deb hisoblashayotgan bo'lsa, ayrim xalqlar bu holga mutlaqo qarshi. Shunday ekan, tildan qay darajada foydalanish millatning o'ziga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. - T.: Fan, 2009
2. Sodiqov A., Abdurazimov A., Irisqulov M., Tilshunoslikka kirish. - T. 1975
3. Crystal D. English as a global language. - T.: Cambridge university, 2003

YEVROPANING O'LIB BORAYOTGAN TILLARI VA ULARNI ASRASH TAJRIBASI

M. Hayitova, I bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Bugungi kunda insoniyat o'zaro muloqot qilayotgan 6000 dan ortiq (bu raqam turli manbalarda 2500 dan 5000 gacha va undan ortiq shaklda ko'rsatiladi, negaki turli tillarda bir til dialektlari orasidagi farq juda shartli hisoblanadi) tillarning nega bu qadar ko'pligiga turli afsonalar orqaligina sabab izlanadi.

UmumYevropa merosining muhim qismi Yevropada so'zlashiladigan tillar va tillarni o'rganishni kuchaytirish sanaladi. Bu holat ko'p yillardan buyon "multilingualizm", ya'ni Yevropa jamiyatining siyosatida muhim o'ringa ega bo'lgan. Yevropada ko'pgina so'zlashiladigan tillar mintaqaviy darajada bo'lib, ularning soni ozchilikni tashkil etadi. Bora-bora bu tillar faqatgina og'zaki tilda ishlatilishi mumkin. Bu tillarni himoya qilishga bo'lgan urinish o'tgan o'n yilliklarda Yevropa va xalqaro siyosatning mavzusi bo'lgan. Faqatgina mintaqa bo'ylab tarqalgan tillarni targ'ib qilish maqsadida Yevropa Kengashi, shuningdek, Doiraviy konvensiya ham ish olib bordi. Hattoki YuNESKO ham bu tillarning yo'qolib ketish sabablarini o'rganmoqda. Bunga qarshi choralarni aniqlash jarayonida tillarni saqlab qolishga harakat qilinmoqda. Bu borada Yevropa ittifoqi doirasida 2001-2008-yillar mobaynida tillarni o'rganish targ'ib qilindi. Yevropa komissiyasi birinchi bo'lib 2005-yilda mintaqaviy tillar uchun

adabiyot joriy etdi. 2011-yilda esa bir qator gazeta va jurnallarda chop etilishni boshladi. 2011-yilda chop etilgan "Lissabon shartnomasi"da kam tarqalgan tillarni ko'p sonli tilga aylantirish va ularni yetarli darajada moliyalashtirish, huquqiy himoya qilish asoslari ko'zda tutilgan edi. Shunga qaramay, bu tillarning yo'qolib ketish xavfi kuchli, shuning uchun bu o'ziga xos e'tiborni talab qiladi. [1, 2]

Lingvistik "Qizil kitob" bayonoti bilan amerikalik tilshunos, professor David Xarrison birinchilardan bo'lib chiqish qilgandi. Lining ma'lum qilishicha, tillar sayyoradagi tirik tabiat vakillariga nisbatan tezroq "o'layotgan" ekan. E'tibor beraylik, ayni paytda yer yuzidan yo'qolib ketish xavfi mavjud bo'lgan o'simlik turlari 8%, sut emizuvchilar turlari 18% ni tashkil etadi. Bu hisob-kitobda tillar, yuqorida ko'rsatilganidek, 40% dan pastga tushmayapti. Tabiat qonunlarining ustuvorligiga hech kim shubha bildirolmaydi, chunki ular mavjudlikning asosiy tamoyilini tashkil etadi.

G'arb olimlari hattoki yo'qolayotgan tillar xaritasini ham yaratishdi: 1) Avstraliyaning shimoliy hududi; 2) Boliviya, Braziliya, Kolumbiya, Peru va Ekvadorning hindular istiqomat qiluvchi hududlari; 3) AQShdagi Oregon va Vashington shtatlari hamda Kanadaning Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasi, Rossiyaning Markaziy Sibir hududi; 4) Rossiyaning Uzoq Sharq shimoli. Ushbu mintaqalar qo'riqlashning imkoni bo'lmagan lingvistik qo'riqxonalariga o'xshaydi. Ularda kichik xalqlar, qabilalar tillari turli sabablar bilan izsiz yo'qolib ketmoqda.

Bugun dunyoda 6000-7000 til bor deb qaraladi. Shu tillardan 2000 tasining hozirgi paytda 1000 dan kamroq so'zlashuvchisi bor. Osiyoda yashovchi 97% aholi dunyo tillarining 4% ida gapiradi, aksincha, dunyodagi tillarning 96% ida atigi 3% aholi gaplashadi. [1, 250] Bu holat Yevropadagi 255 ta tillarda qayd etilgan bo'lib, ular nisbatan juda kam turmush tarziga ega.

Yevropa ittifoqi doirasida 128 til YuNESKO tomonidan yo'qolib borayotgan tillar sirasiga kiritilgan. Ularning 22 tasida zaiflik sezilmoqda. Bular — bask va uels tillari; 40 tasi esa xavf ostida — karel, friul va sorbka; 41 ta til juda ham qattiq xavf ostida — kashub, shotland, saam va breton kabi. Qolgan 10 ta til esa o'lim ostonasida: livon va korn. 1950-yildan boshlab Yevropadagi 11 ta til o'lik hisoblanadi. Bular — mozarabik, kemi saam va aldermeyni o'z ichiga oladi. [1, 3]

Yevropada tillar vaqt o'tgani sayin yo'qolib bormoqda. Bu tillarni yo'qolishini oldini olish maqsadida g'arb olimlari tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Jumladan, XX asr boshida bittagina korn tilida so'zlaydigan ayol tilshunoslar tomonidan topilgan. [2, 199-227]

Britaniyada dastlab kelt tillaritarqalgan, keyinchalik german qabilalarining kirib kelishi natijasida bu tillar bora-bora o'z ahamiyatini yo'qotgan. Shvetsariyada italyan, fransuz, nemis tillari rasmiy til darajasiga ko'tarilgan. Shulardan nemis tili asosiy til sanaladi. Belgiyada esa ikkita til, ya'ni niderland va fransuz tillari tarqalgan. Ispaniyada milliy kamchilik tillaridagi maktablar tashkil etilmoqda.

Shu o'rinda "tillarning o'lish sabablari" jumlasiga aniqlik kiritish kerak. Olimlar ushbu muammoning bir necha sababini ko'rsatadilar. Albatta, yanu globalizatsiya. Ushbu ijtimoiy hodisa bizning sabablarimizda ham birinchi o'rinni egallaydi. Umumlashish, birikish davrida tillarning rang-barangligini saqlab qolishning imkoniyatlari juda past darajada. Tabiiy jarayon bo'lmish migratsiya ham tillar sonining kamayishiga olib keladi. Bir joydan boshqa joyga ko'chib o'tgan odamlar o'z tillarini yangi hududga olib o'tadilar yoki o'zlari o'sha hudud tiliga moslashadilar. Katta tillarning kichik tillami "yeb qo'yayotgani" esa ortiqcha izoh talab qilmaydigan sabab. Umuman olganda, bu omilni kam sonli so'zlashuvchilarga ega tillarning birinchi dushmani deyish mumkin. Hech bir millat o'z tilining butkul yo'qolib ketishi u yoqda tursin, hatto mavqeining ham pasayishini istamaydi. Ammo o'layotgan mavjudotdan o'lmaslikni iltimos qilish foydasiz. Olimlar tillarning yo'qolishini tabiiy jarayon deb hisoblaydi. Olimlarning fikricha, o'lik tillar, yo'qolib borayotgan tillar fanga noma'lum ko'plab o'simlik va jonivorlarni kashf etishda yordam berishi mumkin. Masalan, Braziliyada yashovchi kapayo hindulari arilarning 60 dan ortiq turini farqlay oladilar. Ularning har biriga alohida nom qo'yilgan. Ayni paytda ispan va portugal tillari ta'sirida tanazzulga uchrab borayotganlar qatorida And tog'larining sharqiy qismida qo'llaniluvchi kallavaya tillari guruhini keltirish mumkin. Biroq mazkur tillar guruhida dorivor o'simliklar haqidagi ma'lumotlarni boy berib qo'ymaslik maqsadida maxfiy qadimiy til ham saqlanib qolgan. Ehtimol, shu kabi qimmatli bilimlarni o'zida jamlagani uchun ham ushbu til 400 yildan ortiqroq vaqt mobaynida umr ko'rib kelayotgandir.

Ingliz tili — zarurat, yapon tili — havas. Tillarning bugungi kundagi nufuzi — anchayin aniq manzara. So'zlashuvchilar soniga ko'ra dunyoda eng keng tarqalgan tillar: 1. Xitoy (1 mlrd 100 million); 2. Ingliz (450 million); 3. Ispan (250 million); 4. Hind (200 million); 5. Arab (150 million); 6. Bengal (150 million); 7. Rus (150 million); 8. Yapon (130 million); 9. Portugal (130 million); 10. Nemis (100 million).

G'arb olimlari bu borada ingliz tili hali uzoq vaqt davomida yetakchilikni o'zida saqlab qolishini ta'kidlashmoqda. Bugungi kunda mazkur tilda 450

million kishi so'zlashadi. To'g'ri, xitoy tilida so'zlashuvchilar soni ko'p, ammo bu raqamlarning asosiy ulushi xitoyliklarning o'ziga to'g'ri kelishini ham inobatga olish lozim. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, yashovchanlik bo'yicha keyingi o'rinlarda ispan, keyin fransuz va nemis tillari turadi. Mazkur tillarning barchasida deyarli 100milliondan ortiq odam gaplashadi.

Shuningdek, fransuz tiliga nisbatan talab ortgani haqidagi ma'lumotlar hali ham bor. Lekin ingliz tili xalqaro til nuqtayi nazaridan birinchilikni qo'ldan bermaydi. Tinimsiz oldinga intilayotgan xitoy tili bilan birgalikda yapon tili ham diqqat markaziga tushib borayotir. Lekin yapon tilini o'rganish zarurat emas, ko'proq havasdir. Odamlar bu tilni undan xalqaro muloqotda foydalanish uchun emas, shunchaki til ularga yoqqani uchungina o'rganmoqda. Ammo olimlar tillarni saqlab qolishga, o'lik tillarni esa o'rganishga harakat qilaveradilar. Zero, ulardagi yashirin qimmatli ma'lumotlar bunday mashaqqatli izlanishga arziydi.

Xulosa o'rinda shuni qayd etish mumkinki, jonli holatdan nafaollik kasb etayotgan tillarni asrab qolish masalasi jahon tilshunoslari, nafaqat tilshunoslari, balki butun hamjamiyatning zimmasidagi dolzarb mas'uliyatdir. Bu yo'ldagi har bir ijobiy natijalar zaminimiz rang-barangligiga poydevor vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Endangered languages in Europe. CEO Network to promote linguistic diversity.
2. Ferdinand, Siarl (2013). Brief history of the Cornish language, its revival and its current situation.
3. Yo'ldashev I., Sharipova O'. Tilshunoslikka kirish.-T.: I-M, 2007
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, T.: 2001.
5. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish.-T, 2005
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili.-T.: Universitet, 2006

SON TURKUMINING AYRIM MUAMMOLI MASALALARI XUSUSIDA

M. Jo'rayeva (ToshDO'TAU)

Ma'lumki, son so'z turkumi shaxs va narsaning son-sanog'ini va aniq miqdorini ifodalash uchun xizmat qiladi. Son otga bog'lanib, uning sanog'ini, miqdorini, miqdorga bog'liq tartibni, darajasini bildiradi. Bu holat hozirgi o'zbek adabiy tilidagi manbalarda ham, tarixiy manbalarda ham aynan keltiriladi. "Sonlar bir narsaning – bir kishining (qandaylig'ini emas) nechalig'ini-qanchalig'ini ko'rsatsalar ham so'zlar aro turishlari sufatdan ayirmasizdir.

Shuning uchun bularni ham sufatlardan sanamoq mumkindir.”¹⁷ Bunda Fitrat sonlarning sifat tarkibida o‘rganish lozimligini aytib o‘tadi.

Sonning grammatik belgilari:

1. Son yasalmaydi, lekin sondan boshqa so‘z turkumlari yasaladi. Biroq Fitrat fikri-cha, sonlar yasalish xususiyatiga ega. U sonlarni tub va yasama sonlarga bo‘ladi. Tub sonlarga sanoq sonni, yasama sonlarga esa boshqa son turlarini kiritadi. Yasama sonlar sanoq songa *-nchi, -inchi, -tadan, -lab, -ov, -larcha* va boshqa qo‘shimchalarni qo‘shish orqali hosil qilinadi, deb qaragan.

2. Son otlashadi va barcha gap bo‘laklari vazifasida kela oladi.

Ega: *Ikkalamiz g‘ildiraklarni jaranglatganicha yugurib ketdik.*
(O‘.Hoshimov)

Ot kesim: *Go‘yo g‘ildiraklar ham dutorning ikki tori edi.* (O‘.Hoshimov)

To‘ldiruvchi: *Ikkovlariga achindim.* (X.Do‘stmuhammad)

Aniqlovchi: *O‘rinboy tomoq qirdi va ikki barmog‘ini ko‘rsatdi.*
(X.Sultonov)

Hol: *Mana bir yil bo‘ldiki o‘g‘lidan xat olmaydi.* (O‘.Umarbekov)

3. Son kirish so‘z vazifasida keladi: *Birinchiidan, yoshlarimiz tarbiyasiga barchamiz mas‘ulmiz.*

4. Sonlar o‘rtasida sinonimlik, omonimlik, antonimlik, paronimlik, ko‘p ma‘nolilik mavjud:

- Sinonim: *ikki-jo‘ra, juft; chorak-to‘ridan bir;*

- Omonim: *uch, qirq, yuz;*

- Antonimlik: *nol bilan undan katta bo‘lgan sonlar;*

- Paronimlik: *yetti-yetdi, enlik-ellik;*

Ko‘p ma‘nolilik: *bir so‘zi ma‘noni kuchaytirish, gumon, tenglik ma‘nolarini ifodalaydi.*

5. Son otlashadi: Ikkisini chaqiring. Va otga ko‘chadi: yeti, qirq, yigirma, to‘qqiz kabi marosim otlari. Sonning ma‘naviy guruhlariga. Sonlar ma‘no guruhiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi. Bular miqdor son va tartib sonlardir. Miqdor sonlar narsa miqdorini sanash yo‘li bilan aniqlaydi. Miqdor sonlar o‘zi ko‘plik ma‘nosini anglatgani uchun ko‘plik affiksi qabul qilmaydi.¹⁸

Masalan: *Istiqlol – to‘rt yozni ko‘rgan o‘z bolang, ko‘ksinga mahkam bos, xalqim, umidvor* (O.Hojiyeva). *Nega yapon yuz yil yashar-u o‘zbek buncha yoshga bormaydi?* (E. Vohidov)

Miqdor son o‘z navbatida quyidagi turlarga bo‘linadi. Bular: sanoq son, dona son, chama son, taqsim son, jamlovchi son, kasr sonlardir.

¹⁷Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar 4-jild. "Sarf" T.: "Ma'naviyat" 2006. 151-bet

¹⁸Sapayev Q.Hozirgi o‘zbek tili. T.:2009. 128-bet.

Tilshunoslikda boshqa soʻz turkumlari singari son soʻz turkumida ham muammoli vaziyatlar kuzatilmoqda. Quyida shunday muammoli vaziyatlarni koʻrib oʻtamiz. Taqsim son hosil qiluvchi – *tadan* qoʻshimchasi murakkab qoʻshimcha sanaladi. Tarixiy-taraqqiyot jarayonida – *ta* va – *dan* qoʻshimchalari qoʻshilib ketgan va murakkab taqsim son qoʻshimchasi yuzaga kelgan. Masalan: *uchtadan qalam, besh-ta-dan olma, qirqtadan daftar, toʻrttadan toʻplam*. Hisob soʻzlar bilan kelganda esa –*tadan* qoʻshimchasi oʻzgarishga yuz tutadi. Yaʼni, *son+hisob soʻz+dan* qoʻshimchasi shaklida boʻladi. Bunda hisob soʻz –*ta* qoʻshimchasi oʻmida qoʻllanadi. – *dan* qoʻshimchasi esa chiqish kelishigi shakli emas. Masalan: *Har bir xonadonga uch boshdan qoramol beriladi. Bahor kelishi bilan har birimizga uch tupdan koʻchat ekish vazifasi topshirildi. Demak –tadan qoʻshimchasi hozirgi kunda murakkab taqsim son qoʻshimchasi sanaladi.*

Shuningdek, jamlovchi son hosil qiluvchi –*ovlashib* qoʻshimchasi haqida ham turlicha qarashlar mavjud. Garchi “*Oʻzbek tilining izohli lugʻati*”da ushbu qoʻshimcha haqida maʼlumot uchramasa-da, koʻplab olimlar oʻzlarining ilmiy asarlarida bu qoʻshimcha haqida turli fikrlarni ilgari surganlar. Jumladan, A. Abduazizov oʻzining “*Oʻzbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi*” kitobida –*ala*, –*ovlab*, –*ovlashib*, –*ovlon* kabilarni jamlovchi sondagi murakkab qoʻshma affiks, deb qaragan. Qisman –*ovlashib* ikki va undan yuqori sonlarga qoʻshilib, shaxslarning jamini bildiradi. Bu qoʻshimchani ikkovlashib soʻzi misolida koʻrib chiqadigan boʻlsak, –*ov* jamlovchi son qoʻshimchasi ikki soniga qoʻshilib ikkov jamlovchi sonini hosil qiladi. Masalan: Ikkovimiz uyga birga qaytdik. Ikkovi bu ishni eplay olishmadi. Ikkov soʻziga feʼl yasovchi –*lash* qoʻshimchasini qoʻshib feʼl yasalgan. Bu qoʻshimcha bir soniga qoʻshilib birlash feʼlini ham yasaydi. Ikkovlash feʼliga ravishdoshning –*ib* qoʻshimchasi qoʻshilib, ikkovlashib ravishdoshini hosil qiladi. *Ikkovlashib* ravishdoshi feʼlga bogʻlanib feʼlning holat ravishdoshini ifodalaydi. Solishtiring: *Ular birlashib bu muammoni hal etishdi. Ikkovlashib bu masalani hal qildik. Biz birlashib yuksak choʻqqilarni zabt etamiz. Ustoz bergan topshiriqlarni ikkovlashib bajardik.* Jamlovchi sonlar sifatga emas otga yaqin turadi. Fitrat jamlovchi sonlarni sanalmishsiz sonlar deb ataydi va “Sanalmishsiz sonlarni sufatlar qatorida emas, otlar qatorida sanamoq tuzukroq boʻlur”¹, - deydi. Demak, jamlovchi sonlar otga otga yaqin turar ekan gapda ega vazifasida qoʻllanishi kerak. Jamlovchi sonning –*ov*, –*ala*, –*ovlon* qoʻshimchalarini olgan soʻzlar gapda ega vazifasida kela oladi. Masalan: Bu ishni uchovimiz bajardik. (uchovimiz-ega) Toʻrtala oʻquvchim ham testlardan aʼlo baho olishdi. (toʻrtala-ega) Oltovlon ola boʻlsa ogʻzidagin oldirar. (oltovlon-ega) Ammo –*ovlashib* qoʻshimchasini olgan soʻzlar

¹Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar 4-jild. “Sarf”. T.: Maʼnaviyat. 2006. 152-bet

gapda ega vazifasida kela olmaydi. Ular gapda ko'pincha ravish holi vazifasida keladi. Masalan: Biz bir kitobni ikkovlashib o'qidik. (ikkovlashib-ravish holi) Qo'qonga to'rtovlashib sayohatga bordik. (to'rtovlasib-ravish holi) Navoiy "Xamsa" sini uchovlashib o'rgandik. (uchovlashib-ravish holi) Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, -ovlashib qo'shimchasi jamlovchi sondan ko'rinib fe'lning ravishdosh shakliga yaqinroq turadi. Bu qo'shimchada harakat-holat ma'nosi kuchliroq.

Shuningdek, XV-XIX asrlar davomida sanoq sonlarga egalik affiksleri qo'shib, jamlovchi sonlar ma'nosi ifodalangan va ba'zan ot o'rnida qo'llangan Navoiy, Bobur, Abulg'ozil Bahodirxon va boshqa ko'pgina adabiyot namoyondalari asarlarida bunday so'zlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: Ikkisidan ikki qiz bo'lub (Z.M.Bobur), bu ikkilarini (Vosifiy "Badoye ulvaqoye", emdi uchingiz (Abulg'ozil Bahodirxon "Shajarayi turk")¹

Yuqorida son so'z turkumida uchraydigan muammoli vaziyatlarga to'xtalib o'tdik. Bu vaziyatlar haqida ko'plab olimlarimiz o'z fikrlarini bildirganlar. Bugungi o'zbek tilshunosligi o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ygan. Tadqiq qilingan masalalar ham o'zining yangi talqinlarini kutmoqda. Bu esa tilning morfologik sathi birliklarini ham tilshunoslikning zamonaviy tadqiq yo'nalishlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishini taqozo qiladi.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA SO'Z YASALISH MUAMMOLARI

X. Mamirova (ToshDO'TAU)

Har bir tilning lug'at tarkibi doimo o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi. Ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy sohalarida paydo bo'lgan yangi-yangi tushunchalarni nomlash ehtiyoji tufayli tilda yangi so'zlar yuzaga keladi.

Tilda yangi so'zlar ikki xil usul bilan yuzaga keladi:

- 1) boshqa tillardan so'z olish asosida
- 2) tilning o'z ichki imkoniyati asosida

Har bir tilning ichki imkoniyati asosida yangi so'zlarning hosil qilinishida shu so'zda oldin mavjud bo'lgan qo'shimcha qo'shish usuli yoki so'z qo'shish usuli katta ahamiyatga ega.²

Hozirgi o'zbek tili, asosan, boshqa tildan so'z o'zlashtirish va o'z doirasida yangi ma'noli so'z hosil qilish yo'li bilan boyib bormoqda. So'z o'zlashtirish til rivojidadagi umumiy ichki qonuniyatlardan biri sifatida muhim vazifa bajaradi: til o'zining lug'aviy imkoniyatlarini kengaytiradi, tilda o'ziga xos ma'no

¹XV-XIX asrlar o'zbek tili morfologiyasi.A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti.T.:Fan.1990.109-bet
²ErkaboyevaN. "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" T.: "Akademnashr" 2014.140-bet.

nozikliklari yuzaga keladi. Tillarning o'zaro aloqa va hamkorligi mazkur tillar omisida so'z almashishga, bir tilde ikkiknchi tilga so'z o'tishiga sabab bo'ladi.¹

Boshqa tildan so'z o'zlashtirish oson usulligi bilan birga ayni paytda leksikamizda g'ayri so'zlarning ko'payishiga va so'zlovchilarda nutqiy artikulyatsiyasiga moslashtirish jarayonining qiyin kechish holatlari ham kuzatiladi.

Biz uchun murakkabroq, ammo yaxshi yo'l leksikamizni boyitishda o'z til imkoniyatlarimizdan foydalangan holda yangi ma'noli so'zni yuzaga keltirishdir.

O'zbek tilida so'z yasaish hodisasi atroflicha o'rganilgan. Tilshunos olimlar: A.Hojiyev, A.G'ulomov, Q.Sapayevlar bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borgan va bir qancha o'quv qo'llanmalar ham yaratgan. Bu mavzuga doir ma'lumotlar garchi mukammal bo'lmasada(yasama so'z va so'z haklfarqlanmagan),Fitrat ishlarida ham ko'zga tashlanadi. Shuningdek, QDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini professor o'qituvchilari Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda maktablar uchun Baxtiyor Mengliyev boshchiligidagi "O'zbek tilining so'z yasalishi o'quv lug'ati" ham tuzilgan.

Ma'lumki, so'z yasalish atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi: so'z yasalish hodisasi; so'z yasalish hodisasini o'rganuvchi bo'lim

Biz quyida shular, ayniqsa, so'z yasalish hodisasi haqida fikr yuritamiz.

SO'Z YASASH-tildagi bor bo'lgan elementlardan qanday usul bilan bo'lmasin yangi so'z hosil qilishdir. Ya'ni so'z yasash hodisasi yangi lug'aviy birlik hosil qilishdir. Bu jarayon lug'aviy ma'noning o'zgarishi asosida vujudga keladi. O'zbek tilshunosligi ilmiy maktabining asoschisi A.G'ulomovfikrichaso'z yasash tilning leksikasini boyitishdagi yo'llardan biridir. So'z yasashning bazasi tilning asosiy lug'at fondidir,"bu fondga uning o'zagi sifatida hamma tub so'zlar ham kiradi".

So'z yasalish tilshunoslikning ayrim bir sohasi bo'lib, bir tomoni bilan grammatikaga(so'zlarning qo'shimchalar orqali hosil qilish usuli), boshqa bir tomoni bilan esa Leksikologiyaga (so'zning ma'nosidagi siljish orqali yangi so'z hosil qilish) bog'lanadi.²

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasalishining, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usullari mavjud bo'lib, eng mahsuldor usuli qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan so'z yasash-AFFIKSATSIYADIR.

¹Жомонов Р. Сўз ўзлаштиришдаги асосий лисоний омиллар. //Ўзбек тили ва адабиёти, 2014, №5. Б.10.

²A.G'ulomov."o'zbek tili morfologiyasiga kirish" T.: "AKADEMNASHR"1953.12-bet.

Aksariyat adabiyotlarda yuqorida keltirilgan ikki usul ko'rsatilsa, ba'zi qo'llanma va darsliklarda so'z yasash usullari ham sanab o'tiladi.

Jumladan, tilshunos olim Q.Sapayev so'z yasash usullarini quyidagicha tasniflaydi:

- 1) fonetik usul: bo'z-bo'r, yangi(sifat)-yangi(ravish)
- 2) semantic usul: ko'k(osmon)-ko'k(rezavor)
- 3) affiksatsiya usuli: oq-la, ayb-sit
- 4) kompazitsiya(sintaktik) usul: bel+bog', muz+qaymoq

A.Hojiyev esa yuqorida keltirilgan so'z yasash usullarining ichida Affiksatsiya usulidan boshqa barchasini inkor etadi. Ya'ni "so'z yasash deganda, ma'lum bir lug'aviy birlikdan so'z yasovchi vosita yordamida yangi so'z hosil qilishdir"¹ deb o'z fikrini xulosalaydi. Kompazitsiya usulida so'z yasashini esa grammatik bog'lanishi sezilib turadigan birikma, leksema emas deydi. Ammo tarkibi ikki asosdan iborat bo'lsada, bu usulni ham yangi leksik birlik hosil qiladi deb olishimiz o'rinlidir. Chunki shu ikki asos yangi yagona tushunchani yuzaga keltiradi. Bunda shakl emas, ma'no muhimroqdir. Masalan, "otquloq" so'zida "otning qulog'i" tarzidagi qaralmishli birlik ekanligi sezilib tursada, bunda ot va uning qulog'I haqida emas, o'simlik nomi ekanligi ko'z oldimizga keladi.

Professor A.G'ulomov so'z yasashini:

- 1) morfologik(affiksatsiya)- suv+siz; suv+sira
- 2) kompozitsiya- qora+qurt; qush+tili(ovqat nomi)
- 3) leksik yo'l – Turdi(feldan otga), Go'zal(sifatdan otga)
- 4) semantik yo'l – ish (mehnat; ilmiy asar), bozor(savdo uchun mo'ljallangan maxsus joy; shovqun-suronli joy)
- 5) fonetik yo'l – hozir(sifat; ravish); yangi(sifat;ravish)
- 6) abbreviatura (qisqartma so'zlar) yo'li- MTS, O'ZMU, ToshMI
- 7) reduplikatsiya(so'zlarni takrorlab, qo'shuloqlanishi) - mosh-guruch; xola-xola.

Yuqorida sanab o'tilgan so'z yasash yo'llari ichida abbreviatura usulini so'z yasash hodisasini namoyon qiluvchi usul sifatida kiritib bo'lmaydi. Chunki so'z yasash deganda shaklning o'zgarishi emas, yangi ma'noning hosil bo'lishi muhimroqdir. Qisqartmalar esa bu xususiyatga ega bo'lmagan rus tili ta'sirida kirib kelgan hodisadir,xolos.

Yasalish hodisalari ichida o'ziga xos o'ringaega bo'lgan usullardan biri bu-reduplikatsiya hodisasidir.

¹A.Hojiyev."o'zbek tilida so'z yasash".T.:O'qituvchi"2007.6-bet.

REDUPLIKATSIYA - soʻzlarni juftlash va takrorlash yoʻli bilan yangi maʼnoli soʻz hosil qilishdir. Bu usulda yangi tushunchaning yuzaga kelishi leksikamizning boyishida oʻziga xoslikka ega. Ayniqsa, soʻzlarni oʻzaro juftlash yoki mavjud juft soʻzlar asosida yangi maʼnoli soʻz hosil qilish. Juft soʻzlarning jummasi ham yasama soʻz hosil qila olmaydi. Qachonki, juftlashgan birlik oʻzaro juftlashgan soʻzlarga nisbatan yangicha yoki kengroq maʼno hosil qilishiga yasalma deb qaraladi. Juftlashning asosiy semantik xususiyati umumlashtirish, jamligni ifodalashdir.

Masalan, olma-oʻrik—hoʻl mevalar; jiyda-magiz---quruq mevalar

Yuqorida ikki aniq, yaqin predmetning nomi juftlashib, shu turdagi hamma narsalarning jamini bildiruvchi jins oti hosil boʻladi.

Quyidagi juft soʻzlar yasalma emas, chunki ularda maʼno kengaymagan:

Ota-ona, chol-kampir,

- yaxshi-yomon (har xil odam); issiq-sovuq (har qanday gap) maʼnolarida qoʻllanilib yasalma hisoblanadi.

Yasama boʻlib kela oladigan juft soʻzlarni ham ayni paytda nutqdagi yusumalilik holatiga koʻra ikki turga ajratishimiz mumkin.

1. Soʻzlovchi nutqida ham, nutqdan tashqarida ham yasalma hisoblanadigan juft soʻzlar boʻlib, ularning juftlashgan koʻrinishi nutqimizda tayyor holatdagi yasalma hisoblanadi va juftlikning tarkibiy qismidagi soʻzlar bilan maʼno yaqinligi va oʻxshashligi mavjud boʻladi.

Masalan, achchiq-chuchuk--- “salat” maʼnosini ifodalab yuqoridagi qoidamizga moslashadi.

2. Faqatgina nutqda tarkibida baʼzan oʻz maʼnosini kengaytirib, nutqdan tashqarida olganimizda oʻzining alohida maʼnosiga ega boʻlgan juft soʻzlar:

Uzoq-yaqin, katta-kichik, baland-past, sabzi-piyoz, yosh-qari

SOLISHTIRAMIZ

1) Koʻz-quloq: “ogoh”, “kuzatish” maʼnolarida yasalma hisoblanadi. Bunday guruhga kiruvchi juft soʻzlarda yasalma bilan juft soʻz oʻrtasida maʼno yaqin boʻlsada, juft soʻzning tarkibiy qismidagi soʻzlar bilan yasalmani izohlab boʻlmaydi. Yaʼni bunday juft soʻzlar yangicha maʼnodagi yasalmani vujudga keltiradi.

Yuqoridagi fikrni quyidagi misollar bilan yanada oydinlashtiramiz:

Ilm-amal: kishini birovdan “sovitish” yoki birovga “isitish” uchun qilinadigan amal. ILM-amal bilan til-jagʻini bogʻlab qoʻyganki, yaxshi koʻradi-da

(Hamza"boy ila xizmatchi")¹. Issiq-sovuq so'zi ham shunday ma'noda kelganda yasalma hisoblanadi.

Oq-qora:"yaxshi-yomonni anglamoq"ma'nosida

Ichak-qorin: "juda yaqin munosabat" ni bildirganda

Oldi-qochdi: "uydirma" ma'nosida

Kuyib-pishmoq: "tashvishlanmoq", "jon-jahdi bilan ishlamoq" ma'nosida

O'rab-chirmab: bir amallab mol, kiyim bilan ta'minlab "uzatiladigan qiz"

To'yni qilib, o'rab-chirmab uzatish o'rniga bu gapni chiqarib o'tiribsiz.

Og'iz-burun:"kishilar o'rtasidagi munosabat yaqinligi" ma'nosida

Bosh -qosh:

2) Yosh-qari: "hamma" ma'nosini ifodalab, bunday yasalmalarda juft so'zning tarkibiy qismidagi so'zlar bilan yasalma o'rtasida ma'no juda yaqin bo'ladi. Ya'ni ushbu juft so'z ifodalayotgan tildagi ma'nosini nutqdagi ma'nosi kengroq ifodalab keluvchi yasalma yuzaga keldi. Ushbi fikrni asoslash uchun quyida bir nechta misollar keltiramiz:

Uzoq-yaqin: o'ringa nisbatan "hamma yer"

Katta-kichik: "hamma" ma'nosida

Osh-qatiq, osh-non: "tirikchilik uchun zarur ozuqalar" ma'nosida

O'rim-yig'im: dehqonchilik hosilini yig'ishtirib olish"mavsumi"ma'nosida

Endigi muhim vazifa o'rim-yig'imni g'oyatda qisqa fursatda uyushqoqlik bilan o'tkazish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik.

O'ng-ters: "hamma tomon" ma'nosida

Sabzi-piyoz:

Demak, tilda so'z yasalishi deganda mavjud birlikning shakliy jihatining qay holatda o'zgarishi emas, balki uning yangi ma'no ifodalab kelishi muhimdir. (jumladan, qisqartma so'zlarni yasalma deb ololmaymiz)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida yangi leksemalar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usullarida yasaladi. Hozirgi davrdagi yasalish jarayoniga fonetik usulini ham kiritish shart emas. Chunki tog' va tosh yoki ko'r va ko'z so'zlarida tosh so'zining tog'dan hosil bo'lganligi biz uchun mavhum holatda va hozirgi kunda bunday yasalish jarayonlarini ham tilimizda uchratmaymiz.

Tilimizda mavjud juft so'zlar yordamida yangi leksemalarning hosil qilinishi ham o'rganilishi va ilmiy tasnif qilinishi kerak bo'lgan hodisalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sapayev Q.Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: 2009.

¹Ozbek tilining izohli lug'ati. tomlik. 2 - jild

2. Nurmonov A. Sobirov A. Yusupova SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili II kitob. - T. Ilm ziyo. 20013.
3. Hojiyev. A. O'zbek tili so'z yasaliş tizmi. -T.: O'qituvchi. 2007.
4. Mengliyev B., Xolivorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. -T.: Akademnashr. 20012.
5. O'zbek tili izohli lug'ati
6. G'ulomov A. O'zbek tili morfologiyasiga kirish. -T.: Akademnashr. 1953.
7. Jomonov R. So'z o'zlashtirishdagi asosiy lisoniy omillar. // O'zbek tili va adabiyoti, 2014, №5.

INGLIZ TILINI O'RGATISHMASALASIGA DOIR

M. Berdibekova, o'quvchi
(GulDU qoshidagi 1-sonli AL)

Hozirgi kunda mamlakatimizda chet tillarini, asosan ingliz tilini o'rgatish tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Til – dilning kaliti, tilbilgan – el biladi, degan gaplar bejizga aytilmagan. Respublikamizda 2013-2014-o'quvyilidan boshlab 1-sinf o'quvchilariga ingliz tili fani o'qitilmoqda. Tabiiyki, bu narsa har bir fan o'qituvchisidan katta mas'uliyat talab qiladi. Dono xalqimiz yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir, deganlaridek 1-sinf o'quvchilariga ingliz tili fanini o'qtishdan ko'zlangan asosiy maqsad ulardan bilimli, yetuk kadrlar tayyorlashdir.

Bolajonlarning kinestetik (harakat va o'yin orqali) o'rganuvchi ekanligini hisobga olgan holda ularning fikrini o'ziga jalb qila oladigan, ularni zo'rictirib qo'ymaydigan va shu paytgacha qo'llanilmagan eng yangi va eng k'ayrioddiy usullarni qo'llash kerak deb o'ylaymiz. Ingliz tilini o'rgatishning ilk bosqichlaridan biri – bu ularning so'z boyligini oshirishdir. Bu jarayonni qanday olib borish o'qituvchining malakasi va mahoratiga bog'liqdir. Quyida kichkintoylarga yangi so'z o'rgatish, o'rgangan so'zlarni amalda qo'llash va takrorlashga oid bir nechta usullarni keltirganmiz.

1. DEMONSTRATING PICTURES AND VIDEOS (rasmlar va videolar namoyishi): Barchamizga ma'lumki, XXI asr informatsion texnologiyalar asri bo'lib, bugungi kunda hatto qishloq maktablarida ham ingliz tili xonalarida noutbuklar, proyektorlar va hatto interaktiv doskalar mavjud. Bu kabi qulayliklar o'qituvchilarga fanni yanada chuqurroq o'rgatishlarida yordam bermoqda. Bu qulayliklardan unumli foydalangan holda bolajonlarga nafaqat rasmlar, balki videoroliklar yordamida ham samarali dars o'tish mumkin. Oddiygina misol, siz bolajonlarga (ANIMALS) "HAYVONLAR" mavzusini o'tmoqchisiz. Sensrli doskalardan foydalangan holda nafaqat

hayvonlarning rasmini, balki ularning harakatlanishi, ular qayerda yashashi-yu, nima yeyishini ham o'rgatishingiz mumkin. Bu esa kichik yoshdagi o'quvchilarning e'tiborini tortmay qo'ymaydi, albatta. Ular buni qiziqib tomosha qilishadi va bir vaqtning o'zida bir necha so'zni eslab qolishadi.

2. REALIA: Kichkintoylarni o'qitishning keyingi bosqichini realia deb nomladik. Bunda o'quvchilar mavzuga doir barcha ko'rgazma materiallarini virtual emas, balki real holatda ko'rishadi. Aytaylik, siz bolajonlarga (FRUITS and VEGETABLES) "MEVA va SABZAVOTLAR" mavzusini o'tmoqchisiz. Agarda sinfxonaga kundalik turmushda iste'mol qilinadigan va ular har kuni ko'radigan meva hamda sabzavotlarni olib kelsangiz, bolajonlar bu mevalarni tezda eslab qolishadi. Buni faqatgina meva va sabzavotlar mavzusida emas, balki boshqa mavzularda ham qo'llash mumkin. Eng muhimi, har bir dars bir-birin itakrorlamaydigan, o'zgacha bo'lsa bolajonlarni zerikib qolishidan saqlab, ularning har doim bu fanni intizor bo'lib kutishiga undaydi.

3. COOPERATION WITH PARENTS (ota-onalar bilan hamkorlik): Bu bosqich ota-ona ko'magidan foydalanish deb nomlanadi. Ya'ni, ta'lim-tarbiya ishlari faqatgina o'qituvchilar zimmasida bo'libgina qolmay, ota-onalar ham bunga birdek mas'ul ekanligini anglatadi. Bundan tashqari kichik yoshdagi bolalarga ota-onaning ta'siri o'qituvchilikidan ko'ra katta bo'lib, kichkintoylar ko'proq vaqtlarini ota-onasi yonida o'tkazishadi. Tabiiyki, kichkintoylarga ingliz tilini o'rgatish o'qituvchidan katta mas'uliyat talab etadi. Ota-onalar qandayqilib farzandlariga ingliz tilini o'rgatishlari mumkin? degan savol tug'ilishi, tabiiy. Albatta, darsni tajribali o'qituvchilar o'tkazishadi. Ota-onalar esa o'qituvchilarga farzandlari maktabda o'rgangan narsalarni uyga kelganda takrorlashlariga yordam berishadi. Zero, takrorlash bilimlar onasidir, degan hikmatli so'z bejizga aytilmagan. Bu jarayonni ota-ona o'qituvchining ko'magi bilan amalga oshiradi. Aytaylik, darsda (DOMESTIC and WILD ANIMALS) "UY VA YOVVOYI HAYVONLAR" mavzusi o'tildi. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchiga o'tilgan mavzudagi barcha hayvon nomlarini tarjimai bilan varaqchalarga yozib berib yuboradi. U yda esa ota-onalar varaqchalarni hayvon o'yinchoqlarga yelimlaydi va farzandlari bilan bu hayvon nomlarini takrorlashadi. Bolajonlarni zeriktirib qo'ymaslik uchun har kuni 30-40 daqiqa shug'ullanish maqsadga muvofiq.

4. SINGING AND DANCING (Qo'shiq va raqs): quyidagi bosqich "Kuylash va raqsga tushish" deb nomlanadi. Kuylash orqali o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, raqsga tushish orqali esa ularga erkinlik berish va bir oz dam olishlariga yordam berish mumkin. Raqs harakatlaridan qo'shiq nima haqida

ekanligini bilib olish mumkin. Bu fikrni quyidagi misollar orqali isbotlab bermoqchiman.

O'quvchilarga (SEASON) "FASLLAR" mavzusi o'tilmoqda. Ularga qaysi faslda nima sodir bo'lishi, qaysi fasl sovuq, qaysi fasl issiqligini ko'rkona yodlatgandan ko'ra qo'shiqlar va unga mos harakatlar bilan o'rgatilsa, aminmanki, bolajonlar buni ancha vaqt eslab yurishadi.

5. CARTOONS (Multifilmlar): Barcha kichkintoylarning jon-udili multifilmlar ekanligi barchamizga sir emas. Ingliz tilini biladigan bolajonlarga avval ko'rgan multifilmlarni ingliz tilida ko'rsatish, ularning talaffuzi chiroyli bo'lishini va gapga urg'u berib gapirishni ta'minlaydigan eng samarali usullardan biridir. Multifilmlarni ingliz tilida ko'rish bolajonlarni bu fanga qiziqishini yanada oshiradi deb o'ylaymiz. Kichkintoylar multfilmni ko'rib bo'lishganidan so'ng unda ko'rgan barcha hayvonlarning ingliz tilidagi nomini alifbo tartibida aytib berishini yoki o'qituvchi o'quvchilarga multfilmdagi hayvonlardan birini ko'rsatadi, o'quvchi bo'lsa, alifboda no'sha hayvon nomi qaysi harf bilan boshlanishini ko'rsatishi kerak bo'ladi. Bu usul ham o'z samarasini bermay qolmasligiga ishonchimiz komil.

Xullas, har bir o'qituvchi dars samaradorligini ta'minlash maqsadida interfaol usullarni qo'llashiundan yuksak saviya va bilim talab qiladi. O'qituvchi faol bo'lishi, o'quvchilarning ham faollashishira sabab bo'ladi. Bunday faollik o'qituvchidan ulkan mehnat va izlanuvchanlikni, o'z kasbining fidoyisi bo'lishni talab etadi.

IJTIMOY TARMOQLARDAGI YOZISHMALARNING TILIMIZ TARAQQIYOTIGA SALBIY TA'SIRI


M. Abdullajonova, o'quvchi (Tosh.shahar 260-maktab)

Jahon sivilizatsiyalarining globallashuvi bir qator ijobiy natajalar berishi bilan birga, milliy qadriyatlarga aks ta'sir qilishi haqiqat. Shunday milliy qadriyatlardan biri bo'lgan ona tilimizni ham hozirgi tez o'zgarayotgan zamonda saqlab-avaylashimiz lozim. Zero, globallashuv davrida internet, jumladan, turli ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish oqibatida o'zbek tili mavqeyining pasayish xavfi mavjudligi, uning sofligiga putur yetayotganligi, savodxonlikning keskin yomonlashayotgani, yoshlar o'rtasida o'z ona tilida muloqot qilish sifati pasayib ketayotgani hech kimga sir emas.

XXI asr internet asri ekan, bugungi kun yoshlari ijtimoiy internet tarmoqlari «Facebook», «Instagram», «Twitter», «Odnoklassniki.uz», «Telegram», «What's up», «Skype», «Imo», «Plus», «Viber», «Talk», «Chat» va sh.k. dan faol foydalanmoqdalar. Ammo bu holat o'zbek tilining rivojigakatta to'siq bo'lmoqda.

Doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlarda yozishayotgan kishining soʻz boyligi kamayib ketishi mumkin. Chunki ihtimoiy tarmoqlarda yoshlar oʻz fikrlarini inson yoki hayvonning yuz qiyofasi tushirilgan yoki turli boshqa narsa-hodisalar aks etgan suratlardan (smayliklardan) foydalanib bildirmoqdalar. Bu suratchalardan foydalanish juda qulay: vaqtini tejaydi hamda u orqali oson va tushunarli fikr bildirishi mumkin.


Masalan, ijobiy munosabat bildirish uchun musht qilingan qoʻlda bosh barmoqning koʻtarilgan holati aks etgan surat bitta yoki ikkita harakat bilan ekranga tushiriladi. “Menga bu hodisa juda ham maʼqul boʻldi” degan fikrni yozish uchun esa 38 ta harakat amalga oshiriladi. Lekin bu tezkorlikning salbiy tomonlari sekin astalik bilan biz yoshlarning lugʻat boyligimizni kambagʻallashtirib, savodxonligimizni pasaytirib yuboradi. Quyida yozishmalardan namunalari keltiriladi.



Suhbatdoshlardan biri “assalomu alaykum” deyish oʻmiga ikkita barmogʻini yuqoriga koʻtarilganligi aks etgan suratdan foydalangan. Uning salomiga javob oʻmiga “Qalaysizlar” soʻzi “qalesila” tarzida qoʻl imlo xatolar bilan birga yozilgan. Suhbatdoshlariga kayfiyatlarini aʼlo ekanligini bildirish uchun koʻzoynak taqqan odamcha hamda bir nechta qoʻl va barmoq holatlari aks etgan suratlar, kayfiyatlarini yomon ekanini esa odam va hayvonning yigʻalayotgan obrazi ifodalangan suratlardan foydalanilgan.

2-yozishmaga eʼtibor qaratsak. Oʻzbek tilida bunday yozishni maʼnaviyatsizlik belgisi deb bilaman. Axir bu oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar uchun uyatli holat. Birinchidan, soʻzlar qisqartirilib, qoʻl imlo xatolarga yoʻl qoʻyilgan. Baʼzi harflarni koʻp takrorlab yozilgan. Imlo xatolar: “Nme maktbga kelmadn?” gapida “nme” soʻzi “nimaga” tarzida yozilishi kerak edi. Shunda birgina 6 tovushdan iborat soʻzning yozilishida 2 ta tovush toʻgʻri yozilgan xolos. “Maktbga” soʻzida “a” harfi yozilmagan, “kemadn” soʻzida “l”, “i”,

harflari tushirib qoldirilgan, “n” harfi o‘rniga “ng” yozilishi kerak edi. “Ne sumvossssan?” gapida “nima uchun” jumlasini o‘rniga “ne” deb yozilgan. “Sumvossssan” so‘zidagi imlo xatolarini tahlil qilishning iloji ham yo‘q. Bu o‘rinda faqat so‘zdagi ma‘noni kuchaytirish uchun tovushni bir necha bor takrorlashdan foydalanilgan.



Ma‘noni kuchaytirish, uni turli jilvalardan namoyon qilishda o‘zbek tilining keng imkoniyatlari bilan bemaol faxrlansa arziydi. Go‘zal va betakror tilimizda ijod qilgan Navoiy, Bobur, Nodirabegim, Qodiriy kabi adiblarimizning ijodi butun dunyoda tan olinsa-yu, bir so‘zning ma‘nosini kuchaytirish uchun uning imlosini tanib bo‘lmas holatda o‘zgartirib, tovushni bir necha bor takrorlash tilimizga, millatimizga bo‘lgan hurmatsizlikdir.

Boshqa tillardagi so‘zlarni qorishtirib ishlatish esa bir necha tilga bo‘lgan hurmatsizlikdir. Yozishmalarda yana o‘ harfi o‘rniga “6” raqamidan, ch harfi o‘rnida “4” raqamidan, sh harfi o‘rnida “w” belgisidan foydalaniladiki, bu so‘zlarni tarmoqdan tahs qaridagi kishilar tusunmaydilar ham.

Bu bir necha kishilar o‘rtasidagi shunchaki yozishmalar, ular bir-birlarini tushunsalar bo‘ladi, tanqidiy yondashish kerak emas deya bu holatga panha orasidan qarash mumkinmi? Yo‘q, albatta. Bu oddiy yozishmalarning aksiyoshlarning savodxonlik darajasiga, ularning og‘zaki nutq madaniyatiga salbiy ta‘sir qilishi shubhasizdir.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganlaridek: “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotga bebaho

boylikning vorislari sifatida o‘z ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”.





ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI

РУХИЯТ ТАЛҚИНИДА ТУШ ТАСВИРИНИНГ ЎРНИ

А. Насиров, доцент (СамДУ)

Бадий асар маълум бир даврнинг асосий ғоясини ташийди, илгари суради унга сингдиради. Бу хусусиятни ўзида мужассамлаштирувчи шайхлар яъни давр қахрамонлари орқали ижодкор юзага чиқаради. Даврнинг етакчи хусусиятларини ўзида мужассамлаштирган шахс ҳам ўз шайхлигида оила, жамият, муҳит ва тарихий воқелик таъсирида шаклланади, ҳаракат қилади. Ўз даврининг етук шахслари ҳар бир воқеа ҳодиса, муҳит ва шароитга ўзининг бевосита таъсирини ўтказиши. Ёзувчи ҳаётнинг воқеаларни тасвирлар экан, бадий характерларни яратиши, шу орқали ўз маҳоратини намоён қилади. Ёзувчи ҳаётни тасвирлари натижасида одамларнинг яшаш тарзи, ҳулки, психологияси, ўй-мушоҳадлари, орзу-интилишларини кўрсатиб беради. «Характер кишиларнинг маълум ҳолатига хос хусусиятларни маълум даврга, муҳитга, касбга, ёшга, жинсга мансуб кишиларнинг сифатларини ёрқинлик билан ифода этади. Характерда ёзувчининг кишиларга ва ҳаётга муносабати, ҳаётнинг ҳодисаларга берган эстетик баҳоси ёққол кўринади» (1). Шунинг учун характер муаллиф эстетик идеалини ташийди. Бадий асарда характер муайян психологик шароитга ҳаракат этиши натижасида намоён бўлади. «Характер инсоннинг кўпроқ табиатдан олган руҳий ва жисмоний хусусиятлари мажмуасидир. Инсон шахсида эса жамиятнинг социал муҳити акс этади. Инсон шахси муҳит таъсири остида ўз характери имкониятлари доирасида ўзгаради».[2] Ҳаётда шундай характерлар бўладики, ўз таъсирини муҳитга ўтказиши ёки ўша муҳит қурбонига айланади.

Адабиётшунос М.Кўшонов қайд этганидек: «Характер муайян дунёқарашдаги санъаткор идеалини ифодалайдиган реал ҳаётнинг шахсидир». Ҳаётнинг воқеалар жараёнида инсон характери турли воситалар таъсирида шаклланиб, аниқ ирода йўналишига эга бўлган шахсга айланади. «Шахс фикрулолда мураккаб, нодир бутунликдир. У ўзининг маънавий оламида инсониятни ижтимоий-маиший, биологик ва бошқа жиҳатлардан муҳитга боғлиқлигини мужассам этади».[3]

Ёзувчи Одил Ёқубовнинг «Улуғбек хазинаси» романидаги бадий психологизм аниқ тарихий даврдаги шахслар психологизми бўлиб, давр руҳини тўла қонли очишга, бадий характери яхлит шаклланишига хизмат қилган. «... адабиётда шароит ўз мустақиллигига эга, у одамларнинг онгига боғлиқ эмас, объектив қонуниятларга кўра ривожланувчи конкрет тарихий вазиятнинг инъикосидир. У характери аниқлайди, қахрамоннинг хатти-ҳаракатига, ҳиссиёт ва кечинмаларига, сўзларига ўз муҳрини босади».[4] Шу боис романда Улуғбек ҳаётининг сўнги дамлари асос қилиб олинса-да, реал тарихий замон асарда руҳий-бадий замон сифатида ўз аксини топади. Улуғбек характери ни ёритишда тарихийликка асосланиб, унинг шохлик, олимлик билан бир қаторда руҳий изтиробларини ҳаққоний кўрсата олган. Бу хусусиятни юзага чиқаришда онг оқими, ички монолог, туш, мулоҳаза юритиш, диалог, табиат тасвири каби психологик воситалардан унумли фойдаланади. Айниқса, туш тасвири фақат руҳий кечинмаларни эмас, балки, қахрамон характери ни очишга, китобхон уни теранроқ англашга ҳам асос бўлади. Туш тасвири романда етакчи ўрин эгаллайди. «... у қахрамонлар ички дунёсини, уларнинг нозик кечинмаларини очиш мақсадида ишлатила бошланди».[4, 36] Дарҳақиқат, романда бу тасвир воситасини маҳорат билан талқин этилганлигини кўраимиз. Масалан: «- Султон Муҳаммад Тарағай! – дермиш у, қовоғи ёзилмай. – Мен сени ўн тўрт яшар чоғингда Мовароуннаҳр тахтига ўтқазганимда умидим шу эдимиз? Қани айт-чи, Мовароуннаҳр султони: мен бу дашти азимда Хожа Аҳмад Яссавийга бу мақбарай муаззамни нечун курдирдим? Муродим не эди маним?... – Бу мақбарай муаззамни курдиришдан муддаоингиз ул пири муршид Хожа Аҳмад Яссавий ҳазратларининг покиза руҳини шод этмоқдур, қиблагаҳ... – Ҳа, покиза руҳларини шод этмоқ!.. Олтин тахтимни сенга ишониб топширганимда не бўлди? Ана, пастга қара! Кузгун Бароқбек суворийлари шаҳарни забт этар, бу муқаддас даргоҳни топтар, хор қилар!.. Мирзо Улуғбек қараси, атрофдаги шаҳар кўчаларида, икки ёни раста мавзеларида қалмоқбашари суворийлар, ойсимон эгри қиличларини ўйнатган ясовуллар сурон солиб от ўйнатишар, уйларга ўт қўйишар, ҳамма ёқ дуд ва ёнғин ичида қолган эмиш».[5] Бу ўринда олдинда юз бериши мумкин бўлган воқеалар силсиласидан Мирзо Улуғбекни огоҳлантиради.

Туш мотиви қисмат даракчиси вазифасини ҳам бажармоқда дейини мумкин. Чунки ўша кунни эрта тонгдаёқ ўн нафар йигит хабар олиб келадикки, Бароқхон Ясси ва Сигноқ шаҳарларини, атрофдаги қишлоқларини талон-тарож қилиб, оддий халққа зулм қилаётганини айтганда, унинг

қаббларини ўйлаб қолади. Шунинг учун ҳам бу тасвирлар қахрамон руҳиятини теран англашга, давр муҳитини ҳис этишга хизмат қилади. Асар шокеалари билан узвий бирликда ривожланиб боради. Ўша куниеқ Мирзо Улуғбек жангга отланади, Сигноқ ёнида, Сайхун бўйларидаги суронли жангга қаттиқ мағлубиятга учрайди.

« – Бу тун... Бу тун тушимда... Устодни кўрдим... -Тушимда... жаннатмакон устод каминани қаттиқ койидилар. Бу бевафо салтанатни деб шим-фандан юз ўғирдинг, дедилар. Тахт соҳиби бўламен деб, шундай етук сплюхиятни жувонмарг қилдинг, дедилар...».[5,11] Тасвирлардан кўринадики, қахрамон руҳиятида кечаётган қарама-қарши кечинмалар унинг характер хусусиятларини, илм йўлида қилган заҳматларини, шоҳлик йўлидаги зиддиятли курашларини намоён қилади. Мирзо Улуғбек қалбида мужассамлашган қарама-қарши икки кутбнинг, шоҳлик ва олимликнинг бир қалба мужассамлашганини, бу йўлдаги адолат учун курашларини ҳаққоний тасвирлаб беради.

Романда фақат Мирзо Улуғбек руҳиятини ёритиш учун эмас балки, Абдулатиф Мирзонинг руҳий, маънавий дунёсини очишда туш тасвиридан ўринли фойдаланади, чунки ушбу детал қахрамонни психологик жиҳатдан характерловчи воситадир. Туш орқали адиб асар қахрамонларининг ички дунёсини, руҳий оламидаги зиддиятларни, кечинмаларини талқин этади. Абдулатиф Мирзо руҳий қийноқларда талоқланишини туш эпизоди орқали зиддиятларга бой руҳий олами ёритилади. Шунингдек ўз отасининг ўлимига сабабчи бўлган шаҳзоданинг фожеали тақдиридан дарак беради ва орзу-умидларининг қурбонига айланмиш жараёни асосланади. Мирзо Улуғбекнинг энг ишончли тасвирларидан бири бўлган Амир Жондор унга хиёнат қилиб Абдулатиф Мирзо томонга ўтган эди. Аммо ўз ишига кейинчалик афсус қилади: «Ё раб! Ёмғирдан қочиб, дўлга тутидим дегани шудир!.. Шон-шухрат орттирамен деб, бу бемехр хунрезга йўлиқдимму?-деди амир Жондор... Ал келсин миналҳақ! Бу савдо ва надоматлар аъло ҳазратларининг бегуноҳ бошилан боши, тўқилган қони учун қайтган бир жазо эмасму?»-деган шимли ўй ўтади хаёлидан. Тез орада эса Абдулатиф Мирзога қарши фитна уюштира бошлайди. Бу ҳолат туш талқини орқали ёритилади. «Садоқати шохор қулингиз сиздай валинъемат пуштипаноҳимга кийик овлаб, тоғларда ўртин эдим. Бу кун бир кийикнинг бошини келтирдим! Уни есангиз барча турбат, барча хасталиқдан фориг бўлиб, қушдай енгил тортасиз, дошлитпаноҳ!.. – Барча дардингизга даво бўладур, татиб кўринг, давлатпаноҳ! Шаҳзода баркашни олиб, дастурхонни очармиш. Олтин

баркашда... қонга бўйналган унинг ўз боши тиржайиб ётармиш!.. Баркаш қўлидан тушиб, қонга бўйналган боши ерга юмалаб кетармиш». [301-302]

Тарихда падаркуш деб ном олган шахзода ҳаёти ҳам фожеалардан иборат эканлигидан далолат беради. Бу ҳолат эса, туш талқини орқали янада асосланади. Руҳий қийноқлар гирдобидаги олами ҳаққоний ёритилади, Унинг таназзул сари кетаётган ҳаёти жонлантирилади, ҳамда Абдулатиф фожеасининг хилма-хил омиллари, тарихий муҳит, шароит, ўз қисматидаги чигалликлари, руҳий оламидаги эврилишлари ёрқин бўёқларда тасвирланади.

Адабиётлар:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т., «Ўқитувчи», 2005
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. I том (Адабий асар). – Т., «Фан», 1978
3. Сариян С. История. Современность. Личность. Москва, 1980
4. Ҳ.Умуров. Ўзбек романчилигида бадий психологизм. –Т., «Ўқитувчи», 1982
5. О.Ёқубов. Улғубек хазинаси. Роман. 1994

SIROJIDDIN SAYYIDA SARLARIDA METAFORALAR

B. Qurbonova, dotsent (FarDU)

Metaforalar nutq jarayoni bilan bog'liq muhim stilistik vositalardan biridir. Ular nutqqa ko'tarinkilik, ta'sirchanlik berish bilan birga, so'zlovchi yoki ijodkorning nutqqa jiddiy munosabatda bo'lishi uchun, har bir so'zga e'tibor bilan qarashi uchun xizmat qiladi. Metaforalardan badiiy asarlarda, og'zaki va yozma nutqda takrorlardan, o'zinsiz qaytariqlardan qochish maqsadida ham foydalaniladi. Sirojiddin Sayyid lirikasida eng ko'p qo'llangan ko'chim turi bu metaforalardir. Masalan:

Nega bir yanog'ing oldir, shaftoli?

Gilos lablaringdan kim o'pdi, gilos?

(“Bog'da”).

Shoir “gilos lablaringdan” degan misrada g'ayrioddiy metaforani vujudaga keltirgan. Chunki insonning yuzidagi eng go'zal a'zosi bu uning g'unchadek ko'rinadigan lablaridir. Bunda shoir insonning go'zal labini gilosga ko'chirgan. Bu ko'chim bilan shoir inson ruhiyatini zavqlantira oladigan holatni yuzaga keltirgan. Chunki qizlarning yuzi qizarib ketsa, uning ibo-hayosi borligidan, bu qizillik ularning yuziga o'zgacha husn berishini yaqqol aks ettirgan. Ana endi shu qizil yuz nigohida ol labni ham tasavvur etsak shoiring naqadar go'zal ko'chimni yuzaga keltirganini so'zsiz anglashimiz mumkin. Gilosning labi o'zidanda qizil bo'lishini shoir mahorat bilan tasvirlaganki, o'shu

qizil labdan kim o'rganligini gilosdan so'rashi holati mahorat bilan she'rdagi tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Shoir she'riyatida juda ko'plab tashxis, intoq sa'natidan foydalanganligiga duch kelishimiz mumkin. Bundan tashqari shoirning tabiatni sevganligini, uning tabiatdagi barcha jonli va jonsiz narsalarga o'zining yaqinidek murojaat qilganligini she'rilaridan bilib olish qiyin emas. Quyidagi she'rida shoir diliga murojaat qilib, o'z dilini soyga o'xshatishi bilan metoforani yaqqol aks ettirgan.

Oh bu qanday oy. dilim?

Ko'ksimdagi soy dilim.

(“Oy izidan”).

Metaforalar, asosan, predmetning shaklini, belgisini va harakat va holatlarini ko'chishi asosida hosil bo'ladi.

1 Shakl ko'chishi:

Yarmi to'lg'in, yarmi so'lg'in yaprog'im,

Xazonga qorishgan yaprog'ing menman.

Bu misradagi to'qin so'zi asli daryoga nisbatan asl ma'noda qo'llaniladi. Ya'ni *to'lg'in daryo, to'qin suv* kabi. Bunda hech qanday ko'chim turini ko'rmasligimiz mumkin. Lekin “*Yarmi to'lg'in yaprog'im*” deya shoir metaforaning shakily o'xshashligini yuzaga keltirgan. So'lg'in yaprog' birikmasi o'z o'rnida ishlatilgan. Chunki so'lg'in, so'lgan kabi so'zlar yaprog'ga, bargga, gulga nisbatan qo'llaniladi. Shoir lirikasida metaforaning shakily o'xshashligini kam miqdorda uchratamiz.

2. Belgi o'xshashligi:

Nozik-nozik o'ltirishib, so'ng hammalari

Mening kabob yuragimni butkul yedilar.

(“Go'zallar ziyofati”).

Shoir lirikasida metaforaning belgi o'xshashligi ko'p uchraydi. Bu misrada *kabob* leksemasi belgiga ko'chgan. “*Kabob yuragim*” ifodasini og'zaki nutqda qo'llab bo'lmaydi. Shoir she'rini o'zgachaligini bildirish, ya'ni o'quvchini o'yga toldirish maqsadida metaforani o'rnida qo'llab novatorlik (yangilik) qilgan desak ham bo'ladi. Chunki kabob ham, yurak ham go'shtdir. Shoir bularni ichki bog'liqlik bilan, ya'ni ikkalasi go'sht ekanligini umumlashtirgan va metaforani yuzaga keltirgan. Bunda shoirning mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sizdan, quchoq ochib peshvoz olgan dam,

Yapon yomg'irlarin islari kelgan.

(“Yomg'ir”).

Bu parchadagi “*Yapon yomg'irlarin*” ifodasi o'z ma'nosida emas, ko'chma ma'noda qo'llangan. Kuz yomg'iri, bahor yomg'iri kabi so'z birikmalarini o'qutishga o'rgangan inson qulog'i “*yapon yomg'iri*” ifodasini ongida idrok etishga biroz qiyinaladi. Noan'anaviy ko'chimlar bilan o'quvchini o'yga toldirish va o'zgacha kayfiyat berish shoir she'riyatiga xos xususiyatdir.

Qotgan yuraklarning muzliklarida

O'zing qo'lla endi meni, jon daryo!

(“Tavallo”).

Bu misolda “qotgan yurak” ifodasini ko‘chma ma’noda qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

3. Harakat o‘xshashligi:

Nazarimda kechalar

Yig‘lar kalishlari ham.

Ushbu misolda insonga xos bo‘lgan *yig‘lamoq* fe’li metaforaning harakat belgisini yuzaga keltirgan.

Iboralarni hosil qilishda ma’no ko‘chishining faqat metafora usulidan foydalaniladi. Bunda metaforaga xos bo‘lgan shakl, rang, xususiyat belgilari kuzatilmaydi. Faqat holat va harakat belgilarini ko‘rish mumkin.

S. Sayyid lirikasida metaforalar so‘z birikmasi holatida ham uchraydi. So‘z birikmalaridan tuzilgan metaforalar tarkibidagi til birliklari o‘zaro semantik-sintaktik munosabatga kirishib, predmet va voqea-hodisalarni obrazli tasvirlaydi.

Misollar:

Sog‘inchning devorlari

Yomg‘irlarda yemirilgan.

(“Onamning kalishlari”).

Bu shomlarni, tonglarni,

Oshiqning diliday sof

Pokiza zamonlarni

Barbod etgali keldim.

(“Nomardlarga xor bo‘lmas”).

Umr isi kelib turgan choponlardan

G‘arib paxsa devorlardan oldim savod.

(“Ustodi avval”).

“*Sog‘inchning devorlari*” aniqlovchili birikmasida shoir uni yomg‘irlarda yemirilishini ko‘rsatsa, “*pokiza zamonlarni*” bitishuvli birikmasida esa shoir zamonnani eng asl, samimiy, toza tuyg‘ularning a’losi pokiza so‘zini zamonga ko‘chirib, so‘z birikmasidan metaforani yuzaga keltirgan. “*Umr isi*” birikmasida belgi ko‘chgan bo‘lib, aslida “*isi*” so‘zi umrga emas, *non isi*, *ovqat isi* bo‘lib keldi.

Xulosa qilib aytganda metafora badiiy nutqda eng samarali qo‘llaniluvchi ko‘chim turi sanaladi. Sirojiddin Sayyid ijodida ham metaforalar keng qo‘llanilgan.

“ШАЖАРАИ ТАРОКИМА” ВА “ЎҒУЗНОМА”ДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ АНЪАНАЛАРИ

М. Абдуллаева, ф.ф.н. (ТошДУТАУ)

“Шажарайи тарокима”даги тўй тасвири халқ эпосларига хос анъанавий тасвир услубини ёдга солади. “Ўғузнома”да ҳам бу жиҳат кўзга ташланиб туради. Масалан: “Қирқ кун, қирқ кеча едилар, ичдилар, хурсандчилик қилдилар”. Худди шу тасвири муфассал баёни “Шажарайи тарокима”да ёрқин акс этган. Тўққиз минг қўй ва тўққиз юз йилқини ўлдириб, тўқсон тўққиз ховуз қилдириб, тўққизига ароқ, тўқсонига қимиз тўлдириб катта тўй қилиши, бу тасвирларнинг туркий халқларнинг қадимги даврларидан озуқа олганини кўрсатади.

Ўғузхон бу тўйда олти ўғлига кўп яхши насиҳатлар қилгани, юртлар, қалалар, шаҳарлар инъом этгани баён этилади. Шу ўринда, муаллиф 6 мисра шеър келтириб, Ўғузхон ва ўғилларининг мардлигини мадҳ этади. Тарихий маълумотларни ҳикоя тарзида баён этиш, айниқса, воқеа тафсиلى жараёнида шеърий мисраларнинг берилиши ўқувчига эстетик завқ бағишлайди. Шеър:

Ўғуз қилди ул тўйда жирғамиши,

Бу олти ўғилни сулорғамиши.

Бўлар кўрсатиб эрди мардоналиқ,

Ота бирла кўп турли фарзоналиқ.

Отага басы қилдилар ёрлик,

Уруш кунинда барчаси борлиқ. (“Шажарайи тарокима”, 28-бет).

Бу шеърнинг услуби халқ оғзаки ижодига яқин бўлиб, жанговарлик ва кўтаринки кайфият уйғунлашиб кетган. Шеър содда ва раван услубда ёзилган бўлиб, “Девону луғати турк” асаридаги тўртликларга яқин туради.

“Ўғузнома”да бу каби шеърий парчалар учрамайди. Бироқ дoston шожети тўлалигича сажъ услубида ёзилган бўлиб, асарда шеърий оҳангдорлик мусиқийлик кўзга ташланиб туради. Масалан: “Ўғуз ҳоқон уни кўриб ўзидан кетди, уни севиб қолди, ... висолга етди” каби жумлаларда шеърий оҳангдорлик сезилиб туради.

Шундан сўнгра Ўғузхон барча наварларини қилган хизматларига лойиқ инъомлар улашади. Олтин ёйни топган ўғилларига Бузуқ деб ном беради. Уч ўқни топган ўғилларига Учқуқ номини беради. Ўз тахтини Кунхонга насият қилиб, бир юз ўн олти йил подшоҳлик қилиб дунёдан ўтади.

“Шажарайи тарокима”даги олтинчи ҳикоя “Ўғузхоннинг улуғ ўғли Кунхоннинг подшоҳлигининг зикри” деб номланган. Бу ҳикоя Ўғузхоннинг вазири Арқилхожа (баъзи манбаларда Эрқилхожа дейилган –

А.М.) таърифи билан бошланади. Ўғузхоннинг тахтга ўтирганидан то вафотигача вазири бўлган бу кекса киши ақлли ва донишманд, билимли киши эди. Кунхон ҳам уни вазир қилиб эди. Арқилхожа узок умр топди. Кунхонга ҳам насихат ва ўғитлар бериб, тўғри йўлга бошлади.

Асардаги Арқилхожа “Ўғузнома”да тасвирланган Ўғуз ҳоқоннинг ёнида юрадиган кекса бир киши Улуғ Турукни эсга солади. Улуғ Турур доно, уқувли бир киши эди. Ўғузхон унинг маслаҳатларига кулоқ тутар ва амал қилар эди.

Кунхон ҳам Арқилхожанинг насихатларига амал қилиб, укалари билан ҳамжиҳат бўлиб яшади ва тахтни бошқарди. Ҳикоя давомида Кунхоннинг Арқилхожа кўрсатган ишларни амалга ошириши, ғалабага эришиб, катта тўй қилгани тўғрисида гапирилади.

Худди шу воқеалар тафсили “Шажарайи турк”да ҳам бор. Абулғози “Шажарайи турк”да “Ўғузхоннинг улуғ ўғли Кунхоннинг подшоҳлиқининг зикри” саҳифасида ўн мисрали форсий маснавий келтиради. Қизиги шундаки, бу маснавий “Шажарайи тарокима”да йўқ.

Зару неъмату галаҳоу рама,

Бар эшон бибахшам яксар ҳама.

Жудо ҳар якийро бувад як нишон,

Чу ному лақабҳою тамгоҳишон.

Чу аз қисми худ ҳар як огаҳ шавад,

Зи жангу жафо даст кўтаҳ шавад.

Ҳар он каски аз насли эшон бизод,

Равад ҳам бадин гуна аз роҳи дод.

Зори Қилхожа ишунид ин суҳан,

Писандид гуфтори марди куҳан (“Шажараи турк”, 25-бет).

Бу форсий тилдаги маснавий муаллифнинг сеvimли қаҳрамони Ўғузхон ва унинг авлодлари фаолиятларига бағишланган. Шеърди Ўғузхоннинг вазири Арқилхожанинг ақлли, донишманд, билимли киши эканлиги айtilади. Кунхон Арқилхожанинг сўзларига доимо амал қилиши, мамлакатини бошқаришда унинг кўрсатмаларини бажариши баён этилади. Доно вазир ота ва ўғил, ака ва ука ҳамиша ҳамжиҳат бўлишини истайди. Молу давлат учун ёмон отлиқ бўлмаслик керак, деб уқтиради. Кунхон Арқилхожанинг ўғитини бажариб Ўғузхоннинг давлатини тўрт ўғил ва йигирма тўрт подшоҳзодаларга бўлиб беради. Мазкур парчада Арқилхожанинг панд-насихатлари шеърый тарзда баён қилиниб, ҳар ким ўз насабидан огоҳ бўлса, ўртада низо бўлмаслиги таъкидланади.

Абулғози эътирофида ота ва бола муносабати ҳамиша долзарб масала бўлган. Шунинг учун ҳар бир давр воқеаларида бу масалага ижодий ёндашишга ҳаракат қилган. Шу сабабли у кўпроқ халқ оғзаки ижодидаги доно назир образига ўхшаш тимсолни яратган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. Тошкент. Чўлпон. 1992. 192 б.
2. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. 1071/1660. - 80б. А.Н. Кононов тузган танқидий матн. Москва-Ленинград. 1958.
3. Раҳмонов Н. Ўғузнома ёки Ўғуз хоқон ҳақида достон. // Шарқ юлдузи. 1989. №-4. 165-171 бетлар.
4. Маҳмудов Қ. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. Т. 2010. <http://www.e-tarix.uz/milliyat-insholari/165-shjarai-tarokima.html>
5. Кононов А.Н. Родословная туркмен. Издательство Академии Наук СССР. Москва-Ленинград. 1958. – 190 с.
6. Бахтиёр Исабек. Ўғузнома. Т. 2010. <http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/qadimiy/165-oguznoma.html>
7. Абдураҳмонов А. Энг қадимдан исломгача бўлган давр. Самарқанд. 2006. (Электрон дарслик). <http://www.samdu.uz/files/web/napt/filologiya/txoi/html/3-03.htm>
8. Шчербак А.М. Ўғузнома ва Муҳаббатнома. Ленинград. 1959.
9. Худойназаров Ҳ. Шажарайи турк ва унинг ўрганилиши. Т. Ўқитувчи. 1993. -127 б.
10. Раҳмонов Н. Кўҳна битик тошлар. Тошкент.
11. Артыкбаев Ж.О. Огуз-хан проблемы древней истории среднего приртышья . Казагистан. 2009. www.history.kz

ЖАДИД МУНАҚҚИДИ ВАДУД МАҲМУД ТИЛИ ВА ИМЛО МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА

С. Нормаматов, ф.ф.н. (ГулДУ)

Мустақиллик шарофати билан ўзбек миллий тили, адабий тилининг инновациялари шўровий мафкура таъсирида четлаб ўтилган, тадқиқ қилинмаган босқичларини, айниқса, ўтган асрнинг 20-30 йиллар даврини ёлдил равишда ўрганишга киришилди. Афсуски, шўролар мафкураси куқмон бўлган даврда ўзбек тилининг ушбу давр босқичини кенг ўрганиш имконияти бўлмади. Чунки бу даврда миллий тил, адабий тил, имло масалалари юзасидан Беҳбудий, Абдулла Авлоний, Фитрат, Миён Бузрук, Ашурали Зоҳирий, Элбек, Вадуд Маҳмуд, Абдулла Қодирий, Чўлпон каби

жадид адиблари ўз фикрларини олдинга суришган эди. Ушбу қимматли лисоний меросни кенг таҳлил қилиш шўролар даврининг “тил сиёсати”га тўғри келмас эди. Биз тилга олаётган даврда ижод қилган адибларнинг кўтилари ҳам ёзувчи, ҳам шоир, ҳам мунаққид, ҳам зукко тилшунос бўлишган. Мана шулар орасида улкан маърифатчи, шоир, мунаққид ва педагог Вадуд Маҳмуд ҳам алоҳида ўрин тутади.

XX асрнинг 20-30 йиллари адабий жараёнида асосан адабиётшуносу-мунаққид сифатида кўзга ташланувчи Вадуд Маҳмуднинг ўзбек тили тарихи, ўзбек тилшунослиги тарихи, миллий тил, адабий тил ва имло, тил ва услуб масалалари юзасидан билдирган фикрлари ҳам қимматлидир. Жумладан, Вадуд Маҳмуд “Тил ва ҳарф” номли мақоласида XX асрнинг 20 йиллари ижтимоий-сиёсий ҳаётида кескин баҳс ва мунозараларга сабаб бўлган ўзбек миллий адабий тили масаласи, имло ва алифбо муаммолари хусусида ўз фикр-мулоҳазаларини ўртага ташлайди: “...Турк дунёсининг ҳар ерида “халқ тилига” яқинлашмоқ майли бошланғони учун бир турк тили бўлиниб, турли лаҳжа ва шева адабиётлари бошланди. Бу “тамойул” сўнг йилларда яна кучайиб, ҳалигача бир оз “мунфаил – пассив” вазиятда бўлгон ўзбек, қирғиз, уйғур каби қабилалар ҳам ўз шеваларида газеталар, журналлар, китоблар босдира бошладилар. Бу соддачилик ҳаракати, ташланғон араб, форс сўзлари ўрнига ишлатиш учун янги сўзлар топиш эҳтиёжини туғдирди...” [1, 134].

Дарҳақиқат, муаллиф XX аср бошларида Туркия, Қрим, Кавказда адабий тил ислоҳоти борасида рўй берган ўзгаришлар 20 йилларда ўзбек адабий тилида ҳам юз берганлигини, Туркистонда ҳам адабий тилни халқ жонли тили билан яқинлаштириш, адабий тил лексик фондини софлаштириш, ундаги арабча, форсча сўзларни мумкин қадар чиқариб, ёт сўзлардан ҳоли бўлган лексик фондни шакллантириш борасидаги ҳаракатлар бошланганлигини ва бу ўзгаришлар дастлаб вақтли матбуот тилида ўз ифодасини топганини муносиб баҳоламоқда.

Муаллиф Туркистон ўлкасида содир бўлаётган бундай ўзгаришларни бошқа ҳудудларга солиштирар экан, жумладан, Туркияда бундай истилоҳлар муваффақиятли чиқмаганлигини, улар бундай ишни амалга ошириш кўп фурсат талаб этишини инobatга олиб, адабий тилни эски қолипда муомалада қолдирганликларини, Татаристон эса уч юз йилдан бери рус маданияти таъсирида бўлганлиги учун рус истилоҳ ва таъбирларини қабул қилишга мойиллик кўрсатаётганлигини, шунингдек, Қрим, Кавказ, Туркман мамлакатлари тиллари усмонли турк тилига яқинлашаётганлигини эътироф этади ва Туркистонда янги ўзбек адабий

тилининг бу даврда қандай асосларга таянган ҳолда ривожланаётганлигининг аниқ бир йўналиши йўқлигини қайд этади.

Мақолада Вадуд Маҳмуд ўша даврдаги лингвистик жараённи таҳлил қилишда яна бир жиддий масалага эътиборни қаратади: “Аҳвол, вазият шу даражага келгандан кейин, турк дунёсининг ҳар ерида, айниқса, бу масала ечилишига ортиқча муҳтож бўлган Қрим, Қофқоziё, тотор, ўзбек, туркманлар орасида тил масаласи янги бир шаклда кўзғолди, у-да тил бирлиги масаласи эди” [1, 135].

Бундан кўринадики, фикр юритилаётган даврда миллий тил (она тили) масаласи баъзи ҳолларда бир миллат муаммоси доирасидан чиққан ҳамда умумтуркий масала сифатида ўртага қўйилган. Мунаққид бу масалага ўз муносабатини билдирад экан, дастлаб бу масаланинг ташаббускори Исмоилбек Гаспиринли бўлганлигини, кейинчалик Қрим дорилфунуни мударриси Чўбонзода ўзининг “Турк-тотор илмий сарфи”, “Турк-тотор лисониятина мадҳал” номли илмий асарларида бу ғояни илмий асослашга қаракат қилиб, тарғибот ишларини олиб борганлигини, рус турколог олими Самойлович ҳам бу фикрни маъқуллаб, “турк миллатининг миданиятига кириш учун тил бирлиги энг биринчи омил” деб қисоблаётганлигини қайд этади. Бироқ, муаллиф уларнинг ўзи бошлаган ишга аниқ бир илмий асос кўра олмаганликларини, “умумтуркий тил” вратиш имконияти амалда мумкин бўлмаслигини, шунинг учун бу ғоя ўз пидиғини топмай, тезда қаршилиқка учраганлигини атрофлича изоҳлайди.

Вадуд Маҳмуд мазкур мақоласида имло масаласида ҳам фикр билдириб, жумладан, шундай дейди: “Янги имло масаласининг Туркияда, Тотористонда ва бизда бошланганига кўб йиллар бўлса ҳам, лотин қарфини қабул қилиш учун жиддий музокаралар шу икки йил орасида кучайиб қолди. ...Бу масала Тотористонда жиддийрак кўзғолган бўлса ҳам, тез сўнди. Қофқоziёда эса кундан-кун бу ташаббус ортмоқдадир... Бу лотинчилик бир ёқдан шу маваффақиятларга эришмакда бўлса, иккинчи жиҳатдан Қримда, Тотористонда, Қофқоziёда бир кучли жиддий қарши қаракат ҳам кўзғатмоқдадир...” [1, 136].

Маълумки, XX асрнинг 20 йилларида Туркистонда ҳам янги имло ва лифбо масалаларини жорий этиш масаласи кун тартибига қўйилади. Вадуд Маҳмуд бу масалага ўз муносабатини билдиришдан олдин Қримнинг машҳур ёзувчиларидан Ҳасан Сабрий Айвазуфнинг, “Маориф ва маданият” журналининг мударриси Муҳиддиннинг, Қрим дорулфунуни мударриси Б. Чўбонзонанинг бу борадаги фикрларини мунаққид сифатида таҳлил қилади ва имло борасидаги ўзининг умумлашган назарий

хулосаларини қуйидагича изоҳлайди “Юқоридан бери келтирилган ҳарф тўғрисидаги фикрларнинг ҳаммасини бир бир ерга йиғсак, шу чиқадирки, бу ҳарфни (алифбо назарда тутилмоқда – С.Н.) ўзгартириш масаласи ҳеч бир ижтимоий фойдаси бўлмагон, балки кўб зарарлар бўлгон ташаббусдир. Бунинг илмий бир қиймати йўқдур. Шунинг учун бу масалаларни қўйиб, маданий ҳаётнинг ўсушига ёрдам бератургон бошқа масалалар билан шуғулланмоқ керакдур” [1, 139].

XX асрнинг 20-30 йилларида ўзбек тилининг ривожини, қайси алифбонинг жорий этилиши масаласида ягона нуқтаи назар йўқ эди, бу борада бир-бирига мос келмайдиган турли қарашлар олдинга сурилар эди. Ушбу нуқтаи назарлар ўша даврдаги бир қатор ўзбек зиёлилари қаторида Вадуд Маҳмуднинг ҳам назаридан четда қолмаган.

Вадуд Маҳмуд ижодини адабиётшунослик нуқтаи назаридан ўрганган профессор Баҳодир Каримов таъкидлаганидек, Вадуд Маҳмуд мунаққид сифатида адабий-илмий муаммолар, ижтимоий-сиёсий воқеалар, маориф ишлари, ҳарф ва имло масалалари, ўзбек тили муаммолари, хуллас, қандай мавзуда қалам тебратмасин, дунёқарашининг кенглиги, теран фикрлаши, адабий меросга ҳурмат-эҳтироми, жаҳон маданияти тарихидан хабардорлиги яққол сезилиб туради [2, 91].

Биз ҳам бу фикрни тасдиқлаган ҳолда шунини айтишимиз мумкинки, жадид мунаққиди сифатида танилган Вадуд Маҳмуднинг миллий тил, адабий тилга муносабат, тилни давр талабларига мослаш, унинг умуммиллий адабий тил сифатидаги ривожланиш йўлларини белгилаш, алифбо ва имло каби мураккаб назарий ва амалий, миллий ва маърифий муаммолар хусусида билдирган фикрлари XX асрнинг 20-30 - йиллар даври ўзбек адабий тилининг ривожланиш ва бойиш тенденцияларини белгилашда қимматли ва муносиб материал бера олади.

Адабиётлар:

1. Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори Баҳодир Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2007.
2. Баҳодир Карим. Жадид мунаққиди Вадуд Маҳмуд. – Тошкент: Университет, 2000 йил.

МИФОЛОГИК АРХЕТИПЛАР

М. Отажонова, ф.ф.н. (ТошДЎТАУ)

Исажон Султоннинг “Боғи Эрам” ҳикояси қахрамони ўзининг бегубор болалик кезларини эслар экан, табиатнинг булганганлиги, бир эшонлар зилол сув шариллаб оққан ариқларнинг ифлосланганлигидан дили оғриган Холмуҳаммад бува билан учрашувини шундай хотирлайди: “Чол ёнимизга келиб ўйинимизга пича термулиб турди. Салдан кейин эса унинг кўзлари ёшланганлигини кўрдик. “Нимага йиғляпсиз, бува?” – деб сўрадим мен. Чол соқоли титраб: “Бир маҳаллар мен ҳам онам ёпган нонни шунақа оқизиб ер эдим, ўшани эслаб йиғляпман, болам. Эвоҳ, ўзим ҳам шу ариқдаги нондай оқдим-кетдим”, – деди. Нон егиси келяпти, деб ўйладимми, ҳар қолда, ўзимнинг сувга бўккан нонимни олиб, унга улатганим эсимда. Чол бўлса нонни олди-ю, ҳеч уялиб-нетмасдан хўнграб йиглаб юборди”. Ҳикоячи-қахрамон йиғлаб йўлини давом эттираётган Холмуҳаммад буванинг ортидан эргашади. Олдида дуч келган ариқдан ҳатлаши билан кўз ўнгида ажиб бир афсонавий гўшанинг ғаройиб минзараси намоён бўлади: “Қопқалари тилладан, туткичлари биллурдан бўлган бир боғнинг қаршисида кўрдим ўзимни! Қопқа ёнида биллур қилқани тутиб турган мен қатори бир болакай менга қараб кулар ва ичкарига имлар эди. Олдинга икки қадам босиб, боққа мўраладим. У ерда нималарни кўрганимни айтолмайман, айтганим билан билан қанақадир шимний нарсаларга ўхшаб қолаверади. У ердаги дарахтлар, бизнинг кўрганимиз одатдаги дарахтларга ўхшаб кетгани билан, мутлақо бошқача эди. У ердаги қушлар, сувлар... Бу боғ самовий эди! Ғоятда гўзал эди! Бу гўзалликка мос таъриф тополмай ўртанаман”.

Ёзувчи ўзбек фольклорининг қахрамоннинг “ўзга олам”га сафари тўғрисидаги мифологик тасаввурлардан ижодий фойдаланишда “ариқ” деталидан самарали фойдаланган. Бу ўринда қўлланган “ариқ” архитепи қидимги мифологияда “ўз” ва “ўзга” оламларни бирлаштириб турувчи исотирий восита, бошқача қилиб айтганда, инсонлар яшайдиган дунё билан мифологик кучлар макони ҳисобланган “ўзга олам” ўртасидаги чегара навиъасини ўтаган. Шунинг учун ҳам ҳикоя қахрамони ариқдан ҳатлаши билан “ўзга олам”га ўтиб қолади ва унинг кўз ўнгида “Қопқалари тилладан, туткичлари биллурдан бўлган бир боғ”, яъни Эрам боғи намоён бўлади.

Афсоналарга кўра, Эрам боғи парилар юрти бўлиб, таърифига сўз ожиз бўлган афсонавий боғ Кўҳи Қоф, яъни Қоф тоғи орасига жойлашган. Уни девлар қўриқлаб турар эмиш. Ўзининг ғоят гўзаллиги ва бетакрор тибнати билан алоҳида ажралиб турадиган бу боғда парилар истиқомат

қилади. Эрам боғи тўғрисидаги мифологик тасвурлар ўзбек халқ оғзаки бадиий ижодига араб фольклори анъаналари орқали ўтган. Ривоятларга кўра, “Ирам зат ал-имад” деб аталган бу ғаройиб жой Шаддод деган афсонавий ҳукмдор томонидан бунёд этилган. У ер юзида жаннатмонанд гўшани яратишга бел боғлаган ва иморатлари қимматбаҳо тош ва металллардан қурилган сўлим боғ-шаҳарни бино этган эмиш. Манманлик ва ўзига бино қўйиш белгиси бўлган бу шаҳар Оллоҳнинг ғазабига дучор бўлиб, вайрон бўлган деб нақл қиладилар. Айрим мутахассислар Эрам боғи тўғрисидаги тасаввурлар жоҳилият давридаги қадимги араб қабилаларининг мифологик инончлари асосида келиб чиққан деб ҳисоблайдилар. “Қуръони карим”нинг “Вал-Фажр” сурасидаги 6-7-8-оятларда ҳам баланд устунли қасрлар эгаси бўлган Ирам шахрида истиқомат қилган Од қавми ҳалокати ҳақида маълумот берилган. Ривоятларга кўра, “Ирам зат ал-имад”, яъни “баланд қасрлари бўлган Ирам”ни Шаддод деган афсонавий ҳукмдор барпо этган. (1)

Ўзбек халқ дostonларида эса *Ирам* ёки *Боғи Эрам* деб бу эпик макон парилар юрти, деб юритилади. Мифологик тасаввурларга кўра, бу бошқача қилиб айтилганда, эпик анъанага кўра, Кўҳи Қоф замин билан Эрам боғи оралиғидаги чегара сифатида талқин қилинади. Бу ажойиб боғ болани ўзига шу қадар мафтун этадики, у ушбу жаннатмакон гўшага қадам қўйганиданок фақат эртақлардагина тасвирланган мўъжизакор нарсаларни кўради. “Боғ мени ўзига шу қадар мафтун этдики, олдинга беихтиёр яна бир қадам қўйдим. Тагин бир қадам қўйсам, боғ ичкарасидаман. Қилпираб учаётган олтин ниначиларни тутиб олишим, ҳув анави зар қанотли Семурғ билан суҳбатлашим ҳеч гап эмас”.

Семурғ – қадим аждодларимизнинг ибтидоий тушунчасига кўра, тотемистик ҳомийлик тимсоли, ботирларга мададкор бўлмиш улкан қуш. Бу гўзал лирик образ қачон пайдо бўлганлигини айтиш қийин, аммо Семурғ билан боғлиқ қадимий сюжетлар Шарқ халқлари фольклорида кенг талқалган. У қаҳрамонни улкан қанотига миндириб, Ер ости дунёсига олиб тушиш ёки Заминга чиқариб қўйиш вазифасини уддалайди. Семурғ ҳақидаги дастлабки маълумотни зардуштийликнинг муқаддас китоби “Авесто”да учратамиз. Асарнинг XIV яштида тасвирланишича, “Саена меруға” деган баҳайбат қуш Ворукаша денгизининг ўртасидаги “ҳаёт дарахти”нинг тепасига уя қурган. Булутдек улғувор қанотлари билан “ҳаёт дарахти”ни ёвузлик кучларидан ҳимоя қилувчи “Саена меруға” (Семурғ) ҳақидаги илк мифлар, бизнингча,

Ворукаша ёки “Қирғоқсиз денгиз” деб аталувчи Орол денгизи бўйларида, яъни қадимги Хоразм воҳасида яратилган.

Қадимги космогоник мифологияда Семурғ образининг оламнинг самовий тузилиши билан бевосита алоқадор бўлган афсонавий ҳаёт дарахти билан боғлиқ ҳолда талқин қилинган. VI асрда паҳлавий тилида (қадимги форс тилида) яратилган “Минокехрат ёдгорлиги матнининг 62-бобида бу самовий образ эволюциясини кенг қамраб олувчи мифик тушунчалар картинаси намоён бўлади: “Ўликларга жон ато қилувчи ҳаёт дарахти Хома Ворукаша денгизининг ўртасида ўсади. Ҳаёт дарахтини микон қилган Семурв (Семурғ) эзгулик ҳомийсидир. Ҳар гал уясида кўтарилиганда дарахт шохларидан минглаб янги новдалар ўсиб чиқади ва бир сафар кўнганида минглаб шохлар синиб, жаъми ўсимликлар уруғлари турли томонга сочилади”(2). Ҳаёт дарахтининг самовий куш билан боғлиқлиги ҳақидаги тасаввурларни Скандинавия, ҳинд-европа, Сибирь, яъни халқлари мифологиясида ҳам учратамиз. Шу нарса диққатга эливорки, мифлардаги ҳаёт дарахтининг учиди катта куш тасвирланса (қадимий хинд-эрон мифларида – Семурғ, арабларда – Феникс), илдизларига илон ўралиб ётади (Скандинавияликлар мифларида Нидхегт номли илон). Мифик “ҳаёт дарахти” “Авесто”да тасвирланган Хома (хинд мифологиясида – Сома) ёки “Хварри” (“Серсув”) номли дарахтни эслатса, куш ва илон билан Шарқ фольклоридаги Семурғ ва у уя қурган катта дарахтга чирмашаётган илон образлари орасида ҳайрон қоларли ўхшашлик бор.

Шарқ халқлари фольклори ва мифологиясини яхши билган Исажон Султон ўзининг “Боғи Эрам” ҳикоясида қаҳрамони кўз ўнгида намоён бўлган ғаройиб гўша тасвирини баён этар экан, архаик мифологиядаги куш ва “ҳаёт дарахти” жуфтлиги ассоциациясини сақлашга ҳаракат қилган. Ҳикояда тасвирланишича, “Қопканинг шундоқ ёнгинасида жудаям улкан бир яшил дарахт” бор бўлиб, унинг “шохлари булутлар орасида кўзга кўринмай кетган” эди. Бу лавҳада тасвирланган “яшил дарахт” архаик мифологияда уч олам – Кўк (осмон), Замин ва Ер ости дунёларини ўзаро бирлаштириб турадиган “ҳаёт дарахти”нинг бадиий талқинидир. Этнограф олим М.И.Шахнович коинот ҳақидаги мифларда “дунё дарахти” тўғрисида маълумотлар учрашини таъкидлайди. Унинг фикрича, “дунё дарахти”нинг илдизлари осмонга, шохлари ерга қараб турган ҳолда тасвирланади. Бу олам тимсоли ёки олам асосининг тасвири бўлиб, дунёни ушлаб турувчи ўқ (ўзак) сифатида тасвирланади.

Сибирь халқлари шомонларининг инончига кўра Дэмург бургути тез-тез ана шу дарахтга қўнади”(3), деб ёзади.

Мифологик тасаввурларга кўра, “ҳаёт дарахти”нинг илдизлари ер остида жойлашган бўлса, унинг шохлари булутлар оша осмонга туташиб кетган, шу тариқа бу улкан асотирий дарахт уч олам, яъни Кўк (юқори олам – руҳлар маскани), Замин (одамлар истиқомат қиладиган ер) ва Ер ости (қуйи олам – ўликлар мулки)ни ўзаро бирлаштириб туради. Бинобарин, қадимги туркийларнинг шомонистик мифологиясида шомон руҳлари айнан ана шундай “ҳаёт дарахти” воситасида “ўзга олам”ларга сафар қилиши тасвирланган.

Ҳикояда ғаройиб богдаги дарахтнинг ранги “яшил” эканлигининг алоҳида таъкидланиши ҳам бежиз бўлмай, космогоник мифологияга алоқадор деталь ҳисобланади. Чунки мифга кўра, “ҳаёт дарахти” мангу яшил бўлиб, доимо ўсиб туради, ҳеч қачон қуримай ва ҳамиша яшнаб туради. Унинг “ҳаёт дарахти” деб аталишининг боиси ҳам ана шунда.

Ёзувчи Исажон Султон “ҳаёт дарахти” тўғрисидаги мифнинг анимистик эътиқодлар, яъни жоннинг танадан бошқа жойда мавжуд бўла олиши тўғрисидаги эътиқодий қарашларини ўз ҳикоясига маҳорат билан сингдира билган. Ҳикояда тасвирланишича, Боғи Эрамга кириб қолган қаҳрамон шохлари осмонга бўй чўзган улкан яшил дарахтга назар ташлар экан, “ҳар замон-ҳар замонда унинг шохларидан япроқлар узилиб тушаётир. Мана, шундоққина оёғим остига сарғайган бир барг келиб қўнди. Мен эгилиб қараб, баргда ёзув борлигини кўрдим. Сарғиш томчилари бўртиб турган япроқ сиртига “Холмуҳаммад Зиё ўғли” деб битилган эди.

Ҳикоядаги яшил дарахт баргининг узилиб тушиши ва унда киши исмининг ёзилганлигининг тасвирланиши ҳам анимистик тасаввурларнинг ёзма адабиётдаги ўзига хос талқинидир. Мифологияда “ҳаёт дарахти” биргининг узилиши ерда яшайдиган бирор киши ўлганлигининг аломати тарзида тасаввур қилинган. Яъни, қадимги одамнинг мифологик тасаввурига кўра, ерда қанча одам яшаса, “ҳаёт дарахти”нинг ҳам шунча япроғи бўлади. Унинг шохларида янги барг ўсиб чиқиши чақолоқ дунёга келишидан, япроқ узилиб тушиши эса инсон ўлиmidан далолат беради деб ўйлаганлар. Бинобарин, “Боғи Эрам” ҳикоясида ҳам “яшил дарахт” япроғининг узилиб тушуши ва унда “Холмуҳаммад Зиё ўғли” деган битикнинг мавжуд бўлиши бу ўринда номи зикр этилган кишининг умри поёнига етганлигининг ифодаси сифатида талқин қилинади. Бедазор

шонидаги ариқдан ҳатлагач, қотиб қолган ва ўз хушини йўқотган ҳикоячи-қаҳрамон онасининг бағрида ўзига келгач, онасининг руҳи синиқлигидан ўша куни ҳамиша кўчанинг бошида, лойсувок уйининг олдида доим кўбиди исиниб ўтирадиган Холмуҳаммад бува вафот этганлигидан хабар топиши.

Ёзувчи ҳаёт дарахти тўғрисидаги космогоник миф ҳамда одам жонининг танадан бошқа жойда мавжуд бўлиши ҳақидаги аниматик мифология воситасида ҳаётнинг моҳияти – гўзалликка интилиб яшашдан иборатдир, деган ғояни илгари суради. Ҳикоя қаҳрамони ўз умри мобайнида тўрт марта Эрам боғини кўриши ва ҳар сафар боқий чинорнинг урилиб тушаётган япроқларидан бирида муайян бир кишининг умри поёнига етганлигидан хабар топиши тасвири орқали ўқувчини ҳаётнинг кўнраги етишга, бу оламдаги барча мавжудодлару наботот дунёсининг тақдири бир-бири билан чамбарчас боғлиқлигини идрок этишга, борлиқнинг саодатбахш гўзаллигини асраб-авайлашга чорлайди. Ҳикоянинг моҳиятини англашда унинг охириги лавҳасидаги бир деталь, айниқса, муҳим аҳамиятга эгадир. Бу ҳикоя қаҳрамони ўзи умр бўйи интилган манзили – Эрам боғи остонасига қадам кўйишдан аввал ариққа пош оқизаётган болакай тутқазган бир парча нондир. Қаҳрамон ана шу “сунга бўккан бўлса-да, тафтини йўқотмаган бир бурда нон”ни кафтига сиққанча гўзаллик оламига сингиб кетади. Назаримизда, бу ўринда болакай томонидан қаҳрамоннинг кўлига тутқазилган бир парча нон – одамзоднинг қисмати дир. Зеро, ёзувчи ушбу ҳикояни бир ўринда “Қисмат дарахти” деб номлаганлиги ҳам бежиз эмас.

Аслини олганда, мифлар ҳам қадимги аجدодларимизнинг борлиқ олам ҳақидаги ўй-хаёллари ва тасаввурларини ўзида мужассамлаштирган “тирихий хотираси” ҳисобланади. Ҳикояни ўқир экансиз, ёзувчининг бидний маҳорати туфайли мифологик макон билан реал воқелик тифсилотлари бирлашиб, инсоннинг кўз ўнгида кечаётган воқеа-ҳодисалар билан унинг онг ости ҳислари орқали етиб келган кўҳна асотирий талқинлар қатма-қат жойлашади. Бу ўринда оламнинг самовий тузилишини изоҳлаш, тушунтириш мақсадида яратилган қадимги космогоник миф унсурларидан бири Эрам боғи ҳақидаги асотирий сюжет билан одам жонининг реинкарнацияси, яъни бир шаклдан бошқа кўринишга ўтиши тўғрисидаги анимистик мифнинг поэтик талқини бадиий митнинг структураль-семантик асосини ташкил этади.

Хулоса қилиб айтганда, ёзувчи Исажон Султон ўзининг “Боғи Эрам” ҳикоясида нафақат асар қаҳрамонининг руҳий кечинмалари, балки давр

муаммолари, хусусан, экологик фожеалардан озор чекаётган она-заминидосини ифодалашда ҳам халқимизнинг бокира табиатнинг бирламчи нафосати ва гўзаллигини ўзида ифода этган мифологик тасаввурлардан унумли фойдаланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу ар-Рашид ал-Бакуви. Китаб талхис ал-асар ваъаджаъиб Ал-Малик Ал-Каххар. М. 1971. С.15.
2. “Авесто”. Яшт. XIV, 41-бет.
3. Шаханович М.И. Первобытная мифология и философия. Наука. Ленинград. 1971 г. Стр.154-155.
4. Жўраев М. Саттиева Д. Ўзбек фольклорида ҳаёт дарахти. Тошкент “Фан” нашриёти 2010. 22-бет.

“ҲАР МИЛЛАТ ЎЗ ТИЛИ ИЛА ФАХР ЭТАР...”

Қ. Пардаев, ф.ф.н. (ТошДУТАУ)

Ш. Амонов, ф.ф.н. (ТошДУТАУ)

XX аср бошларида ўзбек адабий тилини ривож топтириш, бунинг учун қандай йўллардан бориш лозимлиги муҳокама қилина бошлади. Бу борада энг тўғри йўл сифатида халқ жонли тили имкониятларидан кен фойдаланиш, ўзбек тилини бошқа тиллар таъсирига тушиб қолишдан муҳофаза қилиш масаласи кун тартибига қўйилди. Маърифатпарвар ижодкорларимиз миллий тилимизнинг бошқа бегона тиллар таъсирида бузилишига қаршилик кўрсатишди. Мактаб ва мадрасалар дарсликларини тили ва матбуотда чоп этилаётган мақолаларнинг соф ўзбек тилида бўлиши учун курашди. Тил масаласига оид кўплаб танқидий мақолалар вақтли матбуотда мунтазам эълон қилиб борилди.

Иброҳим Тоҳирийнинг “Ал-Ислоҳ” журналида чоп қилинган “Матбуот ва ислоҳ” сарлавҳали мақоласи бу жиҳатдан характерлидир. Муаллиф Туркистонда нашр қилинаётган асарлар ва газета-журналлар тили, хусусан, матбуот хусусида фикр юритиб, уни ахлоқий-маънавий озуқа берувчи омил сифатида талқин этади: “Бир халқнинг матбуоти ўшал халқнинг кўнглида ёширингон, кўкрагида сақланган тилакларини, орзуларини энг очик суратда кўрсатадургон ойнасидур. Бир халқнинг матбуоти ўшал халқнинг ўтганини, келажағини ва андо ўлгон ва ўлажақ умидларини, фарзларини, йўлларини, қайғуларини сўзлайдургон бир тилдур...” (Ал-Ислоҳ, 1915 йил, 5-сон, 141-бет).

Иброҳим Тоҳирий Маҳмудхўжа Бехбудийнинг “Падаркуш”, Нусратулла Кудратулла ва Ҳожи Муин ҳаммуаллифлигида ёзилган “Тўй” драмаларининг тил хусусиятларига аҳамият қаратиб, кескин танқид қилади. Ҳатто мактаб болаларининг иншо ва имлоларига менгзайди. “... “Падаркуш”, “Тўй” рисолачаларина қарангиз”, – деб ёзади муаллиф. – “Туркистончиларнинг ўз шеваларина ёзуб нашр этгон асарларинда тил шикати ила дурустлик ва поклик йўқдир...” (Ал-Ислох, 1915 йил, 6-сон, 178-бет).

Тўғри, бу асарлар ўз даврида кенг муҳокама қилинди. Ҳатто “Тўй” драмасининг муаллифларидан Ҳожи Муин бу камчиликларни тан олиб, “Тилбеҳга ташаккур” сарлавҳаси билан иқрорнома тарзида мақола ёзди. “Тўй” пьесаси ўзбек драматургияси тарихида “Падаркуш”дан кейин яритилган иккинчи асар ҳисобланади. Асарнинг босилиб чиқиши адабиёт оламида катта қувонч билан кутиб олинди. “Тўй” чоп этилганлиги ҳақида кескача тақриз берган “Ойна” асарни “ибратомуз” деб таърифлайди. “Садои Туркистон” муаллиф шаънига “яшасун бундай ёш фикрли юлларимиз!” (Садои Туркистон, 1914 йил, 5-ноябрь) дея хитоб қилди. “Тил тўғрисидаги, баъзи камчиликларни истисно қилганда, ўз турмушимиз дурустгина тасвир қилинган”, деб ёзди.

Биргина “Тўй” драмасининг тил хусусияти билан боғлиқ качиликлар турли нашрларда кўрсатилган, бу масалада ҳам муайян мунозаралар бўлиб ўтган. Жумладан, Иброҳим Тоҳирийнинг “Ал-Ислох” журналидаги “Матбуот ва ислох” номли мақоласига зид равишда “Ойна” журналининг 1915 йил 12-сонида имзосиз “Люф” сарлавҳали мақола чоп этилган. Миқолада Иброҳим Тоҳирий фикрларига зид мулоҳазалар учрайди. Иброҳим Тоҳирийга мурожаат қилиб, “Падаркуш” асарининг камчилик жиҳатини кўрсатинг, деган саволни кўяди номаълум муаллиф. Шундан сўнг эса “Падаркуш” драмасида айрим русча сўзлар борлигига иқрор бўлиб, бу ҳол асарнинг қимматини туширмаслигини таъкидлайди. Тожик тили аралашувини эса ота-боболар ёзган диний ва ахлоқий китоблар ва миқраса тили таъсири сифатида изоҳлайди. Шу билан бирга “Ал-Ислох” журналидаги Иброҳим Тоҳирий мақоласига таъна қилиб, бундай ёзади: “Бурунги замонда турк шеvasини тожик тилидан тозалаб, соддалиғина ва поклиғина қайтарув ул қадар қийин бўлмаса керак, Тоҳирий бу икки хатлик жумласида ўн уч калима туркий, тўққиз калима арабий – форсий библидурки, ўз сўзига ўзи амал қилмайдур...” (Ойна, 1914 йил, 2-сон).

Тил ҳақида “Ойна” журналида ҳам танқидий мақолалар чоп этилган. Жумладан, 1914 йил 11- сонида имзосиз муаллиф томонидан “Ҳар миллат

Ўз тили ила фахр этар” номли мақола босилиб чиққан. Мақолада худди юқоридаги фикрларга мутаносиб мулоҳазалар бор. Муаллиф таассуф қилиб, бошқа миллатларни мисол қилиб кўрсатади. Қайси миллат ўз оми тилини ташлаб бошқа бегона тиллардан сўз олади, дея афсусланади. Мисол қилиб, русча калималарнинг халқ тилида тез - тез тилга олинуши, ҳатто драма, вақтли матбуот тилида ҳам русча, арабча ва тожикча сўзларнинг аралашувини танқид қилади: “Ушбу Туркистонимизда қайси бир рус, ё қайси бир арман ўз тилини қўйиб бир – бирови ила туркча сўйлайдур. Аммо бизнинг сўзлашганимиз вақтда ҳар бир жумлада бир калима рус сўзи эшитилур. Агарда тил ва адабиётимизни муҳофаза қилмиш анга ажнабий луғат ва сўзларни қўшаберсак бир оз замонда тил ил миллатимизни йўқотурмиз. Миллатимизни йўқотганда диёнатимиз ўз - ўзи ила албатта йўқолур”. (Ойна, 1914 йил, 11-сон).

Бу масалада Ашурали Зоҳирийнинг “Садои Фарғона” газетаси 1914 йил 13 апрель сонидagi “Она тили” номли мақоласи диққатга лойиқдир. Мақола “Она тили” деб номланган бўлсада, унда миллий адабиётнинг ўша даврдаги аҳволи, миллий адабий тил ҳақида фикр юритилган. Муаллиф мақоланинг бошидаёқ адабиётнинг кенг маъносига мана бундай таъриф беради: “Бир миллатнинг ўз тилидаги китоб, рисола, газета, журнал ил бошқаларига бир сўз билан “адабиёт” дейилур. Шунинг учун арабча китоб ва рисоаларга “адабиёти арабия”, турк, татарча бўлгонларига “турк адабиёти”, “татар адабиёти” дейилур”. Ашурали Зоҳирийнинг бу фикрларига қўшилмаслик мумкин эмас, албатта. Мақолада муаллиф тили ва адабиёти бўлмаган ёки етарлича тараққий топмаган миллатнинг бошқи халқлар олдида ҳурмат ва эътибори ҳам юқори бўлмайди, деган фикрни илгари суради (Садои Фарғона, 1914 йил, 13-апрель). Зиёлилар, уламолар умуман ўқимишли ёшлар муқаддас она тилимизни ривожлантирмоқ у ёқди турсин, балки йўқотмоқликка сабаб бўлаётганларини кўриб афсусланади, ўзбек тилини менсимай, форс, араб, татар тилларида ҳужжат ишларини юритаётган, бир - бирларига хатлар ёзаётган туркистонликларни қаттиқ қоралайди.

Аслида, Ашурали Зоҳирий ўзга миллат тилларини ўрганишга қарши бўлган эмас. Унинг: “Дуруст, форсча, арабча, ўрусча ва бошқаларни ҳам билайлик, билайликкина эмас, яхши билайлик, лекин ўз она тилимизни ҳаммасидан ортиқ ва зиёда билайлик”, – деган фикрлари ҳам бунни тасдиқлайди. Муаллиф она тили тараққиёти масаласини халқ, жамият, давр билан боғлаб текширишга интилади. Унинг фикрича, халқ ва тил бир –

бири билан чамбарчас боғлиқдир, бирини иккинчисидан ажратган ҳолда таъини қилиб бўлмайди.

Маҳмудхўжа Бехбудий ва Ҳожи Муиннинг тилга оид қарашлари бу борадаги мунозаралар моҳиятини тушунишда, айниқса аҳамиятлидир. Ҳожи Муин 1913 йилнинг охирига келиб, адабий танқид бўйича мақоласини эълон қилди. Шу пайтдан эътиборан “Ойна” журналида унинг биринчи ҳам форсийда ёзилган мақоласи кўзга чалинмайди. Ваҳоланки, 1914 йилнинг баҳор ва ёз ойларида Маҳмудхўжа Бехбудий Самарқандда бўлган даврда “Ойна”нинг тақдири муҳаррир сифатида Ҳожи Муин ишга берилган эди. Ҳожи Муин анча тадбиркор бўлгани сабабли икки кўнрақдаёқ журналнинг техник ва таҳририй жиҳатлари анча яхшиланди. Ҳожи Муин Маҳмудхўжа Бехбудийнинг истагидан бир оз чекиниб, “Ойна”ни соф туркий журналга айлантириб қўйди. Бироқ журнал муносабатидаги “туркий – форсий мусулмон журнали” иборасини ўзгартирмади.

Хулоса қилиб айтганда, ўтган аср вақтли матбуотида миллий тил масаласига алоҳида эътибор берилиб, кўплаб танқидий мақолалар эълон қилинди. Ўз навбатида, бундай мақолалар миллат зиёлилари ўртасида ижодий мунозараларга сабаб бўлди. Ҳаёт-мамот масаласи бўлган миллий тилни тараққий топтириш ўтган юзйилликда қанчалик долзарб бўлган бўлса, биз яшаётган XXI асрда ҳам шунчалик муҳимдир.

ҚЎЛЁЗМАЛАРНИ ВАРАҚЛАГАНДА...

Н. Мирсағатова, катта ўқитувчи (ТДПУ)

Л. Ҳамидова, талаба (ТошДУТАУ)

Ўзбек адабиётшунослишида Адишер Навоий ҳаёти ва фаолияти, ижодий мероси, асарларининг мавзу ва обоазлар тизими кўп ўрганилган. Навоийшуносликда эришилган ютуқлар бугун дунё аҳлини ҳайратга солиётгани бежиз эмас. Айниқса, матнунослик ва манбашунослик нуқтиида қилинган тадқиқотлар, шоир ижодий лабораториясини яраттириш борасидаги илмий тадқиқотлар Навоий даҳоси илмий ва ижодий фаолиятини янада мукамал кенг китобхон оммасига тақдим этиш, адиб асарларининг қўлёзма манбаларини ўрганиб, қиёсий жиҳатдан муқояса қилиб, улар орасидаги фарқ ҳамда камчиликларни синчиклаб кузатиш шиттижасижа қилинган ишлар таҳсинга лойиқ.

1961 йилда навоийшунос олима Суюма Ғаниева томонидан “Мажолисун нафоис”нинг илмий-танқидий матни яратилди. Мазкур таҳқиқий матнга Ленинград, Париж, Вена, Истамбул, Тошкент,

Сталинобод, Боку қўлёзма нусхалари асос қилиб олинган. . Мана шу қўлёзма нусхалар ва Техронда нашр этилган форс тилидаги таржималарини тўплаб тадқиқот ўтказиш жараёнида , баъзи қўлёзма нусхаларга ўзгартиришлар киритилгани маълум бўлди. Иккинчи тахрирда Навоий шоирлар ёш талантликлар ҳақида қўшимча маълумот киритади. Иккала реакциянинг тили ўхшашлиги, текст муаллиф тилидан баён қилинганлиги ва шунга ўхшаш сабаблардан Навоийнинг ўзи кейинчалик тазкирани тўлдирган, деган хулосага келиш мумкин.

Маълумки, Навоий бутун умр халқ маданий ҳаётини ривожлантириш, адабиёт, санъат, мусиқа, фан, умуман олганда, мамлакат маънавий-маърифий ҳаётини тараққий эттириш учун қўлидан келгунича ҳаракат қилган. Шоирнинг улуғ ишларидан бири, ўз даврининг адабий фаолияти билан таништирувчи “Мажолисун нафоис” тазкирасини ёзиб қолдирганидир. Навоий ушбу асарда таниқли шоирлардан тортиб, эндигина шоирлик фаолияти билан шуғулланувчиларга, ҳунарманд шоирлару ҳаваскор шоирлар ҳақида маълумот беради. Замонаси шоирларини фақат яхши томонларинигина эмас, балки салбий иллатларини танқид қилиб ўтади. Бу камситиш ёки беҳурматлик қилгани эмас, балки бу уларга адабий-танқидий нуқтаи назардан дарс бўлишини истайди. Давр ижодларида шу хатоларни такрорламасликларини истайди.

Тазкира саккиз мажлисдан иборатдир. Буларнинг барида жами 459 та ижод аҳли ҳақида сўз юритади.

Биринчи мажлисда XV аср биринчи ярмида ижод этган 46 та машҳур шоирлар ҳақида маълумот берилади.

Иккинчи мажлисда 91 та муаллиф ҳақидадир. Масалан, Шарафиддин Али Яздий, Лутфий, Атоий, Саккокийлардир.

Учинчи мажлисда Навоий ўзи билан бевосила мулоқотда бўлган адиблар ҳақида бўлиб, ушбу мажлисда 175 та адиб ҳақида маълумотлар келтирилган.

Тўртинчи мажлис Навоийга замондош бўлган 72 та ҳаваскор шоир тилга олинади. Ушбу ҳаваскор шоирлар ҳунарманд, меҳнат аҳллари бўлиб, улар ўз касбларини ташламаган ҳолда шоирлик қилишган. Навоий уларни эъзозлаб, моддий ва маънавий ёрдам бериб турган.

Тазкиранинг бешинчи мажлиси Хуросон ва Хуросон атрофида яшаган 21 та аслзода ва мирзодаларга ажратилган.

Олтинчи мажлис Хуросон атрофидаги Хоразм, Самарқанд, Сова, Шероз, Шаҳрисабз халқларидан 31 таси тазкирага киритилган.

Еттинчи мажлис темурийлар авлодидан хоб байт ўқувчи 22 шахснинг номи лелтирилади.

Саккизинчи мажлис эса, Навоийнинг болаликдаги дўсти Ҳусайн Ўлқирога бағишланган.

БОЛАЛАР ШОИРИ САФАР БАРНО ИЖОДИДА ИСТИҚЛОЛ МАДҲИ

Ҳ. Нусратова, катта ўқитувчи (БухДУ)

Истеъдодли ижодкор, ўзбек болалар адабиётининг пешқадам шикшларидан бири, Ғ.Ғулом мукофоти совриндори Сафар Барноев ҳаёт бўлганида 78 ёшга кирган бўлар эди. Ижоди айни гуллаган вақтда ҳаётдан кетган шоир мустақиллик йилларида баракали ижод этди. Унинг мустақиллик даврида ёзилган шеърлари, публицистик асарлари, хотира ва эсселари – барчасининг қон томири истиқлол болалари - баркамол авлод дунёқарашини, маънавиятини бойитишга қаратилганлиги билан титиборлидир. “Истиқлол адабиёти ривожининг яна бир етакчи хусусияти бу – инсон руҳиятининг фалсафий - психологик таҳлил орқали шахсни кимолга етказишда, комиллик аломатларини улуғлашда кўзга ташланади. Одамдаги одамийликни кашф этиш устувор тамойилга айланиб бормоқда”¹. Шу жиҳатдан қараганда шоирнинг “Бобом ўғитлари” туркум шеърлари муҳим аҳамиятга эга эканлиги яққол кўринади.

Шоирнинг туркум шеърларида бобо образи биринчи ўринда туради. Бизга маълумки, ўзбеклар, умуман, туркий халқларда бобо - бувилар жуда эрдокланади. Уларнинг сўзлари, насиҳатларини қулоққа илган фарзандлар доим камол топиб боради. “Қариси бор уйнинг париси бор” деган мақол бежиз айтилмаган. Шунинг учун бўлса керак, шоир ўғитларини боболар тилидан баён этади:

Бобом дерлар:

– Мустақиллик сўзин,

Мағзин чақиб ол.

Ҳар бир ҳарфин нишон қилиб,

Кўкрагингга тақиб ол.

Нега “ҳар бир ҳарфин”. Бу саволга шоирнинг ўзи бир суҳбатиде шундай жавоб беради: “Мустақиллик туфайли бугунги болалар эркин фикрлашга ўрганди. Тарихни билди. Ота-боболарини таниди...”²

¹Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляги. Тошкент, Фан, 2007. –Б. 6

²Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1999 йил, 16 июнь.

Шоир мустақиллик сўзини шунчаки эрмакка айтиб бўлмайди, бу сўзни айтиш учун, бу кунларни кўриш учун қанчадан-қанча мардлар зор бўлиб жонларини фидо этганларини бобо тилидан ифодалайди. Шеърда олқини кучли:

Хумо қуши бошгинанга

Қўнди: муборак бўлсин!

Сўзинг сўзу,

Ўзинг ўзу,

Алпомиш юрак бўлсин!

Бобо болаларни ақлли, жасур, ўз сўзига эга бўлишга ундайди. Шеърдаги бўш, баёв, ношуд болаларни “мустақиллик хуш кўрмайди” деган сўзлар ана шундан келиб чиққан. Ватан, халқ унга кўз тикиб, умид билан қараётганини уқтирган шоир ҳақиқатан ҳам истиқлол боласи – баркамол авлод қалбида уни асраш, Ватанга муносиб бўлиш туйғуларини тарбиялай олади.

“Ўзбекнинг болалари” шеърда бу ғоя давом эттирилади. Шеърда ўзбекнинг боласи қандай бўлиши керак деган саволга тўлиқ жавоб оламир:

Ўзбекнинг болалари бургут бўлиб ўсмаса,

Кўкрак кериб ўсмаса,

Бош кўтариб ўсмаса

Эртага

Алпомишлар босган излар ўчадир...

Шоир мустақиллик болаларининг Алпомишга ўхшашини орзу қилади, шунинг учун болаларни бургутдай ҳамиша юкорига юксакликни кўзлаб учишга ундайди. Ўзбекнинг болалари ёв йўлини тўсолмаса, шоир буни образли қилиб, “кундуз бизга кечадир” деган сатрларда ифодалайди. Бундай йигитлардан Барчинлар ҳам кечишига ишонади.

С.Барноевнинг маҳорати шундаки, қисқа мисраларга катта мазмунни жойлай олган. Шеърда лирик чекинишга ўрин бериб, ўтмишга саёҳат қилади: Тонг отмай кеч кирганин, Бизлар кўрдик. Озодликни соғиндик, Соғиндик эркинликни...деб ёзади. Ўтмишдаги қора, совуқ кунларни эслаш орқали бугуннинг кадрига етиш зарурлиги таъкидланади. Шоир шеърда халқ мақолини ўзгартириб қўллайди:

Оққан дарё тинмади,

Иродамиз синмади.

Шеър ниҳоясида шоир ўзбекнинг болалари жаҳонга чиқишини, миллат номини дунёга танитишни истайди. Буни образли тарзда “Дунё бугун Сизларга, Йўлламоқда Ассалом!” сатрларида ифодалайди.

Шоир мустақиллик болаларига ҳавас қилади, уларни олқишлайди.

Мустақиллик болалари, умрингиз тўлиқ бўлсин,

Улуғ юртда яшайсиз, ризқингиз бўлуғ бўлсин!

Бу мисра шеър охирида ҳам такрорланади. “Мустақиллик болалари” шеъринда ҳам лирик чекиниш қилиб- ўзининг ҳаётига назар солиш, ҳарликда яшаш азобларини эсга олади. Бундай контраст усули билан истиклолнинг ҳаётдаги ўрни катталигига ургу беради.

Шоир шеърларининг бош қаҳрамони мустақиллик болалари бўлиб. Уларни “Эрк боғининг гуллари”га ўхшатади. Дунё дарвозалари-зиё дарвозалари очилганини таъкидлайди. Яқин ўтмишда “минг йилликка пайндор” Ўзбекистон деган юрт борлигини билмай армонда ўтганлар кинча, энг аламлиси шуки:

Айтолмасди давраларда

Мен деб ўзбек боласи...

Лирик қаҳрамон хотирасидаги ўтмиш аламлари мисолида ўз юрти, миллати бошига тушган зўравон тузумга қарши бош кўтарган нолаларини сатрларга тизади. Шу боис шундай хулоса қилади:

Аламларни айтаверсак,

Минг тўяга юк бўлар.

Ўтди бари,

Билинг шунки,

Бу Ватан буюк бўлар...

Кўринадики, шеърда ижтимоий тузум норасоликларидан ёнган, куйган ва лекин адо бўлмаган инсон руҳи ҳам бўй кўрсатади. С.Барноев бу шеър орқали мустақилликнинг қадрига етиш зарурлигини қайта-қайта таъкидлайди. Унинг кўпчилик шеърларида юқорида айтиб ўтганимиз-контрастдан фойдаланиш, бугун билан ўтмишни қиёслаш орқали шеърнинг ғояси тиниклашади. Мустақиллик болаларининг умри тўлиқ бўлиши истаги билан шеър интиҳосига етади.

“Бошимиз тошдан экан” шеъри юқоридаги шеърнинг узвий ва ғоявий дивомидир. Унда ҳам дастлаб шоир ўтмишга назар ташлайди, миллий гурур туйғуларининг мозий илдизларига мурожаат этиш асосида истиклолни улуғлайди. Бу шеър ҳам сюжетли шеърлар сирасига киради. Агар унинг ҳар бир сатрини кино кадрига олинса, ўтмишда халқимиз бошидан кечирган қора кунларнинг ҳар бир саҳифаси ёрқин кўриниб, китобхон кўз олдидан бирма- бир ўгади.

“Бошимиз тошдан экан, тош синди бош синмади” сатрлари билан бошланган шеърда халқнинг тутқунликда, эрксиз яшаганлиги аламли мисраларда ифодаланади:

Ипсиз белимиз боглаб.

Тилларга урди кишан.

Шеърда халқ оғзаки ижодининг таъсири кучли эканлиги сезилади. Халқимиз орасида қора мушук йўлингдан чиқса, ишинг юришмайди деган ақида бор. Шоир шунга: Йўлимиз кесиб ўтди, мудом қора мушуклар” дейиш билан халқининг қоронғиликда яшаганлигига ишора қилади. Энг аламлиси шундаки, шунда ҳам бахтлимиз деб кўшиқлар куйлаганлигидан эзилади.

Ёстимиз остида

Ухлади мудроқ зайрат,

Босиб ўтдик боболар

Очиб кетган булоқни.

Шеърда шоир шўро даврининг норасоликлари ҳақида очик-ойдин сўзламаса-да, ўша муҳитнинг фожиаларини реал тасвирлай олган. Буни миллийлик кўриниб турган: “қуя тушиб борганди мунчоқдек ақлимизга” сатрлари кўрсатади. Миллат фарзандларини уйғоқликка, курашчанликка даъват этувчи бу шеърда кўркүв чодирлари оёқ остида қолганлигидан, қуёшдайин ёруғликнинг қорачиқларга кўчганлигидан қувонган лирик қаҳрамон истиклолни улуғлайди:

Бошингиз тошдан бўлсин!

Ҳурлик баҳодирлари!

“Эртанинг бургутлари” шеърида ҳам мустақиллик болалари – баркамол авлоднинг бахти улуғланади: Кўп мактабни кўрди бу тарих,

Бир-биридан сирли, аломат....

Мустақиллик мактаби аммо,

Бизга насиб этди, саломат.

Шоир шеърда оригинал ўхшатиш яратиб: мустақиллик болаларини Ўзбекистоннинг бургутчаларига ўхшатади. Ватанни эса куйчи ота юрт деб таърифлайди. Юртининг жаҳонга ном таратаётганидан фахрланиб, образли ифодаларда уни олқишлайди.

Омон бўлсин, бу қутли диёр,

Парвозлари Бургутли диёр!

1998 нашр этилган “Ўзбекларсиз бу дунё ғариб...” деб номланган шеър “Даъватнома” деб аталади. Шеърда шоир ўз юртига жаҳон айвонидан назар ташлаб туриб, баҳо беради. Дунёни катта кемага менгзаган шоир

Ўзбекнинг шу кемада ўрни борлигидан қувонади. Шу билан бирга юртининг қадимийлигига ва бойлигига ҳам ишора қилиб ўтади:

*Ўз савлати
Иморати, қўрғонлари
От сурганда
Дунё эди ҳали бемор.*

С.Барноев ўз шеърларининг бадииятига алоҳида эътибор беради, шунинг учун мустақиллик даврида ёзилган асарларида бу хусусият бўртиб кўринади. Масалан, “Ўзбекистон ўз номини кундан олган” деган мисрада юртининг кундай равшанлиги, серкуёшлиги, чирой очиб бораётганлиги, келинчаги ойдинлигига ишора қилинмоқда. Шу боис шоир:

*Ўзбекларсиз,
Билинг, олам тамом гариб*

дод ёзади. Мустақиллик иморатини қураётганларни эса шундай таърифлайди:

*Омонликнинг қўрғонини қураётмир,
Энди кўзин очаётган Алпомишлар...*

Бошқа бир шеърда яна талмеҳ санъатидан фойдаланади:

*Дунёда ўзбекман деган сарбаланд,
Қаддини кўтарди бўлиб Алпомиш.*

(“Ўтган кунлар шарҳи”).

“Энди кўзин очаётган” Алпомиш қаддини кўтармоқда. Шоир шеърдан шеърга руҳи баланд, мустақил юрт фарзандларининг Алпомишга ўхшашларини орзу қилар экан, бошқа асарларида ҳам бу образга тез-тез мурожаат қилади.

С.Барноевнинг мустақиллик даврида ёзилган асарлари таҳлили шуни кўрсатадики, шоир ҳамиша болаларни эркин асрашга, юртни ҳимоя қилишга даъват этиб келган. Истиқлол даврида ёзилган шоир асарларининг ўзига хослиги ёш китобхонлар қалбида ўз аجدодларидан фخرланиш туйғуларини шакллантириш, ўз-ўзига ҳурмат ҳиссини орттириш, ўз қадрини, юрт қадрини баланд тутиш ғоясига йўғрилганлигида намоён бўлади. Юртбошимиз 2010 йилни “Баркамол авлод” йили деб эълон қилдилар. Шоир шеърлари айни шу баркамол авлод қалбини, маънавиятини бойитишга хизмат қилиши боис бундай асарларнинг умри узоқ бўлиб бораверади.

“ҚИСАСИ РАБҒУЗИЙ” ВА ТАВРОТ

М. Курбаниязов, катта ўқитувчи (ҚорақалпоқДУ)

“Қисаси Рабғузий” асарининг яратилиши, асарнинг яратилишиги асос бўлган манбалар ҳақида Рабғузийнинг ўзи маълумот беради. У Абу Исҳоқ Нишопурийнинг “Қисас ул-анбиё” ва Ваҳб ибн Муннабиҳнинг “Қаъб ул-ахбор” асарларидан, Қуръони Каримдан фойдаланганини таъкидлайди. Бизнинг диққатимизни жалб қилган масала – Тавротнинг “Қисаси Рабғузий” асаридаги ўрнидир. Рабғузий Тавротга муҳим манбалардан бири сифатида эътибор қаратади. “Қисаси Рабғузий”да Таврот ҳақида қисқа маълумот берилди. Хусусан, Таврот ҳақида келтирилган маълумотда яҳудийлар Мусодан ваъда қилинган китобни талаб қилдилар, “*Мусо Тур тоғинга келди, муножот қилди, айди: Изиё, сен билурсен, ким не тилаюр бўлар. Мавло таоло “ТАВРОТ” отлиғ китобни Мусога изди. Минг суралиғ оёт ўн лағҳ узра битиклик*”³. Асарда Таврот билан боғлиқ бундан кейинги воқеалар Мавло таоло юборган мазкур китобнинг илоҳий хусусиятлари, Исроиил халқининг ўжарлиги ва Мусо уларни жазолагани ҳақидаги воқеалардан иборат.

Биз ҳар икки асардаги диний таълимот ва унинг моҳияти ҳақида тўхталмаймиз. Бу – диншунос олимларнинг вазифасидир. Бизнинг вазифамиз ҳар икки манбага бадий асар сифатида ёндашув ва улар ўртасидаги ўзаро муносабатларни таҳлил қилишдан иборатдир.

Шундан келиб чиққан ҳолда, Рабғузий ўз асарига Тавротдаги воқеаларни киритмаганми, Тавротдаги адабий жанрлардан фойдаланмаганми деган савол туғилади. Дарвоқе, шуниси диққатги сазоворки, Тавротдаги аксарият воқеалар маълум бир жанрлар – ҳикоят, қисса, хабар ёки бошқа бирон жанр орқали “Қисаси Рабғузий”да бор. “Қисаси Рабғузий” Тавротга қиёсланса, Таврот воқеалари айнан ўзгаришсиз ёки маълум бир жанрлар ўзгаришга учраган ҳолда қўлланганига ишонч ҳосил қиламиз. Рабғузийнинг ижодкорлик маҳорати адабиётшунос ва манбашунос сифатидаги билимдонлиги унга ўз асарини кенг оммага етказишга қаратилганидан яна бир марта далолат беради. Фикримизни далиллаш учун Тавротнинг рус тилидаги кейинги йилларда чиққан нашрларидан айрим ҳикояларни “Қисаси Рабғузий”даги айнан ўша воқеаларга қиёслаймиз.

Илм аҳлига маълумки, “Қисаси Рабғузий”нинг жанр хусусиятларини эътибор берсак, қисса таркибида бир қатор жанрларга – ҳикоят, лағифа,

³Носируддин Бурхониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи. 1990. 180-б.

риоят, нақл каби ўндан ортиқ жанрларга дуч келамиз. Бу жанрлар, шубҳасиз, ўзига хос жанр белгиларига эга бўлиб, ҳар бир жанрнинг маълум бир қатъий қоидалари мавжуд. Тавротнинг аслияти эса “Қисаси Рабғузий”даги сингари жанрларга бой эмас. Шундай экан, қандай қилиб Тавротдаги маълум бир сюжетларни Рабғузий шунча бой жанрларга айлаштира олди? Бунинг сабаби, биринчидан, Рабғузий Пайғамбарлар тўғрисидаги воқеаларни кенг оммага етказиш, иккинчидан, у катта ва шикоятчи ижодкор сифатида муҳим деб билган воқеаларни маълум бир қатъий жанрларга айлаштириш мақсадини ўз олдига қўйгани эди. Мисол тариқасида айрим воқеаларни солиштириб кўрайлик.

“Қисаси Рабғузий” “Одийлар сифати” қиссаси бор (*одий* – ёмон одам, душман демакдир). Қиссада Мусо бани Исроилнинг азалий душмани бўлган бутпараст халқ омолеқларни итоат эттиришдан олдин уларнинг юртига ўн икки айғоқчини юборгани (уларнинг исмлари ва қайси қишлоқдан экани бирма-бир келтирилади), бу халқнинг ҳайбатли ва қўрқинчли қиёфаси, айғоқчилар бу халқнинг баҳайбат кўринишидан ваҳимага тушиб қайтиб келгач, бу хабарни бани Исроилга етказгани, омолеқлар юртдан бир бош узумни икки одам ўртасидан ёғоч ўтказиб юртинг кўтариб келганлари, бани Исроил қўрққанларидан Мавло таолонинг Мусо орқали берган амрига итоатсизлик қилгани, МАННА деган егуликни Мавло таоло бани Исроилга етказгани ҳақида ва б. айрим мўъжизалар (жумладан, бани Исроил қирқ йил давомида саҳрода қолганларида уларнинг сочлари, тирноқлари ўсиб кетмагани, тўнлари қирланиб кетганда, унга солганлари, қир қуйиб, тўнлари бус-бутун қолгани) ҳақида ҳикоя қилинади. Мазкур воқеалар баёнидан иборат кичкина қиссани Рабғузий шунчалик маҳорат билан баён қиладики, бирон ўринда воқеаларнинг урилиши ёки ноаниқлик сезилмайди. Бундай фикр юритишимизга сабаб шуки, Рабғузий мазкур воқеаларни Тавротдан олгани шу қиссанинг ўзида шунора бор. Чунки Рабғузий шу қиссадан олдин – “Мусо алайҳиссалом Шомга борган қиссаси”да Мусо Тур тоғига борганда, “*Таврот*” *отлиг китоб ваъда бул*” гани ва “*Ўтуз минг ялавоч “Тавротнинг” шариати уза*”⁴ бўлганлари баён қилинган. Рабғузийнинг эътирофидан Таврот сюжетлари, мусусан, юқоридаги сюжетлар “Қисаси Рабғузий”га асос бўлгани аниқлашилади. Рабғузий гарчи бу воқеаларни “қисса” деб атаган бўлса ҳам, аслида бу воқеани яхлит битта ҳикоят деб қараш мумкин.

Тавротнинг “Саҳрода” китоби 13-бобида ва ундан кейинги айрим бобларда (14-боб, “Чиқиш” китобининг 16 ва ундан кейинги айрим

⁴Юқоридаги асар, 177-б

боблардан танлаб олинган воқеалар) “Қисаси Рабғузий”даги юқорида би- таҳлил қилган айни ана шу воқеалар баён қилинади, мазкур китобнинг кейинги бобларида ҳам Мусо томонидан Канъон юртига юборилган ўн икки айғоқчининг исмлари ва қайси қабиладан эканлиги бирма-бир баён этилади. Улар бир бош узумни ўртасидан ёғоч ўтказиб елкаларида кўтариб келганлари тўғрисидаги воқеалар, улар одийлар (омолек ва иноқ насли)дан кўрқиб, ваҳимага тушганлари ҳақидаги лавҳалар (“Қисаси Рабғузий”да Мусонинг олдига ўттиз кундан кейин, “Саҳрода” китобида эса қирқ кундан кейин) ҳам айнан такрорланади⁵.

Савол туғилади: нима учун Рабғузий Тавротнинг икки китобидаги (“Саҳрода” ва “Чиқиш”) воқеаларни ихчамлаштириб, битта ҳикоят қилган? Тавротнинг аслияти баён усулини, қолаверса, деталларни сақлаб қолган ҳолда, воқеаларни ихчамлаштиришдан Рабғузийнинг мақсади нима эди?

Маълумки, Таврот қонунлар, ривоятлар, афсоналар ва низомлардан иборат⁶. Шу боис Тавротни халқ оғзаки ижодидан озикланган бадий асар сифатида эътироф этиш ўринли. Рабғузий эса ўз олдига бадий асар яратишни, турли жанрларга бой ёзма адабиётни яратишни мақсад қилиб қўйган эди. Шунинг учун Рабғузийнинг Тавротдаги воқеаларга муносабати унинг ижодий позициясидан келиб чиқади. Тавротдаги, хусусан “Чиқиш” ва “Саҳрода” китобларидаги бани Исроиилга Мусо орқали берилган қонунлар ва низомлар “Қисаси Рабғузий”да ярқ этиб кўринмайди. Тавротдаги бу қонунлар ривоятлар ва афсоналар таркибида бериладиги, Рабғузий Таврот воқеаларини жуда яхши билган нозиктаб ижодкор сифатида китобхон кўз ўнгида яна бир карра намоён бўлади.

Бу далиллардан маълум бўладиги, Рабғузий нафақат Абу Исҳоқ Нишопурийнинг “Қисас ул-анбиё”сидан ва Ваҳб ибн Мунаббихнинг “Қаъб ул-ахбор”идан, балки Тавротнинг ўзидан ҳам фойдаланган, деган фикр пайдо бўлади. Биз фақат бир қисса сюжети билан чекландик, холос. “Қисаси Рабғузий”нинг бошқа қиссаларида Тавротдаги айнан такрорланган сюжетлар, хусусан, ҳикоятлар борки, келгусида бу ҳақда алоҳида тадқиқот яратилиши кўзда тутилган.

⁵Исход. –РБО, 2007; Число.-РБО, 2008.

⁶Қарағ: В.Б.Никитина ва б. Литература древнего Востока. – Изд. МГУ, 1962, 81-83-бетлар.

ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ЭРТАКЛАРИДА АНЪАНАВИЙЛИКНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ

Д. Маликова, катта ўқитувчи (Фарғона солиқ коллежи)

Туркий халқлар эртақчилиги анъаналарининг ўз тарихи бор. Тарихий ва адабий манбаларга назар ташласак, эртақ сўйлаш, эртақларни ёзиб олиш, сақлаш азалдан анъана бўлиб келгани маълум бўлади. Айрим тарихий ва адабий манбаларда эртақчилик анъаналари кўзга ташланади. Масалан, Европанинги “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” асарида таърирланган Қаюмарс афсонасида, бизнингча, сеҳрли эртақларнинг айрим деталларини кўриш мумкин. Зотан, мазкур афсонада тотемизмнинг айрим кўринишлари бор⁷.

Шуниси ҳам борки, бир эртақ қисман ўзгаришлар билан, ammo сюжет ва мотив сақланган ҳолда Европа, Кавказ, Сибирь, Ҳиндистон, Кичик Осиё, Ўрта Осиё каби мамлакатларда кенг тарқалган. Эртақларнинг турли кўринишлари, бир томондан, сюжетларнинг, иккинчи томондан, сеҳрли деталларнинг, тимсолларнинг умумийлиги натижасида намоён бўлади, яъни бу воситалар ҳам тақдорланади. Дунё халқлари эртақларидаги ана шу тақдорланишни генетик ҳодиса сифатида қараш керакми ёки типологик ҳодиса сифатида қараш керакми – булар фольклоршунослиқда ҳал қилиниши керак бўлган масалалардир. Масаланинг бу тарафда қўйилиши эртақлар анъанавийлиги ҳам аслида фольклорнинг мезонларидан бири эканлигига асло ҳалақит бермайди. Анъанавийлик, ёзма адабиётдан фарқли равишда, фольклорни маданий ҳодиса сифатида ёйишга хизмат қилади.

Дунё халқларида турли кўринишда тарқалган эртақларнинг муҳим деталлари сифатида биз уч оға-ини ботирлар сюжетига мурожаат этганмиз ва бу эртақларни контаминация ҳодисаси сифатида талқин қилиб, ўз мулоҳазаларимизни илгари сурганмиз⁸. Фольклордаги бу сингари ўхшаш ҳолатлар ҳақида ўз вақтида М.В.Ломоносов славян халқ оғзаки ижоди миқолида фикр юритган эди⁹. Биз уч оға-ини ботирлар сюжети орқали сингари сурган қарашлар фақат деталлар ёки сюжетларнинг ўхшашлигигагина асосланиб қолмасдан, географик муҳит, давр, тарихий ва маданий алоқалар каби бир қатор мезонларни ҳам қамраб олган.

Туркий халқлар эртақларида жаҳон халқлари эртақларига монанд ёки жаҳон халқлари эртақларида учрайдиган мифологик образлар асосидаги

⁷ Қаранг: Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. – Тошкент, MUMTOZ SO‘Z. 2016. 48-бет.

⁸ Маликова Д. Эртақларда контаминация ҳодисаси // ЎЗМУ хабарлари. 2016.

⁹ Бу ҳақда қаранг: Аникин В.П. Теоретические проблемы фольклора в трудах М.В. Ломоносова // Филологические науки. 1993. №1. С. 10-19.

сюжетлар сифатида ибтидоий фикрлаш давридан анъанавий тарзда етиб келган рақамлар тимсоли (*уч, етти, ўттиз* каби), тотемистик образлар (*от, илон* ва ҳ.)нинг анъанавийлиги, уларнинг семантик ва функционал жиҳатдан бирлиги ҳақида ҳеч қандай шубҳа ёки баҳсли масалалар йўқ. Шу боис бу образлар ёки деталлар туркий халқлар эртаклари шадостонларининг ҳаммаси учун географик муҳит, тарихий давр нуқтан назаридан умумий образлар ҳисобланади. Шу билан бирга, дунё халқлари эртакларида айрим культлар борки, улар семантик ва функционал жиҳатдан яхлитлик касб этади. Бу анъанавий мифологик образларни ҳам географик ва маданий муносабатлар доирасида бир деб қараш мумкинми, булар типологик ҳодисадан ташқари бўлиб, генетик ҳодиса сифатида қараладими деган ўринли саволлар туғилади. Масалан, *дарахт* ёки *ўрмон, сув* ва бошқа бир қатор культлар дунё халқларининг кўпчилигида бор. Жумладан, дарахт култи Европанинг арий ирқи динлари тарихида муҳим роль ўйнаган. Бу – табиий ҳодиса, чунки Европа бепоён ибтидоий ўрмонлар билан қопланган эди¹. Табиий шароит диний-фалсафий тафаккурга кучли таъсир этган. Яна бир мисол: Швециянинг қадимги пойтахти Упсал шаҳрида муқаддас ўрмон бўлиб, ҳар бир дарахтнинг илоҳий хусусияти бор деган инонч-эътиқод ҳукмрон эди. Мажусий славянлар дарахтларга ва ўрмонларга топинганлар². Умуман, қадимги Европа халқларининг эътиқодида дарахт ва ўрмон култи муҳим ўрин тутган ва бу табиий шароитнинг маҳсули бўлган эди. Биз бу далилларни келтиришимиздан мақсад – ўзбек халқ эртакларидаги дарахт култи билан мазкур халқлардаги дарахт култи ўртасида типологик ҳодиса мавжудлиги ҳақида мулоҳаза юритишдир. Зотан, бу культлар билан ўзбек халқ сеҳрли эртакларидаги культлар ўртасидаги уйғунлик шундай фикр юритишга ундайди.

Шубҳасиз, турли халқларнинг қадимги инонч-эътиқодларига асосланган культлар мифологик образлар сифатида талқин қилинар экан, қиёсий-тарихий метод қулай ва ишончли экани англашилади. Аммо бу борада методологиянинг заифлиги типологик ва генетик ҳодисаларни фарқлай олишга бирмунча халақит беради. Келгусида фольклоршуносликни қиёсий-тарихий ўрганишда олимлар методологияни яратишлари асосий вазифалардан бири бўлиб қолади.

Ўзбек халқ сеҳрли эртакларидан “Ўтинчи чол”³ эртагидаги бир қатор қатор тимсоллар – *дарахт, тоғ, сув, қора от* каби культлар ибтидоий

¹ Фрезер Ж. Золотая ветвь. Изд. «Атеист». Вып. 1, 1928, 136-бет.

² Фрезер Ж. Южоридаги асар., 137-бет.

³ Ўзбек халқ ертаклари. 1 жилд, “О‘қитувчи” nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2007, 290-303-бетлар.

таффикур тарзини ўзида сақлаб қолгани билан аҳамиятлидир. *Дарахт* мазкур эртақда ҳимоячи вазифасини бажаргани эртақ сюжетидан кўпмисол бўлиб туради. Ўғли билан ўтин тергани чиққан кампир *дарахт* тегинда ухлайди; девлар, парилар ухлаб ётган кўрғоннинг кираверишида шохлари лаъл-ёқутдан, барглари забаржаддан бўлган *дарахт* бор; жодугарнинг талаби билан қора отни қассоб сўйган пайтда, унинг бўғзидан тўкишган уч томчи қондан учта *терақ дарахти* ўсиб чиқади; яна жодугар кампирнинг қатъий талаби билан бу терақлар кесилиб, бешик ва эшиқлар қилинади.

Эртақдаги *дарахт* кўлтининг сеҳрли ва муқаддаслик хусусияти, ҳимоячилик вазифаси айни ана шу сўнгги лавҳада очилади: учта терақдан қилинган бешик жодугар кампирдан туғилган ўғилни сиқиб ўлдириб қўяди; эшиқлар эса жодугарнинг ўзини қисиб олганда, шаҳзода Дод уни аранг қўтқариб олади.

Мазкур сюжетнинг қадимги маиший асоси борлигини ва ибтидоий дунёқараш ҳамда инсон билан жонзот ўртасидаги чегара бўлмаганини яна шу лавҳа далиллайди. Бу лавҳа – тотемизмнинг бир кўриниши бўлиб, инсон билан унинг тотеми ўртасида юз берадиган ўлим ва тирилиш жараёнини ифодалайди. Тотем бўйича, паризод жонзотнинг номи (қора от) билан аталаверади. “Жодугар кампир ўша қора отнинг гўштига бош қоронгу бўлибди. Подшоҳзодани чақириб: -Қассобни чақириб, мана шу отни сўйдириб бер. Гўштини кабоб қилиб ейман, - дебди...Жодугар кампирнинг олдидан бир каниз чиқиб: -Отнинг жигаридан берар экансиз, - дебди. Қассоб жигарини олиб берибди. Қассоб бир ён нимтасини теридан ажратаётганда, яна бир каниз чиқиб: -Отнинг бир сонини берар экансиз, - дебди. Шундай қилиб, кампир отнинг гўштини еб тамом қилибди”¹.

Савол туғилади: нима учун жодугар отнинг бошқа аъзоларини эмас, бешик айнан жигарини ва сонини сўради? Чамаси, жодугар отнинг шу аъзолари мазали эканидан эмас, қора отга айланган паризоднинг жони ана шу аъзоларида эканини билгани боис, уни бутунлай жисмонан маҳв этиш учун ўша аъзоларини сўраб олади. Бу каннибализм (одамхўрлик –Д.М.) дейилади. Каннибализм ибтидоий даврда удумлар ва урф-одатлар шаклланишида келиб чиққан, аммо мазкур эртақда каннибализмнинг кўриниши душманни ўлдириш истаги оқибатидир².

Ёки энг диққатга сазовор лавҳа қора от қиёфасидаги паризоднинг, жодугар истагига қўра, сўйилгани ва унинг уч томчи қонидан учта терақ

¹ O'zbek xalq ertaklari. 1 jild., 301-бет.

² Википедия. Каннибализм.

Ўсиб чиққанидир. Европа, Осиё мамлакатлари оғзаки ижодини тарихий-географик доирада олиб қараласа, бу сингари сюжетлар кенг тарқалган маълум бўлади. Дунё халқлари эртақларининг Аарне-Андреев тузган халқаро каталогига қиёслаган ҳолда ўрганиш келгусида тарихий-географик, маданий алоқалар тўғрисида ҳам маълум хулосалар чиқаришга имкон бериши мумкин.

АДАБИЁТ ВА МАЪНАВИЙ БАРКАМОЛЛИК

**О. Тўрақулова, катта ўқитувчи
(ТошГЕСИ қошидаги 1-сонли А.И)**

Аждодларимиз асрлар давомида яратган маънавий мерос шу қадар улкан, шу қадар қамрови бениҳояки, уни яхлит идрок этишга уринган ҳар қандай илм соҳибининг ақлини шошириб қўяди. Жаҳоннинг бирорти минтақаси Марказий Осиёда етишиб чиққан доно мутафаккирларимиз, олимлар ва кашшофларимиз миқдорида мутафаккирлар етиштириб чиқарган эмас. Маънавий меросимиз таркибий қисмлари ўртасидаги ўзаро уйғунлик, унинг жаҳон маданиятида тутган ўрни ва мавқеи аниқ ифодасини топмаса, турли соҳа мутахассислари алоҳида тадқиқотларини бир жойга жамлаш билан иш битмайди, яхлит манзара ҳосил бўлмайди. Мустақиллик йилларида биз бош ислоҳотчи – Ислом Каримов раҳбарлигида ижтимоий-иқтисодий, маданий, маънавий-маърифий соҳаларда улугвор ишлар амалга оширилди ва оширилмоқда.

Ҳозирги даврда Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси ёш ижодкорларни аниқлаш, уларни қўллаб-қувватлаш ҳамда баркамол авлод сифатида тарбиялашда қуйидаги комплекс тадбирларни амалга оширмоқда:

- иқтидорли ёш ижодкорларнинг илк асарларини “Ижод” жамоатчилиқ фонди томонидан бепул нашр этилмоқда;
- турли адабий жанрлар бўйича таниқли шоир ва ёзувчиларни жалб этган ҳолда Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасида ҳамда жойларда маҳорат дарслари ўтказилмоқда;
- барча вилоятлар ва Қорақалпоғистон республикасида ижод қила бошлаган барча адабий жанрлар йўналишидаги ёш қаламкашлар учун Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасининг “Дурмон” ижод уйида семинар кенгашлар ўтказилмоқда¹;

¹ Ғиёсов Б. Ўзбекистон Республикасида маънавий-маърифий соҳадаги давлат сиёсати. // Шарқ фалсафаси ва Ўзбекистонда ижтимоий тафаккур ривожига. III Республика илмий-амалий конференция материаллари (2012-йил, ТошДНИ). Тошкент, 2012. 175-бет.

- турли ўқув муассасалари ва ташкилотларда ёш ижодкорлар илқадбий асарларининг тақдимот маросимлари юқори савияда ўтказиб келинмоқда;

- Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси вакиллари Ватанимизда нишонланаётган барча умумхалқ байрамларида чиқишлар килиб, ўз ижод нимуналари билан халқимиз, ёшларимиз маънавиятини янада оширишга қатъий қарор қилмоқдалар;

- ўтмишда баракали ижод қилиб, нафақат маънавий меросимизни бойитиш, балки жаҳон тамаддуни тараққиётига салмоқли ҳисса қўшган адиблар, ёзувчилар ва шоирларнинг таваллуд кунлари кенг қўламда нишонланмоқда. Ушбу ҳолатда бундай тадбирларнинг таъқимоти сиёсий, маънавий, дидактик ва психологик аҳамиятини алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиздир.

“Адабиёт масаласи – бу маънавият масаласидир”, дея ўринли таъкидлаган Юртбошимиз Ислоом Каримов.¹ Ҳақиқатан ҳам адабиёт ва таърих баркамол инсонни тарбиялашда асосий ўринни эгаллайди. Агарда таърихдан тараққиётдаги тарихий жараёнларга эътибор қаратилса, адабиёт инсонларни тарбиялаб келган, онгини оширган, дунёқарашини кенгайтирган, маданиятини тараққий эттирган, жамиятдаги мақоми ва нуфузини кўтарган. Мамлакатимизда адабиётга нисбатан эътиборни кучайтириб борар эканмиз, олдимиздаги вазифаларимизни аниқ белгилаб олганимиз лозимдир ва бу хусусда қуйидагиларни таъкидлаб ўтиш жоиздир: **биринчидан, ёшларимиз сафида ижод қилаётган иқтидорли қаламкашларни аниқлаш ва уларни ҳар жиҳатдан қўллаб-қувватлаш; **иккинчидан**, адабиёт ва китоб билан ошно бўлишдек нодир ишхоналаримизни ёш авлод онгига сингдириб боришимиз; **учинчидан**, ёзувчилар ва шоирлар билан жонли мулоқот ҳамда истиқболли ҳамкорликни тобора кенгайтириб боришимиз; **тўртинчидан**, мунтазам ривожда китоб ярмаркалари ва кўрганмаларини ўтказиб туриш ва бу тадбирларга аҳолининг турли қатламларини жалб этиб бориш; **бешинчидан** эса классик ва адабиётимизда муносиб ўрин олган нимуналарни хорижий тилларга қилинаётган таржималарига бўлган эътиборни янада кучайтириш; **бешинчидан** эса, жаҳон китоб бозорларида адабиётимиз намуналарини кенг тарғиб қилиш, чоп этилаётган бадиий ишхоналаримизнинг тақдимотини ўтказиб бориш, қолаверса турли мамлакатларда бўлиб ўтаётган халқаро китоб ярмаркаларида фаол**

¹ Ислоом Каримов. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2009. 23-бет.

иштирок этиб бориш сингари саъй-ҳаракатлар муҳим аҳамият касб этади, албатта. Ўтмишда яшаб ижод қилган ҳамда замондош бўлган таниқли ёзувчи ва шоирларимизнинг таваллуд кунларини нафақат диёримизда, балки хорижий мамлакатларда ҳам нишонлаб бориш аъёнларини шакллантиришимиз ҳам фойдадан ҳоли эмас. Бу борада масалан Россия Федерацияси, Германия, Япония сингари мамлакатларнинг бош тажрибасини ўрганиш ва ҳаётга татбиқ этиш мумкин. Цивилизациялараро ҳамкорлик масаласи ҳозирги даврда ҳам долзарблигича қолмоқда. Мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви асло бадний адабиётни четлаб ўтмаслиги лозим. Давлатимизнинг халқаро майдонда ижобий имижини шакллантириш кўп жиҳатдан мазкур омига ҳам боғлиқдир.

Маънавий баркамоллик аввало ёшларимизда шаклланиб боради. Шунга кўра адабиётга меҳр қўйишда аввало мумтоз адабиётимиз намуналари билан таништириш, сўнгра эса замондош қаламкашларимиз яратаётган бетакрор бадний асарларга эътибор қаратиш муҳимдир. Мустақиллигимиз йилларида Абдулла Орипов, Қўчқор Норқобил, Улуғбек Ҳамдам, Икром Отамурод, Зикрилла Неймат, Фарида Афрўз ва бошқа ижодкорларимиз яратган асарлари билан ҳар қанча фахрлансак ва уларни тарғиб қилсак арзийди, албатта. Жумладан таниқли болалар ёзувчилари ва шоирлари Худойберди Тўхтабоев, шаҳодат Исахонова, Кавсар Турдиева ва бошқалар кичкинтойларимиз ва ўсмирларимиз учун ажойиб асарлар чоп этдилар. Уларнинг асарларида умуминсоний қадриятлар бўлиши эзгулик, бағрикенглик, оқибат, яхшилик, инсонийлик, саҳийлик, ширинсўзлик, шарқона одоб, Ватанга ва оилага садоқат, жасорат, мардлик, муҳаббат сингари, тарихий аъёнларни ардоқлаш сингари инсоний фазилатлар тараннум этилмоқда. Ижодкорларимиз шунингдек миллий ва диний қадриятларимизни ҳам эътиборсиз қолдирмаяптилар. Ҳозирда адабиёт мактабгача таълим муассасаларидан тортиб то юқори таълим муассасари ҳаётига тобора чуқурроқ кириб бормоқда. Миллий драматургиямиз бойиб бориши билан вилоятларда янги-янги театрлар бунёд этилиб миллий тикланиш жарёнида туб ўзгаришлар юз бермоқда. Ёзувчиларимиз яратган драматургик асарлар миллий театрларимиз ва кинотеатрларимиз репертуарларидан муносиб ўрин олмақда ва халқимиз эътирофига сазовор бўлмоқда. Адабиётимиз соҳасида эришган ва эришаётган ютуқларимиз ва муваффақиятларимизда амалга оширилаётган изчил ислоҳотларда ўзининг муносиб ўрнига эга бўлаётганлигидан далолат беради.

Адабиётимиз олдида турган муҳим вазифалардан яна бири – глобал таҳдидлар, хусусан экстремизм, агрессив миллатчилик, ақидапарастлик, мутнассиблик, фақш, зўравонлик, шавқатсизлик, миссионерлик, оммавий миданият, ирқий камситиш сингари салбий иллатларга нисбатан муфкуравий иммунитетни шакллантириш. Бундай таҳдидлар кириб бормаслиги мамлакатларнинг ўзи қолмаяпти. Шу боис бадиий адабиёт шифоқат тарбиявий ёки сиёсий, балки муҳим ҳаётий аҳамият касб этмоқда. Айтиш мумкин вақтда баркамол инсонни тарбиялашдек масъулиятли вазифани амалга ошириш жамиятимизда ўзининг ижобий самараларини бермоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. И. Каримов. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор.-Т.: Ўзбекистон, 2009
2. Б. Ғиёсов. Шарқ фалсафаси ва Ўзбекистонда ижтимоий тафаккур ривожини. 3 Республикаилмий-амалиянжуманиматериаллари-ТошДШИ.- Тошкент, 2012
3. И. Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч.-Т. 2010

«АЛПОМИШ»НИНГ ҚОРАҚАЛПОҚ ВЕРСИЯЛАРИ

Н. Алламбергенова, ўқитувчи (НукусДПИ)

«Алпомиш» сюжети билан боғлиқ халқ отзаки ижоди дурдоналари туркий халқлар тарихида, маданияти ва маънавиятида жуда катта ўрин эгаллайди. Ўзбекларда «Алпомиш», қорақалпоқларда «Алпамыс», қозоқларда «Алпамыс ботир», олтойликларда «Алп Манаш», қозон тигарларида «Алпамша», бошқирдларда «Алпамша ва Барсин Ҳиллу»¹ номлари билан машҳур бўлган мазкур асарлар ҳар бир авлод алпомишларини камолга келтиришда муҳим маънавий омил бўлиб хизмат қилган ва шундай бўлиб қолиши шубҳасиз. Чунки «Алпомиш» достони бизга ватанпарварлик фазилатларидан сабоқ беради, одил ва ҳақгўй бўлишга, ўз юртимизни, оиламиз қўرғонини қўриқлашга, дўсту ёримизни, ор-номусимизни, ота-боболаримизнинг муқаддас мазорларини ҳимоя қилишга ўргатади».²

Қорақалпоқ фольклоршунослигида «Алпомиш» достони ҳақидаги ilk маълумот А. Диваевга тегишлидир,- дейди профессор Т.Мирзаев М.Сафаров билан суҳбатда, - у 1896 йилда “Рус археология жамияти шарқ бўлими хабарномаси”да қозоқлар орасида “Алпамыс ботир” достони

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 1-жилд, 238-бет

² Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тош.2008.33-бет.

мавжудлигини, Сирдарё вилояти Амударё бўлимининг бошлиғи генерал-майор К. И. Разгоновга тўртқўллик жиров Жиёмурод Бекмухаммедовдан ёзиб олинган дoston вариантыни олганлигини хабар қилади. Дostonнинг қорақалпоқ версиясининг асосан биринчи қисмидан иборат бўлган бу қўлёзмани у янглиш равишда козoқ дostonи, деб ўйлаб, тилини ҳам биринчи козoқчага яқинлаштириб, рус тилига таржимаси билан биргаликда 1901 йилда Тошкентда нашр эттиради.

Бу нашр «Алпомиш» дostonи қорақалпоқ версиясининг илк нусхаси сифатида қадрлидир.

Кейинчалик фольклоршунос Қалли Айимбетов 1934 йили Хўжамберген жиров Ниёз ўғли (Ўғиз жиров)дан дostonнинг яна бир вариантыни ёзиб олиб, 1937 йили Москвада чоп қилдирган. Дostonнинг ушбу варианты 1941 йили Тошкентда А.Шомуродов тахрири остида қайта чоп этилди. Худди шу вариант 1981 йилда Қорақалпоқ фольклорининг йигирма жилдлигида Қ.Бойниязов ва Н.Айимбетовлар тахрири остида нашр этилди. Мазкур нашр кейинги 1990 йилги алоҳида китоб ва 1995 йилда нашр қилинган қорақалпоқ фольклорининг беш жилдлигидаги «Алпмыс»га асос бўлиб хизмат қилди.

1955 йили фольклоршунос А.Каримов томонидан ёзиб олинган Қияс жиров Қайратдинов варианты 1957 йили И.Сағитов ва А.Каримовлар тахрири остида босиб чиқарилди.

Ўтган асрнинг 50-йилларидан бошлаб дostonнинг қорақалпоқчи вариантлари ўзбек фольклоршунослари томонидан ҳам тадқиқ қилина бошланди. Таниқли олим Мансур Афзалов Қиёс жиров томонидан куйланган дostonни магнит лентаси воситасида ўрганди. Кейинчалик (1999) «Алпомиш» дostonидан парчалар нота ёзуви ва баъзи изоҳлар билан Файзулла М.Кароматли ва Тўраҳожи Мирзолар тахрири остида ўзбек тилида китобат қилинди.

1957 йилда Р.Хўжамбергенов томонидан ёзиб олинган Есемурат жиров Нурабуллаев варианты 1960 йили Қ.Мақсетов, Қ.Мамбетназаровлар тахрири остида халққа тақдим этилди.

Дostonнинг ёзиб олинган кейинги тўрт варианты шу кунгача нашр қилинмаган эди. Булар – Арзимбет жиров (ёзиб олган Қ.Мақсетов), Курбонбой жиров (ёзиб олган А.Каримов), Тангриберген жиров (ёзиб олган А.Жамалов), Карам жировлар (ёзиб олганлар А.Жамолов, Н.Камолон, Қ.Мамбетназаров) вариантларидир.

Ўзбекистон Республикаси ФА Қорақалпоғистон бўлими Н.Давқораев номидаги тил ва адабиёт институти олимлари томонидан

«Алпомиш» дostonининг ёзиб олинган саккиз варианты кўп жилдли қорикалпоқ фольклорининг 1-8 томларини ташкил этди. Дoston вариантлари ф.ф.д. С.Баҳадирова, ф.ф.д. Қ.Байниязов, ф.ф.н. Ж.Хошннязов, ф.ф.н. А.Алннязов ва бир қанча илмий ходимлар томонидан нашрга тайёрланди.¹

Истиклол туфайли ўзини, ўзлигини англаётган ўзбек ва қорақалпоқ халқларида мазкур дostonлар бирдай аталади. Бош қахрамонлар ҳам Алпомиш ва Барчин номи билан ҳаракат қилади. Шунингдек, ўзбек ва қорикалпоқ вариант версияларида ҳам бир хилдаги кўплаб топонимларни учратиш мумкин. Аммо халқ оғзаки ижоди шундай бир мўъжизаки, унда қандаш ҳаёти тўла – бутун бўй-басти, рангу оҳанглари билан намоён бўлади. Айниқса, бу борада дostonларнинг ўрни беқиёс. Шу боис ҳам мазкур дostonлар ўзи мансуб халқнинг соф миллий асарларига айланган. Ушрдаги сюжет яқинлиги эса, адабиётшунос Б.Саримсоқов таъкидлаганидек, «Алпомиш» номи билан боғлиқ ягона бобосюжет манжуд»лигидан бўлса керак.

Бу икки дoston айна бир сюжетдан ўсиб чиққан бўлса-да, улардаги миллий руҳ бир-биридан тубдан фарқ қилади. Чунки ўзбек Алпомиши қорикалпоқча ўйламайди; қорақалпоқ Алпомиши ўзбекча фикрламайди. Шу боис ҳам ҳар бир халқ ўз миллий қахрамонини фақат ўзиники деб билиди ва бу билан фахрланади.

«Алпомиш»нинг ёзиб олинган қорақалпоқ версияларининг бирчасида Бойбўри ва Бойсари ака-ука эмас, икки тенгқур бой сифатида тасвирланади.

Дostonнинг Ўғиз жиров варианты:

«Ертедеги аййем заманда,

Ол заманнинг қадиминде,

Жийдели Байын халқинда,

Қонгырат деген ел еди,

Рууы еди ырғақли,

Байбори, Байсары деген еки тенглес бай болип булар дуньяға келди»,- деб бошланади ва Бойбўри билан Бойсари Жийдали Бойсун халқининг Қўнғирот эли ва «ирғақли» уруғидан эди деб кўрсатилади.

Мазкур дostonнинг Карам жиров Нағимов вариантыда эса Бойбўри билан Бойсари Жийдали Бойсун халқининг қўнғирот уруғидан деб тасвирланади ва насрда саяж усули билан берилади: «Бурунғи откен

¹Қорақалпоқ фольклори. Кўп жилдлик. 1-8 томлар. Нукус. «Қорақалпоғистон» нашриёти. 2007 йил. 4-бети

заманда, сол заманнинг қадиминде, Жийдели Байын халқинда қонгратли руўинда Байсары, Байбори деген еки тенглес бай болип, булар дуньяга келип, дуньянинг қызығи менен мал дуньясы коп болып, уўайым-қайғиси жоқ болып, бир парзентке зар болып...»

Тангирберген жиров Торениязов вариантыда ҳам воқеаларнинг жуда қадимда бўлиб ўтгани таъкидлангани ҳолда, Бойбури ва Бойсары Жийдали Бойсун элининг Қўнғирот деган халқининг икки тенгдош бойи деб таништирилади. Бу ўринда уруғ номи қайд қилинмайди.

Кўринадики, мазкур достон вариантларининг бошланмалари бир-биридан насл ва назмда берилишидан ташқари ижодкорнинг поэтик истеъдодини намён қилувчи бадиий сўзнинг таъсир кучи ифодаси билан ҳам фарқланади. Шундай экан, достон вариантларини атрофлича таҳлил қилиш, асардаги миллат руҳияти, турмуш тарзи ва албатта, бадиияти жилоларини илмий нуқтаи назардан тадқиқ қилиш давр талабидир. Шундай қилинса, халқнинг ифтихори бўлмиш «Алпомиш» достонидаги миллий ва умуминсоний ғоялар замонамиз ёшлари ва кенг китобхонлар оммаси учун маънавий-ахлоқий қадриятга айланади.

ЭРОН ВА ХОРАЗМ АДАБИЙ АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН: АНВАРИЙ АБИВАРДИЙНИНГ ХОРАЗМГА “САФАРИ”

У. Махмудов, ўқитувчи (ТошДўТАУ)

Мамлакатимизда Анварий Абивардийнинг ҳаёти ва ижодий фаолияти нисбатан кам ўрганилгандир. Анварий ижоди шу кунга қадар бир қатор дунё олимларнинг тадқиқот объекти бўлган. Анварий ижодига илк бор XIX асрда рус тадқиқотчиси В.Жуковский ва ҳинд олими Шиблий Нуъмоний томонидан эътибор қаратилди. XX асрда Анварий ижодини эронлик олимлардан Мударрис Разавий, Али Акбар Вилоятий, Саид Нафисий, Забихуллоҳ Сафо, Фурузунфар, Али Дашти, Шафеи Кадканийлар ўрганган бўлса, тожик адабиётшуносларидан И.Икромов, Р.Корманж ва рус олимаси С.В.Ожегова шоир қасидаларини, Т.Самадон ғазалларини, Ш.Ёрмуҳаммедов қитъаларини махсус тадқиқ этишган. Ўзбек олимларидан Ш.Шомуҳамедов, М.Имомназаров, Европа олимларидан Е.Браун, Е.Э.Бертельс, И.С.Брагинский, М.Л.Рейснер кабилар ҳам шу мавзуда изланишлар олиб борганлар.

Анварийдан қасида, ғазал, қитъа ва рубоийлардан таркиб топган 14700 байтдан иборат девон бизгача етиб келган.¹ Эронлик филолог олим Саид Нафисий унинг 250 қасидаси, 335 ғазали, 557 қитъаси, 1 маснавий ва

1. انوری-آفرینندگان فرهنگ و تمدن اسلام و نوم ایران. دکتر علی اکبر ولایتی چاپ اول 1391 تهرآن

112 рубойи - жами 14720 байт шеърӣй асарларининг мавжудлиги ҳақида маълумот беради. Аммо тожик олими Т.Самадов ўзи аниқлаган 1 қасида ва 7 ғазални жамлаб, байтлар сони 14805 та дея таъкидлайди.¹

Анварий йирик олимлар билан ўзаро дўстона алоқаларни ўрнатган ва бир қанча мамлакатларда ҳам бўлган. Анварийнинг дўстлари орасида Хоқоний, Рашидиддин Ватвот каби замонасининг етук арбоблари ҳам бўлган. Биз ушбу мақолада Анварийнинг илк бор Хоразмга қилган "сафари" ва у билан боғлиқ тафсилотлар хусусида сўз юритмоқчимиз.

Авҳадиддин Али ибн Муҳаммад ибн Исҳоқ Анварий Абивардий XII аср бошларида (1105 йилда) Эроннинг Ховарон вилоятидаги Обивард қасбасининг Маҳна деб аталувчи ҳудудига яқин бўлган Бодна(и) қишлоғида таваллуд топган. Дастлаб Ховарий тахаллуси билан шеърлар айтиди. Унинг ота онаси, ёшликдаги устоз ва мураббийси ҳақида ҳеч қандай маълумот йўқ, аниқроқ қилиб айтганда, бу ҳақда шоирнинг ўзи ҳам ҳеч нима демаган. 1125 йили 20 ёшида Салжуқий подшоҳ Султон Санжар (1118-1157) мадҳидаги қасидаси ҳукмдорга маъқул келиб, ёш шоир саройга кириб келди. Кўп ўтмай саройнинг етакчи қасиданависига, Султон Санжарнинг энг яқин надимига айланган ёш шоир Султоннинг ҳарбий қиркатларида унга ҳамроҳлик қилди.

1146-1147 йилларда Хоразмшоҳ Отсиз Салжуқийлар тасарруфида бўлган Ҳазорасп қалъасини қутилмаганда эгаллаб олади. Қалъанинг эгалиб олиниши Султон Санжар ва Хоразмшоҳ Отсизнинг ўрталаридаги дўстона алоқаларнинг кескинлашувига олиб келди. Оқибатда Султон Санжар Хоразмга қўшин тортиб, қалъани қамалга олади. Султон Санжарнинг Ҳазорасп қалъасини эгаллаш мақсадида Хоразмга қилган юртини давомида Анварий ҳам қўшин таркибида илк марта Хоразмга "саёҳат" қилди.

Қамал кунларининг бирида султон надимларидан бири куйидаги рубойини найзанинг учига боғлаб, қалъа ичкарасига ташлайди:

ای شاه جهان ملک جهان حسب تورا است
وز دولت و اقبال شہی کسب ترا است
امروز بہ یک حملہ ہزار اسب بگیر
فردا خوارزم و ہزار اسب ترا است²

Таржимаси:

*Эй Шоҳи жаҳон мулки жаҳон сенга насибдур,
Ҳам давлат-у подшоҳлик иқболи сенингдур*

¹ Т. Самадов. Анварий ва ғазалиёти у. Душанбе, "Дониш"-1988.

² П. А. Жуковский "Али Ауҳадеддин Энвери. Материалы для его биографии и характеристики". Санкт-Петербург. Типография Императорской Академии Наук, 1883. - С. 1-4.

*Бир ҳамла ила неча минг от ҳам сенинг
Эртага Хоразм-у Ҳазорасп сенингдур.*

Мазкур рубой Анварий қаламига мансуб бўлиб, унда Султон Санжар мадҳ этилади. Ушбу шеърга Хоразмшоҳлар давлатининг ўша вақтдаги улуғ шоири ва давлат арбобларидан бир бўлган Рашидиддин Ватвот (вафоти 578 х/1182-83 м) қуйидаги жавобни ёзади:

گر حمص تو ای شاه شود رسمت گورد
ایک خر ز هزار سپ فتواند برد.

Таржимаси:

Агар, эй, шоҳ, душманинг Рустами Гурд бўлса ҳам (яъни уни енга олсанг ҳам)

Ҳазораспдан бирорта эшак ҳам олиб кетолмайсан.

Султон Санжар бу жавобдан жуда дарғазаб бўлади ва қалъани эгалласа Рашидиддин Ватвотнинг танасини етти бўлакка ажратиб, қатл этишга онт ичади.

Хоразмшоҳ Отсиз Султон Санжарнинг қўшинларига бас кела олмаслигини билиб, тунда қалъани тарк этади ва шу тахлит қалъа яна Салжуқийлар ихтиёрига ўтади. Ғалаба қўлга киритилгач Султон Санжар Ватвотни толишга ва унинг танасини етти бўлакка бўлиб, қатл этишга фармон беради. Иложсиз қолган Ватвот Султон девонининг муншийси Мунтахабиддин Бадиъдан Султондан уни афв этишини сўрайди ва Султон муншийнинг илтимосини рад этмайди.²

Юқоридагилардан келиб чиқиб қуйидагиларни айтиш мумкин:

Биринчи: Анварий саройда жуда улуғ мақомда бўлган ва у Султон Санжарнинг кўпгина сафарларида унга ҳамроҳлик қилган. Бу эса шоирнинг султон ҳузурда жуда мартабали шахс эканлигини исботлайди.

Иккинчи: Анварий Хоразмга ҳам ташриф буюрган ва бу ерда у Рашидиддин Ватвот билан учрашган ёки уларнинг орасида дўстона алоқалар бўлган бўлиши мумкин. Чунки Анварий девонининг муқаддимасида Саид Нафисий Анварий Ватвотга атаб қасидалар битганини қайд этиб ўтган.³

Юқорида зикр этилган воқеалар Эрон ва Хоразм адабий алоқаларидаги кичик эпизод бўлишига қарамай, икки адабий мактабнинг ўзаро ҳамкорлиги мунтазам давом этганини англатади.

¹Т. Самадов. Анварий ва ғазалиёти ӯ. Дониш. Душанбе-1988.с 12.

²632 ص "سائر الشعرات" تهران، "الشعرا تذكرة" مسرقتى بولقشاه.

³Девони Анварий (иборат аз ду жилд). Жилди I. Қасоид. Техрон, 1959.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Рашид ад-Дин Ватват. Сады волшебства в тонкостях поэзии. Москва: Наука, 1985.
 2. Т. Самадов. Анварий ва ғазалиёти ӯ. Душанбе: Дониш, 1988.
 3. В.А. Жуковский. Али Аухадеддин Энвери. Материалы для его биографии и характеристики. Санкт-Петербург. Типография Императорской Академии Наук, 1883.
 4. "صابر انتشارات" تهران. "الشعرا تذكره" سمرقندی دولتشاه"
 5. С.В.Ожегова. Проблемы изучения касыд Али Аухад ад-дина Анвари (состав, образная система) (Автореферат канд. дисс.), М., 1993.
 6. Девони Анварий (ибораг аз ду жилд). Жилди 1. Қасоид. Техрон, 1959.
 7. М.Л.Рейснер. Персидская лироэпическая поэзия X – начала XIII ввков. Генезис и эволюция классической касыды. Москва: Наталис, 2006.
- Интернет манбаси:
8. <http://ganjoor.net/anvari/divan-anvari/ghetea/sh108/>

АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ФОРСИЙ ШЕЪРИЯТИ

Н. Рахматуллаев, ўқитувчи (ТошДШИ)

Алишер Навоийнинг туркий тилдаги шеърияти шоирнинг жаҳоний шухратини таъмин этган бўлса, форс-тожик тилида битган шеърлари ҳам унинг форсийғўйлар орасидаги улкан мавқеини яна бир қарра тасдиқлади. Шуниси борки, икки тилда яратилган шеърият ҳам Алишер Навоий каби диҳо қаламига мансуб экан, уларни яхлит ҳолда ўрганиш ва талқин қилиш лозим. Чунки шоирнинг олийжаноб мақсад ва фикрлари, яратган титмосллари ҳар икки тилда битган шеъриятда ҳам ифода этилган.

Алишер Навоий асосан туркий тилда ижод қилса-да, форсий шеърлар ҳам ёзишни ҳам умрининг охиригача давом эттирган эди. Натижада улар шичагина миқдорда тўпланиб қолиб, шоир уларни девон ҳолига келтиришга шошилмасди. Алишер Навоийнинг бу тилдаги шеърларидан қибардор бўлган Султон Ҳусайн Бойқаро уларни ҳам тўплашга буюрган.

Форсий шеърлар девони 905 ҳижрий – 1499-1500 мелодий йилдан ошдин тахминан 90-йилларнинг иккинчи ярмида тартиб берилган. Ундаги шеърларда Фоний тахаллуси қўлланилганидан уни «Девони Фоний» тирзида аташ одат бўлиб қолган.

«Девони Фоний»нинг муаллиф қаламига мансуб дастхати номаълум бўлса-да, аммо ундан кўчирилган нусхалардан егиттаси ҳозирда маълум. Уларнинг 2таси Париж, 2таси Туркия, 2таси Ҳирот ва 1таси Эрон

кутубхоналарида сақланади. Адабиётшунос Ҳамид Сулаймоновнинг эътирофларича, бу нусхалардан Париж миллий кутубхонасидаги икки нусха анча мукамалдир. Ана шу нусхалар асосида «Девони Фоний»нинг таркиби куйидагича: 1. Дебоча; 2. Қасида–10та; 3. Ғазал–554та; 4. Мусаддас–1та; 5. Марсия–1та; 6. Қитъа–72та; 7. Рубоий – 73та; 8. Тарих–16та; 9. Муаммо–373; 10. Лугъз–9та. Демак, девонда жами 1109 та асар бор бўлиб, улар 6197 байтни ташкил этади. «Девони Фоний»нинг ҳозирчи маълум бўлган қисмида сон жиҳатдан энг кўплари ғазал, муаммо, рубоий ва қитъадир. Бошқа жанрдаги асарлар эса сон жиҳатидан анча кам.

Девонда ғазал, қайд қилинганидек, етакчи ўринни эгаллайди. Уларни кўздан кечирган Ҳамид Сулаймон, Абдулғани Мирзоев, Расул Ҳодизода, Шоислом Шомуҳаммедов, Алишер Шомуҳаммедов, Ёқубжон Исҳоқов каби алломалар тадқиқотлари шундан гувоҳлик берадики, Алишер Навоийнинг форсий тилдаги ғазаллари ўзининг мазмун ва бадиияти нуқтан назаридан улуғ шоирнинг кўп қиррали маҳоратининг натижалари бўлиб, баъзи бир хусусиятлари билан ўзбек тилидаги ғазалларидан ажралиб ҳам туради.

Алишер Навоий ғазаллари ишқий, ижтимоий, фалсафий-тасаввуфий, ахлоқий мавзуларда ёзилган бўлиб, бадиият жиҳатидан мумтоз адабиётшуносликнинг қонун-қоидалари (аруз,қофия, бадийий санъатлар) ни талабларига мувофиқдир. Худди ўзбек тилидаги ғазалларда бўлганидек, форсий ғазалларнинг кўпчилиги мавзу ва бадиият соҳасида яқпоралик хусусиятларига эга. Бундай ҳол унинг ҳам татаббу ва ҳам мухтаре ғазалларида учрайди. Айтилган фикрлар тасдиқи учун бир икки мисолни мурожаат этиш мумкин.

Татаббу ғазалларидан машҳур Ҳинд шоири Хусрав Деҳлавий ғазалига ёзилган жавобия:

Матлаъ:

*Меравад сарви ману рафтор мемонад ба дил,
В-аз гули рухсори ў сад хор мемонад ба дил.*

Мақтаъ:

*Фоний, з-он кофарат набвад халоси к-ат зи ҳаҷр
Аз хаёли кокулаш зуннор мемонад ба дил¹.*

Мазмуни: (матлаъ) Менинг сарвим кетдию, рафтори кўнгилда қолади, унинг гулдай рухсоридан юз тикан кўнгилда қолади. (мақта) Фоний бу кофирингдан қутилиш иложи йўққа ўхшайди, чунки унинг кокуллари хаёли зуннор каби кўнгилдадир, яъни уни ўраб олгандир.

¹Алишер Фони. Девони форсий. – Душанбе: “Ирфон”.1993. – Б. 161-162.

Мазкур ғазалда радиф ҳам (мемонад ба дил), қофия ҳам (рафтор, ҳор...) бор. Ана шу радиф ғазалнинг мавзу ва бадийлик жиҳатдан ажрлигини таъминлашда муҳим мавқега эга. Ғазалда ёрнинг кетиши ва бу кетишнинг ошиқ кўнглида қолдирган изидан сўз боради. Ғазалнинг монологи-ҳижрондан қийналаётган юрак изтироблари сифатида ишланган. Муҳими шундаки, ёр кетиб қолган бўлса-да, у ошиқнинг кўнглида, ташқида маҳкам ўрнашиб олган. Шоирнинг ёзганидай, ёрнинг сочлари кўнглини шундай маҳкам боғлаб олганки, улардан кўнгли кутила олмайди.

Бу ғазал ўқилар экан, Алишер Навоийнинг ўзбек тилида ёзилиб, кўнглидаги матлаъ билан бошланадиган ғазали хотирга келади:

*Ёр бордию кўнглимда анинг нози қолибдур,
Андоқки кулогим тўла овози қолибдур.*

Бундай ҳолнинг диққатга сазоворлиги шундаки, Алишер Навоий томонидан икки тилда ёзилган ғазалларда ҳам бир мавзуга мурожаат қилинган бўлса-да, уларнинг ҳар бирида бу мавзу ўзига хос оҳанг ва ширралар, тимсол ва тасвирлар билан қаламга олинган. Аммо ижодий услубда яхлитлик кўзга ташланади.

Мухтаре ғазалларидан бирини кўздан кечирсак:

Матлаъ:

*Омад баҳори дилкашу гулҳои тар шукуфт
Дилҳо аз он нишот зи гул бештар шукуфт...*

Мазмуни:

*Дилкаш баҳор келдию тоза гуллар очилди,
Бу хурсандликдан гулдан қура кўнглилар кўпроқ яйради.*

Мақтаъ:

*Фонӣ, ачаб мадон, агар он гул шукуфтааст,
Аз ашки абрсони ту бишкуфт, агар шукуфт².*

Мазмуни:

*Фоний, гулнинг очилганидан ажабланма,
Чунки у сенинг ёмғирдай кўз ёшларинг тўфайли очилди.*

Ғазалнинг ҳар мисраси ва байтидан баҳорнинг ҳиди келади, гулларнинг очилишию кўнглиларнинг яйрашидан қувонч балқиб туради. Ғазалда ишлатилган турли бадий санъатлар ҳам ана шу кайфиятга мос ишлатилган. Шуниси ажойибки, ғазалдан Алишер Навоийнинг форс-тожик тили назокатини нақадар теран билганлиги сезилади. Бу ҳолни Алишер Навоийнинг ўзлари ҳам «Муҳокамаг ул-луғатайн»да алоҳида уқтирган ҳисоблар. Жумладан, «форсий алфоз истифосин ва ул иборат истиқсосин

¹Шир Алишер Фои. Девони форсий. – Душанбе: "Ирфон", 1993. – Б. 93-94.

киши мендин кўпрак қилмайдур эркин ва салоҳ ва фасодин мендин яхшироқ билмайдур эркин»³, яъни бошқа бировлар «Форсий тилнинг сўзларини ўзлаштириш ва мазмунининг тагига менчалик етиша олмас, у тилнинг гўзаллиги ва фасодини мендан яхшироқ била олмас». Фахрин тарзида айтилган бу фикр аслида ҳақиқатдир. Мана шу хусусият сабаб бўлган бўлса керакки, форсийгўйлар Алишер Навоийнинг бу тилда ёзган гўзал асарлари, жумладан ғазалларини ҳам эъзозлайдилар.

КҶК РАНГНИНГ ЭПИК ҚАҲРАМОН, МАКОН ВА ЖОЙ НОМЛАРИ СИФАТИДА КЕЛИШИ

М. Рўзиева, ўқитувчи (БухДУ)

Ҳар қандай эпик ижод намунаси маълум бир эпик қаҳрамонлар ҳаётидан ҳикоя қилади. Бу қаҳрамон муайян эпик макон ва жойларда фаолият юритади. Фольклор асарларидаги эпик қаҳрамонларни фольклоршуносликда асосий қаҳрамонлар (бош қаҳрамонлар ва етакчи қаҳрамонлар), кўмакчи қаҳрамонлар, эпизодик қаҳрамонлар каби типларга ажратиб ўрганилиб келинмоқда. Макон тушунчаси эса икки кўринишда: ўч ва ўзга олам ёки уч ўлчамли олам – осмон, ер, ер ости оламларини ажратилиб тадқиқ этилганлигини кузатамиз. Ўз навбатида бу оламларнинг ҳар бирида жой ва манзиллар мавжуд. Эпик қаҳрамонлар, макон ва жой номлари сифатида келувчи ранглар асар сюжетида, сюжет таркиб топган мотивларда, умуман асар воқелиги таркибида фаол иштироки билан ажралиб туради.

Мазкур қаҳрамонлар, макон ва жой номлари орасида ранглар билан аталувчи кўплаб мисолларга дуч келамиз ва уларнинг шунчаки у ёки бу ранг билан боғлиқ номланмаганлиги маълум бўлади. Чунки “Халқ дostonлари поэтикasinинг ўзига хос хусусиятларидан бири шундаки, уларда ҳар бир ном, эпизод, гап-диалоглар, образлар рамзлашиб келади”⁴.

Эпик асарлар таркибида қуйидаги ранглар фаол иштирок этади. Булар: ола, оқ, кўк, қора, сарик, қизил, кўнғир каби ранглар. Айни пайтда бу ранглар бирикма шаклида қўлланилиб: *Олатой, Бойчибор, Фирқўк. Оқ қиз, Қора ботир, Малла савдогар, Оқ дев, Сарик дев, Қора дев, Кўнғир дев, Янроқ дев, Оқ илон, Қора илон Кўк қуш* каби шаклларда келади. Ушбу образлар муайян асар воқелигида маълум ўрин тутиш баробарида ўз номида келувчи ранг билан алоқадор рамзий, тимсолий маънога ҳам эгалиги билан аҳамиятли. Бу рамз ва тимсоллар эса тарихан халқнинг

³Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Мукаммал асарлар тўплами, 16том. – Тошкент: “Фан”, 2000. – Б. 27.

⁴Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 65-б.

мифологик дунёқарашларига боғланган бўлади. Дарҳақиқат, халқ шогитлари ва эртақларида фаол қўлланувчи рангларда ифодаланган рамний, тимсолий маънолар аниқ тасаввур билан теран таҳлил қилинса, ушардаги сеҳр-жоду, тилсимотлар аёнлашади. Бу эса халқнинг эпик асар аниқлига сингдирган ҳикматлари билан ошно бўлишимизга ёрдам беради.

Ўзбек фольклори эпик жанрлари намуналари орасида кўк рангнинг рамний маъноларини ўзида тўлиқ акс эттирган асар сифатида “Кўккина куш” эртаги ва унинг “Опа-сингил” деб номланган вариантини келтириш мумкин.

Эртақнинг қисқача мазмуни куйидагича: Чолнинг вафот этган хотинидан бир қизи ва бир ўғли қолади. Чолнинг янги уйланган аёли касал бўлдим, ўғлингни сўйиб берсанг тузаламан, деб шарт қўяди. Чол шижисизликдан хотинининг айтганига кўнади. Отанинг укасини ўшдирмоқчи бўлганини қиз болага айтади. Бола, майли, лекин сен менинг сўнгимни ема, суякларимни битта колдирмай териб, кўк латтага тугиб, кўк дарахтга осиб қўй, деб тайинлайди. Қиз укасининг айтганларини бажаради. Боланинг кўк латтага тугиб, кўк дарахтга осилган суяклари бир юмалаб кўк кушга айланади. Кўк куш бозорга – тебанчининг олдига бориб:

Кўккина кушман,

Кўк олча кушман,

Ўзим отам сўйди,

Ўғай энам еди,

Малар опам – жон опам,

Суюгимни терди,

Кўк латтага туйди,

Кўк дарахтга осди, –

деб қўшиқ куйлайди¹.

Кушчанинг қўшиғини ёқтириб қолган тебанчи яна бир бор қўшиқ айтишини сўрайди. Кушча тебанидан берса, қўшиқ айтишини билдиради. Кушча тебани олиб учиб кетади ва шу тахлит игначидан – игна, кассобдан куйруқ олади. Кўккина куш ўғай онасининг ёнига бориб ўз қўшиғини айтади. Ўғай она яна бир бор куйла, деганида: “қўзингни юмиб, оғзингни очсанг куйлайман”, деб шарт қўяди. Ўғай она кўзларини юмиб, оғзини очган вақти тебани унинг оғзига ташлайди. Ўғай она ўлади. Бола шу тахлит игнани отасининг оғзига ташлаб жазолайди. Опасининг олдига бориб ўз қўшиғини айтади ва унинг оғзига куйруқни ташлайди, куйруқ кўзининг тамоғидан лип этиб ўтиб кетади, кўк куш эса бир юмалаб болага

¹ Кўккина куш // Мактабгача тарбия. – Тошкент, 1992. – сентябрь-октябр. – 40-41-б.

айланиб, опаси билан мурод-мақсадига етади.⁶ Эртакнинг “Опа-ука”⁷ номли вариантыда ҳам воқеа шу тахлит бошланган. Фақат ота болани ўтин теришга олиб бориб, ўлдириб келади. Қизчага укасининг гўштидан емасликни, унинг суякларини бир кўк латтага териб тол хивичига осиб қўйишни бир момо маслаҳат беради. Тол хивичга осилган кўк латтадан суяклар кўк чумчуққа айланиб ҳовлима - ҳовли юриб:

Кўзларини ёшлатиб,

Ўз отам сўйди мени.

Суягимни қақшатиб,

Ўгай онам еди мени.

Ой опам, Ойлар опам,

Суягимни терган опам.

Кўк латтага тугиб мени

Тол хивичга осган опам,⁸ –

деб қўшиқ айтади. Қушча ўгай онасининг оғзига жуводдиз, отасини оғзиги ангишвона ташлаб жазолайди. Опасининг олдига бориб болага айланади. Эртакнинг бу вариантыда қушчанинг жуводдиз ва ангишвонани қаердан олганлиги ва опасини қандай тақдирлаганлиги унутилган.

“Кўккина қуш” ва “Опа-ука” эртакларига ўгай онанинг болани сўйдириши ва гўштини ейиши мотивининг мавжудлиги унинг қадим тасавурлар билан боғлиқлигидан далолат беради. Фольклордаги гониболизмнинг бу кўриниши қадимий қурбонлик келтириш маросимларига боғлиқ эканлиги аниқ. Бу ўринда катта авлод – ота ва ўгай она янги авлод опа ва укага қарама-қарши туришади. Қурбонликнинг бу шакли қораланиб қизнинг ука гўштини емай кўк латтага тугиб, кўк дарахтга осиб ва ундан кўк қушнинг учиб чиқиб айбдорларни жазолаш тимсолий маънода янгилликнинг қўллаб-қувватланишини билдиради. Бу ўринда кўк ранг асосий рамзий маъно ташимокда. Янада аниқ ифодаланса халқ кўк ранг орқали янги авлод истак-ҳожишларининг илоҳий шартларга мос келишини билдирмоқда. Шу сабабли ҳам эртак сўнгига қиз қуйруқ билан сийланиб, бола қуш шаклидан асл ҳолига келади. Бу эса одам ўрнига бошқа бир жонликнинг қурбон қилиниши шартига ўтилганликни ифодалайди.

⁶ Ўша манба. – 43-б.

⁷ Дев киз. Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент: Фан, 1994. – 27-28-б.

⁸ Ўша манба. – 28-б.

Эртак, дoston қахрамонлари, хусусан, девларнинг ранги орқали калқнинг табиат ҳодисалари, бутун олам тузилиши ва уларнинг эгалари ҳақидаги билим ва тушунчаларининг рамз тилида берилган хулосаларидир.

“Одамтой” эртагида девларнинг жонининг кўк каптар жигилдонидagi шиқиқчада курт сифатида, “Жўраҳон” эртагида девлар жонининг гордаги шиқиқ ичидаги сандиқчаларда кичик девлар кўринишида сақланиши ҳам унга хос рамздир. Бу ўринда “Одамтой” эртагидаги каптар рангининг кўк кишиги бежиз эмас. Чунки кўк ранг туркий халқлар тасавурида муқаддас саналиб, осмон ва тангрининг ранги ҳисобланади. “Жўраҳон” эртагида девлар жонини аждарнинг кўриқлаши каптарга нисбатан кейинги босқич ҳисобланади¹.

Халқ дostonларида кўк ранг билан боғлиқ жой номлари ҳам учрайди. Бу хил ўринларда жой номининг маълум рангда келиши дoston воқелиги билан боғлиқ ўзига хос рамзий маънога эга бўлади. Жумладан, “Гўрўғлининг болалиги” дostonида Гўрўғли янгаси Холжувонни ахтариб Араб Райҳон юртига етганида Араб Райҳоннинг ўн етти жойда қорувлхонаси бор катта салтанатли, катта-катта тўпларни далага қаратиб ичкариб қўйилган дарвозали қалъасига кирмай, Кўкбулоққа бориши, унинг бу манзилда Холжувонни учратиши ва Холжувон ўрнига Араб Райҳоннинг қизи Зайдинойни айнан Кўкбулоқдан олиб қочиши бежиз эмас. Чунки бу манзилнинг Кўкбулоқ аталиши барча шарт-шароитнинг Гўрўғлига хайрихоҳлигини ифодалайди. Аксинча, Араб Райҳон Холжувонни ўтов ичкарисидан тортиб олиб қочган эди². Ҳар икки ҳолатни ҳолигги ўзаро таққосланса, эпик макон тасвирининг қахрамонлар руҳияти ва исар воқелиги мантиқига мос равишда танланганлигини кўрсатади. Умуман олганда, кўк рангнинг, аввало, осмон ранги, туркий халқлар орасида тангрининг ранги сифати эъзозланиш анъанаси фольклор асарлари таркибида ҳам ўз бадий ифодасини топган ва кўк рангнинг бирча рамзий-тимсолий маънолари ушбу асосга чамбарчас боғлиқ равишда келади.

Маросим фольклорида ҳам кўк рангнинг муқаддас ранг сифатида улуғланганлигини кузатамиз. Кўк ранг, аввало, осмон ранги бўлганлиги учун туркий халқлар уни тангри ранги сифати эъзозлашган. Ўғуз ибнбалаларининг улуғ аجدод сифатида кўк бўрига эътиқод билан идрашганлиги фикримизни тасдиқлайди. Машхур “Қул тегин” битигида

¹ Кулса – гул, йиғласа – дур / Ўзбек халқ ижоди. Нашрга тайёрловчилар: З.Хусайнова, Б.Саримсоқов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – 54-б.

² Гўрўғлининг туғилиши / Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967. – 138-б.

кўк рангнинг тилга олинishi ана шу тасаввурларга таянади. Бу ҳақида таниқли адабиётшунос Н.Раҳмонов шундай ёзади: “Қадимги туркийлар кўк Тангрига сизинганлар. Кўк Тангри - Кўк Осмон деганидир, қадимги туркийларнинг тасаввурига кўра, туркий қавмлар Кўк Тангри ва кўнғир ердан бино бўлган фарзандлардир”.¹ Дарҳақиқат, туркий халқлар эътиқотида кўк рангдаги ҳар қандай жисм ё ҳар қандай жой муқаддас саналган. Ўзбек халқ эртақларидаги кўк қўй, кўк қуш, кўк сизир образларини ҳам ана шу қаторда санаш мумкин.

Умуман олганда, эпик асарлар таркибида ранг билан боғлиқ образлар талқинида халқнинг ранг ҳақидаги анъанавий тасаввур ва тушунчалари таянч дунёқараш сифатида муҳим роль ўйнашини юқорида талқин этилган намуналар аниқ кўрсатиб турибди.

BADIIY MATNDA PARODIYA – USLUBIY VOSITA SIFATIDA

A. Sobirov, o'qituvchi (SamDU)

Tohir Malik hajviy asarlari tili va uslubining o'ziga xosligini ta'minlashda parodiyalar ham muhim o'rin tutadi. Parodiyalarni birgina Tohir Malik ijodidagina emas, balki hajviy uslubda ijod qiluvchi ko'plab yozuvchi va shoirlar asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari respublikamizdagi satirik jurnal hisoblanuvchi “Mushtum” jurnali sahifalarida “Gulqaychi” rukni ostida berilayotgan ko'plab parodiyalar bu janrning badiiy adabiyotimizda o'ziga xos o'rnini borligini ko'rsatadi. Adabiyotshunos N.Hotamov va B. Sarimsoqovlarning ko'rsatishicha, parodiya hajvning bir turi bo'lib, unda biror ijodkor asari yoxud ijodining yaramas tomonlari ustidan kulish, masxaralash maqsadida o'sha asarga o'xshatib yozilgan she'riy yoki nasriy asar. Parodiya badiiy ijoddagi kamchiliklar ustidan kulishning asosiy vositasi bo'lib, u ikkiga bo'linadi:

1. Yumoristik parodiya. Bunday parodiya biror asarning asosiy nusxasiga taqlidan yaratiladi;

2. Satirik parodiya. Bunday parodiya asarning asosiy nusxasiga zid bo'lib, undagi g'oyaviy-estetik jihatlar inkor etiladi. Parodiya hamma vaqt adabiy jarayon bilan hamqadam bo'lib, o'z xarakteri jihatidan aktual va keskin bo'lishi lozim. Shuning uchun ham o'tmish ijodkorlarning asarlaridan ko'ra, ko'proq zamonaviy asarlarga nisbatan yaratiladi. Parodiya odatda davr o'tishi bilan eskirib qolgan badiiy shablon va normalarga qarshi qaratilgan bo'ladi va u adabiy kurashlar jarayonida muhim rol o'ynaydi.

¹ Раҳмонов Н. Ўзбекистоннинг кўк ва туркий-рун ёзувлари. – Тошкент: Фан, 2006. – 35-б.

Tohir Malik hajviy asarlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda yozuvchi hayotda yuz berayotgan voqea-hodisalar, turli xil insoniy munosabatlarni odob, axloqiy mezonlar asosida baholaydi, ularga o'z munosabatini bildiradi. Axloqiy mezonlarga mos kelmaydigan holatlar, kishilar xarakteri, xatti-harakatlarini keskin tanqid ostiga olishga harakat qiladi. Bu esa uning tilda mavjud bo'lgan turli vositalardan foydalanishiga imkoniyat yaratadi. Paronimlarning yozuvchi hajviy asarlari tilidan mahkam o'rin egallashi sabablaridan biri shunda. Yozuvchi jamiyat hayotini, har bir kasb egasining faoliyatini, maqsadlarini tahlil qilar ekan, ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan ehtiyojlarni bir so'z vositasida ifodalashga harakat qiladi va hajvni yuzuga keltiradi. Yozuvchining "yetishmaydi" so'ziga uslubiy vazifa yuklab, o'z fikrlarini hajviy tarzda ifodalaganligi quyidagi misollarda ko'rinadi:

Nima uchun "biri kam dunyo?" deyishadi, bilasizmi? Chunki inson aotining ko'ngil ko'chasi g'oyat keng, shuning uchun u doim noliydi. Doim ungu nimadir yetishmaydi. Yo noto'g'rimi? Qani, birgalashib mulohaza qilib ko'raylikchi?

Sahroga suv yetishmaydi. Xotinga bitta gap yetishmaydi. Erkakka bitta kotin yetishmaydi. Milisaga bahona yetishmaydi. O'g'riga pul to'latemirsandiqyetishmaydi. Itgaso'ngakyatishmaydi. Gazetachiga qog'oz yetishmaydi. Talabaga imtihon chog'i pul yetishmaydi. Haydovchiga benzin yetishmaydi. Laylakka ilon yetishmaydi. Choyxonachiga oshxo'rlar yetishmaydi. Cho'ntakka pul yetishmaydi. Go'rkovga o'lik yetishmaydi. Ig'vogarga oltinchi barmoq yetishmaydi. Qizlarga sariq sochbo'yoq yetishmaydi. Qimorbozga beshinchi "tuz" yetishmaydi. Sutchiga suv yetishmaydi. Duradgorga payraxa yetishmaydi. Zargarga tilla yetishmaydi. Mushukka sichqon yetishmaydi. Sichqonga don yetishmaydi. Sevishganga orzu yetishmaydi. Bojxonachiga chogara yetishmaydi. G'iybatchiga vaqt yetishmaydi. Imomgatugun yetishmaydi. Doyuga homiladorlar yetishmaydi. Hokimga do'qyetishmaydi. Osmonga yulduz yetishmaydi. Ashulachiga to'y yetishmaydi. Dehqonga yer yetishmaydi. Yalqovga yostiqlik yetishmaydi. Olimga kitob yetishmaydi. Johilga ilm yetishmaydi. Paxtaga arzon terimchi yetishmaydi. Bozorga insof yetishmaydi. Tarozibonga vijdon yetishmaydi. Qassobga go'sht yetishmaydi. Baxilga qishda qor yetishmaydi. Televizorga Meksika kinolari yetishmaydi. Radioga javrash yetishmaydi. Avtobusga eshik yetishmaydi. Asalariga gul yetishmaydi.

Misollardan ma'lum bo'lishicha, yozuvchi jamiyatdagi ehtiyojlarni tushilarning kasbi-koriga, turmush tarzi, ma'naviy dunyoqarashiga qarab tushilushga harakat qilgan. Ularning ko'pchiligi hayotiy haqiqatlarga mos kelganligi uchun o'quvchida kulgi uyg'otmaydi va ularni o'quvchi odatdagi hol

sifatida qabul qiladi. Ular quyidagilar: Sahroga suv yetishmaydi. Gazetachiga qog'oz yetishmaydi. Haydovchiga benzin yetishmaydi. Zargarga tilla yetishmaydi. Olimga kitob yetishmaydi. Asalariga gul yetishmaydi.

Yuqoridagi misollarning ayrimlari esa yozuvchining tasvirlanayotgan kishilarga nisbatan salbiy munosabatda ekanligini anglatib, o'tkir piching, kinoyaga yo'g'rilganligi bilan ajralib turadi. Ular orasida bir qator misollar kasb bilan aloqador: Milisaga bahona yetishmaydi. O'g'riga pul to'la temir sandiq yetishmaydi. Talabaga imtihon chog'i pul yetishmaydi. Choyxonachiga oshxo'rlar yetishmaydi. Go'rkovga o'lik yetishmaydi. Qimorbozga beshinchi "tuz" yetishmaydi. Sutchiga suv yetishmaydi. Imomga tugun yetishmaydi. Paxtaga arzon terimchi yetishmaydi. Tarozibonga vijdon yetishmaydi. Bunday tashqari yana bir guruh misollar kishining jamiyatda tutgan o'rnini, jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan axloqiy qoidalarga qay darajada amal qilishini ifodalaydi. Ularning xatti-harakatlari jamiyat manfaatlarini, dunyoqarashiga mos kelmasligi yozuvchi fikrlarining hajviy tus olishiga sabab bo'lgan: Xotinga bitta gap yetishmaydi. Ig'vogarga oltinchi barmoq yetishmaydi. Qizlarga sanq sochbo'yoq yetishmaydi. G'iybatchiga vaqt yetishmaydi. Baxilga qishda qor yetishmaydi.

Keltirilgan misollarda "yetishmaydi" so'zi hayotiy ehtiyoj ma'nosini ifodalashdan tashqari yozuvchining o'zi tasvirlayotgan kishini fosh qilishga qaratilgan harakati, istehzosi, kinoyasini ham ifodalagan.

Parodiyalarning Tohir Malik hajviy asarlari tilida muhim uslubiy vosita ekanligi uning eski maqollarni hajviy uslubda yangicha izohlashida ham ko'rinadi. Yozuvchi maqollarga quyidagicha izoh beradi:

"Yuz so'm puling bo'lmasin, yuzta do'sting bo'lsin".

Izoh: Har biri yeb ketarga yuz dollardan bera oluvchi do'stlarnazarda tutilyapti.

"Qazisan, qartasan, o'z naslingga qaytasan".

Izoh: Qazi-qarta qimmatlashgani hisobga olinmaydi.

"Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi".

Izoh: Ayniqsa bitta kalla ahmoqroq bo'lsa yanada qiyin.

"It hurar - karvon o'tar."

Izoh: ehtimol karvonning qulog'i og'irroqdir...

"Dehqon bo'lsang, kuz hayda."

Izoh: Traktor topilsa yozda haydasa ham bo'laveradi.

"Oltin aynimas."

Izoh: Sizning oltiningiz yer qa'rida aynimay yotibdi. Ishonmaganlar qazib olaversin.

Mana bu izohlarda esa Tohir Malikning jamiyatdagi poraxoʻrlik, mamnunlik kabi illatlarga ishora qilayotganligi sezilib turadi:

"Til tovganidan koʻra, oyoq tovgani yaxshi."

Izoh: Ikkovi toymasa yanada yaxshi. Chunki har ikki holatda ham haqtoʻlanadi.

"Doʻst boshga qarar, dushman oyoqqa".

Izoh: Agar boshda maʼno boʻlmasa, doʻstning ham oyoqqa qarashdan oʻziga chorasi yoʻq.

"Soʻrab-soʻrab oʻrgangan olim, orlanib soʻramagan oʻziga zolim".

Izoh: Otangning puli koʻp boʻlsa sen orlanaver, pulsizlar soʻraboʻrganaverishsin.

"Boshiga ursang - tuyogʻi zirqiraydi".

Izoh: Ovora boʻlib boshiga urmay, toʻgʻri tuyogʻiga urilgani maʼqul.

"Ahmoqqa Toʻytepa nima yoʻl". ("Ahmoqqa Quva bir tosh")

Izoh: Uchoq uchib tursa Amerika ham nima yoʻl?

"Qoʻshning koʻr boʻlsa - koʻzingni qis".

Izoh: Joy olishda qoʻshning koʻziga qarab olsang koʻz qisish balosidan qutulasan.

"Oʻychi oʻyiga yetgunicha tavakkalchi toʻyiga yetadi".

Izoh: Oʻychi noumid boʻlmasin, u ham quruq qolmas, xotin oshiga yetib borar.

"Sochi uzun - aqli kalta".

Izoh: Ayrimlarning sochi ham, aqli ham kalta boʻlar emish, vo ajabo!

Yuqorida keltirilgan izohlarning koʻpchiligi hayotiy haqiqatlarga mos kelmasligi hajvni yuzaga keltirgan.

Tohir Malik hajviy asarlarida qoʻllanilgan parodiyalarning bir guruhi umumiy axborot vositalari, radio va televideniye nutqi, aniqrogʻi reklamalar bilan bogʻliq. Masalan, quyidagi parodiyalarda televideniye orqali tinmay reklama qilinadigan "Koka - kola" ichimligi va arzon makaronni targʻib qiluvchi koʻrsatuv hajv qilinmoqda. Ayniqsa, qimiz soʻzining buqaga nisbat berilishi yoki tuxumning xoʻrozga nisbat berilishi bu maʼnoni yanada kuchaytirgan:

Eng oliy qimiz - ola buqaning qimizidir. Chanqogʻinggaishon!
Oʻzing hal qil!

"Beminnat" firmasi Kanada xoʻrozi tuxumini bozorganisbatan arzon narxda pullaydi. Kanada xoʻrozlarining tuxumini yemabsiz, dunyoga kelmasiz.

Ishoning: birinchi qoshiqdayoq sevibqolasiz. Murojaat uchun manzil:

"Beminnat" firmasi.

Mo'ljal: qo'shni uyning shundaygina o'ng tomonida. Yuqorida misol keltirilgan parodiyalar tarkibidagi "Chanqog'ingga ishon!", "O'zing hal qil!", "bozorga nisbatan arzon narxda pullaydi", Ishoning: birinchi qoshiqdayoq sevib qolasiz. Murojaat uchun manzil." kabi buyruq va xabar mazmunini ifodalaydigan gaplar reklama va parodiya o'rtasidagi o'xshashlikdan dalolat berib turibdi.

Hamмамizga ma'lumki, televideniya eng ko'p qo'yiladigan ko'rsatuv choyni targ'ib qiluvchi reklamadir. Uning haddan ziyod darajada berilishi ham qanday tomoshabinni zeriktirishi tabiiy. Quyidagi misol ana shu reklamani yozuvchi parodiyasining yaralishi uchun asos bo'lganligi ko'rsatadi: Aslida parodiya asosida "choy" leksemi yotibdi.

Telemuxbir: - Nima uchun hangi eshaklarni sevamiz? Biz shu savol bilan xaridorlarga murojaat qildik:

1-xaridor: - Men eshakning dumini yoqtiraman. U menga sevgun yorimning kokilini eslatadi.

2-xaridor: - Bu eshaklarning qulog'ini hech bir odamda uchratmaysiz.

3-xaridor: - Narxi ham arzon, hidi ham mazali.

Telemuxbir: - (Hayajonini yashira olmay) Eshak bozoridagi xangilarni sotib oling. Mening o'lkam, mening eshagim!

Mana bu parodiya esa arzon sho'rva reklamasiga o'xshatish tufayli yuzaga kelgan. Beva chollarga: Anzirat kampirning achigan sho'rvasini ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz. Iching va bir qoshiqda sevib qoling!

Yuqorida keltirilgan misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, parodiyalar asosan hajviy xarakterda bo'lib, ularning asosida ijodkorning hayotda uchrab turuvchi turli xil salbiy voqea-hodisalar, xarakter-xususiyatlardan kulish, ularni tanqid qilishi yotadi. Parodiyalarda kishilarning jismoniy kamchiliklari tilga olinmaydi.

Tohir Malik hajviy asarlarining tili va uslubini o'rganish bo'yicha olib borgan kuzatishlarimiz bir qator xulosalarga kelishimizga imkon beradi.

Nutq jarayonida to'g'ri tanlangan til birliklari ma'lum bir ma'no nozikliklariga ega bo'ladi. Tilimizdagi bir qator so'z va iboralarning emotsional-ekspressiv xususiyatiga ega bo'lishi ularning muloqot jarayonida uslubiy vosita sifatida ishtirok etishiga yo'l ochadi. Yozuvchi tomondan ma'lum bir uslubiy maqsadda tanlangan til birliklari fikrlarni nutq qaratilgan shaxs tomonidan tez va to'g'ri tushunilishini ta'minlashdan tashqari obrazlilikni ham vujudga keltiradi. Hajviy asarlarda tag ma'no ifodalovchi leksik-frazeologik vositalarning tadqiq etilayotgan matnning lisoniy va badiiy-estetik qimmatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, bu vositalarning hajviy asarlar tilida qo'llanishi bevosita yozuvchining

kommunikativ maqsadi bilan bog'liq bo'lib, ular badiiy asar tilining o'ziga so'zligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tohir Malik individual uslubiga xos satira va yumor uning ijodiga, turli mavzularga oid asarlariga ham ta'sir o'tkazganligi seziladi. Yozuvchining satirik va yumoristik hikoyalarda hajviy mazmunning ifodalanishida leksik-frazeologik vositalar muhim manba sifatida ishtirok etgan. Hajviy asarlar tilida faol doirasi chegaralangan leksikaning semantik-uslubiy imkoniyatlari badiiy matn doirasida namoyon bo'lishi yozuvchining yozuvchining tilda mavjud bo'lgan leksik va frazeologik birliklarni qo'llash qo'llash mahoratiga bog'liq. Shunga ko'ra yozuvchi hajviy asarlarida leksik-frazeologik birliklar o'ziga xos vosita sifatida ishtirok etadi.

Tohir Malik so'z ko'chma ma'nolaridan foydalanishda so'zlarning konnotativ-ifoda semalariga o'ziga xos uslubiy vazifa belgilaydi. Shuning uchun yozuvchi hajviy asarlarida qo'llanilgan metafora, kinoya, tagma'no kabi tasviriyy vositalarning badiiy matndagi uslubiy xususiyatlari muallifning individual uslubi bilan bog'liq holda namoyon bo'lgan.

Badiiy matnda asar mazmunini ochishga qahramonlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda ko'chma ma'no asosida yuzaga keluvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkor bu vositalardan o'rinli foydalanish bilan o'z ijodi mahsuli bo'lgan asar tilining aniq va tushunarli, ifodali va ta'sirchanligini ta'minlashga erishadi. Tohir Malik hajviy asarlarida faol qo'llanilgan ifoda tasvir vositalaridan biri metafora hisoblanadi. Tohir Malikning hajviy asarlari tilida qo'llanilgan metaforalar fikr ifodalashda qulaylik tug'dirishdan tashqari tasvirlangan muloqot jarayonini, unda ishtirok etuvchilarni o'quvchi ko'z o'ngida aniq gavdalandiradi, kitobxonda ularga nisbatan ma'lum bir munosabat uyg'otadi.

Adabiyotlar:

1. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг рӯча-Ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
2. Маҳмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология аниқлалари. 2006, N2(11). 47, 48, 51 –бетлар.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи том. Москва, Рус тили, 1981. Б. 673.
4. Абдурахмонов Ш. А. Ўзбек бадий нутқида кулги кўзгатувчи лисоний воситалар. Филол. фан. номз дис. – Тошкент, 1997. – 147 б.

СТИВЕН КИНГНИНГ «ЎЛИК МИНТАҚА» (The Dead Zone) АСАРИДА ЗАМОН ҚАҲРАМОНИ

З. Усмонова, ўқитувчи (БухДУ)

«Заминда ҳам кўкда ҳам,
Сиз билмаган сир кўпрок»
(Горацио)¹

Шекспир трагедиясидан олинган ушбу қанотли сўзлар Стивен Эдвин Кингнинг (Stephen Edwin King, 1947) ҳар бир китоби учун эпиграф бўлиб хизмат қилиши мумкин. Ушбу сўзларда муаллиф дунёқарашининг асосий мезонлари ва ғоялари ҳамда унинг бадиий адабиёт соҳасидаги ижодий босқичлари ўз аксини топган.

XX аср Америка адабиётининг машҳур намоёндаларидан бири бўлмиш Стивен Эдвард Кингнинг диққат эътиборини инсон ва жамият ҳаётида рўй берувчи гайриоддий воқеалар, инсон табиатидаги муқаддас ва юксак туйғулар, инсон, табиат ва жамиятда яширинган ҳамда пайти келиб ташқарига портлаб чиқиб, атроф борлиқни таниб бўлмас даражада ўзгартириб юборишга қодир оддий, кундалик воқеалар жалб этади.

С.Кингга бағишлаб қатор мақолалар эълон қилинган бўлиб, улар асосан адиб асарларини реклама қилиш ёхуд унинг ижодига салбий баҳо бериш мақсадида амалга оширилган. Адиб ижодига ижобий муносабат билдирган танқидчилар орасида америка адабиётининг билимдон, машҳур адабиётшунос олим А.М.Зверевни алоҳида таъкидлаб кўрсатиш лозим. А.М.Зверев шундай ёзади:

«Паст жанр»нинг тор доираси ва тижоравий характерига қарамай С.Кингнинг асарлари учинчи даражали китоблар эмас — улар адабиётшунослик тадқиқотлари учун бой манба ҳисобланади».²

Америка Қўшма Штатларининг XX асрнинг иккинчи ярми адабиёт замонавий маданиятнинг муҳим таркибий қисми сифатида алоҳида эстетик мустақилликка ҳам эга. Адабиётшунос олима В.В.Ивашева таъкидлаганидек, «XX асрнинг 50-йилларидаёқ, сўнгра эса кейинги ўнйилликда бутун ғарб адабиётида ёрқин кўринишга эга бўлган фалсафий тамойил кўзга ташланади. Бу айниқса бадиий насрда яққол намоён бўлди».¹

Стивен Кингнинг «The Dead Zone» («Мертвая Зона», 1979) романи том маънода адибнинг энг яхши асари ҳисобланади. Романда телепатия ва

¹У.Шекспир, "Гамлет" Ўқитувчи -1991, 85-бет.

²А.М. Зверев Что такое массовая литература? М., 1991, стр. 29.

¹Ивашева В.В. Новые черты реализма на Западе. М., 1986, стр. 32.

башоратчилик қобилиятига эга бўлган оддий америкалик зиёли Жон Смит ҳақида ҳикоя қилинади. Жон болалик пайтида муз устида учаётиб йиқилиб тушиди ва боши лат ейди, бироқ у тезда оёққа туради. Болаликнинг барча воқеаликлари унутиб юборилганидек, тез ўтмай бу ҳодиса ҳам ёддан оқибди. Бироқ орадан кўп ўтмай Жони ўзида ғаройиб хусусиятни кашф этади. У ўз қаршисида турган одамга қараб, келажакда унинг бошига қандай воқеалар тушишини кўз олдига келтира оларди. Бироқ унинг бу қобилитига ҳам ҳеч ким эътибор бермади. Орадан йиллар ўтиб кичкинтой Жони балоғатга етади, қувноқ ва вазмин ўқитувчи бўлиб етишади:

«He was a tall man who had a tendency to slouch, and kids called him Frankenstein. Johnny seemed to be amused rather than outraged by this. And yet his classes were mostly quiet and well – behaved, there were few skippers ... He was the sort of teacher who, in another ten years, would have the school yearbook dedicated to him.»²

«Он был высокого роста и немного сутулился, за что дети прозвали его Франкенштейном. Правда, он был скорее этим доволен, нежели раскоровадан. На его уроках царил тишина и покой, прогульщиков мало... Он был одним из тех учителей, которым через десяток лет посвящают школьные ежегодники»³.

Жони ҳамманинг эътиборини ўзига қаратишни хоҳламайди. Унга «вориган ва умидсизликка тушган америка халқини саҳродан олиб чиққан пайгамбар» шухрати керак эмас. У шухратга интилмайди ва ўзининг тафриштиёрый равишда рўй берадиган башоратчилигини сотиб, кун сўришни хоҳламайди. Унинг яккаю ягона орузи ҳамма бўлиб ўтган воқани унутиб, уни тинч қўйса бас. У эл қатори ҳаёт кечиритишни ва сеvimли касби бошини шуғулланишни истайди. Жони Смит Эзгулик, Ҳалоллик ва Софдиллик тимсолидир. Энг аввало Жони – инсонпарвар, том маънода гуманист. Жони Симтнинг гуманизми ва ҳокисорлиги шу даражадаки уни фақат Инжилдаги халоскор билан таққослаш мумкин. Чиндан ҳам Жоннинг онаси Вера Смит ўғлига мурожаат қилиб, уни халоскор деб атабди:

«It's the power the God working in you,' she said. It's a great responsibility, Johnny. Agreattrust. Youmustbeworthy... Savior!»¹

«Ты наделан божественной силой, - говорила она. Это большая ответственность, Джони. Большое доверие. Ты должен быть его достоин... Спаситель!»²

¹ King. The Dead Zone, New York, 1992 y., p.65

² King. Мертвая зона, М., 1994, стр.30.

³ King. The Dead Zone, New York. 1992 y., p.50.

Инсоният халоскори Жони Смит Инжилдаги Исо каби Эзгулик Инсонпарварлик ва Одамийлик тимсолидир. Жони ўз башоратчилиги билан жамиятга наф келтириш учун фойдаланади: у Карсел-Рок шаҳарчида аҳолисини даҳшатга солиб, кетма-кет аёлларнинг номусига тегиб, сўн ўлдириб юрган ашаддий жиноятчи – маньякни хатосиз топади. Бу ишнинг изқуварлар каби эмас, балки башорат орқали амалга оширади. У шу йўл билан бир қатор қотилликларни очиб ташлайди ва шундан сўн газеталарда куйидаги келтириладиган мисолдаги каби жарангдор сарлавҳали мақолалар пайдо бўлади:

«Maine psychic directs sheriff to killer deputy's home after visiting scene of the crime». From the New York Times, December 19, 1975.³

«Эксперт из Мэна приводит шерифа к дому его помошника-убийцы после осмотра места преступления» Нью-Йорк Таймс, 19 декабря, 1975 года⁴

Кинг яратган Жони Смитнинг ёлғизлигида романнависнинг ўз авлодининг тақдири ҳақидаги, 70-йилларга тўғри келган ўсмирлик идеалларининг барбод бўлиши ҳақидаги фикр-мулоҳазалари ўзига хос аксини топган. Бу давр ҳақида Стивен Кингнинг ўзи куйидагича хотирлайди: «Мен улғаяр, шахс сифатида шаклланар эканман мен бетўхтов зўравонлик денгизида чўмилтиришди. Вестернларда зўравонлик «кути»да зўравонлик – гангстерлар ҳақидаги, шахсий изқуварлар ҳақидаги телесериаллар. Дуч келган одамга қараб ўк узишарди. Бутун атрофда қон ва яна қон... Аммо 70- йиллар бошида зўравонлик билан тўйдирилганлар бошқа томонга қараб кетдилар. «Муҳаббат авлодлари» туғилди, «гул фарзандлари» ва «хиппи» дунёга келдилар... Биз расмий сиёсат билан орани очиқ қилишга интилардик» Бу унинг ҳолисона ижтимоий ҳаётга муносабати эди.

«Ўлик минтақа» - сиёсий жиҳатдан долзарб фалсафий асардир. Стивен Кинг мазкур романда ёвузлик тимсоли бўлган Грэг Стилсоннинг ҳақиқий қиёфасини очиб ташлади, бахтли тасодиф туфайли инсоннинг навбатдаги ядро урушидан халос бўлди. Бироқ бу ҳалокат таҳдиди ҳали бутунлай бартараф этилган, деб бўлмайди. Ким билади, дунёда яна қанча Стилсонлар борлигини. Бироқ бунинг ҳам бир ечими топилар, зеро романи қахрамони Жон Смитнинг ҳам сўнгги ойлари фақат шу фикр билан банд эди. Унинг бу қиёфаси уни ҳақиқий қахрамон қилиб гавдалантирди.

³ С.Кинг. Мертвая зона. М., 1994, стр.59.

⁴ thatbook, p.312.

⁴ тоткнига, стр.133.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.М. Зверев. Что такое массовая литература?, М., 1991 г.
2. Пившова В.В. Новые черты реализма на Западе, М., 1986 г.
3. У. Шекспир, «Гамлет» «Ўқитувчи, 1991й.
4. S. King. The Dead Zone, New York, 1992 у.
5. С. Кинг. Мертвая зона, М., 1994 г.

СТИВЕН КИНГ АСАРЛАРИНИНГ БАДИИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

3. Усмонова, ўқитувчи (БухДУ)

С. Сайитмуродова, талаба (БухДУ)

“Ҳар бир асарга ёндашганда уни ижодкор истеъдоди табиатига аълолигиб ўрганши, асар бетакорлигини ўша адибга Оллоҳ берган буюк неъмат – истеъдод ҳосиласи деб қараши керакка ўхшайди.”⁵

XX аср Америка адабиётининг машҳур намоёндаларидан бири бўлиши Стивен Эдвард Кинг тириклигидаёқ классиклар сафидан жой олишига улгурди. Стивен Кинг 40 дан ортиқ роман, 3 та ҳикоя ва қиссалар туғилиши ва 2 та электрон роман ёзиб қолдирди. Унинг китоблари дунёнинг 11 та турли тилларига таржима қилинган ва 35 мамлакатда нашр қилинган. Стивен Кинг ҳаммага илмий фантастиканинг энг машҳур муаллифи сифатида ганилди.

Стивен Кингнинг диққат эътиборини инсон ва жамият ҳаётида рўй бериши ғайриоддий воқеалар, инсон табиатидаги муқаддас ва юксак гўшлар, инсон, табиат ва жамиятда яширинган ҳамда пайти келиб ташқирга портлаб чиқиб, атроф борлиқни таниб бўлмас даражада ўнатириб юборишга қодир оддий, кундалик воқеалар жалб этади.

«Лангольерлар» романида ҳам Стивен Кинг яна инсоннинг экстремал шартларда ўзини тутиши мавзусига қайтади. Бу романда «ташқи дунёдан ажралиб қолган» бир-бирлари билан мутлақо таниш бўлмаган ўн кишидан иборат бўлган гуруҳ тасвирланади. Уларнинг барчаси турли шартли ва турли касб эгалари бўлган инсонлар, шу тариқа асарнинг «коллектив қахрамони»га айланишади. «Туман» асарининг коллектив қахрамони «Лангольерлар»нинг «коллектив қахрамон»и мисолида ўзининг муносиб ворисини топади.

Бу ҳақида Андрей Чемоданов шундай ёзади:

«Из специфики коллективного героя вытекает и характерное чередование шоковых эмоционально-событийных всплесков с интроитивными диалогами-диспутами.»¹

¹Кимилдулла Болтаев, Янги назарий тамойиллар, Жаҳон адабиёти, 2008 й. . 154-бет.

талаб қиладиган жиддий фалсафий асарлар қаторига қўшишни тикктов
этади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ҳамидулла Болтаев, Янги назарий тамойиллар, Жаҳон адабиёти, 2008
2. Андрей Чемоданов, Данила Дубшин, Литература, М. 1998 г.
3. Злобин В.Г. По ту сторону мечты. М., 1989.
4. Стивен Кинг, Лангольер, М., 1991 г.
5. С.Кинг, Туман, М., 1991.
6. Stephen King, The Langoliers, New-York, 1990 y.
7. Stephen King. The Fog. New-York, 1990.

ТАРИХИЙ ҲИКОЯЛАРДА ДЕТАЛЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ

С. Бозорова, ўқитувчи (ТошДЎТАУ)

Тарихий мавзудаги ҳикояларда деталлардан унумли фойдаланиш
асар муваффақиятини таъминловчи омиллардан бири ҳисобланади.
Мустақиллик йилларида миллий озодлик мавзусида яратилган тарихий
ҳикоялар ичида Шойим Бўтаевнинг „Қора туман“ (1990)¹, Гаффор
Ҳотамовнинг „Уйи куйган одам“ (1995)², Луқмон Бўрихоннинг „Алдоқчи
тунлар“ (2003)³ ҳикоялари алоҳида ўрин тутди. Ҳикоялар муаллифлари
деталлардан ўринли фойдаланади. Шойим Бўтаев воқеаларни табиат
ҳодисаларига боғлаган ҳолда тасвирлайди. Экспозициянинг ўзидеё
“Қора, қоп-қора туман” тасвири икки бор ишлатилади. Туман билан
параллел равишда “маёқдай милтиллаб турувчи шуъла-умид” ҳам
тасвирланади. Аммо бу шуъла олдинда эмас, орқада қолган. Болалик даври
– тинч, осуда замон, озод ҳаёт ҳақидаги хотиралар шуъласи бу. Ҳикояда
қора ниятли “дўст”, кўнгли қора киши ҳам туманга ўхшатилиши
бавосита ишора қилинади. Унга бўлган ишонч туфайли ҳақиқатни
кўролмайд доғда қолиш мумкин. Ҳикоя эпизодига “тоғлардан энди туман
туман атроф-тумонатни қоплайди” тасвири ишлатилади. Бу ўринда
туман юртдаги мустамлака ҳаёт рамзидир.

Гаффор Ҳотамов ўз ҳикоясида рўмолча деталдан унумли
фойдаланади. Рўмол ҳам, рўмолча ҳам поклик рамзидир. Тўқсабога соғин
қилинган рўмолча Хадича муҳаббатининг, ор-номусининг рамзи эди.
Ҳикояда тасвирланган даврда, ҳатто ундан кейинроқ ҳам халқимиз

1. Бўтаев Ш. Қора туман. Ёшлик.-1990.-№4.-Б. 5-8
2. Ҳотамов Ғ. Уйи куйган одам. Ёшлик.-1996.-№2-Б. 40-42.
3. Бўрихон Л. Алдоқчи тунлар. Ёшлик.-2003.-№1.-Б.-37-41.
4.

унаштирилган йигитга ўз қўли билан тиккан рўмолчасини ҳада
сони аъланаси бор эди. Қадрли кишининг совғаси ҳам қадрли бўлади. Уни
Ҳазратларга, айниқса, босқинчиларга бериб қўйиш исноддир. Иснод ўлимдан
оғир Севган кишисининг биргина совғасини шу қадар эъзозлаган
инсоннинг она-Ватанни, жонажон халқини қанчалик севиши, ардоқлаши
маълум.

Луқмон Бўрихон асаридаги асосий деталь Нур бойвачча томонидан
сўнги Қашқар сафарида сотиб олинган фаранги ўйинчоқ ёғоч той
қилинилади. Уни фарзандига тортиқ қила олмаган қўрбоши хотинининг
яқинлиги ҳақида эшитгач, ўйинчоқни ип билан бўйнига осиб олади. Бу
сарфат унинг сўнги умиди ўғли эканини ифодалайди. Ўйинчоқ детали
“Қари қоплон” билан мулоқотда, Оқбош овулида, шиддатли жангларда,
Сулаймон билан айтишувда, Нурбек оғир ярадор бўлиб алаҳсираган
пайтирда, ўғлини олиб кетиш учун уйига борганида ишлатилади. Уни
мавр тумори дейиш мумкин. Қўрбоши умрининг мазмуни ўғли эди.
Турниёни ундан тонгач, ота ўз бўғзига ўқ қадайдди. Адиб таъбири билан
ифода этганда: “*Бўйнида осиглиқ уша заройиб ўйинчоқ той қонга
валанганича сирғалиб ерга тушди*”, яъни қўрбоши олий мақсади йўлида
олиб берди. Қўрбоши ўз наслининг давомчиси бўлган ўғлидан жудо
бўлишни, Ватандан айрилишни, мутеликни кўтара олмайди. Озод рух
абдий озодлик сари ошиқади.

Ҳикояда туркий халқлар бирдамлиги учун курашган тарихий шахс
Ашир пошо ҳақида сўз боради, унинг ишончли ноибларидан бири
бўлган “Қари қоплон” лақабли курашчи образи яратилади. Бу образни
индивидуаллаштириш мақсадида у она тилида, яъни туркча
саниртирилади. Ҳикоя шу жиҳати билан истеъдодли ёзувчи Хуршид
Дустмуҳаммаднинг “Миркомилбойнинг қазо бўлган намози” ҳикоясини
билан солади.⁴ Турли йилларда турли ижодкорлар томонидан яратилган
мавкур ҳикоялар қахрамонлари тақдири, фаолияти, ҳаётий тамойилларида
қизиқчиликлар кўп. Энг асосийси, Ватан озодлиги йўлидаги
ишкорликдир.

Ёзувчилар услуби бир-биридан фарқ қилади. Шойим Бўтаев
услубида тасвирийлик, Ғаффор Ҳотамов ҳикоясида лаконизм, Луқмон
Бўрихон асарида руҳий таҳлил устунлик қилади. Шойим Бўтаев
қахрамонлар руҳиятидаги эврилишларни ички монолог воситасида акс
эйтиришига интилади. Ҳикояда риторик сўроқ ва ундовларнинг кўп
иништирилгани шундан. Айни пайтда воқеалар ривожига мос пейзаждан ҳам
ушумли фойдаланилади. Адиб қўллаган ўхшатишлар ўзига хослиги билан

эътиборни тортади. Ҳикояда бирорта қаҳрамоннинг портрети чизилмайди. Уларнинг кийим-кечаклари тасвирланади, холос. Холбўтанинг эгинида чопон, бошида салла бўлганини майит ювилаётганда, оёғида учи қайрилми этик бўлганини унинг қабри очилганда биламиз. Қўрбошининг ички на ташқи дунёсида ажиб уйғунликни идрок этамиз, чин мусулмон сифатида миллий анъаналарга содиқ эканлигини фаҳмлаймиз. Ҳикояда тасвирланган кишлоқ йигитларининг бошида дўппи; маҳаллий ҳоқимият вакили эса кепка кийган. Бу ўринда кепка босқинчилар чизган чизиқдан чиқмаслик баробарида улар маданияти ва эътиқодига ҳам эргашган кишилардан ўзгаришларга ишорадир, дейиш мумкин. Холбўта қабрини очиб арафасидаги тараддудда улар дунёқарашидagi фарқ сезилади:

“ –Шуни очиб утирмайлик... хосияти йўқ. Биримизмас-биримизга касри уради, бирор фалокатни бошлайди.

– Очамиз! – қатъий деди кепкали киши. – Майли, бир кўрайлик, кейин ни кўмиб қўяверамиз”.

Халқимиз марҳумларни безовта қилишни гуноҳ деб билади. Бундай ножоиз хатти-ҳаракат бахтсизлик келтиради, деб ҳисоблайди. Шу халқнинг “илғор” вакили эса бундай фикрни эскилик сарқити деб санайди. Бу ҳолат тасвирида инсонлар эътиқодида ҳам ўзгаришлар бўлгани аниқ этади.

Гаффор Ҳотамов воқеалар тафсилотига берилмайди. Ҳикояда воқеалар гоҳ қаҳрамонлар тилидан, гоҳ муаллиф нутқи орқали берилади. Бу эки композициянинг ўзига хослигини таъминлайди. Адиб қаҳрамонлар руҳиятини уларнинг хатти-ҳаракатлари, гап-сўзлари орқали кўрсатишни ҳаракат қилади. Ҳатто қаҳрамонлар портретини чизишга ҳам уринмайди. Бош қаҳрамон Аҳмад тўқсабонинг ташқи кўриниши ҳақида “... *миқтидан келган одам эди...*”, “... *қорамағиздан келган йигит эди...*”дан бошқа маълумот йўқ. Бу тасвирлар хотираларини сўзлаётган қаҳрамонлар нутқида келтирилади. Асардаги салбий қаҳрамон – Эгамқул портретини нисбатан тўлиқроқ дейиш мумкин: “*Уккиқўз, қирғий бурун эди у, – дейди бобом, – бурнининг учида туки бўлиб, ўмганини хиёл олдинга ташлаб юрарди, сўхтаси совуқ бир кас эди-да*”. Шу тасвирнинг ўзи ҳам ўқувчида қаҳрамонга нисбатан салбий муносабатни шакллантиради. Бу адибнинг ижодий нияти амалга ошганидан далолатдир.

Луқмон Бўрихон заминимизда кечган фожиали воқеаларни тасвирлар экан, қаҳрамонлар руҳиятига катта эътибор беради. Руҳият қатидаги туйғулар таҳлили асносида қаҳрамонлар ҳолатидаги ўзгаришлар батафсил келтирилади. Табиат тасвиридан самарали фойдаланилади.

Тасвир хукмидан устун келолмаган тўда аъзолари руҳиятидаги эзгинлик, бағишсизлик, беқарорлик сўнгги тун тасвирида юлдузлар ва сой ёлпоғлари орқали ифодаланади. Қаҳрамонлар фикрича, “Юлдузлар йўғлайди, сой ҳам соғинади...”. Аслида, кадрдонлари дийдорига зор қаҳрамонларнинг кўнгли йўғлайди, соғинади. Висол nasib этмаган ҳолда, кичон тугаши номаълум бўлган ҳижрон кучоқ очади. Туғилган юрт меҳрига қонмай туриб, уни тарк этишни ҳеч бир жон тиламайди.

Ҳикоялар муаллифлари халқимизнинг қон-қонига сингиб кетган ватинишарварлик, эркак ташналик, фидоийлик, садоқат, оқибат, мардлик, орият, номус, танглик сингари фазилатларни, халқимиз озодлиги йўлида қон фидо қилган асл фарзандлар жасоратини акс эттиришда деталлардан сўзлаб қорона фойдаланади ва бадий жиҳатдан баркамол асарлар яратади. Бу асарлар ўқувчиларнинг маънавияти ва бадий дидини юксалтириш билан бирга уларнинг тарих ҳақидаги билимларини ҳам оширади. Миллий ўзиники асраш туйғусини кучайтирадиган бу тарихий ҳикоялар мустақиллик даври ўзбек ҳикоячилигининг миллий озодлик мавзусида яратилган эътибор ва эътирофга лойиқ асарларидир.

Ф. М. ДОСТОЕВСКИЙ ВА Т. МУРОД ПСИХОЛОГИК ТАСВИР УСУЛЛАРИНИНГ ТИПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Р. Умурзаков, ўқитувчи (ФарДУ)

Ф. М. Достоевскийнинг “Оқ тунлар” ва Т. Муроднинг “Ойдинда юрган одамлар” қиссалари сўз психологияси тасвири бўйича етакчи асарлар ҳисобланади. Гарчи бу икки қисса турли ёзувчи, турли давр ва турли мўллат адабиётига мансуб асарлар бўлсада, психологик тасвир жиҳатдан умумийликка, ўхшашликка эгадир. Мана шу ички фактор уларни ўзаро қиёслашга асос бўлади. Словак компаративисти Д. Дюришиннинг фикрича, “қиёсий адабиётшуносликнинг тадқиқ йўллари ўхшашлик ва фарқли жиҳатларни фақатгина адабий йўналишлар, жанр ва жанр кўринишлари доирасидагина эмас, балки ғоявий, психологик йўналиш, персонажлар тавсифи, композиция ва сюжет қурилиши, мотивлар, образлар тизими, бадий асар асосини ташкил этувчи унсурларни назарда тутган ҳолда ҳам таҳлил қилиш”да акс этади.⁸

Шу маънода икки асарнинг психологик тасвир усулларини ўзаро қиёслаш мумкин.

“Ойдинда юрган одамлар” ва “Оқ тунлар” қаҳрамонлари Қоплон ва Шигит ўзига хос типдирлар. Улар қиссада алоҳида, индивидуал психологик

⁸Д. Дюришин, Теория сравнительного изучения литературы, М.: «Прогресс», 1979. -С.183.

хусусиятларга эга образлардир. А. Потебня типга мураккаб синекдоха деб таъриф беради. Қоплон ҳам, йигит ҳам шу таърифга мос келади. Улар қиссанинг ажралмас қисмидир. Улар орқали қисса моҳияти ва муаллифнинг шахсиятини англаш мумкин. Шу билан бирга улар мураккаб тип ҳисобланади. Улар психоаналитик типологиядаги бешта типнинг бирортасига мос тушмайди, лекин уларда бешта типнинг сифатларидан маълум миқдорда бор. Масалан, “Оқ тунлар”даги йигитда орал тип белгилари кўпроқ бўлса, Қоплонда фаллик белгиси кучлироқ. Бу эса ҳар икки қаҳрамоннинг бадиий, оригинал образлар эканлигини тасдиқлайди.

Ф. Достоевский асарини сентименталь роман деб атайди. Унинг сентименталлиги аввало қаҳрамон характери ва тасвирида намоён бўлади. “Оқ тунлар” қаҳрамони йигит сентименталь характерга эга бўлган тип Хейманс-Ле-Сенн типологияси бўйича сентименталь характер Эмоционаллик, Фаоллик, Иккиламчилик каби таркибий қисмларга эга бўлади ва Э+Ф-И формуласи билан белгиланади. Психоанализда сентименталь одамга қуйидагича таъриф берилади: “Сентименталь одам ҳиссиётга берилувчан, ўз қувонч ва ташвишларини узоқ эслаб юради ва доим уларни қайта бошдан кечираверади. Бу чуқур хаёлпараст ва доимий одамдир. У ёлғизликни ёқтиради, битта ёки иккита дўст билан кифояланади. Сентименталнинг иккиламчилиги ўзи билан содир бўлаётгани ва унга айтилаётган гапларни чуқур бошдан кечиришига, кўнглига яқин олишига сабаб бўлади. Кайфиятидаги ўзгаришлар секин, лекин чуқур. У вазиятни соғлом баҳолашга ҳаракат қилади. У ўтмишни яхши эслайди ва келажак ҳақида ўйлайди, ўз одатларига содиқ, ўзгаришларни ёқтирмайди”.⁹ Бу таъриф худди “Оқ тунлар” қаҳрамони учун айтилганга ўхшайди. Ҳақиқатан қаҳрамонимизда таърифдаги барча ҳислатлар мавжуд. Достоевский қаҳрамони психологик картасини мукамал чизган. Шунинг учун ҳам кўп тадқиқотчилар Достоевскийни психолог деган хулосани келадилар. Қоплонда ҳам сентименталь характер белгилари кучли. Муаллиф унинг характерини бизга илк таништирувдаёқ англатади:

“Бўз бола қоматини ғоз тутати. Жойида тик туради. Қўлларини кўкрагига қовуштиради, ё, белига тирайди. Бир нуқтага тикилади. Қарини тикилади, нимага тикилади?”

Билмаймиз, биз билмаймиз.

Инчунун ўзида билмайди.

Бўз болани илк бор кўрамиз.

⁹Психоанализ асослари, Т.: “Ўзбекистон”, 2004, -Б-108.

Шунда, бу бола ё қаттиқ қайғуда, ё бир нимани ўйлаб ўйига етолмаяпти, деймиз”.¹⁰

Қоплонда ёлғизликни ёқтириш, кўнглига яқин олиш туйғулари қисса давомида яна ҳам шаклланади. Қаҳрамонларимиз “тоза” типларга мансуб бўлиб, характерли жиҳати улар воқеликда камдан-кам учрайди.

Муаллифларни тасвирда қаҳрамонлар ички руҳиятига урғу берилликлари бирлаштириб туради. Қаҳрамонлар ташки жиҳатдан фарқли, ammo руҳият орқали бирлашадилар. Уларнинг индивидуал типологик хусусиятлари – темперамент, характер кабилари деярли бир хил. Мана шу бир хиллик уларнинг турли ситуацияларда ўзини тутиши, руҳиятлари ўзгаришларида кўринади.

Қиссаларда такрор сўзлар кўп учрайди. Бу такрор сўзларнинг айнан қаҳрамон нутқида мавжудлиги улардаги руҳий ўхшашликдан далолатдир.

Муаллифлар тасвир усулларининг ўхшаш хусусиятлари яна шундаки, улар пейзаж тасвирига қаҳрамон руҳиятини сингдириб юборганлар:

“Оқ тунлар”да: “Менинг ойдин тунларим эрталаб тугади. Кун яхши эмасди.

Ёлғатган ёмғир деразамни маъюс чертар, хона қоронғу, ҳовли ҳам ғамгин – ҳаво булут эди. Бошим оғриб, айланаётгандек, бутун аъзойи боданим зирқираб оғрирди”.¹¹

“Ойдинда юрган одамлар”да: “Онамиз тўлиб одимлади, босар-тусарини бинимай одимлади!

Пойидаги мана булар қатор-қатор уйларми?

– Йўқ, булар майда-майда оқ тошлар! Рангли-рангли кесаклар!

Онамиз тошлар билан кесакларни янчиб-янчиб одимлади!

Ҳай, бўй бермиш тоғларми?

Йўқ, тоғлар эмас, йўқ! Булар болалар ўйнаяжак ҳаммомпиш уйлар!

Онамиз ҳаммомпиш уйларни босиб-босиб одимлади!

Тоғлардаги қорлар... қоп-қора бўлди! (322-323-бетлар).

Икки парчада ҳам қаҳрамонларнинг тушқун руҳияти ифодаланган. “Оқ тунлар”даги “қоронғу хона, ғамгин ҳовли” йигит руҳиятига ишора бўлса, “Ойдинда юрган одамлар”даги “тоғлардаги қорлар... қоп-қора” бўлиши Оймомо руҳиятига, унинг умри тугаб бораётганига ишорадир.

Қиссалардаги куй тасвири диққатга сазовор. Айниқса, Т. Мурод бундан ўстаник билан фойдаланади. Қоплон руҳиятини “Куйгай”, Оймомо

¹⁰ Т. Мурод, От кишаган оқлом, Т.: “Шарк”, 1994. -Б-219. (Бундан кейинги мисолларнинг саҳифаси кавс ичида берилади)

¹¹ Ф. М. Достоевский, Маъсума, Т.: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985, -Б-201. (Бундан кейинги мисолларнинг саҳифаси кавс ичида берилади)

руҳиятини “Алла” куйларида мужассамлаштиради. “Оқ тунлар” да Настенька билан йигит “Rosina” деб куйлайдилар, бунда уларнинг масрур ҳолатлари ифодаланади. Қиссалардаги куй тасвири қахрамонларни кўшилиб, овоз чиқариб ўқиладиган, бирга куйланадиган нукталардир. Муаллифларнинг ютуғи шундаки, улар куй матнига оҳангни ҳам сингдириб юборганлар. Мана шу оҳанг қахрамонлар руҳиятини очиб юборган.

Қиссалар гўё “бахт нимада?” деган саволга жавобдек ёзилган. Достоевский бу саволга “оний халоват” деб жавоб берса, Т. Мурод “Элга кераклигингни ҳис қилиш, эл ҳурматини қозониш, ўзлигинга содиқ қолишда” деб жавоб бергандек бўлади. Йигит Настенька билан тўрт тунгина суҳбат қурди. Мана шу тўрт тун ичида улар бир-бирларининг ботиний дунёсига сайр қилдилар, сирлашдилар. Қоплон Оймомо билан бир неча йиллар фарзандсиз яшади. У эл гапи билан яшамади, гап-сўзларини парво қилмади. У Оймомо қалби билан, руҳияти билан сўзлашиб, сирлашиб яшади. Мана шу руҳий яқинлик уларни ажратмади. Қоплон ҳам, йигит ҳам Оймомо ва Настенькадан ҳамиша миннатдор бўлдилар. Қиссаларнинг бирор ўрнида қахрамонлар бир-биридан нолимайдилар, бунга ҳам руҳий яқинлик сабабдир. Демак, руҳий яқинлик инсонларни бир-бирига тез бирлаштиради, уларни бир умр бирга яшаганлардек яқинлаштиради. Қиссалардаги руҳият тасвиридан шундай хулосаларга келиш мумкин.

ҲИКОЯЛАРДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИНИНГ АКС ЭТТИРИЛИШИ

С. Бозорова, ўқитувчи (ТошДУТАУ)

XX асрнинг 90-йиллари жамиятимиз учун кескин ўзгаришлар даври бўлди. Халқ ҳаётидаги ҳар қандай ижтимоий ҳолат адабиётда ҳам акс этади, албатта. Ошкоралик шарофати билан тарихимизнинг сирли саҳифалари очилди. Миллий озодлик ҳаракати ҳақидаги маълумотлар, халқимиз бошига тушган мустамлака балосини даф қилишга отланган миллат қахрамонларининг аянчли тақдири, руҳий кечинмалари акс эттирилган ҳикоялар эълон қилинди.

Халқ душманлари сифатида ўлимга маҳкум этилган, “босмачи” тамғаси босилган инсонлар тақдирининг бадний талқини ҳеч бир ўқувчини бефарқ қолдирмайди. Шойим Бўтаевнинг “Қора туман” (1990)[1], Ғаффор Ҳотамовнинг “Уйи куйган одам” (1995) [2], Луқмон Бўрихоннинг “Алдоқчи тунлар” (2003) [3] ҳикояларида миллий озодлик ҳаракати

широқчиларининг мардона кураши қаламга олинади. “Қора туман” ҳикояси қаҳрамони Холбўта қўрбоши, “Уйи куйган одам” ҳикояси қаҳрамони Аҳмад тўқсабо, “Алдоқчи тунлар” ҳикояси қаҳрамони Нур қўрбоши образлари кўп жиҳатдан ўхшаш. Ижодкорлар қаҳрамонларнинг инсон сифатидаги кечинмаларигагина эмас, шахсий туйғуларига ҳам эътибор беради.

Ҳикояларда қаҳрамонларнинг миллий озодлик ҳаракатига қўшилиши аниқ равишда асосланади. Холбўта қўрбоши асли камбағалдан чиққан, “ўз ернинг, ўз элини кофирлар қўлига ўтказиб, тинч ўтиролмайдиган” инсонларвар; Аҳмад тўқсабонинг отаси қизиллар томонидан отиб ташланган, уйи ёқиб юборилган; Нур қўрбошининг бадавлат отаси ҳам шўро аскарлари томонидан ҳўрлаб ўлдирилган. Учала қаҳрамон ҳам ашмада қалб билан кўздан панароқ жойлар– тоғларда жон сақлайди.

Учала қаҳрамон учун ҳам Ватан – муқаддас саждагоҳ, эъзозлашга арзийдиган энг буюк қадрият. Шунинг учун улар Ватан озодлиги йўлида кўпинга қурол олади, жон фидо қилади.

Қаҳрамонлар учун оила – табаррук даргоҳ. Юксак қадриятлар руҳида тарбияланган халқнинг вакиллари сифатида оилага чуқур ҳурмат билан қарилган миллатпарварлар тақдирида икки ҳолат кўзга ташланади. Холбўта қўрбошининг шуҳрати пасая бошлагач, хотини Зокир лакот билан дон оғиша бошлайди. Бу нохуш хабарни эшитганида “*Кўксини ўқ тешиб шуниндек, Холбўта от устида қалқиб кетди... Осмон чир айланди, кўз рўида тоғлар ҳозир кўксини тилиб юборган ханжарга айланди*”. Нур қўрбошининг хотини эса собиқ хизматкори Нишонга турмушга чиқади. Бундан хабар топган “*Нур бойвачча отига аччиқ қамчи тортди*”. Бу икки қаҳрамондан фарқли ўлароқ, Аҳмад тўқсабонинг қаллиғи садоқатли. Шу сабабли тўқсабо ёру диёрсиз ҳаётдан кўра ўлимни афзал кўради.

Инсоният тарихидаги не-не қудратли салтанатлар хиёнат боис шидрозга юз тутган. Алп Эр Тўнга, Спитамен, Маҳмуд Торобий, Юлий Цезардек қаҳрамонлар ҳам энг яқин кишилари томонидан сотилгани мавжум. Таҳлил қилинаётган ҳикоялар қаҳрамонлари ҳам яқин кишиларидан хиёнат кўради. Холбўта қўрбоши Саидмуроднинг хиёнати, Аҳмад тўқсабо Эгамқулнинг мунофиқлиги, Нур қўрбоши Сулаймон ва Нишоннинг нонқўрлиги туфайли завол топади.

Шойим Бўтаев шундай ҳолатга тушган инсон кечинмаларини Холбўта тилидан қуйидагича баён қилади: “*Айт, ўз ишонганинг хиёнат қилса, тирикликнинг, курашмоқнинг зарра қиммати борми? Агар шундай*

ҳол рўй бергудек бўлса, шунинг ўзи ўлим эмасми?... Мен ўлдим. Менги хиёнат улдирди”. Холбўта ўч олишни хаёлига ҳам келтирмайди.

Аҳмад тўқсабо эса қарзни қиёматга қолдирмайди, “... беширишни даст чоғлаб,... қилич яланғочлаб келаётган Эгамқулни нишонга олади”.

Нур қўрбоши Нишон билан тўқнашиш режасини хаёлида узоқ вақт пишитади. Хаёлан унинг бўғзига тўтпонча тирайди, гапга кўнимиса тинчйтишни режалаштиради. Ахир у Нурнинг уй-жойига, хотинига, ўғлига эгалик қиляпти-да! Аммо хаёл ҳақиқатга айланмайди. Юзма-юзма учрашганда кучлар нисбати тенг эмас эди. Асосийси, Нурбекни ҳаётга боғлаб турган сўнги ришта узилганди: ўғли уни “босмачи”, Нишонни эса “ота” деб билар эди.

Ҳикояларда бош қаҳрамонларга қарама-қарши турувчи салбий образлар драматизмни юзага келтириш, қаҳрамонлар руҳиятини чуқурроқ очиш вазифасини бажаради.

Холбўта образига қарама-қарши турувчи Саидмурод образиди айёрлик, манманлик, мунофиқлик, пасткашлик каби иллатлар мужассам. У оғир аҳволда қолган қўрбошига тортинмай насиҳат беради, сўни эътиборсиз қолса, жаҳли чиқади. Саидмуроднинг руҳий дунёси диалоглар ва ички монологлар воситасида очиб берилади.

Холбўтага хотинининг хиёнати ҳақидаги хабарни етказаяётганини яйраб кетган Саидмурод унинг уятдан адо бўлишини кутади. Аммо Холбўта сир бой бермайди. Ваҳоланки, шу лаҳзада қўрбошининг қалбиди туйғулар тугён уради. Адиб тасвирига кўра, у “*довулдай уйига кириб бориб аёлининг сочидан отнинг думига боғлаб чиқши иштиёқда ёнди*”. Умр йўлдошининг хиёнатини сезган ҳар қандай ўзбекнинг кўнглида шунга ўхшаш туйғулар бош кўтариши тайин. Чунки халқимиз учун ор-номус азалдан ўта аҳамиятли масала ҳисобланади. Миллий характернинг шундай бир қирраси шу ўринда ярқ этиб кўзга ташланади.

Аҳмад тўқсабо образига қарама-қарши образ Эгамқулдир. У аввалдан тўқсабо тўдасида юради, кейин шўроларга сотилади. Аввалдан тўқсабонинг ўнг кўли – Аъзам чапақайни, кейин “*бирга қон ютган жондан дўстларини*” сотади. Бу образ орқали ватанфурушлик, дўстга хиёнат, эътиқодсизлик, мансабпарастлик иллатлари фош этилади.

“Алдоқчи тунлар” ҳикоясидаги Нишон образи Нур қўрбоши образига қарама-қарши туради. Улар синфий жиҳатдан ҳам фарқли қилиб тасвирланади: бой ва камбағал. Нурбекнинг отаси бозорда тиланчилик қилиб юрган Нишонни уйига олиб келади. Хизматкорликни ўринлатган Нишон кейинчалик шўролар назарига ҳам тушади, шўро раиси бўлади. Бу

образ орқали тузини ичиб, тузлигига тупурадиган, манфаат йўлида иймонини ҳам сотадиган кишиларнинг иллатлари тасвирланади.

Ҳикояларда қахрамонларга тириклигида бас келолмаган ганимларнинг улар жасадини хўрлаш эпизодлари ҳам келтирилади. Холбўта кўрбоши ўлими олдидан васият қилар экан: *"...Ўлганимдан сўнг минимни хор этмасинлар, ҳар кимларнинг қўлига туимасин..."*, – дейди. Афсуски, “қизиллар”нинг ишончини қозонмоқчи бўлган Саидмуроднинг “фидойилиги” туфайли Холбўтанинг жасадини тинч қўйишмайди. Шу юзаси тасвирида Холбўта эътиқодидаги поклик, Саидмуроднинг тубанлиги, юртни эгаллаган мустамлакачиларнинг на тирикни, на ўликни хўрмат қилмаслиги тасвирланади. Бу эса ўша даврда миллат руҳияти нақадар пастланганини тасаввур қилишга имкон беради.

Аҳмад тўқсабо қисмати янада аянчлироқ: ганимлар унинг танасига ўт қўяди, бошини найза тигига олиб, бозорларда олиб юради. Тўқсабонинг отасига ўз уйи қабр бўлган бўлса, унинг ўзига дафн қилиниш ҳам насиб бўлмайди. Ҳикояларда маҳаллий халқни кўрқувга солиш мақсадида қилинган шу каби ваҳшийликлар тасвирланар экан, фалсафий мушоҳадаларга ҳам ўрин берилади. Мустамлакачилар зулмига қарши бош кўтарган қишлоқ оқсоқоли, Нур кўрбошининг отаси (“Алдоқчи тунлар”), тўқсабонинг отаси (“Уйи куйган одам”) образларида халқимиз табиғатидаги эркесварлик, исёнкорлик, номардга бош эгмаслик, иймонга тўрд юқтирмаслик сингари фазилатлар акс эттирилади.

Адиблар ҳикояларга ном танлашда рамзийликка эътибор беради. Шойим Бўтаев ҳикоясида воқеалар қора туман тушиб турган вақтда кечади. Ҳикояда қора туман – фожиа тимсоли. *“Бугун кўз олдимни негадир қора туман босиб келаверди. Кўнгил сезар экан-да. Мана, энди анча тиниқлашигандекман”*, – дейди Холбўта кўрбоши ўлими олдидан. Воқеалар баътида субҳи козиб (алдоқчи тонг) ва субҳи содиқ (ҳақиқий тонг) ҳақида ҳам сўз боради. Бу талқинларга ҳам эътибор берилса, банданинг ҳаётини субҳи козибга, Яратган ҳузурига йўл олиш, эзгулик йўлида шахид бўлишни субҳи содиққа нисбат бериш мумкин. Бу ўхшатишлар Холбўтанинг имон-эътиқодли инсон эканини кўрсатишга ҳам хизмат қилади. У ўлими олдидан қиблага юзланади: *“Муножот-мувоқаба...”*. Бундай тасвирларни ошкоралик давридагина бериш имкони туғилганини кайд этиш ўринлидир.

“Уйи куйган” ибораси тилимизда кўп ишлатилади. Унинг кўчма маъноси *“Бошига мусибат тушган”*, *“Бор-йўздан жудо бўлган”* дегандекдир. Ҳикояда бу ибора тўқсабонинг отаси уйининг ёнганинигина

ифодаламайди, балки ўз юртида бегонадек яшашга маҳкум бўлган кишининг, халқнинг аянчли аҳволини ҳам акс эттиради.

“Алдоқчи тунлар” ҳикоясида Нур қўрбоши мақсадига эришиш учун жуда кўп тунларни умид билан ўтказди. Аммо муроди ҳосил бўлмади. Тун ва туман қора рангда тасвирланганини ҳисобга олсак, “Қора туман” ҳамда “Алдоқчи тунлар” ҳикоялари номларидаги рамзий ўхшашни яққолроқ сезилади. Нур қўрбоши ҳаётидаги сўнгги тун тасвири муаллиф нутқида “Тун... Тақдирдек қоп-қора тун” ўхшатиши ишлатилиши Қора ранг мотамни ҳам ифодалашини назарда тутсак, тасвирланаётган давр халқимиз ҳаётидаги ўрни қопланмас йўқотишлар учун мотам диври бўлганига ишора қилинганини сезиш мумкин.

Ҳикоялар қаҳрамонлари бир матлаб йўлида курашган бўлса-ди, уларнинг ҳар бири ўзига хос феъл-атворга эга. Холбўта қўрбоши ҳиком давомида оғир табиатли, мулоҳазали инсон сифатида тасвирланса, Аҳмад тўқсабо образида шижоаткор, қатъиятли шахсни кўрамиз. Нур қўрбоши табиати тадрижий тараққиётда тасвирланади: илк Қашқар сафарида табиат инжиқликларидан ҳам оғринган, инсоний истакларни енгшига қийналган Нур бойвачча табиатида инқилоб туфайли инқилоб юз беради: қилинч тутганига бир йил бўлганда қўрбошилиқни даъво этган ғаламисни қоқ оғзидан отиб ташлайди, уни менсимасдан “тўдак” деб калака қилган тўда сардорининг қовурдоғига заҳар қўшади. Не-не бебошларни жаҳаннамга жўнатади.

Учала қаҳрамон учун ҳам миллатдошларининг қўллик-қувватламагани, бирдамликнинг йўқлиги—армон. Мустамлакачиларни осонгина таслим бўлган, ширин жони, тўймас нафси дардида юртига, элдошларига хиёнат қилганларнинг борлиги — фожиа. Бу оғриқли уш Холбўта тилидан “*Сен менга ўқ узмаёқ ўлдирдинг бугун....*”, деб ифода этилса, Аҳмад тўқсабо: “*Яккаланганингни сезиб турсанг, сенин ҳаракатингда маъно қолмас экан*”,—дея зорланади. Нур қўрбошини титроқ босади: “*Ё Оллоҳ, бу не кўргулик?*” —дея ёзгиради.

Кўриниб турганидек, адиблар ҳикояларида ўхшаш жиҳатлар ҳам, фарқли нуқталар ҳам бор. Бадийий ният эса ягона: кичик ҳажмли асарда улкан ҳақиқатларни акс эттириш. Худди қатрада куёш акс этганидек.

“Ҳикояда, аввало, қизиқарли бошланма топишга мажбурсиз. Кейинги сатрлар воқеани баён этиш билан бирга, қизиқишни ҳам ушлаб туриши керак. Энг қийини ҳикоянинг таъсир кучидир”,¹²—деган эди машҳур турк

¹²Kabaklı A. Türk Edebiyatı. III cilt. İstanbul-1997. Türk Edebiyatı Vakfı Yayınları.709 s.

қонунависи Рафиқ Холид Қарай. Ёзувчиларимиз ўқувчи эътиборини жалб эти оладиган, ўйлашга мажбур қиладиган ҳикоялар ёзишга эришган. Матнур ҳикоялар халқимизнинг шонли тарихига қайта назар ташлашга, шайбодод қурбонлари хотирасини ёдга олишга, бебаҳо неъмат бўлган юстиқилликни кўз қорачиғидек асрашга, халқимизга хос бўлган ватанпарварлик, мардлик, эрксеварлик, эътиқодда собитлик, яхшилиқни унутмаслик, олижаноблик, садоқат каби фазилатларни авлодлар қалбига синдиришга ундайди.

Холбўта қўрбоши, Аҳмад тўқсабо, Нур қўрбоши каби фидойилар Ватан озодлиги йўлида жон берди. Улар қисматида “Ватанни севмоқ аймондандир” ҳикматининг исботини кўрамыз. Қалбини иймон нури шибганлар сабаб оддийгина тупроқ парчаси Ватан мақомига юксалади. Адабиётимизда миллий ва умуминсоний қадриятларни ўзида жамулжам эти бундай образларнинг яратилгани қувонарли ҳолдир.

Адабиётлар

1. Ёўтаев Ш. Қора туман. Ёшлик.-1990.-№4.-Б. 5-8
2. Ҳотамов Ғ. Уйи куйган одам. Ёшлик.-1996.-№2.-Б. 40-42.
3. Ёўрихон Л. Алдоқчи тунлар. Ёшлик.-2003.-№1.-Б.-37-41.

ГАЛЛЮЦИНАЦИЯ, ТУШ, ПСИХОЛОГИК ТИМСОЛ – РУҲИЙ ТАСВИР ВОСИТАСИ

Ю. Эшматова, ўқитувчи (ТошДУТАУ)

Адабий галлюцинация масаласига ўзбек адабиётшунослигида Ш.Шодиёв, Ҳ.Умуров, Й.Солижоновларнинг бадиий психологизм, бадиий туш, типлари бўйича олиб борган кузатишларида бир қадар эътибор бертилган. Лекин бу адабий ҳодиса махсус тадқиқ ва таҳлил объекти сифатида ўрганилмаган. Галлюцинация термини аслида адабиётшунослик атамаси эмас. Балки тиббиёт фанининг махсус атамаси бўлиб, галлюцинацияга учраган беморларда учрайдиган руҳий, психологик касаллик тури сифатида қаралади. Унда бемор қандайдир восвосга чалинади, кўзига ёки хаёлида аслида реал ҳаётда бўлмаган воқеалар кўриниш беради, нореал нарсалар борлигига ишонч туйғуси уни хавотирга солади, кўркувни пайдо қилади. Адабий асарда худди шундай, руҳий касалликка чалинган ёки руҳиятида келиб чиққан кучли изтироб туфайли вужудга келган қаҳрамоннинг ғайритабиий, ғайририхтиёр хатти-ҳаракатлари, ўй-кечинмалари галлюцинация ҳодисасига мисол бўла олади.

Жумладан, бундай ҳодисага учраган Гулгун (“Ҳай-й, Гулшод Гулиш! Ёхуд куйиқишлоқча қотиллик” Х.Дўстмуҳаммад) образини мисол келтиришимиз мумкин. Синглисининг номуси булганишига, у ўз жонига суиқасд уюштирганидан сўнг бу мудҳиш ҳодисанинг айбдорлари тегиниш жазо олмаганликлари учун Гулгун қўлига занг босган пичоқни олиб, Ашурни ўлдираман деб, унинг бегуноҳ укаси Акбарни ўлдириб қўяди. Қаҳрамон галлюцинацияга учраганлиги боис унинг кўзига Акбар Ашур бўлиб кўринади. Асарга мурожаат қиламиз: “Гулгуннинг қўли қалтиради, мушаклари тортишди. У оғилхона томон жадал юрди. Боратуриб ер тандир ёнида таққа тўхтади. Тўхтадию, кўзининг ичига чўт лангиллаб ўт олганидан олам ёришиб кетди. Гулгун заррача иккиланмай тандир тоқчасидан занглаган пичоқнинг дастасидан чангаллади.

- Ўлганнинг эмас, ўлмаганнинг жони кетади.. – деди у ғазаб билан пишиқариб”¹³. Қисса қаҳрамони Гулгуннинг қўли қалтираб, мушаклари тортишиб, кўзларида қасос ўтининг ёниши, занглаган пичоқни олиб чангалаганича, пишиқариб, сўзлаши – булар барчаси аёлнинг руҳий портретини ёрқин ва жонли акс эттириб турибди. Гулгуннинг қишлоқ кўчасидан қасос учун илдам кетиши, куйиқишлоқликлардан бирортаси олдига чиқиб, кутилаётган қотилликдан уни қайтаришга ҳеч ким йўлиқмаганлигини муаллиф тасодиф деб атайди. Муаллиф баёни орқали берилган Гулгуннинг галлюцинация ҳолатига тушиб қолган ҳолати жуда жонли ва ишонарли тасвирланади: “Пичоқ кўтариб бораётган Гулгуннинг жувон эмас, кўзи кўр ажал экани, кўз ўнгимизда аёл ажалга айланганича янгитдан амин бўлармидик! ...қилган амалларимиз ўзимизга ҳасрату надоматлар бўлиб қайтгусидир... Ҳаҳ, амалсизлигимиз курсин-а! Лоқдун у Адҳам муаллимнинг ичкаридан занжирланган эшигини тақиллатаётганини бирон ҳамдард овоз “Гулгун” деб чақирса кифоя эди-я! Бирорта қўни қўшни кўчага отилиб чиқса олам гулистон эди-я!.. Йўқ, ҳеч нарса уш келмади – каттадан-кичигигача сабабу-сабабчалар аксига олаверди..

- Ашур! – деб бақирди Гулгун кўчани бошига кўтариб. – Ашур!.. Оч эшикни ит!

Гулгун пичоқнинг дастаси билан эшикни қоқди, тепди, кўзлари қонга тўлиб қарганди, сўкинди ҳам. Ичкарида занжир шарақлаб зулфиндан тушди. Эшик ланг очилиб кетди. Гулгун йўлакка отилиб кирди.

¹³ Дўстмуҳаммад Х. Ҳай-й, Гулшод, Гулиш!.. Жажман. Тошкент: Шарқ, 1995. – Б.161.

- Итнинг кунига тушадиган қани?! – деб бақирди у ҳовлининг ўртисига бориб. – Зобитов! Ўлган ўлмайди, Зобитов!.. Ўлмаганлар ўшди!..”¹⁴.

Синглисининг ўлиmidан сўнг, гуноҳкорлар тайинли жазо олманглиги учун Гулгун руҳиятидаги чексиз алам, изтироб туфайли у ғайритабиий, ғайриихтиёрий равишда Адҳам домланинг уйига бориб, пичоқ ўгли Акбар кўзига Ашур бўлиб кўриниб, уни дуч келган жойига пичоқ санчади: “Гулгун бирон дақиқа тўхтамади, деворга чалпақдай суялиб қолган Ашурнинг афти, ҳиқилдоғи, кўкси, қорни-биқини демай дуч келган ерига пичоқ суқаверди. Ашур қаттиқ ингради, додлади, сўнг “Ош...” дедию уни ўчди, Гулгун тўхтамади, ўзини сира тўхтатолмади”¹⁵.

Гулгун сингари қасоскор аёл тимсоли А.Йўлдошнинг “Отчопар ёхуд ўн учинчи уй” қиссасида Нозима образи учрайди. Номуси поймол этилган аёл Қоровой-Қўзивойнинг жонига қасд қилади. Қотиллик содир этилган ўшди Нозима галлюцинация ҳодисасига учраб, у ғайритабиий равишда қўл ҳаракатлари, мимика ва жестлари билан руҳий ҳатти-ҳаракатлар қиладики, бу китобхонни безътибор қолдирмайди. Жумладан, “Яна кўзгу томонга ўтирилиб, ўзини диққат билан кузатаётган Нозима ғалати тарзда пихиллаб овоз чиқарди – бамисоли кулаётгандай эди. Шундан кейин жувон отираётган кўрсаткич бармоғи билан кўзгуга ғалати-ғалати шакллар чизинга уринди. Бироқ бу машғулоти дарров жонига тегди шекилли, яна пардоз-андозга ўтаркан, Осиё опага жуда-жуда таниш бўлган бир қўшиқни мингирлаб хиргойи қилиш асносида худди дугонасига мақтаниб қўймоқчи бўлган қизалоқдай ғурур билан шивирлади...”¹⁶.

Қаҳрамоннинг пихиллаб овоз чиқариши, бармоғи билан кўзгуга ғалати шакллар чизини, (қаҳрамон жести ва мимикалари ҳам руҳий тасвир элементлари ҳисобланади) даҳшатли қотиллик содир этилган жойда бамийлихотир мингирлаб қўшиқ куйлаб, пардоз-андоз қилиши, шивирлаб сўзлаши – булар ҳаммаси кучли галлюцинацияга учраган қаҳрамоннинг ҳатти-ҳаракатларини кўрсатиб турибди. Хаёлдаги нореал воқеалар таъсири қаҳрамон руҳиятини издан чиқаради. Натижада халқ ибораси билан айтганда, киши восвос касалига чалинади. Худди шу жараён аяблешуносликда “адабий галлюцинация” деб аталади.

Демак, галлюцинация адабий ҳодисаси ҳам бугунги ўзбек кинематографияда кучли драматизмли, трагик ҳодисалар туфайли аёл руҳияти

¹⁴Ўстмухаммад Х. Ҳай-й, Гулшод, Гулиш!..Жажман.Тошкент:Шарқ,1995.-Б.162.

¹⁵Ўстмухаммад Х. Ҳай-й, Гулшод, Гулиш!..Жажман.Тошкент:Шарқ,1995.-Б.163.

¹⁶Йўлдош А. Отчопар ёхуд ўн учинчи уй / Тимсоҳнинг кўз ёшлари. Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – б. 176.

мувонантан чиқишини жонли ва ишонарли тасвирларда очиб беришни хизмат этган.

НУБУВВАТ ВА БАДИИЙ ТАЛҚИН ҲАҚИДА

У. Қобилов, ўқитувчи (СамДУ)

Бугунги адабиёт илми миллий анъаналарга таяниши, башарий тажрибаларнинг ютуқларидан илҳомланиши ҳаёт тақозасидир. Жаҳон, хусусан, ўзбек адабиётининг қадимий сарчашмаларидан бири нубувват мақомати ҳисобланади. У ўзбек адабиёти тарихида ниҳоятда қўламдор ва жозибадор жараёни ташкил этади. Умуминсонийлик қимматини кўрсатиб беради. Нубувват тушунчаси беҳад кенг мазмунга эга бўлиб, бир томондан, яъни “наба” маъносида Аллоҳдан бўлган хабарнинг ваҳий орқали бандалари ичидан танланган шахсларга этишувини англатди.

Иккинчи томондан, Алишер Навоий таъкидлаган “Кутуби осмоний” маърифатидир. Учинчи томондан, яъни “нубу” маъносида эса набийлик мақоматига ишоратдир. Бу Ҳазрати Одам Атодан бошланиб Муҳаммад ва Мустафо билан хотималанган аҳли нубувват силсиласидир. Нубувват арабчада умуман хабар деган маънони ҳам билдиради. У “Навоий асарлари луғатида” қисқача қилиб “пайғамбарлик”, “элчилик” деб изоҳланган. Тасаввуфда нубувват пайғамбарлик даражоти бўлиб, Аллоҳдан етган табиғ, Ҳақдан келган хабар, малақдан келган илоҳий билим деб талқин этилади. Манбаларда нубувват тавҳиддан кейинги валоятдан олдинги олий бир мақом сифатида эътироф этилади.

Илоҳиётчи олим, “Иҳё улум-уддин” номли бебаҳо асар муаллифи Абу Ҳамид Муҳаммад ибн Муҳаммад Ғазолийнинг шарҳлашича “Нубувват хос инсонлар ҳолларидан бир ҳолдирки, шу ҳол ичида инсонни маънавий бир кўз очилади. Бу кўзда бир нур бўлиб, у нур билан ғайбни ва ақл идрок этаолмайдиган нарсаларни кўришга эришилади”. У ўзбек адабиётида муқаддас китобларнинг, хусусан, Қуръони каримдаги барча масалаларнинг ифодаланишини ҳам билдиради. Пайғамбар сиймоларни юборилган хабарлар нубувват ёки рисолат ҳисобланади. Рисолат калими ҳам нубувват билан ёнма-ён ишлатилади. Маълум маънода синоним сифатида қўлланади. Баъзи луғатларда нубувват сингари “элчилик, пайғамбарлик” деб баҳоланади. Нубувват сўзининг ўзагида набийлик мазмуни акс этган бўлса, рисолат ўзагида расул асоси мавжуд. Шу жиҳатдан, яъни набий ва расул орасидаги муайян фарқлилик ҳодисаси, бу икки тушунча орасидаги маълум бир тафовутни ҳам келтириб чиқаради.

Набий анбиёнинг бирликдаги ифодасидир. Набийлар дейилганда мавнабияларда айтилган бир юз йигирма тўрт минг пайғамбарнинг барчаси эътиборга олинади. Рисолат тушунчасида ҳам набийлик мақомати кўзда тутилади. Лекин набий ва расул орасидаги фарқ ҳам эътиборга олинади ва айтилган рақамдаги пайғамбарлардан уч юз ўн учтаси расул эканлиги таъкидланади. Бунда набий ва расул элчилар мақом ва сифатлари орасидаги нозик тафовут назарда тутилади. Рисолат эса танланган сиймоларнинг танланганларини англатади.

Шунинг учун мумтоз адабиётимиздаги пайғамбар сиймолар бадийий тарих-тимсолларининг тасвирланишини нубувват ёки рисолат тимсоллари талқини деб юритиш ҳам мумкин. Расуллар хабарларни оммага етказиши амр этилган, янги шариат билан келувчилар бўлса, набийлар мавжуд шариатни мустаҳкамловчилардир. Нубувват умумбашарият маънавий мумкиннинг ўтмиш, бугун ва келажагига дахлдордир. Дунё маданияти ва сивилзациянинг ҳамма тармоқларида жилоланган. Айниқса, сўз санъатидаги бадийий талқинлари ўзгачадир. Бадийий ижод соҳибларига жўшқин илҳом мавнабия бўлиб хизмат этган. Жаҳон халқлари маънавий-маърифий, бадийий-эстетик туйғуларини юксалтирувчи дурдона асарларининг юзага келишига таъмин яратган.

Аҳли нубувват, аҳли рисолат, нубувват хайли каби бирикмаларда пайғамбарлар силсиласи назарда тутилади. Хотам ул-нубувват – Мухаммад Мустафо алайҳиссаломдир. Нубувват таълимоти илоҳий ҳикоятлар мажмуидир. Шу жиҳатдан “Аҳли китоб” тушунчаси аҳли олам оқида ўзига хос бир даражани ҳам англатади. Нубувват маърифати ёки набийлар бадийий образлари талқини дунё адабиётида ниҳоятда катта ўрнни эгадир. Бу масала талқини ўзбек адабиёти ва айниқса, мумтоз адабиётимизда катта майдонни ҳосил қилади. Мумтоз адабиётимизнинг умумбашарий қимматини таъмин этган соҳалардан ҳисобланади. Умуман набийликнинг бир узвий халқа сифатида талқин этилиши Шарқ-ислом маданиятининг маҳсули бўлиб, шу асосда бани одам манфатларини ягона мақсадга қаратишдан иборатдир. Ўзбек адабиётида нубувват ва набийлик маърифати билан боғлиқ туркум асарлар мавжуд. Бунга “Қисас ар-Рабузий”, “Тарихи анбиё ва ҳукамо” сингари бадийий-тарихий афномаларни айтишимиз мумкин.

Ушбу асарлар ва уларда ифодаланган воқеликлар умуминсоний тарихларни ифода этганлиги бугунги адабиёт илмига маълумдир. Бундан ташқари Шарқ, хусусан, ўзбек адабиётида набийларнинг бадийий тимсол сифатида кенг қўламда тасвир этилганлиги, ранг-баранг рамзий-мажозий

маъноларни ифодалаб келганлиги ҳам бадий адабиётимизнинг умумбашарий масалалар талкинига йўғрилганлигини кўрсатади. Ўзбек адабиётида набийлик маърифати бадий тасвирлари икки хил кўринишда ифода этилганлиги маълум. Биринчиси нубувватнинг бир силсина сифатида талқин этилиши бўлса, иккинчиси алоҳида бадий воқелик ўхшаш образ тарзидаги тасвирларидир.

Эътиборлиси шундаки, ҳар иккала талқинда ҳам юксак бадий намуналари вужудга келган. Бадий адабиётда нубувват маърифати масалаларининг талқини бениҳоя қўламли жараён ҳисобланади. Бу масаланинг моҳиятини бугунги миллий истиқлол руҳида тадқиқ этиш адабиёт ва халқлараро ўзаро муштаракликларни ҳам талқин этиш демакдир.

АРУЗ ВАЗНИНИ ИСТИФОДА ЭТИШДАГИ АНЪАНАВИЙЛИК ТАРИХИ

Ш. Раҳмонова, ўқитувчи

(2-сонли Тошкент юридик коллежи)

Аруз вазни бир неча Шарқ халқлари адабиётида, жумладан, ўзбек умумтоз ва қисман ҳозирги адабиётда қўлланиб келаётган махсус поэтик тизимдир. Хўш бу вазн қачон ва қаерда пайдо бўлди? Туркий (ўзбек) адабиётига қачон кириб келди? Унинг асосчилари кимлар эди?

Аруз вазни, дастлаб, араб шеърлятида 8 асрнинг иккинчи ярмида пайдо бўлди. Ва мазкур вазн Халил ибн Аҳмад томонидан “Аруз бишми қомуси” китоби орқали фанга олиб кирилди. Бу ҳақда Алишер Навоий ўзининг “Мезону – л – авзон” асарида шундай деб ёзади: “...аруз фанни шариф фандир. Ва бу – ким, бу илмни нечун аруз дерлар, мухталиф аҳвал бор... ва булдир – ким Халил ибн Аҳмад раҳматуллоҳки, ...чун араб эрмиши ва анинг яқинида бир водий эрмишки, ани аруз дерлар эрмиш, ва у водийда араб уйларини тикиб, жилва бериб, баҳога кижорурлар эрмиш ва уйни араб “байт” дер. Чун байтларни бу фанбилан мезон қилиб, мавзунини бемавзундан айирурлар, гўёки қиймат ва баҳоси маълум бўлур, шу муносабат била “аруз” дебдурлар”.¹⁷ Халил ибн Аҳмад аруз вазнини араб шеърлярида тадқиқ қилиб, 15 баҳрдан иборат бир тизимга солади. Халил ибн Аҳмаддан сўнг араб адиби Абулҳасан Ахфаш аруз вазнини “Мутадорик” деб аталувчи яна бир баҳрни қўшади ва араб арузидати баҳрлар сонини 16 тага етказди. Кейинчалик араб шеърлятида аруз вазни Ибн Абду Раббихнинг “Ал-икду-л-фарид” (Ягона марварид), Ибн ал-

¹⁷Алишер Навоий. Мезону-л-авзон. (И.Султон матни асосида). Т.. 1949, 133 б.

Саррожнинг “Меъёр фи авзону-ш-шеър” (Шеър вазнларининг меъёри), Соҳиб ибн Абдоднинг “Ал-икнаъ” ва “Ал-ваъфа”, Абу Закария ал-Хатиб Табризийнинг “Ал-кафи фи-л-ъаруд ва-л-қавафий” (Аруз қофиялардан кифоя этувчи) асарларида давом эттирилди.

Форс арузшунослиги ҳақида Фитрат шундай дейди: “Эронлилар араблардан нима олган бўлса, айнан олмади, ўзгартиб, унга ўз хусусиятларини тақиб олди ва олиб тақди... араб арузининг нисбатан умумий қоидаларини, назарий томонларини қабул қилишига қарамасдан форси(й) шеър вазнларининг муҳим хусусиятларини ҳам унга сингдира бошлади. Шундай қилиб, айрим бир форси(й) аруз майдонга қўйилди”.¹⁸ Форс арузи Шамсиддин Қайс Розий, Носириддин Гусий, Шамс Фаҳрий, Воҳид Табризий, Юсуф Азизий, Абдурахмон Жомий, Атоуллоҳ Ҳусайний каби олимлар асарларида давом эттирилди. Форс арузида араб назмида кўрилмайдиган қариб, жадид, мушокил баҳрларини қўшилади. Шундан кейин форс шеърлятида баҳрларнинг сони 19 тага етади.

Араб арузи бағрида ўзига хос форс арузи вужудга келгани каби туркий аруз ҳам араб-форс арузи билан ўзаро муносабатда яшади ва қариб минг йил давомида мумтоз шеърлятга зийнат бағишлаб келди.¹⁹ Туркий аруз Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий, Алишер Навоий, Зокириддин Муҳаммад Бобур, Зокиржон Фурқат, Абдурауф Фитрат асарлари орқали ўзбек шеърлятига кириб келди. Шайх Аҳмад Тарозийнинг “Фунуну-л-балоға” асари туркий арузнинг дастлабки назарий шимоналаридан бири саналади. Унда Шайх Аҳмад Тарозий баҳрлар сони араблар поэзиясида 16 тага, форсларда 19 тага, туркийларда эса 34 тага белгилашганини айтади. Сўнгра аллома жузв, рукн, баҳрлар ҳақида ҳам маълумот беради.

Алишер Навоийнинг “Мезону – л – авзон”и - туркий (ўзбек) арузшунослик оддий таҳлил фазасидан синтез даврига кўчганлигидан шунан эди. Унда ўзбек шеърляти мезонларидан бири аруз – тарқоқ, айрим учушлар шаклидан назарий асосланган туркийгўйлик арузига айланган, шимний манбага кўчирилганди”.²⁰ Алишер Навоийнинг “Мезону – л – авзон” асарида араб, форс, туркий арузга хос хусусиятларни тушунтиради. Шу билан бир қаторда, Ҳазрат Навоий аруз назариясига жами тўққизта шимонни бирлаштирган “доираи мужтамиа”ни яратди ва уни назарий

¹⁸ А.Фитрат. Аруз ҳақида(нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев). Т. 3 китоби, 1997. 25-26 б.

¹⁹ Шарқ мумтоз поэтикаси. Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи ф.ф.д., проф Ҳ.Болтабоев. Т. 1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006, 165 б.

²⁰ Тилибов. Араб шеърлятида аруз тизими филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим қилинган дис. Т., 2003. 137 б.

жиҳатдан асослаб берди.²¹ Умуман, “Мезонул авзон” даги баҳрлар, тактоқ ва доираларнинг баёни, уларнинг тараққиёти қайдлари аруз илминини қўшилган муносиб ҳиссадир.

Арузшуносликни Навоийдан сўнг тараққиётнинг янги уфқларини олиб чиқиш, уни фан сифатида илмий ва амалий имкониятлар даражасига кўтариш Заҳириддин Муҳаммад Бобур зиммасига тушди. Бобурнинг метрик назарий қарашлари баён этилган “Аруз рисоласи” (иниқриб “Мухтасар”) Алишер Навоийнинг “Мезонул авзон”идан кейин ҳатто шундан давримизгача ҳам илмий салмоқли тадқиқотдир. Асарнинг аввалги боби хижола, уларнинг туркий шакллари, рукнлар, зиҳофлар, баҳрлар ва доираларга бағишланган. Бу боб шунинг учун ҳам қимматлики, унда жуда кўп арабий, форсий, туркий шакллар қиёси келтирилади. Рисоланинг иккинчи боби эса анча улкан, унда вазнлар ва тақтиъларга бағишланган илмий баҳс боради. Ана шу нуқтаи назардан ҳам мазкур рисолада аруз илми кучлидир.

XX аср бошларида илк назарий қарашлар шаклланиши даврида Фурқат ва Абдурауф Фитрат ишларида кўришимиз мумкин. Фурқатнинг аруз илмига бағишланган “Илми ашъорнинг қоидаи авзони” (Шеър илмининг вазн қоидалари) номли рисоласи бор.²² Рисоланинг ҳажми 16 бет Китобча аруз вазни билан танишмоқчи бўлган адабиёт ҳаваскорлари учун қўлланма тарзида тузилган. Унда арузнинг поэзиямизда энг кўп учрайдиган 55 баҳри ҳақида маълумот берилади.²³ Рисола шундай бошланади: “Аmmo билгилким аруз фани назм авзонини(нг) мезонидур, шариф фандур... шеър илмининг рутбаси бағоят буюк мартабадур... Андоқки Ҳақ субҳанаҳу таъолонинг Каломи мажидида кўп ерда назм нома бўлубдур”.

Абдурауф Фитратнинг аруз назариясига бағишланган “Аруз ҳақида”ги (1936) рисоласи “нафақат аруз тарихи ва техникаси, билик умуман вазн назарияси ва унинг қўлланилиш тарихидан сабоқ берувчи назарий қўлланма”дир²⁴. Рисолада олим вазнга шеърий асарнинг энг муҳим қисмларидан бири сифатида қараган ва шундай таърифлаган “Қоидага мувофиқ суратда ўлчанган ва ўлчовлари муштарақ бўлган тил парчаларининг маълум қоида билан кетма-кет тизилиши”.²⁵ Шунингдек Фитрат “Аруз ҳақида” рисоласида аруз вазнининг келиб чиқиш тарихи

²¹ С.Мирзаев. Навоий арузи. НДА. Т., 1946. 91 б.

²² Қаранг: Ш.Юсупов. Фурқат дастхатлари. // Адабий мерос. 1983, 4 сон.

²³ Каримов Ғ. Халқ тарих, адабиёт. Т., Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъатнашриёти, 1977, 21 б.

²⁴ А.Фитрат. Аруз ҳақида(нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев) Т., Ўқитувчи, 1997. 4 б.

²⁵ Уша асар. 16 б.

араб, форс, туркий арузнинг ўзига хос хусусиятлари, вазн, баҳр, тақтий шаклларига алоҳида тўхталади. Айниқса, 60-70 – йиллар адабиётшунослигида форс-ожиқ арузини ўрганиш билан бир қаторда, туркий тиллардаги арузнинг табиатида доҳил бир неча илмий тадқиқотлар яратилди.²⁶

Шунингдек, адабиётшунос олимларимиз томонидан аруз илмининг баъзирини ва амалий масалаларини таҳлил қилиш тўхтагани йўқ. XX асрда аруз илмига доир кўплаб тадқиқотлар яратилди. А.Рустамов, С.Хасанов, У.Тўпчиев, А.Ҳожиаҳмедов, И.Султон каби олимлар алоҳида изланишлар олиб борганлар.

ЎЛМАС САТРЛАРДА ЎЛМАС МАВЗУЛАР

Н. Шаропова, ўқитувчи

(ТошДШИ қошидаги Олмазор академик лицейи)

Азал-азалдан инсон гўзаллик шайдоси, уни излайди, унга талпинади. Гўзаллик эса санъат қаърида яралади. Санъатнинг гўзаллик таратувчи турларидан бири — шеърият. XX асрнинг 50-йилларида ўзбек шеъриятига келиб келган А.Орипов ижоди эса шоирона даҳо шеърият ҳисобланади. Бу соҳада адабиётшунос олим Б.Саримсоқов куйидагича фикрлайди: Абдулла Орипов шеърларига хос юксак бадийликнинг энг асосий шарти поэтик тавоннинг жонли образлар воситасида ёрқин ифодалантиришдadir. Унинг шеъриятида мазмун ва шакл уйғун мутаносибликда воқе бўлади. Бу уйғунлик эса, кўпинча, мавҳум тушунчалар шаклидаги образларни жонлантириш, уларни муайян аниқ вазифалар адо этишга йўналтириш орқали юзага келади.²⁷ Шоир қайси мавзуга тўхталмасин барчасини фалсафана даҳолик билан ёритади. Унинг “Баҳо” шеърига назар солсак, дивлаб атрофимиздаги яқинларимиз, таниш-билишлар кўз ўнгимизда сандаланади. Сатрларни ўқиган сари эса фалсафий хулосага ундайдиган оқдний ҳаётий ҳақиқат бўй кўрсата боради:

*Бири оқил бўлса, ўзгаси нодон,
Бири маҳмадана, бири гиначи.
Бирови босиқдир мисоли карвон,
Бирови бетайин, гўё ниначи.
Одам сувратида ишонманг асло,
Учраган ҳар кимса бўлолмас ҳамдам.
Ажиб улфат эрур тунд киши гоҳо,*

²⁶ Шарқ мумтоз поэтикаси. Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи ф.ф.д., проф Х.Болтабоев.

²⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006.

²⁸ Саримсоқов Б.Бадийлик асослари ва мезонлари.С.Аҳмедова х/т.Т-2004. –Б.67.

*Балки қизиқчининг ичи тўла гам.*²⁸

Ҳаёт — мураббий, вақт эса ҳакам. Инсон ҳаёт кечирар экан, бир қатор замондошлари билан мулоқот қилади. Баъзилари унга дарднинг баъзиларига эса унинг ўзи дардкашдек гўё. Бироқ шундай тасодифлар ҳам бўладики, кутилмаган пайтда кутмаган инсон унинг кўнглига уйғун, юзини қараганда бепарво бўлиб кўринган инсоннинг қалби ғамга лиммо-лим бўлиб чиқади. Аслини сураат эмас, сийрат белгилаши ҳақидаги ушбу ҳақиқат шоир яратган сатрлар орқали яна бир бор имтиҳондан ўтади гўё. Инсоннинг моҳияти эса дардни чека олишида, уни англай билишида, чунки дардни билган, уни ич-ичидан ҳис эта билган инсонгагина ўзгача дарди бегона эмас. “Дард” сўзи инсонга тинчлик бермайди, уни минг кўлга солади. Шоирнинг қатор шеърларида бу сўз турли ракурслардан кўрилади. Гоҳ инсонни “ҳазрати инсон” даражасига олиб чиқади, гоҳ унинг теккан балога айланади:

Қанд деган бир дардга учрабсан укам,

Қонингда ширинлик ортиб кетибди.

Қони ширин бўлган боболарнинг ҳам,

*Сенга ҳам шу қисмат nasib этибди.*²⁹

Дард у ўз маъносида бўлсин, кўчма маънода бўлсин инсондан айро юрмайдиган азоб. Ўз маъносида инсон танасини шикастласа, кўчма маънода руҳиятни қийнайди, унинг борлигини қамраб олиши Халқимизда: “Танаси бошқа дард билмас”, — деган мақол бор. А.Орипов халқи, миллати дардини чуқур тушунади, унинг дардини олишга ҳаракат қилади. Шоир руҳияти бедор. Доим ниманидир туяди, қандайдир юз елкада. Ана шу безовталиқни у куз тасвири орқали жонлантиради, табиати ўзгаришларини одамзод қалби билан уйғунлаштиради. Бу сатрларни қийин фаслда ўқиганингиздан қатъий назар кўз олдингизда кеч куз гавдаланиши Табиат маънос, уйкуга чоғланган, ёзги жўшқинликдан асар ҳам қолмагани Дарахт бандидан узилган ҳар бир япроқ инсонга умрнинг ўткинчилигидан хабар бераётгандек. Шу кезларда она-табиатга қараб инсон ҳам озми кўтми ўтган умрининг сарҳисобини қила бошлайди. Чангалзор шовқинининг истак-орзуларини кўрса, япроқ бандида ушалмаган армонлари акс этади. Инсон қалбининг сирли, айна пайтда, тушуниб бўлмас хилқат эканлиги кузнинг куйидаги икки ҳолати билан аниқлашади:

Нимани хоҳлайман? Истагим нима?

Чангалзор шовқининг тинглаб тураман.

²⁸Орипов А. Қуёш бекати. Т- Шарқ нашр. 2010. –Б.183.

²⁹Орипов А. Қуёш бекати. Т- Шарқ нашр. 2010. –Б.160.

*Янроқлар бандида кезган жимгина
Маънос ва безовта кузни кўраман.
Унинг қўшиғида, унинг оҳида
Сезаман одамзод қалбин гоҳида.³⁰*

А.Орипов ўз бадиий тафаккури билан 60-80 йиллар ўзбек шеърятини янгиликка олиб чиқди. Уни одатий фикрлар қобигидан ажрата билди. Шеърятдаги умрбоқий инсоний муаммолар билан боғлиқ мавзуларни кўлига билди ва бу мавзуларни инсон маънавиятидаги мураккаб вазинималар билан боғлаб тасвирлай олди. У ва у каби шоирлар сабаб шеърятдаги мадҳиябозлик ўрнини инсон мавзуси эгаллай бошлади, унга соҳ қувонч-у ташвишлар, орзу-армонлар эндиликда шоирлар кўлига қалам тутқилди. Бекорга шоир “тириклик ҳам ярим ҳикмат” демайди. Умр бир марта бериладиган дунёда инсон инсондай ҳаёт кечири олиши керак, ишчи мавжудот каби эмас, балки олий мавжудот инсон қисматига айланishi лозим. Инсон қисқа умрида ҳамма нарсага эриша олмайди, умр ва унинг хоҳишига бўйсунмай ўтаверади. Шоир инсон ўз армонлари учун афсуслана олса, шунинг ўзи катта бахт эканлигини алоҳида талқинлайди:

*Инсонга тобелмас замон инчунин,
Инсон юрагида аламлар қат-қат.
Фақат бир таскин бор, барчаси учун
Афсус чека билсанг - шу ҳам бир давлат...³¹*

“Умр ўртаси” шеърида эса шоир инсон учун умр ўртаси энг масъулиятли фурсат эканлиги, ушбу фурсатда у йўл кўйган хатоларини тунитиш, эзгу ниятларига жидду жаҳд билан киришиши лозимлиги, чунки умр ўртасида ортга қайтиш йўқ, йўл эса фақат олдинга олиб кетишини, боз устига, умр оқимининг ҳам тезлашишини файласуфона талқинда ифодалайди:

*Қарайсан, йироқда бир йўлчи танҳо,
На ортга бурилар, на чиқар саси.
Бошда тоже, дилда ўт ва қўлда асо
Ўша кетаётган умринг ўртаси.³²*

А.Ориповнинг “Бургут” шеъри ана шундай бадиий кечинманинг махсули бўлиб шеърят оламига кириб келди десак, муболаға бўлмайди:

*Ёш бургут учмоқда кўкда шиддаткор,
Кумуш булутларнинг тўзгитиб парин.*

³⁰Орипов А. Юзма-юз., Т-Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр. 1978. -Б.14.

³¹Кўрсатилган асар. -Б.337.

³²Кўрсатилган асар. -Б.342.

Учмоқда, қалбида мағрур шионч бор,
Қақшаган қоялар, чуққилар сари.
Ўйноқи шамоллар ила басма-бас,
Ана, қунди бургут энг юксак жойга!
Чуққи узра мағрур турди-ю бирпас,
Яна бўрон мисол қўзғалди. Қайга?..
Ахир не бўларди берсанг, табиат,
Шу буюк шиддатга яраша мақсад!³³

Шеърдаги бургут образи каби иқтидорли, шиддатли, бургутсифат инсонлар ҳаётда жуда кўп. Шоир ана шундай кишилардаги сифат иқтидор фақат уларнинг ўзларига эмас, жамиятга, инсонларга ҳам хитоб қилишини истайди. Инсонга бургутсифат хислатларни ато этган табиат унга башарият учун хизмат эта оладиган улкан мақсад ҳам ато этган деган олижаноб моҳиятни жонли образлар воситасида бетақрор тиривчи ифодалайди.

ҚАДИМГИ ТУРК-БУДДА АДАБИЁТИ НАМУНАЛАРИ ТУРКИЙ МИФОЛОГИЯНИНГ МАНБАСИ СИФАТИДА

Н. Жўрақўзиев, катта илмий
ходим-изланувчи (ТошДУТЛУ)

Қадимги туркий адабиёт манбаларига эътибор берадиган бўлсак, туркий будда адабиёти намуналари уларнинг катта қисмини эгаллаганига гумон бўламиз. Табиийки, асарларнинг кўп қисми буддавийлик дини фалсафаси билан чамбарчас боғланган. Манбалардаги мифологик сюжет, мотив ва образлар буддавийлик дини ғоялари асосида шаклланган. Қадимги туркий халқларда буддавийлик таъсиридаги адабиётнинг кўп қисми санскрит, хитой, тохар, сўғд ва бошқа тиллардан таржима қилинган прозаик асарлар оригинал матнлардан ташкил топган. Бундай таржималар сутралар,³⁴ сутралар ичидан жой олган афоризмлар, ибратли гаплар (сентенциялар), ҳикоятлар (притчалар), будда таълимоти ёритилган турли иллюстрациялар кўринишида бўлган. Қадимги туркий буддавийлар ичида XI асрда машҳур бўлган асарлардан бири бу “Суварнапрабхаса”, яъни “Олтун ёруқ” асаридир. Бундан ташқари, туркий қавмлар орасида машҳур бўлган асарлардан бири “Саддхармапундарика”, “Хайрли конуннинг оқ лотос гули” (“Белый лотос Благого закона”) ҳисобланади. Бундан ташқари

³³ Кўрсатилган асар. –Б.43.

³⁴ Сутра (санскритча ип, арқон) – қадимда матилар пальма баргларига ёзилган ва ип билан тилиб қўйилган; тугалланган фикрлар мажмуаси.

Қадимги туркий будда маданияти ва адабиётидан будисатв ³⁵ Авалокигешварга бағишланган сутралар ҳам ўрин олган. Будданинг ҳаёти ва ўрнини ибратли ҳикоялар таржималари – жатака ³⁶ ва аваданлар ³⁷ ҳам туркий будда адабиётининг ажралмас қисмларидан биридир. Бу ўринда таржимонлар туркий халқлар вакилларида бўлганлиги ва ўша асарни авалондир маънода муаллифи эканлигини ҳам унутмаслик керак. Шунинг учун ҳам, қадимги турк-будда адабиёти таржима ва буддавийлик авалонларини ёйишга мўлжалланган адабиёт сифатида қаралмаслиги керак деб ўйлаймиз. Чунки адабий ва маданий алоқаларнинг кенгайиши қадимги туркий адабиёт ҳамда маданиятда гоёлар ассимиляция (эврилиш)га олиб келиди. Бундай эврилиш даврида сюжет, мотивлар буддавийликни қабул қилиши ва ўзларининг олдинги динлари сюжет мотивларини ўша адабиётда ҳам бўлишини хоҳлаган инсонлар гоёларини ҳам ҳисобга олишни талаб қилади.

Қадимги турк-будда поэтик матнларининг кўпчилиги қисмини дуолар, будда таълимоти қоидалари ёритилган шеърлар ташкил қилади. Уларнинг ичида туркий халқлар адабий поэтикасига ҳос бўлган, буддавий мазмундаги оригинал шеърлар анчагина. Булар – “Ўн турли эзгуликнинг моваққи” (“Десяти различных добродетелей”), “Назар солиш ҳақида” (“О зорерцении”), “Ширинсуханлик ҳақида” (“О красноречии”), “Донолик ҳақида” (“О мудрости”), “35 буддага алқов” (“Хвала 35 буддам”), таркибловчи шеърлар, будда Амитабхе ³⁸, будда Майтрея ³⁹ бағишловлар, “Буддасат Самантабюхадрега дуолар” тўпламларидир. Бундан ташқари, қадимги туркий халқларнинг буддавийликни қабул қилган илк даврларида “Шакзода Қалаянамқара ва Папамқара” ⁴⁰ ҳақидаги ҳикоя ҳам турк-будда шеърлигида катта ўрин тутаяди. Будда ақидалари турк-будда адабиёти фалсафасига катта таъсир қилишидан ташқари туркий халқлар тафаккурига

³⁵ Будисатв – инсон ёки бирон жонотнинг буддага айланишига интилиши; инсониятнинг ва жонотларнинг бундай қарорга келишига сабаб туганмас қайта туғилишдан – сансарадан чиқишга интилиши ва жамики тирик жонотларни азоб-уқубатлардан қутқариб олишга ҳаракат қилишди деб биландилар. Қаранг: “Олгун ёруғ”. 2-китоб. “MUMTOZ SO‘Z”. – Т.: 2013. 3-бет. Насрға тайёрловчи Н.А. Раҳмонов.

³⁶ Жатака – Будда Шакьямунининг ҳаёти ва ибратли ҳикоялари ўрин олган шеърый ҳамда прозаик асарларини ўз ичига олган будда адабиёти жанридир.

³⁷ Аваданлар – Будда кўрсатган мўъжизалар ҳақидаги ҳикоялар.

³⁸ Будда Амитабха – буддавийликни қабул қилган туркий халқлар орасида машҳур бўлган. Ақидага кўра авалодаги Сукхатави-бахт мамлакатини яратган.

³⁹ Майтрея – ақидага кўра келажак оламни тартибга солувчи деб ҳисобланади. Майтрея култи авалода машҳур бўлган ва у ердан туркий халқларга ўтган.

⁴⁰ Hunt C.I. Le conte bouddique des deux fiers en langue turque et en caractères ouigors. JA, janv.-fevr., Paris, 1914 pp. 5-57.

хам кириб борди. Айниқса, турк-будда адабиёти намуналари ичида фан китоблари алоҳида, ўзига хос мазмунга эгаллиги билан ажралиб туради. Кейинги давр турк-будда адабиётига оид апокрифик сутралардан иборат манба “Саккиз юкмак” (“Säkiz yükmak”) асари ҳисобланади. Айрим манбаларда “Säkiz yükmak yaғuq nom” деб ҳам аталади.⁴¹ “Säkiz yükmak” хитой манбаси “Fo-shuo-pa-yang-shen-ch’ou-king” асарининг сўзма сўз таржимаси ҳисобланади. Асарнинг қўллаб қўлёзма ва ксилографлари Берлин, Лондон, Токио, Санкт-Петербург фондларида сақланади. Бундан ташқари Хуан Вэньбида⁴² ва брахми ёзувидаги вариантлари ҳам маълум. Асар матни будда ақидаларининг қисқача формулалари, будда медитацияси, роҳибнинг кундалик эҳтиёжлари қандай бўлишини, Хитойда қўлланиб келинган уй-хўжалигини юритиш бўйича тавсиялардан ташкил топган. Бундан ташқари, гуллар ва ҳайвонлар тасвири туширилган тўрт квадратли, космогоник мифларга асосланган макро ва микрокосмос ҳақида хулосалар, классик сутралага хос сеҳргарлик космогоник формулалари ёритилган. Шундай қилиб, асар кўп қиррали ва айни дамда жуда қисқа, ҳар қандай одам қийинчиликсиз тушуна оладиган шаклда бўлган. Шунинг учун ҳам, асар ўз даврида машхур ва кўп жойлари тарқалаган.⁴³ Қадимги турк-будда адабий манбаларидан бири “Етиккан судур” (“Yetikän sudur”)⁴⁴ (“Етти юлдузлар туркуми (буржи) ҳақида сутра”) деб аталади. Асарнинг бир нечта қўлёзмаси ва нусхалари сақланиб қолган бўлиб, 1328 йилда қадимги туркий тилга таржима қилинган. Манбаининг 1328 йилда ҳамда 1373 йилда кўчирилган нусхалари мавжуд. Тантрага асосланган матнлар асосан космогоник мифларлардан ташкил топиб юлдузлар буржига мурожаат орқали фол очиш ва магия қилиш учун кериб бўлган. “Қшанти қилғилиқ ном” (“Kšanti qilululuq nom”) номли тавба учун дуолар тўплами хитой манбаси “Ts’u-pei-tao-ch’ang ch’an-fa”нинг туркий тилга таржимаси ҳисобланади. Асар хитой тилидан милодий I асрда Бухоролик (айрим манбаларда Парфиялик дейилади) роҳиб Анъ Шинпо томонидан таржима қилинган.⁴⁵

Уқоридаги фикрларда кўриб ўтганимиздек, турк-будда адабиётининг манбалари жуда кенг. Улар ичида турли адабий жанрлар, мақоллар, фан

⁴¹ Elverskog J. Uyğur Buddhist literature. Silk road studies I.1997. Brepols, Turnhout. Germany. P. 12.

⁴² Huang Wên-pi. T'u-lu-fank' ao-ki. – В “K' ao-ku-hüe”. № 3, Peking, 1958.

⁴³ Габеев фон А. Древнетюркская литература / пер. с нем. Д.Д. и Е.А. Васильевых // Зарубежная тюркология. – Вып. 1. – М., 1986. – С. 294-344.

⁴⁴ Ligeti L. Surlecolophondu “Yitikänsudur”. – “Asiatica. Festschrift für F.Weller”. Lpz., 1954, с.397-404.

⁴⁵ Ligeti L. Surlecolophondu “Yitikänsudur”. – “Asiatica. Festschrift für F.Weller”. Lpz., 1954, с.166.

эпослари, кўшиқлар, йиғи кўшиқлари, ҳикоя ва ҳикоятлар, сурталар, шеърлар, тавба дуолари, магик-афсунгарлик матнлари кабилари кўриниши мумкин. Ҳозирда юқорида саналган кўп асарлар матнлари билан шахсан таниш бўлмасакда, умумий обзор тарзида турк-будда адабиёти ўзаги ҳисобланувчи мифологик манбалари сифатида тилга олиб ўтишни мақсадга мувофиқ деб билдик. Қадимги турк-будда адабиёти, жисми, Шарқий Туркистон, Хитойга чегарадош Ислом дини етиб бормаган Жануби Сибир ва Олтой туркий халқларида ривожланди. Шунинг учун ҳам, Олтой туркийлари мифларида буддавийлик дини образлари кўзга ташланади. Мифларда ер ости ҳукмдори Эрлик хоннинг ёрдамчилар Мангдашира, Майтўра номлари учрайди. Мангдашира образи шимолий буддавийликдаги беш дхьяяни-боддистави Манджушри, Майтўра эса шикон киёфали бешинчи будда Майтрея номи билан боғлиқлиги мифларда қайд қилинган.⁴⁶

Демак, турк-будда адабиёти туркий халқлар ҳаётига буддавийлик кириб келгандан кейин ривожланди. Бунинг натижасида бир нечта асарлар таржима қилинди ва ўзига хос таржима бўлмаган асарлар ҳам яратилди. Асарлар таркибига буддавийлик образлари билан бирга қадимги туркий халқларга алоқадор мифологик унсурлар киритилиб, бойитилиб борилди. Бунинг натижасида, III-VII асрларни ўз ичига олган, айрим ҳудудларда XI асрларгача давом этган буддавийлик, манихейлик, Кўк Тангри дини (шричилик) ва шомонлик ғояларни ўзида мужассалаштирган ассимиляцияга учраган, синкретик шаклдаги адабий майдон юзага келди.

ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИДА ИЖТИМОЙ-МАНИШИЙ МАЗМУНДАГИ ШАРТЛАР

III. Назарова, катга илмий ходим-изланувчи (ТошДУТАУ)

Ўзбек халқ достонлари мазмун жиҳатидан бир неча турларга бўлинса-да, уларнинг барчасида, бизнингча, қаҳрамонлик ёки севги-муҳаббат мавзусини ёритувчи синовлар асосий ғояни ифода этади. "Алиюмиш" туркумидаги достонларда қаҳрамонлик ёр сафари билан бир бутунликда намоён бўлади. Қаҳрамоннинг жасоратга тўла сафариди ҳам, юртига қайтгач кўрсатган қаҳрамонликларида ҳам ёр учун кураш тикчилик қилади, яни жиҳат достоннинг иккала қисмидаги сюжет халқларини боғлаб туради. "Гўрўғли" туркумига кирувчи барча романик достонлар ёр сафари сюжет тизимига эга, шу белгига кўра улар бир-бирига

⁴⁶ Спиласев А.М. Мифология и верования алтайцев. Центрально-азиатские влияния. Наука. – Ноя-ск.: 1984. С – 24, 42.

жуда яқин туради. Бу жараёни Веселовский қуйидагича изоҳлайди: “...ўхшаш сюжетлар ўхшаш мотивларнинг табиий эволюцияси сифатида кўриниш беради, ўхшаш мотивларнинг келиб чиқишига бўлса бир хилдаги психик жараёнлар, ўхшаш ҳаёт тарзи сабаб бўлади” [6, б. 301-302]. Достонлар сюжетидаги синов мотивлари қиёсланганда, улар ичида энг кўп учрайдигани қахрамонга қўйиладиган шартлар ҳисобланади. Барча достонларда қахрамоннинг никоҳ, қахрамонлик синовларидан ўзининг ижтимоий мазмунга эга бўлиб, халқ ҳаётига таъсир кўрсатади. Шунинг жиҳатдан шартларнинг аксарияти семантик жиҳатдан бир-бирига яқин бўлиб, бу ҳолат достонлар сюжети ва композициясида умумўхшашлик ҳамда такрорларни юзага келтирган. Бу фольклор асарлари яратилиши ва куйланишидаги ўзига хос жараён бўлиб, куйловчи қатъий формулалар сайёр мотивлардан фойдаланади.

Достонларда учровчи шартларни семантик жиҳатдан қуйидагича таснифлаш мумкин:

- 1) никоҳ шартлари;
- 2) ҳудуд (майдон) билан алоқадор шартлар;
- 3) ижтимоий-маиший мазмундаги шартлар;
- 4) диний мазмундаги шартлар.

Ушбу шарт турларининг барчасида маълум мифологик қарашлар, маросимга алоқадор белгилар акс этади. Улар поэтик жиҳатдан билан достонларда сюжетни ҳаракатга келтирса, бошқа достонларда сюжет ҳалқаларини боғлашга хизмат қилади. Энг муҳими, қахрамон табиатидаги хусусиятларни изоҳлашга йўл очади. Юқорида баён этганимиздек, маълум шарт турларининг барчаси халқ ҳаётига дахлдорлиги билан ижтимоий-маиший мазмунга эга. Аммо шундай шарт турлари ҳам борки уларда никоҳ, ҳудудга алоқадорлик ёки диний мазмун эмас, балки ижтимоий-маиший мазмун ёрқинроқ намоён бўлади. Биз ушбу мақолада шарт синов мотивининг айни тури ҳақида фикр юритамиз.

Ижтимоий-маиший мазмундаги шартларнинг бир қисми табақанинг келишув шартларини, ҳукмрон уруғнинг маросимдаги етакчилик ролини ифодалашга ҳамда бошқарувчи сулоланинг магик кучини янада бўрттириш кўрсатишга хизмат қилади. Шартларнинг бир қисми бўлса асардаги тарихийлик билан алоқадор. Бу мотивларнинг маълум бир қисми эса соф эстетик ҳодиса сифатида маиший қатламни акс эттиради.

“Кунтуғмиш” достонида подшо томонидан Холбекага “*Ҳар кун тун вақтидан кичик чоштгага доғур қўшиқига чиқсин, юзидан ниқобини олсти оламни томоиша қилсин*” шарти буюрилган [8, б. 17]. Мифопоэтик

қилмишга кўра, никоҳга киришган малика юзидаги нур йўқолади ва шаҳар ақли қоронғуликда қолади. Айни белгиларга кўра малика маконига бегона кириб боргани англашилади. Хукмрон уруғнинг кун, тун, куёш, ой, умумин, барча табиат кучларини ва инсонларни бошқара олиш қобилиятига эга бўлиши қадим ибтидоий тасаввурлар маҳсули бўлиб, шунини шартда айни талаб ифодасини топади. Аммо шарт бажарилмайди ва юртда тартибсизлик бошланади, яъни воқеалар ривожини янги ўзганга бурилади.

Анъанавий овқат билан синаш мотиви ҳам борки, бу қаҳрамоннинг алоҳида қобилиятга эга эканлигини ифодалайди. Яъни қаҳрамон мифологик асосга кўра, тотем кучини ўзида сингдирган ва тириклару ўликлар оламидаги магик кучлар билан алоқа ўрната олган, улар алоқасидаги инсон ҳисобланади. Айнан мана шу тасаввурга кўра, инициация ва никоҳ маросимларида тотем гўшти истеъмол қилинган. Шу асосга кўра, Пропп овқатланиш шартини қуйидагича изоҳлайди: “Бу хотинида нариги дунё – ўликлар мулкига ўтиш билан боғлиқ ритуал овқатланиш ҳақидаги тасаввурлар ўз ифодасини топган” [13, б. 296]. “Алпомиш” достонининг Фозил Йўлдош ўғли, Пўлкан ва Эргаш Қуминбулбул ўғли, Берди бахши вариантларида Алпомишнинг бу инициацияга алоҳида урғу берилади ва бу Қоражон билан бўлган диалогларда кўрилади [1, 2, 3]. “Қоражон: – Нима ейсан? – деганда, Алпомишнинг бир сўз дегани: ...Эрта-мертан нонуштада ер эдим, Тўқсонтадан семиз яхши биши” [1, б. 322, 334. 2, б. 48. 3, б. 27]. Мотивнинг ўзгарган шакли “Холдорхон” достонидан учрайди [15, б. 14]. Бу шарт тотем билан алоқадор бўлгани учун ҳам уни магик кучга эга қаҳрамон ёки ҳомий амалга ошириши мумкин. Уларгина магик кучга тўла эгалик қиладилар. Қўмакчи бўлса бу кучнинг бир қисминигина ифода этади. “Холдорхон” достонидан шартини қўмакчи (Ҳасан Кўлбар) бажаради ва шу жиҳатдан мазкур мотив асарда қайта ишланган ҳолатга келади. Буни қўмакчи характерини оқшантириш учун (Ҳасан Кўлбар “Тўрўғли” туркуми достонларида еб кўрмас образ сифатида гавдаланади) зарур бўлган поэтик усул сифатида танқид қилиш мумкин.

Уруғбошининг маросимдаги етакчилик ролини ва уруғ ичидаги табиқавий келишув шартларини шартга букюрувчи ва уни бажарувчи муносабатларида кўрамаиз. Шартга йўлловчи қаҳрамонни, энг аввало, ўзи шундан ўтказади. “Балогардон”, “Интизор” достонларида Тўрўғли Авазхонни қизни олиб келишга букюради [5, б. 13. 7, б. 60]. Аммо ўзи сифатга кетаётган Авазхон ортидан етиб бориб, бошқа қиёфага кириб у

билан жанг қилади. Достонларда бу ҳолат “отни бошқа юртга олиб қочиб кетишининг олдини олиш” тарзида асосланади. Бундай мотивировкага қарамасдан, ота ўглини синаб кўраётгани англашилади. “Алпомиш” достонида сари ёйни Ёдгорга кўтартиришни Ултонтозга Қултой қиёфасидаги Алпомиш маслаҳат беради [3, б. 99].

Ота вазифасини тоға бажариши ҳам мумкин. “Малика айёр” достонида Аҳмад сардор жиянига қарши мерганларни йўллайди [10, б. 10]. Мелетинский фикрича, тоғанинг жияни синовдан ўтказиши ритуал асосга эга [11, б. 127]. Леви-Стросс фикрича, она уруги тартибига кўри, тоғагагина жияни синаб кўриш ва тарбиялаш ҳуқуқи берилади [9, б. 111]. Бадиий асарда ота ва тоға маросимий асосга кўра ҳомий образига яқинлашиб боради.

Асардаги сиёсий вазиятга кўра, буюриладиган шартлар тарихийлик белгисига эга. “Алпомиш” достонининг Бекмурод Жўрабой ўгли вариантыда Бойсари Тўйчихонга Бойбўри юртини эгаллаб, Оқмуҳаммад арслонни асир олгачгина қизини беришини маълум қилади [4, б. 12-13]. Маълум бўладикки, ушбу вариант мифологик асосга таянувчи архаик сюжетдан узоқлашган ва тўла маиший муҳит тасвирига кўчган. “Якки Аҳмад”, “Юсуф ва Аҳмад”, “Ойсулув” достонларида асосий рақиб куч бўлган шаҳзодаларни тутиб келиш буюрилади [17, б. 216. 16, б. 49. 12, б. 4-8]. Шартларнинг асардаги тарихий шароитга кўра ўзгариб бориши натижасида қаҳрамонлик, романик турдаги достонлар тарихий достонларга айланиб борган. “Ойсулув” достони фольклоршунослар томонидан Тўмарис ҳақидаги ривоятга қиёсан ўрганилар экан, ундаги шартлар тарихий ёдномалар эканлиги англашилади.

Достонларда учровчи шундай шартлар ҳам борки, улар соф эстетик ҳодиса – санъат тури сифатида маиший қатламни юзага келтирган. “Юсуф ва Аҳмад” достонида қаҳрамонлар сўзда ва созда куч синашадилар. Қаҳрамон зиндонда Хизр раҳбарлигида пирлардан тарбия олгач, ҳамроҳ пири Бобо Қамбар кўли теккан соз билан рақибларини енгади. Олим Ш. Турдимов ёзади: “Хизр кишига бахши-шоирлик қудратини ҳам бери олади, деб анланган” [14, б. 43]. Шу жиҳатдан Сўз ва Соз магик кучга эга воситалардир. Улар айни хусусиятлари билан намоён бўлсада, достонди тингловчиларга эстетик завқ улашиши ва кулги уйғотиши билан кўпроқ қийматга эгадир. Шу тариқа даврлар ўтиши, маиший турмуш тарзи ўзгариши билан шартлар ўз мазмун мундарижасини ўзгартира борган.

Шартлар қаҳрамон табиатидаги енгилмаслик, баҳодирлик хусусиятларини кўрсатиб берувчи мотивдир. Қаҳрамон характери унинг

қандай шартларни бажарганига қараб белгиланади. Муҳаббат сингонларидан ўтган образ романик дostonлар, эл-юрт тақдири билан боғлиқ синовлардан ўтган образ бўлса қаҳрамонлик дostonлари қаҳрамони сингилади. Бизнингча, шарт мотиви талқини ва ушбу мотивга кўра шартланган қаҳрамон қиёфаси дoston йўналишини белгилаб беради. Мазкур мўйиммо фольклоршунослигимиздаги келгуси тадқиқотларда янада очиғини топади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алпомиш. Дoston / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли / Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.322, 114.
2. Алпомиш. Дoston / Айтувчи Пўлкан шоир, Эргаш Жуманбулбул ўғли / Нашрга тайёрловчилар Т.Мирзаев ва З.Хусайнова. – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – Б.48.
3. Алпомиш. Дoston / Айтувчи Берди бахши / Нашрга тайёрловчи Т.Мирзаев. – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – Б.27, 99.
4. Алпомиш. Дoston / Айтувчи Бекмурод Жўрабой ўғли / Нашрга тайёрловчи Т.Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.12-13.
5. Билогардон. Дoston / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли / Қайта нашрга тайёрловчилар Х.Расул ва М.Афзалов. – Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1958. – Б.13.
6. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – С.301-302.
7. Интизор. Дoston / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли / Нашрга тайёрловчи М.Алавия. – Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1949. – Б.60.
8. Кунтуғмиш. Дoston / Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Б.Карим, Ҳ.Зариф. – Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1955. – Б.17.
9. Леви-Строс К. Структурная антропология. – М., 1983. С.111.
10. Малика аёр. Дoston / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Зариф. – Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1955. – Б.10.
11. Мелетинский Е.М. Палеоазиатский мифологический эпос. – М.: Наука, 1979. – С.127.
12. Ойсулов. Дoston / Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли. Нашрга тайёрловчи: Ҳ.Зариф. – Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1954. – Б.4-8.
13. Пропп В.Я. Историческое корни волшебной сказки. – Л.: ЛГУ, 1946. – С.296.

14. Турдимов Ш. “Турўгли” дostonларининг генезиси ва тадрижи босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.43.

15. Холдорхон Алпомиш. Дoston / Айтувчи Эргаш Жуманбулбул ўгли / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Зариф. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1981. – Б.14.

16. Юсуф ва Аҳмад. Дoston / Айтувчи Пулкан шоир, Эргаш Жуманбулбул ўгли / Нашрга тайёрловчи Б.Саримсоқов. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1981. – Б.49.

17. Якка Аҳмад. Дoston / Айтувчи Эргаш Жуманбулбул ўгли / Нашрга тайёрловчи Ҳоди Зариф. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1984. – Б.216.

“УРУШНИНГ АЁЛДАН ЙИРОҚ ҚИЁФАСИ”

Ф. Мусаева, илмий ходим (УТАИТИ)

2015 йил адабиёт йўналишидаги Нобель мукофоти белоруссиялик адиб Светлана Алексиевичга “Орзулар нидоси” туркумидаги асарлари учун тақдим этилди. Швеция академиясининг доимий котиби Сари Даниуснинг сўзларига қараганда, ушбу юксак мукофот адибга “законамун жасорати ва дардиниинг ҳайкали бўлмиш ижодий кўпоҳанглилик⁴⁷” учун берилди. Мана шу эътирофнинг ўзидан Светлана Алексиевич ўзига ҳо услубга эгаллигини билиб олишимиз мумкин. Адиб асарларини воқеанин бевосита иштирокчилари, гувоҳлари тилидан баён қилади. Минглаб одамлар билан учрашади, уларнинг ҳикояларини тинглайди, ёзиб олади мана шу хотиралардан асар яратади. Ёзувчи ўз асарлари учун танлаган усули ҳақида жумладан шундай дейди: “Узоқ изландим... Эшитаётган нарсаларимни қандай етказсам экан? Оламни қай тариқа кўраётганимнинг кўзим, кулоғим қандай тузилганлигини ифодалай оладиган жанрни қидирдим. А.Адамович, Я.Бриль, В.Колесникларнинг “Оловни кишлоқданман” асари кўлимга тушиб қолди. Фақат бир марта Достоевскийнинг асарини ўқиганимдагина мана шундай жунбушга келгандим. Бу ерда эса шакл ҳам ўзгача: роман ҳаётнинг ўз овозларидан мен болаликда эшитганларимдан, ҳозир кўчада, уйда, кафедра троллейбусда янграётган садолардан териб олинган эди. Тамом. Мен излаганимни топдим. Олдиндан ҳис этдим. Алесь Адамович менин устозимга айланди...”

Ёзувчини дунёга машҳур қилган асарларидан бири - “Урушнинг аёлдан йироқ қиёфаси” романи. Асарда бирор бир воқеа, яхлит бир сюжет кўзга ташланмайди. Унда салбий ёки ижобий қаҳрамонлар йўқ. Воқеалар битта “салбий” қаҳрамон - “Уруш” атрофида уюшади. Адибнинг уруши

⁴⁷Мусаева Ф. Оловда очилган гул. Китоб дунёси // №20. 2015 йил 2 октябрь.

булган чексиз нафрати турли ракурсларда, турли қаҳрамонлар нутқида, турли ҳаётий вазиятларда тасвирланади. Адибнинг бош мақсади ҳам шунда – урушнинг даҳшатини очиб бериш: “Уруш бизга тобора камрок кўриб бормоқда, биз уни оклайдиган баҳоналарни топишга қийналиб қолганимиз. Биз учун у қотилликдан ўзга нарса эмас. Ҳар ҳолда мен учун шундай. Уруш ҳақида шундай китоб ёзайки, урушдан кўнглимиз асиртилсин, у ҳақда ўйлашнинг ўзи жирканч туйғуларни уйғотсин. Ҳаддан шибд. Генералларнинг ўзининг кўнглини беҳузур қилсин...”

Дунёда минглаб урушлар бўлган. Уруш ҳақида ёзилган китоблар эса ушунинг ҳам бисёр. Аммо адиб асарининг мана шу китоблардан фарқи нимада? Светлана Алексиевич Иккинчи жаҳон урушида қайси тепалик шибт этилгану, бунда қайси генерал жасурлик кўтсатганлигини тасвирламайди. Унинг учун бундай воқеаларнинг қизиғи йўқ. У ҳиссиётлар тарихини битади.. Қалб тарихини.. “Уруш ёхуд давлат тарихини эмас, қаҳрамонлар ҳаётини эмас, оддийгина ҳаётдан ҳайбатли воқеаларнинг тубсиз қаърига, Буюк тарихга улоқтирилган кичкинагина одам тарихини” ёзади. Адибни урушда ўлим билан юзма-юз келган одамнинг ҳаётидан нима ўтиши қизиктиради. Унинг фикрича, инсон “урушда ва яна, ҳатимол, севгида кўпроқ очилади. Туб-тубигача, суяк-суякларигача. Ўлим билан юзма-юз келганда барча ғоялар бўзаради, инсон шуури англай қолмайдиган мангулик намоён бўлади, унга ҳеч ким тайёр эмас”.

Айрим танқидчилар ёзувчи асарларини “бозорбоп, юзаки журналистик тадқиқотлар”⁴⁸ деб баҳолайди. Эдуард Лимонов, Александр Проханов каби ёзувчилар эса Нобель мукофоти ёзувчи эмас, журналистга тақдим этилганлигини истехзо билан қайд этиб, ушбу мукофот кўпроқ сиёсий қарашлар учун берилишини таъкидлаб ўтишди. Аммо адиб айтаганидек, “ҳаммаси адабиётга айланиши мумкин...” Ёзувчи эса урушда бўлган инсонларнинг кечинмаларини адабиётга айлантирди.

“Урушнинг аёлдан йироқ қиёфаси” асарида урушнинг аёллар шизохидаги қиёфасини кўрамыз. Китобда аёллар бизга эркаклар айтиб бермаган уруш ҳақида сўзлаб берадилар. Иккинчи жаҳон урушида Совет Армияси сафида 1 миллионга яқин аёллар иштирок этган. Аёллар нафақат қирланганларни қутқарган, уларни даволаган, партизанларга ёрдам берган, балки пулемётчи, танкчи, артиллериячи, снайпер каби “эркакча” касбларни ҳам эгаллашган. Аммо урушдан сўнг улар яна бир урушни бошидан кечирадилар. Ҳаммаси ҳам ҳаётда ўз ўрнини топа олмаган. Кўпчилик урушда иштирок этган аёлларга нисбатан салбий фикрда бўлган. Эси бор

⁴⁸ Мирю М., Пардаев А. Орзулар видоси / Жаҳон адабиёти. 2016. №1. 7-бет.

хотин уйда ўтиради, одам ўлдирмайди деган фикр устувор бўлган. Бундан асар қаҳрамонларидан бири *Лилия Михайловна Бутко* ҳикоясидан ҳам билиб олсак бўлади:

Сизга ҳозир ҳарбий қизларга қандай муносабатда бўлиганини айтиб бераман.

Мен туфли, кўйлак кийиб, шинель билан этигимни гардеробда топширдим.

Ёнимга бир ҳарбий келиб, мени рақсга таклиф қилди.

– Сиз, бу ерлик бўлмасангиз керак. Жуда зиёли қиз кўрунасиз, – деди

Бутун оқишом ёнимдан кетмади. Сира кўйиб юбормасди. Рўқам тугади, менга қараб:

– Рақамингизни беринг, – деди.

Мендан илгарилаб кетди. Гардеробда эса унга шинель билан этигимни тутқазди.

– Бу меники эмас...

Мен келиб:

– Йўқ, бу меники, – дедим.

– Аммо менга фронтда бўлганингизни айтмадингиз-ку, – деди.

– Сўрасангиз айтман-да.

У ўнғайсизланиб қолди. Кўзларимга қарай олмади. Ўзи менга яқиндагина урушдан қайтган...

– Нега ҳайрон бўлиб қолдингиз?

– Сизни армияда бўлган, деб сира тасаввур қилмаганим. Тушунярсизми, фронтда бўлган аёл...

– Бир ўзим бўлганимга ҳайрон бўлярсизми? Эрсиз, иккиқат ҳам эмасман? Эганидаги пахта камзул эмас, «Казбек» сигаретини тутатгани буралаб сўкмаётганим сизни ҳайрон қолдириятими?

Мени кузатишига рухсат бермадим.

Фронтда бўлганимдан, Ватанимни душманлардан ҳимоя қилганимдан доим фахрланганман...»

Светлана Алексиевичнинг мазкур асари узоқ вақт цензурадан ўтмаган. Зеро унда “коммунистик партиянинг етакчи ва йўлбошлиқчи вазифаси” кўринмаган. Уруш ҳақида совет даврида ёзилган китобларда совет кишисининг оламшумул жасорати, фидокорлиги кўрсатилиши керак эди. Асарни ўқигач, ҳаммаси биз олдинги ўқиган китобларимизда тасвирлангандай бўлмаганига амин бўламиз, яъни немислар қоралли советлар оппоқ бўлмаган:

“Хужум қиялемиз... Илк немис қишлоқлари... Ёш, навқиронмиз. Тўрт
ниш пёлсиз. Ертўлаларда – вино. газак. Немис қизларини тутиб олиб... ҳар
бирини ўн киши зўрлардик... Аёллар етишмасди, аҳоли Совет армиясидан
қочиб кетган. Ёш қизчаларни олардик... Ўн икки-ўн уч яшар... Йигласа,
ўрардик, оғзига латта-путта тиқардик. У оғриқдан ингерарди, биз эса
кучардик. Бунга қандай йўл қўйганлигимга ҳозир ўзимнинг ҳам ақлим
етмайди... Ахир зиёли оиладан чиққан бола эдим... Бироқ бу ҳақиқатан
қили мен эдим...”

Қизларимиз, ҳалшираларимиз бу ҳақда билиб қолишларидан
қурқардик. Улардан уялардик...”

«Қуршовда қолиб кетдик... Ўрмону ботқоқликларда сарсон бўлиб
қардик. Барглар, дарахт пўстлоқлари, қандайдир илдишлар билан кун
қурдик. Беш киши эдик, бири ҳали жуда ёш, эндигина армияга чақирилган.
Кочқурун ёнимдаги шивирлади: Йигитчанинг холи танг, барибир ўлади.
тушундирсанми... “ – Нима деясан?” – “Қамоқдан чиққан бир танишим
тишиб берувди... Лагердан қочишганда атайлаб ўзлари билан ёш
йигитчани олишаркан... Одам гуштини еса бўлади... Шу йўл билан жонини
саклаб қолишган...”

Урай десам, ҳолим йўқ. Эртасига партизанларни учратдик... »

Аммо адибга хотиралар адабиёт бўлолмайди деб эътироз
биширгувчилар кўп бўлган. Уларга адиб шундай дея жавоб қайтаради:

“Менга: хўш, хотиралар – бу тарих ҳам эмас, адабиёт ҳам эмас
деди. Ишлади. Бу шунчаки мусаввир илги билан тозаланмаган, ивирсиган ҳаёт.
Сўзини хом ашёси унинг ҳар тубида бисёр. Мана шу ғиштлар ҳаммаёқда
тўлиб-тошиб ётибди. Аммо ғишт бу минора эмас?! Бироқ мен учун
ҳаммаси ўзгача... Айнан ўша ерда, илиқ инсоний овозда, мозийнинг жонли
вас-сидосида бокира қувонч яшириниб, ҳаётнинг қочиб қутулмас фожиаси.
ўзини тартибсизлиги ва эҳтироси...ягоналиги ва ақл бовар қилмаслиги
намоён бўлган. У ерда уларга ҳали қўл теккизилмаган, ишлов берилмаган.
Улар аслдирлар.

Мен туйғуларимиздан... истак ва умидсизлигимиздан, орзуларимиз-
5. *O'g'il uylantirish bilan bog'liq iboralar:* o'g'il uylamoq, boshini ikki qilmoq, boshini qovushtirmoq, kelin tushirmoq, bo'yniga olahurjin osmoq, qo'shyurak qilmoq, oyog'ini to'rtta qilmoq;

6. *To'y marosimi bilan bog'liq iboralar:* vakil so'ramoq, oyoq bosmoq, to'ch siypalamoq, paxta silar, kelin topmoq, kampir o'ldi, belbog' bog'lamoq, un tepdi, oyna qaratar, eshik iluv qilmoq.

Nikoh o'qilishidan avval kelin bo'lmish qiz o'z dugonalari bilan aralashib bir xonada o'tiradi. Kuyov tomondan kelgan vakil kelinni topishga harakat qiladi.

Kelinni tanimasa qizlardan yordam so'raydi, evaziga har bir qizga pul berib, ularni rozi qiladi. Bu odat *kelin topar* iborasi bilan nomlanadi.

To'yda yangi kelin o'zi tushayotgan uyiga biror qimmatbaho mato yoki gilam bilan birga kirishi odat tusiga kirgan. Hamma ko'rishi uchun bu narsalar kelin uyining eshigiga osib qo'yiladi. *Eshik iluv qilish* kelinning shu uyga, shu ro'zg'orga ilashib, ilinib yurishiga niyat maqsadida qilingan: "Kelinning *eshik iluv* qani, yo qilmabtimikan-a?" (to'ydagi xotinlar gurungidan).

7. *To'ydan keyingi marosimlar bilan bog'liq iboralar:* kelin salom, yuz ochar, qiz ko'rdi, joy yig'di, supra yoydi, un elatar, quyruq kesdi, qiz chaqirdi.

To'ydan bir hafta yoki bir oydan so'ng ota-ona uzatgan qizini mehmonga chaqiradi. Mehmonga qudalar ham kelib, sovg'a salomlar bilan e'zozlanadi. Bu odat bilan quda-andachilik munosabatlari yanada mustahkamlanadi.

8. *Nikohning buzilishi bilan bog'liq iboralar:* xotin qo'ymoq, taloq xatini tutqizmoq, ko'ch ko'tarmoq, orani ochiq qilmoq, javobini bermoq, ko'rpa ko'tarmoq, erdan chiqmoq, Ganjiravonga ketmoq.

"Mirvali hech vaqt bir ayol bilan ikki oy birga bo'lmagan. Ko'rpa ko'taradigan vaqtingiz kelib qolibdi, dedi Mirvalining oldingi o'ynashi". Ushbu gapda "ko'rpa ko'tarmoq" joyini boshqalamoq ma'nosini beradi.

Umuman olganda, tilimizda nikoh bilan bog'liq iboralarimizning asosiy qismi milliy urf-odatlarimiz, to'y-marosimlarimizda mavjud odatlar ta'sirida shakllangan. Ularni to'plab, chuqur tahlil etish, tuzilayotgan yangi lug'atlarda

qayd etib borsak xalqimizning qadimiy urf-odatlariga, an'analariga nisbatan yuksak hurmat va e'tiborimiz namoyon etgan bo'lamiz.

NAVOIY AN'ANALARI UVAYSIIY MUXAMMASLARIDA

N. Shukurova, II bosqich magistranti (ToshDO'TAU)

Qo'qon adabiy muhitining eng gullagan, taraqqiy topgan davri Amir Umarxon taxtga o'tirgan vaqtdan boshlangan. Amiriy taxallusi bilan ijod qilgan Amir Umarxon o'zining siyosiy faoliyatidan tashqari adabiyot va san'at, ilm-fan rivojiga ham katta e'tibor bergan. Xonlik hududidagi barcha iqtidorli ijodkorlarni saroyga jamlab faol ijodiy jarayonni tashkil etdi. Hakimxon To'ra, Avazmuhammad Attor, Is'hoqxon To'ra, Mushrif, Mutrib, Mushrif, Fazliy Namangoniy, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin, Dilshodi Barno, Maxmin kabi ijodkorlar shular jumlasidandir. Ushbu adabiy jamoa o'zini turli yo'nalishlarda namoyon eta olgan. Ular tarixnavislik, tazkiranavislik, she'riyat, nasr, matbaa ishlarida yuksak natijalarga erishdilar. Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix", Avazmuhammad Attorning "Tuhfat ut-tavorix", Is'hoqxon To'raning "Tarixi Farg'ona", Fazliy Namangoniyning "Majmu' shoiron" tazkirasini, Mushrifning "Ansobus-salotin va tavorixi Xavoqin", Umarxonning taklifi va tashabbusi bilan yozilgan Gulxaniyning "Zarbulmasul" asari va yana ko'plab mumtoz adabiyotimiz namunalari milliy adabiyotimizning noyob durdonalari hisoblanadi.

Shu davrda qalam tebratgan Jahon Otin adabiy merosi o'ziga xos o'ringa ega. U g'azal, chiston, doston, muxammas kabi tur va janrlarda barakali ijod qilgan. Uvaysiy serqirra ijodkor hisoblanisa-da, ijodining katta qismini g'azallar tashkil etadi. Shoira she'riyatining g'oyaviy va badiiy qudrati, mavzular ko'lami, janrlar xilma-xilligidagi o'ziga xosliklar ko'pgina adabiyotshunoslar tomonidan ta'kidlanadi: "*Uvaysiy she'riyati- shakl, mazmun, obraz va tasvir yo'llari bilan ungacha yaratilgan Sharq adabiyoti ilg'or an'alariga qattiq tayangan, rivojlanish yo'llari shu adabiy zamindan kelib chiqqan she'riyat*",¹ deb ta'rif beradi Ibrohim Haqqul.

Darhaqiqat, shoira ijodida Sharq adabiyoti an'alariga sodiqlik bilan bir qatorda, davr muammolariga o'ziga xos yondashuv tamoyillarini ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan Uvaysiy she'riyati o'z zamondoshlari ijodidan ajralib turadi.

Shoira ijodini chuqur o'rganish XX asrlardan boshlandi. Cho'lpon², Oybek³, A.Qayumov⁴, E.Ibrohimova⁵, T.Jalolov⁶, I.Adizovalarning⁷ tadqiqot ishlari shu

¹ Haqqulov "Uvaysiy she'riyati", Toshkent, 1982-yil 120-bet

² Cho'lpon "Uvaysiy" T.:19295

muvzularda olib borilgan. Bu tadqiqotlarda ko'pincha shoira-ning lirikasi va biografiyasiga oid ma'lumotlar berilgan. Biz esa ushbu maqolamizda shoira-ning Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslariga to'xtalishni lozim topdik. Uvaysiy ijodiy izlanishlarining kamol topishida ungacha yaratilgan Hofiz Sheroziy, Mirzo Bedil, Fuzuliy, Navoiy kabi buyuk shoirlar ijodining ta'sir etgani shubhasiz. Biz buni shoira Navoiyning 9 g'azaliga, Fuzuliyning 3 g'azaliga, Amiriyning 5 g'azaliga muxammaslar yozganidan ham ko'rishimiz mumkin. Shoira-da, ayniqsa, Navoiy lirik merosiga muhabbat kuchli bo'lgan. Uvaysiy Navoiyini o'zining asosiy ustosi deb bilgan.

U Navoiyning oshiqona va falsafiy ruhdagi g'azallaridan ta'sirlangan, ilhomlangan, ijodida unga murojaat qilgan hamda ularga muxammaslar bog'lagan. Uvaysiyning muxammaslaridagi ohang, qofiya undagi mazmun Navoiy baytlariga uyg'un, bu ikki ijodkor o'rtasidagi ruhiy yaqinlikdan dalolat beradi. Muxammasni o'qir ekanmiz, beixtiyor ko'z o'ngimizda Navoiy baytiyati gavdalanadi. Masalan, Navoiy yozadi:

Ey ko'ngul, Farhod to'mo birla metin zaxmidin,

Dardi mehnat shiddatidin chashmi afgoring g'araz.

Uvaysiy bu fikrni chuqurlashtiradi, rivojlantiradi. Oshiq Farhodning mehnat va mashaqqatdan, sabr-qanoatdan maqsadi ishq edi. Uning murodi Ollohga ya'ni, ma'shuqaga yetishishdir. Uvaysiy esa faqatgina Farhod emas, Vomiq, Majnunlarning ham sahroni vatan tutganidan, chekkan azoblaridan maqsad shu edi, deb baytni to'ldiradi. Oshiqning umidi intiho-yo'qsizlik! U o'sha intiho uchun harakat qilayapti, uning umidi-umidsizlik, maqsad o'sha kunga yetish.

Intiho navmididin ummed etarmen zaxmidin,

Ayladi mafxum tabiiy Vomiq fahmidin,

Hech qilmas Majnuni sahronishin jon vahmidin,

Uvaysiy mahoratini birgina mana shu baytdagi javob muxammasida ham ko'rishimiz mumkin. "Shoira ustoziga to'g'ridan to'g'ri g'oyaviy izdoshlik qilgan, uning fikr-qarashlariga yangi obraz va poetik vositalar bilan boyitib, badiiy tahlilni kengaytirgan",⁸- deb yozadi I. Haqqulov.

Uvaysiy muxammaslarida faqatgina g'oyaviy izdoshlik qilibgina qolmay balki, o'z fikr-mulohazalarini ham bayon eta olgan. Navoiyning so'zdan foydalanish mahorati shoira fikrlarini rivojlantirish, tiniqlashtirishda ma'lum

⁸ Ulyok, Uvaysiy T.; 1955

¹ A. Qayumov. Qo'qon adabiy muhiti T.: 1961

² E. Ibrohimova Uvaysiy T., O'zfanakadnashr, 1963

³ Jalolov T. O'zbek shoirlari. T.: 1980

⁴ I. Adizova. Uvaysiy ijodida janrlar takomili. T.: Muharrir, 2011

⁵ Yuvoridagi asar, 127-bet

ma'noda zamin yaratadi. Navoiy "*Uy orazi nasrin, sochi sunbul, qand shamshod, Bulbul kibi hajringda ishim nola-u faryod*" mat'asi bilan boshlanadigan g'azalida ma'shuqaning jabr-u jafolari, sitamlaridan yurak bopiq qon bo'lganini ta'riflab, maqta'ni shunday yakunlaydi:

Ne ayb Navoiy kibi devonalig' etsa,

Har odami kim bo'lsa, uning yori parizod.

Maqta'da Navoiy butun g'azaldagi oshiq holatining azoblarini izohlab agar kimningdir yori shunchalar go'zal bo'lsa, uning devona bo'lishini tabiiy hol demoqchi. Endi xuddi ana shu baytga Uvaysiyning javobini o'qiyimiz:

Kim jur'ayi may ichmasa, mastonalig' etsa,

Bir chug'zdek obod aro vayronalig' etsa,

Vays egri qo'yib bugrini mardonalig' etsa,

Ne ayb, Navoiy kibi devonalig' etsa,

Har odami kim bo'lsa, uning yori parizod.

deb munosib ravishda javob qaytarganini ko'rishimiz mumkin. Umumiy olganda, shoira she'riyatidagi ohang, undagi joziba, ayol qalbigagina xos tuyg'ularning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Uvaysiy ijodiga yaqindan yondashish natijasida, uning katta hajmli ijodi she'r

olamining buyuk arbobi Alisher Navoiy ta'sirida kamol topgani va taraqqiy etganini ko'ramiz⁹. Navoiy ijodi cheksiz bir ummon. Har bir ijodkor o'z ijodida unga murojaat qilgan, shoir merosidan asarlarida ijodiy foydalangan. Masalan, g'azallariga juda ko'p shoirlar muxammaslar bog'lagan. Uvaysiy muxammaslari o'zining badiiy barkamolligi, badiiy tasvir vositalari va san'at turlarini qo'llay olish mahorati bilan ajralib turadi. Muhimi, o'z so'zini ustalik bilan aytgani sababli g'azaldagi mazmun baytlarga singishib ketgan, natijada uning qay bir satrni Navoiy, qay birini Uvaysiy yozganligini ajratish qiyin:

Otashga sazovor ekan kim senga maqrun,

Ozoringa ojiz kelibon holi digargun,

Bir boqmog'a mavquf necha qoni do'kulgun,

O'lukni kishi dafn eta olmas vale har kun,

Yuz tig' qilur dafn ko'zung bo'lg'oli jallod.

Uvaysiy - otashzabon shoira, ishq kuychisi. U qalb tug'yonlarini satrlarida to'ka olgan, dil fig'onlarini baralla ayta olgan, adolatsizlikka qarshi isyon qilgan betakror shoiradir:

Ey dilo, sen shikva qilma charxdan tengri o'zi,

Ishq eli mavtig'a zohir o'ldi ul qotil ko'zi,

⁹E. Ibrohimova Uvaysiy T., O'zfanakadnashr. 1963.54-bet

Qomading, mahvash xazon yafrog'idek Vaysiy yuzi

U Navoiy, umr borinda vafosizliq so'zi

Am bu so'z mazkur erur shaxdi shakarboring g'araz

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, hazrat Navoiy g'azallariga to'la ko'p ijodkorlar muxammas bog'laganlar. Lekin Uvaysiy o'zining tengsiz san'atdodi faqat ayol qalbigina his qilishga qodir inja tuyg'ularni satrlarda qo'llay olish mahorati bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Shuning uchun Uvaysiy qodir haqida so'z ketganda, faqat chiston yoki g'azallarning go'zal va betakror muhimmagini emas, balki taxmis muxammaslarni yarata olish mahoratiga ham alohida e'tibor berish baho bera olamiz.

ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВ – ЭССЕНАВИС

Д. Худоярова, II босқич магистранти (ТошДУТАУ)

Таниқли ўзбек ёзувчиси Шукур Холмирзаев насрнинг турли жанрлари билан бир қаторда, эссе жанрида ҳам самарали ижод қилган. Эссе жанрига мурожаат қилишининг сабабларини ёзувчи қуйидагича изоҳлайди: “Эссега мурожаат қилишимнинг боиси – феълимдан бўлса керак! болалиқдан эркинликни севардим. Эссе – эркин жанр, бундан ташқари, у агар таъбир жоиз бўлса, “размерсиз жанр”ки, кийим танлаганда бўйинга энингга ўлчаб ўтиргандай сиқилмайсан”¹⁰.

Эссе – (франс.– уриниш, синаш, очерк) эркин композицияли, унча сатти бўлмаган насрий асар. Эссе орқали нарс ва ҳодисаларга ёки шахсларга оид субъектив фикр баён қилинади. Эсселар фалсафий, тарихий биографик, публицистик, адабий-танқидий, илмий-оммабоп ёки соф баълетристик характерда бўлади. Эссе образлилиги ва жонли тилга келиши билан ажралиб туради [2]. Жаҳон халқларининг барча адабиётларида эссе жанрида ёзилган адабиётлар учрайди.

Мутахассислар эссенинг мустақил адабий жанр сифатида шаклланиши XVI асрга тўғри келади, деб ҳисоблайдилар ва буни француз адиби Мишел Монтен (1553-1592) фаолияти билан боғлайдилар [3]. Эссега хос хусусиятлар Шарқ адабиётида, хусусан, ўзбек адабиётида ҳам қадимдан мавжуд. Масалан, Алишер Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асаринда бу жанрнинг элементларини кўриш мумкин. Навоий бу асаринда ўз шарҳининг ҳаёти, кишиларнинг идеали ва ижтимоий табақалар тўғрисида батафсил тўхталлади. Шу жиҳатдан Навоийнинг мазкур асарини эссе жанрининг тарихий-публицистик турига киритиш мумкин. Ўзбек

¹⁰Шукур Холмирзаев асар тилида (1987-йилдан кейинги ижодида) нисбатан эркинлик услуби қўзғатилишини таъкидлаб ўтиш жоиз. Бунда адиб русча сўзлар, лаҳжа, шева, жаргон ибораларини билимчол қўллайди. Бу адабий тажрибани ўрганиб муайян хулосага келиш долзарб бўлиб турибди.

адабиётида эса XX асрнинг 70-80-йилларидан ҳозирги тушунчадаги эссе асарлари яратила бошланган.

Шукур Холмирзаев ижодида эссенинг турли йўналишларини кузатишимиз мумкин. Чунончи, адиб ижодида бадий, адабий-танқидий, тарихий, публицистик, хотиравий каби йўсинда ёзилган эсселарнинг намуналари кузатилади (“Йўллар айро тушди, аммо...”, “Бинафша хидланг, амаки!”, “Бу кишим – устоз, мен – шогирд” каби эсселар шулар жумласидандир).

Эссенинг муайян шахс фаолиятига бағишланган шакллари ҳам мавжуд бўлиб, бундай эссега Шукур Холмирзаевнинг “Тақдир башорати” номли эссеси мисол бўла олади. Ушбу эсседа Шукур Бурҳонов ҳақидаги фикр-мулоҳазалар илгари сурилади. Жумладан, адиб ёзади: “Унинг санъат соҳасига қизиқиши шу даражада кучли эдики, ҳатто отасининг дашномларига қарамасдан, яширинча сахнада кичик роллар ижро этарди. Ана шундай кунларнинг бирида устоз санъаткор Маннон Уйғур бошчилигидаги бир гуруҳ ёш санъаткорлар Москвадан қайта туриб Тошкентга тушдилар ва уларнинг кўпчилиги тошкентлик бўлганлари учун ўз уйларига тарқалишади. Маннон Уйғур билан Етим Бобожон ҳам соғинган шаҳарларини айланиб юриб, Роҳат боғчасидан келаётган сунрай,чилдирма садоларини эшитишади ва ўша томонга боришади. У ерда билим юрти ҳаваскорлари томоша кўрсатаётган бўлади. Икки ҳамфикр ўртоқ ўйин тугагач аста бориб, “полвонсифат, жингалак сочи” йигит, яъни Шукур Бурҳон билан суҳбатлашишади. Устозлар ундан бу ўйинга қанчалик қизиқишини сўраб суриштирадилар ва ўз сафларини таклиф қилишади. Шукур Бурҳоннинг санъат соҳасига кириб келиши шундай илиқ учрашувдан бошланади”.

Эсседа Шукур Бурҳоннинг портрети, ички олами, руҳияти характери, инсоний фазилатлари, санъат оламига муҳаббати ва садоқати шу даражада очиб берилганки, асарни ўқиётган ўқувчи буни ҳақиқатлигига шубҳа билан қарайди. Яни, қайси маънода, адиб шунчалик маҳорат билан худди бадий асардек образли тасвирланган ва бадий тасвир воситаларидан топқирлик билан фойдаланганки, ўқувчи уни тўқима образ деб ўйлайди. Аслида бу адибга хос маҳоратдир.

Ушбу эссени ёзувчи “ҳужжатли эссе” деб номлаган. Унда тарихий воқеаларга, жумладан, Шукур Бурҳоннинг санъатга кириб келиши адабиётнинг ноёб намуналари сахна юзини кўриши, Москва Бадий Академик театрида қардош халқлар олимпиадасининг очилиши, театри

“Химза” номининг бериши ва шу каби кўплаб қимматли маълумотлар юлтирилган.

Хуллас, эссе бадий адабиёт, публицистика ва илм-фаннинг кесинишвида пайдо бўлган жанрдир. Бунда публицист ўзи ёритаётган мавзунини яхши билиши, мавзуга атрофлича ёндашиши, шу билан биргаликда, бадий тил воситаларидан унумли фойдалана олиши талаб этилади. Эссе муайян шахсга бағишланган бўлиши ҳам ёки, аксинча, публицистнинг хотиралари асосидаги воқеалар бўлиши ҳам мумкин. Аммо эсседа очеркдан фарқли ўлароқ, айнан инсоннинг портрети ёки унинг характери очиқ беришга урғу берилмайди. Асосий ўринга муаллиф, эссе публицистнинг қахрамонга бўлган муносабати, фикр-мулоҳазалари ўрин эгаллайди.

Умуман, Шукур Холмирзаев эсселарини ўрганишда биз нафақат бир инсон ҳақида маълумотга эга бўламиз, балки тарих, адабиёт, тилшунослик, табиғатшунослик, манбашунослик, этимология, этнография, табиғатшунослик соҳаларига оид бўлган ноёб хазинага ҳам эга бўламиз десик адашмаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Холмирзаев Ш. Сайланма. 4- жилд. -Т.: Шарқ. 2007.
2. Қўчқорова М. Эссе – эркин ижод/“Ўзбекистон адабиёти ва санъати” жамғиаси, 2003-йил, 16-сон
3. Интернет маълумотлари. ZiyoNet.uz.

“LOLAZOR” ROMANIDA RAMZIYLIK

A. Hasanov, II bosqich magistrant(SamDU)

Istiqlol arafasida yaratilgan badiiyat namunalari o'ziga xos noanaviy talqinlar, hayot voqeligini ramzlar orqali ifodalash yuzaga chiqqanligini alohida qayd etish lozim. Shu bilan bir qatorda, palifonik talqin xususiyatlari ham yanaroq aks eta boshladi. Agarda she'riyatda 70-yillarda lirik kechinma, tuyg'ular ifodasi bo'yo ko'rsatgan bo'lsa, nasrda bu holatni bir oz keyinroq, yuzaga chiqqanligini kuzatish mumkin.

80 – yillarga kelib badiiy adabiyotda juda katta o'zgarishlar vujudga kela boshladi. Badiiyatdagi bunday o'zgarish noanaviy romanlarni yoki polifonik mavzu yetakchilik qiladigan badiiy asarlarni vujudga keltiradi. Ana shunday mavzu xususiyatiga ega bo'lgan asarlardan biri “Lolazor” romanidir. Roman haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Rahmon Qo'chqor shunday yozadi: “Aholida, bu qissa ishtirokchilarining hayoti ham bir shunday tovushsiz,

shippillab yonib, chogʻroq bir roʻzgʻorni yoritisa, bas edi. Ularning botiniy va zohiriy quvvatlari shunga yetar, undan ortigʻiga oʻzlari uzoq vaqt davomida qilmagan edilar. Albatta, umidlari, ilinjilari yoʻq emasdi – biri qishloqdagi obroʻli muallim, boshqasi Hotam Shoʻronikiga oʻxshamas kichikroq bir amaldari egasi boʻlarsa ham kifoya, deb oʻylashardi ” (1, 552 - bet).

Polifonik tasvirning ilk namunalari Asqad Muxtorning “Chinor” romanida uchratsak, XX asming soʻngi choragiga kelib, bu tasvir xususiyatini bir qator nasriy asarlar tarkibida kuztishimiz mumkin. Adabiyotshunos olimimiz Zulfiya Pardayeva “Oʻzbek romanlari poetikasi” nomli monografik tadqiqotida T. Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, M.M.Doʻstning “Lolazor”, Toʻxtamurod Rustamning “Kapalaklar oʻyini” romanlarini polifonik romanlar sifatida eʼtirof etadi va shu yuqutali nazardan tahlil qilishga harakat qiladi. “Lolazor” romanida yangicha tasvir usulining oʻziga xos qirralarini mahorat bilan roman sujetiga singdirgan. Roman syujetida oʻrin olgan obrazlar tizimi oʻziga xos xarakter xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Bunday xarakterning shakllanishida oʻsha ijtimoiy muhitning taʼsiri sezilarli darajada boʻladi. Ijtimoiy muhit Nazar Yaxshiboyev kabi siymolarning shakllanishiga xizmat qiladi. Nazar Yaxshiboyev, Oshno kabi shaxslarning ilk hayotidagi qadamlari ularning shunday shakllanishiga xizmat qildi. Sobiq shoʻrolar davridagi adolatsizliklar, qatlamlar, yakkahokimchilik kabi xususiyatlar bilan izohlash mumkin.

Asarda qayd qilingandek, Bulduruq qishlogʻining dohiysi Xotam Shoʻronik edi, uning asosiy maqsadlaridan biri qishloqning dongʻini olamga yoyish buning uchun esa savodli, ilmiy, mehr - shavqatli, sadoqatli shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab etar edi. Shu maqsadda qura tashlanganda Yaxshiboy choʻponning oʻgʻli va Kalonqul boʻyoqchining farzandlari oʻqishga boradigan boʻladi. Ana shunday xarakterdagi manologik xotira orqali oʻz oʻtmishiga nazar solar ekan, bolalikning begʻubor onlari, ilk shaharga qadam qoʻyishga sababli boʻlgan voqealar koʻz oʻngida qaytadan jonlanadi. Polifonik tasvirga asoslangan roman syujeti monologik nutqda oʻz aksini namoyon qiladi.

Polifonik tasvirning asosiy xarakteri xususiyatlari ham tasvir jarayonida koʻpavosillilik xususiyatining yetakchilik qilishi bilan izohlanadi. Bu tasvirni asosiy syujetidan oʻrin olgan Nazar Yaxshiboyev obrazi misolida koʻrish mumkin. Nazar Yaxshiboyev uch kunlik kasalxonada davolanar ekan, oʻz olamida hayotini, oʻtgan ulami sarxisob qiladi, amalga oshirgan ishlari – yu, yaxshilik va yamonliklari, hayotning murakkab qirralarini teranroq his etishga intiladi.

Roman syujetidan oʻrin olgan voqealar tizimida xotira manologi asosiy qahramonlarining ruhiy olamini ochishga xizmat qiladi. Masalan: “Oshna sekim

o'zini yuksalib, men ham uning ortidan imillab bo'lsada yo'lga tushganimda, goh uning iltifotiga, goh azobiga duchor bo'lib, gohida uni olqishlab, gohida tanalib yurganimda. Sezdimki, Oshno o'sha chandiq tarixini mening bahrokimsiz eslab qolgani tuzukroq. Unga mening voqifligimni bilgani ham og'ir botadi. Nachora, ulug' odamlarda ham anchayin latifanoma kechmishlar bo'lmoq'i mumkin, ayni kechmishlarning guvohlari tiliga pishiq bo'lsa, bas, ulug'likka zarracha putur yetmaydi" (2, 235-bet). Bu manologik nutqda Nazar Yasholiboyevning o'ziga xos xarakter qirralari emas, uning o'y – xayollari Oshnoning o'sha davrdagi o'ziga xos xislatlari haqidagi tushunchalarga ega bo'lamiz. Har qanday asarda ma'lum ma'noda monologik nutq shakllari kuzatiladi, ammo roman sujetida bu tasvir usuli etakchilik qilishini alohida qayd etmoq zarur. "Lolazor" romanida polifonik tasvirni yozuvchi yuksak darajaga ko'taru olgan.

Adabiyotlar:

1. R. Qo'chqor. Iskandaru Dorolardan qolgan latifa. Qarang: Murod Muhammad Do'st. Lolazor. Roman. – Toshkent, "Sharq", 1998 –yil. – 560 bet.
2. Murod Muhammad Do'st. Lolazor. Roman. – Toshkent, "Sharq", 1998 –yil. – 560 bet.
3. Murod Muhammad Do'st. "Lolazor" Roman. – Toshkent, "Sharq", 1998 –yil. – 560 bet.

А.ЮГНАКИЙНИНГ «ХИБАТУЛҲАҚОЙИҚ» ДОСТИНИДА ДИНИЙ-МАЪРИФИЙ ҒОЯЛАРБАДИЙ ТАЛҚИНИ

3. Қуданова, I босқич магистранти (НукусДПИ)

Умумтуркий мумтоз адабиёт, хусусан, ўзбек адабиёти тарихий таркомлида А.Югнакий ижоди мустаҳкам ўрин эгаллайди. Дидактик адабиётнинг юксак намунасини ярата олган буюк мутафаккир миллий маданиятни умуминсоний қадрият даражасига кўтаради. Айниқса, мўъжазгина «Хибатул ҳақойиқ» маърифий достони маданият тараққиётида ўзини хос қиймат касб этади. Асарда юксак инсонпарварлик ва шахс қамолоти масаласи теран бадий таҳлилланади. Меҳр-оқибат, виждон, диний ҳамда ҳалоллик фазилатларини улуғлаган шоир адабий талқинида қилиши шариф, «Қуръони Карим» маънавий таъсирини яққол сезиш мумкин. Унинг наздида, ислом дини – инсон руҳий маданияти гултожи. Шахс баркамоллигини шакллантиришда шариат аҳқомлари устувор моҳият касб этади. Шу маънода, санъаткор инсон борлигини безайдиган қислатлар тараннумида диний-маърифий қарашлардан унумли ҳамда

Ўринли фойдаланади. Асосан, ҳаётий тафсилотлардан нозик бадий умумлашмалар яратишга мойиллик шоир адабий маҳоратини кўрсатади.

Анинг бахшишиндин булут ўртанур,
Бу сўзни бутун, чин тутар тушмани¹.

Лавҳа Оллоҳ Таоло ҳамду саносига йўғрилган. Муаллиф ёрдамчи далиллар билан тасаввурни бўрттиради. Унинг иродасидан булут тасаввур уялади, Буни ҳатто душманлари ҳам тан олади. Мусаввирона тарзда жонлантирилган тафсилотда дидактика устувормоҳият касб этади. Эътиборли жиҳати шундаки, муаллиф реал чизгилар ёрдамида риндон ва содда, таъсирчан ва теран адабий усулда ўғит-насиҳат салмоқини оширишга муваффақ бўлади.

Маълумки, ҳар бир шоир «тўғридан-тўғри ҳаётдан инсонни кўчирмайди, балки унга ҳақиқатан ўхшаш қилиб, янги бир дунё яратиб қашф этади. Бошқача айтганда, ҳаётий ҳақиқатдан бадий ҳақиқат яратади; ҳаётий факт ва ҳодисаларни ўзининг руҳий лабораториясида «қайнатиши», ишлаши, синтезлаштириши, яъни тасаввури, хаёли, ортуси тажрибаси, қалби, табиати, дунёқарashi билан бойитган ва муайян гоя ва хизмат қилувчи характерли ва зарурий деталларни, факт ва ҳодисаларни танлаган ҳолда тугаллик касб этган (образли) бадий ҳаётни яратиб зарур; яратганда ҳам бу ҳаёт китобхон кўз ўнгида жонли ва реал, ишончли ва гўзал, таъсирчан ва яхлит бўлиб гавдаланиши шарт»². Шу маънода адабий гоя муайян дунёқараш мафқурасига таянади:

Ўқуш, аз теб аймас безизлар Тенгиз,
Булут ҳадя қилса ушақ қатрани.

Лавҳа билим-маърифат ўзликни англаш воситаси эканлиги, соғлом эътиқод илмдан бошланиши поэтик жиҳатдан тасдиқланган. Муаллиф маърифатпарварлик гояси талқинини айнан ҳадислар мазмунидан ахтаради. Унда инъикос топган диний-маърифий муҳокаманинг ўзини хослиги кузатилади.

«Ҳибат ул ҳақойик»нинг кириш қисми Амир Дод сипоҳсолорбекнинг мадҳига, китобнинг ёзилиш сабаби ва заруратига бағишланган. Асарнинг биринчи бўлими илм манфаати, жаҳолатнинг зарари ҳақида, иккинчи бўлим тилни тийиш ва адаб-ахлоқ ҳақида, учинчи бўлим дунёнинг ўзгариб туриши ҳақида, тўртинчи бўлим саховат ва бахиллик оқибати, бешинчи бўлим тавозелилик манфаати, кибрлилик ва ҳарисликнинг зарари ҳамда сўнгги бўлим ахлоқнинг қаромати, ҳарисликни

¹ Тўхлиев Б. Адабиёт. –Т.: Ўқитувчи, 2003. –Б. 155.

² Умунов Ҳ. Бадий ижод асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2001. –Б. 13.

romani haqida tўғrisidadir. Asardagi har bir bob nomining ulugʻ beki tўliq tarbiyaviy-maʼrifiy maqsadga йўналтирилганligini koʻrsatadi. Умуман, А.Югнакий ижодига диний-маʼрifiy раъз тўғрисида кўзга ташланади. Айниқса, эътиқод ва маслак тушуниқларини оқибатини очик тасвирланади.

ЕPIGRAFNING BADIЙ ASARDAGI VAZIFASI

(“Isyon va itoat” romani misolida)

G. Norboyeva, IV bosqich talabasi (SamDU)

Badiiy asar tarkibidan oʻrin olgan epigraf, oʻziga xos maʼlum bir badiiy asarni bajaradi. Shu jihatdan qaraydigan boʻlsak, isteʼdodli adib Abdulla Nabhomning koʻpgina asarlarida bu holatni kuzatish mumkin. Badiiy asarlar tarkibidan oʻrin olgan epigraf maʼlum bir gʻoyani ifodalashga xizmat qiladi. Buning uchun turli mavzu va xarakterdagi epigraflar keltiriladi. Adabiyotshunos T. Boboyev qayd qilganidek: “Epigraf qisqa, sodda, ammo aforistik ruhda boʻladi. U asar gʻoyasini ishonarli qilib ochishda muallifga qoʻl keladi. Epigraf oʻz yuzifasiga koʻra asar nomiga oʻxshab ketadi – ularning har ikkalasi ham asar gʻoyaviy-emotsanal ruh baxsh etadi, asar mavzusi va gʻoyasini koʻrsatishga koʻmak beradi” (1, 146-bet). Qayd qilinganidek, epigraf badiiy asarining mazmuniga yoki biror qismida ifodalanayotgan voqealar bilan uzviy bogʻliq boʻlishi, tabiiydir.

Keyingi davr romanchiligida oʻz uslibi bilan janr taraqqiyotiga sezilarli hissa qoʻshayotgan isteʼdodli ijodkorlardan biri Ulugʻbek Hamdamdir. Yozuvchining “Isyon va itoat” romani turfa xil adabiy-tanqidiy mulohazalarga koʻri boʻlgan asarlardan biridir. Romanda inson xarakteri, botiniy olamidagi tabiiyatlar teran talqin etilganligi bilan ham badiiy yuksak asarlardan biri ekanligi asoslandi. Asarda olam va odamning uzviy birligi orqali, inson tabiiyatidagi oʻzgarishlarni, xarakterida mujassamlashgan turfa xil oʻziga xosliklarni talqin etadi.

Adabiyotshunos olim D. Quronov alohida qayd qilib oʻtganidek: “U. Hamdam “Muvozanat”da toʻxtab qolgani yoʻq-izlanayapti va shu izlanishlari natijasi oʻlaroq “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” romanlari yozildi. Muhimi yozuvchining izlanishlarida izchillik va dadillik kuzatiladi: u izlanish yoʻlida “ortidagi koʻpiriklarni buzib bormoqda. “Muvozanat”da realistik tasvir tamoyillari “Isyon va itoatda” ramziy-majoziy talqin, “Sabo va Samandar”da lirik-romantik yondashuv bilan ramziy-majoziylikning uygʻunlashuvi kuzatilayotgani shunday oʻylashga asos beradi” (2, 251-252-betlar).

Yozuvchining har bir romani o'ziga xos badiiyati bilan kitobxonni o'ziga jalb etayotganligi bejiz emasligini alohida ta'kidlash lozim. "Isyon va itoat" romanidagi tasvirlar, o'zligini anglashga intilayotgan shaxs fojealarini teran talqin etadi. Asardagi kompozitsion vositalarning o'rinli ifodalanishi badiiy g'oyani yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, turfa xil xarakterlarni yoritishga mos bo'lgan. "Kompozitsiya-asarda ijodkor diqqat markazining yaqqolliigi, badiiy g'oyaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi katta va kichik qismlar hamda obrazlarning joy-joyiga qo'yilishi va ularning tasvir me'yori va maqsadiga muvofiqligidir"(2, 265-bet).

Darhaqiqat, asardagi kompozitsion vositalarning o'rinli ifodalanishi badiiy yaxlitlikni yuzaga chiqaradi va asar g'oyasini namoyon qiladi.

Roman tarkibidan bir necha kompozitsion vositalar o'rin olganligini kuzatish mumkin. Romandagi epigrafga e'tiborimizni qarataylik: "Xudo bo'lmaganingdan keyin ko'rgan kuning nima bo'lardi?! (Xalqdan)", "O'ziga taqdir etilgan qismatdan voz kechishga tayyor birdan-bir mavjudot bu insondir"(A. Kamyu), "Ichingdagi isyonidan qutilib, itoatga kelmaguningecha halovat topolmaysan..." (Muqaddas o'gitlardan).

Yuqorida qayd qilingan epigraflarning har uchulasi ham badiiy g'oyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Taqdiri azal hukmidan asar qahramoni Akbar qochib qutila olmadi. Shafqatsiz hayot, o'sha ijtimoiy muhit uning jinoyatchi sifatida jazoladi. Vaqt o'tishi bilan achchiq qismat uni isyon natijasi etakladi. Akbar qalbidagi isyonning vujudga kelishiga o'sha muhit, insondagi shafqatsizlik sababchi ekanligini ko'ramiz. Haqiqat uchun kurashib haqsizlikning qurboniga aylanishni u o'z jismiga singdra olmaydi. Ana shu haqsizlik undagi isyonni avj olishiga sabab bo'ladi. Akbar qalbidan kechayotgan ziddiyatlar bilan kurashadi. Bu kurash esa uni o'z komiga tortib boradi. Endigina o'ttiz bahorni qarshilash arafasida, o'z hayotini ostun-ustun bo'lib ketishini u hech qachon kutmagan edi. Hayot va insonlar o'rtasidagi ziddiyatlar uni shafqatsizlik sari eltardi. Qalb qo'ridagi mehrini bir vaqtlar o'quvchilari uchun sarf etardi, endi esa hayotdan, insonlardan mehr kutmas, aksincha shafqatsizlik sari qadam tashlashga majbur bo'lar edi. Uning o'y-xayollaridagi ziddiyatlar isyonning kurtak olishiga sabab bo'lardi. "Hayot qiziq ekan... yo'q... shafqatsiz ekan... Mening ham yuragim tobora toshga aylanib borayotganga o'xshaydi. Bor-yo'g'i bir tarsaki qo'yib, qamalib qolluvdim. Endi esa kunda bo'lmasada, haftada yo'q deganda bir tashlashaman, goh raqibimni men, goh raqibim meni qonga bo'yaydi. Biroq eng yomoni-men insonga qarshi bemalol, hech tap tortmay qo'l ko'tarayapman" (3, 4-bet). Epigrafda keltirilgan tushunchalar bilan asardan kelib chiqqadigan mulohazalar o'rtasidagi dialektik

aloqani kuzatamiz. Hatto u tushlarida ham adolatsizlik bilan kurashar, ammo aslida juda kech bo'lganligini anglasa-da, adolat qaror topishiga ishonardi. Kunlar o'tilgan haftalar, undan keyin esa oylar o'tib borardi. Vaqt oliy hakam tomonidan deganlaridek, uni u hech narsaga ishonmas, taqdiri azal hukmiga bo'ysinishga qoqilmir ekanligini his etsa-da, "Yo'q, yo'q, yo'q!.. Axir bu shafqatsizlik, axir bu adolatsizlik, axir bu noinsoflik, axir bu...",- deya istirob chekardi. Bu o'rinlarda inson ruhiyatidagi ziddiyatlar teran talqin etilishi bilan birgalikda, uning qalbidagi isyonni, ya'ni adolatsizlikka, shafqatsizlikka qarshi tuyg'ularni shakllantirib ulgurgan edi.

Shu o'rida, jahon adabiyotining yirik vakillaridan biri Alber Kamyuning fikrlarini qayd qilib o'tishni lozim topdik: "Kimki o'zi muhabbat qo'ygan jami narsadan, garchi orzusi hech qachon amalga oshmasligini bilib turib, shu yo'lda o'zini qurbon bo'lishga tayyor his etmagan bo'lsa, unga isyon va uning tiyiqsiz nafati tushunarsiz bo'lib qolavervdi. Mohiyat esa hamisha ham yuz bo'lmaydi - u ma'lum bir tushunchaga hech qachon sig'maydi".

Akbar qalbidagi istiroblar, ziddiyatlar, ya'ni undagi isyon botiniy olamidagi kurashni asosli tarzda yuzaga chiqaradi. "U o'ylanardi, o'ylanardid-da, o'ziga-o'zi" "nega, nega?" deya savol beraverardi. Negaligini bilmasmidi?.. Ular edi, bilardi-da, haddidan oshgan, haddidan oshgani nimasi, insonlik qiyofasini yo'qotib, o'z o'quvchisini hammaning oldida haqorat qilishga bolingan o'quvchini yaxshi gap bilan tartibga chaqirishga urinib, lekin urinishlari behuda ketganidan ta'sirlanib..." (2, 5-bet). Bu voqealarni qayta-qayta xayolida jonlantirar ekan, umidlari tabora sarobga aylansa-da, uning qalbidagi isyon so'nmas edi. Qalbidagi kechayotgan tizginsiz kurashlar natijasiz ekanligini, ozodlik faqat ma'lum muddat orzu bo'lib qolayotganligini teranroq tushunaymiz: "-Yana uyqung qochdimi, deyman. Ishqilib, avf berishsin, yo'qsa, bu holatda o'zingni yeb bitirasan, sen bo'la,- hamxonasi boshqa tomonga o'girilib qoldi..." (3, 5-bet). Asardagi bu satrlar inson qismatini, taqdiri azaldan qutilib bo'lmashligini, ammo adolatsizlikning qurboniga aylangan Akbarda isyonning qurudga kelishiga asos bo'lgan.

"Ichingdagi isyondan qutulib, itoatga kelmaguningcha halovat topolmaysan..." epigrafi asardagi voqealar bilan uzviylikni, aforistik mazmuni bilan roman mohiyatini ochishga xizmat qilganligini alohida qayd qilish lozimdir. Asar mohiyatini ochish bilan birgalikda, Akbar ruhiyatidagi ziddiyatlarni yanada teranroq anglashga imkon yaratadi. Akbarda barcha insoniy fazilatlar mujassamdek ko'rinadi, ammo uning o'ziga xos fojeasi ham borki, bu holatni voqealar rivoji namoyon qiladi. Akbar qalbidan o'rin olgan isyon yillar o'tib itoatga aylanadi. Yoki kitobxonda isyondan itoatgami, yoki aksincha,

itoatdan isyongami,-degan mulohaza uyg'onadi. Ana shu o'rinda Akbarni hayt haqidagi qarashlari, falsafiy mulohazalari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Badiiy asarda keltirilgan epigraf yozuvchi mulohazalarini ifodalash bilan undan kelib chiqadigan badiiy asar mohiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Badiiy unsur sifatida qayd etilgan epigraf asar mohiyatini anglashga, unda ilgari surilayotgan tushunchalar ifodasini anglash imkonini beradi. Roman tarkibidan o'rin olgan epigraflarda odamni, olamni, inson tafakkuridagi o'zgarishlarni yanada jiddiyoq his etishga turfa xil xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. -Toshkent, "O'zbekiston" 2002. -560 bet.
2. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari (adabiy-tanqidiy maqolalar va risolalar). -Toshkent, "Akademnashr" 2013. -336 b.
3. Hamdam U. Isyon va itoat. Roman.-Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2003.-140 b.

FRANS KAFKA IJODI VA JAHON ROMANCHILIK TARAQQIYOTI HAQIDA

M. Normamatov, IV bosqich talabasi (SamDCHTI)

Jahon badiiyatiga juda ulkan hissa qo'shgan adiblardan biri Frans Kafkadir. Adibning hayoti bir qarashda juda oddiydek tuyuladi. U bor yo'g'i 41 yosh umr ko'rgan. 1883-yilda Avstriya imperiyasining Chexiya hududidagi Praga shahrida, yahudiy oilasida dunyoga keladi. Otasi o'rta hol fabrikachi bo'lgan, onasi esa ahli kitob hisoblanmish yahudiy dindorlari Robbinlar sulolasi vakilasi hisoblangan. Frans Kafka Piragadagi nemis gemnaziyasida, 18-21 yoshida huquqshunoslik bo'yicha ta'lim oladi. Shundan so'ng ikki yil shahar sudi qonundagi advokatlar idorasida ishlaydi. 1908-yildan boshlab yarim davlat idorasi hisoblangan ilmiy chiqishlarda jarohatlanganlarni sug'urta qilish tashkilotiga ishga o'tadi. U 1922-yilda shu joydan nafaqaga chiqadi. 1924-yilda Vena yaqinidagi Kirling sanatoriyasida sil kasalligidan vafot etadi.

Frans Kafka hayotini, uni yashovchanligini ta'minlovchi vosita uning ma'naviy merosidir. Adib asarlarida adib shaxsi, qismati haqqoniy ochib tashlangan. Bu esa kitobxonni o'yga toldiradi, iztirobga solidi, aksinchu shijoatlantiradi, fikrlashga, xulosalar chiqarishga, mushohada yuritishga undaydi. U hayotda va ijodda o'z hayotiga o'ta shafqatsiz bo'lgan adiblardan biri sifatida e'tirof etiladi. Shuning uchun Kafka ijodi haqida so'z yuritgan Vafo Fayzullo

"Olamga xat" – essesi – g'azabnoma – munojati", - deb e'tirof etadi. Chingiz Aytmatovning tasviridagi qaqrab yotgan cho'lu-biyobon, soylikdan rizq izlab kelgan tulki tasviri bilan boshlanuvchi asari ko'z o'ngimizda jonlanadi: "Tulki omminni larzaga solib, dahshat ichra uchib kelayotgan zil-zanbil vagonlarning mo'jizaviy qudratini o'zining butun vujudi, hatto qobirg'alari bilan titrab-qaltrigancha sezib yotardi, har nechuk qo'rquv va begona hidlardan behuzur to'lishiga qaramasdan, chuqurlikdan chiqmay kech kirib, temir yo'l yoqasining turoz tinchishini kutib yotgan edi, u" (1,10-bet).

Nima uchun dardsiz, qalbsiz jonzotga murojaat qilinmoqda?! Shuning uchun ham inson qismati, taqdiri, kecha, bugun, ertasi, uning sukunati bejiz amusdir: "Sukunat – olam va odamni idrok etish uchun Haq tomonidan ato etilgan mo'jiza! Mo'jiza – bu sir, bu hilqat, shafolat va hayrat! Hayrat esa ko'ngil ko'zini ochuvchi ilohiy tushuncha!"

Yuqorida biz qayd qilgan "tulki" vositasida olingan odamzodning tobora tabiiylikni quvg'in qilayotgan texnika asri va shovqinidan taajjubi va hayratini ko'z o'ngimizda jonlantiradi.

Darhaqiqat, Gyoti qayd qilganidek, "Har kuni yashash uchun kurashga chiqmagan inson sevish va yashashga loyiq emas", - degan fikrlari ko'z o'ngimizda qayta jonlanadi. Dunyoda kimning toleyiga nima bitgan. Xuddi shunday – kishining toleyiga nima. Hammavaqt shunday. Hech kim bundan qochib qutilolmaydi... toliyini kutib tiriklikning kunlari keladi ketadi. Oxirgi kungacha kutasan, oxirgi soatgacha... Hamma vaqt, har qanday davrda qismat shunday bo'ladi.

Bu tushunchalarni keltirishimizga asosiy sabab ham, Frans Kafka "Olamga xat" essesinde o'z hayotini shafqatsizlarcha tahlil qildi. Asarda o'zini qo'rqqoq, noshud, jur'atsiz bo'lib qolganligining sabablarini izlasa-da, o'ta ziyrak, temir, mard, jur'atli fikrlari asosida yoshligini xotirlashga, sarhisoblashga qisqasi o'zini taftish qilishga intiladi.

Kafka tinimsiz yozishga intiladi, ammo hayot, turmush tarzi bunga imkon bermas edi. Adib zulmat, tun nimaligini anglash, farqlash, his etish uchun ijod etdi. "... qorong'ulik timsolidagi jaholat, nodonlik, tajovvuz, qotillik nimaligini kuzatib, tahlil qilib, muqoyasa etib, uning nimadan tug'ilishi, nimadan suv ichib, yoyrab-yashnab, oydinliklarga tinchlik bermasligini o'zi anglab olmoqchi, bilmocqchi edi (2,275-bet).

Frans Kafka ijodidan o'rin olgan asarlar yozuvchining badiiy tafakkuri g'oyatda g'ayritabiiy ekanligidan dalolat beradi. Adib hayotga shafqatsiz yondoshadi, tasavvurimizdagi hayotga munosabat bildirar ekan, qahramonlar hayotiga qiziqib o'rganib qolasiz. Aftidan kimdir Yozef K.ga tuhmat qilgan

chog'i, birovg'a yomonlik qilmagan, biron bir nojo'ya ish sodir etmaganiga qaramay, uni hibsg'a olishadi" (3,17-bet). Bu tasvirdan, albatta, kitobning hayratga tushadi. Nima uchun degan hayqiriq otilib keladi??!

Yozef K. hamisha kutilmagan vaziyatlarda osongina moslashmoqqa urinar, ish chatoqligiga iqrор bo'lganda ham, xotirjamligini yo'qotmas o'ylamay, shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdi. Hayotning qay darajada murakabligini teranroq his etishga intiladi, o'z xayollari orqali voqelikni tahlil etishga intiladi. Ammo tez orada nazoratchiga ishini "xatimlab" qo'ysa ham bo'lar, - deganda: - Siz bor-yo'g'i hibsg'a olindingiz, xolos, boshqa hech narsa yuz bergani yo'q", - deb hech ikkilanmasdan javob beradi.

Shundan so'ng, Yozef K. uy bekasi frau Grubax bilan bo'lib o'tgan suhbat orqali voqealar silsilasiga "bir oz yorug'lik" tushadi: "To'g'ri, siz hibsg'a olgansiz, ammo bu boshqacha, uni o'g'rilar qo'lga tushirilib, qamalishiga hech ham solishtirib bo'lmaydi. O'g'rilar qo'lga tushdimi, bu yog'iga ular biron-bir omonlik kutishmasa ham bo'ladi. Tamom ishlarning pachavasi chiqqani shu, biroq sizning qamoqqa olinishingiz esa... nima desam ekan, unda qandaydir hikmat borday. To'g'ri, men bunaqa narsalarga kam tushunaman, biroq meningcha buni tushunish uchun ko'p narsa kera ham emas" (3,36-bet).

Yozef K.ning sababsiz hibsg'a olinishi ham bejiz emas. Asar qahramoni nazarida har bir kishi hibsg'a tushishi ehtimoli bor, o'sha shaxs shunga loyiq gunoh qilganmi - yo'qmi buni izohlashga hojat yo'q.

XX asming ulkan faylasuflaridan Erix Fromi "Yozef K.ning hibsg'a olinishini ramziy ma'noda "Tuhmat qilish" deb talqin etadi. Ya'ni Yozef K. jisman emas, fikran to'xtatib qolindi. U endi hayotiy jarayondan mosuvod. Aslida ham u o'ta ketgan diqqinafas hayot kechirayotgan edi - kunlari tuzatib befoy- nomigagina yotib turishlar, nomigagina yashash va ishlash tarzidan bezgan edi: "Bundan o'n kun oldin hibsg'a olindim, bu ma'lumotning o'zi men uchun kulgili tuyuladi, ammo hozir so'z bu haqida emas. Erta tongda xalq hali joyimdan turmasimdanoq, menga daxl qilishib qo'lga olishdi, ehtimol bu sud tergovchisining buyrug'iga ko'ra bo'lgandir," - degan xayollar girdobida qoladi. Kunlarning birida Uozef K. Fabrikant bilan bo'lgan suhbatda, Titorellidan uning sud qilinayotganligini eshitganligini aytadi. Aslida rassom Titorelli haqidagi fabrikant fikrlariga diqqat qilaylik: "O'ylab qoldim: ehtimol tasodidan Titorellining sizga bergan - bir foydasi tegib qolar, axir u ko'pgina sud hakamlarini taniydi, mayli uning o'zi bir tiyinli ta'sirga ega bo'lmasa ham, balki shunga so'zi o'tadigan amaldorning qanday qo'lidan tutsa bo'ladi, shu xususda bir maslahat berar. Fikri ongimizga, ehtimol bu yo'l - yo'riqlar, o'z-o'zicha hech bir ahamiyatga ega emasday ko'ringani bilan sizga asqotib qolishi

mumkin... Siz balki, buni Titorellisiz ham uddalasa bo'ladl, deyishingiz mumkin, unda yaxshisi, bu tomonini o'ylagan ma'qul. Ehtimol, belgilab olgan rejalaringiz bo'lib, Titorelli uni faqat buzib qo'yishi mumkindir? Yo'q, yo'q, bunaqa bo'ladigan bo'lsa, har qanaqa voqea yuz bermasin, Titorellining oldiga boshingiz ham kerak emas. Albatta, bunaqa nusaxlarning maslahatini ham bir qur o'ylab ko'rmasdan, yengil-yelpi qabul qilib bo'lmaydi. Shunga qaramay, mmm xohlaysiz, o'zingiz bilasiz. Mana tashrif qog'ozi, mana yashash manzili" (1,163-164-betlar). Asar voqealari silsilasidan Yozev K. boshini urmagan, najot yordam so'ramagan odami qolmadi, ammo juda ko'pchilik uning omdikulini oson qilmoqqa chog'landi, yordam qo'lini cho'zgandek bo'ldi, biror kimsa unga amalda, ya'ni hayotda yordam berishni istamadi. Shu o'rinda inson - o'z taqdiri, qismati oldida yolg'izdir, - degan tushunchaga urg'u berishga majbur bo'lasiz. Adib ijodi, nafaqat, o'zbek kitobxonini balki, insoniy fazilatga ega bo'lgan shaxslarni fikrlashga, mulohaza yuritishga undaydi.

Adabiyotlar:

1.Ch.Aytmatov. Asrga tatigulik kun; Qiyomat. Romanlar. Rus tilidan A.Rashidov, I.G'afurov tarjimasl. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-yil, -560 b.

2.Vafo Fayzulloh. Harakatdagi "Jarayon" qismati. Qarang: Frans balki. Jarayon. Roman. - T.: 2006. - 270-285-betlar.

3.Farns Kafka. Jarayon. Roman. - T.: 2006, - 288 bet.

ABDULLA QAHHOR VA ANTON CHEXOV HIKOYALARIDAGI SHAKLIY-USLUBIY O'XSHASHLIKLAR

F. Norimboyeva, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Adabiyot - harakatda. U yillar davomida sayqallanib, boyib, to'lishib boradi va yillar davomida o'zgaradi. An'ana va novatorlik ham ana shu yillar davomida mavjudga keladi. Chinakam adabiyot esa yillar davomidagi o'zgarishga qaramasdan o'zining qimmatl va ahamiyatini yo'qotmagan adabiyotdir.

Ustozimiz Ulug'bek Hamdamning "Fikr havoda harakatlanadi",- degan fikrlari menga g'alat tuyulgandi. Endi bunga amin bo'ldim. Abdulla Qahhor va Anton Chexov fikrlari o'rtasida ana shunday "havoda harakatlanadigan fikr" muvofiqsibliqi mavjud.

Abdulla Qahhor hikoyalarida soddalik, ravonlik, ixchamlilik birinchi o'rinda tondigan metod hisoblanadi. Lekin shakldagi soddalik va ixchamlilik mazmundagi izchillik va mukammallikka putur yetkazmaydi. Abdulla Qahhor

hayotiga makr-hiyla qo'shilmagan, ijodiga soxta ko'tarinkilik aralashmagan haqqoniy ijodkordir.

Abdulla Qahhor hikoyalariga tanlangan epigraflar ham butun hikoyaning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, "Anor" hikoyasining "Uylar to'la non, och-nahorim, bolam, Ariqlar to'la suv, tashnai zorim, bolam", "Be'mor" hikoyasining "Osmon yiroq, yer qattiq", "O'g'ri" hikoyasining "Oting o'limi, itning bayrami", "O'jar" hikoyasining "Ul tuta ot quyrug'indim", "bo'l uzun soch" deb qo'ya, "Tek nega boshda tugul?" Tanqidga muhtoj deb qo'ya, "Bashorat" hikoyasining "Ola qarg'a qag' etadi, O'z vaqtini chop etadi" epigraflarini ko'rish mumkin.

Adibning "Be'mor" hikoyasi ixchamlikni yorqin namunasidir. 374 dona so'zdan iborat ushbu hikoya butun bir davr, o'sha davrda yashagan insonlar, ularning hayoti, turmush tarzi, yashash sharoiti, o'y-hayollari haqida to'liq ma'lumot bera oladi. Birgina "shifoxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning suvrati solingan 25 so'mlik pul kelar edi", "Be'mor kundan-kunga battar bo'lib, oxiri o'sal bo'ldi. "Ko'ngilga armon bo'lmasin" deb, "chilyosin" ham qildirishga to'g'ri keldi", "Sotiboldi to'qigan savatlarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko'tardi"¹¹ degan jummalarda davr mashaqqati-yu odamlar hayotining naqadar og'ir ahvolda ekanini ko'rishimiz mumkin. Hikoyadagi epizodik obrazi Abdug'aniboy nutqlari orqali odamlarning xudbinligi, ikkiyuzlamachiligi tasvirlangan. Hikoyada o'zdek oilasi, oiladagi er-xotin munosabati, erning xotinga sadoqati, onaning farzandga muhabbati, qo'shnichilik munosabatlari ham o'z ifodasini topgan.

"Anor" Abdulla Qahhor ijodining eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Bu hikoyada ham davr muhiti tasvirlangan. "...Bir qadoq anor falon pul bo'lsa Saharmardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib bir oyda oladiganim o'tni sakkiz tanga pul. Akam bo'lmasa, ukam bo'lmasa..." yoki "...Nainki men avval olsam. Asal o'tliqqa yo'q, hali biz piyoda-ku!", "Har narsaga ro'zg'or achchiq bo'la bersa... qiyinroq bo'lar. kambag'alchilik qursin"¹² degan jummalarda butun hikoyadagi davr mashaqqatini aks ettirgan.

Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasi orqali ham iqtisodiy, ham madaniy, ham ijtimoiy jihatdan tanazzulga yuz tutgan mamlakatining ahvolini, haqsiz-huquqsiz o'z qobig'iga o'ralib yashayotgan, befarqlik va nohaqlikka ko'nikkan, nima uchun va qanday ahvolda yashayotganligini bilmay qo'yan odamlar hayotini yaqqol tasvirlagan. Jamiyatdagi nohaqlik va poraxo'rlik uning yuragini ezgan. Adib o'ziga xos nozik tuyg'u bilan poraxo'rlikdek dahshatli illatni tag-tonuti

¹¹Abdulla Qahhor "Anor" qissa hikoyalar to'plami, G'ulom nashriyoti, T:2016 74-bet

¹²Abdulla Qahhor "Anor" qissa va hikoyalar to'plami G'ulom nashriyoti, T:2016 78-bet

bilin yo'qotish istagida bo'lgan. Birgina "... Bu bir hafta kampir "duoning zo'ri bilin qulf ochadigan" azoyimxonga obdasta-gardon qildirgani qaynatib yarim qop jiyda, uch yelpish tovoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi. Ish chiqmadi"¹³ kabi jumalalarda ko'rishimiz mumkin.

Rus xalqining o'zini tanishini tezlashtirgan san'atkorlardan biri Anton Pavlovich Chexov edi. Aytaylik, Chexov nigohida "butun Rossiya — qandaydir mumsik, dangasa, meshchan odamlar mamlakati" o'laroq ko'ringan bo'lsa, huning sira ajablanarli joyi yo'q. Ijtimoiy, axloqiy, madaniy va ma'rifiy taraqqulga yo'liqqan mamlakatining ahvolini boshqalardan ko'ra u teranroq anglagan. Unga chin dildan kuyinib, el boshiga yog'ilgan biri biridan mash'um kulft-u hasratlarga o'zicha chora izlagan. Yurtiga, eliga muhabbati — eng ayvulo, Chexovning ular haqida yolg'on gapirmagani, bir jumla bo'lsin, yolg'on yozmaganida. Shuning uchun uning "panjasiga panja urmoq" nihoyatda qiyin! Chexov aynan ixcham shaklda qanday yozish va jonli xarakter yaratish san'atini namoyish eta olgan. Chexovdagi botiniy madaniyat, til va dil birligi, muhadadagi tiniqlik, tug'ma kamtarlik va xokisorlik, uyat va hayo hissining balandligi — bularni sanab sanog'iga, aytib adog'iga yetib bo'lmaydi. Chexov dunyodan axtarganini siyratidan topgan, ammo topganini biror bandaga sozdirmagan!¹⁴

Chexov o'zbek adabiyotida realistik hikoya janrining maydonga kelishi va Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor hikoyanavislik ijodining shakllanishida Chexov an'analari ham muayyan omil bo'lib xizmat qilgan.¹⁵

Chexov "Sprafka" hikoyasi orqali jamiyatning eng og'riqli nuqtasi bo'lgan porxo'rlikni, uning "karomatlari"ni ifodalab bergan. Birgina ushbu misol orqali chirkin illatlarni ko'rishimiz mumkin. "... U stoldan uzoqlashib, xonaning o'tasiga bordi, umidini uzib qo'llarini yoniga tashladi-da to'xtadi. Yana talantlarini ko'tarib o'tayotgan shveysar uning avzoyini ko'rdi-da yaqin kelib:

- 1. Qani, nima bo'ldi? So'radingizmi?- dedi.
- 2. So'radim, ammo men bilan gaplashgisi kelmayapti.
- 3. Siz unga uch so'm berib ko'ring, - deb shivirladi shveysar.
- 4. Men ikki so'm berdim.
- 5. Siz yana bering."¹⁶

"Semiz va oriq" hikoyasi orqali Chexov odamlarning ikkiyuzlamachiligi, yuqinlariga ham manfaat nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lishi, o'zidan mansabi yuqori kishi oldida laganbardorlik qilishi kabi masalalarga to'xtalib

¹³ Abdulla Qahhor "Anor" qissa va hikoyalar to'plami G'. G'ulom nashriyoti, T: 2016 80-bet

¹⁴ Haqqul "Hayot san'atkori" maqolasi

¹⁵ Haqqul "Hayot san'atkori" maqolasi

¹⁶ A. P. Chexov "Tanlangan asarlar" 3 tomlik, I tom. T: 1957, 11-bet

o'tadi. Oriq semizning mansabini eshitib, unga bo'lgan munosabatining birdaniga o'zgarishi shundoq bilinib turadi; "... - Men, janobi oliylari... Kana yaxshi!.. Bolaligingdan beri do'st bo'lib yurgan kishing shunday martabaga yetsa! Hi-hi!"¹⁷ Hikoyadagi oriqlarning semizga "Janoblarning nazari marhamatlari" uning uchun "go'yoki obi hayot" ekanligi, xotini va o'g'li bilan bir darajada ko'rish kabi mulozamatlari laganbardorlikning bir belgisidir.

"Orden" hikoyasi ham Chexovning boshqa hikoyalari kabi ijtimoiy ruluqda hikoya hisoblanadi. Bu hikoya orqali adib jamiyatdagi notentib mansabparastlik illatlarini qoralaydi. Hikoyada agar kishining ordeni bo'lmasa u hech kim ekanligi, kishiga ordeniga qarab munosabatda bo'lish kabi muammolar o'z ifodasini topgan. Birgina manashu jumla orqali ham buga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Bugun savdogar Spichkinnikiga ziyofatga bormoqchiman. U ablahni o'zing yaxshi bilasan, ordenni juga yaxshi ko'radu, agar bo'ynida yoki ko'kragida biror narsa osilib turmagan odamni ablah deyishdan ham toymaydi".¹⁸

Abdulla Qahhor Chexov ijodini puxta o'rgangan, uning asarlarini mahorat bilan tarjimalashtirgan. Unga yuqori baho bergan. Hatto Chexovni "hozir bizda chexovchilik boshlanayotir" deya e'tirof etgan.

Abdulla Qahhor va Anton Chexov hikoyalardagi o'xshashliklar:

- Ikkalasi ham millatining asl farzandi, adabiyotning chinakam yulduzi va haqiqat himoyachisi bo'lgan;
- Hikoyalari deyarli ijtimoiylikka yo'naltirilgan, gumanizmga asoslangan;
- Haqiqatni ko'ra olgan va unga tik boqqan, hamisha haqiqat uchun kurashgan, uni mardonavor himoya qilgan, haqiqat yo'lida hech narsadan qo'rqmagan;
- Soddalik va ixchamlik orqali mazmun samaradorligiga erishgan;
- Ular hayotdan odamga emas, balki odamdan voqelikka o'tgan ijodkorlardir;
- hikoyalarda so'z isrofgarchiligiga yo'l qo'ymaganlar;
- Adiblarning impressionistlarga o'xshagan o'ziga xos formalari bor... xudbi har bir to'g'ri kelgan va bir-biriga aloqasi bo'lmagan bo'yoqlarni farq qilmasdan ishlatganga o'xshaydi, ammo bu bo'yoqlardan ajoyib bir manzara vujudga kelganini ko'ramiz.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor va Anton Chexov yozuvchi sifatida ona tilini nozik his etuvchi va uning boy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanuvchi qalamkashlardir. Ular hikoyalarda tildan foydalanish va o'z

¹⁷A.P.Chexov "Tanlangan hikoyalar" T:2012 27-bet

¹⁸A.P.Chexov "Tanlangan asarlar" I tom. T: 1957, 20-bet

¹⁹I.Haqqul "Hayot san'afkori" maqolasi

tilning imkoniyatlarini namoyish etishning ajoyib namunalari berdi va o'z usuli bilan adabiy tilning kamol topishiga ukkan hissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.P.Chexov "Tanlangan asarlar" 3 tomlik, I tom T:1957;
2. A.P.Chexov "Tanlangan hikoyalar" G'.G'ulom nashriyoti, T:2012
3. Abdulla Qahhor "Anor" hikoyalar to'plami T:2015
4. A.Qodiriy "So'zni qanday tejash kerak" maqolasi
5. I.Huqul "Hayot san'atkori" maqolasi

СҮЮН ҚОРАЕВНИНГ "ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ - БҮЮК ЁЗУВЧИ, КАМТАРИН ИНСОН, СОДИҚ ДЎСТ" КИТОБИ ХУСУСИДА

Ш. Жалилов, талаба (ТошДЎТАУ)

Суюн Қораевнинг таниқли ёзувчи Чингиз Айтматовга бағишланган "Чингиз Айтматов - буюк ёзувчи, камтарин инсон, содиқ дўст" китоби "Янги аср авлоди" нашриётида 2015йил нашр қилинган. Китобга Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг Чингиз Айтматов сиймосига билдирган "Мен Чингиз Айтматовнинг истеъдоди ва донишмандлиги олдида таъзим қиламан ва уни қирғиз элқанинггина эмас, балки ўзбек халқининг, шунингдек, Марказий Осиёнинг барча халқларнинг ифтихори деб биламан" тарзидаги оташин эпитафия эпиграф қилиб олинган. Асар мундарижаси беш бобдан иборат бўлиб, ҳар бир боб ананавий равишда Чингиз Айтматовнинг ҳикматлари билан бошланади.

Биринчи боб "Чингиз Айтматов – буюк ёзувчи, камтарин инсон, содиқ дўст" деб номланади ва унда муаллифнинг ҳаёти ва ижодий фаолияти хусусида дунё ёзувчиларининг билдирган фикрлари берилади. Хусусан, А.Фехер, Л.Арагон, Б.Павловский, С.Уотсон, К.Вруне, Р.Кассандра ва бошқалар.

Китобнинг "Нажот кемаси олам кезмоқда" деб номланан иккинчи боб ҳақида тўхталадиган бўлсак, бунда биринчи бобдан фарқли ўларок, ёзувчи ижоди, жумладан, "Кассандра тамғаси" асарини таҳлили берилади.

Муаллиф учинчи бобни "Сунмас қуёш" деб номлайди. Бу бўлимда Чингиз Айтматовнинг вафоти тафсилоти ва унга билдирилган тазия ижодларини қаламга олади. Чингиз Айтматовдек буюк истеъдод элқанининг йўқлик олами томон сайр қилгани бутун адабиётнинг фожиаси, тарққин изъироби сифатида ёзувчи тасвирларида акс эттирилади.

Тўртинчи бобда "Чингиз Айтматов ижодидан намуналар" сарлавҳаси остида ёзувчи асарлари ва "Манас отанинг оқ қори кўк музи" дostonидан намуналар келтирилади. Бундан ташқари Чингиз Айтматов шерлари ҳам шу

бобда учрайди. Китобхон ижодкор қаламига мансуб шеърлар бундан танишар экан, унинг қалб кечтмалари, шаффоф туйғуларининг инқилобий фалсафий мушоҳадаларга бойлигини англаб етди.

Сўнги бешинчи “Чингиз Айтматов-содиқ дўст” бобда ўзбек-қирғиз халқларининг азалий дўстлиги, асрий маданий-маърифий алоқаларининг ҳақида маълумотлар берилади. “Али Манас билан Алпомиш халқширининг бирлиги илдизи” дostonитаҳлилга тортилиши мазкур бобнинг шундай қимматини янада оширади.

Суюн Қораев ёзувчи инсоний қиёфаси, айти пайтда, бундан маҳоратини аниқ деталлар асосида таҳлил ва тафтиш қилар экан, фикрининг ўзининггина фикрига таяниб қолмасдан балки, дунё илм-адаб аҳлининг Чингиз Айтматов хусусида билдирган фикрлардан фойдаланади.

Муаллиф ёзувчи ҳаётини ўрганар экан, унинг буюкликлиги ҳақидаги маълумотларини Ўзбекистон халқ ёзувчиси Шукруллонинг “Буюклик” ҳақида ёзган мақоласидаги фикрлар билан тўлдириш, бойитишга ҳарият қилади. “Навоий ҳам буюк, бугун бир-икки асар ёзган ёзувчи ҳам буюк дейилса, буюклик нима ўзи?.. Қўлига қалам олиб китоб чиқарган ҳам ёзувчи. Аммо буюклик ҳаммага ҳам насиб унинг буюкликлиги шундан унинг асарлари ҳамма даврларда, ҳамма китобхонларни бирдек биробар қизиқтира олади. Буюкликнинг мезони ана шу!”²⁰

Ҳақиқатан ҳам Чингиз Айтматовнинг буюкликлиги унинг асарларини ҳамма ҳар даврда севиб ўқишидадир. Дунёда ёзувчи кўп, лекин уларнинг ҳаммаси ҳам умуминсоний муаммоларни кўтариб чиқа олмайди, буни учун ёзувчига ўта кучли идрок, иқтидор, теран мушоҳада ва фикр керак бўлади. Бемисл тафаккур истеъдодга эга бўлган ижодкор адабиётнинг юксак минбарига кўтарила олади. Чингиз Айтматов ана шундай ёзувчи бўлган. Муаллиф, Суюн Қораев бундай ёзади: “Таниқли файласуф Қўчқор Хоназаров айтганларидек, Чингиз Айтматов тасаввурида адабиёт умуминсоний муаммоларни кўтариб чиқиш учун юксак минбардир. Ёзувчининг фикри қанчалик кучли бўлса, бу минбар шунчалик юксакдир. Шу маънода Чингиз Айтматов энг юксак минбарда турибди ва шунини учун бутун инсоният мутафаккир ёзувчини, файласуф ёзувчини кўриб турибди, эшитиб турибди, уни севади ва уни ҳурмат қилади”²¹.

Ёзувчи Чингиз Айтматов бутун ҳаёти давомида улкан ижод қилиб бутун дунё адабий меросига чексиз ҳисса қўшган. Бу дунёда ҳеч нарса абдиқол қолмаган, қолмайди деганларидек, такрорланмас истеъдод соҳиби Чингиз Айтматов 2008йили 10июн санасида ҳаётдан кўз юмди. Ижодкор вафоти

²⁰ Суюн Қораев. Чингиз Айтматов-буюк ёзувчи, камтарин инсон, содиқ дўст. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2015. – Б. 64.

²¹ Суюн Қораев. Чингиз Айтматов-буюк ёзувчи, камтарин инсон, содиқ дўст. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2015. – Б.75.

факат қирғиз халқиғагина эмас, балки бутун дунё учун катта йўқотиш бўлди. Ёзувчи вафотига дунёнинг кўплаб бурчакларидан таъзилаяр кўзлар қилинди. Жумладан, ҳозирда Ўзбекистон Республикасининг вақтинчалик президенти вазифасини бажарувчи Шавкат Мирзиёев ҳам ушбу таъзияномасини ёзиб қолдирди:

Буюк ёзувчи, мутафаккир ва гуманист Чингиз Айтматовнинг вафот топишиги тўғрисидаги хабарни Ўзбекистонда чуқур қайғу алам билан қабул қилдилар,

Аммо шу мотамсаро дамларда Ўзбекистон Раҳбарияти, ҳукумати ва халқи номидан марҳумнинг оиласига, қариндош-уруғларига, шунингдек бутун қирғиз халқиға чин дилдан таъзия билдираман ва сабр-тоқат тилайман”²².

Китобхон сифатида Чингиз Айтматов асарларини ўқир эканман, бугунга келгач ўзига хос бир қарама-қаршилиқ, айрим ўринда ёзувчининг вақримонлар тақдири хусусидаги мушоҳадалари менинг тафаккуримда кўпчилик изтиробини сиздириб юборарди. Ваҳоланки, Суюн Қораевнинг Чингиз Айтматовнинг ижодиша берган “Эзгулик ва ёвузлик, севги ва эътиқод, инсоннинг бу дунёдаги муаммолари “лаънати” масалалари деб кўрилгани бежиз эмас, чунки бу масалаларға ҳамон тайин бир жавоб йўқ. Чингиз Айтматов бадиий дунёсининг даҳолиги шундаки, ёзувчи бу каби масалаларға тайёр бир жавоб бермайди, балки уларнинг туб моҳиятини мушоҳада қилишға, уларнинг ҳар ким ўзича тушунишиға, ўзча жавоб топишиға китобхонларни мажбур қилди; ўтмиш ва бугунги кун ҳақида филмасуфона фикр юритар экан, келажакни башорат қилди, шу жиҳатдан, Чингиз Айтматов ижодининг тараққиёт жараёни вақтдан ўзиб кетди, оқибатда қандайдир “ваакум” пайдо бўлди - айрим китобхон дониралари Айтматовни тушунмади”²³ тарзидаги баҳоси барча китобхонларимға ечим топиш имконини яратди. Зеро, китобнинг ўзига хос жиҳати шундаки, Чингиз Айтматов маҳоратини мушоҳада этишға, унинг асарларини туб моҳиятини китобхон англаб етишиға ёрдам беради. Шунингжада ўқувчини эстетик завқлантириб бадиий таҳлил қилиш мўлқимасини шакллантиради.

²²Суюн Қораев. “Чингиз Айтматов-буюк ёзувчи, камтарин инсон, содиқ дўст. – Тошкент: “Янги аср акадeмиси”, 2015. – Б. 182-183

²³Суюн Қораев. Чингиз Айтматов-буюк ёзувчи, камтарин инсон, содиқ дўст. –Тошкент: “Янги аср акадeмиси”, 2015. –Б. 29-30.

“BADOE’ UL-BIDOYA” G‘AZALLARIDA TALMEH SAN‘ATI

H. Kuriyozova, III bosqich talabasi (ToshDO‘TAU)

Alisher Navoiy lirikasida talmeh san‘ati ko‘plab uchraydi. Asarlari tarkibida talmeh sifatida kelgan obrazlar asarning yamaki mazmuniga kuchli ta‘sir qilib, o‘quvchiga baytning mohiyatini to‘liq anglab yetishga yordam beradi. G‘azallari tarkibida talmeh bo‘lib kelgan tarixiy shohlar obrazi ham bor. Ajam (Eron) shohlari tarixiga bag‘ishlangan “Tarixi muluki ajam” asaridagi shohlar obrazi “Badoe’ ul- bidoya” da talmeh sifatida qo‘llaniladi.

“Tarixi muluki Ajam” da jami 61 ta shoh haqida ma‘lumot berilgan. Shulardan, “Badoye’ ul- bidoya” asarida Bahrom (go‘r), Bahromi Chubun, Doro, Jamshid, Iskandar, Kayxusrav (Kay), Xusrav (Parvez), Xusrav kabi shohlar nomi talmeh sifatida qo‘llanilgan. Jamshid obrazi 38 ta g‘azalda talmeh bo‘lib kelgan bo‘lsa, Iskandar obrazi 5 ta g‘azal, 2 ta tarji‘bandda, Doro obrazi 2 ta g‘azalda, Bahrom (Go‘r) obrazi 2 ta lug‘z tarkibida, Kayxusrav (Kay) obrazi 6 ta g‘azal, 2 ta tarji‘band tarkibida, Xusrav (Parvez) 8 ta g‘azalda, Xusrav 1 ta muammo san‘atida talmeh bo‘lib kelgan.

“Badoye’ ul- bidoya” asarining birinchi “Ashrafat min...” deb boshlanuvchi g‘azalining uchinchi baytida “Jamshid” obrazidan foydalanadi:

*Ey xush ul maykim, anga zarf o‘lsa bir sing‘on safol,
Jom o‘lur getinamo, Jamshid ani ichgan gado.*

Mazmuni: bu may shunday ajoyibki, unga bir singan safol kosa bo‘lagi- faqir kishi ko‘ngli ham idish bo‘lishi mumkin, o‘shanda jon butun olamni ko‘rsatadigan bo‘ladi va bu jomdan may ichgan, yonib tajalli nuridan bahra topgan odam, gado bo‘lsa-da, o‘zini podshodiy (Jamshidday) his qiladi, deydi.

Jamshid Peshdodiyalar sulolasining uchinchi hukmdori bo‘lgan. Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarida Jamshidning qilgan ishlarini sarak o‘tadi. “Husn-u jamolda dilpazir va fazl-u kamolda benazir erdi”, deb ta‘riflaydi. Taxtga chiqqan kunini “Navro‘z” deb atab uni bayram sifatida o‘tkazib qon bo‘ladi. Davlatni adolat bilan boshqaradi, qalqon va pichoq yasab o‘rgatadi. Ko‘plab imoratlar qurdiradi. Saltanati zamoni yetti yuz yil bo‘ldi deb o‘tadi.

Devondagi 122- g‘azalda esa “Iskandar” obrazi talmeh bo‘lib keladi:

*Baqo sarchashmasi zulmatda derlar, yo‘qki, ul zulmat
Sikandar ohi o‘tidin yig‘ilg‘on dudi hirmondur.*

Mazmuni, “abadiy tiriklik manbayi zulmat ichida, deydilar yo‘q ul zulmatda emas, Iskandar ohidan yig‘ilgan dudi hirmondadu”, deydi. Baytni tahlil qilsak, nimaga Iskandar ohidan yig‘ilgan dud ichra bo‘ladi, degan savol tug‘iladi. Iskandar nimaga oh uradi. Javobni “Tarixi muluki Ajam” dan izlab ko‘ramiz. Navoiy “Iskandar podshohe erdikim, andin burung‘i va qo‘ngg‘i salotin bu kungacha ul qilg‘on ishni qilmadilar. Ham hakim erdi, ham vali. To‘rt yuz hakim xizmatida edi. Arastudek vaziri bor erdi. Butun olamni aylanadi, u bilmagan sir qolmaydi”-deb yozadi. Oxir - oqibat Iskandar bunga amin bo‘ladiki, inson qancha urunmasin, butun dunyoni olsa ham, laqdir Oллоh irodasi oldida ojiz qoladi. Bu dunyoda yelib-yugurib topganini u dunyoga olib ketolmaydi. Iskandar umri poyonida o‘limi oldidan bunga amin bo‘ladi. Va qo‘llarini tobutdan chiqarib qo‘yishini vasiyat qiladi. Bu bilan men yul kezdin, davlat so‘rdim lekin qo‘llarim ochiq holda ketyapman, dunyoni quli bo‘lmanglar, degan ma‘noda aytadi. Navoiy bunga nisbatan shunday bayt keltiradi:

*Chiqardi jahon mulkidin voyasiz,
Qo‘li komdin, naqdidin moyasiz.
Yanalarga, ko‘r, charx netkusidur,
Sanga yo manga xud ne yetkusidur.*

“Badoye ‘ul- bidoya” da Bahrom (go‘r) va Bahromi Chubina obrazlari talmeh bo‘lib keladi. Bahrom (go‘r) haqida Navoiy “Sabbai sayyor” dostonida bayon qiladi. Lekin “Tarixi muluki Ajam” asarida Bahrom tarixiga mufassal o‘rnatilib o‘tadi. “Bahrom” nomli shohlar asarda juda ko‘p uchraydi. Bahrom (go‘r) sasoniylar sulolasiga mansub 13-shoh bo‘lib, Yazdijirdning o‘g‘li bo‘ladi. Tasta chiqqach, dastlab, saltanatni adolat bilan boshqaradi, lekin ayshahmatga berildi, chog‘ir ani mulk ishidan forig‘ qildi, ovga mehri kuchli qoplon va arslon soyir darrandalar ko‘p o‘ltirar edi, deb aytadi. “Badoye ‘ul- bidoya” ning 162- g‘azalida Bahrom obrazidan talmeh sifatida foydalanadi:

*Go‘r uchun ochmoq nedur har lahza bahromi kamand,
Chun seni Bahromdek aylar ajal go‘ri shikor.*

Bu g‘azalda shoh Bahromga va Husayn Boyqoroga ishora bor. Baytni tahlil qiladigan bo‘lsak: (Go‘r uchun sirtmoqni har lahzada Bahrom kabi ochish nimasi. Chunki seni ov go‘rsari Bahromdek ajal aylar.) Bahrom ovga oqni qo‘ygani buning oqibatida uni va ahli ayonlari bilan birga yer yutadi. Alshoh Navoiy “Sabbai sayyor” dostoni oxirida Bahromni tushida ko‘rganligini o‘quvchilariga so‘zlaydi. Hukmdor shoirga nihoyatda yuksak ehtirom bilan munosabatda bo‘ladi. Husayn Boyqaroni o‘ziga o‘xshashligini aytib, uning davlatiga xayr-saodat tilaydi. Bu bilan ulug‘ shoir shoh Bahrom qissasidan

barcha podshohlar xulosa chiqarishi lozimligini ta'kidlaydi. Bahromi Chubina Sosoniylar sulolasining yigirma birinchi hukumdori sanaladi.

Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarida uni: saltanati zamonda notinchliklar ko'p bo'ladi, ikki yilcha taxt so'rdi va zahar berib o'ldiriladi deb ta'kidlagan. Yana shuni ma'lum qiladi-ki, ba'zilar uning saltanati zamonda bo'lmagan deb ham aytadilar ekan.

*"Chu Bahromi Cho'binni baxti baland,
Jahon mulkida ayladi arjumand.
Vale oni Parviz tindurmadi,
Dam urmadi to mulkdin surmadi".*

"Badoe' ul- bidoya" asarida Bahromi Chubina "Poki nomli, to'qqizinchi lug'z, ikkinchi misrada qo'llaniladi.

*Magar Bahromi Cho'bin naslidindur,
Ki ahvolidi zohirdur xilofiy.*

Baytni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak: (Ammo Bahromi Cho'bin naslidandur, uning ahvolidi ko'rinib turish teskaridir. Yani uning bot yoki yo'qligi nomalum, yashirilib turadi ma'nosida kelgan. Bahromi Chubina hukumdorlik davri juda qisqa bo'lganligi uchun, uning davri ko'rinib turmaydi. Shu ma'noda uni "poki"ga o'xshatgan. Bunda Bahromi Chubina obrazi orqali lug'z mohiyati yanada jozibali ifodalangan. Ko'rib o'tganimizdek, Alisher Navoiy lirikasidagi talmeh sifatida kelgan shohlar obraz bejiz keltirilmagan. Bu obrazlar orqali g'azallari yanada serma'no va go'zal ifodalangan.

Aytib o'tishimiz joiz-ki, "Badoe' ul bidoya" asarida shohlar obrazi o'z o'rnida va o'z ma'nosida qo'llanilgan. Talmeh sifatida kelgan obrazlar orqali g'azallar mohiyatini yana ham chuqurroq anglashimizga yordam bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 528 b.
2. B. To'xliyev. Navoiy g'azallari (nasriy bayon sharh va izohlar)-T.: Bayon, 2014. 38- b.
3. P. Shamsiyev va S. Ibrohimov. Navoiy asarlari lug'ati T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
4. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at / Mas'ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. – T. "Sharq", 2016. - 484 b.
5. Alisher Navoiy asarlar to'plami: 10 jildlik / 8-jild. Nashriyot tayyorlovchilar: S. Rafiddinov, Q. Ergashev mas'ul muharrir I. Haqqul; O'zbek

КЎНГИЛ ЛАВҲИГА НАҚШЛАНМАГАН ҚЎШИҚЛАР

С. Ёқубова, III босқич талабаси (ТошДЎТАУ)

Сеvimли журналимиз “Шарқ юлдузи” нинг 2016 йилги 2 сонини ўқиш аарибнида “Шеърда мантиқ борми?” номли мақола эътиборимни тортди. Чунки тенгдошларим шеърларини баҳоли қудрат кузатиб келаётган ёш мушиққид сифатида, мен поэзияда туйғу етакчилиқ қилишига қаттиқ ашинар эдим. Зотан, чин поэзия тафаккурнинг одатий чегараларидан аққиди. Аммо бу – шеърят даргоҳи бесарҳад, адабиёт уйи бедарвоза экан, деб ўйлашга асос бермайди.

Демак, устоз адабиётшунос олим Дилмурод Куроновни қўлига қалам олишига ундаган биринчи сабаб – бу сўнги вақтларда анча кучайган жўн аширни шеърга солиб, назмбозликка ружуъ қўйиш орқали умуммиллий эстетик дидга таҳдид қилиш иллатининг олдини олиш истагидир. Шунинг учун, мақоладаги “қўшиқчи шоир” истилоҳи яхлит ҳолда бу санъатнинг ўрни эмас, балки “назмбозлик”, “истеъдодсизлик”, “дидсизлик” деган аш-поларни англатади.

Бизнингча, назмий асарлар битишга ҳоҳиш бору имконият йўқлиги – бу интеллектул салоҳият тақчиллигидан мужда беради. Имконият йўқ аойда эса, ҳеч қачон ғўрадан ҳалво битмаган.

Дарҳақиқат, мақола муаллифи овоз кучайтиргич ва фонограммалар рижож топган бизнинг давримизда бемаза қовун уруғидан униб, туп қўйиб, аялик отиб, тана ва шохлари баравж ёйилиб бораётган маънавий-эстетик аспилиқ хусусида куйиниб сўзлайди. “Ўхшатмагунча учратмас”, ибораси қўлланишидан аён бўладики, истеъдодсизлик ва диддан мосувалиқ маза-матрасиз шеърлар битаётган назмбоз шоирлар, улар билан ҳамкорлик ашиётган айрим ижрочилар ва қулоғидан “наушник” тушмайдиган “санъат шайдолари” га бирдай даҳлдор.

Англашиладики, сўз юритилаётган ушбу мақола шеърят ҳақидаги тевенурлар беҳад қашшоқлашганидан теран надомат ҳиссини туйган олим қалбидаги изтиробли туйғулар изҳоридан иборат. Шундай экан, адабиётимиз ва санъатимиз, китобхонлик ҳамда ижрочи масъулияти каби мушмолардан бонг уриш негизида уларнинг истиқболи ҳақидаги умуммиллий миқёсдаги ташвишлар мужжасам. Хуллас, проф. Д.Куронов ашинакам шеърят ва бадий сўз жозибасини умумга англатиш тилагида ўз қўнглини очган.

Таъкидлаш ўринлики, мақола ёзилишига туртки берган ҳаётий вазият ҳолат (университетдаги учрашув тафсилотлари) Аҳад Қаюм билан бонг экани боис, юқоридаги жиддий ташвишларни изоҳлашга изн берувчи мисоллар унинг битикларидан танланган. Шу маънода, мақолада инсоний самимият ва илмий ҳолислик тўла сақланган. Танқидчи ўз зиммасидан вазифанинг ижросини адо этишга сидқидилдан бел боғлаган. Ҳаммин ташвишга солиши лозим бўлган жиддий муаммоларга урғу берган Адабиётшунос "...ўша шеърларнинг нимаса бемаза экани, нима учун уларни шеърга санаб бўлмаслигини кўрсатиб бериш"²⁴ учун асосий эътиборини поэтик мантиқ ва ифода изчиллиги таъминланиши масаласига қаратган.

Абдулла Қодирий адабий қаҳрамонларидан бири бўлмиш Мухтум домла шахснинг инсонлигини белгилловчи ягона омил унинг тўғри эътиқоди, - деб билади. Шунинг учун у азбаройи бугунги маишатининг ўйлайдиган кимсаларни кескин қоралайди. Қаҳр-ғазаб бехад алангаланиш кезде, айрим китоблар мусулмонларни йўлдан оздиради,- дея бонг уради. Поэтик мантиқ ва ифода изчиллиги нақадар муҳим эканига ишора қилиш ёзувчи: "Сиз ўқуғучининг бир озгина фикри салимингиз бўлса ўзингиз ҳам икром этарсиз... Сўз бир мантиқ устида айтилса киши ҳеч вақт дари қолмайди", -дея таъкидлайди.

Адиб "Тошпўлат тажанг нима дейди? ҳикоясида "Ёмоннинг яхшидан бўлиб юргандан яхшининг ёмони ҳам бўлиб кўрайин, дедим.", - қабилинга кўнглини очади. Ҳикоя қаҳрамони Тошпўлат тоға эса, ўз чапани табииятга кўра дин-диёнатни унутган кимсалардан кўнгли қайтиб: "наҳ калласини шартга олуб, ичагини салла қилар эдим", - дейишгача журъат этади. Демас ижтимоий-маърифий, адабий-эстетик иллатлар ҳақида бонг уриш ёзувчи (жумладан мунаққид) нинг ҳам эътиқоди ва журъат-жасрати нишонасидир. Мақола ижтимоий-адабий жараёнда жиддий муносабат уйғота олгани шунини тасдиқлайдики, олим кўзлаган нияти ижросини қойилмақом тиривча удалай олган.

Дарҳақиқат, сарлавҳада "Шеърда мантиқ керакми?" тарзида қўйилган саволга жавоб топиш учун А.Қаюм шеърлари куйидаги назрий йўсинларда текширилади:

1. Лирик кечинма билан у юзага келаётган ҳолат мутаносиблигини кузатиш.
2. Лисоний ифоданинг тасвирланаётган кечинмага мослигини ўрганиш.

²⁴Қуროнов Д. Шеърда мантиқ керакми?, Шарқ юлдузи, 2016 йил, 2 -сон -Б. 139.

3. Шеърдаги мисраларнинг ўзаро мантикий, мазмуний боғлиқлигини таҳлил ва тадқиқ қилиш.

Ҳақли савол туғилади. – Нима учун олим вазн, қофия каби мисраларни эмас, айнан поэтик мантиқ ва ифода изчиллиги таъминланишини етакчи мақсадга айлантирди?

Бизнингча, шеър машқига жазм этган ҳаваскорларнинг аксарияти, ёши ва мавқеидан қатъий назар, фикрни вазну қофияга солиш, шеър техникасидан ибтидоий билимга эга бўлиш билан шоирликка даъво қилинади. Афсуски, бадиий матнда кўп қўлланавергани боис пашша қўнса оғзи тийғанадиган даражада сийқалашган сўзларнинг борлиги ҳеч қачон шоирликнинг белгиси саналмаган. Шунингдек, нафақат ҳажм, балки вазн ва қофия, сажъ ва ташбех, нисбат ва сифат қўллаш ҳам ҳали чинакам шеър ёзишнинг бош шартига дахлдор тушунчалар эмас. Шунинг учун, поэзияга қўйилувчи талабларнинг юқоридаги тарзда изоҳланиши ўқувчида ҳеч қандай эътироз туғдирмайди. Чунки олим шеър матни, демакки шоирнинг бидний тафаккур қамрови ва дидини пароканда қилган ҳолатларни аниқ мисоллар асосида таҳлил этган. У бизни асл миллий шоир ва унинг қалбига хос зотий хоссалар, шеърнинг эстетик таъсир кучини таъминловчи асосий омиллар билан яқиндан таништирган. Диққат-этиборимизни шоирнинг эстетик идеали гўзаллик ва эзгулик қонунларига асосланиши, у ўз поэтик маҳоратини оширишга ҳамиша масъул эканига қаратган.

Биз ушбу мақоладаги фикр-қарашлар нечоғлик асосли эканини баҳолаш мақсадида Аҳад Қаям қаламига мансуб “Ёлғиз аёл” шеърий тўпламини бир қур varaқлаб кўрдик. Унда муҳаббат, ҳижрон ва айрилиқ саклида битилган:

Армончинор ўсар руҳимда,

Қалбимда минг бахтчинор қулар²⁵

Унингари поэтик жиҳатдан эътиборли сатрларни учратдик. Аммо, шоир билан китобхонни муҳаббатсиз яшаш мумкинлигига ишонтироқчи бўлганини кўриб таажжубландик:

Нима учун севади инсон,

Севилисин танҳо билади

Ахир ундан гўзаллар кўп-ку,

Ушун қийнаб нима қилади?

Таассуфки, шеърият ҳеч қачон жўнлик ва шунчаки яшашни қўйламаган. Унинг лирик қаҳрамони ҳам суюкли маҳбубасини шиппақдек

²⁵ Аҳад Қаям. Ёлғиз аёл. Янги нашр. –Тошкент 2015, - Б. 10.(Шеърий матнлар шу нашрдан олинди. С. 1)

алмаштиришга ҳозир нозир турмаган. Шунингдек, чин муҳаббат туйғуси ҳеч қачон мана бундай нафрат ҳиссига ҳам эврилмаган:

*Қалбимга тўлди нафрат,
Аламларим қатма-қат,
Эй муҳаббат, муҳаббат,
Мендан хафамисан, айт?*

Муҳаббат – бу ошиқ ва маъшуқа бир-бирига қалбан бериши лозим бўлган нафис ҳис-туйғу. Бинобарин, у ҳамиша қалбга бесўроқ кириб келади. Ҳатто чирой ҳам танламайди. Юракни тўлқинлантириб, садоқат ва вафо, эҳтиром ҳамда кечиримлилик каби соҳир майлларни етаклаб келиши. На ошиқ, на маъшуқа қалбида нафрат ҳиссига ўрин қолмайди. Шунингдек, биринчидан, мурожаат туйғунинг ўзига эмас, балки унинг соҳибони (маъшуқа) га қаратилмоғи керак. Иккинчидан, нафратшиорлик ва аламзадалик қат-қат кўнгили уйига унинг мутлақо зидди бўлган бошқа туйғулар меҳмон бўлиши мумкин эмас. Ундай бўлса, юқоридаги нафрат ва аламлар лирик қаҳрамонга тегишлими ёки муаллифгами? деган ҳақиқат савол туғилади. Бу ўринда матн мазмунидан ўзига қаттиқ инсонаним кимсанинг эриша олмаган туйғуси эмас, балки нарса (жисм) га бўлган муносабати, уни авраш йўлидаги эврилиш ҳоли тасаввур қилинади.

Аслида, нафис шеърят инсон қалби ва онгини уйғотмоғи лозим. Шу масканларда покиза туйғулар, шаффоф фикрлар куртак отиши учун зарур бўлган кенг майдон яратиши керак. Олам юзидаги чимматни кўтари оловчи шоир ўзи яратган тимсоллар орқали гумроҳни воқиқ, зулматни нурафшон кўнгилини дахлдор, фикрни тийран, ҳаракатни дадил қилишни кўзлабди. Бошқачароқ айтганда, чинакам шоирнинг лирик “мен”и ўзи билан бир орбитада яшашга талпинган қалбларда акс садо беришга қодир. Гўшони ва эзгуликка муҳаббат шоир “мен”идан чиқиб, китобхон онги, туйғуларни ва аъмолига кўчади. Поэтик тасаввур ва лирик тахайюл маънавий-руҳий мададга эҳтиёжманд инсонга таъсир этиш орқали жамият ҳаётига кўчани Демак, аниқ мақсаддан чалғимаган, ошкора дидактикага ўралиши қолмаган шоир ва шеър ҳамиша реал замон ҳамда замин билан чамбарчас боғлиқдир.

Шеър кўпчилиги шоир истеъдоди беназирлигининг белгиси бўлолмайдиган Қолаверса, ижро имкониятлари аввало поэтик матннинг ўзида мавзунини бўлиши, лирик кўшиқ оҳанги билан туғилиши лозим. Қуруқ қофиябошлик мавзу устуворлиги асосига қурилган, руҳан кечинилмаган туйғулар баънидан иборат “шиғирлар” йиғилса ва китоб бўлиб нашр қилинса, унинг муаллифи шоир бўлиб қолавермайди. Зотан, ижро учун мўлжалланган

шоир мусикий оҳангдор, муайян ҳаракат ритмига монанд, инсон руҳий ҳолатлари моҳиятига мос, ўйноқи бўлиши лозим. Лекин, кейинги йилларда асар фаоллашиб қолган оммабоп кўшиқчиликда аксарият ҳолларда шоир, шунинчиси, бастакор, рекламачи бирлиги ҳамisha дилдошлигу туйғудошлик ҳолатига қурилмаётгани ҳеч кимга сир эмас. Кумдан қурилган қаср шамолда ўқиб кетганидай, кўнгил лавҳига нақшланмаган кўшиқлар ҳам бир марта интиқланиши биланоқ унутилишга маҳкум.

Итук шеърый асар юзага келишида туғма қобилият, катта ҳаётий таъриба, тиниқ ақл-идроқ, теран фикр-мулоҳаза, ички бутунлик муҳим ўрин тутади. Шундагина бадий яратиқ инсоний мунсабатлар гўзал ифодасига айланади. Китобхон фикр-туйғуларини мувозанатдан чиқаради. Ўзининг учун лирик асар ҳиссий-эмоционал тўйинтирилган, мусикий оҳангдор бўлиши, унда шакл, мазмун ва оҳанг ўзаро уйғун келиши, ҳосил қилинган кайфият-кечинма ўқувчига “юқтирилиши” шарт.

Айрим ҳаваскор “шоир” лар мақоладаги мулоҳазалардан тегишли қулоса чиқариб, эзгу умидимизни сўндирмаслигига ишонгимиз келади. Ўзини, умид ҳеч қачон сўнмайди. Ахир, биз хаёлот ва тахайюл қудрати билан ҳар қандай юксакликларни забт эта олган улуг халқимиз.

“LISON UT-TAYR” DOSTONI POETIKASI

G.Saidova, III bosqich talabasi (ToshDO‘TAU)

Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» dostonining maydonga kelishi o‘zbek klassik adabiyotini chuqur falsafiy mazmunli, g‘oyaviy-badiiy yuksak, janr va poetik uslub jihatdan tamoman yangi asar bilan boyitdi. Asar tom ma‘nosi bilan Navoiy badiiy dahosining original qirralarini o‘zida namoyish ettiradi. Biz bu o‘rinda dostonning badiiy xususiyatlari haqida so‘z yuritib shoirning asar kompozitsiyasini tuzish, syujet va obraz yaratishdagi mahorati, dostonda qo‘llanilgan ayrim traditsion tasviriy vositalar, asarning formal-poetik xususiyatlari va badiiy tili haqida ba‘zi mulohazalar bildiramiz. Muayyan so‘z san‘atkorining badiiy mahorati haqida so‘z yuritganda, avvalo, uning asar kompozitsiyasini tuzishdagi o‘ziga xosligi haqida to‘xtalish maqsadga muvofiq.

Chunki u yoki bu muallifning bu sohadagi o‘ziga xosligi uning badiiy mahoratining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Doston syujetining talminatsion qismi Simurg‘ni izlagan o‘ttizta qushning Simurg‘ o‘mida o‘zlarini ko‘rish voqeasida ifoda etilgan. Bu epizod doston syujetining yechimi hamdir. Navoiy bu epizodni yuksak darajadagi poetik mahorat va so‘z o‘yini (tajnis san‘ati) Simurg‘-o‘ttizta qush (si murg‘) vositasida gavdalantirgan. So‘z ustasining mahorati ko‘p jihatdan badiiy adabiyotning asosiy xususiyatlaridan

biri hisoblangan obraz yaratishda, inson obrazini qay darajada tasvirlashda ko'rinadi. Shu jihatdan «Lison ut-tayr»ga murojaat qilinganda, Navoiy bu sohada ham katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritganligi ma'lum bo'ladi. Albatta obraz yaratish sohasida Navoiy asarlariga hozirgi talablar, xususan realistik adabiyot talablari nuqtai nazaridan yondashib bo'lmaydi.

Bu borada o'zbek klassik adabiyoti va umuman sharq adabiyotining o'ziga xos spetsifik xususiyatlarini hisobga olish lozim. Navoiy asarlarida romantik tasvir bilan realistik elementlar yoki majoziy, fantastik va simvolik tasvirlar qo'shilib, uyg'unlikda kelish hodisasi mavjud bo'lganidek, obraz yaratish tamoyillarda ham yuqoridagi omillar amal qiladi.

Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni turli-tuman obrazlarning butun bu arsenalidir. Dostonda shoir o'z g'oyaviy maqsadi va estetik idealidan kelib chiqib, romantik, realistik, majoziy va simvolik obrazlarning hamma namunalari yaratgan. Bu o'rinda ularning barchasi haqida so'z yuritish imkoniyatidan tashqari bir hol ekanligini hisobga olib, shoirning obraz yaratish sohasidagi badiiy mahoratining ba'zi qirralari haqida fikr yuritishni ma'qul ko'ramiz. Dostonning obrazlar sistemasi bilan tanishish jarayonida Navoiy mazkur asarda o'z ijodiga xos eng ilg'or an'analarni davom ettirib, o'zbek epik she'riyatining obrazlar tizimini kengaytirganligi va unga qator yangi xususiyatlar baxsh etilganligi ma'lum bo'ladi. Bu xususiyatlar masalan quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Navoiy dostonida o'zbek epik she'riyatining obrazlar dunyosini yangi tipdagi obrazlar bilan boyitdi. Bu fikr dastavval asarning asosiy personajlari hisoblangan qushlar obraziga taalluqli. Navoiyga qadar o'zbek adabiyotida qushlar obrazining ayrim namunalari mavjud bo'lsa-da, lekin bu birinchi marta «Lison ut-tayr» da keng masshtabda namoyon bo'ladi. Navoiy qushlar obraziga muayyan insoniy fazilatlar ato etib (jonlantirib), badiiy shartlilikning bu qoidasi asosida qator yangi majoziy obrazlar yaratdi. Ular o'zbek she'riyati xazinasiga yangi majoziy obrazlar yaratdi. Ular o'zbek she'riyati xazinasiga yangi durdonalar bo'lib qo'shilishdan tashqari, shoirning majoziy obraz yaratishning mislsiz nomoyandalardan biri sifatida ham gavdalantirib turadi.

Ikkinchidan, «Lison ut-tayr»da qalamga olingan ko'pgina masalalar real ijtimoiy zamanga asoslangan bo'lib, XV asrning ikkinchi yarmidagi O'rta Osiyo va Xurosonda mavjud ma'naviy-axloqiy vaziyatni tasvirlashga bag'ishlangan. Bu esa shu munosabat yaratilgan obrazlarning realistik mohiyat kasb etishiga olib kelgan. Bu mulohaza dostonidagi ko'pchilik axloqiy-ta'limiy hikoyatlarga tegishli. «Lison ut-tayr» hikoyatlaridagi obrazlar o'zlarining bu xususiyati bilan

Navoiy «Xamsa»sidagi hikoyatlardan jiddiy farq qiladi. «Xamsa» hikoyatlaridagi asosiy obrazlar an'anaviy ruhda bo'lib, shoir ularni o'z g'oyaviy maqsadiga muvofiq qaytadan yaratadi. «Lison ut-tayr»da esa traditsion obrazlardan tashqari real hayot kishilari obrazi yaratilgan hikoyatlar ham talaygina.

Uchinchidan, mazkur asarda Navoiyning satirik va yumoristik shoir sifatidagi talanti o'zining yangi sifatlarini yuzaga chiqargan. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, Navoiy asarda satirik va yumoristik obrazlarning o'ziga xos takrorlanmas namunalari bera olgan. Bu shoirning shu xildagi obraz yaratish muhosisida ko'rsatgan badiiy mahorati haqida yetarli dalil bo'lib xizmat qila oladi.

To'rtinchidan, mazkur asarda o'zbek adabiyoti miqyosida tamoman yangilik bo'lgan tragikomik obrazlarning go'zal namunalari uchraydi. Navoiyning kichik hikoyatlar doirasida mohirlik bilan chiza olgan bu obrazlari shoirning obraz yaratish borasidagi alohida muvaffaqiyati bo'libgina qolmay, uning o'z ijodidagi obraz yaratish tamoyillari yangi xususiyatlar bilan boyitib, chuqurlashtirib va takomillashtirib borganligini ham ko'rsatadi. Doston tarkibida oddiy mubolag'adan tortib ig'roq (o'ta mubolag'a) va g'ulu (aqlga sig'maydigan, imkoniyatdan tashqari mubolag'a) gacha uchratish mumkin. Mana xarakterli bir misol «Pahlavonning qismati» hikoyatining qahramoni ertalab o'n botmon, tashqurun ham xuddi shuncha, bu ikki oralig'da yana besh botmon, jami yettinma besh botmon ovqat eydi. Aqlga sig'maydigan mubolag'ali tasvir! Hikoyatda bu mubolag'a bejiz keltirilmagan. Pahlavon shuncha ko'p ovqat yeyishiga qaramay, biron foydali ish bilan shug'ulanmaydi. Shuningdek, u lavqulodda ro'y bergan safar azoblariga bardosh bera olmay, yo'lda shormandalarcha halok bo'ladi. Binobarin, pahlavonga berilgan mubolag'ali xarakteristika uning faoliyatiga zid keladiki, bu obrazning kulgili chiqishiga olib kelgan yoki «Hayratda qolgan oshiq» hikoyatida shoir shoh qizining kanizaklari haq yumushga qodir, qo'ldan kelmaydigan ishlarni ham bajaruvchi tadbirkor qizlar ekanligini quyidagi o'ta mubolag'ali satrlar vositasida tavsiflaydi:

Choragarlikda muqarrar har biri,

sohtru sho'xu fusungar har biri.

Makru afsun g'oyatig'a yetguchi,

Pashsha birla pilni juft etguchi.

O'ylikim pashsha o'zin ko'rmay kichik.

Pil o'zin topmay ulug'roq jussalik.

Alisher Navoiy ulkan so'z sehgari sifatida baytlardagi aynan bir so'zni yangi-yangi ma'nolarda qo'llaydi. Bu klassik poetikada tajnis deb nomlangan. Tajnis san'atining asosiy talabi shakldosh so'z va iboralarni har xil ma'nolarda

ishlata bilishdir. Masalan, Navoiy «Shayx San'on» hikoyatida «bir oy» iborasi ikki ma'noda ishlatgan: Har nafas bir oydin ortib mehnati, Bu edi bir oyg'a tegu holati. Avvalgi misradagi «bir oy» iborasi mahbubaga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi misrada esa yilning ma'lum bir muddati—oy (30 kun) ma'nosida kelgan. Dostonda kul, g'arq, yosh, but, qush, ko'z va boshqa so'zlar vositasida tajnis hosil qilingan chiroyli baytlar, tajnisi qofiyalar ham uchrab turadi. Quyidagi baytda bir so'zni uning har xil grammatik formalari bilan turli variantda takrorlash vositasida (ishtiyoq san'ati) ajoyib so'z o'yini yuzaga kelgan:

*Goh behol erdi, goh o'z holida,
Lol o'lub ashob aning ahvolid.*

Mazkur takror Shayx San'on holatini psixologik tasvirlashda qo'l kelgan bo'lsa, uning mahbubasi tomonidan aytilgan quyidagi so'zlarda boshdan-oyig'ina takror qo'llanilib, nozik kinoya ma'nosi hosil qilingan:

*Ne hayo fahm o'ldi sendin, ne adab,
(ajoyib so'z o'yini yuzaga kelgan:)*

*Goh behol erdi, goh o'z holida,
Lol o'lub ashob aning ahvolid.*

Mazkur takror Shayx San'on holatini psixologik tasvirlashda qo'l kelgan bo'lsa, uning mahbubasi tomonidan aytilgan quyidagi so'zlarda boshdan-oyig'ina takror qo'llanilib, nozik kinoya ma'nosi hosil qilingan:

*Ne hayo fahm o'ldi sendin, ne adab,
Sen ajab, degan so'zung sendan ajab.*

Bulardan tashqari dostonda klassik she'riyatda keng qo'llanilgan tamsil, talme, lutf, husni ta'lil, ruju', iyhom, irsoli masal, tamsil, istiora, tanosib va boshqa poetik san'atlar asosida yaratilgan baytlar ham uchrab turadi. Alisher Navoiy yirik so'z ustasi sifatida bir necha san'atni o'zida mujassamlashtirgan baytlar ham ijod qilgan. Quyidagi misolga diqqat qilaylik:

*Har biriga zot edi oti kibi,
Ul sifatkim ot edi zoti kibi.*

«Muqbil va Mudbir» hikoyasidan olingan ushbu bayt birinchi qatnashda juda oddiy, sodda bo'lib ko'rinadi. Ammo ana shu «oddiy» baytda bir necha san'at mohirona qo'llangan. Ular irsoli masal (ismi jismiga mos qabilidagi so'z iborasining «zot edi oti kibi» poetik varianti), tashbeh (Muqbil va Mudbir ismlari jismlariga monand), mutanosib (har ikkisinin oti zotiga munosib), talme (bu sifatlar bir-biriga teskari) tardi aks (misralardagi so'zlar o'zaro o'rin almashib qofiyalangan) va nihoyat zulqofiyatayn (qo'sh qofiya yaratilgan) kabi san'atlardir. Bir baytda shuncha san'atni mohirlik bilan qo'llash Navoiy badiiy

mahoratining o'ziga xos tomonlaridan biridir. Binobarin, Alisher Navoiy bir baytning o'zida olamjahon ma'nolarni go'zal badiiy shaklda ifodalay olgan muhsiz nuktadon shoir hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobitov M. Xalq hikoyatlari Navoiy ijodida. Toshkent, O'zbekiston, 1968.
2. Y. Ishoqov. Navoiy poetikasi. Toshkent, Fan, 1983.
3. Olim S. Ishq, oshiq va ma'shuq. Toshkent, Fan, 1992.
4. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Fan, 1985.
5. Rustamov A. So'z xususida so'z. Toshkent, «Yosh gvardiya», 1987.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, Yigirma tomlik. XII tom. Lison at buyr.

USMON AZIM SHE'RIYATINING BADIY JOZIBASI

T. Bekmurodov, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Adabiyot! Inson ruhini davolaydigan, shuurini uyg'otadigan, ko'ngilning tub-tubida yashiringan inja, pokiza tuyg'ulami jonlantiradigan buyuk tarbiya vositasidir. Mana shunday ulug' kuchga ega bo'lgan asarlarni yarata olgan, inson qalbining suratlarini satrlarda aks ettirgan, qalamidan to'kilgan har xil usulda haqiqat manzarasi chizilgan ijodkorlardan biri Usmon Azimdir. Bu ijodkor xalq yuragining suratlashidir. Shuning uchun ham uning she'rlari ulamlar orasida o'qiganimizda davomini xalq aytadi. Ijokorning har bir she'rida shunday ma'no yotadi: inson bu dunyoga keldimi, demak, nimanidir qilishi, kimningdir qalbida ezgu nom bilan qolishi zarur. Asli ijodkoming asosiy vazifasi ham «odamzod, bu dunyoga nima uchun kelding?!» degan savolni kishilar qalbida uyg'otishdir. Kimgadir o'rgatmoqchi bo'lgan inson esa avvalo, o'rgatmoqchi bo'lgan narsasini o'zi bilmog'i lozim. Usmon Azim she'rlarida ayrim mana shu qarashning ustunligini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi misolarga e'tibor beraylik:

*Bu dunyoning dardini
Yetim ketgan shoirim
Telingga achinmagin
Kamaydimi chiriblar!
Bu dunyoga bir qo'shiq,
O'rtib ketgan shoirim
Kuturhumlar uyg'onsinlar,
Uddolmasin tiriklar.*

Darhaqiqat, o'zini shoirman deb hisoblagan har bir kishi yuqoridagi siltalarni ifodalangan ishni ado eta olsagina, o'zining insoniy va qalam oldidagi barcha bajargan bo'ladi.

Albatta, vaznga solingan, qofiyaga ega bo'lgan har qanday tizma har bir she'r bo'lavermaydi. Mening fikrimcha tizim nazmga aylanishi uchun undagi har bir so'z jonlanishi kishilarga ayon haqiqatni aytib turishi lozim. Aynan mana shu jihatda shoirning badiiy mahorati namayon bo'ladi.

Mening nazarimda, Usmon Azimning har bir she'ri go'zal ba'di'iy kashfiyotlar dunyosidir. Har qanday inson qalbida hayot olam va odamlar anglashga bo'lgan intilish yotadi. Shoir Usmon Azim esa aynan hayot haqidagi qarashlarini turli qiyoslarda beradi. E'tibor beraylik:

Go'yo dunyo go'dak qalbidan nozik,

Go'yo entiksang ham ketadi sinib.

Qodir hayot-ulkan yalmog'iz

Sezib jonim mazalarini

Yetti yamlab, qilding bir og'iz

Umrinning sha'n lahzalarini.

(Qodir hayot)

Qodir hayot-makkora maston

Yoqsang-olov, o'chirsang-kulman.

(Qodir hayot)

Qarangki, shoir bir she'rida dunyoni go'dak qalbidan nozikligini ta'riflayotgan birida umrining eng quvnoq lahzalarini yutib ketayotgan yalmog'iz o'xshatadi. Keyingi baytda esa hayotni makkora mastonga qiyos etadi.

Shoir "Eng so'nggi ohu haqida ballada" she'rida odamzodning quvnoq buyukligini ko'rsatib beradi:

Odamzod nedandir bezovta, dilgir,

Cho'qqida quyoshday turibdi porlab.

Miltig'in sindirib u „oh“ uradir-

Odamzod yig'laydi ohuni chorlab.

Usmon Azim tabiat tasviri bilan inson ruhiyati manzaralarini uyg'un holda tasvirilay oladigan ijodkordir. Uning quyidagi she'rlarida ajoyib ba'di'iy qiyoslar bilan birga ko'z oldimizda xuddi rassom bo'yoqlari orqali chizilgan rasmdek bir manzara jonlanadi. Qarangki, so'zlarga rang, maza ham bera olgan ekan:

Yomg'ir yog'ib o'tadi

Tunni oralab sim-sim,

Shamollarda seskanib,

*To 'kilib titranar bog'.
Go 'yo bog 'ning ichida-
Belanchagi-izg 'irin,
Yo 'rgagi-bargi xazon-
Alahsirar chaqaloq.*

Bu she'rida shoir chaqaloq deya kuzni ta'rif etadi. Aynan mana shu ta'rifning dunyoga bo'lgan yangicha qarashining ifodasidir. Negaki, odatda chaqaloqqa bahor qiyos etiladi. Ijodkorning shunday o'xshatishlari borki, uni faqat o'sha holatni boshidan kechirgan insonlargina ko'z oldiga keltirishi mumkin. Aynan buni biz shoarning "Samarqand bo'ylab tunggi sayr" she'rida ko'rishimiz mumkin:

*Tun bilan nur o 'rtasida
sevin arvohtar-
amoralalar kezib borar-
kelajak sari...*

Qarang go'zal qiyos! Aynan mana shu she'rida bundan-da go'zal badiiy topilmalarni ko'rishimiz mumkin:

*Ana, osmonning qurboni- shahid rasadxona,
Ana, tarixning ko 'milgan beshigi,- Afrosiyob.*

Bu she'riy parcha shunchaki badiiyat namunasi emas balki, haqiqatni so'z bilan chizilgan suratidir.

U'tibor berganmisiz? Dunyodagi eng musaffo ne'mat bo'lgan shabnam to'ng'ida butun borliqni pokiza etmoqchi bo'ladi va qaysidir jihatdan bu ishini ado etadi. Ammo quyosh chiqadi-yu, shabnam bug'ga aylanib, o'z manzili- osmonga qaytadi. Shoir Usmon Azim mana shu holatni she'rga olib kiradi. Faqat sal boshqacharoq ko'rinishda, ya'ni shoir dunyodagi eng pokiza tuyg'u- sevgini eng muqaddas narsa-shabnamga qiyos etadi:

*Ko 'ngil salqinida sevgi- bir shabnam,
Quyosh kulganicha yashab o 'tadir.*

Ha, chindan ham sevgi inson ko'nglini poklovchi muqaddas tuyg'udir. Mana shu she'rning so'nggi bandi ham badiiyat va haqiqatning go'zal ifodasidir:

*Amganim yashamoq sabr-u qanoat,
Duyg'u-sinovdir, lahza-sinoat,
Uch deb ado bo 'lmoq balki saodat-
qarshi u ko 'zlarni yoshlab o 'tadir.*

Dunyodagi satrlarda biz faqat qiyosni emas, balki, ana o'sha o'xshatish zamirida yodlangan haqiqatni ko'rishimiz mumkin.

Urush - o 'lim, shodlik - xat

Tiriklikku, aniq- non.

(“Vatan haqida she’r”)

Har bir ijodkor o‘z she’rlarida Ona-Vatan tasvirini chizib berishga harakat qiladi. Shoir Usmon Azim fikricha, bu dunyoda hamma narsa o‘tkinchi faqat Vatan muhabbatigina mangudir. Aynan shu mazmuni quydagi satrlarda ko‘rishimiz mumkin:

*Mening ko‘kragimda yonib oqibat
Kul bo‘lar, sovrilar mayda savdolar
Unda quyosh kabi lovullab faqat
Ona O‘zbekiston surati qolar.*

Xulosa shuki, biz Usmon Azimning har bir she’rida bundan-da go‘zal qiyoslarni, badiiy topilmalarni uchratamiz. Ham ijodkorning badiiy mahoratini ham she’riyatning asosiy vazifasini ko‘rsatib beradigan ushbu pancha fikrimizning xulosasi o‘laroq yangraydi:

*Bir bosgan izing guldon
Bir bosgan izing guldon
Quyosh bo‘lib lang‘illab
Ajrab borasan tundan.
Vujudi olov tulpor,
Yonasan lov-lov tulpor,
Tortgan aravang-zamin,
Olovla yalov tulpor.*

(“Sheriyat”)

Ushbu satrlarda shoir she’riyatning vazifasini tulpor bo‘lib zamon aravasini tortish, deb baholaydi. Haqiqatan, yuqorida ham aytilganidek, badiiy adabiyot buyuk tarbiyachidir. Usmon Azimning badiiy jihatdan mukammal she’rlari bizni ezgulikka, o‘zlikni anglashga chorlovchi, hayot deb atalmay buyuk xilqatni his qilishga o‘rgatuvchi, dilga ma’naviy oziq, ruhga quvvat beruvchi, yo‘limizni yorituvchi mayoqlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmon Azim. Saylanma she’rlar.-T.:Sharq, 1995

O'LMAS UMARBEOVNING "OQSOQOL" HIKOYASIDA UNSIZ DARD OVOZI

J. Ernazarov, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

O'zbek adabiyotining yetuk namoyandalardan biri bo'lgan O'lmas Umarbekov o'zining o'tkir qalami bilan yozilgan asarlari orqali kitobxonlar qalbini egallab, yurt taraqqiyoti va yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchilardan biri hisoblanadi.

O'lmas Umarbekov hikoyalarida insonni anglashga, uning ruhiy dunyosiga kirishga va odamning o'y-u tuyg'ularini ichdan turib tasvirlashga intilgani bois uning hikoyalarida samimiyat kuchlilik qiladi.

Adib hikoyalarning qahramonlari oddiy odamlar hisoblanadi. Odamlarning his-tuyg'ulari ichki kechinmalari, orzu-armonlarini yoritib berishga harakat qilgan. Bu tuyg'ular asosan, ziddiyat orqali ochib beriladi. Bu ziddiyatlarda xalq dardi, inson kamolati, insonlarni qiynab keluvchi azaliy muammolar, ya'ni insonlar o'rtasidagibir-birini ko'rolmaslik, hasad kabi illatlarni ochib berish va ularni qanday qilib barham toptirish masalalari ham namoyon bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda adib hikoyalarda voqealar rivoji keskin voqealar orqali bir-birini to'ldirgan holda rivojlanib borishi bilan boshqa yozuvchilarning asarlaridan ajralib turadi. Shu jumladan, adibning "Oqsoqol" nomli hikoyasida ham yuqorida ta'kidlangan holatlar nihoyatda jozibador tasvirlanadi.

Asarqadimda mavjud bo'lgan sak va o'g'uz qabilalarining o'zaro kelishmovchiliklari tufayli bir-biri bilan yuz ko'rmas holda aloqani uzgani va quda-andachiliklar ham uzilgani haqidagi voqea bilan boshlanadi. Qabilalar o'rtasidagi ixtilofga qarshi qadam qo'ygan sak qabilasi oqsoqolining o'g'li Mardon va uning sevgilisi o'g'uz qabilasining obro'li oilasining qizi bo'lgan Purvinaning ishqiy sarguzashtlaridir.

Asarning bosh qahramonlaridan biri soqov o'tinchi yigit Mardon va Purvinaning pinhona uchrashuvlari guvohi bo'lib, qabiladoshlariga bu uchrashuv haqida xabar beradi. Shundan so'ng Oqsoqol qabila qonunlariga qarshi borganlarning jazolaga tortilishi haqida buyruq beradi. Ikki yoshning jazolanishiga sabab, yer ko'chganda Qurama gumburlab, tep-tekis joydan yangi tog' o'sib chiqishi va ikki qabila aholisining bu hodisaga, go'yoki o'rtaga solingan nifoqday qarashi ularni bir-biri bilan yuzko'rmas bo'lib yashashiga sabab bo'lgan.

Adib voqeada soqov o'tinchi yigitning ichki his-tuyg'ularining ifodasini: yigitning ikki yosh uchrashuviga guvoh bo'lgani holda uning ichidan uyg'ongan hasad va xalq oldidagi burchikabi qarama-qarshi tuyg'u uni bu ishlarni

fosh qilishga undaganligini ochib berishga harakat qilgan. Chunki basad o'z ikkisini ijtimoiy holati ya'ni, Mardon to'kin-sochinlikda u esa qiymatli kun kechirayotganligida edi. Xalq oldidagi burchi esa, qabila qoidalarini o'z osti qilganlarni fosh etganligida ko'rinadi. Qabila qoidalariga qarshi borgan toshbo'ron qilib o'ldirilishi muqarrar qilib qo'yilgandi. Sir ochildi. Endi o'z jazolash muammosi o'rta qo'yildi. Bu holatda Oqsoqol qanday yo'l tutadi Taomilga qarshi borgan uning Xudodan tilab olgan jondan ortiq jimga o'z Mardon. Oqsoqol xalq xohishiga bo'ysunib o'g'lini jazoga tortish va undan yig' kecholmaslik holati, qahramonning og'ir ahvolda tushishi hamda ruhiyatdagi iztiroblarini ochib berish **muallifdan juda katta mahorat talab qilgan**

Oqsoqolning hukmni ertaga ijro etilishidagi qarori hali o'g'lini o'z qolishi mumkin degan umid uchquni uning ichini tirmaydi. Xalq oldidagi o'z og'il holati tasvirida

“-Nima qilib qo'yding? Ko'pchilik uning gapini eshitdi va nafasini yutib nima bo'lishini kuta boshladi.

-Meni kechiring, ota, – dedi eshitilar eshitilmas Mardon. Oqsoqol o'z sezmaganda uning boshiga qo'lini qo'yib, silay boshladi”. Ushbu holatda adib o'zining iste'dodini namoyon qilgan. Bu o'rinda Oqsoqolning hukm ijrosini ertaga qoldirganligi ham otaning ich-ichidan larzaga tushganini ko'rsatadi. **U niddoni kimga va qay holda ochishini bilmay o'rtnanishi o'zbek otalariga o'z bo'lgan xususiyatidir.**

Adib kitobxonni chuqur o'yga toldiruvchi masalani o'quvchi hukmga havola etadi, ya'ni Oqsoqolning oldida ikki yo'l bor: yo xalq, yoki farzand. Agar xalqni tanlasa jondan ortiq o'g'lidan kechish juda og'ir, farzandini tanlasa xalqqa bergan qasamyodiga xiyonat. Qonun hamma uchun tengligi na ma'na na zamon tanlaydi. Ushbu tuyg'ular qurshovida qolgan oqsoqol dardi, uning nihoyatda qiyin ahvolda qolganligidan dalolat beradi.

Oqsoqolning ikki yoshning qochib ketishiga imkon yaratishi va barcha javobgarlikni o'z zimmasiga olishi chinakam otaning farzandiga bo'lgan chekka mehridan dalolat beradi. Oqsoqol qilgan ishidan keyin jazo maydoniga o'z chiqishi xalqni hayratga soladi. Shu o'rinda Oqsoqol va soqov o'tinchining yig' holati juda ta'sirchan ifodalangan: „Jimlikni soqov o'tinchining birdan uyvoq solib yig'lab yuborgani buzdi. U qayoqdandir Oqsoqol oldida paydo bo'lib o'zini uning oyoqlari ostiga tashladi. Butun vujudi qaltirab yig'lar ekan, boshini yerga urib, nimalardir deb g'uldirardi”.

Bu o'rinda adib soqov o'tinchi timsoli orqali xalqni uyg'otishga, ya'ni har bir qilingan ish uchun javob berish muqarrar ekanligini uqtirmoqchi bo'lgan. Hatto aqli kalta soqov o'tinchining ham vijdoni qiynalib, qilgan qilmishini

soqovlab yetishi, otaning shunday og'ir vaziyatda qolganligi uni qattiq qayg'uga soladi. Shu bilan bir qatorda Oqsoqolning unsiz, maydonda o'zining dardini tutmay qiynalishi va soqov o'tinchining ham ichida kechayotgan histug'ularini izhor qilolmay kechinmalarini urvos solib yig'lab izhor etishida o'zaro yaqinlik bor. Har ikki qahramonni bog'lab turuvchi tomon o'z dard va kecholmalarini unsiz oshkor etishida tasvirlanadi. Asarning eng og'riqli va ayanchli muqaddasi qo'lga tosh ko'tarib turganlarning ichida sevimli ayoli bo'lgan Rohilani ko'rishidir.

Oqsoqol uchun bundan ortiq **zarbaning** o'zi yo'q. Xulosa qilib aytganda, bunda ko'tarilgan asosiy g'oya bir tomondan inson har qanday holatda ham kechayotgan ishining oxirini o'ylab qilishi, shoshma-shosharlik bilan qilingan ishning oxiri yaxshi oqibatlariga olib kelmasligida bo'lsa, yana bir tomondan esa insonlarning bir-biri bilan birdamlikda, hamjihatlikda totuv hayot kechirishlari va dushmanlik, kelishmovchilik, ayirmachilik illatlariga qarshi kurashib yashashlariga da'vat etiladi.

SHAVKAT RAHMON IJODIGA BIR NAZAR...

Q. Mamiraliyev, III bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Shavkat Rahmon XX asr o'zbek she'riyatiga o'zgacha ruh olib kirgan va faqat o'ziga xos uslubda ijod qilgan shoirdir. Shoir ta'biri bilan aytganda, asl qalamkash “jasorat” so'zining tarjimoni, kuychisi bo'lishi kerak.

Shavkat Rahmon o'z ijodini millat hayoti, taqdiridan ayriacha tasavvur etgan olmasdi. Shoir har bir millatdoshining ko'ngil mulkiga kirib borgan, millat dardi yo'lida iztiroblar chekib yashagan shoir edi. O'z she'rlarida hamisha toza va tiniq, asl va samimiy tuyg'ularni kuyunchaklik bilan kuyadi, yonib ijod qildi. Shoir bir umr zulfiqor ruhning yorqin manzillariga yetib borishga astoydil intilib yashadi.

Zulfiqor ruh kerak,

kerak chin yog'du,

chin ishq yolqinlari bag'rimga to'lsin,

jismimni toblasin faqat chin og'riq,

chechaklar qop-qora bo'lsa-da bo'lsin.

Uning she'rlaridagi tabiat tasviri lirik qahramon bilan bo'g'liq ravishda turli muqsadlarga xizmat qiladi. Chunonchi, shoimning “Oy sinig'i” she'ri alohida e'tiborga molik. Suvloq oy yorug'iga to'ygan bir paytda shubadalar ma'yus ayollarga, otning yollari esa sharsharaga o'xshatilgan.

Ot ko'k yollarini suvga botirib suv ichmoqda. Shoir otning yollarini ko'k rangda tabiat va osmon bilan uyg'unlikda tasvirlaydi.

...Atrofdagi ko'm-ko'k adirlar –

O'tovlarda botirlar yotar. –

misalarida o'tovlarda, ya'ni qabr ichida yotgan bahodirlarni nazarda tutadi. Bunda o'tovlar qabrlarga mengzalib, go'zal tashbeh san'ati yaratilgan.

Biroq tunda o't-maysalarga

To'kiladir kimning yoshlari?

Shoir bunda tunlari maysalarga qo'ngan shudringlari zaminida xalqning iztiroblari, anduhlari, ko'z yoshlarini ifodalaydi. Qonga botgan qancha-qancha begunoh vatandoshlarimiz, istiqloq kuychilarini nazarda tutadi.

Said Ahmad "Jimjitlik" romanida sho'ro hukumati davridagi zohir va tinch, biroq odamlarning botinamiz besaranjom, halovatsiz, turg'unlik yillaridan hikoya qiladi. Shavkat Rahmon she'r so'nggida ushbu jimjitlikka ishora qiladi. Xalqni mute'lik, qaramlik, boqimandalik, beg'amlikdan uyg'unlashma chorlaydi. Ularning beg'amligidan xavotirga tushadi:

Nima bo'lgan ularga axir,

Yo sehrlab qo'rganmi suvloq?

Nega jimlik cho'kkan vohada

Beg'am uxlar botirlar uzoq?

Xalqning uyqudan uyg'unishini, jimlik bu osoyishta hayot emas, deydi. Yaratish, yaralish, o'z baxti, oilasi, Vatan uchun mehnat qilish yo'lida shovqin solinglar, quringlar, baralla ovoz bilan yashab o'tinglar, deya chorlaydi. "Shoir she'riyatini juvonmardlik ruhi bilan sug'orilgan. U millatning zabun holdan sho'roviylar ostida toptalgan Vatanning pajmurda jismidan o'rtanadi". Uning deyarli barcha she'rlarida o'zbek xalqining dardi, qayg'usi, orzu-umidlar o'zining bo'yini ko'rsatib turadi.

Shoir ijodida uning "Xonadon" she'ri alohida ajralib turadi. Unda shoirming ichki "men"i o'z ifodasini topgan. She'rdagi tasvirlangan nozik gullar ezgu tuyg'ularga yo'g'rilgan haqiqiy gullar emas, balki xonadondagilarning ma'rifat-u ma'naviyatining kamligiga ishora. Ma'naviyat yo'q yerda g'araz va fosiq niyatlar ko'payadi. Yaxshilarning ildiziga bolta uradi, kazzoblarga keng yo'l ochadi. Bunday muhitda ruh o'ladi, ruh yo'q joyda orzu-xayollar, tuyg'ular qotib qoladi. Harakatsizlik o'lishdir, chirishdir. Fikrlaydigan odam bu yashayotgan odam, ruhan turib odam.

Shoir she'rlarida tabiatdagi jismlarni tasvirlar ekan, ularga katta ma'no yuklaydi, hodisalardan falsafiy umumlashmalar yasaydi. Jumladan, uning

"Tutzor xotirlari" nomli she'rida ham xuddi shunday holatning guvohi bo'lamiz:

Tutzor -

Kallaklangan birodarlarim,

Osmonga bosh tirab turibsiz hamon,

Mayishgan timsohday badanlaringiz,

Dahshatli qudrat-la ezganday osmon.

Bu she'r mazmunan "Oy sinig'i" she'ri bilan hamohang davom etadi. Bunda qalbida o'z dardi emas, yurt dardi bor odam tuyg'ulari aksatib bergan. Aynan, shu she'rda begunoh insonlarning boshiga tushgan g'amin toshlari, iztiroblari o'z aksini topgan. "Tutzor" - bu yerda erk deb yushagan bahodirlarning taqdiri. Ular erk degan so'zni aytgani, ozod yurt istiqbolini ko'zlagani uchun "kallaklangan". Badanlarini mayishgana timsohday deb tasvirlaydi. Tut - qadimiy, ildizlari baquvvat daraxt. Uning tomirlari yerga juda mustahkam o'rnasha oladi. Shoir "kallaklangan birodarlar"ini habashiy qullarga mengzaydi, keyin buni inkor etib o'zbek pahlavonlariga deb ataydi. Shamol bo'lib kallaklangan birodarlarining boshlari ustida suzgan dardlarini to'zgitgisi keladi. O'zi ham tut bo'lib, osmonni bir nafas ko'tarib turishni xohlaydi va deydi: "**Sizday poshon bo'lib, asrayin elni**". Afsuski, bu tut (shoirning o'zi) ham kallaklanadi, bitoq sinmaydi. Osmonning bo'lagi yelkasiga tushadi, tuproqqa botadi, lekin singmaydi. Chunki unga yer ostidagi bobolar hamroh bo'ladi. Ildizlariga kaftlarini tirab, yulduzlarningdan ko'zingni uzma, deb umid beradi. Bobolaridan kuch-quvvat olgan shoir, tut bo'lganidan fahrlanadi. Shoxlari gurkirab o'sagn paytda, yengilroq bo'lsin, qiynalmasin deb kallaklab turishadi. Shoir shu o'rinda o'zining isyonkorligini ta'kidlaydi va deydi: "**qunchalik tutaqib chopqi ursalar, har chopqi zulmidan yangi ruh ola shoxlarim shunchalik o'sar gurkirab**". Bunday isyon qayerdan deb o'ylarsiz, ammo tut dardini faqat tutlar biladi, deydi shoir. Odamlar it kabi boylangan yurtda faqat temir kosov tayoqday turadi. Shavkat Rahmon bobolar xoklarini to'ng'izlar bosganligidan, qadim hududlarning qum kabi to'zgitganidan qayg'uradi. Odamlar tuproqqa aylangan yurtda zolimlarga husna-bas o'sish lozimligini, qancha kessa shuncha bo'y cho'zishini ta'kidlaydi. O'smasak bilingki, balog'at gali kelgan. Ildizlarimiz tig' kabi yordan uzilar, ammo tanalarimiz gurzi bo'lib, devyurak botirlar uchun bu g'arib maskanda hali kerak bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu she'rda adolatsiz zamonda ozodlik deb halok bo'lgan yurtdoshlarrimiz qismati aks etgan. Shavkat Rahmon ijodida jasorat pafosi yuqori pardalarda kuylangan.

Ma'lumki, tut daraxtini odamlar pilla boqish uchun shoxlarini kengitib, yana shox o'sganda yana shu holat takrorlanadi. Har yili shu taxlitda o'zbek shoir o'zbek xalqini ham tut daraxtiga o'xshatadi, ulug' kishilari qatag'ay qilingan, biroq yana vatanparvar o'z farzandlarini o'stirishda davom etuvchi millatga ishora qiladi.

Umuman olganda, Shavkat Rahmon ijodi insonni fidoyi bo'lishga chorlaydi, yana bir karra o'z burchlarimizni yodga soladi, ma'nan tarbiyalovchi jasoratli bo'lishga undaydi.

Shoir hayoti mobaynida yonib yashadi va bundan malollanmadi, aksincha "yonmoqlik munchalar yoqimli!" - deya huzurlanadi.

*Shavkat Rahmon degan
bir o'jar shoir,
bir kuni qaytadan yaraladimi?
Hayotim ma'nisin juda ko'p o'ylab,
sayladim so'zlarning saralarini.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Rahmon. Saylanma. –T.: Sharq, 1997.
2. Tursunboy Adashboyev (xotira va yodnomalarni nashrga tayyorlovchi) Shavkat Rahmonni xotirlab. –T.: Sharq, 2012.

ЧЕХОВ ХИКОЯЛАРИДА ИНСОН ҚАДРИ ВА ИНСОНИЙЛИК МАСАЛАСИ

К. Эгамкулов, Шибосқич талабаси (ТошДУТАУ)

Буюк рӯс ёзувчиси Антон Повлович Чехов адабиётда ўзига хос услуби ва шу билан бирга макон ва замон танламас ижот намуналарини билан жаҳон адабиётида ўчмас из қолдирди. Чехов ўз ижодида ихчамлилик, лўндалик, ортиқча сўз ишлатмаслик каби услубни ва илгари сурилган ром мазмунини ёрқин ва жуда ҳам аниқ даражада кўрсатиб бера олган. Бу борада адиб шундай фикр билдиради: “Майда ҳикоялар ёзганда сўзни ортиқча исроф қилгандан кўра керакликларини ҳам мумкин қадар озроқ ишлатиш керак”. Буюк ўзбек адиби Абдулла Қодирий эса, ўзининг “Майда ҳикоялар ёзганда сўзни қандай тежаш керак” деб номланган мақоласида Чехов ва унинг услуби ҳақида шундай дийди: “Майда ҳикоялар устаси Чехов сўз тўғрисига келганда ҳаддан ташқари ҳасил, ортиқча сўзлар сарф қилиш у ёқда турсин, керакликларидан ҳам мумкин қадар юлишга ҳаракат қилади”.

Ҳақиқатдан ҳам Чехов ҳикояларини тингловчини зериктириб бўлмайди, ўқувчи ҳикоя мазмунини тушиниб олишда муаммага дуч келмайди, даражада ёритиб бера олган. Унинг яна бир услубий хослиги шундаки у ҳаёт ва жамият муаммоларини кишининг нафратини кўрсатмайди, даражада, кулгу йўли билан айтиб беради.

Чехов асарларида энг аввало у илгари сурган мавзулар кўлами юқори аҳамият касб этади. У ўз давридаги жамият муаммоларидан тасирланади ва ёлган ҳикояларида инсон қадри, табақаланиш, лаганбардорлик, оддий халқ тушунчаси ва амалдорларнинг муносабати каби мавзуларни ўртага ташлайди. Бу мавзудаги асарларига “Буқаламун”, “Уйку истаги”, “Чиновникнинг ўлими”, “Семиз ва ориқ” каби ҳикоялари аниқ ва ёрқин мисол бўла олади. Ёзувчининг “Буқаламун” ҳикоясида табақаланиш, инсон қадри, лаганбардорлик каби ғоялар аниқ тасвирланади. Бу ҳикояда биргина от образи билан мансабдор шахснинг одий одамларга пас муносабатда бўлишлик, уларни жамиятда мансабдорларнинг итчалик назарга келмасликдек салбий характерлар кўрсатиб берилади. Бу ҳикояда бир тарафдан лаганбардорлик тасвирланса, бир тарафдан мансабдор шахс ва оддий халқнинг муносабати аниқ ва лўнда кўрсатиб берилади. Бу мавзулар асосининг “Чиновникнинг ўлими” ҳикоясида ҳам сезилиб туради.

Чеховнинг “Семиз ва ориқ” ҳикоясида энг аввало, табақаланиш, инсонийлик қадри, амал ва инсон, жамиятнинг энг паст ва мунозарали характерларидан бўлган бой ва камбағаллик каби муаммоли мавзулар ўртага ташланади. Асарда буларнинг ҳаммаси образлар орқали аниқ тасвирланади. Бу асарни энгилгина ўқисакда, уни яхши тушинишимиз учун чуқурроқ таҳлил қилишимиз керак. Биринчи бўлиб ҳикояда яратилган образларга этибор қаратамиз: Ҳикояда семиз образи орқали амалдор шахс тасвирланса, ориқда эса, оддий халқ тасвирланади. Йўл орқали эса, ҳаётни тасвирлайди.

“Николаев темир йўлининг вокзалида икки ошна учрашиб қолди. Бири семиз, бири ориқ. Семиз ҳозиргина вокзалда овқат еган — ёғлиқ лаби тишган олчадай ялтираб турибди. Ундан херес виноси ва флерд оранже деган атирнинг ҳиди келар эди. Ориқ эса вагондан ҳозиргина тушган ва чемодан, тугун, картонлар кўтариб олган эди. Ундан ветчина ва қаҳва ҳиди келар эди. Унинг орқасида ориқ, чўзиқ юзли хотини, қисик кўзли новча гимназист ўғли турибди”.

Асарда илгари сурилган ғояни тасвирий ифодалар орқали янаям аниқроқ кўрсатиб беради. Ҳикояда халқни ориқлик тасвири орқали кўрсатиб бериш бир белгиси бўлса, унинг хотини, ўғли яна бир белги,

жамоатчиликни билдиради. Кейин эса, уларнинг муносабати тасвирланади:

“Хўш, сенчи? Статский советник бўлгандирсан, дейман? А? — Йўқ, азизим, юкорирокдан келавер,— деди семиз.— Мен табиий советник бўлиб қолдим... Иккита Юлдузим бор Бирданига ориқнинг ронга оқариб кетди, тошдай қотиб қолди, лекин сал ўтмай юзи таравиб куйдирган калладай иржайди; худди юз-кўзидан учкунлар ёғилмаганга ўхшар эди. Ўзи кўнишди, букчайди... чамадони, тугуни ва картонлари кўришиб қолгандай бўлди... Хотинининг чўзиқ юзи яна ҳам чўшқани Нафанаил ғоз туриб, мундирининг ҳамма тугмаларини солди...”
Ҳикояда кўпроқ, гоё муаммоларини ориқни (халқнинг) характери ва юклайди. Асарда мажбурийлик сезилмайди, лекин муносабатларнинг кейинги давомийлиги учун шундай характерга кириши керак ҳам эмас.
“Семиз унга қарши нимадир демоқчи эди, унинг юзидаги ортиқ даражада бўлган мутиълик, хоксорлик аломатлари энсасини қотириб юборди. У ўгирилиб, хайрлашгани қўл узатди. Ориқ, бутун вужуди билан таъзим қилиб хайрлашди ва хитойдай ҳиҳилади. Хотин илжайди. Нафанаил тавозил билан қадам ташлайман, деб шапкасини кўлидан тушириб юборди. Учқовни ҳам ўзида йўқ хурсанд эди”.

Чехов асарларининг макон ва замон танламаслиги шундаки, чунки у илгари сурган гоё мавзулари ва ифодалаган характерлар бугунги кунда ҳам ёки, бирон ерда йўқ дия олмаймиз. Унинг қанчалик ҳаётийлиги ҳам нима бир исботи. У анашундай гоёларни ёритиб беришда ўзига хос услуби билан жаҳон адабиётида чуқур из қолдирди. Унинг энг яхши наصري асарлари ўзбек тилига ҳам таржима этилган. Чехов ўз ижоди билан жаҳон адабиёти тараққиётига сезиларли тасир кўрсатиш билан бир қаторда ўзбек адабиётида реалистик ҳикоя жанрининг ҳам майдонга келишига сабабчи бўлди. Ўзбек адабиётшунослигида, Қодирий, Абдулла Қаҳҳор, Ғафур Ғулум каби ижодкорларнинг ҳикоянавислик ижодининг шаклланишида Чехов ананалари муайян омил бўлиб хизмат қилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А. П. Чехов. Танланган асарлар.
2. А. Қодирий. “Майда ҳикоялар ёзганда сўзни қандай тежаш керак”.
3. Б. Карим “Қодирийнинг Чеховдан бир таржимаси”

ABDULLA O'RIPOV LIRIKASIDA KUZ MANZARALARI

M. Alimova, II bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Yoshlarda manaviyat va madaniyatni tarbiyalashda adabiyotning o'rni ko'p qiyos. O'zbek she'riyatida tabiat mavzusi alohida o'ringa ega. O'zbek xalqining sevimli shoiri O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov she'rlarida Vatanga muhabbat, diyorimizning betakror tabiati, mehnatkash xalqimizning shijoati, inson qadri o'z aksini topgan. Shoir she'rlarining barchasida inson tabiati, fe'l-atvori, hech kim ilg'amaydigan qirralarini yozar ekan, oddiygina tabiat manzaralarini tasvirlashda ham o'ziga xos usullardan foydalanadi. Tabiat manzaralarini, ona yurt tabiatning kichik bir bo'lagini ham tasvirlar ekan, ehtimol ijodkor bepoyon dalalarda qaynayotgan ishni ko'rib yoxud bog'lardagi g'arq pishgan mevalardan ilhomlanib ash'or bitgandir. Jumladan, uning “O'zbekistonda kuz” she'rida vatanimiz tabiatining turfa go'zalliklarini o'ziga xos yo'sinda ta'riflaydi:

Yurgil, dalalarga ketaylik, do'stim,

Diqqinafas uyda yotmoq paytimas,

deya bizni O'zbekiston bo'ylab sayohatga chorlaydi. Shoir Vatanimizga kelgan kuz faslini pariga o'xshatib, hosildor tuprog'imizni oltinga qiyoslab, kunlarning salqinlab qolganini quyoshning erinchak yog'dularidan deb ta'riflaydi. Issiq yozdan so'ng harorat ancha pasayib qolganini quyidagi ta'riflar orqali ifodalaydi:

Shabnam shovullaydi bog'lar qo'ymida,

Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar.

Shoir ko'rkam fasl haqida yozar ekan, kuzdan nishona to'kinlik deya, ona xalqimiz rizqi yerga sepilganligini, hattoki to'kilgan xazon barglari ham nafis yaltirashini aytadi. Yoz bo'yi ter to'kkan dehqonga dalda berish maqsadida xitob qiladi:

Sening o'zing kabi o'ychan va quvnoq,

Xushfe'l bo'lib kelmish tuprog'ingga kuz.

Bahorni yoshlikka qiyoslashsa, kuzni umr sarhisobini o'ylaydigan davr deyishadi. Shoir she'rida o'xshashi yo'q ta'rif keltiradi:

Nahotki shuncha tez aylanar dunyo?!

Baxtli keksalikni yodga solar kuz,...

Kuz har ko'ngilga turlicha hayajon olib keladi. Kimdir xazonlar davri desa, kimdir “to'kilish” davri deydi. Shoir esa qo'llari qadoq bo'lgan dehqonning mehnatlari uchun mukofot davri, hosil olish payti deya ta'rif beradi:

*Zahmatkash o'zbekning hosili qandoq?!
Kuzning falsafasi shudir biz uchun,
Ulug' mehnat kezar shan dalalarda,
Har yonda hokim tashvishli ilhom.*

Asarning boshidan to so'ngiga qadar ijodkor bizni diyorimiz bo'ylab kuz malikasi bilan hamnafaslikda sayr etirdi. Uning ibtidosi tuman tuman bo'zargan tong ila boshlanib kun botishi bilan tugadi:

*Quyosh bota boshlar... gavjum qirlarga
Qoraya-qoraya to'shalar oqshom.
Eh, kuzgi oqshomlar...
Dilimda mening
Teran tuyg'ularim qo'zg'alar jo'shib.
Qo'zg'alar-u, shu dam qalbimda sekin
To'kila boshlaydi oydin bir qo'shiq.*

She'r ta'rifidagi kuz manzaralarida har bir element, tasviriy-ifodaviy vositalarni vatanimizni jondan sevgan shoirming ichki his-tuyg'ulari, hostidok tuprog'ida oltindek to'kilgan barglariga, ona yurt tabiatiga maftun bo'lgan o'zbek farzandini ko'rishimiz mumkin.

Kuz xayollar davri hamdir. Barglarning shitirlashi, tabiatning serple manzaralariga razm solsangiz xayollarga berilib qolasiz. Masalan shoirming "Kuz xayollari" she'rini ko'raylik. Shoir kuz xayollarini ta'riflar ekan tin qora oqshomlarini, samodan yulduzlar boqishini go'zal deya, changalzor shovqini tingalashini, yaproqlarida esa bezovta va ma'yus kuzni ko'rishini aytadi. Qalb qayg'uga botishini, ma'yuslikni faslga qiyoslaydi

*Nimani xohlayman? Istagim nima?
Changalzor shovqinini tinglab turaman.
Yaproqlar bandida kezgan jimgina
Ma'yus va bezovta kuzni ko'raman.
Uning qo'shig'ida, uning ohida
Sezaman odamzod qalbini gohida*

Kuz xayollarida hayot va o'lim birdayligi, so'nggi damlatni yashayotgan kekxa chol so'nggini o'ylab, boshidan o'tkazganlarini bitta bir so'ylashiga o'xshatadi. Hayotni mazmunsiz yashab o'tib umrini xazonga aylantirmang

*Bir hikmat o'qiyman xazonlarda men:
"Yashagin-u, biroq yaprog' bo'lma sen".*

Daraxtlar yaprog'larini to'kib qishki uyquga ketadi. Bahorda kuchga to'lib uyg'onib, yangi hayot boshlaydi. Inson hayotining davrlarini fasllarga

qiyoslasak har bir fasl bir marta keladi. Shu jumladan kuz ham, shoir bu holatni quyidagicha ta'riflaydi:

*Mangu yoshlikni maskani qayda,
Qaydadir xazonni bilmagan bahor?
Nechun u hovliqib oqquvchi soyda
Chavandoz umrining qaytmas sehri bor?!
Nechun uyg'onadi qaytadan bahor,
Nechun inson umri bo'lmagay takror?..*

Vaqt misoli oqar daryo, umr besamar o'tmasin. Xazonlar shoshadi, biz ham shoshamiz, hozir bahor davrimizda bo'lsak ham keksalik, kuz olisda emas. Kunlar tezda tunlarga ulanib, haftalar, oylar, yillar o'tib ketayпти, vaqtning qadrini anglamog'imiz lozim.

*Shu dam tuyg'ularga to'ladi ko'nglim,
Titrab tarashlayman qalamim uchin.
Tong ham yorishadi, ey mening umrim.
Bunchalar tezlikda chopasan nechun?*

Kuz insonlarga ilhom bag'ishlaydigan fasl. Uning husni chiroyli, sehri o'zgacha. "Kuz manzaralari" she'rida shoir yuragida otash bo'lgan tuyg'ularini qog'ozga tushirar ekan, lov-lov yongan barglar, yuragidagi olovga qiyoslaydi.

*Yana dalalarga boshlaydi havas,
Bog'larda xazonlar yonadi lov-lov.
Do'stlarim, bu kuzning barglari emas,
Mening yuragimdan to'kilgan olov.*

She'rda shohlarda yaltiragan mezonlar aslida mezon emas so'ngsiz o'ylarim deydi A.Oripov. Bahorda kurtak yozib, ehtimol gullab, hosil bermagan muhabbat o'z aksini kuz xazonlarida topadi. Muhabbat olisda qolgan tufayli quyosh yondirmas, faqat yaltiraydi va u ham quyosh emas, yoshlikdan qolgan muhabbatdir...

*Quyosh ham falakda bamisoli ro'yo,
U endi yondirmas, yaltirar faqat.
Do'stlar, u ham endi quyoshmas aslo,
U olis yoshlikda qolgan muhabbat.*

Shoir she'rlarida kuz faslini mohirona ifodalab bergan. Mehnatlarining rag'batini oladigan ajobtovur davr, yoshlikdagi xotiralar, kuzgi manzara va xayollar aksini topgan ijodi bilan ko'plab adabiyot ixlosmandlari qatorida mening dilimda ham qolgan. Hattoki kuzning xazonrezgilariga ham chiroyli ta'rif berib yuraklarda beg'uborlik hissini

uyg 'ata olgan. Fasl o'zgarishlarini inson qalbidagi kechinmalarga bog'lab olgan. O'ylaymanki, adbiyotimizning ustunlaridan biri bo'lgan ustozimning ijod namunalari vatandoshlarim maroq bilan o'qib, saboqlarini uqadilar.

АСАРДАН АСРГА ТАШЛАНГАН НАЗАР

Н. Каримова, II босқич талабаси (ТошДУГАТ)

“Адабий жанрлар машириқдан мағрибга томон, мағрибдан машириққа томон пайдар-пай ўтиб туради. Ўртада эса адабиёт бўстони ястаниб ётади...”²⁶

Эзгулик, меҳр-муҳаббат, диёнат, садоқат сингари соф инсоний фазилатларни ўзида қамраган бадий адабиётда баъзан ёмонлик, шифрли хиёнат каби тубан туйғулар ҳам қаламга олинади. Ҳа, қанчалар, неқадар бағрикенг бу адабиёт майдонининг! Айнан мана шу сифати билан у инсониятга асрлар давомида яхшилик билан ёмонлик, оқ ва қора ринглар фарқидан сабоқ беради. Қиёсан олганда, ҳаёт бамисоли муаззам бир мактаб, бадий адабиёт шу мактабнинг фидойи раҳбари; жавоннаш дурдона-ғўзал асар эса муаллимлардир.

Дарвоқе, шундай муаллимлар борки, бир марта маърузасини эшитган унинг машгулотларига ўқувчилар қайта киришни ишташмайди. Айни чоғда яна ғаройиб, нотик муаллимлар борки, ўқувчи зоти мактабдаги бошқа барча фанлар қолиб фақатгина ўша жонкуяр ўқитувчининг дарсини хоҳлаб қолишади. Чунки жонли дарс бир умр ўқувчининг эсидан чиқмайди...

Бадий асарлар ҳам шу икки тоифа муаллимга ўхшаркан. Чингиз Айтматовнинг “Асрга татиғулик кун” асари – яхши муаллим. Назаримда, ҳаётга реал нигоҳ билан қараган адиб ўз тафаккур ва таассуроти маҳсули бўлган асари орқали юрагидаги дардларини халқ қалбига жуда ширин тасвирлар воситасида етказиб бергандек. “Асрга татиғулик кун”нинг бошқа асарлардан фарқли ва муҳим бадий хусусияти шундаки, асар ретроспектив сюжет асосига қурилган. Унинг бош қаҳрамони - Саригуна чўлининг Бўронли бекати истиқомат қилувчи - Эдигей Бўрон. Ёзувчи унинг одам оёғи етмас худудда, умуман, ташқи дунёдан узилиб қолган Саригуна чўлларида яшайдиган темирйўлчи сифатида тасвирлайди. Гарчи бу одамлардан олис яшаса ҳам, унинг қалбида инсоний фазилатлар жамулжамдир. Кимсасиз Саригуна чўли - Эдигейнинг ватани. Эдигейнинг биринчи фарзандидан жудо бўлгани, урушдан қайтгани, Казанга билан танишгани, мустабид тузум даврида ноҳақ айбланган ўқитувчи Абутоғи Қуттибоев билан қўшни бўлгани, Қуттибоевнинг аёли Зарифа ва болалар

²⁶Ушбу қўштирноққа олинган жумла “Асрга татиғулик кун” романининг бир жумласига ўхшатмадир -Н.К.

бирча-барчаси унинг хотирасида тўлқинланади. Ёзувчи тўлқинларнинг ҳаммасини бир томчи сувда, яъни Казангага бағишланган жаноза кунида акслантиради.

Асарнинг рухий қуввати ва ёзилиш услубидаги ўзига хослик уни бошқа китобларидан жиддий ажратиб туради. “Асрга татигулик кун” мавзусида, қаҳрамонларининг табиати ва, умуман, роман сийратисида вазмин бир ҳолат ҳукмронлик қилади. Бу хусусиятнинг келиб чиқишига, балки романнинг энг фожеий ва оғриқли нуқтаси – Найман Она ҳақидаги ривоят асосланган. Ривоятга кўра, жунгжанглар билан бўлган жангда, жангчи Жўломон душман тарафга асир тушади. Онаизорга ўғлининг ўлими ҳақида хабар етиб келади. Ўткинчилардан Сарйўзак чўлларида манкуртга айлантирилган жангчи ҳақидаги хабарни эшитиб, Найман она “балки менинг ўғлимдир” деб йўлга тушади. Не кўз билан кўрсинки, ўша манкурт унинг ўғли бўлиб чиқади. Бошга тери кийдирилган манкурт - ўзлигини унутган, иймонидан айрилган, оқ ва қорани аралаштириб юборган, онгу шуурини йўқотган, тафаккур нурлари сўнган, Ватанига эмас, унга тери кийдирилган душман тарафга - жунгжангларга хизмат қилишдан бошқа ҳеч нимага ярамайдиган одам, табиийки, онасини ҳам танимайди. Мушטיפар она ўғлига йўлиққанидан жуда-жуда суюнади. Бироқ душмanning буйруғи билан ўғли онасига ўқ узганида бутун чўлу биёбон Найман Онага ҳамдард бўлади. Ривоят якунига кўра, онанинг бошидаги оқ рўмоли кушга айланиб, Милақумдичоп жарлигига учиб кетади. Нақадар даҳшатли, рамзли бир минзара! Сўзимиз бошида адабиётнинг бағрикенглигидан гап очилган эди. Бир қарашда қистирма эпизод бўлиб кўринган ривоят ваҳший қотиллик ва анчли фожиа ифодаси, умуман, адиб гоёси учун ёпинчиқ вазифасини бажараётгани асар тўла ўқиб чиқилгандан кейин англашилади. Ёпинчиқ остидан жисман кўзи очик бўлса-да, қалб кўзи кўр бўлган бир нечта мифнавий манкуртлар мўралаб қараб туради.

Отасининг ўлимига унчалик куюнмаган ва дафн маросимига ҳам қизиқмаган Собитжон ўз онасига ўқ узган Жўломон билан эгизак қиҳрамон; у ҳам манкурт одам. Ўзи ҳам тушунмайдиган мавзуларни содда одамларга тушунтирмақчи бўлиб, ўзини гўё жамият учун куюнчаклик қилаётгандек кўрсатган Собитжон ҳеч бўлмаганда, ана шу сохта куюнчаклигини дафн маросимида кўрсатмаса қанийди! Отасини олисдаги қибристонга олиб бориб кўмиш, дафн маросими тўла-тўқис адо этиш шарт эмас, дея эътироз билдиради у ва бунинг эскилик сарқити эканини бошқаларга ҳам юқтирмақчи бўлади. Собитжон гарчи бошига тери

кийдирилмаган бўлса-да, миллий қадриятларини унутган, маънан жуда паст бир одамдир.

Асарда яна бир – барчасидан ўтиб тушган учинчи манқурт ҳам бир У - лейтенант Тансиқбоев. У Казанга шнинг майитини дафн этиш учун Ота байт қабристонига йўл олган Бўронли бекати ишчиларини ортга қайтишига мажбур этади. Қабристон томондаги йўлни сим тўсиқ билан ўраганини бўронлиликларнинг ҳафсаласини пир қилади. Мўйсафид Эдигей қанчалар уринмасин, лейтинантга ўз илтимосини бажартира олмайди. Умрини Сариўзак чўлида, дашту биёбонда ўтқариб, бандалик қилган Марҳум қабристонга дафн этилмайди. Лейтинантнинг ўз халқининг урф-одатларини поймол этиши, ўз она тилида сўзлашмагани, қадриятлардан кўра сим тўсиқдан ўтиш учун бериладиган рухсатномани афзал билиши маънавий манқуртлгига далолатдир.

“Адабий жанрлар машиқдан мағрибга томон, мағрибдан машиққа томон пайдар-пай ўтиб туради. Ўртада эса адабиёт бўстони ястаниб ётади...”

Романнинг сюжет доираси айланиб, қайта Малакүмдичоп жарлини ёқасига келди. Ривоятдаги Найман она ҳам шу ерга келиб, манқурт ўрни туфайли ҳалок бўлган эди. Асардаги лейтенант Тансиқбоев ҳам айнан шу ерда тўхталади. Ноилож ортга қайтган бўронлиликлар шу жарлик ёқасини Казанга шни дафн этишади. Сюжет чархпалагини айлантиришда ёзувчи бир қанча бадий усулларни қўллайди. Зеро, Чингиз Айтматов шундай бетакрор усулларни ишлатгани учун “Асрга татиғулик кун” бугун ҳам бизга муаллимлик қила олмоқда.

XX асрга ташланган поэтик назар - “Асрга татиғулик кун” каби бебаҳо дурдоналар бизни бугун ҳам огоҳликка чорлайди. Мурғак ва покни тафаккурни ўткинчи иллатлардан узоқ тутишга ўргатади. Одам боласи кўпинча тан саломатлигини ўйлайди. Ҳолбуки, инсонлар юксак маънавият, соғлом фикр, теран дунёқараш, ҳақида ҳам қайғуришлари лозим. “Асрга татиғулик кун” бизга шулар хусусида ҳам дарс беради.

“Адабий жанрлар машиқдан мағрибга томон, мағрибдан машиққа томон пайдар-пай ўтиб туради. Ўртада эса адабиёт бўстони ястаниб ётади...”

FIDOYI INSON VA ILM-U MA'RIFAT HOMIYSI

N. Nasrullayev, II bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Alisher Navoiy buyuk mutafakkir, ustoz ijodkor bo'lishi bilan birga jamiyat istiqboli, el-yurt kelajagi uchun qayg'uruvchi fidoyi inson ham edi. Mumlakat yoshlarini har tomonlama yetuk, ilm-ma'rifatli bo'lishlarini istagan mutafakkir o'zining ko'pgina asarlarida bu haqdagi qarashlarini ilgari surgan. "Muhub ul-qulub" asarida maktabdorlar va ularning faoliyati xususida to'xtalib o'tur ekan, o'qituvchi mehnati, shuningdek, murabbiylik faoliyatini xolisona baholaydi. Biroq shu o'rinda ularning qattiqqo'l johil va ta'magir bo'lishlarini qattiq qoralaydi. "Uning ishi odam qo'lidan kelmas baloki, dev ham qila bilmas. Bir kishi bir yosh bolani saqlashdan ojizlik qilardi. U esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi. Ko'rkim, bunga nima yetsin shunisi ham borki, u to'dada fahm-furosati ozlar bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa, ham unga muallimga qulluq qilsa arzidi"

"Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila.

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila".

Shoir har bir yosh avlodning ma'naviy kamolotida bilim va tarbiyaning ahamiyatini ko'rsatib berish bilan birga, jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi yo'lida bu mashaqqatli kasb egalarining olim-u fozillarga nisbatan hurmat ko'rsatish, ularning turmush darajalarini yaxshilash masalalariga ham e'tiborini qaratadi.

Alisher Navoiyning inson ma'naviy kamoloti, baxt-saodati yo'lidagi aytgan bunday pand-nasihatlari, hayotiy tavsiyalari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Allomaning ta'lim-tarbiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari borasidagi fikrlari Sharq pedagogikasining qimmatli xazinasini hisoblanadi. Bu tavsiyalardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish, milliy-umuminsoniy qadriyatlarga murojaat etish va bu bilan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda munosib yo'l hisoblanadi.

Qolaversa, Alisher Navoiy ta'lim sohasiga yana bir qancha ulkan xizmatlari bilan ham ajralib turadi. U buyuk zotning madrasa qurib tolibi ilmlarning ta'lim olishlari uchun sharoit yaratib berganligi ham muhim ahamiyatga ega. Xondamir o'zining "Makorim ul-axloq" asarida "...sohibqironning podshohlik zamonida mashhur olimlar va hurmatga sazovor fozillarning obro' etiborini oshirish va martabalarini yuksaltirishga qo'lidan kelgancha g'ayrat va himmat ko'rsatdi hamda talabalarning moddiy qiyinchilik ko'rmasdan xotirjam va bemalol ta'lim olishlari uchun ularga nafaqa tayinlab, quyidagi madrasalar va xonaqohlarni qurdirdi".[1, 33]

Alisher Navoiy madrasada ilm olayotgan talabalarning yaxshi o'qishlari, qiynalmasliklari uchun alohida mablag' ajratib, talabalarning bilim saviyasiga qarab moddiy yordam bergan. Bu ham qaysidir ma'noda talabalarning yaxshi o'qishlari, intilishlarini oshirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Alisher Navoiy o'zi qurdirgan madrasa, xonaqohlarda o'qiyotgan talabalarning qay darajada o'qishiga qarab ularga turli yo'llar orqali moddiy tarafdama yordam va rag'batlantirgan. Bu to'g'risida Navoiy o'zining "Vaqfiya" asarida " ...Vazifa ahli: ikki halol olim o'qituvchi [mudarris] bo'lsin. Har birining yillik ish haqi ikki yuz olyn naqd, yigirma to'rt yuz oshlig', shundan uchdan biri arpa, uchdan ikkisi bug'doy bo'lsin. Har halqa, darsda o'n bir toliba ilm, hammasi bo'lsin. Oltitasi a'lo o'qisa: har biriga oylik naqd yigirma to'rt oltin, yillik besh yuk bug'doy; sakkizta o'rtacha o'qiydiganlarga oylik har biriga naqd o'n olti oltin, yillik to'rt yuk; past o'qiydiganlarga sakkizta- oylik har biriga naqd o'n ikki oltin, oshlig' yiliga uch yuk". [4, 657] Alisher Navoiyning oliy ta'lim tizimidagi hozirda talabalarga beriladigan stipendiyaning dastlabki ko'rinishiga asos solganligini ko'rishimiz mumkin.

Qolaversa, Navoiy o'zining "Vaqfiya" asarida ilmi toliblarning darsga kechikmasligi va darslarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun ham alohida e'tibor berganligini ko'rishimiz mumkin. "... yana shart shuki, madrasada turuvchilarni madrasada uy-joy qilib yashashlari kerak. Agar boshqa yerda yashab, dars chog'i hozir bo'lsalar, belgilangan narsalarning yarmisini olajaklar. Agar madrasa va xonaqohdagi mudarrisdan tortib talaba, mutavalli, shayx, hofizlar va boshqa xizmatchilari tomonidan nomaqbul ish yuz bersa, ikki qatlagacha shariat yuzasidan ta'zirga sazovor bo'lsalar, o'shanga qarab ta'zir va jazo olsinlar. Uch qatla bunday ish sodir bo'lsa, ularni haydab o'rinlariga boshqa kishi olinsin" [4, 658]

Umuman, Navoiyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, bu yo'lda qilgan ezgu ishlari muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xondamir. Makorim ul-axloq –T. , 2015
2. Navoiy. Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J. 9.-T.: 2011

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA TAHLILNING AHAMIYATI

B. Komilov, I bosqich talabasi (ToshDO‘TAU)

Alisher Navoiy she‘riyati ayricha maqomga ega. U faqat o‘zbek adabiyotining emas, balki butun turkiy dunyoning, jahon adabiyotining ham bu horadagi eng muhtasham yutuqlarini oliy darajada namoyon etgan mutafakkir ijodkor sifatida jahoniy e‘tirof qozongan. Alisher Navoiy g‘azallarida qo‘llangan har bir so‘z olam-olam ma‘no tashiydiki, bularni bilish, tushunish va anglash uchun misralarda qo‘llangan so‘z, so‘z birikmalarini to‘g‘ri tahlil qila olish juda muhimdir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganlaridek, *“O‘zbek xalqi ma‘naviy dumiyoaning shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta‘sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy me‘rosining bo‘qiyiligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritamiz”*.

Navoiy o‘z g‘azallarida so‘zlarni shu qadar mahorat bilan qo‘llaydiki, uni o‘qigan har bir kishi g‘azalning oshuftasiga aylanadi. “Ha, insoniyat turlicha yo‘llardan borsagina, o‘zining yagona maqsadiga erisha oladi, har bir xalq o‘ziga xos yashasagina, jami xalqlar xazinasiga o‘z ulushini qo‘sha oladi. Har bir xalqning o‘ziga xosligi nimada? U faqat o‘ziga xos fikrlash tarzi va narsalarga munosabatida, dinida, tilida, ayniqsa urf – odatlarida namoyon bo‘ladi “–deb yozgan edi V. Belinskiy.[1, 6]

Alisher Navoiy g‘azallarini to‘g‘ri tahlil qilish kishidan juda katta bilim va iste‘dod talab qiladi. Agarda yetarlicha salohiyat bo‘lmasa, g‘azalni o‘z bilganimizcha, ya‘ni tag ma‘nosini chuqur anglamasdan tahlil qiladigan bo‘lsak, Navoiy yuksak mahorat bilgan yaratgan g‘azallarni nafaqat g‘ariz holatga keltirishimiz, balki u kishiga nisbatan ham hurmatsizlik qilgan bo‘lmaymizmi? Shunday ekan, biz bu ulug‘ zot bitgan g‘azallarni to‘g‘ri tushunishimiz uchun katta tajriba va malakaga ega bo‘lishimiz nihoyatda zarurdir.

Xususan, Navoiyning quyidagi baytining tahliliga e‘tibor qaratsak.

Jom erur men telbaga qonlig‘ ko‘zinning kosasi,

Lolalar sahroda bas, gar istasa Majnun qadah

Ushbu misralarni D.Yusupova shunday izohlaydi:

Shoir o‘zini telba deb atar ekan, o‘z ko‘zini o‘zi uchun may quysa bo‘ladigan qonli kosa sifatida xizmat qilishi mumkunligini ta‘kidlaydi. Ikkinchi misrada sahradagi lolalar istiorasi bilan o‘z yuzi va ko‘zini nazarda tutadi. Ya‘ni yuzi narg‘ayib, sahroga aylangan, ikki qonli ko‘zi esa Majnun may ichaman, desa qadah bo‘la oladi. Demak, birinchi misradagi tasvir bejiz bo‘lmay, ikkala misra ham baytning mohiyatini anglashda o‘ta muhim o‘rin tutadi. (2, 67)

Darhaqiqat, bu baytni yanada chuqurroq tahliliga kirishadigan bo'lsak, ya'ni botiniy ma'nosini aniqlashga harakat qiladigan bo'lsak, quyidagicha ma'nolar anglashilishi mumkin: Baytda qon va lola so'zlari bekorga qo'llanmagan. Har ikkalasining ham rangi qizil. Bundan shunday ma'no tushunilishi mumkinki, lola bu go'zal yor, ko'zlardagi qizil qon esa bu oshiqning qalbida ma'shuqaga bo'lgan cheksiz muhabbatning uning ko'zlarida yaqqol aks etib turganidan nishonadir. Bu bilan oshiq aytmoqchiki, men il yorni shunchalar yaxshi ko'ramanki, unga bo'lgan ishqim mening ko'zlarimda manguga aks etadi. Yorning (lolaning) makoni ortiq sahroda emas, bas endi un ko'zimning qorasiday asrayman. Qarang, bir baytning o'zi uni tahlil qilish uchun, tushunish uchun qanchalar ko'p izoh talab etmoqda. Agar g'azalni to'la tahlil qiladigan bo'lsak, olam – olam ma'nolar yashirin ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Alisher Navoiy g'azallarining tahlilida yana shu narsaga e'tibor berish kerakki, bu ko'pincha tasavvufiy ma'noda qo'llanuvchi, kishilarni masxar qiluvchi boda, may kabi ichimliklarning qo'llanishidir. G'azalarda biron bir narsani kishilarga aniq va tushunarli holatda yetkazish uchun mantiqiy jihatdan ularga bog'liq bo'lgan narsa - buyumlarning nomi keltiriladi. Masalan ushbu baytda "boda" so'zi o'z ma'nosida ishlatilmagan.

Ey Navoiy boda birla hurram et ko'ngling uyin,

Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

Ya'ni bu baytda shoir boda so'zini qo'llash orqali bu ichimlikni ichsimg uyingga qayg'u kelmaydi, degan ma'noni nazarda tutmagan, balki bu bilan Alisher Navoiy sen beg'am, betashvish yashay desang, ko'nglingni ishq bilan to'ldir, qalbingda hamisha Alloh bo'lsin, chunki qalbi ishq bilan limmo-lim insonda doimo ezgu niyatlar mujassam bo'ladi, bunday kishilar o'zgalarga oddiy ko'ngil bilan emas, qalb ko'zi bilan boqadilar degan ma'no ifodalangan. Aytinchi bunday insonlarning ko'nglida yovuzlik, g'arazlik ruhi bo'lishi mumkinmi? Albatta, yo'q.

Alisher Navoiy g'azallarining tahlil jarayonida yana muhim shartlardan biri so'zlar ma'nosini to'g'ri tushunish, mazmunni aniq holda anglay olish hisoblanadi. Bu ayniqsa, Navoiyning g'azallarini chet tilga o'giruvchi tarjimonlar uchun juda muhim. Chunki agar tarjimon g'azalni noto'g'ri tahlil qilsa, aniq, to'g'ri ma'noni his qila olmasa, birinchidan tarjima qilingan tilda g'azal juda oddiy va dag'al holatda namoyon bo'ladi, ikkinchidan uning sermazmun, betakror ma'nosi yo'qoladi. Bu esa nafaqat shoirning g'azalida yoritgan maqsadi puchga aylanadi, balki tarjimonning ham shoirga, o'ziga qo'yingki, butun xalqqa nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi.

Navoiy ta'бири bilan aytganda:

So 'z durki, nishon berur o'likka jondin.

So 'z durki, xabar berur jonga jonondin..

Insonni so 'z ayladi judo hayvondin,

Bilki, guhari sharifroq yo 'q ondin.

Haqiqatan, so'z shunday qudratli narsaki, u hattoki o'likka jon baxshida etishi mumkin, shuningdek so'z insonni hayvondan ajratib turuvchi bosh omillardan biri hisoblanadi. Navoiyni bilgan, uni tushungan, qalbida she'riyatga muhabbat hissi bo'lgan odamgina uning g'azallaridan nimanidir o'rganishi, uning tag ma'nosini tushunib yetishi mumkin.

U g'azallarida so'zlarni bu qadar mahorat bilan ishlata olganligining asosiy sabablaridan biri shuki, u kishida bolalikdanoq adabiyotga, she'riyatga bo'lgan qiziqishning nihoyatda kuchli bo'lganligi, hatto Fariddin Attorning "Mantiq- ut tay" (Qush tili) asarini boshdan oxir yod bilganliklari barchimizga ma'lum. Ikkinchidan, Navoiy " Muhokamat – ul lug'atayn" asarida 50 ming bayt she'rni yod bilishini ta'kidlab o'tgan. Bu u insonning so'z boyligi naqadar keng ekanligidan dalolat. Uchinchidan, Yuqorida aytilgan faktlar asosida komil inson bo'lib yetishdi. Ruhi poklandi va so'zga, she'riyatga bo'lgan nafis muhabbat shakllandi. Navoiydan bizga juda ulkan me'ros qoldi, ayniqsa, uning butun turkiy xalqini lol qoldirgan go'zal va betakror g'azallarining ochilmagan qirralari hali bir talay. Butun o'zbek xalqi u bilan faxrlanadi. Shunday ekan, ul zotning g'azallarini to'g'ri tahlil qila olish, unda nazarda tutilgan asil ma'nonlarni aniq holda tushinib yetish, tag-tagigacha o'rganish har bir kishining komil inson bo'lib yetishishida asos bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V. G. Beleniskiy adabiy orzular, Adabiy tanqidiy maqolalar.-T. G'.G. 1997
2. B.To'xliyev. Navoiy G'azallari (nasriy bayon sharh va izohlar).-T. 2014

БОБУРШУНОСЛИК: КЕЧА ВА БУГУН

Б. Ҳамраев, I босқич талабаси (ТошДУТАУ)

Ўзбек мумтоз адабиёти тарихида улуғ адиблар – Алишер Навоий ва Захириддин Муҳаммад Бобурнинг ўрни алоҳидадир. Навоийшунослик олимларимизнинг ҳамиша диққат марказида бўлиб келди ва бу соҳанинг йирик мутахассислари XX асрнинг 60-70 йилларидаёқ етишib чиқдилар. Аммо бобуршуносликка нисбатан бу гапни айтиш қийин. Бунинг асосий сабаби – ҳукмрон мафқуранинг Бобур шахсига ноҳоллик аниқроғи, нотўғри муносабати эди.

80 йилларда Бобур ва унинг ижодига яна тазйиқлар бошланди. Андижон шаҳар ижройи кўмитаси раиси Зокиржон Машрабов адиб шахси ва ижодига меҳри боис Бобурга бронза ҳайкали қўйдиришни ташаббус кўрсатгани учун вазифасидан четлаштирилди. Орадан ўн йил ўтиб, Истиқлол тантана қилгач, Зокиржон Машрабов Андижонда “Халқаро Бобур жамоат фонди”ни таъсис этиб, ўз фаолиятини бошлаб юборди. Андижон шаҳрида Боғи Шамол мавзейидаги Бобур боғини фонди ўз тасарруфига олиб, уни хар жихатдан обод этишга киришди. Боғдан маънавий-маърифий ташвиқот марказларидан “Бобур ва жаҳон маданияти”, “Андижон шаҳарсозлик маданияти” музейлари, улуғ ватандошимизнинг рамзий қабр-мақбараси, астрономик обсерватория ушбу яшиллик уммонида алоҳида кўзга ташланиб туради. Айниқса, улкан хаворанг гумбазли бино – “Бобур ва жаҳон маданияти” музейининг ўзи айрича бир олам. Ушбу улкан маърифий хазинадаги 400 дан ортиқ бир-биридан нодир китоблар сафарлар давомида кўлиб киритилган ёдгорликлардир. Улар: Бобурий хати билан битилган Куръон карим нусхаси (Машҳад шаҳрининг ризавия зиёратгоҳи “Куръон” музейидан олинган), Техрон шаҳри Гулистон давлат кутубхонасида сақланаётган “Бобур куллиёти” нусхаси, “Бобурнома”нинг Ҳайдаробод (Ҳиндистон) шаҳрида Саларжанг музейидаги мўтабар туркий нусхаси, Абдулрахим Хонихонон форсийга ўгирган “Бобурнома”, “Бобурнома”нинг Н. Н. Ильминский Қозонда нашр этган нусхаси (1857), ихчам ва муфассал ҳолда тўққиз маротаба инглиз тилига ўгирилган “Бобурнома” нусхалари, Жон Лейден, Уилям Эрскин, Аннета Сюзанна Бевериж ҳамда Уилер Текстон таржималарининг турли нашрлари, Комас хоним таржимасида испан тилидаги “Бобурнома”, Мажда Махлуф хоним араб тилига ўгирган “Бобурнома”, Билол Южел тузган Бобур “Девони” илмий танқидий матни, машҳур япон олими Эйжи Манонинг тўрт йирик китоби:

1. “Бобурнома”нинг илмий-танқидий матни;

2. “Бобурнома”нинг сўзлик кўрсаткичи;
3. “Бобурнома”нинг япон тилига таржимаси;
4. “Бобур ва унинг даври” номли япон тилидаги тадқиқоти;
5. “Бобурнома”нинг хитой, ҳинд, инглиз, форс, франсуз, немис, ўйгур, урду, қозоқ, рус, озарбайжон ва бошқа халқлар тилларига таржима нусхаларининг турли йиллардаги нашрлари...

“Бобур ва жаҳон маданияти” музейидаги бу бебаҳо хазина Зокиржон Машрабов бошлиқ Бобур халқаро илмий экспедициясининг 20 мартаба жаҳоннинг турли мамлакатларига уюштирган сафарлари самарасидир. Ихириддин Муҳаммад Бобурнинг 2008 йилги таваллуд куни тинтаналаридан бирида Андижон вилояти театри минбаридида Абдулла Орипов ушбу хазинани образли қилиб шундай ифодалаган эди: “Зокиржон Машрабов гўё темирқанот қалдиргоч. У қитъалараро ҳар йили парвоз қилиб, чет элларнинг турли шаҳарларидан тумшугида бир неча инжуларни олиб ватанига қайтиб келади. Бу инжулар-китоблардир”. Бобур фонди раёсати розилиги ва Зокиржон Машрабов ташкилотчилигида бу китобларнинг таржимасига буюртмалар берилди ва нашрига ҳомийлик қилинади. Кейинги уч-тўрт йилги шундай ишлар самараси туфайли Венадан олиб келинган Вюртленнинг “Бобур-йўлбарс” асари “Андижон шаҳзадаси” номида Янглиш Эгамова томонидан немис тилидан ўгирилиб, “Ўқитувчи” нашриётида 2011 йили кирилл ёзувида, 2012 йили лотин ёзувида нашр этилди. Шу таржимон қаламида Муҳаммад Ҳайдар Мирзонинг “Тарихи Рашидий” асари “Шарқ” нашриётида 2010 йили чоп қилинди. Бу асар Алишер Навоий ва Бобурга доир маълумотларга бойлиги билан қимматлидир. Айниқса, “Бобурномада” акс этмаган тарихий воқеалар: Бобур томонидан учинчи мартаба Самарқанднинг олиниши ва Кўли Маликдаги шикаст топиш воқеалари, Ҳисор қалъасидаги хоинлик туфайли Бобур бошидан кечган таҳликали ҳодисалар зикри ғоят муҳимдир. 2012 йили Хондамирнинг кўп жилдли асари “Ҳабиб ус-сиярфи ахбори афроди башар” (“Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст”) китобининг бир қисми “Буюклик хислати” номида “Шарқ” нашриётида, 2013 йили эса “Ўзбекистон” нашриётида босмадан чиқди. Бу китоблар таржимаси ва нашри фонд зиммасида бўлди. Айниқса, кейинги китоб Бобур ҳаёти ва фаолиятининг ўша даври тўла-тўқис ёритилган асар сифатида қимматлидир.

Такидлаш жоизки, бобуршуносликда икки йўналишда иш олиб борилади: аввало, бизнинг олимларимиз қўллари етавермайдиган мамлакат ва шаҳарлардан Бобур ва бобурийлар асарлари, таржималари, улар

ҳақидаги чет эл олимлари ва адиблари ёзган китоблар йиғилди ва бу индавом этмоқда.

Халқаро Бобур жамоат фондининг кейинги ўн йилликда бобуршуносликка қўшган ҳиссаси ҳам салмоқлидир. Чунончи, Қамчибева Кенжанин беш китобдан иборат сафарнома романлари, аввало бобуршунослик, қолаверса, адабиётимиз ютуғидир. Адиб Хайриддин Султоннинг “Бобурнома” сафарномаси ҳам маърифий роман сифатида жанр нуқтайи назаридан янгилик. Собиржон Шокаримов ва Зокиржон Машрабовнинг “Асрларни бўйлаган Бобур” асари ҳам шундай сафарномалар сирасидан. Ўзбекистон халқ шоири Сирожиiddин Саййиднинг “Юз ох, Захириддин Мухаммад Бобур” тўплами, Ўзбекистон халқ шоири Тўлан Низомнинг “Бобур” достони, Замира Рўзиеванининг Бобурга бағишланган “Ташнадил” тўплами, Қобил Мирзонининг “Қиро Зулфинг” каби китоблари Бобур мадҳигина эмас, унга пайров тарзида ҳам этиборга молик нашрлар бўлди. Бобур халқаро илмий экспедициясининг кейинги ўн йилдаги сафарлари илмий янгиликларга бойлиги билан диққатга сазовордир. 2009 йилда уюштирилган Тожикистон ва Афғонистон сафарида машҳур Бобур тошбитигидан ташқари яна тўртта Бобур дасхати битилган тошбитикларни топишга муваффақ бўлинди. 2009 йилги Ҳиндистон сафари чоғида Кашмирнинг Сринагар шаҳридаги Мозори салотин (Султонлар мозори) дан Бобурнинг холавачаси Мухаммад Хайдар Мирзо қабри топилди. Бобурга алоқадор бўлган китоблардан бири туркий тилда мусиқа тарихи ҳақида ҳозирча ягона ҳисобланган Исматуллоҳ Можизийнинг “Таворихи мусиқийон” асарининг Шинжон нашрини Зокиржон Машрабов 2007 йилда Хитойдан келтирган эди. Ушбу асар ҳам таъдрили, аслияти, фотонусхалари, кириш ва хотима сўзлар билан 2010 йили нашр этилди. Фонд халқаро экспедициясининг яна бир муҳим бир маҳсули бу энг қулай ва элга тез етиб борадиган бобуршунослик жабҳасидир. Сафарларда тасвирга туширилган кадрларда 24 та видео ва ҳужжатли филм яратилиб, вилоятлар ва республика марказий телеканаллар орқалий намойиш этилмоқда. Кейинги йилларда яратилиб, эл назарига тушган фонд ҳужжатли филмларидан: “Амир Темур Сохибқирон изидан”, “Бобур тошбитиклари”, “Кашмир сафари” қабиларини қайд этиш мумкин. Фонднинг бобуршунослик илмига қўшган ҳиссасининг ҳадди аълоси “Бобур энциклопедияси”нинг яратилиши бўлди, дейиш мумкин. Бу энциклопедияда бобуршуносликда қўлга киритилган илмий ютуқлар акс этган. Зокиржон Машрабов кейинги ўн йилда Ўзбекистон Фанлар академияси археология институти билан ҳамкорликда Андижон

шаҳри ёшини аниқлаш учун археологик қазилма ишларига ҳам бош-қош бўлди. Топилган ашъвий далиллар Андижон шаҳрига 2500 йил муқаддам асос солинганини исботлади.

Хулоса ўрнида шунни айтиш мумкинки, Бобурнинг тарих ва маданият олдидаги хизматлари беқиёсдир, у бутун умрини бир қўлида қалам, бир қўлида шамшир билан ўтказди. Буюк ҳинд давлатини барпо қилди. Лекин ватан соғинчи юрагини бетиним безовта қилди. Чунки фақат ватанигина безавол, абадий яхшилик масканидир. Фақат угина муқаддасдир. Авлодлар келиб – кетаверадилар, у эса собитдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. З. М. Бобур энциклопедияси. -Т.: Шарқ, 2014
2. З. М. Бобур, Бобурнома. -Т.: Юзлдузча, 1990

YAXSHILARNINGHAYRATIGASAZOVORASAR

О. Мухиддинов, I bosqich talabasi (ToshDO‘TAU)

Navoiy davr an‘anasiga rioya qilgan holda boshqa asarlari singari dostonlariga ham arabcha nom berdi va “Xamsa”dagi birinchi dostonni “Hayrat ul-abror” deb atadi. U bugungi o‘zbek tilida “Yaxshi kishilarning hayratlanishi” degan ma‘noni anglatadi. Dostonning hajmi 3988 bayt bo‘lib, 63 bob, 20 maqolatdan tashkil topgan. U aruzning sari bahrida yozilgan.

Asar an‘anaviy muqaddima - “hamd va na‘t” bilan boshlanadi. “Hamd” da Ollohning maqtovi, sifatleri, “na‘t”da payg‘ambarimiz madhi beriladi. Navoiyning dunyo haqidagi qarashlari mana shu muqaddimada o‘z aksini topgan Uningcha, dunyoning boshi ham, oxiri ham, yaratuvchi ham, kuzatuvchi ham Ollohdir:

Avval o‘zung, oxiru mobayn o‘zung,

Barchaga xoliq, borig‘a ayn o‘zung

Bir vaqtlar bu jahon nihon edi. Na yer, na ko‘k, na kun, na tun- hech narsa yo‘q edi. Hamma-hammasi sening bag‘ringa pinhon edi,- deya davom etadi shoir. – Sendan boshqa hech kim, hech narsa yo‘q edi. O‘z husning o‘zingga jilva qilardi. Pinhoniyo go‘zallik, xayoliyo go‘zallik jilva qilar edi. Nozir ham, manzur ham o‘zing eding. Ishqingdan mast, husningdan masrur eding. Husning jilvasiga cheku chegara yo‘q edi. Senga bir ko‘zgu kerak bo‘ldi va shu maqsad bilan dunyo maydonga keldi. Demak, dunyo sening jamolingga bir oynadir. Sening qudratli, har narsa yaratmoqqa qodir xazinangda esa har narsa farovon edi. Lekin bularning barchasidan maqsad inson edi. Sen dunyoni g‘oyat go‘zal qilib yaratding, lekin hammasidan insonni ulug‘ aylading. Bimobarin, Olloh har

narsadan ulug' va har kimdan yaqin tutgan mavjudot, ham tabiatning, ham jamiyatning gultojidir.

Shoirning Olloh, borliq, inson haqidagi fikrlari shunday. Ya'ni dunyo Olloning namoyon bo'lishidir. Inson esa uning markaziy siyмосi. Bu fikrlar "Lison ut-tayr" da qushlarning yeti vodiyni bosib o'tib, o'zlarining Semuq ekanliklarini anglaganlari- Olloh visoliga erishishlari orqali hal qilingan edi. Ikki bob ustozlar ta'rifiga bag'ishlangan, ikki bob so'z va undagi ma'no haqida So'ng Husayn Boyqaroga, ulug' pirlari Bahovuddin Naqshband, Ho'ja Ahrorga bag'ishlovlar edi. Nigoyat, 22-bobdan maqqolatlar boshlanadi. Birinchi maqolati iymon haqida. Ikkinch maqolat islom haqida. Uchinchi maqolat shohlar haqida. Shu tariqa har bir maqolat bir mavzuga mahsus bag'ishlangan. Muallif dastlab mavzu bilan tanishtiradi. Unga munosabat bildiradi, ya'ni tasdiq yo inkor etadi va unga mutanosib biror ibratli hikoya keltiradi. Masalan. 3-maqolatni olaylik. Shoir unda bevosita shohga murojat qiladi. Ey, dabdabasi olamni tutgan sulton, senga Haq hukmfarmonlik berdi, qo'lingni baland qilib, ne-ne buyuklarni qoshinga past egdi.

Lekin sen shuni bilki, sen ham bir bandasan, aslida ularning ko'pidan ojizsan. Ular tufrog'u sen nur emassan, shaklu shamoyiling ham, a'zo-yu tanalaring ham teng. Tangri seni saltanat osmoniga chiqarib qo'ygan ekan, o'z qudratini qilyapti. U senga vazifa topshirgan. Birinchi vazifa- bergan ne'matiga shukur qilmoq, ikkinchisi, halqni xurram tutmoq, haqini haqlab bermoq, asramoq. U senga omonat berilgan. Agar sen elning bir siniq ignasini tortib olsang, u yoqda olmos hanjar bag'ringa qadaladi. Kichkina bir rishta kabi zarar yetkazgan bo'lsang, uni seni haloq qiluvchi ilon deb bilaver...

Sen-chi, ishratga, maishatga botkansan, zulmga zo'r bermoqdasan... Goh-goh pushaymon kuningni ham o'yla. Pushaymongina emas, qiyomat kuningni ham! Beayb parvardigor, lekin ayb qildingmi, tavba ham qil. Adolatsizlik qildingmi, adolat ham qil. Navoiyning bu fikrlari zamonasining aysh-ishratga berilgan, o'zaro taxt talashib qanchadan-qancha qirg'in-barotlarga sabab bo'lgan temuriy shahzodalarga achchiq tanbehi edi.

Maqolat oxirida Shoh G'oziy hikoyati beriladi. Shoh G'oziy taxt uchun uzoq vaqt kurashib, uni egalladi va adolat bilan boshqara boshjadi. Ittifoq, sayrga chiqqanida, bir kampir uni etagini tutib, da'vosi borligini aytadi. Qozixonaga boradilar. Kampir shohning taxt uchun kurashib yurgan yillarida o'g'lini nohaq o'ldirtilganligini aytadi. Voqeadan xabardor ikki guvohni olib keladilar. Shoh aybiga iqror bo'ladi. Shariyat hukmiga bo'ysunadi. Bo'yunini bog'lab, kampirning qo'liga tig' beradi, ikkinch tomonga oltin-kumush to'kib

qo'yadi. Kampir shohning adolatidan rozi bo'ladi, o'g'lining qonidan kechadi, butta boylikka ega bo'lib, "tilla kampir" nomini oladi.

"Shoh G'oziy" g'azot qilguvchi, dini islom uchun kurashuvchi shoh g'olib shoh ma'nolarini beradi. Sulton Xusaynning laqablaridan biri. U bir gal birovni nohaq o'ldirgani uchun o'g'lini o'limga buyurgani ma'lum va nashhurdir. Navoiy uning mana shu adolatini g'oyat yuksak qadrlar edi. Binobarin, ushbu hikoyatning Husayn Boyqaro haqida ekanligiga shubha yo'q.

Dostondagi bir qator maqolalar odob-axloq haqida. Chunonchi, 5-maqolat karam haqida. Karamning ma'nosi keng. U mehr-marhamat ko'rsatish, saxiylik qilish, ehson etish kabilarni anglatadi. Saxiylik insondagi xislatlarning eng ulug'i. Baxillik eng tubanidir. Biroq, har narsaning ham me'yori bor. Oritqcha saxiylik isrofdir, Isrof esa baxillik bilan teng. Qolaversa, har qanday saxiylikda ham ma'lum tartib bor.

Shunday kishilar borki, xalqning narsa va ashyolariga ko'z olaytirib, tama qilaveradilar. So'ng ularning bir qismini ulashib, o'zlarini saxovatli ko'rsatmoqchi bo'ladilar. Ularning sochgani ham tashlandiq narsalar, olgani ham. Chunki olmog'idan ziyondan boshqa narsa kelmaydi, bermod'idan esa hech bir foyda yo'q:

Olmog'idan g'ayri ziyon bud yo'q,

Turfa bukim bermog'idan sud yo'q.

Oni dog'I dema saxiykim, kishi

To tilamas bermay emasdur ishi.

Xo'sh, saxiy kim?

Oni saxiy onglagil, ey hushmand

Kim ani davlat qilibon sarbaland.

Holi agar yaxshi durur, gar taboh

Kimsadin etmas tamayi molu joh

Bunday odam Xudo nima bersa, qanoat etadi, nimani buyursa, bo'ysunadi. Qo'lida bor narsa bilan qo'li qisqa odamni xursand qiladi. Dengizning oldida tursa ham undan bir tomchi suv so'ramaydi, birovning yarasini ko'rsa, malhamini ayamaydi. Muhtoj odam bir narsa so'rasa, qo'lidan kelganicha unga hayr qiladi...

Maqolatga ilova sifatida o'z himmati bilan Hotami Toyni lol qoldirgan o'tinchi chol hikoyati keltiriladi. Maqolatdan bir vatan haqida, Shoir Xuroson va Hirotni g'oyat baland pardalarda vaf etadi.

Ziynat aro ravzayi rizvondir ul,

Razvani ko'y, mulki Xurosondir ul. –

deb yozadi shoir.

Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror"iga 40 dan ortiq marta yozilgan. Shundan uchtasigina chig'atoy tilida. Shuning bittasi mana shu "Hayrat ul-abror" bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y. Ishoqov. Navoiy poetikasi. Toshkent, Fan, 1983.
2. Olim S. Ishq, oshiq va ma'shuq. Toshkent, Fan, 1992.
3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Fan, 1985.
4. Rustamov A. So'z xususida so'z. Toshkent, «Yosh gvardiya», 1987.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, Yigirma tomlik. XII tom. I. San'at-tayr.

O'RTA ASR O'ZBEK MUMTOZ BADIY ADABIYOTIDA GUMANISTIK G'OYALAR TARAQQIYOTI

B. Boyzoqov, I bosqich talabasi (ToshDO'TALI)

Gumanistik (insonparvarlik) g'oyalarning asl manbayi bu badiiy adabiyot hisoblanadi. Ko'ngli yarimlarga g'amxo'rlik qilish, ota-onasiz va boquvchisiz yo'qotgan bolalarga mehr ko'rsatish, xalqimizning azaliy qadriyatlaridan bo'lgan. Buning isboti o'laroq, o'rta asrlardayoq adiblarmizning asarlarida ham insonni sevish, ardoqlash va uni Allohning eng go'zal xilqati deb qarash, xalq dardi bilan yashash, kambag'al-bechoralarga yordam qo'lini cho'zish, insonlar bir-birlarini qadrlab yashashlari, ojizlarni himoya qilish kabi g'oyalar ilgari surilgan. O'sha davrda yaratilgan asarlarning tub mohiyatida yotgan masala bugun uchun ham dolzarbligini yo'qotmasdan kelmoqda. Ularning markazida inson deb atalmish mahluqot turadi. Ushbu maqolani yoritishda Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy va Alisher Navoiyning ijodiga murojaat qilish kifoyadir.

Xususan, XI asrda yashagan alloma Yusuf Xos Hojib ham o'zining "Qutadg'u bilig" asaridagi umumbashariy qadriyatlar hozirga qadar o'zbek xalqi orasida saqlanib qolgan. Ushbu asarda "*qashshoq, tul, yetimlarga mehribon ko'ngil*" bo'lish eng yuksak insoniy fazilatlardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Bu toifa kishilarga mushkul vaziyatlarda yordam ko'rsatish, ularning ko'nglini ko'tarish, mehr-shafqat ko'rsatish, mehribonlik qilish "chin adolat"ning yorqin ko'rinishi ekanini yozib qoldiradi. Ushbu asarda kambag'allar haqida so'z boradi ekan, "*ularni yedir, ichir, dardlariga chora qilgin... Ishlari tushsa, arzlariga quloq sol*", - deydi [1,79]. "Qutadg'u bilig" asari qahramoni sanalgan O'gdulmish Kuntug'dining haqiqiy hukmdor qanday fazilatlarga ega bo'lmog'i

lozim degan savollarga javoblar berib, hukmdorlarga ham xalq dardiga shifo bo'lishi, adolatli siyosat yuritishi kerakligini nasihat qiladi:

Adolatdan olar siyoat baror,

Adolat tufayli eling barqaror.

Ey elig, tabiblar misoli o'zing,

Xaloyiq bemordir, shifosi – so'zing[1,121].

Jumladan, Kuntug'di ham hech kimga naf yetkazmay, odamlardan yiroqda faqat ibodat bilan mashg'ul bo'lgan O'zg'urmishga shunday maktub yozadi:

-Elingga naf yetkaz, mungliga yara, sirdoshga ko'ngil ber. Yetim, tul, beva, ko'r, cho'loq yoki shol holidan hamisha xabar olib tur. Shu ishlar toat o'rmini bosadi... Namoz, ro'za – bari o'z nafing xolos. O'z nafin tilagan bag'irsiz, mehrsiz bo'ladi, kishi afzali juda yaxshi degan... kishilarga nafli bo'lg'in, ey dono, kishilarga naf keltirgan kishini haqiqiy er deb atash kerak.[1,122].

XII asr oxiri – XIII asr birinchi yarmida yashab ijod qilgan adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida ham ma'rifat g'oyalari tashviqi yetakchi o'rin tutadi. Ushbu asarda “*dunyoda yaxshi va nuqsonsiz nom sahiylikdir... qo'llar ichida in'om beruvchi qo'l baxtli qo'ldir, o'zi olib boshqalarga bermagan qo'l qo'llarning qutsizidir*”, - deydi[6,106]. Badavlat insonlarning har doim sahiy bo'lishga da'vat etadi:

Ey boylik egasi, sahiy yaxshi er,

Haq senga berdimi, sen ham xalqqa ber.

Bermay bosib yotgan la'natga loyiq,

In'omdan qochmasang, dunyo yig'aver[2,250].

Bundan tashqari, o'jizlarga zulm qilmaslik va ularga ehson qilishni, har qanday vaziyatda ham insonlarga nisbatan muhabbat ko'zi bilan qarashi kerakligini uqtiradi:

Musulmonga mushfiq bo'lib, mehribon,

O'zing kabilarni sana musulmon.

Jafo qiluvchiga vafo javob qil,

Qonni qon bilan yuvsan, ketmas qon [2,257].

* * * * *

Yarog'lik oshini kishiga yedir,

Topsang, yalong'ochning egini bitir.

Zinhor birovlarga zulm-zo'rlik qilma,

Boshiga ish tushganlarga madad ber [2,257].

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy esa yetim bolalarning boshini silagan shaxslardan biri sanaladi. U nafaqat asarlarida, balki o'zining hayot yo'lida ham

haqiqiy insonparvar bo'lganliklarini o'zining "Vaqfiya" asarida "ilgimdan kelguncha zulm tig'ini ushotib, mazlum jarohatig'a intiqom malhamini yetkazdim", degan jumalari isbotlaydi. Tarixda uning jamoat arbobi sifatida madrasalarni bunyod etishdagi xizmatlari e'tirof etilgan. Mazkur madrasalarda yetim bolalar uchun ham maktablar ochganligi e'tiborga molik. Alloma meluriga ehtiyojmand bolalarning nafaqat ta'lim olishlari uchun shart-sharoitni yaratgan. Maktabdosh do'sti Husayn Boyqaroni ham yurtni adolat mezonlari asosida boshqarishga butun umr chaqirib keldi.

Mutafakkirning "Hayrat ul-abror" asarida haqiqiy inson faqat xalq dard bilan yashash kerakligini ta'kidlab o'tadi:

*Odamiy ersang xalq demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami [3,54].*

Yana bir misol Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar"ida shunday satrlarni uchratamiz:

*Shahlarg'a gado andoqkim keldi bu kun muhtoj,
Tongla bo'lubon shahlar ehsoniga hojatmand. [4,26].*

"Nazm ul-javohir" asarida esa inson shu qadar ulug'lanadiki, unga fuqaroyaxshilikni ravo ko'rish kerakligi uqtiriladi:

*Davr ahlig'a lufi jonfizo ko'rguzgil,
El qilsa yamon, yaxshi jazo ko'rgizgil.
Yo'q, yoringa sidq ila safo ko'rgizgil,
Kim qilmasa xasmlik, vafo ko'rgizgil [4,364].*

Navoiy bobomizning insonparvarlikni tarannum etuvchi hayotbaxsh satrlari hali-hanuz insonlar qalbida mangu yashamoqda. Toshkent shahridagi Milliy bog'da o'rnatilgan Navoiy haykali gumbazining peshtoqiga zarhal harflar bilan bitilgan quyidagi bayti isbotlaydi:

*Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish.*

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, ya'ni "o'zbek modeli"ning to'rtinchi tamoyilida "bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi" belgilab qo'yilgan. Istiqbol yillarida ana shunday milliy urf-odat va qadriyatlardan kelib chiqib, aholini ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Prezidentimiz "Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi", deb mustaqillikning ilk yillaridavoz

ta'kidlagan edi. Muhtaram prezidentimiz vafotlaridan keyin ham bu ishlar davom ettirilmoqda. Hatto aholining huquqlarini himoya qilish maqsadida Bosh vazirning virtual qabulxonasi tashkil qilinib, fuqarolar bevosita ariza va shikoyatlarni yetkazishlari mumkin. Bu ham insonparvarlik g'oyalarning amalda namoyon bo'lishi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xliyev B. Qutadg'u bilig. –Toshkent: “Bayoz”, 2014.
2. Yugnakiy A. Hikmatlar. -Toshkent: O'zbekiston, 2013.
3. To'xliyev B, Mirsamiqova R, Ametova O. Adabiyot (majmua): Toshkent: Akademik litseylarning II bosqich o'quvchilari uchun -Toshkent, 2014.
4. Navoiy A. Hikmatlar. –Toshkent: O'zbekiston, 2011.
5. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. –Toshkent: “O'qituvchi”, 2003.
6. To'xliyev B, Abdurahmonova B. Adabiyot majmua): Toshkent: litseylarning I bosqich o'quvchilari uchun -Toshkent, 2007.

O'ZBEK XALQ MAROSIM FOLKLORI

Z. Olimova, I bosqich talabasi (ToshDO'TAU)

Marosim folklori paydo bo'lish jihatidan xalq og'zaki ijodining eng qadimiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham marosim folklorida muayyan xalning turmush tarzi, etnik tarixi, urf odatlari, qisqasi uning o'tmishi butun o'zligi bilan namoyon bo'ladi. Dunyoda o'z marosimlariga ega bo'lmagan birorta ham xalq yo'q. Binobarin, u muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Marosim so'zi arab tilidagi “*marsum*” so'zidan olingan bo'lib *chizilgan, rasm qilingan, odat bo'lgan* ma'nolarini anglatadi. Istalgan marosimga murojaat etilsa, unda xoreografik yo dramatik, yo musiqiy, yo badiiy so'zga xos elementlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. To'ylandagi yor-yorlar, o'lan aytishlar, kelin salomlar xalq poetik ijodining mumtoz namunalari bo'lib qolgan. Quyida asosan nikoh to'ylarida aytiladigan qo'shiqlar haqidagina fikr yuritiladi.

Yor-yorlar. Qiz uzatish kechasida aytiladigan qo'shiqlardan biri “yor-yor”lardir. “Yor-yor” qo'shiqlari musiqiyliigi, ma'lum cho'ziq ohangda ko'pchilik bo'lib kuylanishi, naqoratlari bilan ajralib turadi. Navoiy ularning “turk ulusi zufuf va qiz ko'chirur to'ylarida” kuylanganligini maxsus qayd etgan. Hozirgi zamonda esa ularning o'mi va vazifasi bir qadar kengaygan. Navoiy zamonasida yor-yorlar *chinkalar* deb atalgan. Shuningdek folklorshunos M.Alaviya yozishicha, hozir ham Ohangaron shahri va uning atroflarida xalq

tilida uni “*chinka*” yoki “*changi*” tarzida qo‘llash davom etib kelmoqda. “Yor-yor” – takror asosida yuzaga kelgan juft so‘z bo‘lib, mohiyatan kelin-kuyov juftligini ramzan ta’kidlovchi, e’tirof etuvchi ohangga egaligidan, qolaversa tasavvufiy ma’noda Olloh (yor) nomini ifodalab, yangi oilani bunyod etayotgan kelin va kuyov juftligi uning irodasi bilan sodir bo‘layotgan ilohiy atol ekanligidan ham jonli so‘zlashuvda, ham ilmiy taomilda bir xilda singdirib o‘zlashdi. Yor-yorlar yakkaxon tomonidan yoki ko‘pchilik tomonidan xos sifatida kuylanadi. Ular chuqur psixologizm, lirik kechinmalarga g‘oyat boy “yor-yor” qo‘shiqlari mazmunini, asosan qiz o‘stirgan ona bilan otaning ta’rifi orzulari, uzatilayotgan qizning madhiyasi – go‘zalligi, chevarligi, qizga turmush haqida nasihatlar, unib o‘sishi, serfarzand bo‘lishi haqidagi nasihatlar tashkil qiladi:

Tokchadagi qaychini

Zang bosibdi, yor-yor,

Kelin oyim onasini

G‘am bosibdi, yor-yor.

Uzoqqa qiz berganning

Rangi sariq, yor-yor,

Ko‘zlaridan yosh oqar

Misli ariq yor-yor.

“Yor-yor” larga xos bo‘lgan badiiy parallelizm fikrni obrazli ifodalashning keng qo‘llanadigan usuli bo‘lib, unda qiyos qilish asosiy o‘rin tutadi. Xalqimizda “Tomchi toshni teshadi, zang – temiri” degan maqol bor. G‘am esa inson umrini kemiradi. Qo‘shiqdagi zang bosgan qaychi timsoli qiz uzatib rohatini ko‘rolmagan onaning tashvishlari nihoyasiz ekanini obrazli, ta’sirchan ifodalash imkonini tug‘dirgan. Respublikamizning ayrim hududlarida yor-yorlar erkaklar tomonidan ham aytiladi. Ilgari kelin va uning dugonalari kuyovning aravalarda borishgan, yo‘l-yo‘lakay kelinning dugonalari yor-yor aytib borishgan.

Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarining ayrim joylarda kelinni kuyov uyiga olib kirishda, ya’ni uy ostonasiga to‘shalgan poyandoni bosib o‘tgandan keyin, qaynonasi “Xush keldingiz” aytimini aytadi:

Hazorali, hazorali,

Oftobim, anbarim, xush keldingiz,

Jonim, oltin parim, xush keldingiz,

Hazorali, hazorali.

Davlat boshingizda bo‘lsin, xush keldingiz,

Himmat qo‘lingizda bo‘lsin, xush keldingiz.

Yor-yorlar poetikasi juda boy. Ular nozik istioria va ramzlarga boyligi bilan boshqa nikoh to‘yi janrlari orasida ajralib turadi.

Taxta-taxta ko‘prik, taxting bo‘lsin yor-yor,

Onhazratim qizlaridek baxting bo‘lsin yor-yor,

*Onhazratim qizlarini Ali olgan yor-yor,
Yor-yor aytib qiz bermoqlik andin qolgan yor-yor.*

Qat-qatgina qatlama qatlamadir yor-yor,

Qizni olib yangalar otlanadir yor-yor,

Qizni olib yangalari tura tursin yor-yor

Qiyomatli otalari rozi bo'lsin yor-yor

Oq sut bergan onalari rozi bo'lsin yor-yor.

Kelin salom. Kelin tushgan kunning ertasi ertalab kelinchakni kuyovning yaqin qarindosh-urug'lari bilan tanishtirish marosimida *kelin salom* yoki *betochar* qo'shiqlari aytiladi. Mahallaning dasturxonchisi kelinni yasantirib, yuziga parda yopib, ro'molcha to'sib xonadon ostonasiga olib chiqadilar va qiziq gapalar, hikmatli so'zlar, baytlar bilan kelin yoniga keluvchilarga murojaat qilgan holda "Kelin salom" aytadilar. Kelin jim turgancha gap kimga qaratilgan bo'lsa, o'shanga ta'zim bilan egilib salom qiladi va kelganlar salom javobini berib, kelinning boshiga ko'rmana (odatda pul, mato, ro'mol va b.) qo'yadilar. Dasturxonchi ularga kelin nomidan turli sovg'alar (kiyimlik, ro'mol, belbog' va b.) topshiradi.

Assalomu aleykum kelin salom!

Avvalambor ikki olam sarvari

Yaratgan egamga salom!

Ba'zi viloyat ananalariga ko'ra kayvoni (dasturxonchi) kelin salomni kelinni kuyov xonadonining darvozasidan olib kirishdan boshlab aytadi. Uy egalari, to'yga kelganlar esa "alik salom" deb javob qaytaradilar. Buxoro va Samarqand viloyatlarida an'anaviy "salomnoma"lar o'qiladi.

Yomg'ir yog'dirib ho'l qilgan,

Ikki gulni bir qilgan,

Xudo taolo bir salom.

Oq ro'molning rishtasi,

Osmonning farishtasi,

Payg'ambarlarga salom.

Agar xalq qo'shiqlarining boshqa turlarini ko'pchilik bo'lib ijro qilish mumkin bo'lsa, kelin salomlar, asosan, bitta chechan qo'shiqchi, ba'zan ikkita ayol tomonidan ijro qilingan. "Kelin salom"da kayvoni kuyovga, qaynota, qaynona hamda tog'alari, ammalari, xolalariga salom berganda ta'rif-tavsiflar orasida hazilnamo gaplarni qo'shib-chatib yuboradi. Tanqidiy hazil ham, kulgi ham beg'ubor, bundan hech kim xafa bo'lmaydi.

Ich qozon kuyasi,

Qanquv gapning uyasi,

Eshitib olsin ammasi,

Sizga salom, yor-yor.

Ko'p yerlarda "Kelin salom" uch satrdan, Farg'ona vodiysida to'rtliklardan tashkil topadi Kayvoni hazilomuz kelin salomlarni birvarakay to'qib, odamlarni kuldirib, aytaveradi. Berilayotgan tavsflar nomi tilga olingan kishini to'la tasavvur etishga yordam beradi.

Tomga bosgan bo'yraday,

G'o'zadagi pechakday,

Yurishlari to'raday,

Qayrilmachiq gajakday,

Kuyov yigitga salom.

Ochilgan gul pechakday

Qaynegachisiga salom.

Yana ayrim xalq orasida kuyov tomonidan kelin tomonga atab, shuningdek, kelinnikiga kuyov navkarlari bilan kelganlarida qiz tomonidan aytiladigan "Xush kelibsiz", shu bilan birga, "To'y muborak" qo'shiqlari ham bo'lib ulat hozir ham keng tarqalgan.

O'lan. Nikoh to'ylari ba'zan bayram kunlari, ayrim yig'inlarda, asosan cholg'usiz aytiladigan marosim qo'shiqlaridan biri hisoblanadi. O'lanalar ko'pincha 11 bo'g'inli to'rtliklardan uyushgan bo'lib, odatda birinchi, to'rtinchi satrlar, ba'zan to'rt satr o'zaro qo'fiyalanib keladi. Misol uchun:

O'yna turib deganda, o'yna turib,

O'rtanaman-kuyaman, seni ko'rib,

O'rtanganda-kuyganda seni ko'rib,

Ermaklaysan, kulasan labing burib.

O'lanlarda bu tartib hamisha saqlanmaydi. Quyidagi qiz o'lanida muhabbatni insonning eng nodir fazilati, muqaddas xislati deb qadrlagani ifodalanadi:

Qo'limda bir uzugim g'umdona bos,

Oshiq bo'lsang oyog'ing mardona bos!

Oshiqlik qiz-yigitning ishi ekan,

Oshiqlikka teng kelmas zaru olmos.

Qurama tog'lari atroflarida o'laning birinchi satri ikki so'zdan tashkil topgan bo'ladi. Bunday o'lanlarda ham shu ikki so'zga ikkinchi va to'rtinchi satrlar qo'fiyalanadi. Birinchi satr cho'zib aytiladi. O'lanlarda yigit-qizning bir-birini yengish maqsadida hazil-mutoyibaga yo'l qo'yiladi.

Ko'rinadiki, o'lanlarning shakli turlicha bo'ladi. Qo'shiqlarga xos variantlilik o'landa ham bor. O'lanlar boshlanma bandlardan boshlanib, ma'lum

tartib bo'yicha davom etadi. Demak, o'lanlar kuylanganda mantiqiy izchillikka amal qilinadi.

*Qiz: Bulbullarning kuygani gul bo'ladi,
Olamdagi bor so'zni til biladi,
Taraf bo'lib aytmoqqa kepsiz aka,
Oxunliging bu yerda kim biladi.*

*Yigit: O'lan aysam barchani kuldiraman,
Jiyronchani mehmonga mindiraman,
Qiziq-qiziq o'landn ayt, oxun qiz,
Oxunligim shu yerda bildiraman.*

*Qiz: Kiygan to'ning yarashgan bo'yginangga,
Men bilmadim ne so'z bor o'yginanagda,
Birda-ikkida to'yda aytmasang,
Indamasdan borib yot uyginangga.*

*Yigit: Qo'yim yoyib boraman o'tdan-o'tga,
Jabduq solsa yarashar to'riq otga,
Ikkovingdan biringni loyiq ko'rsa,
O'tqizdirib qo'yaman saltanatga.*

O'lanlarda qochiriq, sevgi harorati, yoshlik pallari g'oyat samimiy, optimistik ruh bilan yo'g'rilgan holda talqin qilinadi. Davralarda o'lan ayta bilish o'zicha bir salohiyat, ijrochilik san'atini egallashni talab etadi. O'lanlar badiiy esteti didli, kamtarin, ochiq ko'ngilli, do'stga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ayniqsa, katta ahamiyatga egadir.

Xulosa o'mida muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarlaridagi fikrlarini aytadigan bo'lsak, "Biz beheho milliy merosimizdan xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlamni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz."

Adabiyotlar:

1. H. Razzoqov va boshqalar, O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.-T.: O'qituvchi,1990
2. O. Safarov, O'zbek xalq og'zaki ijodi.-T.:Musiqqa,2010
3. O. Madayev, O'zbek xalq og'zaki ijodi.-T.:Mumtoz so'z,2013
4. M. Murodova, Folklor va etnografiya.-T.:2008

“SHAHINAM, O MENING SHAHINAM”

M. Bozороva, I bosqich talabasi (ToshDO‘TAU)

Chinakam badiiy asarlar insoniyatni hamisha ohangrabodek jalb qiladi. Joziba va istedod yanglig‘ sug‘orilgan g‘oyalar ularning “originallik libosiga” aylanadi. Usta tarjimon qo‘lida esa ular nafaqat o‘z holini saqlab qoladi balki shu bilan birgalikda sayqallanadi va boyiydi.

O‘zbekiston mustaqillik davrida ko‘plab sohalarida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Shahdam qadamlar bilan xalqaro integratsiyaga kirib bormoqda. Shu qatorda ko‘plab ilm ahllari rus va boshqa jahon adabiyotidan tarjimaga qo‘l ura boshladilar. Shunday mohir shoir va ayni vaqtda usta tarjimonlardan biri bu Erkin Vohidovdir. Shoir o‘zbek kitobxoniga Sergey Yesenin she‘rlarini tanita oldi, uning she‘rlarini o‘zbek tilida jarang sochishiga sabab bo‘ldi. U ajoyib va jozibador so‘zlardan foydalangan holda rus shoiri she‘rlarini muloyim tarzda ochib bergan. Shulardan biri “Shahinam, o mening Shahinam” she‘ridir.

Ushbu she‘rda Sergey Yesenin sharq ayollariga bo‘lgan cheksiz hurmati va muhabbatini yaqqol namoyon etgan. Shoir 1921-yilda Kavkaz, Toshkent va Samarqandga tashrif buyuradi va uning sharq an‘analariga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi. Shundanso‘ng u sharqonaruhni his etib, “Forstaronalar” nomlishe‘riy turkumini yozadi. “Shahinam, o mening Shahinam” she‘ri shu turkumga mansub bo‘lib, G‘arb kishisining Sharqqa bo‘lgan mehrini tasvirlaydi. Biz bilamizki Sharq she‘riyatida Allohga ishqni majozan yorga ishq tarzida kuylash kuchli edi. Shunga taqlidan rus shoiri ham Sharq go‘zaliga bag‘ishlab ishqiy she‘r bitadi. She‘r besh bandedan tashkil topgan bo‘lib, bo‘g‘inlarining soni to‘qqizta. Shoir va tarjimon Erkin Vohidov ham she‘rni besh band va to‘qqiz bo‘g‘inda tarjima qilib, undagi ohangdorlikni saqlab qolgan. She‘rayolgamurojat bilan boshlanadi:

Шагане ты моя, Шагане!

Потому, что я с севера что ли

Я готов рассказать тебе поле

Про волнистую рож при луне

Шагане ты моя, Шагане!

Dastlab kimsiralardashoir o‘zini bir zum sharq kishisidek his qiladiva qahramonini mening Shahinam deb ataydi.

Keyingi misralardashoir yurtining go‘zalligini ko‘rsatish maqsadida gapni dalalardan va o‘yning nuritekan boshloqlardan boshlaydi.

She‘rning betakrorligiga sabab uning har bir misrasini takror qo‘llanganligidir. Va albatta, xassos shoirimiz Erkin Vohidov ham she‘rni ush

bo'yicha har bir misrasini takrorlagan holda tarjima qilib, uni o'z holidek bizgacha yetkaza olgan.

Shahinam o' mening, Shahinam!

Bilsang, shimol vatandir menga

Dalalardan so'ylaymi senga

Oy nur sepgan boshoqlardan ham

Shahinam o' mening, Shahinam!

She'ning ikkinchi bandida shoir o'zini shimoldan ekanligini yana qayta ta'kidlaydi va mubolag'adan foydalanib, oyni shimolda yuz bora katta deya ta'riflaydi. Bu shoarning yurtiga bo'lgan muhabbati qanchalik kuchli ekanligini yana bir borisbotlabberadi.

She'ming uchinchi bandida shoir yana mubolag'adan foydalanib tillarang sochlari Sheroz bug'doyidan rang olganligini aytadi. Sergey Yesenin bu bitan Sherozni nafaqat yuragi balki, butun vujudi bilan sevishini aytmoqchi bo'ladi. Keyingimisralarda u yumordan foydalangan holda harqanaqa og'riq bo'lmasin unga zarrachalik ta'sir qilmasligini yozadi. To'rtinchi bandga o'tib shoir metafora (ma'noko'chirish) dan foydalanadi ya'ni o'zi aytaolmagan so'zlarini oltin sochlari orqali namoyon qiladi. Bu badiiy adabiyotda tashxis san'atini vujudga keltiradi.

She'ming so'nggi misrada shoir qahramonga bir oz erkinlik beradi. Ammo undan vatanini eslatmasligini so'raydi. Bu shoirda vatan sog'inchi qanchalik kuchli ekanligini ko'rsatib beradi. She'ming eng so'nggi misrasida shoir shimolda uni o'ylab yurgan sanam haqida gap ochadi. Uni asar qahramoniga o'xshatgan holda she'mi yakunlaydi.

Xulosa qilib aytganda, shoir Shahina ya'ni ayol timsoli orqali Vatanga bo'lgan muhabbatini ko'rsatib bera olgan. Shoir va tarjimon Erkin Vohidov esa she'rdagi mana shu ruhiyatni saqlagan holda bizgacha yetkaza olgan. Shuning uchun bu she'mi o'quvchilar hamon sevib o'qiydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akademik litseylarning uchinchi bosqich uquvchilri uchun, Toshkent-2013
2. Рус тили 2010, R. Tolipova, S. Islombekova, N. Sirtsova
3. Onatiliva adabiyot: Adabiyotshunoslik nazariyasi (Hotam Umurov)
4. <http://www.stihi-rus.ru/1/Esenin/156.htm>
5. http://a4format.ru/pdf_files_bio2/461b91b8.pdf

“КАЛИЛА ВА ДИМНА”ДА МАЖОЗ

М. Ҳайдаров, талаба (ТошДЎТАУ)

Инсонни қандай фазилатлар улуғлайди? Ҳаётда унинг обрўсини тўқадиган иллатлар қайсилар? Унинг бу ёруғ оламда яшашдан мақсади ва вазифалари нимадан иборат? Ҳаётда қай тарзда яшамоқлик зарур? Бу каби кўплаб саволларга ниҳоятда тўғри, аниқ энг асосийси, чиройли ва таъсирли бадий лавҳалар орқали берилган жавоблар ҳинд халқининг қадимий адабий ёдгорлиги, Шарқ дидактик адабиётининг дастлабки намунаси ҳисобланган “Калила ва Димна”да мужассам. Инсон табиатдаги барча мавжудотлар орасидаги энг комили ва улуғидир. Шунинг учун ҳам ҳар бир одам шу юксак номга муносиб бўлмоғи лозим. Мана шу ғоя “Калила ва Димна” нинг ўзагини ташкил этади. Асардаги ҳикоя, масал, ривоятлар ҳайвонлар тилидан олиб борилиб, инсонга хос хусусиятлар ҳайвонларга кўчирилган, яъни мажоз усулида баён этилган. Ҳўш мажознинг ўзи нима?

Мажоз, аллегория – адабий-бадий усул ёки образлилик тури, мавҳум тушунча ёки мулоҳазани аниқ бир образ воситасида баён этиш. Мажозда икки тушунча орасидаги яқинликка асосланиб, янги шартли ифода яратилади. Маънавий қадриятларни (ҳақиқат, виждон,иймон, муҳаббат каби) англатувчи умумий тушунчалар билан бирга муайян типик ҳодисалар, характерлар, мифологик персонажлар, ҳатто аниқ шахслар ҳам мажоз ўрнида келиши мумкин. Мажоз асарнинг бадий-эстетик қимматини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Мажоз турли жанрларда, айниқса, масал, рамз, ривоят, ҳажв ва бошқа жанрларда кенг қўлланилади²⁷. Бадий адабиётни мажозсиз тасаввур этиш мумкин эмас. “Калила ва Димна“ мажозий характерда яратилган асарларнинг энг мукамал намуналаридан бири ҳисобланади. Бу асардаги ҳар бир қахрамон, деталь ўзига хос мажозий юк олган.

“Калила ва Димна“ замон эҳтиёжи янглиғ яратилган бўлиб, ўз даврининг ҳақиқий манзараси юксак бадий маҳорат билан акс эттирилган. Асардаги асосий воқеа-ҳодисалар инсон ҳаётининг турли жаҳҳаларини қамраб олган. Бу воқеа-ҳодисалар бир неча бобларда ҳикоя ичида ҳикоя шаклида масаллар, ривоятлар, турли хил ҳикматли сўзлар орқали баён этилади. Хусусан, золим шоҳлар ва уларнинг разилликлари, нопок вазиру амалдорларнинг қинғир ишлари; қотил ва йиртқич табиатли одамлар ва уларнинг шафқатсизликлари “Шер ва Ҳўкиз” бобида бадий юксаклик билан тасвирланган. Ушбу бобдаги воқеа ҳодисалар Димна отли, ўзини ўта

²⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-том. 383-бет.

донишманд ҳисобловчи, ақли ва тадбиркорлиги билан шоҳ кўнглини олиб, юксак мансабга эришмоқчи бўлган бир шоҳол образи билан боғлиқ. Бу образ мисолида улуг мартаба, обрў-эътибор йўлида ҳеч нарсадан қайтмайдиган маккор, манфур кишилар тимсоли гавдаланган. Димнанинг асл қиёфаси энг яқин дўсти Калила тушунтирган ўринли огоҳлантиришларга қарата айтилган жавобида намоён бўлади: “Ит қурук суякдан севингани каби оддий мартабадаги одам ҳам унга берилган кичик бир инъомдан севинади ва шу билан қаноатланади. Олийжаноб иродали одамларни эса кичик нарсалар қониқтирмайди... Донишманд одамлар истаса ёлгонни чинга, чинни ёлгонга айлантира оладилар”.²⁸ Охир-оқибат, ҳасадгўй Димна ўз мақсадига эришди: унинг дўстга вафосизлиги, хоинлиги, аҳилликни адоват билан қоралаши, турли хил бўхтонлари натижасида шер ва унинг энг донишманд, тадбирли амалдори – ҳўкиз ўртасига душманлик, адоват уруғи сочилиб бегуноҳ ва оққўнгил ҳўкизнинг ўлдирилиши билан яқун топади. Димна қанчалар ўз ишининг устаси, ақл ва тадбир эгаси бўлмасин, қилмишлари бирма- бир очилиб, айбига яраша жазосини олиш воқелари Димна ишининг текширилиши бобида баён этилади. Ҳа, ҳақиқат эгилади, букилади, лекин синмайди. Ҳар нарсани инсонийликдан устун қўйган, ўз виждонини бу дунёнинг вақтинчалик арзимас онлари учун сотган ҳар бир кимсанинг охири вой бўлиши ушбу бобларда ўз аксини топган эди.

Асарни ўқиган киши инсон қалбининг кўп қирралилиги, зиддият ва мураккабликларга бой эканлигини, ҳаётда ҳар нарсадан устун бўлган инсонийликнинг кадр-қимматини тушунади. Хусусан, ақл-идрок, инсоф ва одилликни ҳар нарсадан устун қўядиган, шулар ёрдами билан энг оғир ва мураккаб масалаларни ҳам ҳал қила оладиган, ҳатто барча учун жуда хавфли ва ғоят зўр душманни ҳам енга оладиган вафодор ва садоқатли кишиларнинг мажозий образи “Бойқуш ва Қарға”, “Билор ва Бараҳман” бобларида кўрсатиб берилган. Жумладан, “Билор ва Бараҳман” бобидаги подшоҳнинг вазири бўлган Бараҳман ўз ақл-заковати, шижоати, саховати, узоқни кўра билиш, вазиятни тўғри баҳолай олиш қобилияти билан улкан бир мамлакатни парокандалиқдан, халқни даҳшатли фалокатдан сақлаб қолади. Бойқуш ва Қарға бобида эса бойқушлар тақдири орқали инсонни ракиби ташқи кўринишидан юмшоқ феълли, марҳаматли ва тавозеъли бўлмасин, унинг найрангига учмаслик ва алданмаслик, доимо хушёр ва огоҳ бўлишга чорлайди.

²⁸ Калила ва Димна. 89-бет.

Бундан ташқари, асарда келтирилган ҳар бир масал ва ҳикоятлар ўзининг чуқур мазмундорлиги ва ҳаётийлиги билан кишини лол қолдиради. Мисол учун, "Подшоҳ ва унинг лочин" ҳақидаги масалда барча ишни бажаришда шошилмасликка, охирини ўйламасдан йўл тутмасликка, шошилиб бажарилган ишнинг охири фақат пушаймонлик бўлиши тасвирланган. Асарни безайдиган энг муҳим фазилатлардан яна бири унда мажозий қаҳрамонлар тилидан айтилган чуқур мантикий асосга эга, кинояомуз ёки ҳикматли ибора ва ўғитларнинг кўплигидир. Самимий дўстлар, уларнинг садоқати ва биродарликлари, ҳар ишда илмга суяниш ҳақидаги "Қарға, сичқон, кабутар, тошбақа ва оху" масалида сичқон тилидан: "Асл бойлик – кўзи тўқлик ва қаноатдир! Бахт-саодатнинг негизи ҳам шудир", деб айтилган фикрлар инсонни чуқур ўйга тортади. Ахир инсон ўз нафсини бошқара олиши ва бориға қаноат қилиб яшашнинг ўзи ҳам бир катта жасоратдир. Мана шундай кишилар тасвири "Шаҳзода ва унинг дўстлари" бобида келтирилади. Ҳикояда ҳар нарса одамнинг ўч ҳаракати ва интилишига, ақли ва идрокига, меҳнати ва қобилиятига боғлиқдир, деган ғоя ҳам илгари сурилади.

Хулоса қилиб айтганда, "Калила ва Димна" асаридаги бир-бирини қарама-қарши куч ва омилларнинг тўқнашуви ўқувчида кучли ҳаяжон, катта қизиқиш уйғотади. Бу улкан бадийий обида инсонни изчил, саботли ва матонатли бўлишга, ҳар қандай оғир ва мураккаб шароитларда ҳам саросимага тушмасликка, ақл билан тадбир кўриб ғалаба қозонишни чақиради. У адолат ва эзгуликни тарғиб қилади. Ёвузлик, ёмонликдан сақланишга даъват этади. Яхшилик ва инсоний фазилатларга, улуғвор интилишларга чорлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Калила ва Димна.-Т.: Адабиёт ва санъат, 1977

MUNDARIJA

TILSHUNOSLIK MASALALARI

Soʻz boshi.....	3
M. QURBANOVA. Oʻzbek bolalar nutqida lingvistik presuppozitsiyaning ifodalanishi.....	4
B. JOʻRAYEVA, A. AMINOVA. Parranda “LMG”i asosida yaratilgan xalq maqollarining semantik xususiyatlari.....	7
B. UMURQULOV, A. HAMIDOV. Epitet nasriy nutqning muhim tasviriy vositasi.....	9
B. JOʻRAYEVA, A. AMINOVA. Oʻzbek xalq maqollari tilidagi arabiy leksikaning mavzuiy tasnifi.....	12
N. UMAROVA. Navoiy gʻazallarida qoʻllangan nabotot va hayvonot nomlari.....	17
F. IBRAGIMOVA, O. UMAROVA. Yoshlarning tildan foydalanish odobi toʻgʻrisida.....	19
M. HAKIMOVA. Abstrakt soʻzlarda nolisoniy voqelikning aks etishi....	22
I. ABDULLAYEVA. Sharqda balogʻat ilmi va notiqlik sanʼati xususiyatlari.....	24
S. ABDUNABIYEV. Arab tilshunosligida atamashunoslik.....	27
N. ABDURAHMONOVA. Oʻzbekcha matnlarni morfologik tahlil qiluvchi avtomatik analizatorni yaratish masalalari.....	30
N. ABDURAHMONOVA, Z. XOLIQOVA. Oʻzbek tilini oʻrgatish dasturini yaratishga doir ayrim masalalar xususida.....	34
X. AHMADALIYEVA. The implementing innovative pedagogical techniques in education process.....	37
H. ALLAMBERGENOV. “Irq” bitigidagi ot timsoli haqida ayrim mulohazalar.....	39

S. ZUPAROVA. Из истории мужских и женских английских личных имен.....	42
S. ZUPAROVA. Об истории формирования английских имен.....	44
R. IBRAGIMOVA. Chet tilini o'qitishda o'zaro tahrir qilish usuli.....	47
O. ISMUHAMEDOVA. The peculiarities of using communicative activity approach in teaching modern english.....	51
G. PRENOVA. The ways of learning english language easy and fast.....	54
A. SOBIROV, Z. ABDULLAYEVA. Tadqiqotlarda ziddiyat masalasiga doir.....	56
M. TURAYEVA. Jamiyat taraqqiyotida muomala madaniyatining o'mi.....	60
M. TURAYEVA. Pedagogning umumiy va kasbiy madaniyati.....	63
SH. YUNUSOVA. Shiorlar reklama e'loni sifatida.....	65
N. ABULKASIMOVA. Социальные аспекты использования эвфемизмов в английском языке.....	68
N. ESHIMBETOVA, R. RZAEVA. Sociocultural aspects of ethnographic words in the poetry of Ajiniyaz.....	72
S. ABDUHAKIMOVA. O'zbek tilida "iztirob chekish" ma'nosi ostida birlashuvchi leksemalar sinonimiyasi.....	75
G. RASULOVA. "Soch" leksemasi xususida.....	78
G. BABAYEVA, A. MAMBETNIYAZOVA. Ajratilgan to'ldiruvchili bo'laklarning perifraz vosita sifatida qo'llanilishi.....	81
J. SIDDIQOV, I. SATTIBOYEV. Idiom – "an expression peculiar to a language, not readily analyzable from its grammatical construction or from the meaning of its component parts ..."	84
M. PALO'ANOVA, A. MAMBETNIYAZOVA. Chet tili darsida "muammoli o'qitish" texnologiyasining qo'llanish afzalliklari.....	89
J. SIDDIQOV, D. SOBIROVA. Tarjimashunoslikning dolzarb masalalari.....	91

J. ABDUG'ANIYEVA. Основные переводческие трансформации.....	94
G. ISKANDAROVA. Bola ifodalarining grammatik tuzilishi xususida.....	97
G. TOIROVA. Fatika – o'zbek tilshunosligida o'z tadqiqini kutayotgan muhim masala.....	100
D. TOSHEVA. Zoonim komponentli maqollarda “yosh” kontsepti.....	102
M. XOLMURADOVA. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida qo'llangan o'zlashma so'zlar.....	106
A. YULDASHEV. Kognitiv tilshunoslikda kontsept va tushuncha munosabati.....	108
D. ANDANIYOZOVA. “Sohibqiron” dramasiida onomastik birliklarning qo'llanilishi.....	112
G. KDIRBAYEVA. “Man”-“Adam” kontseptosferasini lingvokognitiv yondashuv asosida o'rganish.....	119
G. KDIRBAYEVA, P. BAKIYEVA. The importance of language awareness activities.....	126
G. KDIRBAYEVA, D. UTEPOVA. Valuation of the aspect of semantics.....	128
N.TO'XTAXODJAYEVA. Lingvokulturologiyaning tayanch tushunchalari.....	132
M. USMONOVA. Soddalashishga uchragan so'zlar.....	134
G. DUSHAYEVA. “Gul” leksemasi va qizlar ismlari.....	138
SH. SIDDIQOVA. Hajviy asarlarda o'zga gaplardan foydalanish.....	141
N. XALBEKOVA. Turkologiyada iboralarning o'rganilishi.....	144
N. MURODOV, SH. OMONTURDIYEVA. “Sangloh”dagi “butmoq” fe'li haqida.....	148
M. SHAMSIYEVA. Ona tilini o'qitish bo'yicha ayrim mulohazalar.....	152
SH. QURBONOVA. “Abwab tasrif manzuma” asari arab tili sintaksisini o'rganishda muhim manba.....	155

S. ABDURAHMONOVA. Avtomatik tahrir dasturlarini yaratish masalasi.....	158
D. ALIQULOVA. Fe'lning ma'no turlari mavzusining darsliklarda berilishi.....	160
N. ASHUROVA. Boris tizimi bo'yicha matn tahlili.....	163
M. DO'STMURODOV. Qadimgi manbalarlarda "tomon" tushunchasi va uni ifodalovchi leksik birliklar.....	165
Q. MAMRALIYEV. Ravish yasashida muvozanat va munosabat.....	168
O. NURULLAYEVA. Avtomatik tarjima: yutuq va cheklangan tomonlari.....	174
A. TURDIALIYEV. Morfem tahlilda tarixiylik va zamonaviylik.....	176
SH. XUDOYNAZAROVA. Matn idroki va talqini yuzasidan mulohazalar.....	178
M. ELBOBOYEVA. O'zbek tilida ravish yasalishi haqida.....	182
Z. O'RINOVA. Sifat darajalari taraqqiyoti.....	185
M. JO'RAEV. "The classification of the sentences and their translation ways" types of sentences according to their structure.....	188
N. NASRULLAYEV. Morfema va uning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi.....	191
S. QO'LDASHEVA. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida muallifning so'z qo'llash mahorati.....	194
D. TOSHPO'LATOVA. "X" va "H" fonemalariga diffirensial yondashuv.....	198
M. ABDULLAYEVA. Yozuv va madaniyat.....	203
X. AKROMOVA. Tarjimada tafakkur.....	207
J. BO'RIBOYEV. Badiiy tarjima jarayoni va tarjimashunos.....	210
Z. NUMONOVA. Til va jamiyat.....	213

Z. SAIDNASIMOVA. Ingliz tilining dunyoda tutgan o'rnini va boshqa tillar bilan ta'sir jihati.....	217
M. HAYITOVA. Yevropaning o'lib borayotgan tillari va ularni asrash tajribasi.....	220
M. JO'RAEVA. Son turkumining ayrim muammoli masalalari xususida.....	223
X. MAMIROVA. Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasash muammolari.....	226
M. BERDIBEKOVA. Ingliz tilini o'rgatish masalasiga doir.....	231
M. ABDULLAJONOVA. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarning tilimiz taraqqiyotiga salbiy ta'siri.....	233

ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI

A. NASIROV. Ruhiyat talqinida tush tasvirining o'rnini.....	237
B. QURBONOVA. Sirojiddin Sayyid asarlarida metaforalar.....	240
M. ABDULLAYEVA. "Shajarai tarokima" va "O'g'uznoma"da xalq og'zaki ijodi an'analari.....	243
S. NORMAMATOV. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud til va imlo masalalari xususida.....	245
M. OTAJONOVA. Mifologik arxetiplar.....	249
Q. PARDAEV, SH. AMONOV. "Har millat o'z tili ila faxr etar....."	254
N. MIRSAGATOVA, L. HAMIDOVA. Qo'lyozmalarni varaqlaganda.....	257
H. NUSRATOVA. Bolalar shoiri Safar Barno ijodida istiqloq madhi.....	259
M. QURBANİYAZOV. "Qisasi Rabg'uziy" va Tavrot.....	264
D. MALIKOVA. Turkiy xalqlar ertaklarida an'anaviylikning ayrim xususiyatlari.....	267

O. TO'RAQULOVA. Adabiyot va ma'naviy barkamollik.....	270
N. ALLAMBERGENOVA. "Alpomish"ning qoraqalpoq versiyalari.....	273
U. MAHMUDOV. Eron va Xorazm adabiy aloqalari tarixidan: Anvariyy Abivardiyning Xorazmga "safari".....	276
N. RAHMATULLAYEV. Alisher Navoiyning forsiy she'riyati.....	279
M. RO'ZIYEVA. Ko'k rangning epik qahramon, makon va joy nomlari sifatida kelishi.....	282
A. SOBIROV. Badiiy matnda parodiya – uslubiy vosita sifatida.....	286
Z. USMONOVA. Stiven Kingning «O'lik mintaqa» (The Dead Zone) asarida zamon qahramoni.....	292
Z. USMONOVA, S. SAYITMURODOVA. Stiven King asarlarining badiiy xususiyatlari.....	295
S. BOZOROVA. Tarixiy hikoyalarda detallardan foydalanish mahorati.....	298
R. UMURZAKOV. F. M. Dostoevskiy va T. Murod psixologik tasvir usullarining tipologik xususiyatlari.....	301
S. BOZOROVA. Hikoyalarda milliy ozodlik harakatining aks ettirilishi.....	304
Y. ESHMATOVA. Gallyutsinatsiya, tush, psixologik timsol – ruhiy tasvir vositasi.....	309
U. QOBLOV. Nubuvvat va badiiy talqin haqida.....	312
SH. RAHMONOVA. Aruz vaznini istifoda etishdagi an'anaviylik tarixi.....	314
N. SHAROPOVA. O'lmas satrlarda o'lmas mavzular.....	317
N. JO'RAQO'ZIYEV. Qadimgi turk-budda adabiyoti namunalari turkiy mifologiyaning manbasi sifatida.....	320
SH. NAZAROVA. Xalq dostonlarida ijtimoiy-maishiy mazmundagi shartlar.....	323
F. MUSAYEVA. "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi".....	328

SH. IMOMNAZAROVA, L. XUDOYQULOVA. O'zbek folklorida xalq o'lanlari.....	332
M. JO'RAYEVA. O'zbek xalq topishmoqlari genezisida ot kultiga doir mulohazalar.....	336
G. RAHMATOVA. "Devonu lug'atit-turk" asarida keltirilgan lirik she'rlar.....	339
P. KENJAEVA. Turk hikoyalari da ayol tasvirining in'ikosi.....	341
R. TO'LABOYEVA. Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asarida bola qalbi olami tasviri.....	345
SH. MAJIDOVA. "Avesto" da suv kulti bilan bog'liq miflar va mifologik obrazlar.....	348
S. BOZOROV. Iboralarda nikoh bilan bog'liq urf-odatlarining aks etishi.....	352
N. SHUKUROVA. Navoiy an'analari Uvaysiy muxammaslarida.....	354
D. XUDOYAROVA. Shukur Xolmirzayev – essenavis.....	357
A. HASANOV. "Lolazor" romanida ramziylik.....	359
Z. QUDANOVA. A. Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» dostonida diniy-mahrifiy g'oyalar badiiy talqini.....	361
G. NORBOYEVA. Epigrafning badiiy asardagi vazifasi ("Isyon va itoat" romani misolida).....	363
M. NORMAMATOV. Frans Kafka ijodi va jahon romanchilik taraqqiyoti haqida.....	366
F. NORIMBOYEVA. Abdulla Qahhor va Anton Chexov hikoyalari da shakliy-uslubiy o'xshashliklar.....	369
SH. JALILOV. Suyun Qorayevning "Chingiz Aytmatov – buyuk yozuvchi, kamtarin inson, sodiq do'st" kitobi xususida.....	373
H. KURIYOZOVA. "Badoe' ul-bidoya" g'azallarida talmeh san'ati.....	376
S. YOQUBOVA. Ko'ngil lavhiga naqshlanmagan qo'shiqlar.....	379
G. SAYIDOVA. "Lison ut-tayr" dostoni poetikasi.....	383
T. BEKMURODOV. Usmon Azim she'riyatining badiiy jozibasida.....	387

J. ERNAZAROV. O'Imas Umarbekovning "Oqsoqol" hikoyasida unsiz dard ovozi.....	391
Q. MAMIRALIYEV. Shavkat Rahmon ijodiga bir nazar.....	393
K. EGAMQULOV. Chexov hikoyalari da inson qadri va insoniylik masalasi.....	396
M. ALIMOVA. Abdulla Oripov lirikasida kuz manzaralari.....	399
N. KARIMOVA. Asardan asrga tashlangan nazar.....	402
N. NASRULLAYEV. Fidoyi inson va ilm-u ma'rifat homiysi.....	405
B. KOMILOV. Alisher Navoiy g'azallarida tahlilning ahamiyati.....	407
B. HAMRAYEV. Boburshunoslik: kecha va bugun.....	410
O. MUHIDDINOV. Yaxshilarning hayratiga sazovor asar.....	413
B. BOYZOQOV. O'rta asr o'zbek mumtoz badiiy adabiyotida gumanistik g'oyalar taraqqiyoti.....	416
Z. OLIMOVA. O'zbek xalq marosim folklori.....	419
M. BOZOROVA. "Shahinam, o mening Shahinam".....	424
M. HAYDAROV. "Kalila va Dimna" da majoz.....	426

